



UDK: 301.085:15(045)

Nilufar ABDINAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: nilufarabdunazarova765@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL NORMS FOR THE FORMATION OF POSITIVE BEHAVIOR IN CHILDREN IN THE HOUSE OF MERCY

Annotation

The article studies the socio-psychological norms for the formation of positive behavior among residents of a charity home. The theoretical and practical aspects of the problem are described, as well as the scientific research carried out by the author in this direction. Research conducted by the author shows that the study of this problem is still very relevant today.

Key words: society, family, charity home, pupil, personality, parent, child, behavior.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НОРМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗИТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ВОСПИТАННИКОВ В ДОМЕ МИЛОСЕРДИЯ

Аннотация

В статье изучены социально-психологические нормы формирования позитивного поведения у воспитанников дома милосердия. Рассказывается о теоретическом и практическом аспектах проблемы, а также о научных исследованиях, проведенных автором в этом направлении. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы весьма актуально и сегодня.

Ключевые слова: общество, семья, дом милосердия, воспитанник, личность, родитель, ребенок, поведение.

MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARIDA IJOBIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MEYORLARI

Annotatsiya

Maqolada mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida ijobiy xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik meyorlari o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, mehribonlik uyi, tarbiyalanuvchi, shaxs, ota-ona, farzand, xulq-atvor.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach o'sib kelayotgan yosh avlodning o'zining o'zi anglashiga, har tomonlama barkamol bo'lib rivojlanishiga katta e'tibor qaralilib kelinmoqda. Buni birgina o'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratilayotganidan ham his etish mumkin. Ayniqsa, yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari – "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilayotganligi diqqatga sazovordir.

Shaxs kamolotida mehribonlik uylarining ham ahamiyati cheksizdir. Ma'lumki, bolalar mehribonlik uylariga ota-onalari vafot etgan, ular ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan, ularning ota-onalik huquqlari cheklangan, ota-onalar huquqiy layoqatsiz deb e'tirof etilgan, ota-onalar kasal bo'lgan, ota-onalar uzoq muddat bo'lmagan, ota-onalar bolalarni tarbiyalashdan yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bosh tortgan, shu jumladan ota-onalar o'z bolalarini tarbiya muassasalaridan, davolash muassasalaridan,

aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va shunga o'xshash muassasalardan olishni rad etgan hollarda, shuningdek bolalar ota-onalarining qarovisiz qolgan boshqa hollarda qabul qilinadi. Mehribonlik uylarida yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilinadi, ularning sog'lom rivojlanishi, davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida yordam va g'amxo'rligiga ega bo'lgan huquqlarini amalga oshirilishi ta'minlanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, aholi va yoshlar orasida sog'lom oila qurishga ma'suliyat bilan yondashishni targ'ib qilish, oilaviy qadriyat-larga ma'naviy-ahloqiy munosabatni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy moslashuvi va ularni oilaviy hayotga tayyorlash davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. O'tgan davr mobaynida yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda davlat va ijtimoiy institutlar hamkorligining pedagogik tizimini takomillashtirish, ijtimoiy soha xodimlarining kasbiy kompetentligini oshirish, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun mo'ljallangan muassasalardagi tarbiya tizimini modernizatsiya-yalash ishlari amalga oshirilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yangilanayotgan O'zbekiston dunyo hamjamiyatida dadil qadam tashlab borayotgan bir davrda barcha ichki muammolar bilan bir

qatorda har xil sabablarga ko'ra mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga ham keng yo'l ochildi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o'ziga xos individual psixologik xususiyatlari – temperament, xarakter va qobiliyatlar, shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonlari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar muammosini tadqiq qilishda barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilganligini kuzatish mumkin. Bu borada mamlakatimizda muammoning sotsiologik, pedagogik hamda psixologik jihatlarini E.G.G'ozdiyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, B.R.Qodirov, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, D.G.Muhamedova, R.S.Samarov, B.M.Umarov, D.SH.Barotova, G.To'laganova, D.R.Abdumajidova, F.F.Rasulova, U.D.Qodirov, B.Xodjajev, G.Yusupova, M.Utepbeganov, M.Bekmurodov, O.Musurmonova, E.To'xtamurodov, N.Egamberdiyeva, G.Xrulsova, D.Madjidova, N.Maxmudova, M.Yaxyayevalar va boshqalar tomonidan tadqiq etilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

O'.M.Asqarova ilmiy izlanishlarida mehribonlik uyi o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari o'rganilgan. Uning ta'kidlashicha, mehribonlik uyi uchun zarur bo'lgan pedagogik, didaktik hamda psixologik omillardan foydalanishning shakl va usullari maqsadli amalga oshirilsa, pedagog-tarbiyachilar ishlari tarbiyalanuvchilar ruhiga kirish, botiniy tuyg'ularni o'rganish va ularga samarali tarbiyaviy ta'sir etish mahoratlarini oshirgan holda yo'naltirilsa, mehribonlik yuvining pedagog-tarbiyachilari va rahbariyati mahalla, otaliq tashkilot va korxonalarini hamda madaniy-ma'rifiy muassasalar bilan yaqin aloqalar orqali muttasil tashkil qilinsa samarali natijalarga erishiladi. Eng muhimi, o'smirlar milliy g'ururini tarbiyalash asosida ularni ijtimoiy hayotga, oilaviy turmushga, jamiyatning faol ishtirokchisi sifatida yangi O'zbekistonning munosib farzandi va uni rivojlantirishga xizmat qiladigan barkamol inson qilib tarbiyalash birinchi navbatdagi vazifa ekanligini ta'kidlaydi [1; 48-b].

I.O.Haydarovning ilmiy izlanishlarida "Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsining individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlari" tadqiq etilganligini ko'ramiz. Muallif tadqiqotlarida mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar hayoti, yashash sharoitlari, turmush tarzining o'ziga xosligi – ularning individual psixologik va ijtimoiy xususiyatlari: xarakter xislatlari, ma'naviy-axloqiy jabhasi,

hissiy-emotsional va irodaviy holatlariga ularning yashash sharoitiga ijtimoiy muhit o'z ta'sirini ko'rsatishi asoslab berilgan. Ularda psixik rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmaslik va tarbiyaviy sharoitlarning yetarli emasligi tarbiyalanuvchilarda tajovuzkorlik, ishonchsizlik, o'zini chetga olish, mustaqil-likning yetishmasligi, beg'amlik va bir qancha salbiy xislatlar ularning xarakteridan chuqur o'rin olishi ko'rsatib o'tilgan. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari oilada tarbiyalanayotgan tengdoshlaridan axloqiy meyorlarga xos bilimlarni egallashida ham keskin farq qilishini ta'kidlaydi. Tarbiyalanuvchilar faqatgina Mehribonlik uyida zaruriy hisoblangan axloqiy meyorlar bilan chegaralanib qolishi kuzatilgan. Katta oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning yetishmasligi, bu haqidagi bilimlarning yo'qligi kelajakda mustaqil oilaviy hayotga yoki oila qurishga bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi muqarrarligi ko'rsatib o'tilgan [5; 46-b].

Tahlil va natijalar. Biz o'z tadqiqotimiz davomida mamlakatimiz etnopsixologik hamda ijtimoiy muhitini inobatga olgan holda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining xulq-atvori shakllanishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy psixologik omillarni ilmiy-nazariy tadqiq etish va shu orqali tajriba guruhi sifatida tanlab olingan sinalluvchilardagi shaxsiy ijobiy xulq-atvorni ijtimoiy-psixologik treninglar yordamida takomil-lashtirish va salbiy xulq-atvori meyoriy darajadan yuqori bo'lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida psixologik korreksiya ishlarini kun tartibiga kiritish hamda belgilangan tartibda olib borishni maqsad qilib oldik.

Oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot ishimizning vazifalaridan kelib chiqib mamlakatimiz muhitiga modifikatsiya qilingan validligi yuqori metodikalar tanlab olindi. Ushbu metodikalar tajriba guruhi (TG) sifatida "Yagona oilalarga birlashtirilgan bolalar"dan iborat 67 nafar sinalluvchilar, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan iborat 87 nafar sinalluvchilar hamda nazorat guruhidan (NG) iborat 63 nafar "SOS O'zbekiston bolalar mahallalari tarbiyalanuvchilari"da o'tkazildi.

Tajriba guruhi sinalluvchilari hamda nazorat guruhi sinalluvchilarining ijtimoiy psixologik moslashganligini aniqlash maqsadida IPM so'rovnomasidan foydalanildi va o'rtacha natijalar dinamikasini tajriba so'ngida solishtirish uchun Studentning t-mezonidan foydalanildi va quyidagilar aniqlandi. (1-jadval)

1-jadval

Sinalluvchilarning ijtimoiy psixologik moslashganlik darajasini aniqlash yuzasidan TA hamda TSda olingan natijalarning dinamikasi va ishonchlikligi ko'rsatkichi (Studentning t-mezoni)

Shkalalar:	Tajriba guruhi (Mehribonlik uyi) n=87			Nazorat guruhi (SOS) n=63			Tajriba guruhi (YAOBB) n=67			O'sish natijalari		p	
	TA \bar{X}	TS \bar{X}	t	TA \bar{X}	TS \bar{X}	t	TA \bar{X}	TS \bar{X}	t	farq	%	TG	NG
Moslashganlik	2,8	4,8	3,34***	4,9	5	4,26***	2,42	2,9	1,98*	2	33,3	<0,001	<0,001
Soxtalik	2,64	2,42	2,63**	4,34	4,43	2,98**	2,57	2,63	1,45	2,42	28,3	<0,01	<0,01
O'z-o'zini qab.qil.	2,5	4,6	2,43**	4,23	4,32	4,42***	2,43	2,44	1,26	2,1	36,7	<0,01	<0,001
Boshqalni qa.qil	2,49	4,72	3,32***	4,72	4,81	3,45***	2,32	3,42	1,76	2,23	40,0	<0,001	<0,001
Emotsional kom	2,53	3,63	3,37***	4,42	4,44	3,56***	2,44	2,65	1,97*	1,1	35,0	<0,001	<0,001
Ichki nazorat	2,48	3,87	3,31***	3,25	3,28	2,36**	2,42	2,56	2,56**	1,39		<0,001	<0,001
Ustuvorlik	3,23	3,45	3,42***	2,89	2,67	2,23**	4,44	4,62	2,23**	0,22		<0,001	<0,001
Eskapizm	3,52	3,64	3,51***	3,45	3,52	1,89*	3,26	3,64	2,34**	0,12		<0,001	<0,001

Izoh: *p≤0.05; **p≤0.01; ***p≤0.001

Birinchi moslashganlik shkalasi yuzasidan quyidagi natijalar quyidagi ko'rinishda ekanligi aniqlandi: tajriba guruhi sifatida tanlab olingan "Yagona oilalarga birlashtirilgan bolalar" jamoasidan iborat n₁ = 67 sinalluvchilarda

TA o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,42$ ni tashkil qilgan bo'lsa, TSda o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,9$ ni tashkil etishi aniqlandi; nazorat guruhi sifatida tanlab olingan SOS

tarbiyalanuvchilaridan iborat $n_2 = 63$ sinaluvchilarda TA o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 4,9$ ni tashkil qilgan bo'lsa, TSda $\bar{X} = 5$ ni tashkil etdi; tajriba guruhi sifatida tanlab olingan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan iborat $n_3 = 87$ sinaluvchilarda TAda o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,8$ ni tashkil qilgan bo'lsa, olib borilgan psixologik amaliyotdan so'ng o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 4,8$ ni tashkil etdi. Olingan o'rtacha natijalar ishonchliligi $t = 3,34^{***}$ ($p \leq 0,001$)ga tengligi aniqlandi. O'rtacha arifmetik qiymatdagi ijobiy dinamika 2 (33,3%)ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi sinaluvchilarida ijtimoiy psixologik moslashganlik darajasi ijobiy takomillashgan hamda aksariyat qismida ijtimoiy-psixologik moslashish jarayoni yaxshilangan.

“Soxtalik” shkalasi – tajriba guruhida $n_3 = 87$ sinaluvchilarda tajribadan oldin o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,64$ ni tashkil qilgan bo'lsa, TSda arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,42$ ni, o'rtadagi farq 2,42 ga pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Olingan o'rtacha natijalar ishonchliligi $t = 2,63^{**}$ ($p \leq 0,01$)ga tengligi aniqlandi. Bu natija o'z o'rnida sinaluvchilarning jamiyatga moslashish hamda shaxslararo munosabatlar jarayonida o'z xarakter xususiyatlarini soxta ko'rsatishga bo'lgan moyillik darajasining pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

“O'z-o'zini qabul qilish” shkalasi – yuzasidan $n_3 = 87$ guruh sinaluvchilarida tajribadan oldin o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,5$ ni, tajriba so'ngida esa $\bar{X} = 4,6$ ni tashkil etib, o'rtadagi ijobiy o'zgarish o'rtacha 2,1 ga, olingan natijalar ahamiyatliligi $t = 4,43^{**}$ ($p \leq 0,01$) ni tashkil etishi tadqiqot natijasida ochib berildi. Bundan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi sinaluvchilari o'z ichki motivatsiyasi va maqsadlari o'rtasida mutanosiblik paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

“Boshqalarni qabul qilish” shkalasi – yuzasidan $n_3 = 87$ guruh sinaluvchilarida tajribadan oldin $\bar{X} = 2,49$ ni, tajriba so'ngida $\bar{X} = 4,72$ ni tashkil etib, o'rtadagi ijobiy o'zgarish 2,23 ga, olingan natijalar ahamiyatliligi $t = 3,32^{**}$ ($p \leq 0,01$) ni tashkil etishi tadqiqot natijasida aniqlandi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, sinaluvchilarning ijtimoiylashuvi hamda boshqa shaxslar bilan munosabatida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarga yondashish fazilati takomillashganligini dalillandi.

“Emotsional komfort” shkalasi – yuzasidan TG sinaluvchilarida tajribadan oldin o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,53$ ni, tajribadan keyin $\bar{X} = 3,63$ ni tashkil etib, o'rtadagi ijobiy o'zgarish 1,1 ga, olingan natijalar ahamiyatliligi $t = 3,37^{***}$ ($p \leq 0,001$) ni tashkil etishi aniqlandi. Bu o'z o'rnida sinaluvchilarning ijtimoiy muhitda o'zini komfort his qilish xususiyatining takomillashganligidan dalolatdir.

“Ichki nazorat” shkalasi – yuzasidan tajriba guruhi sinaluvchilarida tajribadan oldin o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 2,48$ ni, TSda $\bar{X} = 3,87$ ni tashkil etib, o'rtadagi ijobiy o'zgarish 1,39 ga, olingan natijalar ahamiyatliligi $t = 3,31^{***}$ ($p \leq 0,001$) ni tashkil etishi aniqlandi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarning aksariyat qismida o'z-o'zini ichki nazorat qilish xususiyati me'yoriy darajada shakllangan. Ushbu shaxsiy xususiyat ularning shaxslararo munosabatida qiyinchilik tug'dirmaydi.

“Ustuvorlik” shkalasi – tajribadan oldin o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 3,23$ ni, tajribadan keyin esa $\bar{X} = 3,45$ ni tashkil etib, o'rtadagi ijobiy o'zgarish dinamikasi 0,22 ga, olingan natijalar ahamiyatliligi $t = 3,37^{***}$ ($p \leq 0,001$) ni tashkil etishi aniqlandi. Sinaluvchilarda o'z-o'ziga baho berish xususiyati me'yoriy darajaga intilganligini ko'rishimiz mumkin.

“Eskapizm” shkalasi – yuzasidan TAda o'rtacha arifmetik qiymat $\bar{X} = 3,52$, TSda $\bar{X} = 3,64$ ni hamda ishonchliligi $t = 3,51^{***}$ ($p \leq 0,001$) tashkil etishi aniqlandi. Ushbu olingan natija sinaluvchilarda tashqi muammolardan qochish, ya'ni nizolanuvchanlik sifati me'yorlashganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu xususiyatlarning takomillashganligi tajriba guruhi sifatida tanlab olingan sinaluvchilarning ijtimoiy muhitga ijobiy moslashishi jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Olingan natijalarning me'yoriy darajaga qarab intilishi biz tomonimizdan ularning kun tartibiga kiritilib belgilangan tartibda olib borilgan ijtimoiy-psixologik trening hamda psixokorreksion mashg'ulotlarning ijobiy samarasi deb baholashimiz uchun asos bo'ladi.

Xulosa. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining xulq-atvori shakllanishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy psixologik omillarni o'rganib, quyidagicha xulosaga keldik:

1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik moslashishidagi differensial farqlar o'z-o'zini baholash strukturasi (real “Men” va ideal “Men”)dagi jiddiy o'zaro nomuvofiqlik shaxsning ichki disgarmoniyasiga olib kelganligi tufayli o'zini o'zi qabul qilmaslik va tashqi nazoratning ustuvor namoyon bo'lishi bilan identiv ekanligi ko'rsatdi.

2. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxs yo'nalganligining namoyon bo'lishi nizolashuvchanlik, xavotirlanish hamda ijtimoiy muhitga moslashuvda xulq-atvorning beqarorligining konformlik, dadillik bilan integratsiyasi tufayli emotsional-irodaviy sifatlarning shakllanishiga identiv ekanligini dalilladi;

3. Ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglar asosida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining individual xususiyatlarini (maqsadga intiluvchanlik, mustaqillik, adekvatlik va o'z-o'zini nazorat qilish) takomillashtirish orqali ularning xulq-atvorini shakllantirish mumkinligi dalillandi,

4. To'plangan nazariy va amaliy natijalar tahlilining ko'rsatishicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvdagi salbiy xulq-atvoriga korreksion ta'sir etishda emotsional komfort, muvozanatlashgan tashqi-ichki nazoratni, boshqalarni hamda o'zini integral qabul qilish sifatlarni rivojlantirish muhim ekanligi tufayli konstruktiv xulqni shakllantirishning psixologik mexanizmlari ustuvor ekanligini dalilladi;

5. Xulq-atvorida og'ishish bo'lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxsiy xususiyat va yosh ko'rsatkichlari bo'yicha tahlili ularda dominantlikka moyillik, ijtimoiy moslashishga ehtiyojlarning past darajasi, shaxslararo munosabatlarda yuqori qo'zg'aluvchanlik, keragidan ortiq hissiy ta'sirlarga berilish, ichki nazoratning me'yordan pastligi hamda beparvoliklarning yagona oilalarga birlashtirilgan tarbiyalanuvchilarga nisbatan ko'proq kuzatilishi xarakterli ekanligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Asqarova O.M. Mehribonlik uyi o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari: ped. fanl.nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001, 48 b.
2. A'zamxo'jayeva A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi (Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari misolida): psixol. fan.nomz. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2002, 48 b.,

3. To'laganova G.K. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. –Toshkent: Universitet, 2005. –12 bet.
4. To'xtamurodov E. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari: Ped.fan.nom. ...diss. avtoreferati. – Toshkent, 1995. 151 b.
5. Haydarov I.O. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsning individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan.nomz....diss avtoreferati. – Toshkent, 1996. – 46 b.
6. Шипицына Л.М. Психология детей-сирот. – СПб.: Изд-во С.Петербур. ун-та, 2005. – С. 4



UDK:323/321:1(09) (584.4)

Muxiddin ABDURAXMONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b.,(PhD)
E-mail:Muxiddin1967@gmail.com

O'zMu professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVIDA VA SIYOSIY QARORLAR QABUL QILISHDA TARIXIY TAHLIL USLUBLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada siyosiy tahlilning tarixi, uning maqsadi, siyosiy muammolarni o'rganish va tadqiq qilishda foydalaniladigan tahlil uslublarining o'ziga xos xususiyatlari, davlatlarning ichki va tashqi siyosatini tahlil qilishda tarixiy tahlil uslubining roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy tahlil, tarixiy tizimli tahlil, siyosiy voqeelik, empirik uslublar, umumiy uslublar, xususiy uslublar.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ИСТОРИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ЭФФЕКТИВНОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ И ПРИНЯТИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье освещены история политического анализа, его цель, особенности методов анализа, используемых в изучении и исследовании политических проблем, роль метода исторического анализа при анализе внутренней и внешней политики государств.

Ключевые слова: Политический анализ, исторический системный анализ, политическая реалья, эмпирические методы, общие методы, частные методы.

FEATURES OF USING HISTORICAL ANALYSIS METHODS IN EFFECTIVE PUBLIC ADMINISTRATION AND POLITICAL DECISION MAKING

Annotation

This article highlights the history of political analysis, its purpose, features of analysis methods used in the study and research of political problems, the role of the method of historical analysis in analyzing the domestic and foreign policies of states.

Key words: Political analysis, historical system analysis, political realities, empirical methods, general methods, specific methods.

Kirish. Siyosiy voqea-hodisalarni tahlil qilishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj qadimdayoq paydo bo'lgan. Jumladan, bu jarayon jamiyat va davlatchilikning yuzaga kelish davridan siyosiy-huquqiy tasavvurlar paydo bo'lishigacha, davlat va huquq muammolariga falsafiy qarashlarning hamda axloqiy-siyosiy muammolarni bilishning o'ziga xos yo'nalishiga ajratilishi bilan yakunlanadi (Gomer, Arastu, Sitseron, Suqrot va boshq.). Shu davrda davlat hokimiyati va boshqaruvining tasnifi hamda dastlabki ijtimoiy-siyosiy tuzilish konsepsiyalari shakllangan. Fanga "siyosat", "davlat", "huquq", "axloq", "hokimiyat", "demokratiya" kabi atamalarning kiritilishi bilan zamonaviy siyosiy fanning konseptual mezon apparatiga asos solindi.

Siyosiy tahlilning asoschisi Yevropada uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri N.Makiavelli hisoblanib, u davlatning qudratli bo'lishi omillari va hukmdorning samarali boshqaruv tizimi kabi siyosiy muammolarni umumlashtirib tahlil qilgan [2].

Siyosiy voqealarni boshqarish, ilmiy asoslangan siyosiy qarorlarni qabul qilish ijtimoiy-siyosiy hayotni mukammal bilish va tahlil qilish jarayonini ko'zda tutadi. Siyosat – bu ijtimoiy guruhlar, sinflar, davlatlar o'rtasidagi hokimiyatga aloqador munosabatlardir. Siyosat doimo ko'p sonli kishilarning manfaatlariga aloqador bo'lganligi bois, uni tadqiq va tahlil qilish zaruriyati kelib chiqadi.

Hozirgi davrda siyosiy vaziyat, voqea-hodisalarni tahlil qilish uslublari ishlab chiqilgan bo'lib, unda tadqiqotchi muayyan siyosiy obyektning tuzilishi, unsurlari, alomatlari,

o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va tadqiq qiladi. Tahlil tadqiqot tarkibi bilan yagona ko'rinish kasb etganligi bois, o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Siyosiy tahlil uslublari ma'lumot beruvchi vazifasini ham o'tashi bois, ilmiy tafakkur va amaliy faoliyatda muhim o'rin tutadi. Siyosiy taraqqiyot tahlili siyosiy jarayonlarning turli bosqich va o'zaro qarama-qarshi tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Siyosiy tahlilning maqsadi siyosiy voqea-hodisa va jarayonlar, vaziyatning muayyan qismlari va unsurlarini bilish hamda ularning o'ziga xos mohiyatini o'rganishdan iborat. Jahonda turli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tizimlar mavjud hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotining polivariant tendensiyalarini o'sishi sharoitida siyosiy voqealarni tahlil qilishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Shu o'rinda tarixiy voqeelikni o'ziga moslab tahlil qilib siyosiy maqsadlarda foydalanish holatlari davlatlararo integratsiyaga salbiy ko'rsatishi shubhasiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "... Markaziy Osiyoning o'zaro bog'liqligining tarixiy-nazariy sabablari va omillari har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi..." o'zaro aloqalarning yangi bosqichda rivojlanishini ta'minlaydi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy tahlil uslublari turli tadqiqotchilar tomonidan bir necha turga bo'lingan. Jumladan, tarixiy, tizimli, taqqoslash, ijtimoiy-madaniy, psixotahlil turlarga bo'linishi siyosiy harakatlarning natijalarini tahlil qilish orqali siyosiy voqea-hodisalarning aloqalarini aniqlash va baholash imkonini berishi qayd qilingan.

Zamonaviy siyosat fanida ham siyosiy hayotni tahlil qilishga turli metodologik yondashuvlar mavjud. Jumladan, fransuz siyosatshunosi R.J. Shvarsenberg siyosat nazariyasida quyidagi turlarni ajratib ko'rsatgan: marksistik, tizimli, funksional, kibernetik. Ushbu bo'linish dunyoqarashlar asoslarining turlichaligiga qaramasdan, ijtimoiy holatga global yondashuv, ya'ni jamiyatni yaxlit organizm sifatida ko'rish hamda voqelikni obyektiv aks ettirishga yo'naltirilgan.

Siyosiy sohani tahlil qilishga tizimli yondashuvni dastlab amerikalik tadqiqotchi T. Parsons qo'llagan. U jamiyatni iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va integrativ (davlat) kabi avtonom qismlardan iborat murakkab tizim sifatida ko'rgan.

Boshqa bir amerikalik siyosatshunos D. Iston siyosatshunoslikda tizimli tahlil uchun konseptual apparatini ishlab chiqqan[2]. Siyosiy sohani tahlil qilishga tizimli yondashuv bir tomondan siyosiy hayotni kishilar xulq-atvorining yaxlit ko'rinishi, boshqa tomondan esa siyosatni uning muhiti bilan o'zaro harakatini tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasining siyosiy tahlil uslublari, jumladan tarixiy tahlil nazariyasi bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy ishlari natijalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tarixiy qadriyatlarimizni chuqur tahlil qilish asosida ichki va xalqaro siyosatda to'g'ri qarorlar qabul qilishga oid fikrlari tashkil qiladi. O'z navbatida xorijiy mamlakatlarning yetakchi tahlilchilarining tarixiy siyosiy tahlilni amalga oshirishdagi o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish hozirgi murakkab xalqaro vaziyatda O'zbekiston tomonidan samarali siyosat olib borishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu nuqta nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati O'zbekiston Respublikasi tomonidan samarali siyosiy qarorlar qabul qilishda tarixiy tahlilning ahamiyati va uni amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ham mustaqillikka erishgandan va eski totalitar tuzumdan xalos bo'lgandan keyin mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar, psixologik va madaniy, tarixiy qadriyatlarning anglanishi sharoitida siyosiy jarayonlarga qiziqishi juda kuchaydi. Xalqaro va mintaqa miqyosida shiddat bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlarning ham har bir fuqaro hayotiga kirib borishi siyosiy bilimni egallash va uni tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytir-moqda.

Mustaqillikdan keyin sobiq tuzum paytida fuqarolarning siyosiy ma'lumotlarni olishga bo'lgan qat'iy cheklovlarni olib tashlanishi hamda internet va boshqa ommaviy-axborot vositalari faoliyatining kengayib borishi natijasida turli yo'nalishlardagi xabarlarni olish imkoniyatining paydo bo'lishi nafaqat ijobiy, balki salbiy ko'rinishlarni ham keltirib chiqardi.

Jumladan, fuqarolarning jamiyatdagi o'z o'rnini to'g'ri tushunishi, o'z siyosiy ahamiyatini anglashi, ijtimoiy-siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishini ta'minlash orqali siyosiy hayotning ushbu salbiy ko'rinishlarni bartaraf etish va barqaror iqtisodiy-siyosiy jamiyatga erishish mumkin. Jamiyatda beqarorlik sabablaridan yana biri ichki ijtimoiy-siyosiy hayotda va xalqaro miqyosda qarorlar qabul qilishda xatolikka yo'l qo'yishdir.

Siyosiy tahlil nafaqat fan, balki san'atdir, chunki uning uslublarni amaliyotdagina egallash mumkin. Shu sababli har bir siyosiy arbob siyosiy tahlil uslublarni mukammal egallashi, samarali siyosiy qarorlarni tanlay olish ko'nikmasini rivojlantirishi hamda mamlakatni boshqarish funksiyasini samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim. Amaliyotda ko'p qo'llaniladigan tizimli siyosiy tahlil uslublarga quyidagilar kiradi:

yaxlitlikni fikran qismlarga bo'lish, ular orasidagi munosabatlarni aniqlay olish;

predmetlar o'rtasidagi xususiyatlar va munosabatlarni tarkibiy unsurlarga bo'lish uslubi - bunda ularning ayrimlari tahlil qilinadi, ayrimlaridan voz kechiladi, keyin ular ham tahlilga olinadi;

siyosiy jarayon va voqea-hodisalarni tasniflash, bunda o'ziga xos asosiy alomatlarini ajratib olish hamda ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash;

siyosiy voqelikka nazariy, empirik va amaliy yondashuv uslubi - siyosiy hayotning amaliy to'qnashuvlarini o'rganish va hal qilishga yo'naltirilgan bo'lib, guruhlar yoki manfaatdor fuqarolarning muayyan vaqt va vaziyatda davlat faoliyati bilan bog'liq turli tomonlarni tahlil qilishda foydalaniladi.

Bundan tashqari siyosiy tahlilning empirik uslublari, ya'ni hukmron elitalar, siyosiy arboblarning reytingi, siyosiy partiyalarning hukumat siyosiy yo'nalishiga munosabati tahlili natijasida ushbu natijalarga erishiladi:

abstrakt, nazariy qarashlarning noaniqligi darajasini kamaytiradi;

hukmron va muxolif elitaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi;

hukumat qarorlari ijrosi bosqichlarini xarakterlaydi;

siyosiy jarayon ishtirokchilariga joriy siyosiy vaziyatni tushunish imkonini beradi;

partiyalar va boshqaruv organlari yetakchilarining o'ziga xos siyosiy yo'nalishlariga aniqlik kiritadi;

hukumat siyosiy subyektlariga ular faoliyatlari samaradorligini oshirish maqsadida amaliy tavsiyalarni shakllantirish va qisqa muddatli bashoratlar qilishga hamkorlik ko'rsatadi.

Siyosiy tahlilning empirik uslublari jamiyat hayotida pragmatizm i utilitarizm katta rol o'ynaydigan yetakchi davlatlar, ayniqsa AQSH siyosiy ta'limotida keng foydalaniladi. Bu mamlakatlardagi saylovlar, inqirozli ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ichki siyosiy va xalqaro vaziyatning keskinlashuvi kabi siyosiy jarayonlarda to'g'ri samarali qarorlar qabul qilishda tahliliy materiallar muhim ahamiyatga ega. Bu holatlarda mavjud iqtisodiy, geosiyosiy, psixologik, diniy, madaniy va boshqa omillarning yaqqol aks etishi ushbu yo'nalishlar doirasida majmuaviy tahlil qilish va u asosida tegishli samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, XX asrning 50 - yillarida ro'y bergan "bixevioral inqilob" davrida empirizmining keng miqyosda foydalanilishi, ya'ni mantiq qonunlariga asoslangan tizimlashtirish orqali kundalik amaliy muammolarni o'rganish siyosiy fan uchun bir qator salbiy ta'sirlarni ham keltirib chiqardi. XX asrning oxiriga kelib har bir hodisaning faqat son parametrlariga e'tibor berish, aksilogik (qadriyat) va qiymat kabi nazariy yondashuvlarning rad qilinishi siyosiy tahlil va tadqiqotlar uslublari hamda mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Siyosiy tahlilni amalga oshirishdagi asosiy muammolar siyosiy jarayonlar va siyosatshunos-tahlilchining muayyan siyosiy kuchlar ta'siri ostida hukmron doiralarning u yoki bu siyosiy qarorini asoslashi zaruriyatidir. Ammo bu siyosiy tahlilning obyektivligini aslo rad etmaydi.

Ta'kidlash joizki, siyosiy baho hamda siyosiy strukturalar va pozitsiyalar tahlili o'rtasida katta farq mavjud. Siyosiy voqelikning obyektiv tahlilini amalga oshirishning eng muhim sharti subyektiv, g'oyaviy baholash, partiyaviy, sinfiy pozitsiyalardan uzoqlashishdir. Siyosiy tahlil uslublari tizimida vaziyatni muhim, ahamiyatli baholash va qarorlar qabul qilish jarayonini axborot ta'minoti sifatini oshirishga hamkorlik ko'rsatadigan ikki guruh uslublarni ajratib ko'rsatish mumkin:

umumiy uslublar - tarixiy, normativ, institutsional, tizimli, strukturaviy-funksional, taqqoslash, ijtimoiy-madaniy, psixotahlil, bixevioristik, ivent-tahlil;

xususiy uslublarga tanlash, ekspert baholash, korrelyatsiyalash va omilli, kontent-tahlil, matematik modellashirish, tahlil va statistika.

Jumladan, tarixiy tahlilning siyosiy tahlilni amalga oshirishdagi ahamiyatini baholamaslik mumkin emas. Bu tahlilda hozirgi vaziyatni o'tmish bilan solishtirish, siyosiy hodisa, tizimni kelib chiqish sabablari, manbalari, omillariga, uning chuqur asoslari, istiqboldagi rivojlanishiga aniqlik kiritishga imkon beradi. Biroq o'tmishni buzib talqin qilish mumkin emas, chunki siyosiy tahlil uchun nafaqat ijobiy, balki salbiy tarixiy tajriba ham muhim.

Siyosat dunyosi tarixini o'rganish turli pozitsiya va konsepsiyalarning o'zaro to'qnashishi natijasida siyosat, davlat, huquq tizimlari taraqqiyoti, kishilarning huquq va erkinliklari, ularning hokimiyat bilan munosabatlarining shakli va tamoyillari, hukmron elita faoliyatini nazorat qilish, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki borasidagi tasavvurlarning chuqurlashuvini tushunishga imkon beradi.

Kishilar o'z hayotida sodir bo'layotgan hodisalarni tushuntirish, kelajagini qurishning samarali yo'llarini topish uchun tarixan tajribadan o'tgan qadriyat, model va tamoyillarni tahlil qilib, ularni hayotga tatbiq qilishga intiladilar. Bu hozirgi dunyoda ro'y berayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy voqeelikka zaruriy shart va umuminsoniy qadriyatlarini tasdiqlashdir. Jamiyatning o'z tarixiy qadriyatlarini tizimli tahlil qilib, ularni zamonaviy voqeelikka moslash orqali o'zligini saqlab qolishiga intilishi tabiiy holat bo'lib, bu huquqiy asoslar va qonunchilikda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, samarali tarixiy tahlil bir qator omillarga bog'liq. Xususan, nazarda tutilayotgan voqea-hodisalar ro'y bergan va mutafakkirlar o'z nazariyalarini yaratgan tarixiy davr xarakterini hisobga olish muhim.

Siyosiy vaziyat, voqea va konsepsiyalarni ularni vujudga keltirgan tarixiy shart-sharoitlarga bog'lamsdan turib o'rganish va tahlil qilish mumkin emas. Mazkur omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda mutafakkirlar g'oyalari va tarixiy sinovdan o'tgan siyosiy taraqqiyotning samarali modellari va yo'llarini topishga yordam beradigan ulkan siyosiy tajribalari jamlangan. Shu sababli tarixiy tahlilda hozirgi siyosiy reallik uchun ahamiyatli bo'lgan siyosiy g'oyalar, konsepsiyalar, ularning siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining qadriyatlari va dunyoqarashiga ta'siri, zamonaviy nazariya hamda tajribaga ta'sirini ko'rsatish juda muhimdir [6].

Hozirgi davrga nafaqat o'tgan avlodlar va mutafakkirlarning tarixiy tajribasi ta'sir ko'rsatadi, balki hozirgi vaziyat ham o'tmish g'oyalari, konsepsiyalari, tajribalari, voqea-hodisalarini qayta anglash, ularni yangi talqin qilish zaruriyati asoslaydi. Biroq ushbu konsepsiyalarni muayyan tarixiy vaziyatni hisobga olmasdan zamonaviy moslab "qayta ko'chirish" salbiy natijalarga olib kelishini nazardan qochirish lozim [4].

Ushbu tarixiy qadriyatlarini tahlil qilayotgan tahlilchi - tadqiqotchi betaraf pozitsiyada turishi, tahlil faoliyatida o'z subyektiv fikrini aralashtirmasligi tarixiy-siyosiy merosga bo'lgan adekvat munosabatni ta'minlaydi [5]. Vaqt sinoviga bardosh bermagan tarixiy nazariyalar, konsepsiyalar va

g'oyalarga tanqidiy yondashish hamda ularning hayotiy barqaror va samarali bo'lganlarini tahlil qilish juda muhim.

Xulosa va takliflar. Siyosatning ushbu nazariy - amaliy muammolari tahlili jamiyat siyosiy hayotining tarixiy tajribasini umumlashtirish va tushuntirish, xususan jahon va mamlakatimiz siyosiy tafakkuri tarixini umumlashtirishga asoslanadi. Hozirgi sharoitda siyosiy va ijtimoiy istiqbolni belgilashni dolzarblashtirish tarixsiz hamda ijtimoiy-siyosiy va gumanitar sohalarida ilmiy tadqiqotlarsiz mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro va mintaqaviy yo'nalishlardagi siyosiy faoliyatini tahlil qilishda siyosiy bilimlar va hukumatning mustaqillik yillaridagi siyosati tarixiga oid ma'lumotlar, zamonaviy siyosiy fan va tajribasi namunalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bir qator omillar bilan asoslangan:

mamlakat siyosiy taraqqiyotining chuqurlashib va kengayib borishi hamda ijtimoiy hayot sohalarida transformatsiyalashishning kuchayishi;

siyosiy jarayonlarda keng aholi qatlamlarining ishtiroki, hukmron elita va muxolif partiyalar vakillarining siyosiy tajriba va madaniyatni o'zlashtirish hamda amalda qo'llash zaruriyati;

siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikning legitim shakllarini tasdiqlash, hokimiyat uchun kurashda konsensus (kelishuv) texnologiyalarining zaruriyati; tarixiy tajribadan o'tgan mexanizmlar va qadriyatlar asosida milliy hamjihatlikni ta'minlash;

jahon integratsion jarayonlarining jadal rivojlanishi. Bizning fikrimizga ko'ra, tarixiy siyosiy konsepsiyalarni samarali tahlil qilishga imkon beradigan quyidagi omillarni hisobga olish muhim:

siyosiy konsepsiyalarning evolyutsion taraqqiyot yo'li; hokimiyat tizimlarining axloqiy normalari va ularning siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonining shaffofligi.

siyosiy an'ana va qadriyatlar yo'nalishlariga amal qilish;

qonuniylik, bag'rikenglik, davlat va milliy qadriyatlarini tan olish;

muxolifatning faoliyatini asoslangan holda tahlil qilish;

g'oyaviy va siyosiy plyuralizm, siyosiy manfaatlarini asoslangan holda himoya qilish;

manbalarning asli, ularning keyingi davrlardagi sharhlari va talqinlarini tizimli tahlil qilish.

siyosiy vaziyat o'zgarishi bilan muayyan konsepsiyalarga tegishli va tarkibiy o'zgarishlar kiritilgan bo'lishi bois, tarixiy tahlilni dinamikada va rivojlanish bosqichlarida o'rganish.

So'nggi paytda Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlari hukmron doiralarning katta axloqiy-ruhiy, milliy salohiyatga egaligi bois o'tmish tarixiy g'oyalarga murojaat qilishlari o'zlarining hududiy va boshqa da'volari, ayrim siyosiy qarorlari va bayonotlarini g'oyaviy va dunyoqarash jihatidan oqlashga urinishlari bilan bog'liq. Shu sababli bu o'rinlarda har tomonlama tahlil va qarama-qarshi baholashlarni ko'zda tutadigan o'ziga xos yondashuv zarur. Bu soxtalashtirish orqali tarixni o'z siyosiy va g'oyaviy manfaatlarida foydalanish va o'zgalarning pozitsiyalarini obro'sizlantirish vositasiga aylanishining oldini oladi.

ADABIYOTLAR

1. 2021 йил 15-16 июль кунлари Тошкентда ўтказилган «Марказий ва Жанубий Осиё: минтақавий боғлиқлик. Таҳдидлар ва имкониятлар» мавзусидаги халқаро. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/0>
2. Ирхин Ю.В. Политология. В 2 ч. Учебник для академического бакалавриата. М., 2017, ч.2. // <https://urait.ru/bcode/512998>
3. Вестник РУДН. Серия: Международные отношения <http://journals.rudn.ru/internationalrelations>.

4. Казанцев А.А. Центральная Азия: Институциональная структура международных взаимодействий в становящемся регионе // Полис. Политические исследования. 2005. № 2. С. 78—88.
5. Воробьев, Е.П. Основы политологии: учебно-практическое пособие.// <https://vgasu.ru/attachments/osn-pol.pdf>
6. Шестов Н. И. «Исторический метод» современного политического исследования: проблемы интерпретации. <https://cyberleninka.ru/article/n/>



Obidjon ABDURAHMONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti.
E-Mail: obidjonabdurahmonov@gamil.com

TDSHU dotsenti, PhD S.Bo‘ronov taqrizi asosida

THE PLACE AND ROLE OF PASHTUNS IN AFGHANISTAN

Annotation

This article is dedicated to the study of the unique culture of the Pashtuns, their role in the administration of the state and society of Afghanistan, and their position as the creator of the Afghan statehood. The purpose of the article is to identify the policy aimed at “Pashtunization” of the Pashtun Afghan society and state administration.

Key words: Durrani, Ghilzai, Paktians, Pashtunwali, Pukhtuns, Patan, Pashtunism, Pashtunistan.

МЕСТО И РОЛЬ ПУШТУНОВ В АФГАНИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье посвящена изучению уникальной культуры пуштунов, их роли в управлении государством и обществом Афганистана, их положения как создателя афганской государственности. Цель статьи – выявить политику, направленную на «пуштунизацию» пуштунского афганского общества и государственного управления.

Ключевые слова: дуррани, гильзои, пактианцы, пуштунвали, пухтуны, патан, пуштунизм, пуштунистан.

AFG‘ONISTONDA PUSHTUNLARNING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pushtunlarning o‘ziga xos madaniyati, Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli, afg‘on davlatchiligining bunyodkori sifatida tutgan mavqeyini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolaning maqsadi pushtunlarning Afg‘oniston jamiyat va davlat boshqaruvini “pushtunlashtirish”ga qaratilgan siyosatni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Durraniy, Gilzoilar, Paktiyanlar, Pushtunvali, Puxtunlar, Patan, Pushtunizm,

Kirish. Ta’kidlash lozimki, pushtunlarning o‘zi ham 60 ta katta va 400 ta kichik qabila va urug‘lardan tashkil topgan[1]. Shuningdek, pushtunlarni dunyodagi boshqa millatlar tomonidan turlicha nomlar bilan atalishiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan turli xil badiiy, ilmiy tadqiqot ishlarida pushtunlar (“Pahtun”, “Puktun”, “Puktanah”, “Patan”) kabi nomlari bilan keltirilgan. Xususan, hindistonlik olim va tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida pushtunlarni “Pahtun” atamasi bilan keltirib o‘tishadi. Buyuk Britaniyalik mutaxassislar tomonidan esa pushtunlarga nisbatan “Patan” atamasi foydalanishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin[2]. Ammo, Markaziy Osiyo davlatlarida jumladan, O‘zbekistonda ilmiy va publisistik muomalada “Pushtun” va “Pushtun” atamalaridan keng foydalaniladi. Rus manbalarida “Pushtun” atamasi keng qo‘llaniladi.

Afg‘onistondagi mavjud etnik birliklarning etnogenezi, tarixi, afg‘on davlatchiligida tutgan o‘rni hamda bugungi kundagi ahvolini tadqiq etish davomida ularda bo‘linishga moyillik nihoyatda kuchli ekanligi namoyon bo‘ldi. Xususan, pushtun millatini quyidagi birliklarga ajratgan holda tasniflash mumkin. Ya’ni, Qabila, Qabila urug‘i, Urug‘-aymoq, Urug‘lar o‘rtasidagi kichik urug‘lar, Kichik urug‘ bo‘g‘ini, Bo‘g‘inning boshqa kichik bo‘laklari[3].

Yana bir e’tiborga molik jihat shuki, pushtunlar nafaqat hokimiyatga egalik qilish uchun mamlakatdagi boshqa etnik guruhlar bilan kurash olib boradi, balki ularning Gilzay va Durraniy qabilalari o‘rtasida ham hokimiyatni boshqarish, yuqori vakolatlarga egalik qilish, amalga oshirgan ishlari uchun yetarlicha rag‘bat olish kabi masalalarda o‘zaro kurash mavjud. Masalan, 1970-yillarda mamlakatda bo‘lib o‘tgan urushlarda g‘alabaga erishishda Gilzaylar katta hajmdagi

ishlarni amalga oshirgani, birinchi ingliz-afg‘on urushida aynan Gilzay qabilalari inglizlarni qo‘lga olishgani, ayniqsa 1842-yilda ularning chekinayotgan armiyasini yo‘q qilgani, Afg‘oniston amirini taxtdan voz kechishga majbur qilganliklari va 1878-yildagi ikkinchi ingliz-afg‘on urushini boshlashgani hamda 1929-yilda sodir etilgan qo‘zg‘olonlarda shoh Omonulloxonning taxtdan ag‘darilishida Durraniylarga nisbatan salmoqliroq ishlarni amalga oshirganliklarini da’vo qilib, hokimiyatni boshqarishga ular loyiq ekanligini ta’kidlab kelishadi[4]. Biroq, Pushtunlar va afriidylarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o‘zlarining shaxsiy nizolarini, urug‘lar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni tashqi kuchlar tomonidan kelayotgan tahdidlar paytida bir chetga surib turadi va vaqtinchalik ittifoqdoshga aylanib, umumiy dushmanga qarshi birgalikda yelkama-yelka kurash olib boradi. Ammo, tashqaridan tahdidlar paydo bo‘lgan davrlarda pushtunlar kuchli davlatlar, imperiyalar tomonidan bo‘ysundirilgan bo‘lsalar ham, ular hech qachon doimiy bo‘ysunishda yoki qullik zanjirida bog‘lanib turmagan. Ular o‘zlarining erkinliklariga tajovuz qilgan va o‘zga davlatning mustamlakasi bo‘lishga keskin ravishda qarshilik ko‘rsatib kelgan. “Ularning fe’l-atvori, uyushqoqligi va instinktlari”, deydi Devid Ditcher, “ularni shu qadar mustaqil va kuchli demokratik qilib qo‘ydiki, hattoki o‘zlarining rahbarlari ham ular ustidan real nazoratni amalga oshira olmaydi”[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bundan tashqari, mamlakatda pushtu tili va madaniyatini keng targ‘ib qilish holatlarini ham ta’kidlash lozim. Bu haqida Eronning Isfahon universiteti professorlari Morteza Deghan Nejad, Morteza Nuraci hamda tadqiqotchi Bahram Mousavilar “Pushtunizm va uning Afg‘oniston-Eron munosabatlaridagi roli”

(*Pushtunism and its role in Afghanistan-Iran relations*) nomli ilmiy maqolada madaniy pushtunizm haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etishgan. Shuningdek, maqolada Amir SHERALIXON va OMONULLOXON tomonidan pushtu tilini davlat tili sifatida mavqeyini oshirishda amalga oshirgan ishlari to'g'risida ma'lumot keltiriladi. Chunonchi, OMONULLOXON tomonidan pushtu tilida yozish va o'qishni o'rganishga ko'maklashuvchi "Merka Pashtu" jamiyati tashkil etilgan bo'lsa, HABIBULLAXON tomonidan pushtu tilida "Siroj-ul-Axbor" nomli davlat gazetasi nashr etilishiga katta ko'mak ko'rsatganligini ta'kidlab o'tadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik, tizimli-mantiqiy, kontent va qiyosiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Pushtunlarni Afg'onistondagi yirik etnos sifatida tadqiq etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

1. Afg'on davlatchiligining bunyodkori sifatida;
2. Pushtunlarning o'ziga xos madaniyati;
3. Pushtunizm;

Afg'on davlatchiligining bunyodkori sifatida, tarixan ma'lumki, pushtunlar yirik etnos sifatida afg'on davlatchiligining asosiy bunyodkori hisoblanadi. 1747-yilda pushtunlarning Durrioniy qabilasidan bo'lgan Ahmadshoh tomonidan tashkil etilgan 2 mln. kv. km.dan ortiq hududni o'z ichiga oluvchi afg'on davlati "Durrioniy davlati" deb ataladi hamda zamonaviy afg'on davlatchiligining tamal toshini qo'ygan harbiy-siyosiy tuzilma sifatida tan olinadi [7]. Durrioniy boshqaruvi tashkil topgandan so'ng, davlat dastlab eng yirik pushtun qabilalari yashagan hududlarni o'z ichiga oldi. Keyinchalik, uzoq muddatli kurashlari paytida afg'on bo'lmagan xalqlar yashaydigan hududlar bo'ysuntirildi va bugungi kungacha bo'lgan davrning katta qismida afg'on hukumatini pushtunlarga mansub qabila vakillari tomonidan boshqarib kelindi. Afg'oniston davlatchiligida Habibullaxon Kalakoni (1929) va Burhoniddin Rabboni (1992-1996) hokimiyatidan tashqari Afg'onistonning barcha hukmdorlari ushbu millat vakillaridan bo'lishgan. Jumladan, amaldagi hokimiyatni nazorat qilayotgan "toliblar"ning ham 95 foizini pushtunlar tashkil qiladi va mamlakat hayotining barcha sohalarida ustun mavqeni saqlab qolishga harakat qilib kelishadi [8].

Shuningdek, pushtunlar tarixiy, madaniy jihatdan o'zlarini "afg'on" millati deb emas, aksincha ushbu atamaning sinonimi ya'ni Afg'onistonning "haqiqiy egalari" deb hisoblashadi. Shu sababli ham ayrim adabiyotlarda "afg'on" va "pushtun" atamallari sinonim sifatida qo'llanadi. O'zlarini Afg'onistonning "haqiqiy egalari" deb hisoblashganligi sababli mamlakatdagi boshqa millat vakillariga nisbatan mensimay munosabatda bo'lishadi [9]. Pushtunlar tarix nuqtayi nazaridan o'zlarini "afg'on" deb emas pushtunlar deb atagan va XVIII asrgacha etnik jamoasining o'ziga xos an'analari va urf-odatlaridan foydalanib kelgan. "Afg'on" atamasini qabul qilishlari uchun uzoq vaqt kerak bo'ldi. Taniqli fransuz sayyohi Ferrier asosiy pushtun qabilalari, ya'ni gilzay va abdaliylar o'zlarini "afg'onlar" deb atashni rad etishlarini ta'kidlaydi [10]. Bu "afg'on" atamasiga qiziqishning yo'qligi bilan bog'liq edi, chunki bu atama bir tomondan pushtun bo'lmaganlar tomonidan pushtunlar uchun foydalanilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular o'zlarini pushtun deb atalishini afzal ko'radi va bundan faxrlanadi [11]. Shu bilan bir qatorda, jamiyatda o'zlarining yuqori mavqeyini saqlab qolish uchun uzoq yillardan beri faol kurash olib borishadi. Chunki, turli tabaqa, sinf, millat va xalqlarning mavjudligi ular o'rtasida o'z manfaatlarini "himoya qilishga intilish"ni ham keltirib chiqaradi [12]. Shu sababdan boshqa etnik guruhlarning hukumatda ustun mavqeyini qabul qilishmadi. Misol uchun, 1929-yilda Afg'oniston shimolida Bachai Sakao (yoki Bachai

Saqo) laqabli etnik tojik Habibulla Kalakoni qo'zg'olon ko'tarib hokimiyatni qo'lga kiritadi, ammo u yaratuvchi (titul) millat bo'lgan pushtunlardan bo'lmaganligi bois hokimiyatni uzoq ushlab tura olmaydi [13]. Shuningdek, etnik tojik bo'lgan Burhoniddin Rabboni (1992-1996) ham faqat bir muddat hukumatni boshqarganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Pushtunlarning o'ziga xos madaniyati, pushtunlar o'zining madaniyati, urf-odati, tili va qadryatlari bilan afg'on jamiyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mashhur olim va antropolog Charlz Lindxom "Pushtunlar dunyodagi eng katta segmentli qabilalar tizimini tashkil qiladi," deb yozadi [14]. Pushtun madaniyati, tarixi va umumiy urf-odatlarining odatiy tarzda taqdim etilishi ikkiyoqlama qarashlarni keltirib chiqardi. Pushtunlar tarixan Afg'onistondagi eng uzoq tarixga ega bo'lgan etnoslardan biri sifatida, ularning afg'on jamiyatidagi mavqeyi doimo yuqori o'rinda bo'lib kelgan.

J.Nigel va R.Allanlarning qayd etishicha, Afg'oniston aholisi 55 ta etnik guruhlardan tashkil topgan. [15] Ushbu etnoslar orasida Afg'oniston pushtunlari eng katta etnik guruh hisoblanib, mamlakat aholisining 42% - 45% ini tashkil etadi. [16] Biroq, uzoq yillardan beri Afg'onistonda aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlari amalga oshirilmaganligi sababli manbalarda pushtunlarning umumiy soni to'g'risida turli xil sonlar keltiriladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda butun dunyoda pushtunlarning umumiy soni taxminan 63 million kishini tashkil qiladi. E'tiborga molik jihat shuki, pushtunlarning umumiy soni Italiya aholi sonidan ko'p, Buyuk Britaniya aholi soniga yaqin bo'lib, ularning katta qismi Pokiston va Afg'oniston hududida istiqomat qilishadi [17]. Ularning aksariyati Pokistonning Xayber-Paxtunxvo va Balujiston hududlarida yashaydi. Chunki, "Dyurand chizig'i" pushtunlarni ikkiga bo'lib yuboradi.

E'tiborga molik jihat shuki, Pushtun madaniyatida birodarlik, samimiylik, qo'shnilarga g'amxo'rlik mavjud. Mehmon Xudoning marhamati sifatida qabul qilinadi. Mehmondo'stlik madaniyatning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Oqsoqollar o'z farzandlarini kattalarni hurmat qilishga, boshqalarga mehr-oqibatli bo'lishga, yaxshi xulq-atvor ko'rsatishga, kamtarin bo'lishga, madaniy me'yor va qadriyatlarga qat'iy amal qilishga undaydiqu. Bundan tashqari, Pushtun madaniyatida jirg'a muhim o'rin tutadi. Jirg'a yig'ilishlarida uy egasining doimiy kechirilmiligi va qotillarning jamiyat tomonidan kechirilishi pashtun madaniyatining ma'rifatli tomoniga misoldir [18].

Ayrim manbaalarda keltirilishicha, Afg'oniston zaminiga Islom dini kirib kelishidan oldin ham pushtunlar o'zlarining she'riyati bilan alohida ajralib turgan. Jumladan, "Pata Xazana" da VIII asrdayoq yozilgan pushtun she'riyati mavjud bo'lgan. Pushtun she'riyatini rivojiga ulkan hissa qo'shgan taniqli shoirlar qatoriga Afg'oniston-Pokiston mintaqasida tug'ilib, shu yerda faoliyat olib borgan Pir Roshan, Amir Kror Suri, Xushhol Xon Xattak, Rahmon Bobo, Nazo Toxi, Ahmad Shoh Durrioniy, Temur Shoh Durrioniy, Shujo Shoh Durrioniy, G'ulom Muhammad Tarziy va Xon Abdul G'ani Xon kiritishimiz mumkin. Shuningdek, pushtunlarning maqollari ham eng qadimiy, uzoq tarixga ega bo'lgan ommaviy maqol turlari sirasiga kiradi. Afg'onlarga xos bo'lgan odat – ular qaysidir anjuman, o'zaro suhbatlar yoki jirg'a (yig'ilish, parlament majlisi) vaqtida, bahs, ma'ruzalar va va'zlar chog'i, albatta, biror bir shoarning she'ridan, xususan, maqol va matallardan misol keltirish va shu bilan o'z nutqlarini bezash va gaplarini uqtirishni yaxshi ko'radilar. Pushtunlar orasida maqollarning uch turi: nasriy, sajlangan yoki qiyofali she'riy shakllari mavjud. Ammo folklorshunoslar xalq og'zaki ijodiyoti namunalari to'plamlarida maqollarni, odatda, nasriy asoslar qatoriga

joylashtiradilar. Garchi pushtun xalqi maqollari haqida keng ko'lamli, maxsus tadqiqotlar hozircha amalga oshirilmagan bo'lsada, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ularni to'plab chop etishda ancha ish qilingan[19].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pushtunlar falklorida mavjud bo'lgan... ertak va qissalari, rivoyatlari qanchalik boshqa xalqlar og'zaki ijodiyotida uchraydigan o'xshash syujetli ertak-qissalar qatoriga kirmasin, ularning barchasida pushtunlar hayoti, turmush tarzi, fikrlari turli qabila va tabaqalarga mansub qahramonlari xarakteri, aniq joylarning nomlari, syujet detallarining mahalliy rang va kayfiyat kasb etishi kabi holatlar, xislatlar bu ertak – qissa va rivoyatlarning pushtun xalqining, “afg'oncha” ekanligini ta'minlaydi va xalq ularni to'liq o'zlariniki deb qabul qiladilar. Pushtun madaniyati va adabiyoti bo'yicha ko'p adabiy ishlar qilingan. YuNESKO pashtu tilini dunyodagi boshqa tillar orasida tez rivojlanayotgan tillardan biri deb e'lon qildi. Pushtun madaniyati meyorlar va qadriyatlarining uyg'unligini, shu jumladan individual va kengroq ijtimoiy o'lchovlarni o'z ichiga oladi, ular turli vaziyatlarda tarafdorlari tomonidan tasdiqlanadi va qo'llab-quvvatlanadi. *Nanavatay, kambala, sulh, taron, shamla, jirg'a, pushtunvali* (pashtunlarning xulq-atvor kodeksi) pushtun madaniyatining juda keng tarqalgan belgilari va xususiyatlari hisoblanadi[20].

Pushtunizm. Pushtunizm bu Afg'oniston jamiyat va davlat boshqaruvi “pushtunlashtirish”ga qaratilgan siyosatning nazariy ifodasi hisoblanadi. Pushtunizm tub negizida davlat jamiyat boshqaruvida pushtunlarning ustunligini saqlab qolish, boshqa etnoslar tomonida sodir etiladigan har qanday ehtimoliy harakatlarni oldini olish hamda pushtunlarni doimiy qo'llab-quvvatlash yotadi. Pushtunlardan bo'lgan hukumdorlar tomonidan pushtu tili va madaniyatini mamlakatdagi barcha etnik guruhlarga yoyish, unumdor, yashash uchun barcha qulayliklarga ega, strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlarga pushtunlarni joylashtirish siyosati olib borildi. Bu borada Amir Abdurahmonning olib borgan siyosati e'tiborga molikdir. U Afg'onistonning janubi va janubi-sharqiy hududlarida istiqomat qiluvchi pushtun qabilalarini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mamlakatning markaziy qismlari bo'lmish shimol, shimoli-sharq, g'arbiy hududlarga ko'chiradi.

Majburiy ko'chirish siyosati ortidagi siyosiy maqsadlar Afg'oniston shimoli, g'arbi va markazini “pushtunlashtirish” orqali tojiklar, o'zbeklar va hazoralar aholisini siyraklashtirish edi[21]. Pushtun hukmdorlari bunday siyosat yuritish bilan bir tomondan o'zlarining sodiq tarafdorlari orqali mamlakatning o'sha hududlarini samarali nazorat qilsa boshqa tomondan esa ichki ixtiloflarni bartaraf etishni maqsad qiladi. Taassufki, ushbu siyosat hali-hamon pushtun liderlar tomonidan olib borilmoqda. Misol uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining qochoqlar bo'yicha agentligining ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda 820 000 kishi ichki ko'chirilgan[22]. Ta'kidlash lozimki, pushtu tili pushtunizmning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan har doim pushtunlar o'z tilining mavqeyini ko'tarishga intilib kelishgan. Jumladan, Sobiq Afg'oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasida pushtu tili dari, o'zbek, turkman, baluch, nuristoniy hamda pomir tillari bilan bir qatorda davlat tili sifatida belgilab qo'yilgani ham buning yorqin ifodisidir[23]. Bugungi kunda ham aksariyat pushtunlar pushtu tilining jamiyatdagi ta'sirini kuchaytirish zarur deb hisoblaydi. Pushtunizm pushtun millatiga mansub bo'lmagan boshqa etnoslarni pushtunlar madaniyatini, tilini va eng asosiysi “Pushtunvali” kodeksini qabul qilishiga davat etish maqsadlarini ham ifoda etadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, pushtun sulolalarining afg'on davlatchiligining shakllanish tadrijida katta o'ringa egaligi pushtun sulolalari tomonidan qariyb uch asrni o'z ichiga oluvchi Afg'onistonni mustaqil davlatchilik tarixida hokimiyat pushtunlar tomonidan boshqarilib kelganligi bilan chambarchas bog'liq. Darhaqiqat, zamonaviy Afg'oniston davlatchiligining bunyodkorlari ham aynan pushtun sulolalar bo'lgan. Bundan tashqari, pushtunlarning jirga institutlari, “Pushtunvali” kodeksi ham davlat boshqaruvi hamda jamiyat hayotida katta ta'sirga ega. Ammo, pushtun yetakchilarning etnohududiy da'volari nafaqat etnoslararo keskinlikni yuzaga keltirishi, balki kelajakda davlatning hududiy yaxlitligiga jiddiy tahdidni yaratuvchi omilga aylanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Afg'onistonda barqarorlikni saqlab turish jarayonida yangi hukumat etnik va etnoslararo omillarning bir qancha g'oyat muhim jihatlarni hisobga olishini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. J.Nigel, R.Allan. “Defining place and people in Afghanistan”, Post-Sovet geography and economics. 2001, vol 42, no 8. – 545 p.
2. Barfield, Tomas. Afghanistan's ethnic puzzle. The article of Bonn University. <http://search.ebscohost.com.libproxy.unh.edu/login.aspx?direct=true&db=buh&AN=64464655&site=ehost-live>
3. Мария Кича. Афганистан. Подлинная история страны-легенды. Москва. 2023. –454 с
4. Rhea Abraham. Politics of ethnicity in Afghanistan: Understanding the Pashtuns and themin or ethnic groups // Defence and diplomacy Journal Vol. 2. – No.2 2013 (January-March). – P. 71.
5. Jozeph A. Tainter. Pashtun social structure: cultural perceptions and segmentary lineage organization. Utah State University. 2011. – P. 4.
6. A Dictionary of the Patlian Tribes on the North-West Frontier of India / General Staff Army Headquarters, India -Calcutta: Superintendent Government Printing, 1910. -P. 1-2.
7. Thomas J. Barfield. Weapons of the not so Weak in Afghanistan: Pashtun Agrarian Structure and Tribal Organization for Times of War & Peace. Yale University, 2007. –P. 2.
8. Abdurahmonov.O.N. Afg'oniston pushtunlari. – T.: “EFFECT-D”. 2021. –104 b.
9. Morteza Deghan Nejad, Morteza Nuraei, Bahram Mousavi. Pashtunism and its role in Afghanistan-Iran relations. International Jurnal of Education of Research. Vol. 2 No. 11 November 2014. – P. 529.
10. Рашидов Р.П. Афғонистонда давлатчилик масаласи: тарих ва ҳозирги замон. –Т.: “Наврўз”. 2017. – Б. 15.
11. Antonio Giustozzi. The Taliban Beyond the Pashtuns. The Afghanistan Papers. No. 5, July 2010. – P. 3.
12. Arturo G. Munoz, Pashtun Tribalism and Ethnic Nationalism (Virginia: Tribal Analysis Centre, March 2010), <http://www.tribalanalysiscenter.com>. Accessed on November 29, 2012.
13. Rahimov S. Dyurand chizig'i: tarix, geosiyosat va xavfsizlik.. – T.: 2023. – 114 b.
14. Ponka T., Dkhar P., Dkhar A. (2017) The Durand Line: Official Positions of Pakistan and Afghanistan over the Legitimacy of the Border. Volume 124.

15. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъляти. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б.11.
16. Charles Lindhom. The Swat Pukhtun of Northern Pakistan. New York, Columbia University Press. 1982. – P. 33. 356
17. Маннонов А.А. Афғон халқ оғзаки ижодиёти. – Т.: “EFFECT-D”. 2021. – Б. 66.
18. Маннонов А.А. Афғон халқ эртақ ва ҳикоятлари. – Т.: 2017. – Б. 6. 283.
19. Natiq Malikzada. Forced ethnic displacement in Afghanistan: Talibanisation or a continuation of social engineering? (18 October, 2022).
20. Imminent humanitarian crisis in Afghanistan. <https://www.unhcr.org/hk/en/afghanistan-situation>
21. Pushtu tilidan Abdurahmonov Obidjon tarjiması. “Afg‘oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasi” tarjima kitobi T.: 2021. –B. 9. 64
22. Sabahuddin Abdul. History of Afghanistan. Global Vision Publishing. 2008. — P. 15.
23. Rahimov S. Dyurand chizig‘i: tarix, geosiyosat va xavfsizlik. – Т.: 2023. – Б. 76-77. 114.



Xasanboy ABDUSAMATOV,
"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE" instituti professori, psi.f.d
E-mail: habdusamatov@bk.ru

Psixologiya fanlari doktori, akademik G'.B.Shoumarov taqrizi ostida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DIVORCE IN MARRIED STUDENTS

Annotation

This article shows the socio-psychological causes of divorce among married students. The results of a sociological survey to determine the causes of divorce among married students are shown. The survey was conducted among about 10 higher educational institutions located in different regions of our Republic. The reasons for the decisions taking place in our country are indicated. Suggestions and recommendations for psychological support for married students are given.

Key words: Definition, family students, psychological support, sociological research, counseling.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВОДА У ЖЕНАТЫХ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье показаны социально-психологические причины разводов у женатых студентов. Показаны результаты социологического опроса по определению причин разводов среди женатых студентов. Опрос был проведен среди около 10 высших учебных заведений, расположенных в разных регионах нашей Республики. Указаны причины решений, происходящих в нашей стране. Даны предложения и рекомендации по психологическому сопровождению женатых студентов.

Ключевые слова: Определение, семейные студенты, психологическая поддержка, социологическое исследование, консультирование.

OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilali talabalarda ajrim xolatlarini yuzaga kelishini ijtimoiy-psixologik sabablari ko'rsatilgan. Oilali talabalarda ajrimlarni sabablarini aniqlash uchun sotsiologik so'rovnomat natijalari ko'rsatilgan. Respublikamizdagi turli hududlarida joylashgan 10 ga yaqin OTM talabalarida so'rovnomat o'tkazilgan. Mamlakatimizda yuzaga kelayotgan ajrimlarning sabablari ko'rsatilgan. Oilali talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ajrim, oilali talabalar, psixologik qo'llab-quvvatlash, sotsiologik tadqiqot, konsultatsiya.

Kirish. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil O'zbekistonda oilalar soni 9 424 787 nafarni, shundan 30 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar 2 886 296 nafarni tashkil etadi. Respublikada har 1000 aholiga to'g'ri keladigan nikohdan ajralishlar soni 1,4 nafar bo'lib, ajrashganlarning o'rtacha yoshi erkaklarda – 37 yoshni, ayollarda esa 32,9 yoshni tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi islohotlarning takomillashuvi natijasida oliy ta'limga bo'lgan qamrovning ortishi, aynan mana shu yosh oralig'idagi aholining yuqori ulushini talabalar tashkil etishidan dalolat beradi.

Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim I-jadval

muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. 2018 yil mamlakatimizda 98 oliy ma'lum muassasasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2020 yilda – 119 ta, 2023 yilda 191 tani tashkil etdi. Ya'ni, o'tgan 5 yilda oliy ta'lim muassasalari soni qayriyb 2 barobarga (94,9 foizga) ortgan. Bunga bog'liq holda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni ham muntazam ko'payib bormoqda (1-jadval).

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni, nafar

Hududlar	O'quv yili					2022/2023 o'quv yilida 2018/2019 o'quv yiliga nisbatan, marta
	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	
O'zbekiston Respublikasi	360204	440991	571512	808439	1 042 100	2,9 marta
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22272	25442	35487	46585	57503	2,6 marta
viloyatlar:						
Andijon	21718	26036	30895	47651	58312	2,7 marta
Buxoro	20895	24771	35625	43959	57484	2,7 marta
Jizzax	14732	18000	23391	29955	36951	2,5 marta
Qashqadaryo	18391	22452	27835	44222	57426	3,1 marta
Navoiy	11641	13636	17015	21710	30294	2,6 marta
Namangan	16742	20109	25989	41829	52319	3,1 marta
Samarqand	34930	41093	54827	70772	84739	2,4 marta
Surxondaryo	15070	20131	25628	39909	50634	3,4 marta
Sirdaryo	6811	9089	9597	16764	21524	3,2 marta
Toshkent	14882	20914	28509	42828	60399	4,1 marta

Farg'ona	27176	35819	48415	62332	77722	2,9 marta
Xorazm	13382	16216	22787	28741	42770	3,2 marta
Toshkent sh.	121562	147283	185512	271182	354023	2,9 marta

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2018/2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari talabalari soni 360,2 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022/2023 o'quv yiliga kelib bu ko'rsatkich 1,0 mln. nafarga yetgan yoki 2,9 martaga ortgan. Hududlar kesimida eng yuqori o'sish Toshkent (4,1 martaga), Surxondaryo (3,4 martaga), Sirdaryo (3,2 martaga), Xorazm (3,2 martaga), Qashqadaryo (3,1 martaga) va Namangan (3,1 martaga) viloyatlarida qayd etilgan.

Talabalar oilalari odatda beqaror va ajralishning yuqori darajasi bilan birga kechadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, talaba er-xotinlarning 18 foizi nikohdan keyin 3-4 yil, 16 foizi nikohdan 1-2 yil o'tgach ajrashadi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikricha, oilali talabalarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish zarur, chunki ular o'quv va ishlab chiqarish samaradorligi va sifatini oshirish uchun umumiy xaziralarning 30-40 foizini tashkil etadi [1.4].

1-jadval


OTMlarda tahsil olayotgan talabalarining oilaviy holati to'g'risida ma'lumot

№	OTM	Jami talabalar soni	Shundan:			
			turmush qurganlar soni	erta turmush qurganlar soni	ajrashganlar soni	ajrim yoqasida oilalar
1.	Qarshi davlat universiteti	6 587	2 609	243	41	12
2.	Guliston davlat universiteti	8 000	776	5	24	2
3.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	9 084	1 870	-	8	4
4.	Buxoro davlat universiteti	21 574	905	-	35	1
5.	Namangan davlat universiteti	25 003	1 446	6	40	6
6.	Termiz davlat universiteti	25 401	3 022	-	8	5
7.	Navoiy davlat pedagogika instituti	9 680	1 360	-	12	2
Jami:		105 329	11 988	254	168	32

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ko'rilayotgan oliy ta'lim muassasasida jami 105,3 mingta talaba tahsil olib, ularni 11,3 foizini oilali talabalar tashkil qiladi (1-rasm). Oilali talabalar ulushi Qarshi davlat universitetida – 40 foizni, Jizzax davlat pedagogika

universitetida – 21 foizni, Navoiy davlat pedagogika institutida – 14 foizni, Termiz davlat universitetida esa 12 foizni tashkil etadi.



1-rasm. OTMlarda tahsil olayotgan talabalarining oilaviy holati to'g'risida ma'lumot (jami talabalar soniga nisbatan, foizda)

Manba: rasm O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jami talabalarining 0,24 foizini erta turmush qurgan talabalar tashkil etadi. Erta turmush qurgan talabalar soni Qarshi davlat universitetida ko'pchilikni (3,7%) tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, universitetda oilali talabalarining 9,3 foizi erta turmush qurgan.

3-jadval

OTMlarda tahsil olayotgan oilali talabalarining yashash manzillari to'g'risida ma'lumot

№	OTM	turmush qurganlar soni	Oilali talabalarining yashash manzili		
			talabalar turar joyida	vaqtinchalik turar joyda	doimiy yashash joyida
1.	Qarshi davlat universiteti	2 609	281	501	1 755
2.	Guliston davlat universiteti	776	26	89	605
3.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	1 870	1	62	1 598

Tahlil qilinayotgan oliy ta'lim muassasalarining 3 022 nafar oilali talaba tahsil olib, ularning 69,4 foizi doimiy yashash joyida istiqomat qilsa, qolgan 27,6 foizi vaqtinchalik turar joyda (ijarada), 3,0 foizi talabalar turar joyida yashaydi (3-jadval).

4.	Buxoro davlat universiteti	905	30	99	710
5.	Namangan davlat universiteti	1 446	7	13	1 251
6.	Termiz davlat universiteti	3 022		1 982	1 534
7.	Navoiy davlat pedagogika instituti	1 360	17	573	854
Jami:		11 988	362	3 319	8 307


Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3-jadvaldan ko'rinadiki, ijrada yashovchi oilali talabalar ulushi Termiz davlat universitetida 65,5 foizni, Navoiy davlat pedagogika institutida 42,1 foizni tashkil etadi. Qarshi davlat universitetida talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi oilali talabalar boshqa oliy ta'lim muassasalariga qaraganda ko'pchilikni tashkil etdi (10,8%).

Talabalar orasida oilali bo'lgan qismini doimo ajralib turadi. Ularning mashg'ulotlarda qatnashishi va o'zlashtirishi oila qurmagan talabalardan biroz pastligi kuzatiladi. So'nggi yillarda nikoh yoshining ko'tarilishi talabaning nisbatan kattaroq kurs bo'lib oila qurishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan oilali talabalar ajrashish sabablari o'rganilganida 38,1 foiziga uchinchi shaxsning aralashuvi sabab bo'lgan (2-rasm). Darhaqiqat, hozirgi kunda nafaqat oilali talabalar o'rtasida, balki barcha yosh oilalarda ham aynan shu omilning ko'rsatkichi yuqoridir.

Oilali talabalar ajrashishining ikkinchi asosiy sababi moddiy va moliyaviy qiyinchiliklar hisoblanadi. Mazkur sababdan oilali talabalarining 22,6 foizi ajrashgan. Bola parvarishi, uy-ro'zg'or ishlarini o'z vaqtida bajara olmasligi sababli 18,5 foiz oilali talabalarining nikohi bekor qilingan.



2-rasm. OTMlarda tahsil olayotgan oilali talabalarining ajrim sabablari, %

Manba: rasm O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4-jadval

OTMlarda tahsil olayotgan oilali talabalarining ajrim sabablari, %

№	OTM	Ajrashgan talabalar soni	Ajrim sabablari													
			Oilaga tayyor emasligi	Ommaviy yoki xorijiy madaniyatning salbiy ta'siri	Hiyonat	Spirтли ichimlik yoki giyohvand moddalar iste'moli	farzandsizlik	tazyiq va zo'ravonlik sababli	Moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar	3-shaxs aralashuvi	Uzoq vaqt bir oila bo'lib yashaganlik, Migratsiya	Chet elga chiqish maqsadida	Bola parvarishi, uy-ro'zg'or ishlarini uz vaqtida bajara olmasligi	Boshqa sabablar		
1.	Qarshi davlat universiteti	41				1	1				9	16	2		11	1
2.	Guliston davlat universiteti	24	3							11	6			1	3	
3.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	8								1	6					1
4.	Buxoro davlat universiteti	35	2	1		1	1			12	9				8	1
5.	Namangan davlat universiteti	40			5	1	2		1		21	1			8	1
6.	Termiz davlat universiteti	8		1				1			3	2				1
7.	Navoiy davlat pedagogika instituti	12	1			1	1	1	1	2	4				1	1
Jami:		168	6	2	5	4	6	2	2	38	64	3	1	31	6	

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuningdek, oilaga tayyor emasligi (3,6%), farzandsizlik (3,6%), xiyonat (3,0%), spirтли ichimliklar va giyohvand moddalar iste'moli (2,4%) ham ulushi kam bo'lsada oilalar talabalar o'rtasida ajrim sabablari hisoblangan.

Xulosa va takliflar. Yosh oila qurilgandan so'ng uning mustahkam bo'lishida ota-onaning har tomonlama yetuk inson bo'lishi juda muhim. Yosh kelinchakning ilm olishi va uy ishlarini qila olishi qiyinchilik tug'diradi va buning oqibatida qanchadan qancha yosh oilalar ajrashib ketmoqda. Oilali talabalarining oilasi mustahkam bo'lishida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tomondan qo'llab-quvvatlash lozim.

Oilali talabalar o'rtasidagi ajrim holatlarini oldini olish maqsadida quyidagi chora- tadbirlarni amalga oshirish zarur:

oliy ta'lim muassasalarida oilali talabalar bilan ishlash bo'limini tashkil etish. Aynan ushbu bo'lim oilali talabalarni qiynayotgan muammolarni aniqlab, ularga tegishli maslahatlar berishi maqsadga muvofiq;

farzandli talabalarining aksariyati bola parvarishi uchun akademik ta'til oladi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida oliy ta'lim muassasalari hududida bog'chalarni tashkil etish va pullik xizmatni joriy qilish lozim. Bunda

to'lovlar kunlik yoki oylik amalga oshiriladi. Bu orqali maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ham ajoyib imkoniyat yaratiladi, talabalar ish bilan ta'minlanadi va nazariy bilimlarini amaliyotda joriy etadi;

talaba onalarga o'qishni oilaviy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish maqsadida barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish: ularga o'zlariga qulay vaqtda darslarga, turli maslahatlarga erkin qatnashish, hattoki test yoki imtihon topshirish imkoniyatini berish;

oilaning mustahkam bo'lishi ko'p hollarda ayol kishiga bog'liq [3].

Fikrimizcha, yosh oilalarni muvaffaqiyatli ilm yo'li va mustahkam oila bekasi sifatida "mustahkam oila va mashaqqatli ilm yo'li" nomli statuetkalarini universitet rahbariyati tomonidan taqdim etilishi yosh oila bekalari uchun o'rnak vazifasini bajaradi.

Yosh oilani moddiy tomondan ta'minlash ham oila mustahkamligini ta'minlovchi omillardan biridir. Hududlardan kelib tahsil olayotgan oilali talabalarining aksariyati ijrada istiqomat qilishadi. Ijara pulini to'lash maqsadida qo'shimcha ish bilan shug'ullanishadi. Mazkur muammoni yechimi

sifatida oilali talabalar uchun "oilaviy talabalar uy"lari tashkil etish;

oilali talabalar uchun kichik tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun kreditlarni joriy qilish;

oliy ta'lim muassasalarida oilali talabalarga ish o'rinlarini ajratish; masalan, talabalarga xizmat ko'rsatish

sohalariga, kutubxonaga, bog'dorchilik kabi ishlarga oilali talabalar uchun bo'sh ish o'rinlarini yaratish; bu orqali oilali talabalar hududdan chiqmay turib, ham o'qishni ham yuklatilgan vazifani bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Багаутдинов А. М., Сафина Л. З. Современная студенческая семья как объект социологического исследования // Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №4. С. 1282–1284.
2. Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. – СПб.: Речь, 2004.
3. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. - М.: Независимая фирма «Класс», 2004.
4. Заикина Г. Развод в России и США / Г. Заикина, Е. Фотеева, У. Доэрти, М. Дж. Хоган // Семья на пороге третьего тысячелетия. - М.: Центр общечеловеческих ценностей, 1995.



УДК: 167.7:316.6:316.453(575.1)

Ситора АБДУСАТТАРОВА,

*и.о.доцента кафедры "Общеобразовательные дисциплины и культура"
Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии PhD,
Докторант (DSc) Национального университета Узбекистана
E-mail: Yasitora777@gmail.com*

На основании рецензии проф. ТГТУ им. И.Каримова, д.ф.н. Н.Нишиновой

EVOLUTION OF THE CONCEPTS "MODEL" AND "MODELING" IN THE CONTEXT OF SOCIAL COGNITION

Annotation

The concepts of "model" and "simulation" play an important role in social cognition and scientific research. The genesis of these concepts and their features are the object of study, since they help us understand and explain complex social phenomena and processes. In this paper we will consider the origin and development of the concepts of "model" and "simulation" in the context of social cognition, as well as their features and significance for scientific research.

Key words: model, modeling, social processes, forecasting, social experiments, mind.

IJTIMOIY BILISH KONTEKSTIDA "MODEL" VA "MODELLASHTIRISH" TUSHUNCHALARINING EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya

"Model" va "modellash tirish" tushunchalari ijtimoiy bilim va ilmiy tadqiqotlarda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tushunchalarning genезisi va ularning xususiyatlari o'rganish murakkab ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tushunish va tushuntirishga yordam beradi. Ushbu maqolada biz "model" va "modellash tirish" tushunchalarining kelib chiqishi va rivojlanishini ijtimoiy bilish kontekstida, shuningdek ularning xususiyatlari va ilmiy tadqiqotlar uchun ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: model, modellash tirish, ijtimoiy jarayonlar, bashorat qilish, ijtimoiy tajribalar, ong.

ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЙ «МОДЕЛЬ» И «МОДЕЛИРОВАНИЕ» В КОНТЕКСТЕ СОЦИАЛЬНОГО ПОЗНАНИЯ

Аннотация

Понятия «модель» и «моделирование» играют важную роль в социальном познании и научном исследовании. Генезис этих понятий и их особенности являются объектом изучения, поскольку они помогают нам понять и объяснить сложные социальные явления и процессы. В данной работе мы рассмотрим происхождение и развитие понятий «модель» и «моделирование» в контексте социального познания, а также их особенности и значение для научных исследований.

Ключевые слова: модель, моделирование, социальные процессы, прогнозирование, социальные эксперименты, разум.

Введение. Истоки понятия «модель» восходят к античности, где оно использовалось в философии и математике для описания и абстрагирования сложных явлений. В социальных науках понятие «модель» развивалось с развитием научного метода и потребности в анализе социальных процессов и взаимодействий. Современное понимание «модели» в социальных науках предполагает создание упрощенных представлений и абстракций реальности, которые позволяют изучать и объяснять сложные социальные явления.

Понятие «моделирование» возникло как метод научного исследования, который позволяет создавать и использовать модели для изучения социальных процессов. В различных социальных науках, таких как социология, экономика, политология и др., моделирование используется для представления и анализа сложных социальных систем и явлений. - Моделирование в социальном познании позволяет формулировать и проверять гипотезы, прогнозировать и предсказывать результаты социальных процессов, а также изучать взаимосвязи и влияние различных факторов.

Модели представляют собой упрощенные представления реальности, которые помогают нам понять и объяснить сложные социальные явления. - Моделирование позволяет ученому создавать и использовать модели для изучения социальных процессов,

проводить эксперименты, анализировать данные и делать выводы. Моделирование также позволяет прогнозировать и предсказывать результаты социальных процессов, что имеет практическое значение для разработки политики, принятия решений и планирования в социальных областях.

Обзор литературы по теме исследования.

Следует раскрыть понятия «модель», «моделирование» не смотря на то, что в работах Платона и Аристотеля они не встречаются. Однако, «эйдос» Платона, «философ-правитель» Аристотеля, идеальное общество (государство) древнегреческих философов содержат признаки, некоторые аспекты концептуального и утопического (футуристического) моделирования. Философскому мирозерцанию всегда сопутствовало утопическое моделирование. С древнейших времён «Запад был колыбелью утопической мысли, именно там было и есть глубокое, развитое, утончённое утопическое мышление, дерзкие и разнообразные утопические эксперименты в малых группах... Утопическая фантазия, создававшая то сияющий счастьем, то набухающий кровью мир будущего, как бы стояла на страже нормальной жизни, не позволяя, с одной стороны, отождествлять фантазию с реальностью, с другой-сдерживая реализм, не допуская, чтобы он перешёл в сверхреализм, в мир холодного расчёта, карающий равно

и ностальгию, и мечту как «мыслепреступление» (что с такой художественной силой изображено в дистопии Оруэлла «1984»). Утопия оказалась союзницей цивилизации»[1].

Методология исследования. Утопия по сути есть некая модель, образ будущего, предполагаемые поведения объекта (предмета). В утопии всегда присутствует мыслительный образ будущего, желаемые нормы, поведение объекта (предмета), идеалы. Рай и ад, о которых говорится в священных книгах, постоянно упоминаются в работах религиозных философов, мистиков и теистов это мистическое, утопическое моделирование будущего человека, экзистенциального бытия. Даже бывали случаи, когда люди, народы хотели побыстрее установить рай на земле. «На исходе средневековья рай из области мечты превратился в непосредственный стимул для отчаянных и опасных земных деяний. Верующие не хотели больше терпеливо ждать блаженства в другом мире и торопили время, требуя установления славного царства»[2].

Утопическое мышление и моделирование присуще не только Западу, оно выражается в эволюции мудрецов Востока, научно-философских воззрениях об идеальном государстве и справедливом обществе мыслителей мусульманского мира. «Этот идеал предполагал уничтожение антагонизмов- как вероисповедных, наиболее бросавшихся в глаза средневековому человеку, так и иных, прежде всего имущественных. Место противоречий должны были занять отношения сотрудничества и взаимопомощи в рамках гармоничного социального целого-Града»[3].

Первый философ арабо-мусульманского мира Юсуф Ибн Исхак аль Кинди (ок.803-ок.872) считал, что цель человеческой жизни- счастье. «В этом вечно меняющемся и непостоянном мире возникновения и уничтожения неизбежны потери и утраты, поскольку счастье нужно искать в постоянстве и неизменности, присущих Миру Разума, интеллигентному Миру. Нам надлежит заботиться о том, чтобы быть счастливыми и избегнуть страданий»- такая установка аль-Кинди[4].

Счастье, как утопическая модель, присутствует в произведениях аль-Фараби, ибн Сина, сообщества Чистых братьев, Ибн Баджи, Ибн Туфейля, Ибн Рушда, Алишера Навои, Бабура, Абая, Махтумкули, Чингиза Айтматова и многих других.

Например, аль-Фараби писал, что целью человеческой жизни является достижение счастья, жить в Добродетельном городе. Добродетельный город- это такой город, в котором объединение людей, целью которых является взаимопомощь в делах, коими обретается истинное счастье (ас-са'ада фи-ль-хакика)... «Счастье- пишет аль-Фараби, - это цель, к которой стремиться каждый человек, ибо оно является неким совершенством...Счастье является самым полезным из предпочтительных благ»[5]. Такое социально-утопическое моделирование человеческих объединений, общества можно увидеть в воззрениях Ибн Сины. В «Книге исцеления» Абу Али описывает того, кто должен управлять человеческим поведением. «Такой человек, коли объявиться, должен устанавливать людям в отношении их дел законы по велению, согласию и внушению всевышнего Аллаха и через ниспослание к нему оным Святого Дух. Так что в основу устанавливаемых им законов будет положено оповещение им людей о том, что у них есть некий всемогущий единосущий творец, что оному ведомо тайное и явное, что повелению его надлежит подчиняться...Ему не следует

обременять их сведениями о всевышнем Аллахе сверх знания того, что он есть единый, истинный и бесподобный. В нескольких своих трактатах Ибн Сина называет его «пророком», и может сложиться впечатление, что философ излагает традиционную исламскую точку зрения на проблему власти. Но анализ его произведений показывает, что представления Абу Али об идеальном правителе не совсем совпадает с исламским»[6]. Было бы конечно недостаточно, говоря о том, что социально-утопические воззрения Абу Али ибн Сины сводят только к идеальному правителю или достижению счастья, он прекрасно понимал, что люди объединяясь, создавая общество могут достичь своих целей. Что полезно, что вредно для человека определяется этим объединением, обществом. Разум правит человеком, обществом, через разум можно познать действительность, истинные причины поведения человека. Социальный человек- желаемая модель философа, именно это отличает разумного человека от неразумного, животного. «Человек же, по Абу Али,- размышляет о будущих делах и принимает соответствующие решения, представляя себя возможные последствия, ближние и дальние, своих поступков и действий. Другими словами, социальность человека заключается в том, что у него есть некий проект будущего, состояния социума, ради которого человек совершает одни действия и отказывается от всех других живых существ, тем, что Ибн Сина называет надеждой».

Анализ и результаты. Социально-утопические воззрения мыслителей Востока показывают, что они будущее моделируют из потребностей развития личности, её духовно-нравственного совершенствования и разумности человеческого бытия. Когда они обращаются к Всевышнему Разуму, трансценденту не забывают потребности человека в социальном объединении, его способности в рациональном познании действительности и в предвидении. Человек способен познавать и предвидеть, мечтать и действовать, моделировать социальные отношения и регулировать их. Вожди, пророки, правители, мыслители были теми людьми, на чьи откровения, пророчества и призыв прислушивались его последователи, единомышленники, единоверцы. Каждое слово этих великих людей, по выражению Т.Карлейля, «героев-пророков», «героев-мыслителей»[7] воспринимались как некая модель, непререкаемая истина, «глас Божье». Мысли, жизнь, деяние этих людей воспринимались как образец, как модель для подражания, как мистическое соединение божественного и человеческого[8].

Заключение и рекомендации. И так, мы считаем, что новое время и последующие века породили модели учёного, модели просветителя, модели революционера, модели рыночных отношений, модели бизнесмена и миллиардера, модели масс. Каждой эпохе – свои герои, свои модели, свои кумиры. С развитием науки и техники, с появлением кибернетики, ЭВМ и новые методы хозяйствования, управления появилась новая отрасль знания- теория моделирования . Сегодня ни одна сфера общественной жизни, социального управления не обойдётся без применения метода моделирования. Успех в управленческой деятельности, достижение социально-экономических, культурных, педагогических целей, задач невозможно без помощи и использования современных, инновационных форм моделирования[9,10].

Понятия «модель» и «моделирование» имеют важное значение в социальном познании и научном исследовании. Генезис этих понятий связан с развитием научного метода и потребности в изучении сложных

социальных явлений. Они позволяют нам создавать упрощенные представления и абстракции реальности, а также прогнозировать и предсказывать результаты социальных процессов. Понимание особенностей и

значения этих понятий помогает нам лучше понять и объяснить социальные явления и взаимодействия в нашем мире.

ЛИТЕРАТУРА

1. Чаликова В. Предисловие//Утопия и утопическое мышление. Антология зарубежной литературы. -Москва: Прогресс,1991. –С.3-4.
2. Мэньюэлль Ф.Э., МэньюэлльФр.П. Утопическое мышление в западном мире//Утопия и утопическое мышление, - Москва: Прогресс, 1991. С.22.
3. Игнатенко А.А. В поисках счастья. Общественно-политические воззрения арабо-мусульманских философов средневековья. – Мысль, 1989. С.5.
4. Игнатенко А.А. В поисках счастья. Общественно-политические воззрения арабо-мусульманских философов средневековья. – Мысль, 1989. С.40.
5. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. –Алма-Ата, Наука, 1973. –С.3.
6. Игнатенко А.А. В поисках счастья. Общественно-политические воззрения арабо-мусульманских философов средневековья. Москва: Мысль, 1989. С.143.
7. Карлейль Т. Герои, почитание героев и героическое в историю – Москва: Эксмо, 2008. С.7-8.
8. Абдырахманов Т.А., Амердинова М.М. Исламский мир: прошлое и настоящее. –Бишкек: Maxprint, 2015. С.13-14.
9. Моделирование экономических процессов: Учебник / Под ред. М.В. Грачевой, Ю.Н. Черемных . - М.: Юнити, 2015. - 543 с.
10. Власов, М.П. Моделирование экономических систем и процессов: Учебное пособие / М.П. Власов, П.Д. Шимко. - М.: Инфра-М, 2015. - 320 с.



Ranusha ATAYEVA,
Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi (PhD)
E-mail: ataeva.r.r@gmail.com,

O'zDJTU professori, f.f.d. D.Djumanova taqrizi asosida

OLIVY MAKTABDA RUS TILI DARSLARINING ASOSIY MAQSADI SIFATIDA KURSANTLARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishga yordam beradigan asosiy ish turlari va shakllari muhokama qilinadi. O'quv jarayonida "kommunikativ kompetentsiya" tushunchasiga metodist-olimlarning turli nuqtai nazarlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentsiya, kasbiy kommunikativ kompetentsiya, o'qitishga yondashuvlar, samarali muloqot, muloqotning mohiyati, o'qituvchi va kursantlarning o'zaro ta'siri, muhokama, suhbat, simulyatsiya o'yini.

FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF CADETS AS THE MAIN GOAL OF RUSSIAN LANGUAGE CLASSES IN HIGHER EDUCATION

Annotation

This article discusses the main types and forms of work that contribute to the formation of communicative competence of students in higher educational institutions. Various points of view of methodological scientists are presented to the understanding of "communicative competence" in the educational process.

Key words: communicative competence, professional communicative competence, approaches to teaching, effective communication, the essence of communication, interaction between teacher and cadets, discussion, conversation, simulation game.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ КУРСАНТОВ КАК ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ ЗАНЯТИЙ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные виды и формы работы, способствующие формированию коммуникативной компетенции обучающихся высших образовательных учреждений. Представлены различные точки зрения ученых-методистов к пониманию «коммуникативной компетентности» в учебно-образовательном процессе.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, профессионально-коммуникативная компетентность, подходы к обучению, эффективное общение, сущность общения, взаимодействие педагога и курсантов, дискуссия, беседа, имитационная игра.

Введение. Проблема коммуникативной компетентности в методике преподавания русского языка по сей день остается актуальной, поскольку от уровня развития коммуникативной компетентности зависит не только социальная сфера обучающихся, в частности курсантов, в высшей школе, но и его учебные успехи, а в дальнейшем и профессиональные. «В этой связи актуализируется проблема развития профессионально-коммуникативной компетенции / компетентности в системе подготовки будущих специалистов в условиях высшей школы» [1]. Общение является главной составляющей жизни человека, а коммуникативная компетентность - составляющий фактор успешности в общении. «Коммуникативная компетентность – одна из важнейших качественных характеристик личности, позволяющая реализовать ее потребности в социальном признании, уважении, самоактуализации и помогающая успешному процессу социализации» [2].

Обзор литературы по теме исследования. Термин «коммуникативная компетенция» был впервые употреблен М.Н. Вятюгневым для обозначения способности человека общаться в трудовой или учебной деятельности, удовлетворяя свои интеллектуальные запросы. Изначально данный термин использовался в

методике обучения иностранным языкам, затем был заимствован представителями других отраслей науки [3].

Коммуникативная компетентность есть фактор эффективного общения, который складывается из личностной и операциональной составляющих. В педагогике одни авторы рассматривают коммуникативную компетентность как отдельную характеристику личности (Л.А. Петровская, Е.В. Сидоренко, Л.А. Цветкова, О.И. Муравьева, И.В. Макаровская), другие – как часть более широкого понятия (В.Н. Куницина, В.А. Спивак), третьи – как часть других видов компетенций, и как отдельную характеристику личности одновременно (Ю.М. Жуков), четвертые – как индивидуальное качество и определенное состояние сознания группы людей (Ю.Н. Емельянов).

Сущность и значение общения рассматривались различными учеными. А.Н. Леонтьев считал, что общение – это определенная сторона деятельности, так как оно присутствует в любой деятельности в качестве ее элемента. По мнению Б.Г. Ананьева важной характеристикой общения является то, что общение, как деятельность, является важным элементом строительства отношений с другими людьми. К. Левин рассматривал общение в старшем возрасте с точки зрения социально-

психологического явления. Он считал, что именно в этом возрасте происходят процессы расширения мировоззрения юношей и девушек, выбирается будущий круг общения и т.д. Д.Б. Эльконин придавал значение роли общения в старшем возрасте с позиции культурно-исторической теории. Он отмечал, что в подростковом возрасте общение является ведущим видом деятельности, но и в юношеском возрасте оно не теряет своего значения. Благодаря общению, учащиеся строят отношения, включаются в различные виды деятельности. Большинство ученых-исследователей (Л.С. Выготский, Л.И. Божович, И.С. Кон) сходятся во мнении, что общение со сверстниками имеет большое значение в становлении личности. Отсюда следует, что сущность коммуникативной компетентности можно представить, как способность и готовность вступать в контакты для решения коммуникативных задач.

Л.А. Петровская презентует коммуникативную компетентность как способность устанавливать и поддерживать необходимые контакты с другими людьми и в состав компетентности включает некоторую совокупность коммуникативных знаний и умений, обеспечивающих эффективное протекание коммуникативного процесса.

Ю.Н. Емельянова коммуникативную компетентность рассматривает как способность к коммуникации; как способность человека взаимодействовать вербально, невербально или молча; как интегративную способность целесообразно взаимодействовать с другими на своем уровне обученности, воспитанности, развития, на основе гуманистических личностных качеств и с учетом коммуникативных возможностей собеседника.

А.В. Мудрик вводит понятие «компетентность в общении», определяя ее как некоторую совокупность знаний, социальных установок, умений и опыта, обеспечивающих эффективное протекание коммуникативных процессов человека.

Анализ источников показывает, что большинство ученых считает образовательные учреждения основным местом формирования коммуникативных компетенций. Таким образом, можно утверждать, что в формировании коммуникативной компетентности человека большую роль играет школа, в частности учебное занятие. Поскольку учебно-образовательный процесс и есть постоянный диалог, коммуникация на различных уровнях.

Методология исследования. Методологической основой данного исследования является коммуникативно-ориентированный подход к обучению курсантов русскому языку в высшей школе.

Анализ и результаты исследования. Эффективность формирования коммуникативной компетентности курсантов зависит от правильно подобранных методов обучения, то есть от способа взаимодействия педагога и курсантов для достижения поставленных на занятии целей. К основным методам по формированию коммуникативной компетентности на занятии русского языка можно отнести следующие:

«Дискуссия - (как метод и форма обучения) целенаправленный и упорядоченный обмен мнениями, суждениями, идеями по спорному вопросу или проблеме, повышающий эффективность учебного процесса за счет включения учащихся в коллективный поиск истины» [4]. В настоящее время существуют различные формы дискуссии – Круглый стол, Дебаты, Аквариум, Симпозиум и др. Дискуссия рассматривается как метод, активизирующий процесс обучения и как средство

формирования коммуникативной компетенции. «Современный специалист – это широко образованный человек, имеющий фундаментальную подготовку в какой-то конкретной области, способный «учиться всю жизнь», постоянно повышая свою квалификацию. При этом знание иностранных языков – необходимое условие его профессионализма, позволяющее ему работать с информацией, доступной мировому сообществу, а также общаться с коллегами по профессии из разных стран» [5]. С помощью данного метода курсанты приобретают новые знания, укрепляются в собственном мнении, расширяют словарный запас, формируют научную речь. Следовательно, главной функцией дискуссии на занятиях русского языка является стимулирование познавательного и коммуникативного процессов. Однако для реализации данного метода необходимы вспомогательные приемы, активизирующие курсантов и способствующие более эффективной работе основного метода. Отметим также, что регулярное «зазубривание» правил, чтение и пересказ текстов различного стиля являются фундаментом для эффективного, результативного использования на занятиях по русскому языку коммуникативно-ориентированных методов обучения.

К примеру, на занятии русского языка по теме «Вид глагола» можно использовать кейсы/лингвистические задачи для организации дискуссии. Сравним: 1. Определите вид глагола: зарабатываю. Какие способы определения вида глагола вам известны? 2. Чем вы объясните существование двувидовых глаголов в языке? Подумайте и выскажите свое мнение. Аргументируйте свою точку зрения. Такого рода формы организации учебной работы снимают барьер между участниками дискуссии, делают сложную грамматическую тему доступной для всех ее участников. Отметим, что данный метод эффективно использовать на более продвинутых этапах занятия, когда курсанты имеют некоторое представление о предмете.

«Метод беседы – психологический вербально-коммуникативный метод, заключающийся в ведении тематически направленного диалога между психологом и респондентом с целью получения сведений от последнего. В педагогике метод беседы может иметь и противоположную направленность и обеспечивать одновременно и донесение для учащихся изучаемого материала и для выяснения уровня и характера освоения ими переданных ранее педагогом знаний» [6].

Сравним: по теме «Грамматические категории глагола» организовать беседу за «Круглым столом» с использованием приема «Ромашка Блума». Вопросы: 1. Назовите грамматические признаки глагола. 2. Что такое грамматический способ определения вида глагола? 3. Как образуются формы времени глагола? 4. Сколько форм лица имеет глагол? 5. Охарактеризуйте форму повелительного наклонения глагола. 6. Какие грамматические категории присущи глаголу, характерные и именным частям речи.

«Тренинг (англ. training от train – обучать, воспитывать) – метод активного обучения, направленный на развитие знаний, умений и навыков и социальных установок. Тренинг достаточно часто используется, если желаемый результат – это не только получение новой информации, но и применение полученных знаний на практике» [7]. «Формирование речевой и коммуникативной компетенции возможно при использовании на занятиях комплекса специальных заданий и упражнений, методов и приемов обучения, в том числе и тренинговых технологий» [8].

Например, за «круглым столом» организовать работу с цветными карточками. Каждая карточка будет содержать название действия (глагол). Преподаватель предлагает продолжить ассоциативный ряд слов. Далее составить рассказ с использованием слов из ассоциативного ряда. Данная форма работы способствует не только коммуникативным навыкам и умениям устной, но и письменной речи.

«Семинар – форма учебно-практических занятий, при которой учащиеся (студенты, стажёры и так далее) обсуждают сообщения, доклады и рефераты, выполненные ими по результатам учебных или научных исследований под руководством преподавателя...» [9]. Согласно учебному плану и учебной программе для высших военных учебных заведений предмет «Русский язык» представляет собой комплекс практических занятий, направленных на развитие коммуникативных умов. В связи с этим семинар как форма организации учебно-воспитательной работы курсантов является максимально эффективным методом и средством обучения на занятиях по языку. Подчеркнем, что данную форму работы рекомендуется проводить на завершающих учебный курс занятиях. Сравним, в качестве домашнего задания можно предложить подготовить информацию об увлечениях, хобби курсантов или любую информацию по интересующей его теме. Такая форма организации учебно-познавательной работы вызовет интерес к предмету, пробудит желание выполнить домашнюю работу и самое главное, поможет сформировать коммуникативные навыки и умения. Опыт показывает, что обычно курсанты готовят устные доклады о спорте, о своих кумирах, девушки-курсантки – о кулинарии и о звездах из мира искусства.

«Дидактические игры – вид учебных занятий, организуемых в виде учебных игр, реализующих ряд принципов игрового, активного обучения и отличающихся наличием правил, фиксированной структуры игровой деятельности и системы оценивания, один из методов активного обучения» [10]. Дидактическая игра на занятии способствует активной или интерактивной учебной деятельности по имитационному моделированию изучаемых тем. В учебно-образовательном процессе используются различные формы деловых игр: имитационные, ролевые игры и другие. Например, использование имитационных

игр по специальности на старших курсах. На занятии имитируется деятельность какой-либо организации, предприятия и др., в нашем случае банка. Имитироваться могут события, конкретная деятельность людей и обстановка, условия, в которых происходит событие или осуществляется деятельность (кабинет начальника отдела и т.д.). В этих играх отрабатываются тактика поведения, действий, выполнение функций и обязанностей конкретного лица, а также профессиональная речь участников игры. Для проведения подобной игры преподаватель заранее готовит модель ситуации, распределяет роли среди курсантов с учетом их уровня владения языком.

Каждый из рассмотренных методов обучения имеет свои особенности, которые необходимо учитывать при их использовании. Для развития и формирования коммуникативной компетентности курсантов на занятиях по русскому языку необходимо использовать комплексный, точнее интегрированный подход к обучению. Поскольку каждый метод обучения имеет свои особенности. Грамотное комбинирование и использование комплекса методов гарантирует высокий уровень развития коммуникативных навыков и умений курсантов.

Заключение и предложения. На основе анализа различных подходов к проблеме развития коммуникативных навыков и умений курсантов мы пришли к выводу о том, что общение – один из важнейших факторов личностного развития человека. Коммуникативная компетентность влияет на учебную успешность; от коммуникативной компетентности во многом зависит процесс адаптации курсанта к высшей школе; коммуникативная компетентность курсантов может рассматриваться в образовательном процессе как ресурс эффективности и благополучия его будущей жизни.

Таким образом от того насколько правильно выбрать методы формирования коммуникативной компетентности будет зависеть как развиваются различные стороны жизни курсанта. В состав коммуникативной компетенции входят лингвистический, социолингвистический и прагматический компоненты. Коммуникативная компетенция формируется в ходе социального взаимодействия и реализуется в речевой деятельности.

ЛИТЕРАТУРА

1. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/17141/1/%D0%9A%D0%9E%D0%9C%D0%9C%D0%A3%D0%9D%D0%98%D0%9A%D0%90%D0%A2%D0%98%D0%92%D0%9D%D0%90%D0%AF%20%D0%9A%D0%9E%D0%9C%D0%9F%D0%95%D0%A2%D0%95%D0%9D%D0%A2%D0%9D%D0%9E%D0%A1%D0%A2%D0%AC%20%D0%9A%D0%90%D0%9A%20%D0%A4%D0%90%D0%9A%D0%A2%D0%9E%D0%A0%20%D0%9B%D0%98%D0%A7%D0%9D%D0%9E%D0%A1%D0%A2%D0%9D%D0%9E-%D0%9F%D0%A0%D0%9E%D0%A4%D0%95%D0%A1%D0%A1%D0%98%D0%9E%D0%9D%D0%90%D0%9B%D0%AC%D0%9D%D0%9E%D0%93%D0%9E%20%D0%A0%D0%90%D0%97%D0%92%D0%98%D0%A2%D0%98%D0%AF%20%D0%91%D0%A3%D0%94%D0%A3%D0%A9%D0%95%D0%93%D0%9E%20%D0%A1%D0%9F%D0%95%D0%A6%D0%98%D0%90%D0%9B%D0%98%D0%A1%D0%A2%D0%90.pdf>
2. Захарова Т.В., Басалаева Н.В., Казакова Т.В., Игнатъева Н.К., Киргизова Е.В., Бахор Т.А. КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ: ПОНЯТИЕ, ХАРАКТЕРИСТИКИ // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 4.
3. Бочарникова М.А. Понятие «коммуникативная компетенция» и его становление в научной среде / М.А. Бочарникова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2009. – № 8 (8). – С. 130-132.
4. <https://didacts.ru/termin/diskussija.html>
5. <https://www.hse.ru/data/2011/03/20/1211261853/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BA%D1%83%D1%81%D1%81%D0%B8%D1%8F%20%D0%BA%D0%B0%D0%BA%20%D0%BC%D0%B5%D1%82%D0%BE%D0%B4%20%D0%BF%D1%80%D0%BE%D0%B1%D0%BB%D0%B5%D0%BC%D0%BD%D0%BE%D0%B3%D0%BE%20%D0%BE%D0%B1%D1%83%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F.pdf>

6. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B5%D1%82%D0%BE%D0%B4_%D0%B1%D0%B5%D1%81%D0%B5%D0%B4%D1%8B <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/68543>
7. Совершенствование системы тренингов по обучению русскому языку. //Преподавание языка и литературы. – Ташкент, июнь-2023. №6. - С. 84-86.
8. Совершенствование системы тренингов по обучению русскому языку. //Преподавание языка и литературы. – Ташкент, июнь-2023. №6. - С. 84-86.
9. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%B0%D1%80>
10. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D0%B4%D0%B0%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B5_%D0%B8%D0%B3%D1%80%D1%8B



Suhrob BO'RONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: suhrobburanov@gmail.com

Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti, s.f.n Sh.Akmalov taqrizi asosida

USA AND THE TALIBAN: NEGOTIATIONS, STRATEGY AND TACTICS

Annotation

This article analyzes the negotiations between the US and the Taliban, Washington's Afghanistan policy, strategy and tactics after 2021, and the retrospective and prospective approaches of the "cooperation" with the Taliban in this regard.

Keywords. Taliban, Haqqani network, Blackwater, Al-Qaeda, ISIS, Zalmay Khalilzad, SIGAR, Central Asia, CIA, Wagner.

США И ТАЛИБАН: ПЕРЕГОВОРЫ, СТРАТЕГИЯ И ТАКТИКА

Аннотация

В данной статье анализируются переговоры между США и Талибаном, политика, стратегия и тактика Вашингтона в Афганистане после 2021 года, а также ретроспективные и перспективные подходы «сотрудничества» с Талибаном в этом отношении.

Ключевые слова. Талибан, Сеть Хаккани, Блэкуотер, Аль-Каида, ИГИЛ, Залмай Халилзад, SIGAR, Центральная Азия, ЦРУ, Вагнер.

AQSH VA TOLIBON: MUZOKARALAR, STRATEGIYA VA TAKTIKA

Annotatsiya

Ushbu maqolada AQSH va "Tolibon" o'rtasida o'tkazilgan muzokaralar, Washingtonning 2021 yildan keyingi Afg'oniston siyosati, strategiyas va taktikasi, bu borada "Tolibon" bilan yo'lga qo'yilgan "hamkorlik"ning retrospektiv va perspektiv yondashuvlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Tolibon, Haqqoniy tarmog'i, Blackwater, Al-Qoida, ISHID, Zalmay Xalilzod, SIGAR, Markaziy Osiyo, MRB, "Vagner".

Kirish. 2001 yildan 2021 yilgacha Amerika Qo'shma Shtatlarining Afg'onistondagi asosiy manfaati Yevroosiyo makonida o'z geosiyosiy ta'sirini saqlab turish va shu orqali Rossiya, Xitoy, Eron singari geosiyosiy raqobatchilar ta'sirini jilovlab turishdan iborat ekanligi namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, Washington mazkur davr davomida Kaspiy dengizi va Markaziy Osiyo mintaqasidan Afg'oniston orqali o'tadigan Hind okeanigacha bo'lgan geosiyosiy makonda neft va gaz quvurlari, transport kommunikatsiyalari ustidan boshqaruvni to'la o'z nazoratiga olishga intilib kelgan edi. AQSH qo'shinlarining Afg'oniston hududini 2021 yil avgustda tark etishi, natijada "Tolibon" harakatining (TH) Kobul hokimiyatini qayta egallashi, shuningdek, 2022 yilda Rossiya-Ukraina urushining boshlanishi Afg'oniston muammosini jahon siyosati e'tiboridan biroz chetda qoldirdi. Biroq, mojaro o'z keskinligi va dolzarbligini aslo yo'qotgani yo'q.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. THning harbiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida tashqi omillarning, ayniqsa AQSH va Pokiston maxsus xizmatlarining o'rni katta. Siyosiy fanlar doktori, professor A.Haydarovning bu haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Tolibonning qat'iyligi faqat ichki omillar bilan izohlanmaydi. Biz THni ularning mafkuraviy ittifoqchilari – Pokistonning turli radikal islomiy partiyalari tomonidan bo'lgan tashqi qo'llab-quvvatlash orqali ko'rib chiqishimiz kerak. Ular Afg'oniston hududida "Tolibon" va Al-Qoidaning qolgan qismlariga juda katta ruhiy, siyosiy, ehtimol, boshqa yordamlarni ko'rsatishgan"[1]. Mahalliy afg'onshunos ekspert Sh.Akmalov THning kelib chiqishiga katta "hissa" qo'shgan tashki omilning o'rni xususida quyidagi ma'lumotni iqtibos sifatida keltirib o'tadi: "Toliblarning harbiy-siyosiy kuch sifatida namoyon bo'lishiga Pokiston,

AQSh maxsus xizmatlarining aralashuvi orqali (GFR mudofaa vazirligining parlamentdagi vakili Andreas fon Byulovning 2002 yil 13 yanvarda "Tagesspiegel" nemis zabon gazetasiga bergan intervyusida ta'kidlashicha, "Tolibon" harakati Amerika Markaziy razvedka boshqarmasining yordamida tuzilgan) faol va bevosita hissa qo'shgan"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik, tizimli-mantiqiy, kontent va qiyosiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. AQShning "Tolibon" harakati bilan aloqalari, strategik va taktik rejaları haqida chuqur ilmiy mulohazalar bildirish masalani retrospektiv va perspektiv yondashuvlar asosida tahlil qilishni taqozo etadi. AQSh prezidentining sobiq milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Z.Bzejinskiyning fransuz jurnali "Le Nouvel Observateur" bilan intervyusida tan olgan haqiqatlarida ham aynan buning tasdig'ini ko'rish mumkin:

"Le Nouvel Observateur: Sovetlar o'z bosqinini Qo'shma Shtatlarning maxfiy aralashuviga qarshi kurashish uchun amalga oshirganini ta'kidlab, o'zlarini oqlaganida bu haqiqat bo'lsa ham ularga hech kim ishonmagan edi. Bugun bu narsalardan afsuslanmaysizmi?

Zbigneu Bzejinskiy: Nimadan afsuslanashim mumkin? Maxfiy amaliyot ajoyib g'oya bo'lgan edi. Uning amalga oshishi natijasida ruslar afg'on tuzog'iga tushishdi va siz bundan afsuslanishimni istaysizmi? Sovetlar Afg'oniston chegarasini kesib o'tishganida men prezident Karterga shunday yozdim: "Bizda endi SSSRga o'zimizga tegishli bo'lgan Vetnam urushini taqdim etish imkoniyati mavjud".

"Le Nouvel Observateur: Siz, shuningdek, islom fundamentalizmini rag'batlantirganingizga, bo'lajak

terrorchilarga qurol va maslahat berganingizga ham afsuslanmaysizmi?

Zbignev Bzejinskiy: Jahon tarixi nuqtai nazaridan nima muhimroq? "Toliblar" yoki sovet imperiyasining inqirozi? Bir qancha islom mutaassiblari yoki Markaziy Yevropaning ozod etilishi va sovuq urushning tugashimi?"[3].

Ma'lumki, AQSh 2018 yildan 2020 yilgacha "Tolibon" harakati bilan muzokaralar olib borishda eng faol aktorga aylandi. Afg'oniston va uning atrofidagi geosiyosiy voqe'liklar D.Tramp rahbarligidagi AQSh ma'muriyati va "Tolibon" harakati o'rtasidagi muzokaralar formatining Vashington manfaatlariga mos tushishiga olib keldi va buning bir qator sabablari mavjud:

*Birinchi*dan, bir qancha muddat davomida Markaziy Osiyo va Afg'onistonni Vashington manfaatlariga asoslangan xavfsizlik xalqasi orqali birlashtirish strategiyasining muvaffaqiyatsiz yakunlanganligi. Natija esa D.Tramp ma'muriyati oldiga Qo'shma Shtatlarning afg'on siyosatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shunday holatda, AQShning Afg'onistonda harbiy omilni qaytadan kuchaytirishga urinishi, shubhasiz, Markaziy Osiyo bilan ham munosabatlarni keskinlashtirib qo'yishi mumkin edi. 2020 yil fevral oyi boshlarida AQSh Davlat departamenti tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyo strategiyasi [4] ayni shu jihatlarni ko'zda tutadi. Shu sababdan, AQSh Afg'oniston va uning atrofidagi geosiyosiy manfaatlarini shaklini mintaqa tomonlari qiziqishiga sabab bo'ladigan siyosiy muzokaralar jarayonini rag'batlantirish omiliga qaratdi. Bunday omilni Afg'oniston ichki siyosiy jarayonlarida real muxolif kuchga aylangan "Tolibon" harakati bilan muzokaralar o'tkazish orqali amalga oshirish mumkin edi;

*Ikkinchi*dan, "Tolibon" harakatining moliyaviy-harbiy ta'minot ko'makchilari doirasi kengayib, Vashingtonning Afg'onistondagi manfaatlariga daxl qiluvchi turli ko'rinish va shakllarda o'zgarib borganligi;

*Uchinchi*dan, Amerika hukmron doiralarda "Tolibon" harakati bilan muzokaralar o'tkazishning boshqa zaruriy sabablari ham mavjud. Siyosiy tahlilchi, ekspert R.Mahmudov D.Trampni "toliblar" bilan muzokaralar jarayonini qayta tiklash haqidagi qarorini ikki muhim omil, ya'ni strategik va taktik sabablar bilan baholaydi: "Strategik jihatdan "toliblar" bilan kelishuv AQSh uchun juda zarur, negaki Amerika jamiyati mamlakat tarixida eng uzoq davom etayotgan urushdan charchadi va yakuni ko'rinmayotgan turli harbiy amaliyotlarga katta moliyaviy resurslar sarflashni istamaydi. Taktik jihatdan esa, 2020 yildagi yangi prezidentlik saylovlari arafasida tashqi siyosiy arenada ijobiy yangiliklar bo'lishi o'sha paytdagi Amerika prezidenti (D.Tramp) uchun juda zarur edi"[5]. Turli baholashlarga ko'ra, uzoq yillik urush davomida Qo'shma Shtatlarning 2,400 dan ortiq harbiylari halok bo'lgan, 20,000 dan ortig'i jarohatlangan. Vashington urushga 2 trillion dollarga yaqin mablag' sarflagan[6]. Amerika universitetining Xalqaro xizmatlar maktabi fakulteti tadqiqotchisi Xayde Shurter (Heide Schurter) tadqiqot dissertatsiyasida AQSh siyosatining Afg'onistondagi muvaffaqiyatsizligi sababi o'z vaqtida afg'onlarning o'zlariga boshqaruvni topshirish imkoniyati berilmagani hamda harbiy harajatlar, moliyaviy resurslarning ayni shu maqsadga safarbar etilmaganidir[7], deb xulosa qiladi. 2019 yil so'nggida "Washington Post" nashri tomonidan chop etilgan Afg'onistondagi urush haqiqatlariga oid maxfiy hujjatlarda ham AQSh generallaridan tortib diplomatlarigacha Afg'oniston urushiga tanqidiy munosabatda bo'lganligiga oid intervyular[8] jamlangan. Shunday sharoitda, D.Tramp boshchiligidagi AQSh rahbariyati Afg'onistondagi urush harajatlari va harbiy omilni kamaytirish vazifasini dolzarb masala sifatida belgiladi. Bizningcha, AQShning

Afg'onistondan "chiqib ketishi"ga boshqa asosiy sabab geosiyosiy omil bilan bog'liq bo'lib, buni Rossiyaning Ukrainada urush qilishga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari bilan izohlash, o'rinni bo'ladi. O'z navbatida, "Tolibon" harakatining AQSh bilan muzokaralar o'tkazish zarurati (majburiyati) ham diqqatga sazovor:

*Birinchi*dan, xorijiy harbiy kuchlarni Afg'onistondan to'liq olib chiqilishiga erishish va shu yo'l bilan Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatish ushbu harakatning asosiy maqsadi hisoblanar edi. Harakat rahbarlari bunday maqsadni amalga oshirishda Afg'onistonda eng ko'p sonli xorijiy qo'shinlarga ega bo'lgan AQSh bilan muzokaralar o'tkazish to'g'ri yo'l ekanini juda yaxshi anglashar edi;

*Ikkinchi*dan, "Tolibon" vakillari Afg'onistonda uzoq yillar davomida katta harbiy va moliyaviy resurslarni urush olib borishga safarbar etdi. Bunday resurslarni asosan tashqaridan kelishi va muntazam harbiy harakatlarni afg'on jamiyati tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmasligi natijasida aholi ko'z o'ngida tinchlik muzokaralari olib borish lozim edi. Xalqaro inqiroz guruhining Afg'oniston bo'yicha maxsus Burxon Usmonning ta'kidlashicha, "Tolibon" harakatining muzokaralarga moyilligi ularning jang maydonida to'liq g'alabala qozona olmasligi dalili bilan izohlanadi"[9]. Shu asnodda, ushbu harakatning nazdida AQSh bilan muzokaralarga kirishish "qo'g'irchoq Afg'oniston hukumati" mavqeini tushirib, mamlakat ichida "Tolibon" harakatining ijtimoiy-siyosiy nufuzini mustahkamlagan bo'lardi;

*Uchinchi*dan, AQSh-"Tolibon" muzokaralari formati Afg'oniston geosiyosiy tendentsiyasida muhim rolga ega bo'lgan davlatlarni ham "Tolibon" bilan tegishli aloqalar o'rnatishiga olib kelardi. Tabiiyki, bu "Tolibon" harakatining mintaqaviy nufuzini oshirish imkoni bilan birga, istiqbolda mintaqaviy davlatlari va jahon hamjamiyati tomonidan ushbu harakatni rasmiy ravishda tan olish uchun imkoniyatlar hozirlagan bo'lar edi. O'z vaqtida terrorchi va harbiy jinoyatchi sifatida tanilgan, "Tolibon" harakatining "Haqqoniy tarmog'i" rahbari Sirojiddin Haqqoniy tomonidan "New York Times" nashrida "Biz, "Tolibon" nima istaymiz?" sarlavhasi ostida maqola chop etilishi ayni shunday maqsadlarni ko'zda tutadi. Unda keltirilgan quyidagi fikrlar alohida e'tiborga molikdir: "Biz xalqaro sheriklarimiz bilan uzoq muddatli tinchlik va qayta tiklanish bo'yicha o'zaro manfaatlar asosida ishlashga tayyormiz. Biz barcha davlatlar bilan do'stona aloqalarni saqlab qolish muhim ekanligini tan olgan holda, ularning xavotirlarini jiddiy qabul qilamiz. Yangi Afg'oniston xalqaro hamjamiyatning mas'uliyatli a'zosisiga aylanadi"[10];

*To'rtinchi*dan, "Tolibon" harakatini o'z siyosiy maqsadini ro'yobga chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida tanlagan davlatlar yoki ularni bilvosita qo'llab turgan ayrim kuchlar ushbu harakatni muzokaralarga jalb etish orqali Afg'oniston siyosatida o'z ta'sir kuchini namoyon etgan bo'lar edi.

AQSh rahbariyati yuqorida qayd etilgan omillar va belgilangan strategik hamda taktik vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida kelib chiqishi afg'on bo'lgan diplomat Zalmay Xalilzodni AQSh Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili sifatida tayinladi[11]. Zalmay Xalilzod va "Tolibon" harakatining Qatardagi siyosiy mahkamasi rahbariyati o'rtasida olib borilgan ko'p raundlik muzokaralar natijasida 2020 yilning 29 fevral sanasida Qatar poytaxti Doha shahrida "Amerika Qo'shma Shtatlari va "Tolibon" o'rtasida Bitim[12] imzolandi. Bizningcha, AQSh va "Tolibon" "kelishuvi"ni Afg'onistonda tinchlikni ta'minlashga qaratilgan qadam, deb hisoblab bo'lmaydi va bunga quyidagi shubhali masalalarga javob izlash va ularga oydinlik kiritish zaruriyati mavjud:

-ikki tomon muzokaralari yopik eshiklar ortida o'tkazilgani, uning "jentelmencha kelishuv" yoxud yozma

shartlari borasidagi bo'limlari hali hanuz pinhon tutilishi diqqat-e'tiborni tortadi. "Kelishuv" ko'proq Qo'shma Shtatlarning strategik manfaatlariga xizmat qilishini ko'rsatmoqda. Xususan, Afg'onistonning bir qator ekspertlari ushbu bitimni Qo'shma Shtatlarning Afg'onistondagi o'z manfaatlarini turli shakllarda aks ettirishga urinishidir, deb baholamoqda. "Ormon-e milli" gazetasida nashr etilgan maqolada Amerika va "Tolibon" vakillari o'rtasidagi muzokaralar jarayoni tafsilotlari Afg'oniston xalqi va hattoki, hukumatdan sir tutilgani, parda ortida yuz berayotgan o'yinlar o'z o'rnini afg'onlararo muzokaralarga bo'shatishi zarurligi haqida so'z boradi [13]. Bundan tashqari, "Ufuqnews" axborot saytida keltirilgan maqolada Afg'onistonning bo'lajak taqdiri AQSh va "Tolibon" harakati soyasida qolmasligi lozimligi ta'kidlanadi [14].

-taxminlarga ko'ra, AQSh Afg'onistonda o'z harbiy ta'sirini razvedka xizmati xodimlari, instruktorlar, xususiy harbiy kompaniyalar yoki muhim strategik savdo ob'ektlarini qo'riqchilari sifatida saqlab qoladi [15]. NBC telekanalida e'lon qilingan xabarda D.Tramp Afg'onistondagi Amerika askarlarini "Blackwater" xususiy harbiy kompaniyasiga almashtirish variantlarini ko'rib chiqayotgani ma'lum qilinadi. Xabarda prezidentga ushbu taklifni kompaniya asoschisi Erik Prins bildirgani qayd etilgan [16]. "Afghanistan Times" gazetasida chop etilgan xabar esa Afg'onistonda turli tanqidiy bahs va munozaralarga sabab bo'ldi. Xabarga ko'ra, E.Prins Qo'shma Shtatlar 29 fevral bitimidan keyin "Tolibon" harakati bilan hamkorlik qilishni mo'ljallagan. Prinsning ta'kidlashicha, bunda "Tolibon" Afg'onistonda "DOISH" va boshqa terrorchi guruhlariga qarshi kurashish uchun javobgar bo'ladi [17]. "Tolibon" rasmiylaridan birining "Al Jazeera" axborot kanaliga bergan ma'lumotiga ko'ra, 300,000 dan ortiq yengil qurollar, 26,000 dan ortiq og'ir qurollar va 61,000 ta Amerika harbiy texnikalari "Tolibon" qo'l ostida qolgan [18]. AQShning Milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchi eksperti Jeyk Sollivanning aytishicha, hozirda ushbu harbiy qurollar, texnikalar va boshqa vositalar haqidagi aniq ma'lumotlar maxfiy xususiyatga ega, lekin ular endi "Tolibon" kuchlari nazorati ostiga o'tgan [19]. AQSh harbiy-dengiz kuchlarining sobiq harbiylaridan biri, kongresmen Jim

Banksning tasdiqlashiga ko'ra, "Tolibon" 85 mlrd dollarga baholanadigan AQSh qurollariga ega. U bu qurollarning miqdorini 75,000 harbiy avtomobil, 200 ta samolyot va vertolyotlar, 600,000 ta kichik va yengil qurollar bilan izohlaydi [20]. Bizning fikrimizcha, AQShning amaldagi prezidenti J.Bayden ham ushbu siyosatni davom ettirmoqda. "Tolibon" kuchlarining Kobul hokimiyatini qiyinchiliklarsiz qayta qo'lga kiritishi AQSh strategiyasining taktik jihatlarini o'zida namoyon etadi. Ushbu masalada Afg'onistonning sobiq hukumati mulozimlari qiziqarli va e'tiborli fikrlarni bildirmoqda. Jumladan, Afg'oniston Milliy xavfsizlik boshqarmasining sobiq rahbari Rahmatilla Nabil "Tolibon"ni "Amerikaning mintaqadagi "Vagner" guruhi"ga [21], qiyoslagan. Afg'onistonning sobiq vitse prezidenti Amrullo Solih esa o'z intervyularidan birida "Tolibon" Afg'onistonda 900 ta NNT yaratgani va MRB "Tolibon" vakillariga har haftada shu NNTlar orqali 80 mln dollar mablag' o'tkazib turishi, hozirgacha bu raqam 5 mlrd dollardan oshganini ta'kidlar ekan, "Tolibon" bu "AQShning maxfiy vassalidir" [22], deb ma'lum qiladi. Afg'onistonni qayta tiklash bo'yicha maxsus bosh inspektor Jon Sopkoning Vashington NNTlar orqali "Tolibon"ga "yordam" bergani xususidagi AQSh Kongressi Vakillar palatasining Tashqi ishlar qo'mitasida qilgan hisoboti ham Amrullo Solihning fikrlarini ma'lum ma'noda tasdiqlaydi. Jon Sopkoning ta'kidlashicha, 2021 yildan keyin ham AQSh Afg'onistondagi eng katta donor davlat bo'lib, ikki yil davomida Vashington tomonidan Afg'onistonga 11,11 mlrd dollar ko'mak ko'rsatilgan. Shulardan 3,5 mlrd dollari Afg'on Fondiga o'tkazib berilgan [23].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda Qo'shma Shtatlarning Afg'oniston strategiyasi butun Yevroosiyo geosiyosatining asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalar, ma'lumot-dalillar va ayrim hisobotlar bugungi kunda AQShning Afg'oniston va uning atrofidagi maqsadlari "Tolibon" vositasi orqali amalga oshirilayotganidan darak beradi. Bu esa Amerikaning Afg'onistondagi strategiyasi emas, aksincha taktikasi o'zgartirganini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Khaydarov A. Role of ethno-religious factor in stabilization of internal political situation in Afghanistan and its impact on Central Asia. // K Santhanam, Ramakant Dwivedi. India and Central Asia. Advancing common interest. –New Delhi, 2004. – P. 291.
2. Акмалов Ш. "Толибон" ҳаракатининг Афғонистондаги сиёсий жараёнлардаги роли. // Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Вазирлик миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами (Тошкент, 22.05. 2017 й. № 10). – Т.: ТДШИ, 2017. – Б. 93.
3. Каранг: Маначинский А.Я. Афганистан среди гор и войн (исследования 2009 года). – М.: Издатель Воробьев А.В., 2015. – С.40-41.
4. United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity // United States Department of State, February 5, 2020. <https://www.state.gov/united-states-strategy-for-central-asia-2019-2025-advancing-sovereignty-and-economic-prosperity/>
5. Махмудов Р. Зачем Трамп перезагружает переговоры с "Талибаном"? // Клуб «Валдай», 10.12.2019. <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/zachem-trump-perezagruzaet-peregovory-s-talibanom/>
6. Richard N. Haass. How Not to Leave Afghanistan // Project Syndicate, March 3, 2020. <https://www.project-syndicate.org/commentary/trump-us-taliban-agreement-poor-prospects-by-richard-n-haass-2020-03>
7. Schurter H. The failures of U.S. policy in Afghanistan and the lessons learned. In partial fulfillment of the Requirements for the degree of Master of Arts in International Peace and Conflict Resolution. Washington, 2013. – P. 105-106.
8. Whitlock C. At War With The Truth. The Afghanistan Papers: A secret history of the war // Washington Post, December 9, 2019. <https://www.washingtonpost.com/graphics/2019/investigations/afghanistan-papers/afghanistan-war-confidential-documents/>
9. Мануков С. Мирные переговоры в Афганистане: «Не хотим войны, но можем воевать вечно» // EADaily, 2 декабря 2018. <https://eadaily.com/ru/news/2018/12/02/mirnye-peregovory-v-afganistane-ne-hotim-voynu-no-mozhem-voevat-vechno>
10. Haqqani S. What We, the Taliban, Want // The New York Times, February 20, 2020. <https://www.nytimes.com/2020/02/20/opinion/taliban-afghanistan-war-haqqani.html>

11. Zalmay Khalilzad – Special Representative for Afghanistan Reconciliation // United States Department of State, September 21, 2018. <https://www.state.gov/biographies/zalmay-khalilzad/>
12. “Толибон” сифатида маълум, давлат сифатида Қўшма Штатлар томонидан тан олинмаган Афғонистон Исломи Амириги ўртасида Афғонистонда тинчликка эришиш тўғрисида”ги Битим / Agreement for Bringing Peace to Afghanistan // United States Department of State, February 29, 2020. <https://www.state.gov/agreement-for-bringing-peace-to-afghanistan/>
13. بازی های پشت پرده! آرمان ملی، سه شنبه ۲۲ دلو ۱۳۹۸، شماره ۲۵۸ – ص.۲.
14. (Бозихоёе пўшт-е парда! Ормон-е милли, сешанба 22 далв 1398, шўмора 258. – С.2.)
15. Парда ортидаги ўйинлар! “Армони миллий” газетаси, 2020 йил 11 февраль, 258 сон. – Б.2.
16. سرنوشت جمهوريت، زیر سایه امريكا و امارات // <https://ufuqnews.com/archives/141182> خبرگزاری افق، فوریه 29، 2020.
17. Серенко А. Вывод американских войск из Афганистана - предвыборный трюк Трампа // Politrus экспертно-аналитическая сеть, 14.03.2020. <http://www.politrus.com/2020/03/14/afghanistan-usa-9/>; Сотников В., Асафов А. Победоносная война не удалась: выведут ли США войска из Афганистана // RT на русском, 2 марта 2020. <https://russian.rt.com/world/article/723790-ssha-afganistan-voiska>
18. Lee C., Kube C., Lederman J. Officials worry Trump may back Erik Prince plan to privatize war in Afghanistan // NBC News, August 17, 2018. <https://www.nbcnews.com/news/military/officials-worry-trump-may-back-erik-prince-plan-privatize-war-n901401>
19. US offers Blackwater role to Taliban // Afghanistan Times, April 28, 2020. <http://www.afghanistantimes.af/us-offers-blackwater-role-to-taliban/>
20. “Taliban to create Afghanistan ‘grand army’ with old regime troops,” Al Jazeera, February 22, 2022, <https://www.aljazeera.com/news/2022/2/22/taliban-create-grand-army-afghanistan-old-regime-troops>.
21. Congressional Research Service, “U.S. Military Withdrawal and Taliban Takeover in Afghanistan,” R46879. – P.67.
22. Taliban has access to \$85 billion US weapons, Republican congressman warns // Independent TV. <https://www.independent.co.uk/tv/news/taliban-has-access-to-85-billion-us-weapons-v93e11819?amp>
23. نبيل طالبان را گروه واگنر امريكا در منطقه خواند.
24. <https://8am.media/nabil-called-the-taliban-the-wagner-group-of-america-in-the-region/>
25. Амрулла Салех: в Афганистане готовят бойцов для прокси-армии исламистов. Независимая газета, 13.11.2023. https://www.ng.ru/ideas/2023-11-13/8_8875_afganistan.html
26. Testimony of John F. Sopko Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction. SIGAR, November 14, 2023. – P.8.



UDK: 331.08:683.1(575.1)

Abbos GULMURODOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Sotsi.f.d., prof. T. Matibaev taqrizi asosida

TEMIR YO‘L SOHASIDA XODIMLARNI KASBIY TAKOMILLASHUVI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV)

Annotatsiya

Ushbu maqoladan maqsad O‘zbekistondagi yosh mutaxassislarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning xususiyatlarini sotsiologik tahlil asosida yoritib berish va ularni yaxshilashga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Kalit so‘zlar: sotsiologik tahlil, respondent, mehnat jarayoni, sotsiomadaniy taraqqiyot, mehnatga haq to‘lash.

A SOCIOLOGICAL STUDY ON THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF EMPLOYEES IN THE RAILWAY SECTOR (SOCIOLOGICAL APPROACH)

Annotation

The purpose of this article is to shed light on the characteristics of the development of the management culture of young professionals in Uzbekistan based on sociological analysis and to develop scientific and practical recommendations for their improvement.

Key words: sociological analysis, respondent, labor process, socio-cultural development, payment for labor.

СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РАБОТНИКОВ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ (СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД)

Аннотация


Цель данной статьи – на основе социологического анализа осветить особенности развития управленческой культуры молодых специалистов в Узбекистане и разработать научно-практические рекомендации по ее совершенствованию.

Ключевые слова: социологический анализ, респондент, трудовой процесс, социокультурное развитие, оплата труда.

Kirish. O‘zbekistondagi yosh mutaxassislarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning xususiyatlarini sotsiologik tahlil asosida yoritib berish va ularni yaxshilashga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida “Temir yo‘l AJ” da ishlovchi xodimlar orasida anketa so‘rovi o‘tqazildi, hamda temir yo‘l sohasida ishlovchi yosh mutaxassis kadrlarning boshqaruvi jamiyat sotsiomadaniy taraqqiyotiga ta‘siri o‘rganish bo‘yicha Toshkent, Qarshi va Buxoro shaharlarida sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Mazkur

tadqiqotlarda 1500 nafarga yaqin “Temir yo‘l AJ” da ishlovchi xodimlar ishtirok etishdi. Yaroqli, deb to‘ilgan 1134 ta anketa so‘rovnomasidan tahlil jarayonlari uchun foydalanildi.

Demak, mazkur sotsiologik tadqiqotlarda Toshkent, Qarshi va Buxoro shaharlarining “Temir yo‘l AJ” da ishlovchi 1134 nafar xodimlar ishtirok etishdi. So‘rovda ishtirok etganlarning Toshkent (36%), Buxoro (32,3%) hamda Qarshi (31,7%) shaharlariga to‘g‘ri keldi (1-rasm).



1-rasm. Respondentlarning soni hudud kesimida

Mazkur sotsiologik so‘rovda ishtirok etganlarning 84,6% erkak jinsiga mansub bo‘lsa, 15,4% Respondentlarimiz mos ravishda ayol jinsiga tegishli ekanligini qayd etgan. Hududlar kesimida eng ko‘p ayol Respondentlar Toshkent shahrida – 201 nafar, Buxoroda – 160 nafar, Qarshida esa 97 nafar to‘g‘ri keldi.

So‘rovnomada ishtirok etgan Respondentlarning yosh kesimida eng ko‘p yoshdagi respondentlar bular 31 dan 35 yoshgacha bo‘lib, ular 285 nafarni tashkil etdi. 26 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan Respondentlarimiz esa 228 nafarni tashkil etib, tadqiqotimizni maqsadi temir yo‘l sohasida ishlovchi


yosh mutaxassis kadrlarning boshqaruvi jamiyat sotsiomadaniy taraqqiyotiga ta‘siri o‘rganish bo‘lganligi bois, yosh mutaxassis kadrlarning tanlab olish orqali so‘rovni amalga oshirdik. 20 yoshgacha – 28 nafar, 21 yoshdan 25 yoshgacha – 91 nafar, 36 yoshdan 40 yoshgacha – 238 nafar, 41 yoshdan 45 yoshgacha – 126 nafar, 46 yoshdan 50 yoshgacha – 77 nafar, 51 yoshdan 55 yoshgacha – 43 nafar to‘g‘ri keldi. So‘rovnomada natijalariga ko‘ra, 159 nafari o‘rta maxsus, 353 nafari tugallanmagan oliy mahlumot, 950 nafari oliy mahlumot va 15 nafari ilmiy darajaga ega.

Mazkur sotsiologik so'rovning respondentlar tanloviga ko'ra, ishtirokchilarning 121 nafari 3 yildan beri ushbu tashkilotda ishlaydi. Qolgan 454 nafari 5 yildan beri, 451

nafari 10 yildan beri, 148 nafari 15 yildan beri va 108 nafari 20 yildan ortiq vaqtdan beri temir yo'lda ishlaydi (4-jadval, 5-rasm).

1-jadval

	15 yil	5 yil	20 va undan ortiq	3 yil	10 yil
Jami soni	148	454	108	121	451
Jami ulushi	13%	40%	9,50%	10,60%	39,70%



2-rasm. Respondentlarning ushbu tashkilotda ishlayotgan yili

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temir yo'l sohasida xodimlarni kasbiy takomillashuvi mavzusida bir nechta adabiyotlar tahlil qilinmoqda. Bu adabiyotlar o'sha sohadagi kasbiy bilimlarni oshirish, yetarli malaka va ko'nikmalar bilan ishlayish, yangi texnologiyalarni va metodlarni o'rganish, jamiyatga foydali xizmat ko'rsatish, amaldagi xorijiy tajribalardan o'qishning ahamiyatini ko'rsatish, liderlik va boshqaruvning kasbiy xususiyatlari kabi mavzularni e'tirof etishi mumkin.

Birinchi adabiyot: "Kasbiy tayyorlik va kengaytirish: xodimlarni takomillashtirish deb" mavzuni ko'rib chiqamiz. Bu adabiyot Temir yo'l sohasida xodimlarni yangi bilim va texnologiyalar bilan ta'minlash, xodimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va xodimlarni ko'kirdakli taraqqiyot yo'lga shamol etish uchun zarur bo'lgan kasbiy tayyorlik va kengaytirishni ko'rsatadi.

Respondentlarning ushbu tashkilotda ishlayotgan hamkasblari bilan bo'lgan munosabatlardan qoniqish ko'rsatkichlari


	to'la qoniqaman	deyarli qoniqaman	javob berishga qiynalaman	to'la qoniqmay'man
Jami soni	1105	26	0	2
Jami ulushi	97,4%	2,3%	0	0,2%

K.Marks fikriga ko'ra, shaxs o'z mehnati jarayonida va mehnatining natijalarida o'z xotirjamligini to'adi. Ammo boshqaruvchilik kuchli bo'lgan va xodimlarga yollanma ishchi kayfiyatida munosabat qilingan jamoalarda xodim o'z mehnatidan begonalashadi va mehnat faoliyatiga nisbatan norozichalik kayfiyati uyg'onadi [1]. Shundan kelib chiqib navbatdagi savol bilan xodimlarning rahbarlar bilan munosabatni qanday baholashini va qoniqishini aniqlashga harakat qildik. Mahlum bo'ldiki, xodimlarning katta qismi

xodimlar o'z rahbarlar bilan munosabatidan o'rtacha qoniqishini bildirgan – 94% (1066 nafar), to'la qoniqishni – 5% (60 nafar) va 1 % mazkur savolga javob bermagan. Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, tashkilotda xodimlar va rahbarlar o'rtasidagi munosabatlarga bir necha omillar tahsir qiladi va so'rovnomada natijalarida ushbu omillar Respondentlarni javoblarida ko'rishimiz mumkin (6-jadval, 6-rasm).

Respondentlarning rahbarlari bilan bo'lgan munosabatlardan qoniqish ko'rsatkichlari

	to'la qoniqaman	o'rtacha qoniqaman	javob berishga qiynalaman	to'la qoniqmayman
Jami soni	60	1066	2	6
Jami ulushi	5,30%	94%	0,20%	0,50%



3-rasm. Respondentlarning rahbarlari bilan bo'lgan munosabatlardan qoniqish ko'rsatkichlari

So'rovnomada ishtirokchilarning ish vaqtida kayfiyati qanday bo'lishini aniqlash maqsadida «Odatda, ish 'aytida kayfiyatingiz qanday bo'ladi?» degan savolga javob berdilar.

Ishtirokchilarning 968 nafari kayfiyati xar doim bo'lmasada ko'inchaxshibo'ladi. 157 nafari kayfiyati xar doim yaxshibo'ladi. 7 nafari ishtirokchi – bahzida

kayfiyati yaxshi bo'lsa, 2 nafar xodimning kayfiyati hech qachon yaxshi bo'lmaydi. Xodimlarning kayfiyati, albatta

yosh mutaxassis kadrlarning ish samaradorligiga tahsir qiladi (7-jadval).

Respondentlarning ish vaqtidagi kayfiyati

4-jadval

	har doim kayfiyatim yaxshi bo'ladi	ko'pincha kayfiyatim yaxshi bo'ladi	bahzida kayfiyatim yaxshi bo'ladi	hech qachon yaxshi kayfiyatda bo'lmayman
Jami soni	157	968	7	2
Jami ulushi	13,80%	85,30%	0,60%	0,20%

Yosh mutaxassis kadrlarning boshqaruvi jamiyat sotsiomadaniy taraqqiyotiga tahsirini o'rganishda kollektivning munosabat muhitini o'rganish uchun Respondentlarga «Jamoangizning intellektual (aqliy) salohiyatini qay darajada baholaysiz?» degan savol bilan

Respondentlarning jamoaning intellektual (aqliy) salohiyatini qay darajada baholashi

5-jadval

	jamoamiz juda ham yuksak aqliy imkoniyatga ega	jamoamizning aqliy imkoniyatlari o'rtacha	jamoamiz deyarli aqliy imkoniyatga ega
Jami soni	482	80	571
Jami ulushi	42,50%	7%	50,30%

Navbatdagi savolimiz orqali Respondentlarni boshqa xodimlar bilan munosabatini aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqotning natijalariga ko'ra, ishtirokchilar «Hamkasblaringiz orasida sizga yoqmaydigan xodimlar uchrab turadimi?» savoliga 514 nafari – «Men bilan birga ishlaydigan xodimlarning bahzilari menga yoqadi, bahzilari esa yoqmaydi», 363 – nafari «Jamoamizdagi ko'roq hamkasblarim menga yoqadi» va 267 nafari – «Jamoamizdagi hamma xodimlar menga yoqadi» deya javob berishgan (9-jadval).

Tadqiqotda qatnashgan Respondentlar «Mehnat faoliyatining bir maromda (ritm)da ketadimi?» savolga

Respondentlarning mehnat faoliyatining bir maromi (ritm)

6-jadval

	Mehnat faoliyatimiz rejali, bir tekis va bir maromda o'tadi, oy yoki kvartal oxirida to'lanib qolgan hisobotlarni to'shirish, xatlarga javob berish uchun ish ritmining buzilishi hollari uchraydi	Mehnat faoliyatimiz bahzida bir tekis va bir maromli, bahzi hollarda esa bunday emas	Mehnat faoliyatimiz yetarli darajada bir tekis va bir maromlidir, lekin ahyon-ahyonda mehnat ritmining buzilishi hollari ham bo'lib turadi	Javob berishga qiyinalaman
Jami soni	76	996	57	5
Jami ulushi	6,70%	87,80%	5%	0,40%

Har bir rahbar xodimlarni yollashda ular ulardan yuqori mehnat samaradorligini, cheklangan resurslardan tejamli foydalanishni, tashkilot faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga jalb qilishni kutishadi va xodimlarni ishga nisbatan mashuliyatini kuzatib, rag'batlantiradi yoki tanbeh beradi. Navbatdagi savolda Respondentlarning jamoadagi xodimlardan birining ishga nisbatan befarqligini guvohi bo'lsa, qanday yo'l tutishni aniqlamoqchi bo'ldik. «Agarda mehnat jamoasi ahzolaridan birontasini ishga nisbatan dangasalik qilganini ko'rsangiz unga albatta bu haqda tanbeh berish kerakmi» degan fikrga ishtirokchilarning 1108 nafari - bu fikrga to'la qo'shildi, 23 nafari - bu fikrga qisman qo'shildi va 3 nafar ishtirokchi bu fikrga mutlaqo qo'shilmagan (11-jadval).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, «Gallu» analitik kom'aniyasi 2013 yilda odamlarning mehnatga munosabati, ularning mehnat sharoitlaridan qoniqishi bo'yicha butun dunyo bo'ylab o'tkazilgan tadqiqot natijalarini yehlon qilgan. 225,000 turli kasb vakillari 142 mamlakatlardan

quyidagicha javob berishdi. Mehnat faoliyatimiz bahzida bir tekis va bir maromli, bahzi hollarda esa bunday emas – 996 nafar Respondent, mehnat faoliyatimiz rejali, bir tekis va bir maromda o'tadi, oy yoki kvartal oxirida to'lanib qolgan hisobotlarni to'shirish, xatlarga javob berish uchun ish ritmining buzilishi hollari uchraydi – 76 nafar Respondent va mehnat faoliyatimiz yetarli darajada bir tekis va bir maromlidir, lekin ahyon-ahyonda mehnat ritmining buzilishi hollari ham bo'lib turadi – 57 nafar Respondent. 5 nafar Respondent ushbu savolga javob bera olmagan (10-jadval).

Respondentlar ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Respondentlarning 63 foizi ishga qiziqish bildirmaydi, rasmiy vazifalaridan zavqlanmaydi. Mehnat samaradorligi 'ast darajada ekanligi tahlil qilingan [2].

Bugungi kunda tashkilotlarda anhanaviy boshqaruv tizimlari kutilgan natijani bermayotgani va yosh kadrlar miqdori ortib, raqamlashtirilgan tizimning rivojlanganligi, tashkilotlarda xodimlar va rahbarlar mehnat faoliyatlari va samaradorligi baholash va uni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish talabi ortib bormoqda.

Mehnat samaradorligini baholash ish beruvchi va xodimlar uchun muhimdir. Ish beruvchi alohida xodimning yoki butun bo'limning mahsuldorlik darajasini baholay oladi, motivatsiya tizimini yaratadi, kadrlar xazirasini yaratadi, yangi mutaxassislar qo'yiladigan talablarni to'g'rilaydi. Xodimlar samarali ishlash uchun yangi imtiyozlarga ega bo'ladilar, jamoa rahbari bilan munosabatlarni yaxshilaydilar, mehnat ko'nikma-larini mustahkamlaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Николаев Николай Алексеевич// Повышение эффективности труда персонала малых предприятий на основе повышения вовлеченности в дела организации и развития корпоративной культуры// Журнал «Хуман Прогресс» Том 2, № 2 (февраль 2016)
2. <https://www.staffcop.ru/blog/otsenka-effektivnosti-personala-kriterii-metody/>
3. Golovin, S. Yu., (1998). Amaliy psixolog lug'ati.
4. Raven, J., (2002). Zamonaviy jamiyatda kompetentsiya: aniqlash, ishlab chiqish va amalga oshirish, Moskva, 396 p.

5. Jak Delors , Ta'lim yashirin xazina, [https:// do.gendocs.ru /docs/index-132000.html](https://do.gendocs.ru/docs/index-132000.html)
6. Egorycheva , ID, (2012). Faoliyatning alohida turi sifatida o'z-o'zini anglashning genezisi va uning rivojlanishidagi o'smirlik davri, M., 52 p.
7. Xomskiy, N., (1965). Sintaksis nazariyasining aspektlari, MIT Press Massachusetts texnologiya instituti Kembrij, 247 p.
8. Volegov , VS, (2013). Shaxsning o'zini o'zi belgilash bo'yicha kasbiy kompleksi, *Perm davlat universiteti axborotnomasi , falsafa. Psixologiya. Sotsiologiya*, 3 (15), 137-143.
9. Volegov Vladimir Sergeevich , (2016). Kasbiy o'zini o'zi belgilashni o'rganishga sotsiologik yondashuvlar, *Perm universiteti xabarnomasi, falsafa. Psixologiya. Sotsiologiya*, 2 (26).
10. Usarov , J.E., (2020). Ta'lim mazmunini takomillashtirish va tayanch va ilmiy kompetensiyalar asosida talabalar kompetensiyasini rivojlantirish (fizika o'qitish misolida), *pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya*, Toshkent sh.
11. Najmiddinova , Yoqutxon Ruxiddinovna , (2019). Kollej o'quvchilarida kompetensiya yondashuvi asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*, 2019 yil.
12. Weber, M., (1990). Tanlangan asarlar, M.: Taraqqiyot, 808 b.
13. Greenwood, E., (1957). Kasbning atributlari, *Ijtimoiy ish*, 2 (3), 45-55.
14. Mansurov , VA, Yurchenko , OV, (2009). Kasblar sotsiologiyasi. Tadqiqot tarixi, metodologiyasi va amaliyoti, *Sotsiologik tadqiqotlar*, (8), 36-46.
15. Pilikyan , KG, (2009). Kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahat: kecha, bugun, ertaga, *Ta'limdagi innovatsion loyihalar va dasturlar*, (1), 38-45.
16. Braun, D., (2022). Kasb tanlash va rivojlanish, 4-nashr. San-Fransisko, CA: Jossey -Bass, 556 p.
17. Ossovskiy VL, (1987). Kasbiy o'zini o'zi belgilash va yoshlarning mehnat yo'li, Kiev: Naukova Dumka , 305 p.



Sunnatullo DUSTOV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sdustov@dtpi.uz

Pedagogika fanlari doktori, Termiz davlat universiteti professori Yu.Maxmudov taqrizi asosida

IV SINFDAN TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHI EKOLOGIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada IV sinflar uchun tabiiy fanlarini o'qitishda o'quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish, uning mazmuni, shakl va metodlari, ekologik mazmunda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, muammoli vaziyatlar, shuningdek, biologiyani fanlararo sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitishda o'quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan bu masalani yo'lga qo'yishga oid dars ishlanmasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Biologiya, fanlararo aloqadorlik, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekologik tafakkur, muammoli vaziyatlar, dars.

METHODOLOGY OF FORMING STUDENT'S ECOLOGICAL THINKING IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN 4TH CLASS

Annotation

In the article, the development of students' ecological thinking, its content, forms and methods, implementation of interdisciplinarity in ecological content, problem situations, as well as students in the teaching of biology in interdisciplinary extracurricular activities are discussed in the article. the development of ecological thinking was discussed. Also, the author proposed the development of a lesson on this issue.

Key words: Biology, interdisciplinarity, extracurricular activities, ecological thinking, problem situations, lesson.

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В 4 КЛАССЕ

Аннотация

В статье рассматривается развитие экологического мышления студентов, его содержание, формы и методы, реализация межпредметности в экологическом содержании, проблемные ситуации, а также студентов при преподавании биологии в межпредметной внеклассной деятельности. обсуждалось развитие экологического мышления. Также автор предложил разработку урока по данному вопросу.

Ключевые слова: Биология, межпредметность, внеклассная деятельность, экологическое мышление, проблемные ситуации, урок.

Kirish. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda noqulay ekologik vaziyat qamrovi jihatidan global ekologik xavfni yuzaga keltirdi. Ekologik xavfning kelib chiqish sabablari – tabiat, jamiyat, insonlar va texnika o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ekologik xavfga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning dolzarb masalalari bo'lib qoldi. Mazkur noqulay ekologik vaziyat inson uchun muhim bo'lgan omil – uning salomatligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Shu munosabat bilan global va mintaqaviy ekologik xavf, uning kelib chiqish sabablari, inson va tabiat, jamiyat va tabiat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ekologik halokatga yo'l qo'ymaslik hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'qitishning nazariy va amaliy tizimini to'ldiradi. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'qishdan tashqari vaqti mobaynida o'zini-o'zi tarbiyalash va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish uchun oqilona taqsimlashga yordam berishdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni zamonaviy tashkil etish ijodiy jarayon bo'lib, o'qituvchidan chuqur bilim, malaka va xohish talab qilgani kabi o'quvchilardan ham ularning intilishlari va ehtiyojlarini qondirishda mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi.

Ekologik muammolar yechimini topishning optimal yo'llarini izlash zarurati paydo bo'lmoqda. Bu zarurat uchun

pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar insonning tabiatga o'z ta'sirini o'tkazishi oqibatida kelib chiqadi. Pirovard natijada, bu ekologik muammolar konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, ekologik muammolar, ekologik halokat yoki ekologik vaziyat yechimini topish uchun, eng avvalo, insonda ekologik ta'lim-tarbiya oid tushunchalarni shakllantirish lozim. Ekologik tarbiya mazmuni va yo'nalishi jihatidan nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berishda o'rganilayotgan materiallar bevosita tabiat bilan tanishish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat xilma-xil ko'rinishlari bilan insonni qurshab turgan moddiy olamdan tuzilgan.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchi yoshlarni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinishi lozim. O'quvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zlarini qiziqtiradigan ishlarni tanlab olishadi va ular mustaqil ravishda tashabbuskorona ishtirok etishdan iborat.

Maktabda sinfdan tashqari tashkil qilingan mashg'ulotlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyo qarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot va ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi.

Ma'lumki, ekologik mazmundagi sinfdan tashqari mashg'ulotlar haqida dastlabki tasavvurlarni berishda "Tabiiy fanlar" darslari asosiy o'quv fani bo'lib hisoblanadi. Bu o'quv fanlari o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalardan muntazam xabardor qilish maqsadida darslarni interfaol metodlarda tashkillashtirib o'tkazish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda, eng avvalo, o'quvchilarni biologiyaning asosiy tushunchalari, g'oya, nazariya, qonuniyat-lari, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida tutgan o'rni, biologik bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyati bilan tanish-tirish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlaridan muammoli vaziyatlarda foydalanishi nazarda tutiladi.

O'quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantirish va insonning tabiat va jamiyatga ongli munosabatini tarkib toptirish bilan uzviy bog'langan holda, ta'lim-tarbiya tizimi vujudga keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fanlararo ekologik tarbiya muhim pedagogik muammo. Bu sohada ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, boshlang'ich ta'limda ekologik muammolarning turli jihatlarini M.A.Yuldashev[13], G.Sultonova[12], N.Ashurova[7]lar o'rgangan bo'lsa, X.Rahmatova[4] atrof-muhit ta'sirida talabalarni axloqiy tarbiyalash jihatlarini, M.Rahmatullaeva[3] 6 sinf va maktabdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Ammo boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish, ularni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida keng targ'ib etish atroflicha yo'lga qo'yilmagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar, xususan, IV sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiyani fanlararo tushuntirish-dan maqsad – tabiatni bilish va uni asrashga o'rgatish, ekologik ta'lim-tarbiyaga oid fanlararo nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat[1]. Ekologik mazmundagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlaridan biri to'garaklar.

To'garaklarning asosiy maqsadi jonli va jonsiz tabiat, ularning o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur hosil qilish, bahor, yoz kuz, qish fasllarining almashuvi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, bu fasldagi kishilar mehnati, meva va manzarali daraxtlarning o'xshash va farqli jihatlarini, daraxt nomlari, qushlarning uchib ketuvchilari yoki qishlashlari bir so'z bilan aytganda, tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabat odoblarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish jarayoniga qarab individual, guruhli va ommaviy tarzda olib borish mumkin. Individual mashg'ulotlar jarayoniga tirik tabiat burchagi va maktaboldi o'quvtajriba maydonidagi, tabiatdagi ishlarni, darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun biologik va ekologik mazmunidagi materiallar tanlashni, bolalar ilmiyommabop kitoblarni o'qishni o'z ichiga oladi. Unda asosan tabiatni o'rganishga qiziqqan ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar kiradi.

Guruhli sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlariga o'quvchilar doirasida olib boriladigan mashg'ulotlar kirib,

ularga "Yosh biologlar", "Yosh ekologlar", "Biz tabiatni o'rganamiz" kabi to'garak mashg'ulotlari kiradi. Ommaviy sinfdan tashqari mashg'ulotlarga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar kiradi. Ommaviy mashg'ulotlarda tabiatga ekskursiya va yurishlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek, ommaviy tadbirlar (bog' haftaligi, daraxtlar o'tqazish haftaligi, qushlar va gullar bayrami kabilar)ni o'tkazishni nazarda tutadi.

Tahlil va natijalar. Atrofdagi tabiat haqidagi bilimlar o'quvchining har tomonlama kamol topishi va tarbiyalanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu bilimlarni o'rganish orqali yoshlar tabiat va inson o'rtasidagi munosabat, ularning o'zaro aloqadorlik va birlik mohiyatini, atrof-muhitga munosabatini, tabiat muhofazasi yo'lida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlarni tahlil etib, ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlashga harakat qiladi.

Mazkur holat esa, yoshlarda ekologik bilim va tushunchalarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi[8]. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarini, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki muayyan, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik tarbiya natijasida yoshlarning ekologik bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, mehnatga ixlos bilan munosabatda bo'lish sifatlarini tarbiyalash mumkin. Ekologik tarbiya tizimli va izchillikda olib borilishini nazarda tutish lozim.

Ekologik ta'limning mohiyati uning asosiy vazifalarini aniqlash va tatbiq etish mazmunidan iborat. Jonli va jonsiz tabiatning o'zaro ta'sirlari, ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari, o'zimiz yashayotgan joyning o'rab olgan muhit ahvoli to'g'risida ilmiy va amaliy malakalarni shakllantirish, ekologik tavsifdagi qadriyatlar, ekologik xulq va faoliyat, ekologik maqsadlarga erishish iroda kuchi va muvaffaqiyatlari, ilmiy qobiliyatlarini o'rab olgan muhit, amaliy faoliyatda faol muhofaza qilish intilishini tarbiyalash. Insonlarning tabiiy va ijtimoiy-madaniy muhitga munosabatlarini ularning xarakter-lari va xulqidan yaxshi, qoniqarli va qoniqarsizlarni anglab olish, ekologik muammolarni yechish uchun zarur imkoniyatlarga zarur tasdiq, o'z qarashlariga ishonchni shakllantirish, o'rab olgan muhitni muhofaza qilish, amaliy ishlarida shaxsiy ishtirokchi bo'lishiga intilishni rivojlantirish. Ekologik ta'lim dars bilan chegaralanmaydi. U sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida davom ettiriladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflar, xususan, IV sinflarda "Tabiatshunoslik" darslari ekologiya haqida dastlabki tasavvurlarni berishda ekologik madaniyatni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalardan muntazam xabardor qilish maqsadida darslarni no'anaviy metodlarda tashkillashtirib o'tkazish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Yoshlar orasida ekologik bilimlarni targ'ib qilish va ekologik madaniyatni tarkib toptirish vazifasi ta'lim muassasalari, oila, mahalla, keng jamoatchilik bilan hamjihatlikda olib borilishi yaxshi natijalarni berishini ta'kidlagan holda, asosiy mas'uliyat pedagoglar zimmasiga yuklanadi. Yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun maktablarda fan asoslaridan mustahkam bilim berish bilan birga turli fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarni hozirgi davrdagi ekologik muammolarning mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan qurollantirish va shu bilimlarni

o'quvchilarning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Har bir darsda o'qitishning shakl va usullarini darsning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning yosh va individuallik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash, dars davomida o'quvchilar faoliyatining faol holatda bo'lishiga e'tibor berish ta'lim-tarbiya jarayonini yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishga zamin bo'ladi. Bunday mas'uliyatli va murakkab vazifani muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchi shu soha bo'yicha chuqur bilimga, pedagogik mahoratga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lishini, tinimsiz izlanish, o'rganishni, ijodkor va saxovatli bo'lishini talab qiladi. Mana shunday sifatlariga ega bo'lgan o'qituvchigina ekologik ta'limning nazariy bilim va malakasini chuqur egallangan, tabiatdagi jarayonlarning sir-asrorini biladigan, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatini tushunadigan, unga nisbatan ongli munosabatda bo'ladigan shaxsni tarbiyalashi mumkin.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatshunoslik darslarida, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tirik organizmlar, ularning tuzilishi va funksiyasi, xilmaxilligi, hayoti, o'zaro va tashqi muhitga bog'liqligi, tabiatdagi narsa va hodisalarning murakkab o'zaro bog'lanishining mohiyati va qonuniyatlari haqidagi bilimni egallaydilar va shu asosda ularning ekologik bilimlari yig'ilib, umumlashib, tizimlashib boradi. Lekin o'quvchilarning tabiatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda ekologiyaga doir bilimlar tizimi o'zlashtirishning o'zi yetarli bo'lmay, buning uchun albatta o'quvchilarning tabiat qo'nyidagi yetarli faoliyatini keng yo'lga qo'yish zarur, ya'ni ekskursiyalar uyushtirish, kuzatishlar olib borish, o'simliklar va hayvonlarni o'stirish va parvarish qilish, turli yozgi topshiriqlarni bajarish, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha mustaqil ishlarni keng miqyosda tashkil qilish shular jumlasiga kiradi. Mana shu tadbirlarni to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchilarda tabiatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish malakasini hosil qiladi.

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik o'quv fanlari dasturlarini mazmunan maqsadga muvofiq tahlil qilish, ularni fanlararo ekologik tarbiyani uzviylik bog'lanishini aniqlash, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiatshunoslikni o'qitishda fanlarni integratsiyalash, ya'ni fanlararo bog'lanishni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti bo'lib, u quyidagi vazifalarini bajaradi:

o'quvchilar uchun asosiy bilim manbayi bo'lgan o'quv materialining ilmiyligi va izchilligi, boshqa tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan tushunchalarning didaktik bog'liqligini ta'minlaydi.

o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi va aqliy rivojlanish tezlashadi.

tabiiy fanlarni integratsiyalash, ya'ni o'qitishda fanlararo bog'lanishni bosqichmabosqich va izchil amalga oshirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratadi.

Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan turli voqea-hodisalar, ular orasidagi aloqalarning bir-biriga bog'liq holda rivojlanishini fanlararo aloqadorlik asosidagina tushunib yetish mumkin. Tabiat va jamiyat fanlarni alohida-alohida o'rganish ularga oid tarqoq bilimlarni shakllantirishga olib keladi. Bunday bilimlar tabiat va jamiyatning bir butunligi insoniyatning tabiatda tutgan o'rni, insoniyat oldida turgan global muammolar mohiyatini to'g'ri tushinish va uni oqilona hal qilish uchun tizimli yondashuv zarurligi haqidagi tasavvurlar hosil bo'lishiga imkon bermaydi.

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida fanlararo ekologik tarbiyani samarali amalga oshirish o'quvchilarning yangi o'quv materiallarini qabul qilishga tayyorlash, fanlararo bog'lanishni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, shuningdek, har bir darsni rejalashtirish va ularni mohirona o'tkazish o'qituvchidan chuqur va puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida dars samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'naviy– axloqiy yo'nalishlarni keng miqyosda rivojlantirishni taqozo etmoqda. Chunki bu demokratik insonparvarlik jamiyat qurishning muhim omilidir. Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida uzluksizlik yuzaga keldi. Ayniqsa, bugungi kundagi global ekologik muammoni nafaqat kattalar orasida, uni boshlang'ich sinfdayoq shakllantirib, tushuntirib borish keng ko'lamda yo'lga qo'yish ta'lim olayotgan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, shuningdek, barkamol avlod bo'lib yetishishida ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etdi.

Tavsiyalar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni orttirishda fanlararo ekologik tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish. Buning uchun fanlararo ekologik tafakkurni yo'lga qo'yishda nafaqat tabiatshunoslik o'quv dasturi, balki boshqa o'quv fanlari jumladan, o'qish, ona tili, matematika fan dasturlarini bilishi, ularni gorizont va vertikal bog'lanishlarini amalga oshirish kerak.

2. Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirishning nazariyamaliy asoslarini ishlab chiqish va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida keng targ'ib etish.

ADABIYOTLAR

1. Mamashokirov S. Ekologik ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari. – Toshkent: "Fan", 2023. – B. 47.
2. Norbo'taev X.B. Maktab o'quvchilarida ekologik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish metodikasi (biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlari misolida). Monografiya. – Toshkent: "Yangi nashr", 2019. – 87 b.
3. Rahmatullaeva M. Sinf va maktabdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirish: Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – B. 20.
4. Rahmatova X. O'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (VII-IX sinflar misolida): Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – B. 22.
5. To'xtaev A., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent. "O'qituvchi", 2014. – B. 50.
6. Muhammadiyev S. Q. (2023). Tikanli kovul (Capparis spinosa L.) o'simligining kimyoviy tarkibi va xalq tabobatidagi o'rni. "Моя профессиональная карьера".
7. Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3-4 классов сельских школ. / Автореферат дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2023. – С. 18.
8. Isaqulova N.J. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. // Uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Maqolalar to'plami. – T.: «Extremum press», 2020. –40-b.

9. Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. – T.: «O'qituvchi», 1997. -18-b.
10. Nishonboeva M.G. Biologiya darslarida ekologik tarbiya. - T.: «O'qituvchi», 2022. -4-b.
11. Norbo'taev X.B., Shoyqulova N. Fanlararo ekologik tarbiya. – T.: «Dizayn-Press», 2012. -40-b.
12. Султонова Г.А. Комплексные экскурсии как средство экологического воспитания младших школьников. / Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т/, 2015. -С. 18.
13. Юлдашев М.А. Формирование природоохранительной деятельности учащихся начальных школ Узбекистана. / Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 2019. –С. 16.



UDK:159.9

Rustam DUSHANOV,
IV Akademiyasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

O'zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI PSIXOLOGIYASINING GENEZISI, EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasining genezisi, evolyutsiyasi va uni rivojlanish bosqichlari borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: sud psixologiyasi, yuridik psixologiya, genezis, evolyutsiya, ong va faoliyat birligi, individual psixologik xususiyatlar, emotsional-irodaviy holatlar, motivatsion jarayonlar.

ГЕНЕЗИС, ЭВОЛЮЦИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

В данной статье были изложены мнения по поводу места и значимости психологических особенностей в профессиональной деятельности сотрудников оперативно-розыскной деятельности ОВД, а также меры по их усовершенствованию.

Ключевые слова: психологическая компетентность, профессионализм, единство деятельности и сознания, свойства познания, коммуникативные способности, эмоционально – волевая уравновешенность, психотехнические игры, релаксация, визуализация, самоуправление.

GENESIS, EVOLUTION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGY OF OPERATIVE-SEARCH ACTIVITIES OF THE ORGANS OF INTERNAL AFFAIRS

Annotation

This article presented opinions on the place and significance of psychological problems in the professional activities of employees of the operational-search activities of the organs of internal affairs, as well as measures to improve them.

Key words: psychological competence, professionalism, unity of activity and consciousness, properties of cognition, communicative abilities, emotional - strong-willed level, psychotechnical games, relaxation, visualization, self-management.

Kirish. Jahonda ijtimoiy hayot sohalari, jinoyatning subyektiv xususiyati, jinoyat motivlari va maqsadi, jinoyatning sodir etish shart-sharoitiga ko'ra kengayib borayotganligi huquqni muhofaza qilish tizimidagi kadrlarning professionallashuviga va jinoyatchilikka qarshi kurashishda psixologik jihatdan tayyorligi masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Ichki ishlar vazirligining ko'plab bo'limlari, masalan, jinoiy tergov, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, iqtisodiy jinoyatlar, tezkor-qidiruv bo'limlari, faoliyatini tashkil etishdagi ustuvor yo'nalish ekanligini inobatga olish, jinoyatlarni oldini olishda muhim professional tayyorgarlikka ehtiyoj tug'diradi.»

Bu borada tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishga kasbiy va psixologik tayyorgarligini ta'minlash, jinoyatlarni oldini olish, ochish, jinoyatchilarni aniqlash hamda hibsga olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda shaxsiy-kasbiy mahoratini tarkib toptirish orqali faoliyat natijadorligini ta'minlash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meni eng katta xavf nimada, degan savol qiynaydi. Eng katta xavf – kadrlar saviyasi, bilimi, ilmi va fidoyiligida. Ming afsuski, eng og'ir masala shu» degan fikrlarida katta falsafiy ma'no bor [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy-psixologik masalalari xorijiy olim (A.R. Ratinov, A.V. Dulov, A.K.Alekseyev, G.K.Similov, D.V. Grebel'skiy, V.A.

Cherepanov, A.M.Stolyarenko va boshqa.) lar tomonidan qisman o'rganilgan hamda mazkur masalaga ong va faoliyat birligi tamoyili asosida fundamental kategoriya sifatida yondashilgan [19,9,4,22,6,7].

Mazkur masala, O'zbekistonlik olimlardan YE.Y.Agzamova, V.Karimov, V.G.SHEpotkin, A.A.Matchanov, R.M.Maxmudov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, kasbiy faoliyatning boshqaruvida bevosita ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari hamda ularning ontogenezi, tuzilishi, vazifalari, imkoniyatlari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va boshqa masalalar tahlil qilingan [2,17,13,14,23].

Shu nuqtai nazardan, tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi sohasining genezisi va rivojlanish bosqichlari psixologik izlanishlar obykti sifatida o'rganilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz [5,16,17,15,18 va boshq.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy-psixologik masalalari ong va faoliyat birligi tamoyili asosida fundamental kategoriya sifatida yondashilgan va kasbiy faoliyatning boshqaruvida bevosita ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari hamda ularning ontogenezi, tuzilishi, vazifalari, imkoniyatlari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va boshqa masalalar tahlili.

Tahlil va natijalar. Huquqiy faoliyat sohasida psixologiya faniga oid tadqiqotlarning vujudga kelishiga jinoyatchilikka qarshi amaliy kurash olib borish jarayonida

yuzaga keladigan bir qator psixologik muammolarni yechish ehtiyoji sabab bo'lgan.

Birinchiidan, jinoyat shaxsning erkin harakati bo'lib, uning ruhiy-irodaviy holati bilan bog'liq salbiy harakatlarining oqibatidir. Jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxslarning, ayrim hollarda esa jinoiy hodisaga u yoki bu darajada aloqasi bo'lgan boshqa shaxslarning ruhiy munosabati ham muayyan ahamiyatga ega.

Ikkinchiidan, jinoyatni ochish jarayoni ichki ishlar organlari bo'linmalarining xodimlari, jamoatchilik vakillari, shu bilan birga jinoyatni sodir etgan shaxslar va jinoyat ishtirokchilari o'rtasida qarama-qarshilik hamda murakkab ziyadlatilgan psixologik munosabatlar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Ushbu muammoni ilmiy asosda o'rganish uzoq vaqt kriminologiya, kriminalistika va boshqa yuridik fanlar zimmasiga yuklangan. Biroq asta sekinlik bilan fanda "Sud psixologiyasi" deb nomlangan maxsus tarmoq paydo bo'lib, huquq hamda psixologiya fani sohasiga oid masalalarni o'rgana boshlandi.

Mazkur soha 1964 yili sobiq Ittifoqning markaziy kumitasi tomonidan «Mamlakatda yuridik fan va yuridik ta'limni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinganidan keyin sud psixologiyasiga oid ilmiy izlanishlar faollashdi va oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshladi [10].

Ushbu tarmoqning rivojlanishida A.R. Ratinov, A.V. Dulov, V.L. Vasilyev va boshqa olimlar o'zining ilmiy izlanishlari bilan katta hissa ko'shishdi, keyinchalik bu «Yuridik psixologiya» deb nomlana boshlandi [18,8,5].

Natijada, 1971 yili Sobiq Ittifoqning davlat kumitasi qaroriga binoan "Yuridik psixologiya" mustaqil fan deb e'lon qilindi. Mazkur fan yo'nalishida kriminal, sud va axloq tuzatish psixologiyasi bo'limi shakllantirildi.

Yuridik psixologiya fanida mazkur tizimning yaratilishi natijasida, jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini takomillashtirishga oid psixologik tavsiyalar ishlab chiqish zarurati payda bo'la boshladi va maxsus hamda yuridik adabiyotlarda tezkor-qidiruv faoliyatining psixologik jihatlarini ilmiy asosda o'rganish yuzasidan fiqr mulohazalar bildirildi [7].

Mazkur fikr-mulohazalar rus olimlari D.V. Grebelskiy, A.I. Alekseyev, G.K. Sinilov va boshqalar tomonidan ijobiy qo'llab-quvvatlandi va ular tomonidan samarali ilmiy izlanishlar olib borildi [4,6].

Natijada, tezkor xodim va boshqa ishtirokchi shaxslarning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy yaroqliligini, ularning shaxslararo munosabatlarda o'zini tutishi, individual psixologik xususiyatlari, emotsional-irodaviy holatlari va turli murakkab vazifalarni bajarishda razvedkachilik qobiliyatlarini o'rganish ishlari boshlandi [10].

Yuridik psixologiyaning rivojlanishi va uning huquqshunoslik oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi psixologik bilimlarning tezkor xodimlar amaliyotiga kirib borishiga keng yo'l ochdi va tezkor - qidiruv faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan psixologik takliflarga ehtiyoj sezilarli darajada o'zgardi.

Maxsus psixologik va huquqiy adabiyotlarda (A.R. Ratinov, D.V. Grebelskiy, A.K. Alekseyev, G.K. Sinilov, V.A. Cherepanov va boshq.) tezkor-qidiruv faoliyatida psixologik muammolarini har tomonlama va chuqur o'rganib chiqish zarurligi to'g'risida keng fikrlar bildirila boshlandi [4,6,22].

Jumladan, rus olimi A.R. Ratinov "Ma'lum bir vaqtdan keyin psixologiya fanidan tezkor-qidiruv faoliyatini psixologiyasi maxsus soha fanlari katorida ajralib chiqadi va

yuridik psixologiya tizimida o'z o'rini egallaydi" deya fikr bildirgan [19].

Bu fikr bir qator olimlar va amaliyot xodimlari tomonidan qo'llab quvvatlandi va aniq tadqiqotlarda amalga osha boshladi.

Natijada, tezkor-qidiruv faoliyatini subyektlarining psixologik jihatlarini to'g'risidagi tasavvurlarning rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar bir necha bosqichda amalga oshirila boshlandi.

Birinchi bosqichda tezkor-qidiruv faoliyatini subyektlari psixologiyasining asosiy qoidalari, tezkor tadbirlarni amalga oshirishning psixologik xususiyatlari alohida o'rganilib, o'zlashtirildi va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanildi [6].

O'z navbatida shuni ta'kidlab o'tish joizki, psixologiya fani erishgan yutuqlar tezkor-qidiruv faoliyatining ham rivojlanishiga hissa qo'shdi. Shu bilan birga uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, amaliyotda keng foydalanish uchun qo'yidagi masalalar, ya'ni:

- tezkor-qidiruv faoliyatida xizmat olib borish uchun bo'lajak professional xodimlarni tanlab olishda nomzodlarning shaxsiy-kasbiy fazilatlarini o'rganish;

- fuqarolarni hamkorlikda ishlashga jalb etish jarayonida ularning psixik jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlari va ruhiy-irodaviy holatini o'rganish;

- qidiruvda bo'lgan shaxslarning psixologik qiyofasini yaratish, tasmollarni tuzish va ularning ruhiy holati hamda xatti-harakatini o'rganish;

- jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarning ruhiy holatini inobatga olish;

- tezkor xodimlarni o'qitish va tarbiyalashda psixologik omillarni hisobga olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur muammolarni o'rganib, tezkor faoliyatni olib borish jarayonida qo'llashni o'z ilmiy asarlarida tavsiya etgan olimlarga D.V. Grebelskiy, A.I. Alekseyev, G.K. Sinilov va boshqalar qiradi [6,4 va boshq.].

Ikkinchi bosqichda esa, eng avvalo, tezkor-qidiruv faoliyatini ishtirokchilarining faoliyatini bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilgan va bu dastlab sotsiologik xarakterga ega bo'lib, keng ma'nodagi huquqiy, tashkiliy va uslubiy masalalar bag'ishlangan.

Mazkur masalani o'rganish yuzasidan 1976 yilda sobiq ittifoq ichki ishlar vazirligi Butunittifoq ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus ilmiy guruh tuzilib, uning tarkibiga psixologiya fanining yetakchi mutaxassislari kiritilgan. Bu guruh oldiga tezkor-qidiruv faoliyatini subyektlarining psixik qonuniyatlarini o'rganish, uning asoslari va usullarini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan va bu bosqichda tezkor-qidiruv faoliyatining maxsus psixologik nazariyasi vujudga kelgan [18].

O'z navbatida shuni kursatib o'tish kerakki, tezkor-qidiruv faoliyatini psixologiyasi sohasidagi dastlabki nazariy qonun-qoidalar yaratilgan va bu yo'nalishda bir qator olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan (A.I. Alekseyev, G.K. Sinilov, V.N. Cherepanov va boshq.) va alohida tezkor-qidiruv faoliyatining psixologik asoslari ishlab chiqilgan [4,22].

Misol uchun 20 asrning 60 yillar oxiri, 70 yillar boshlarida

G.K. Sinilov rahbarligida tezkor-qidiruv faoliyatini ishtirokchilarining psixologik xususiyatlari o'rganila boshlagan. Boshqa savollar bilan bir qatorda quyidagi masalalar ilmiy asosda tadqiq etilgan:

- tezkor xodim shaxsining individual-psixologik xususiyatlari;

- tezkor xodimlarni tarbiyalash va ularni ishga o'rgatishning o'ziga xos jihatlarini;

- hamkorlikda ishlashning motivatsiyalari va h.k. [18].

Shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati buyicha A.I.Alekseyev rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida quyidagi masalalar o'rganilgan:

- tezkor xodimlar faoliyatini tashkil etish va ularga rahbarlik qilishdagi psixologik omillar;
- tezkor xodimlarning psixologik jihatlarini;
- tezkor xodimlarning turli toifadagi shaxs bilan muloqotidagi ruhiy holati va h.k. [4].

Shu bilan birga tezkor xodimlarning kasbiy faoliyatidagi ruhiy-irodaviy holatlari tadqiq etilgan.

Uchinchi bosqichda esa tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasining umumiy nazariyasi zlementlarini yaratish jarayoni boshlangan. Bunda tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasining predmeti, tadqiqot usullari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik tuzilishi, muloqot olib borishning uslubiy tomonlari ilmiy asosda tadqiq etildi.

Jumladan, rus olimlari A. I. Alekseyev va G.K. Sinilovlar "Tezkor qidiruv faoliyati psixologiyasi, eng avvalo, mazkur faoliyatning psixologik xususiyatlarini o'rganishi, tezkor xodim va boshqa ishtirokchilar uchun earur bo'lgan professional xususiyatlarga psixologik baho berishi, bu xususiyatlarni aniqlash va takomillashtirish yo'l-yo'riqlarini belgilashi kerak" degan fikrni bildirishgan [4].

Biening fikrimizcha, tezkor-kidiruv faoliyatining psixologik xususiyati - bu, tezkor-faoliyatning psixologik qonuniyatlari va bu qonuniyatlarga asoslangan tezkor-qidiruv

faoliyatini takomillashtirish usullari va yo'llari tug'risidagi fandır.

O'rganilayotgan muammoning tahlili quyidagi ta'rifi tavsiya etish imkonini beradi: tezkor-kidiruv faoliyatining psixologik jihatlarini - tezkor-qidiruv faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganadigan va shu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadigan tarmoqdir.

Xulosa va takliflar. O'tqazilgan ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra:

- ichki ishlar organlarida tezkor xodimlarni boshqarishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etilgan;
- jinoyatchilikka qarshi kurashda alohida tezkor xizmatlar yunalishlarining uslublarini tashkil qilishning psixologik xususiyatlari o'rganilgan;
- tezkor bo'linmalar idoraviy va tashqi hamkorlikning psixologik komponentlari tadqiq etilgan;
- tezkor ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilishga doir ishlarning psixologik usullarini yaratish;
- tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi uslublari asosida tezkor xodimlarning ish jarayonini boshqarishni tashkil qilishda ilm-fan yutuqlariga mos keladigan asosiy psixologik koidalarni ishlab chiqish;
- tezkor-qidiruv faoliyati kuchlari harakatlarining psixologik jihatlarini kompleks ishlab chiqish, amaliyotda ko'p uchraydigan vaziyatlarda vositalar va usullarni qo'llash jarayonini amaliyotga joriy etish;

ADABIYOTLAR

1. Шавкат Мирзиёевнинг 14 август куни мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича 2019 йилнинг биринчи ярмида амалга оширилган ишларни муҳокама қилиш ҳамда 9 ой ва йил якуни бўйича белгиланган прогноз параметрларига эришишни таъминлайдиган устувор вазибаларга бағишланган кенгайтирилган йиғилишдаги нутқи. 55 / 15.08.2019 187124. kun.uz / Ўзбекистон Президент матбуот хизмати.
2. Агзамова Е.Ю. Факторы, определяющие проявления индивидуально-психологических особенностей личности сотрудников органов внутренних дел: Дис. ...канд. психол. наук. – Т., 2001. – 160 с.
3. Арифходжаева И. Х. Ички ишлар идоралари сержантлар таркиби фаолиятини такомиллаштириш омиллари. Дис. ... канд. психол. наук. – Т., 2011. – 195 с.
4. Алексеев А.К., Синилов Г.К. Актуальные проблемы теории оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел. М., 1973. С.224.
5. Василенко Е.А. Формирование психологической устойчивости будущих сотрудников ОВД к экстремальным ситуациям: Дис. ... канд. психол. наук. Ставрополь, 2008. – 229 с.
6. Гребельский Д.В. Об исходных подожениях для разработки новой программы курса "Оперативно-розыскная деятельность органов внутренних дел" //Труды ВШ МВД СССР, 1969. С.94.;
7. Генезис психологического обеспечения оперативно-розыскной деятельности./ Столяренко А.М. Прикладная юридическая психология. М.2001. С.78.
8. Душанов Р.Х. Тезкор-қидирув фаолияти психологияси. Дарслик. ИИВ Академияси. Тошкент. 2015. 550-бет.
9. Дулов А.В. Судебная психология. М.,1971. С.189.
10. Тезкор-қидирув фаолияти психологияси. Дарслик. / Р.Х.Душанов, Б.Э.Зокиров, О.А.Саттров ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 82.
11. О мерах по дальнейшему развитию юридической науки и улучшению юридического образования в стране программа деятельности юридических вузов страны: постановление ЦК КПСС // Правоведение. – 1965. – № 1. – С. 188–192.
12. Каримов В. Тезкор-қидирув фаолиятида қонунчиликни таъминлаш механизмини такомиллаштириш: Юрид. фан. д-ри дис. автореф. – Т., 2018. – 65 с.
13. Махмудов Р. М. Шахс ҳуқуқий ижтимоийлашувининг назарияси ва амалиёти: Пед. фан. д-ри ... дис. – Т., 2011. – 308 б.
14. Матчанов А.А. Жиноят содир этган шахслар қидирувини такомиллаштиришнинг жиноят-процессуал ва криминалистик жиҳатлари: Юрид. фан. д-ри (DSc) дис. автореф. – Т., 2019. – 65 с.
15. Нормуродов Г. А. Гумон қилинаётган вояга етмаган усмирларни сўроқ қилишнинг психологик хусусиятлари: Психол. фан. номз. дис. автореф. – Т., 2007. – 22 б.
16. Скалин Ю.Е. Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников уголовного розыска: Дис...канд. психол.наук. – Санкт-Петербург 2009. – 196 с.
17. Столяренко А.М. Психологическая подготовка сотрудников органов внутренних дел. – М., 1988. – 245 с.
18. Синилов Г.К. Введение в оперативно-розыскную психологию: Лекции. – М., 1976. – 28 с.
19. Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. М.,1976. С.210.
20. Хрусталева Т. А. Психологические особенности формирования личности оперативного работника уголовного розыска. Дис. ... канд. психол, наук, М. 2004. -145 с.

21. Хлудова О.В. Развитие профессиональных качеств сотрудников ОВД в экстремальных ситуациях. Дис. ... канд. психол. наук, Тамбов. 2004. -165 с.
22. Черепанов В.А. Психологические вопросы оперативно-розыскной деятельности. – М., 1981. – С.14.
23. Щепоткин В.Г. Психологические аспекты укрепления законности в следственной деятельности. Дис. ... канд. психол. наук. – Т., 1992 – 184 с.



Eshtemir JUMAYEV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: eshtemir1@mail.ru

Osiyo texnologiyalari universiteti dotsenti, (PhD) E.Murtazaev taqrizi asosida

PHILOSOPHICAL IDEAS AND VIEWS ON THE INFLUENCE OF CULTURE AND “MASS CULTURE” ON YOUTH

Annotation

This article examines the problem of the negative influence of “mass culture” on the younger generation, and therefore it is necessary to counterbalance this with our historical, national values based on the traditions of our people. The concept is given that, relying on national traditions, religious values and ideas of humanism, it is necessary to instill in young people the foundations of a national idea based on the principles of humanity, decency and high spirituality. Using various methods and means, we can achieve the expected results in educating young people.

Key words: “Mass culture”, information threat, globalization process, conceptual ideas, social network, ideological influence, masses, mass culture.

ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ И ВЗГЛЯДЫ НА ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРЫ И “МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ” НА МОЛОДЕЖЬ

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема отрицательного влияния «массовой культуры» на молодое поколение, и потому необходимо в противовес этому поставить наши исторические, национальные ценности основанные на традициях нашего народа. Дается понятие того что, опираясь на национальные традиции, религиозные ценности и идеи гуманизма необходимо прививать молодежи основы национальной идеи, основанная на принципах человечности, порядочности и высокой духовности. Используя различные методы и средства мы можем добиться ожидаемых результатов в деле воспитания молодежи.

Ключевые слова: «Массовой культуры», информационная угроза, процесс глобализации, концептуальные идеи, социальная сеть, идеологическое влияние, массы, массовая культура.

MADANIYAT VA “OMMAVIY MADANIYAT”NING YOSHLARGA TA’SIRI TO’G’RISIDAGI FALSAFIY G’OYALAR VA QARASHLAR

Аннотация

Ushbu maqolada yosh avlodni “Ommaviy madaniyat” tahdididan asrash uchun yuksak insoniylik va odobga asoslangan milliy g’oyaga suyanishimiz kerakligi, bunda e’tiborimizni mazkur g’oyamizning komil inson bo’lish tamoyiliga qaratishimiz bilan birga ajdodlarimizdan bizga meros bo’lib qolgan urf-odatlarimizga, go’zal an’analarimiz va diniy qadriyatlarimizga suyanishimiz, albatta, kutilgan samarani berishini, milliy qadriyatimiz asosini hayo va oqibat tashkil etishini ta’sirchan vositalar orqali namoyon etib borishi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: “Ommaviy madaniyat”, internet tahdidi, globallashuv jarayoni, konseptual g’oyalar, ijtimoiy tarmoq, mafkuraviy ta’sir, omma, ommabop madaniyat.

Kirish. “Ommaviy madaniyat” va internet tahdidlaridan yoshlarni himoyalash, ularning ongida milliy g’oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini shakllantirish, globallashuv jarayonida internet va ijtimoiy tarmoqlarning o’rni, ularning shaxs shakllanishiga ta’siri masalalari bugungi kunda milliy g’oya targ’iboti sohasidagi dolzarb masalalardandir. Bu to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev va O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida milliy g’oya to’g’risidagi bildirgan nazariy konseptual g’oyalarni alohida ta’kidlash lozim. Bundan tashqari yot g’oya va mafkuraviy ta’sir kuchiga ega “ommiy madaniyat” tahdidini oldini olishning zarurligi masalasiga alohida e’tibor qaratilayotganligini ta’kidlash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yevropa jamiyatlariga xos “ommiy madaniyat”ning iste’molchisi bo’lgan “omma”ning kelib chiqishi ispaniyalik faylasuf Xose Ortega i Gasset(1883-1955)ning “Omnia isyoni” asarida o’ziga xos tarzda izohlanadi. Asarning birinchi qismi “Ommaning kelib

chiqishi” deb nomlanib, unda “olomon”, “omma”, “omma odami” kategoriyalarini bir-biriga bog’lab, “ko’pchilik” va “ozchilik” tushunchalarini qiyoslash orqali quyidagicha izohlanadi: “Ko’pchilik tushunchasi miqdoriy va aniq. Uning mohiyatini o’zgartirmagan holda, sotsiologiya atamali bilan ifodalaymiz. Shunda biz “ijtimoiy omma” tushunchasiga duch kelamiz. Jamiyat har doim ikkita komponent omil: ozchilik va ommaning dinamik birligidir. Ozchilik - bu maxsus malakaga ega bo’lgan shaxslar yoki shaxslar guruhi. Omnia - bu maxsus malakaga ega bo’lmagan shaxslar yig’indisi. Demak, omnia deganda faqat yoki asosan “mehnatkashlar ommasi” tushunilmaydi. Omnia - o’rtacha odam. Shu tarzda oddiy miqdor bo’lgan xususiyat - ko’plik - sifat belgisiga aylanadi: u umumiy ijtimoiy sifatga aylanadi, inson boshqa odamlardan farq qilmaydi, lekin o’zida umumiy turga xos xususiyatni takrorlaydi. Miqdorni sifatga aylantirish orqali biz nimaga erishdik? Shunchaki, ikkinchisi orqali biz birinchisining genezisini tushunamiz. Olomonning normal shakllanishi uni tashkil etuvchi shaxslardagi istaklar, g’oyalar, turmush

tarzining bir-biriga mos kelishini nazarda tutadi. Har qanday ijtimoiy guruhda shunday bo'ladi, deb e'tiroz bildiriladi. Bu haqiqat, lekin muhim farq bor. Olomon va ommadan ajralib turadigan guruhlarda uning a'zolaridagi muvofiqlik qandaydir istak, g'oya yoki idealga asoslanadi, bu esa ko'p sonlilikni istisno qiladi. Har qanday turdagi ozchilikni shakllantirish uchun uning har bir a'zosi alohida, nisbatan shaxsiy sabablarga ko'ra o'zini ko'pchilikdan ajratishi kerak" [1]. Ommaviy bo'lmagan jamoalarda umumiy maqsad, g'oya yoki ideal yagona bog'lovchi bo'g'in bo'lib, u o'z-o'zidan ko'plikni istisno qiladi.

Aslida, ommani psixologik voqelik sifatida his qilish uchun olomon kerak emas. Birgina kishini siz omma yoki omma emasligini aniqlashingiz mumkin. Omma - bu na yaxshilikda, na yomonlikda, o'zini maxsus o'lchov bilan o'lchamaydigan, balki "boshqalar kabi" bir xil his qiladigan va nafaqat tushkunlikka tushmagan, balki o'zining ajralib turmasligidan mamnun bo'lgan har bir kishi" [2] va ommaning kelib chiqishi oddiy, o'rtamiyona odamga xos xususiyatlar bilan ta'riflanadi. "O'rtamiyona odam" ommaviy madaniyatning tashuvchisiga aylanadi. Muallif "ommaviy madaniyat"ning ildizini "o'rtamiyona odam" madaniyatida ko'radi.

Ijtimoiy psixologiya doirasida olomon va omma psixologiyasining xususiyatlari ochib bergan G.Lebon va Z.Freyd "ommaviy madaniyat"ning ruxiyat bilan bog'liq qirralariga ko'proq e'tibor qaratadi. G.Lebon (1841-1931) o'zining mashhur "Xalqlar va omma psixologiyasi" asarida omma ruhiyatiga xos uning alohida olganda bir a'zosi yakka tartibda tafakkur qilmaydigan, xis etmaydigan va amalga oshirmaydigan umumiy olomon ruhi to'g'risida so'z yuritadi. Olomonni "vaqtinchalik organizm bo'lib, turli xil elementlardan tashkil topgan, bir muddatga birlashgan, xuddi tirik tanani tashkil etuvchi hujayralar kabi birlashib, shu bog'lanish orqali har bir hujayraning alohida-alohida xususiyatidan farq qiladigan yangi jonzo" [3] deb ta'riflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlarga ta'sirini bilish muhim ahamiyatga ega. Bu birinchidan, "ommaviy madaniyat"ning hamma yoshlarga ta'siri bir xil emasligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, qaysi tarzda yoshlarga ko'proq ta'sir qilishi va qilayotganini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, yoshlarni turli madaniyatlarni bir-biridan farqlamaslik, yoki ayrim madaniyat ko'rinishlariga ortiqcha taqlid qilishning oqibati ekanligini qayd etish lozim. "Ommaviy madaniyat" avvalo milliy madaniyat negizlariga zid ekanligini hisobga olish lozim.

Ommaviy madaniyatda - milliy madaniyat negizlari ham umuminsoniy madaniyat negizlari ham tan olinmaydi.

Ayrim yoshlarning unga taqlid qilishi, avvalo uning shaxs yoki inson sifatidagi ijtimoiy xususiyatlaridan uzoqlashtiradi. Bu jarayon shu toifadagi yoshlarning milliy madaniyatdan begonalashishini anglatadi.

Ommaviy madaniyatga bo'lgan ehtiyojning fuqarolarning ong, madaniyat darajasi va salohiyati bilan bevosita bog'liq. Ong va madaniyat salohiyati darajasi ortib borsa, "ommaviy madaniyat"ga bo'lgan ehtiyoj kamayib boradi. Bugun jamiyat tabaqalashib borayotgan ekan, turli ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga mos madaniyat shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Shu o'rinda mumtoz adabiyotimizda G'iyosiddin Xondamir(1473-76-1534)ning "Makorim ul axloq" asarida Alisher Navoiy hayoti bilan bog'liq bir mutoyiba keltiriladi: "Bir kuni sof ko'ngilli Amir qutlug' so'zlarni bayon etuvchi tili bilan so'zga chechanlik va zukkolik borasida zamona shoirlari va zakiylarining saromadi bo'lgan Xoja Osafiya nasihat qilib:

- Men senga hayron qolaman. Iste'dodingning yuqoriligi va zehningning o'tkirligiga qaramasdan, she'r yozish bilan kam shug'ullanasan, barcha vaqtingni keraksiz ishlarga sarflab yurasan, - deb qoldilar.

Biroq u bunga javoban:

- Shu paytlarda borgan sayin ko'proq she'r yozishga mashg'ul bo'lyapman. Masalan, kecha kechasi ikki aqchalik sham yonib bitguncha ikki yuz bayt she'r yozdim, -dedi.

Shunda ul hazrat hazillashib:

- Unda yozgan she'rlaringizning har yuz bayti bir aqcha ekan-da." [4] Ushbu o'rinda, "ommaviy madaniyat" namunalarning sof iqtisodiy mezonlar bilan o'lchash masalasi nozik bayon qilingan.

Olomonga xos ta'sirchanlik, o'zgaruvchanlik, g'azabnoklik, murakkab haqiqatdan oson tushuniladigan yolg'onga moyillik, murosasizlik, o'zidan o'zgacha fikrlashni qabul qilmaslik kabi xususiyatlarini tavsiflab beradi. G.Lebon qarashlarida "ommaviy madaniyat" hodisasi omma (olomon) ruhiyati xususiyatlari bilan bog'lab izohlanadi. Muallifning "Olomon hech qachon haqiqatga intilmaydi, u o'ziga yoqmagan ochiq-oydin narsadan yuz o'giradi va o'ziga jozibali bo'lgan aldovga maxliyo bo'ladi"[5] degan so'zlari "ommaviy madaniyat" ko'rinishlarini tushunish imkonini beradi.

O'zbekiston Xalq shoiri A.Oripovning "Olomonga" she'rida murakkab tarixiy davrlarda olomonga xos xususiyatlarining o'z davrining yetuk insonlari faoliyatiga ta'siri ifodalangan:

"Mashrab osilganda qayoqda eding?

Cho'lpon otilganda qayoqda eding?

Surishtirganmiding Qodiriyini yo

Qalqon bo'lganmiding kelganda balo?

Hukmlar o'qilur sening nomingdan,

Tarixlar to'qilur sening nomingdan.

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?

Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?

Qarshingda hasratli o'yga tolaman,

Qachon xalq bo'lasan, ey sen, olomon?!"[6]

Madaniyat sohasidagi sanoatlashuv madaniyat ko'rinishlarining sayqalashishiga sabab bo'ldi. Ayni shu omil "ommaviy madaniyat"ning postindustrial jamiyatda tobora ommabop bo'lib borishiga sabab bo'ldi. Buni frankfurt sotsiologiya maktabi namoyondalari M. Xorkxaymer (1895-1973) va T. Adorno(1903-1969) hammualliflikda yozgan "Ma'rifat dialektikasi" asarida ko'rsatib berdi. Mualliflar ommaviy madaniyatga xos unifikatsiya (bir xillashib borish), sanoatlashgan madaniyatning tijoriylashuvi, manipulyatsiya, boshqaruv, ta'sir ko'rsatish texnologiyalariga tayanishi, nusxalash, soxta tasavvur, madaniyat ob'ektining sub'ektkga aylanishi kabi xususiyatlarini sanab o'tadi. Ommaviy madaniyatning sub'ekti - bu ijtimoiy psixologiya va bozor munosabatlari qonunlariga muvofiq o'z madaniy maxsulotlarini yaratadigan maxsus professional guruh bo'lib, u yaratgan qadriyatlarining tashuvchisi esa "o'rtacha(ommaviy) odam"dir. Unga tanqidsiz idrok va baholash, nazorat qilish qobiliyati, ruhiy soddalik xosdir. Mualliflar "Manfaatdor tomonlar sanoatlashgan madaniyat texnologik jihatdan tushuntirishga tayyor. Ta'kidlanishicha, unga tikilgan millionlab mablag'lar ko'payish jarayonlarini zaruriyatga aylantiradi, bu esa muqarrar ravishda ko'p hollarda bir xil ehtiyojlarni standartlashtirilgan madaniyat ko'rinishlari yordamida qondirilishiga olib keladi. Bir necha ishlal chiqarish markazlari va tarqoq iste'mol o'rtasidagi texnik qarama-qarshilik menejerlarning tashkillashtirish va rejalashtirish zarurati bilan belgilanadi. Shunday qilib, yaratilish bosqichidayoq iste'molchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan andozalar deyarli qarshiliksiz qabul qilinadi.

Darhaqiqat, manipulyatsiya va unga aks bo'lgan ehtiyoj o'rtasida adoqsiz doira paydo bo'lib, tizimning birligini tobora mustahkamlaydi" [7] deb, bir tomondan sanoatlashgan madaniyat sub'ektlari (ishlab chiqaruvchilari, yaratuvchilari)ning iste'molchi ma'naviy saviyasiga moslashish, uning ehtiyojlariga tug'ri keladigan yengil-yelpi madaniyat ko'rinishlarini tezroq va ko'proq foyda olish maqsadida ko'p nushada yaratish, to'g'rirog'i texnologik darajada ishlab chiqarish va ikkinchi tomondan "ommaviy madaniyat" ob'ektlari (mahsulotlari va iste'molchilari)ning saviyasizligi, sof moddiy ehtiyojlarga, kundalik o'tkinchi xis-tuyg'ularga tayanishi o'rtasidagi tinimsiz almashinuvni izohlaydi. Mualliflar "ommaviy madaniyat" ko'rinishlarining mavjudligini sanoatlashgan madaniyat bilan bog'lab izohlaydilar.

Tahlil va natijalar. Individual va ijtimoiy psixologiyaning umumiy bo'lgan qonuniyatlariga tayangan Z.Freyd individual "Men"ga xos instinktlarning "to'da instinkti"ga, "guruhiy fikrlash"ga o'tishini asoslaydi. Muallif "Affektiv holatning tashqi belgilari avtomatik ravishda tashqi kuzatuvchida huddi shunday affektini keltirib chiqarishi uzoq vaqtdan beri ma'lum. Olomon orasida shunday affektiv ta'sirning tashqi belgilari bo'lgan odamlar qanchalik ko'p bo'lsa, avtomatik majburlash shunchalik katta bo'ladi. Shaxsning tanqidiy fikrlashi ishlamay va jim bo'lib qoladi hamda u o'zini affekt ta'siriga topshiradi. Shu bilan birga, u boshqa shaxslarning hayajonini oshiradi, ular o'z navbatida unga ta'sir qilishda davom etadilar va o'zaro hayajon olomondagi umumiy affekt darajasini oshiradi. Shuningdek, boshqalar bilan hamjihatlikda harakat qilish, hamma bilan teng bo'lish istagi namoyon bo'ladi. Eng qo'pol va oddiy tuyg'ular ayni shu tarzda omma orasida tarqalishi mumkin"[8] deb izohlaydi.

Hayotimizda shiddat bilan kirib kelayotgan texnika va texnologiyalar, globallashuv jarayonlarida bunday boylikning mohiyatini yanada chuqurroq anglash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugun keskin tus olayotgan "ommaviy madaniyat" ham ma'naviy taxdidlardan biridir. Zamonaviy, tezkor taraqqiyot bilan hamqadam bo'lish yoshlarimizning hayot tarziga aylanib bormoqda. Albatta bu quvonarli xol. Chunki bir necha tilda bemalol so'zlasha olish, internet olamiga kirib dunyo yangiliklaridan baxabar bo'lish imkoniyatining mavjudligi. Ularning bilishi, dunyoqarashi kengayotganidan darak beradi. Biroq globallashuv jarayonida turli g'oyalar kurashi, axborot xurujlari, mafkuraviy tazyiqlar tobora avj olayotgani sir emas.

Bugun arzimasi tuyulgan kichik xabar ham odamlarning, ayniqsa yoshlarning hayotini o'zgartirishga qodir kuch bo'lishi mumkin[10].

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari - buyuk g'oya sohiblaridir[9].

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarni to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasida "Milliy davlatchilik tizimi" (kokutay), "Fuqarolik burchi", "Yapon ruhi", "tadbirkorlik", "umummilliylik", "fidoyilik", "vatanparvarlik", "paternalizm", "jamoaga sadoqat", "modernizatsiya" kabi g'oya va tushunchalar ushbu mamlakatning bugungi kunda erishgan yuksak natijalarga moydevor bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, globallashuv insonlar hayotini tubdan o'zgartirib yuborayotganligi, globallashuv tariqasida kirib kelayotgan turli kinofilmlar, videokliplar, misseonerlik harakatlarini yoshlar ma'naviyatga ta'siri kuchayib bormoqda.

Biz ma'naviyat-ma'rifat targ'ibotida xuddi ana shu an'anani izchil davom ettirishimiz maqsadga muvofiqdir. Zotan, yosh avlodni "Ommaviy madaniyat" tahdididan asrash uchun yuksak insoniylik va odobga asoslangan milliy g'oyaga suyanishimiz maqsadga muvofiqdir. Bunda e'tiborimizni mazkur g'oyamizning komil inson bo'lish tamoyiliga qaratishimiz bilan birga ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan urf-odatlarimizga, go'zal an'analarimiz va diniy qadriyatlarimizga suyanishimiz, albatta, kutilgan samarani beradi. Milliy qadriyatimiz asosini hayo va oqibat tashkil etishini ta'sirchan vositalar (masalan, sahna asarlari) orqali namoyon etib borishimiz zarur. Ona xalqimizning tarbiyasini olib voyaga yetgan buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Alisher Navoiy, Bobur, Gavharshodbegim, Nodirabegim kabi yuzlab ajdodlarimiz vatanparvar, oilaparvar, sharmu hayoli, shijoatli va or-nomusli bo'lib voyaga yetishganini namuna sifatida ko'rsata olishimiz lozim.[9] Ana shundagina buyuk ajdodlarga munosib avlodlarni kamolga yetkazishga muvaffaq bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Ortega y Gasset J. Revolt of the Masses. University of Notre Dame Press. W.W. Norton and Co. 1985. –P. 14. URL: <https://ia803004.us.archive.org/28/items/TheRevoltOfTheMasses/The%20Revolt%20of%20the%20Masses.pdf>
2. Ortega y Gasset J. Revolt of the Masses. University of Notre Dame Press. W.W. Norton and Co. 1985. –P. 6-8. URL: <https://ia803004.us.archive.org/28/items/TheRevoltOfTheMasses/The%20Revolt%20of%20the%20Masses.pdf>
3. Лебон Г. Психология народов и масс. изд."Макет",СПБ. 1995. URL: <http://lib.ru/POLITOLOG/LEBON/psihologia.txt>
4. Лебон Г. Психология народов и масс. изд."Макет",СПБ. 1995. URL: <http://lib.ru/POLITOLOG/LEBON/psihologia.txt>
5. Абдулла Орипов таваллудининг 80 йиллигига. 19.03.2021. Farg'ona haqiqati. URL: <https://farhaqiqat.uz/?p=17794>
6. Xondamir G'. Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - B. 142. URL: <https://e-library.namdu.uz/84%20Badiy%20adabyot%20asarlar/Makorim%20ul-axloq.%20Xondamir%20G'.pdf>
7. Horkheimer M., Theodor W.A. Dialectic of Enlightenment. Stanford university press. Stanford, California. 2002. –P.95. URL: <https://archive.org/details/pdfy-TJ7HxrAly-MtUP4B/page/n5/mode/2up>
8. Horkheimer M., Theodor W.A. Dialectic of Enlightenment. Stanford university press. Stanford, California. 2002. –P.95. URL: <https://archive.org/details/pdfy-TJ7HxrAly-MtUP4B/page/n5/mode/2up>
9. Qahhorova Sh.B. Global ma'naviyat – glloballashuvning g'oyaviy asosi. T.: 2009
10. Эргашев И, Рузиев Ж., Абдуллаев Б. Ёшларда ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш масалалари. О'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlar, 2022, [1/4/1]. –B. 208-211



Shaxnoza JURAYEVA,
Oriental universiteti Ta'lim menejmenti magistranti
E-mail: shaxnozajurayeva@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent X.Abdusamatov taqrizi asosida

FOREIGN EXPERIENCE OF HIGHER EDUCATION SYSTEM MANAGEMENT

Annotation

In the following years, many articles, brochures, manuals on world education were published, seminars, conferences, readings, and meetings dedicated to it were held. This is of great importance for our education today, which is undergoing large-scale reforms. This is a sign of the rapidly growing attention and interest in the establishment of educational activities in our educational system and abroad. This article provides a comparative analysis of the management experience of the higher education system in developed countries.

Key words: Foreign experience, educational system, innovation, management, individual approach, independent education, assessment system.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В последующие годы было опубликовано множество статей, брошюр, пособий по мировому образованию, проведены посвященные ему семинары, конференции, чтения и встречи. Это имеет большое значение для нашего образования сегодня, которое претерпевает масштабные реформы. Это является признаком стремительно растущего внимания и интереса к налаживанию образовательной деятельности в нашей системе образования и за рубежом. В данной статье проводится сравнительный анализ опыта управления системой высшего образования в развитых странах.

Ключевые слова: Зарубежный опыт, система образования, инновации, менеджмент, индивидуальный подход, самостоятельное образование, система оценивания.

OLIV TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBASI

Annotatsiya

Keyingi yillarda jahon ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'qishlar, uchrashuvlar o'tkazildi. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet ellarda o'quv-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta'lim tizimini boshqarish tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorij tajribasi, ta'lim tizimi, innovatsiyalar, boshqaruv, individual yondashuv, mustaqil ta'lim, baholash sistemasi.

Kirish. Oliy ta'lim tizimlarida jahon ta'lim tizimini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Jahon ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarini voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlar-da ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy taminlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda [3].

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko'rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun o'qitishni yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini ta'minlash va modernizatsiyalashtirishda avvalombor,

zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish masalasi paydo bo'ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta'lim oldiga qo'yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahondagi mavjud sifatni baholash tizimini shartli ravishda ikki modelga ajratish mumkin. Birinchi-jamiyat va davlat oldidagi mas'ulligi nuqtai nazaridan attestatsiya, akkreditatsiya, inspeksiya orqali OTMni tashqi baholashga asoslangan "fransuz" modeli. Bunday model Skandivaniya mamlakatlarida, Chexiya, Latviya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi. Oliy ta'lim sifatini baholash tizimining ikkinchi- oliy ta'lim muassasalari akademik hamjamiyatini ichki o'zini-o'zi baholashga asoslangan "ingliz" modeli Buyuk Britaniya, Germaniya va AQShda amal qiladi. Sifatni nazorat qilish va ta'minlashda "ingliz modeli"ni qo'llaydigan Buyuk Britaniya hududida ta'lim sifatini baholash bilan 1997 yilda tashkil etilgan "Oliy ta'lim sifatini baholash Agentligi" (Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) shug'ullanadi. Agentlik notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lib, butun Qirollik hududi bo'ylab ta'lim muassasalari sifatini monitoring qilish va tavsiyalar berish ishini amalga oshiradi [5].

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yo'zlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida oliy ta'lim sifatini boshqarish va baholash tizimi birmuncha rivojlanganligi bilan ajralib turadi. AQSHda ta'lim sifatini baholash modeli "ingliz" va "continental" modellarning simbiozi hisoblanadi. Ya'ni, baholash jarayonida ham ichki, ham tashqi monitoringdan foydalaniladi. Bir qator Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi, AQSHda ham ko'plab sifatni baholash agentliklari mavjud bo'lib, ular sohalar bo'yicha bo'lingan. Jumladan, texnika sohasidagi eng yirik agentlik "Muhandislik va texnologiya bo'yicha akkreditatsiya idorasi" (Accreditation Board for Engineering and Technology (ABET) hisoblanadi [1].

Umuman olganda, AQSHda quyidagi kriteriyalarga asosan OTMning sifati baholanadi:

1. Universitetning jipsligi.
2. Maqsadlar, rejalashtirish va samaradorlik.
3. Boshqaruv va ma'muriyat.
4. Ta'lim dasturlari.
5. Professor-o'qituvchilar tarkibi.
6. Axborot olish manbalari (kutubxona, PK).
7. Ta'lim olish uchun sharoitlarning ta'minlanganligi.
8. Binolarning moddiy ta'minoti.
9. Moliyaviy holat [7].

Ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashda nafaqat davlat balki, har bir OTM manfaatdordir. Chunki, ta'lim sifati yaxshi deb baholanishi muayyan institut yoki universitet uchun ko'proq talabalarning jalb etilishi va ta'lim narxlarining balandroq bo'lishi bilan belgilanadi. Ko'rib chiqilgan tahlillar oliy ta'lim sifatini nazorat qilishda O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlari o'rtasida bir qancha o'xshashlik va farqli jihatlar borligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun ta'lim sifatini boshqarish muhimligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham ko'pgina rivojlangan davlatlarda halqaro standartlar ISO 9000:2000, umumiy menejment tamoyillari (TQM), ta'lim sohasida milliy va xalqaro sifat mukofotlari tanlovi hamda xalqaro standartlar asosida ta'lim muassasasining o'z-o'zini doimiy baholab borish tizimi keng qo'llanilmoqda. Ta'lim sohasini murakkab, ko'pqirrali va ko'p omilli ochiq tizim sifatida deb qarash mumkin. Bu tizim faoliyatiga kiruvchi masalalar ko'lamini keng bo'lib, ular asosan bilim, malaka, ko'nikma va tajribalarni to'plash va ularni jamiyatga, insonlarga, avlodan-avlodga o'zlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ta'limning asl sifati qabul qilingan namuna (etalon)ga mos kelishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin. Hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida ta'lim sifati va inson rivoji bitta umumiy tizim sifatida insonni o'zining, ta'lim tizimining, umuman, butun bir jamiyatning asosiy maqsadi va qadriyatlarini sifatida qaralmoqda va baholanmoqda.

Ushbu loyiha ishida ta'lim sifatini an'anaviy va noan'anaviy tarzda amalga oshirish orqali ta'lim sifatini tizimli boshqarishni takomillashtirish kabi tushunchalar va ularning evolyutsion rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida, oliy ta'lim, ilmfan va ishlab chiqarishning o'zaro

integratsiyasini rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlash-tirish imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni qo'llabquvvatlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilayotganligini va bu borada hukumat tomonidan Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilganligini alohida ta'kidlash lozim. Oxirgi o'n yillar bir qator yo'nalishlar bo'yicha iqtisodiy rivojlanishning sezilarli tuzilmaviy siljishlari bilan ifodalanadi. Birinchidan, ushbu davr mobaynida rivojlangan mamlakatlarda industrial iqtisoddan bilimlarga asoslangan, ya'ni yangi bilimlar generatsiyasi va ularni amaliyotda qo'llash iqtisodiy o'sish va rivojlanishga kuchli ta'sir ko'rsatadigan iqtisodga o'tish jarayoni kuzatilmogda; ikkinchidan, dinamik o'zgarishlar, kooperatsiya, innovatsion faoliyat subyektlari o'zaro integratsion aloqalari bilan mustahkamlangan milliy va mintaqaviy innovatsion tizimlar shakllanmogda; uchinchidan, ilm talab, yuqori texnologik, innovatsion ishlab chiqarishlar iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omiliga aylanmogda.

Dunyoda oliy ta'lim muassasalar post-klassik rivojlanishi shakllanishining boshlanish davri o'tgan asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu davr oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi roli o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Eng ahamiyatli post-klassik oliy ta'lim muassasalar shakllanishining va ularga nisbatan jamiyatdagi munosabatlar o'zgarishining dastlabki shart-sharoitlari quyidagilardan iboratdir [4]:

- zamonaviy sivilizatsiyaning texnogen xususiyati;
- jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllanishi;
- bilimlarni yaratish jarayonining murakkablashishi;

- talabalar va o'qituvchilar o'rtasida noan'anaviy fikrlashning hamda ta'lim qadriyatlarini tizimining yangi modeli shakllanishi, loyiha faoliyatining rivojlanishi;

- oliy ta'lim muassasalarida innovatsion salohiyatni shakllantiradigan intellektual, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik, boshqaruv, axborot, tadbirkorlik va boshqa imkoniyatlarning rivojlanishi [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi va pedagog olimlari ilmiy ishlarida bugungi kungi oliy ta'lim muassasalarining milliy innovatsion tizimning asosiy elementi, mintaqaviy innovatsiyalar tashkilotchisi, g'oyalari generatori, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi ularni bog'lovchi asosiy bo'g'in, texnologiyalarni tijoratlashtirish markazi, bilim va texnologiyalar transferi tizimining asosiy elementi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'sishi va rivojlanishining yetakchisi sifatidagi biz uchun nisbatan yangi rollarini o'rganishga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Mamlakatimiz jahon ta'lim xizmatlari bozorida o'z o'rnini egallashi yo'lida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlan-tirish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi [3].

Hozirgi davrda ushbu amallar o'z navbatida buyuk kelajakning asosi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham chuqur va maqsadli islohotlarni amalga oshirishni zaruratga aylantirdi.

Shuningdek, ta'limni insonparvarlashtirish va ta'lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini maydonga olib chiqdi. Bu yondashuv markazida shaxs turadi.

Bunday yondashuv ta'lim mazmunini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning ta'limiy, ma'naviy, madaniy va hayotiy talablari qondiriladi. Eng muhimi, shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati namoyon bo'ladi, madaniy-ta'limiy sharoitda o'qish individualligi va mustaqil harakat qila olish imkoniyati shakllanadi. Ta'limni texnologiyalashtirish – bu pedagogika fanining yo'nalishi hisoblanib, tadqiqot qiluvchi va qonuniyatlamini ochib beruvchi, ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida ta'lim

maqsadlariga samarali erishishning optimal yo'llari va vositalaridir.

Bugungi kunda pedagogik jarayon subyektlari uchun qo'yilayotgan talablar ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini unifikatsiya va modernizatsiya qilish; pedagogik jarayonni va subyektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirishda pedagogik tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi, integrativ tabiati kabi qator o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; mazkur tizimda innovatsion va hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlash yo'nalishida maxsus kurslar, o'quv-seminarlari tashkil etish va o'quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi, oila, mahalla, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ya'ni hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish kabi qator yo'nalishlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Shuningdek, pedagogik jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish pedagogik jarayonlarda o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilar belgilangan asosiy maqsad yo'nalishida pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellash, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida pedagogik jarayon subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etishi zarur hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarish uchun rahbarlar va jamoaning boshqa vakillaridan iborat ta'lim muassasasining ichki boshqaruv, ya'ni ichki nazorat tashkil etiladi. Ta'lim muassasasi jamoasi - bu murakkab tizim bo'lib, o'quv va mehnat faoliyatini qoniyatli tashkil etish, shuningdek, ta'lim muassasasi faoliyatining natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi rasmiy va norasmiy, gorizontal va vertikal, shaxslararo va mehnat faoliyatiga oid aloqalar hamda munosabatlarni qamrab oladi. Ta'lim muassasasi boshqaruv faoliyatining tizimli obyekt sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: zaruriyat, imkoniyat, muassasaning ko'rsatkichlari va o'z qobiliyatini baholash mezonlarini hisobga olish asosidagi rivojlanish yo'nalishi; uning salohiyati, funksional imkoniyatlari, individualligi va madaniyati; muassasa joylashgan hudud mentaliteti; uning yaxlit pedagogik tizimi; ilmiy-metodik mahsulotlar va vositalar bilan ta'minlanish imkoniyatlari; ichki imkoniyatlari va tashqi muhit bilan munosabatlari; pedagogik va ta'lim muassasasi jamoalarining rivojlanishi, shuningdek, ta'lim muassasasining ichki boshqaruv tizimi va uning rivojlanishi kabilar [8].

Boshqaruv muloqoti - pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonidagi muloqot, ya'ni subyektlarning faolliklarini ta'minlash, xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish yoki motivlashtirishdir. Boshqaruv pog'onasi - tashkiliy tuzilishga

ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning kattakichikligi pog'onaviyligi, ya'ni bu bir zvenoning (xodimning) boshqasiga bo'ysunish ketma-ketligidir. Rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa (darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darajasi shunchalik katta bo'ladi. Boshqaruv uslubi - bu muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar, yo'llar majmuidir [9].

Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta'lim sifatiga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta'lim globallashtiruvchi jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashtiruvchi va postindustrial axborot jamiyatiga o'tishi-dagi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta'lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o'tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta'lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.

Ta'lim sifati an'anaga ko'ra o'qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo'lak bo'lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim sifatini oshirish butun dunyoda ta'lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tugiladi.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim sifatini ta'minlash turli oqibatlarga va xususiyatlarga ega bo'ladi. Oliy ta'lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta'lim sifatini ta'minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg'or tajribalarga tayanadilar. Ta'lim sifatini ta'minlash "jangovar harakat qoidalari" deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan aniq qoidalar ega bo'ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta'lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi "yozilmagan qoidalar" ham mavjuddir.

Xulosa va takliflar. Boshqaruv faoliyatining usullarini shakllantirish ma'lum darajada rahbaming yashash va mehnat qilish sharoitlariga asoslanadi (mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar, boshqaruv faoliyatini muhit va h.k.) va boshqaruv subyektlarining harakatlariga tizim orqali ta'sir ko'rsatgan holda uning individual usullarini rivojlantiradi. Boshqaruv faoliyatini - ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'yektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyatini sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbaming boshqaruv ob'yekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'yektiga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. Raxmatov Sh.A. Predprinimatelskie universiteti i ix sovershenstvovanie // Uchenyy XXI vek. – № 11. – Rossiya, Yoshkar-Ola 2020. – S. 94.;

3. Rahmatov Sh.A. Principal components of implementation of “university-3.0” transformation in the development of innovative-entrepreneurial activities of modern higher educational institutions // Journal of Physics: Conference Series. – England, 2020. – R. 1-6.
4. Kalmetov B.D. Obrazovatelnyy kompleks v rynochnoy ekonomike.- Toshkent: Adolat, 2003.
5. Rahmatov Sh.A. Oliy ta'lim muassasasi menejeri innovatsion-tadbirkorlik xislatlarini baholash metodi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – № 4. – Buxoro, 2021. – B. 70.
6. Rukovodstvo Oslo. Rekomendatsii po sboru i analizu dannykh po innovatsiyam / Trete izdanie. Perevod na russkiy yazyk. Gosudarstvennoe uchrejenie «Sentr issledovaniy i statistiki nauki» (SISN), 2010.
7. Rahmatov Sh.A., Alimova R.X. Oliy ta'lim muassasalari innovatsion tadbirkorlik bo'linmalari amalga oshiruvchi vazifalarining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish // Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke, 2022.
8. Батышова С.Я., Шапаринский С.А. Основы профессиональной педагогики. - М: Высшая школа, 1977. - 504 с.
9. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М: Наука, 1989. - 192с.



UDK:7A.416.11.

Tojiddin ZAYNIDDINOV,
TDPU professor v.b.

TVChDPI dotsenti A.Abdulaxatov taqrizi asosida

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARNING VATANPARVARLIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlaridan “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo‘lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan vatnparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarga asoslangan interfaol shakl, metod va vositalaridan “Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi” qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Mazkur takliflar bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika, bo‘lajak o‘qituvchilar, tarbiyaviy faoliyat, ta‘lim, tarbiya, kompetensiya, modernizatsiya.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЛИЧНОСТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении "концепции непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсации лояльности к Родине. Разработанные в рамках исследования интерактивные формы, методы и средства, основанные на компетентностном подходе развития чувства патриотизма, были использованы при разработке учебно-методического пособия "педагогическая наука и технология обучения".

Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключевые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика, будущие учителя, воспитательная деятельность, образование, воспитание, компетентность, модернизация.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PERSONAL COMPETENCIES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotatsiya

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. The interactive forms, methods and tools developed in the framework of the study, based on the competence-based approach of developing a sense of patriotism, were used in the development of the educational manual "pedagogical science and technology of education".

These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them.

Key words: Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy, future teachers, educational activities, education, upbringing, competence, modernization.

Kirish. Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual potensiyali bilan belgilanadi. Chunki ilmiy potensiyali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg‘or bo‘ladi. Shuning uchun mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida yondashilib, katta e‘tibor qaratilyapti. Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta‘lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o‘ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o‘quvchi talabalarining kasbiy bilimlarini o‘zlashtirish darajasi davlat ta‘lim standartlari talablariga mosligini ta‘minlash bilan bog‘liq. Ikkinchidan, o‘quvchi

talabalarining mustaqil ijodiy faolligini davlat ta‘lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasini to‘liq qamrab olishga erishish. Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji o‘qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” stategeyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 sonli Farmoniga asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo,

davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida: Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2020 yil yakuniga qadar 13 ta namunaviy tumanlarda IT infratuzilmasini yaratishni, kompyuter uskunalar bilan jihozlanishni nazarda tutgan holda maktabgacha va umumta'lim maktablari hamda sog'liqni saqlash muassasalarini raqamlashtirishni yakunlash bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish va mas'ul xodimlarni o'qitishni tashkil etsin, deb ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuninig dolzarbligi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining o'z mutaxassislik fanini o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushinishlarida, innovatsion ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni har tomonlama chuqur o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Zamonaviy axborot jamiyatida media ta'lim, ta'lim jarayonida mediadan foydalanish, zamonaviy o'qituvchining ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllanishda, ommaviy.

Axborot vositalari yordamida ta'lim mohiyatini, ochib berish, pedagogik salohiyatining oshishi va turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishiga, ta'lim jarayonida (axborot texnologiyalari, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekran san'ati, televizor, reklama, interaktiv o'yinlar, kompyuter animatsiyasi va boshqalar), pedagogik modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Shuning uchun bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish orqali ularning mediakompetentligini rivojlantirish masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bunda zamonaviy ilmiy texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda, bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining o'z mutaxassislik fanini o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushinishlarida, innovatsion ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni har tomonlama chuqur o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Zamonaviy axborot jamiyatida media ta'lim, ta'lim jarayonida mediadan foydalanish, zamonaviy o'qituvchining ommaviy axborot

vositalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda, ommaviy axborot vositalari yordamida ta'lim mohiyatini, ochib berish, pedagogik salohiyatining oshishi va turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishiga, ta'lim jarayonida (axborot texnologiyalari, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekran san'ati, televizor, reklama, interaktiv o'yinlar, kompyuter animatsiyasi va boshqalar), pedagogik modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi.

Tahlil va natijalar. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.V. Sharikov, T.I. Myasnikova, A.V. Fedorov, A.A. Milyutina, E.Yu. Nikitina⁶, G.B. Onkovich, O.A. Imanova, M.S. Shablin, B.A. Iskakov, N.V. Zmanovskaya, D.A. Mezentseva va boshqalar mediata'limni tashkil etish bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borishgan. Zamonaviy ta'lim o'zgaruvchi va shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda talabalarning nafaqat bilim, balki media bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash darajasiga bog'liq. Shu bois pedagogika oliy ta'lim muassalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish muammosi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida mediata'lim muammolari S. Beknazarova, Ya. Mamatova va S. Sulaymanovlar boshqa bir qancha olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy metodik asoslari ishlab chiqilgan. S.S. Babadjonov, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida «informatika va axborot texnologiyalari» fanini o'qitish jarayonida talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish metodikasini pedagogik muammo sifatida o'rganilgan. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda kompetentligi muammosi R.G. Isyanov, N.A. Muslimov, A.X. Maxmudov⁶ va boshqa bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan. Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari N.I. Tayslaqov, U.Yu. Yuldashev, M.E. Mamarajabov va S.K. Tursunov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ammo pedagogika oliy ta'lim muassasalarida «Ta'limda va axborot texnologiyalari» fanini o'qitish jarayonida bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarning axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini yaratishga xatiyoy bor.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining mediakompetentligini yanada rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanib, o'quv rejalariga mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va metodik qo'llanmalar yaratish hamda tinglovchi-larga, o'quvchilarga yetkazish, mediamadaniyat, mediasavod-xonlik va mediata'lim sohalarini rivojlantirish davr talabidir. Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash mediako'nikmalarining rivojlantirishi natijasida ta'lim-tarbiya ishlarini yuqori saviyada tashkil qilishi uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin: – mashg'ulotlarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq holda tashkil qilish va olib borishi; – darslarni zamonaviy pedagogik usullar va ko'rgazmali (mediatekstlarning tasvirlari va namoyishi) asosida tashkil qilishi; – ta'limni tarbiya bilan uzviy holda olib borish, o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy ongini shakllanti-rishda, amaliy (media materiallarida turli xil amaliy vazifalarni bajarishi), mediata'lim usullarida oqilona foydalanishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 136 b.
2. Балаганов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. –Алматы: 2004. – 23 с.

4. Галияхметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классов казахской школе в процессе изучения родной литературы (На меатериале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
13. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.
14. Кривых С.В. Педагогические основы патриотического воспитания младших шакольников. – Новокузнецк: Изд. ИПК, 2002. – С.8; С.16.
15. Левина Н.А. Типологические особенности развития чувств патриотизма у младших школьников: Автореф. дис. ...канд.псих.наук. – Тамбов, 2004. – 22 с.



Murodjon IBRAGIMOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Sotsiologiya” kafedrasini o‘qituvchisi
E-mail: ibragimovmurod1994@gmail.com

Sots. dots.v.b. F.Axmedova (PhD) taqrizi asosida

PR TECHNOLOGIES AS ONE OF THE MAIN FACTORS OF DEVELOPMENT IN MODERN SOCIETIES

Annotation

The article is devoted to the study of the concept and essence of PR technologies. The term Public Relations is defined, the signs and criteria for PR technologies. It is noted that the practical application of PR technologies in Uzbekistan differs significantly from the Western system. The purpose of PR activities is to improve and strengthen on the basis of truth and credibility information of trust relationships between the subject and the object of PR. For To this end, specialists working with youth organizations need to organize and run PR campaigns. The main task of PR technologies is to influence the minds and actions of young people.

Key words: PR technologies, essence, phenomenon, process, opinion, technology, management, influence, activity, communication, information, PR activities, public opinion, information globalization, information and communication technologies.

PR-ТЕХНОЛОГИИ КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

Статья посвящена исследованию понятия и сущности пиартехнологий. Определен термин Public Relations, проанализированы признаки и критерии пиар-технологий. Отмечено, что практическое применение PRтехнологий в Узбекистане значительно отличается от западной системы. Целью PRдеятельности является улучшение и упрочение на основе правды и достоверной информации доверительных отношений между субъектом и объектом PR. Для этого специалистам работающими с молодёжными организациями необходимо организовывать и проводить PR-кампании. Основная задача PR-технологий заключается во влиянии на мнения и поступки молодёжи.

Ключевые слова: ПР-технологии, сущность, явление, процесс, мнение, технология, управление, влияние, деятельность, коммуникация, информация, ПР-деятельность, общественное мнение, информационная глобализация, информационно-коммуникационные технологии.

ZAMONAVIY JAMIYATLARDA PR TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTNING BOSH OMILARIDAN BIRI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqola PR texnologiyalar tushunchasi va mohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Public Relations atamasi uning belgilari va mezonlari taxlil qilindi. O‘zbekistondagi PR texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash G‘arb tizimidan sezilarli farq qiladi. PR faoliyatining maqsadi PR sub‘yekti va ob‘yekti o‘rtasidagi munosabatlarni ishonchli ma‘lumotlar asosida takomillashtirish va mustahkamlashdir. Buning uchun jamoatchilik bilan ishlovchi mutaxassislar PR kompaniyalarni tashkil etish va o‘tkazish zarurdir. PR texnologiyalarining asosiy vazifasi bu jamiyat taraqqiyotiga ijobiy qilishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: PR-texnologiyalar, mohiyat, xodisa, jarayon, fikr, texnologiya, boshqarish, ta‘sir, faoliyat, aloqa, ma‘lumotlar, PR-faoliyat, jamoatchilik fikri, axborot globallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Kirish. Zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, inson va uning qadri masalasi yanada kuchliroq e‘tibor talab etayotgani hechkimga sir emas. Bugungi kunda Jamoatchilik fikrini o‘rganish o‘zaro aloqalarda muxim me‘zon xisoblanadi. Albatta, jamoatchilik bilan aloqalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Darxaqiqat mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ham inson va uning qadri masalasini o‘z diqqat markazida turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 sentabrdagi PF-5185-son “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 4 maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarini rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va soxaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlari o‘z navbatida

jamoatchilik bilan aloqalarning yanada takomillashishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi deyarli barcha idora va tashkilotlarning faoliyatlari jamoatchilik bilan aloqalar asosida rivojlanmoqda. Bizga ma‘lumki, jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalari PR (public relations) ommaviy ongga ta‘sirining ma‘lum bir o‘ziga xos xususiyatiga ega. Jamoatchilik bilan aloqa vositalari optimistik kayfiyatga ega bo‘lib, u kelajakka intilib yashaydi, ular o‘rtasidagi qurilgan muvaffaqiyatli kommunikatsiyalar jamiyatning normal rivojlanishiga va odamlarni hokimiyatdan begonalashirish ta‘sirini to‘xtatishga yordam beradi. PR ning asosiy vazifalari alohida odamlarga jamiyatda harakat qilish, to‘g‘ri ma‘lumot olish va jamiyatning barqaror rivojlanishini belgilaydigan ommaviy ongni shakllantirishga yordam berishda xizmat qiladi [1]. PR texnologiyalar savdo-sotiq bozor munosabatlari iqtisodiy ijtimoiy hayot va siyosat bilan chambarchas bog‘liq, chunki fuqarolarning hayoti va farovonligi ularga bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy munosabat-larning ushbu eng murakkab

va xilma-xil turi ijtimoiy reklamadan, shuningdek PR ning boshqa sohalariidan tegishli reklamadan farq qiladi. Masalan, yong'in xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligining qutqaruv xizmatini birlashtirish niyati jamoatchilikning yangi xizmatga bo'lgan ishonchini oshirish uchun ishlab chiqilgan. Ma'lumki, aholi Favqulodda vaziyatlar vazirligining davlat qutqaruv xizmatiga ko'proq ishonadi. Ishonchni mustahkamlash umuman Pr ning asosiy maqsadidir. O'z navbatida, PR tashkilot va jamiyat munosabatlarini uyg'unlashtirish, aholining ommaviy ongida o'z hukumatiga bo'lgan ishonchni shakllantirish — mamlakatning tinch va xavfsiz hayotining kafolatlaridan biri bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamoatchilik bilan aloqalar, birinchi navbatda, fikr-mulohazalarni olish bilan bog'liq: jamoatchilikdan tashkilotga va uni faqat ommaviy axborot vositalari yordamida xabardor qilish yemas. PR texnologiyalar, shu jumladan xayriya, uzoq muddatli ijtimoiy dasturlardan foydalangan holda kompaniyaning ijobiy imidjini yaratish va saqlashga yordam beradi. Ko'pgina xorijiy kompaniyalar PR texnologiyalari yordamida o'z tuzilishining jozibali qiyofasini yaratishga katta e'tibor berishadi. Keng ko'lamli marketing tadqiqotlarini o'tkazish, ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlarning butun majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun jamoatchilik bilan aloqalar sohasida yuqori maoshli mutaxassislarini jalb qilishga katta mablag' sarflanmoqda. Va bu harakatlar oqlanadi albatta. Ular kompaniya va tashkilotning reytingini oshirishga imkon beradi, umuman uning faoliyatiga ijobiy baho berishga, jamoat manfaatlarining paydo bo'lishiga, shuningdek, hokimiyat organlarining barqarorlik va farovonlikka hissa qo'shadi. Masalan, xayriya mablag'lari yoki moddiy boyliklarni beg'araz o'tkazish shaklida muhojirlarga yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul o'zlarining ijtimoiy mavqeiga e'tibor beradigan deyarli barcha kompaniyalar tomonidan qo'llaniladi. Uning afzalligi shundaki, u ko'p vaqt talab qiladigan tashkiliy va jiddiy intellektual harakatlarni, shuningdek, katta vaqt xarajatlarini talab qilmaydi. Bunday harakatlar natijasida kompaniya maqsadli auditoriyaning e'tiborini qozonishga va kompaniya haqida gapirish uchun qo'shimcha ma'lumot sababini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu texnologiyaning kamchiliklari shundaki, u sizga keng auditoriyaga ta'sir o'tkazishga imkon bermaydi. Aksiyada bevosita ishtirok yetmaydigan odamlar buni qadrlay olmaydilar, chunki ular haqiqatan ham ko'rsatilgan xayriya yordamining samarasini sezmaydilar. Bunday PR harakati tomonidan ishlab chiqarilgan effektning past darajasi, shuningdek, unda yangilik yo'qligi bilan bog'liq. Aksariyat fuqarolar xayriya ishlarini odatdagidek qabul qilishadi. Ularning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatga erishgan yoki erishmoqchi bo'lgan kompaniya bu faoliyat bilan shug'ullanishi shart.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. PR texnologiyalar haqida haqida g'arb olimlari o'zlarining turli fikrlarini bildirib o'tishgan. PR bo'yicha mutaxassis Sem Blek ta'riflaganidek "PR- bu haqiqat va to'liq ma'lumotlarga asoslangan o'zaro tushunish orqali tashqi muhit bilan uyg'unlikka erishish san'ati va fanidir" [1]. U pr ni reklamadan farqli ravishda alohida yo'nalishlarga bo'lib tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamoatchilik bilan munosabatlarning yana bir o'ta muhim vazifasi-bu jamoatchilik haqidagi bilimlarga asoslangan ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish va natijada ma'naviy qadriyatlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirishdir. Agar iste'mol sohasidagi PR tavsiyalari hisobga olinmasa, tanqidiy vaziyat yuzaga keladi. Ma'naviy ishlab chiqarish va ma'naviy iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat PR xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan reklama, balki ko'p jihatdan tanqid bilan ham

ta'minlanadi. Tanqid ishlab chiqaruvchiga (boshqaruv sub'yek-tiga) ham, iste'molchiga (boshqaruv ob'yekti) ham ta'sir qiladigan jamoatchilik bilan aloqalar vositasiga aylanadi.

Globalashuv davrida jamiyat taraqqiyoti haqida gap borar ekan, har bir sohada keng ko'lamli ishlar olib borish, turli yo'nalishlarda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangicha metodlar ishlab chiqish, ijtimoiy reklamalarni sifatli holda ko'paytirish ham jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi hech kimga sir emas. Jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalarining rivojlanishi PR-texnologiyalar - bu muayyan ijtimoiy mavzuning muayyan muammosini hal qilish uchun ijtimoiy texnologiya hisoblanadi. Bu uning diskretligi va chekliligini bildiradi[2]. Tegishli ehtiyoj paydo bo'lganda, PR texnologiyasi ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiiq etiladi. Agar texnologiya to'g'ri ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo'lsa, unda undan foydalanish vazifani hal qilishga olib keladi. Muammoni hal qilish PR texnologiyasi faoliyatining yakuniy nuqtasidir. Ushbu nuqtadan keyin texnologiya to'xtaydi, chunki bunga ehtiyoj qolmaydi. Jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlari davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi institut sifatida fuqarolarning davlat boshqaruviga jalb etilishiga hissa qo'shadi. Bu davlat organlarining jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlarining yangi maqsadlari, vazifalari va yangi maqomini namoyon etadi. Biroq, jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlarining ushbu yangi maqomi qonun hujjatlari bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak, ya'ni, davlatning tematik qonunchiligi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini tartibga solishi kerak, bu ularga nafaqat shakllanishiga, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatini beradi. Shubhasiz, sub'ektiv huquqlarning ushbu toifasini belgilovchi momentlardan biri shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarning tabiati va xususiyatidir. Shunday qilib, muayyan muammoni xal qilish, uni amalga qo'llashning aniq usullarini ishlab chiqishni anglatadi.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlab o'tganimizdek, umuman olganda muammoning texnologik yechimini nafaqat uning nima ekanligini tushunishni, balki muayyan vaziyatni qanday amalga oshirishni aniqlashni anglatadi[3]. Xaqiqatan xam moxiyat nuqta nazaridan olib qarayodigan bo'lsak, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida texnologiyalarni shakllantirishning analitik usuli ijtimoiy munosabatlarning aniq ishtirokchilari, ularning funksional ro'l va shaxslararo munosabatlardagi mavjud ijtimoiy normalar va faoliyat qoidalarini baxolash va tavsiflashni o'z ichiga oladi. Olimlar tomonidan jamoatchilik bilan aloqalar tizimida texnologiyalarni shakllantirishning ikkita asosiy usulini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi asosan sub'yektiv yondashuvga asoslanadi, bu sog'lom fikr standartlari odamlarning amaliy tajribasi, an'analar va stereotiplar bilan optimal xarakatlar ketma-ketligini loyixalash uchun asos yaratadi [4]. Binobarin RR orqali omma yuzini ko'radigan xar qanday ijtimoiy reklama keng jamoatchilikka "sof" xolda yetkazib berish vazifasini o'taydi. Siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishning samarador-ligi bugungi kunda ushbu jarayonlarga PR texnologiyalarining qo'llanilishi bilan belgilanmoqda. Bu esa tashkilot yoki siyosiy guruhning o'z faoliyatini tashkillashda jamoatchilik fikriga tayanishini, o'zining jamoatchilik oldidagi vazifalarini belgilangan muddat va ko'rinishda samarali tarzda ado etishi bian belgilanadi [5]. Shunday ekan, mohiyatan PR texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga qo'llash siyosiy jarayonlar subekti tomonidan o'ziga topshirilgan vazifalarni bosqichma-bosqich ratsionalizatsiyasi va takomillashtirilishida aks etadi.

Olimlar jamoatchilik fikrini shakllantirish texnologiyalarining ikki vositasini ajratib ko'rsatishadi. Ularning birinchisi subektiv yondashuv bo'lib, u subektning

o'z vazifalarini sog'lom aql, amaliy tajriba va qabul qilingan tartib va qoidalar doirasidan tashqariga chiqmagan holda ado etishini nazarda tutadi. Ushbu shartlar ado etilmasdan turib siyosiy jarayonlar subekti faoliyatining maqsadlari belgilanishi, yoki vazifalari belgilanishi imkonsizdir. Jamoatchilik fikrini shakllantirish sohasida PR texnologiyalarini ishlab chiqishning ikkinchi vositasi analitik vosita deyilib, unda siyosiy jarayonlar subekti o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni ado etishda qo'llanuvchi maxsus metod va vazifalarni aniqlashtiradi va ularni ado etish ketma-ketligini belgilaydi.

PR texnologiyalarning jamoatchilik fikriga ta'siri xarakteri ham ijobiy, ham salbiy xarakter kasb etishi mumkin va bu PR texnologiyalarini qo'llovchi subektga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, bugungi kunda jamoatchilik fikrini «mifologizatsiya qilish» texnologiyasi ko'p qo'llaniladi va bunda turli mamlakatlar siyosatchilari yoki oddiy fuqarolarining xatti-harakatlaridagi allaqachon barcha uchun yaxshi tanish bo'lib qolgan stereotipik obrazlaridan muayyan siyosiy maqsadga erishishda qo'llaniladi [6]. Shu o'rinda aytish joizki, jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalaridan qay maqsadda foydalanish ham juda muhim hisoblanadi. O'z navbatida jamoatchilik fikrini o'rganish va jamoatchilik nazoratini rivojlantiruvchi turli omillar jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jamiyat siyosiy hayotida mavjud va amal qilayotgan bir qator siyosiy miflarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, ko'pchilik davlatlar, jumladan O'zbekiston siyosiy muhiti uchun ham davlat boshlig'ining «jozibadorligi, xarizmatikligi» mifi xosdir [7]. Albatta, bu tasavvur jamiyatda yetarlicha keng yoyilgan bo'lib, u asosan siyosatchilarning o'zlari haqida xalqning kayfiyati to'g'risida noto'g'ri xulosalarga

kelishlariga sababchi bo'ladi. Bu esa ularning siyosiy faoliyatlarida o'ta og'ir oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qolaversa, bunday miflar ayniqsa davlat boshliqlarida jamoatchilikning – oddiy xalq va OAVlarning ular haqidagi tasavvurlari haqida noto'g'ri xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli ham siyosatchilar va siyosiy arboblarning o'z PR texnologiyalari ishlab chiqishlari, OAV lar qarshisida yaxshi taasurot qoldirish ustida ishlashlari o'ta muhimdir.

Xulosa va takliflar. Har qanday jarayon jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmog'i, insonlarning to'kis fa farovon jamiyatda yashab faoliyat yuritishlari, texnika taraqqiyoti jadal su'ratlar bilan rivojlanayotgan bir paytda "inson omili" masalasiga chuqur e'tibor qaratilayotgani bejizga emas [8]. Darxaqiqat, barcha qilinayotgan islohotlar, texnik taraqqiyotda erishilayotgan yutuqlar, umuman insoniyat tomonidan yaratilayotgan barcha narsalar inson manfaati uchun xizmat qilmog'i kerak. Shunday ekan jamiyatning barcha jabhalarida jamoatchilik bilan aloqalar PR texnologiyalarning o'rni beqiyos. Shu o'rinda aytish joizki, bugungi kunda odamlar orasida ijtimoiy muloqot ham zamon bilan hamnafas tarzda o'zgarmoqda. Kishilar endilikda kommunikatsiyaning yangi shaklida muloqot qilmoqdalar. O'z navbatida jamiyatsunos olimlar insonlarning farovon hayotda yashashlari uchun chuqur tadqiqotlar olib borishlari zarurati paydo bo'ldi. Odamlarning fikri, jamoatchilik nazorati kuchayayotgan bir davrda jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalarining jamiyat hayotida yanada takomillashuvga muhtoj ekanligi o'ynadek ravshan bo'lib qolmoqda. Demak zamonaviy jamiyatlarda jamiyat barqaror xayotini ta'minlashda jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalarini yanada takomillashtirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Обухова Ю.О., Евсеева Л.И., Танова А.Г. Новые технологии коммуникации в восприятии современного человека // Теория и практика общественного развития. 2017. № 12. С. 43-47.
2. Белов А.А. Теория и практика связей с общественностью-Ростов н/д: "Феникс", 2005. – С. 205.
3. Кузнецов В.Ф.Связи и общественностью.-«Аспект Пресс», 2006. – С. 300.
4. Тростинская И.Р. Тенденции развития рынка интернет-рекламы в России // Технологии PR и рекламы в современном обществе Материалы XII Всероссийской научнопрактической конференции с международным участием. СПб. Изд-во Политехн. 2017. – С. 195-199.
5. Кузнецов В.Ф.Связи с общественностью. Теория и технологии. М.,2005. С.196
6. Стризов А.Л. Политика и общество: социально-философские аспекты взаимодействия. Волгоград, 1999; Связи с общественностью в политике и государственном управлении. М., 2001; Шишкина М.А. Паблик
7. Рилейшнзв системе социального управления. СПб., 1999
8. Isropilov M. B. THE ROLE OF PR TECHNOLOGIES IN ENSURING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.
9. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 24. – С. 521-523.



Umrbek ILXOMOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti stajyor o‘qituvchisi
E-mail: ilxomov_u@nuu.uz

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, sots.f.d. Sh.Sodiqova taqrizi asosida

SOCIAL MOBILITY YOUTH AS A FACTOR OF INTELLECTUAL POTENTIAL

Annotation

In this article, the author relies on the study of social mobility of youth in order to apply the experience of intellectually talented youth in society and in groups in order to demonstrate their potential. Considering that today the issues of youth activity and mobility are very relevant, the importance of social mobility in their formation as an active stratum of society has been revealed. Based on the opinions of scientists in the study of social mobility of youth in society, the study of social mobility of the article in order to develop society in order to form intellectually gifted youth serves as a basis.

Key words: Mobility, intellectual, identity, progressive, crisis, ideal model, cognitive, elite, individual, social space, horizontal, vertical, transformation, stratification, metaphor, social, category.

СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ МОЛОДЕЖИ КАК ФАКТОР ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА

Аннотация

В данной статье автор опирается на исследование социальной мобильности молодежи, чтобы применить опыт интеллектуально талантливой молодежи в жизни общества и в группах с целью демонстрации своего потенциала. Учитывая, что сегодня вопросы активности, мобильности молодежи являются очень актуальными, выявлено значение социальной мобильности в их становлении как активного слоя общества. Опираясь на мнения ученых при изучении социальной мобильности молодежи в жизни общества, исследование социальной мобильности статьи в целях развития общества с целью формирования интеллектуально одаренной молодежи служит основой.

Ключевые слова: Мобильность, интеллектуальная, идентичность, прогрессивная, кризисная, идеальная модель, когнитивная, элитарная, индивидуальная, социальное пространство, горизонтальная, вертикальная, трансформация, стратификация, метафора, социальная, категория.

SOTSIAL MOBILLIK YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHİYATNING OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif intellektual salohiyatli yoshlarning jamiyat hayotiga va guruhlarda o‘z salohiyatini ko‘rsatish maqsadida olib borilgan tajribalarini tadbiiq qilish uchun yoshlarning sotsial mobilligini o‘rganish bilan asoslanadi. Bugungi kunda yoshlar faolligi, mobilligi masalalari juda ham dolzarb masala ekanligini inobatga olgan holda, ularning jamiyatning faol qatlami sifatida shakllanishlarida sotsial mobillikning ahamiyati ochib berilgan. Jamiyat hayotida yoshlarning sotsial mobilligini o‘rganishda olimlarning fikrlariga tayanib, intellektual salohiyatli yoshlarni shakllantirish maqsadida jamiyat rivoji maqsadida maqolaning sotsial mobilligini o‘rganish asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Mobillik, intellektual, identifikatsiya, progressiv, krizis, ideal model, kognitiv, elita, individual, ijtimoiy makon, gorizantal, vertikal, transformatsiya, stratifikatsiya, metafora, sotsial, kategoriya.

Kirish. Inson o‘rtacha 14 yoshda jismoniy yetuklikka erishadi. Bilim va ko‘nikma, intellektual salohiyat ko‘lami tarixiy davrlardan kengayib borar ekan, yetuklik maqomiga egalik davri borgan sari orqaga surilib bordi. Shu sababli, zamonaviy jamiyatlarda insonning yetuklikka erishish davri o‘rtacha 30 yoshni tashkil etdi.

O‘ziga xos sotsial xususiyatlarning tashuvchisi bo‘lgan yoshlar va ularning muammolarini ilmiy o‘rganish XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy to‘ntarishlar davridan boshlandi. “Yoshlar”, “yoshlik davri” kabi tushunchalar ijtimoiy hodisa sifatida huddi shu davrdan qator ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylandi. Yoshlik davri xususiyatlari nafaqat yosh chegaralariga, balki yetuklikka erishishda ijtimoiy va madaniy omillarga ham bog‘liq. Shu bois, yoshlik davri ijtimoiy-gumanitar fanlarda turlicha talqin qilinishi kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xususan, Artur Shopengauer (1788-1860) yoshlik davrini falsafiy nuqtai-nazardan imkoniyatlar, kelajak sari ildamlash bosqichi sifatida o‘rganar ekan; “hayot – yoshlik nuqtai nazaridan – bu cheksiz

uzoq kelajak, qarilik nuqtai nazaridan esa – juda qisqa o‘tmishdir” -deydi[1].

Hozirda yoshlar ijtimoiy qatlam sifatida dunyo aholisining salmoqli qismini tashkil etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatdan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki, ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda”[2]. Aholining ushbu qatlami inson kapitali nuqtai-nazaridan qudratli kuchni o‘zida mujassam etadi. Shu bois, “jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir”[3]. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlar ijtimoiy-demografik guruhiga 14-30 yoshlilar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi bo‘yicha inson 18 yoshdan boshlab huquqiy munosabatlarning to‘laonli subyektiga aylanadi[4]. Ta’lim tizimida “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro Konvensiyaga ko‘ra, yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi davriy chegarasi boshlang‘ich nuqtasi 18 yosh qilib belgilangan. Bu zamonaviy jamiyatlarda

bolalik, o'smirlik davrining orqaga surilishi bilan shartlanadi. Aynan ushbu yosh davrida individda ta'limning yakunlanishi va mehnat faoliyatiga kirishish kuzatiladi.

Jamoatchilik tashkilotlari (BMT, YUNESKO) yoshlar ijtimoiy guruhiga 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yigitlar va qizlarni kiritadi. Amerikalik sotsiologlar yoshlik davrini 12 yoshdan 24 yoshgacha deb qabul qilgan. Bunda yoshlikni ikki davrini, ya'ni, "o'smirlik" (12-18 yosh) va "yosh kattalar" (18-24 yosh) ni alohida ko'rsatadi. O'tgan asrning 70-80 yillarida yoshlikning davriy chegarasi sezilarli ravishda surildi. Bunga muvofiq yoshlikning quyi chegarasi 14-16 yosh deb olingan bo'lsa, yuqori chegarasi 25-30, ayrim davlatlarda esa 30-35 yosh deb qabul qilindi.

Karl Manngeym (1893-1947) fikricha, yoshlar sotsial hayotni jonlantiruvchi mexanizm bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan keskin transformatsiyalarda oldingi qatorda turuvchi insoniy zahira rolini o'taydi. Bunday jonlanish yoshlardagi har qanday o'zgarishlarga qisqa fursatda moslashuvchanligi bilan izohlanadi. Shu bois, Manngeym yoshlarni "tabiatan progressiv ham konservativ ham emas" - deb ta'riflaydi[5].

XX asrning 60-70 yillarida A.B.Saxarov, G.M.Minkov, K.Ye.Igoshevar tomonidan yoshlar jinoyatchiligi muammolari tizimli o'rganildi. 1990 yillarda iqtisodiyotning keskin tanazzuli bois yoshlar jinoyatchiligida yangi to'lqin boshlanib, bunda sotsial qadriyatlarining parchalanishi asosiy sabab sifatida ko'rsatildi. Qayd etish joizki, ko'rsatilgan yillar davomida yoshlar "ijtimoiy muammolar" kesimida o'rganildi. Bunda ikki yondashuv ustuvor bo'lib, bir tomondan, yoshlar jamiyat taraqqiyotidagi tahdid soluvchi, boshqarilishi murakkab bo'lgan kuch sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan esa, jamiyatning istiqboli, taraqqiyotini ta'minlovchi insoniy zahira, deb yondashildi. Xususan, I.S.Kon ta'rificha "yoshlar – ijtimoiy-demografik qatlam sifatida qator sotsiopsixologik xususiyatlar yig'indisini o'zida mujassam etadi. Yoshlik – inson hayot siklining biologik jihatdan universal xususiyatga ega bosqichidir. Yoshlarning sotsiopsixologik ko'rsatkichlari o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, tegishli jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, sotsiomadaniy me'yorlari va qonuniyatlari bilan belgilanadi"[6].

Sotsiologiyaning tarmoq yo'nalishi sifatida shakllangan Yoshlar sotsiologiyasi vakillaridan V.T. Lisovskiy yoshlar ijtimoiylashuvi birlamchi va ikkilamchi agentlar orqali amalga oshirilishini ko'rsatar ekan: "Yoshlar – ijtimoiylashuv jarayoni bosqichidan o'tayotgan aholi qatlami bo'lib, nisbatan yetuk yoshda ta'lim, kasbiy, madaniy va boshqa ijtimoiy funksiyalarni o'zlashtirgan bo'ladi" - deydi[7]. Muallif yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi yosh chegaralariga aniqlik kiritib, o'rtacha 16-30 yoshli kishilarni kiritadi. E.Erikson tomonidan ishlab chiqilgan epigenetik tamoyilga muvofiq, yoshlarda shaxsiyat rivojlanishi davomida identifikatsiya krizisi sodir bo'ladi[8]. Bunday krizis jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlar va yoshlarda psixosotsial yetuklik o'rtasidagi nomutanosiblik sababli shakllanadi. Ushbu nomutanosiblik bois yoshlik ziddiyatlarga to'la, ammo, inson hayotidagi ijtimoiy ahamiyatli davr sanaladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki yoshlar sotsial hayotni jonlantiruvchi inson kapitalini hosil qiladi. aynan ushbu davrda individ katta hayotga mustaqil qadam qo'yadi. Yoshlik davrida ijtimoiy me'yorlarga zid hatti-harakat, agressiya, og'ma hulq-atvorni namoyon etishga ishtiyoq kuchayib boradi. "Yoshlarda og'ma hulq, – deb yozadi Dj.Ueyn, - ularning sarf etilmagan ichki quvvatini chiqarish yo'lidir"[9]. G.Zabryanskiy ta'kidlashicha: "Zamonaviy jamiyatlarda ilgari surilayotgan maqsadlar va ularga erishish

vositalari o'rtasidagi ziddiyatlar yoshlarda ijtimoiy farovon hayotga qonuniy erishishda shubha tug'diradi"[10]. Oqibatda yoshlarda retretizm, ya'ni, alkogolli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilish, hattoki, suitsid orqali ijtimoiy hayotdan "uzoqlashish yoki uni tark etish" sodir bo'ladi.

Yoshlarning eng ko'p sonli va faol qismi bu – talaba yoshlar sanaladi. Talaba yoshlar ta'lim olish ehtiyoji balandligi, mehnat faolligi va dinamik hulq-avtor sohibi sifatida intellektual salohiyatli yoshlarning asosiy qatlamini hosil qiladi. O.V.Larmin talaba yoshlarga ta'rif berar ekan, ular o'ziga xos ijtimoiy-professional qatlam sifatida ta'lim va ijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi, turmush tarzi va qadriyatli mo'ljallari bilan boshqalardan ajralib turishini ko'rsatadi[11]. Ta'lim salohiyati yosh avlod tomonidan o'zlashtirilgan bilim darajasi bilan o'lchanadi. Bunda ta'limning umumiy, kasbiy ixtisoslashuvi, ta'lim va bandlikning kasbiy-malakaviy tuzilmasi sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sotsial mobillik jamiyat taraqqiyoti davomida ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq kechuvchi jarayon sanaladi. Ijtimoiy o'zgarishlarga hamohang ravishda ularning tabiati qanday bo'lishidan qat'iy nazar sotsial mobillik oqimlari kuchayib boradi.

Maks Veber fikriga ko'ra, zamonaviy jamiyatlar nafaqat ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi bilan emas, balki ijtimoiy tafovutlarga olib keluvchi ko'plab mexanizmlari bilan ajralib turadi[12].

Sotsial mobillikning sotsiologik o'rganish an'anasidagi tub burilish 1990 yillarda sodir bo'ldi. Bunda Pitirim Sorokinning hissasi salmoqli bo'lib, 1927 yilda u o'zining "Человек. цивилизация. общество" asarini chop ettirdi. Ushbu asarida P.Sorokin «sotsial mobillik deganda har qanday individ yoki faoliyati orqali yaratilgan yoki modifikatsiyalashgan sotsial obyekt (qadriyatning) ning bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga o'tishi tushuniladi" – deb tavsifladi[13]. P.Sorokin o'zining asarida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yevropa va amerika jamiyatlaridagi iqtisodiy sohada statusli transformatsiyalarni o'rganar ekan, bu davrda turli qatlam vakillari orasida iqtisodiy boyib borishning barqaror tendensiyasini qayd etadi. Amerikada boylikning katta miqdorda to'planishi, quyi qatlam vakillari orasida tadbirkorlik bilan faol shug'ullanishning natijasi sifatida sodir bo'ladi. Angliya, Germaniya va Fransiya kabi Yevropa davlatlarida tadbirkorlikda keskin ko'tarilish kuzatilmasa-da, ammo muqobil stabillik saqlanib kelayotgani ijobiy baholanadi[14]. Bu iqtisodiy stratifikatsiyada quyi qatlamda turgan aholi vakillarining faol iqtisodiy tashabbuslari bois sodir bo'ladi.

Sotsial mobillikning gorizontal va vertikal turlari bo'lib, gorizontal sotsial mobillikda inson bir darajada turgan pozitsiyadan ikkinchisiga ko'chishi nazarda tutiladi. Bunda insonning ijtimoiy professional maqomi o'zgarmaydi. Vertikal sotsial mobillikda individ yoki sotsial obyektning bir sotsial qatlamdan ikkinchisiga yuqorilab ko'chib o'tishi nazarda tutiladi. P.Sorokin vertikal sotsial mobillikni inson organizmi qon aylanish tizimiga qiyoslaydi va bu bilan sirkulyatsion organik metafora g'oyasini taklif etadi. Bunda vertikal harakatlanish ijtimoiy pillapoyalardan tepaga yuqorilash bo'lsa, pastga qarab harakatlanish kishining ijtimoiy pozitsiyasidagi yo'qotishni angladi. Vertikal mobillik qatoridan gorizontal mobillik kishining bir pozitsiyadagi ijtimoiy guruhdan ikkinchisiga o'tish jarayonini anglatib, ijtimoiy maqomning o'sishi yoki tushib ketishi nuqtai nazaridan bunda deyarli tafovut sezilmaydi.

Tahlil va natijalar. Sotsial mobillikning har qanday turida o'lchov mezonlari iqtisodiy, siyosiy, kasbiy-professional pozitsiyalar bo'lib, ular kishining mobilligi orqali yengib o'tiladi va bir holatdan ikkinchisiga o'tish sodir

bo'ladi. Aynan sotsial mobillik bois o'z davrida amerikaliklarning ijtimoiy pillapoyalardan yuqorilab ketish imkoniyati yaqqol kuzatildi[15]. Sorokinning fikriga ko'ra, bu ma'noda ta'lim va tadbirkorlik "sotsial elevator" rolini o'taydi[16]. Aynan, ta'lim bois individ bir turmush tarzidan ikkinchisiga o'tadi va bu ma'noda ta'lim insonning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini mavjud holatidan pog'onama pog'ona yuqorilab borishga xizmat qiladi. S.Lipset va R. Bendikslar uchun sotsial mobillik individning ijtimoiy tizimdagi mavjud pozitsiyalararo ko'chib yurish jarayonining yig'indisidir[17]. Mualliflarning yondashuviga muvofiq sanoatlashgan jamiyatlarda ta'lim, iqtisodiy va huquqiy yangilanishlar ijtimoiy makondagi ideal modelni shakllantiradi va unda kishilar yoki "muvaffaqiyat qozonadi", yoki "qoloq"lar safidan joy oladi. Demakki, jamiyat taraqqiy etib borishi bilan Sorokinda tan olingan ta'lim bilan bir qatorda

iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlar kishining sotsial mobilligini yanada jadallashtiradi. O.Shkaratan sotsial mobillikni ilmiy o'rganish an'anasini "imkoniyatlar tengligi" g'oyasidan kelib chiqib, shartli ravishda amerikacha "optimistik" va yevropacha "pessimistik" turlarga ajratdi[18]. Yevropada "oltin me'yor" klassik model sifatida meritokratik pessimizmni ko'ndalang qo'yadi. Bunga ko'ra, Buyuk Britaniyada boyib ketish uchun "badavlat oilada tug'ilish" lozim.

Intellektual-kasbiy salohiyatli kishilar o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatning ilg'or yetakchi qatlami bo'lib, mamlakat taraqqiyotiga zarur bo'lgan innovatsion g'oyalarni amalga oshiruvchi mas'ul guruh sanaladi. Qaysidir bir davr yoki jarayonda ushbu omilga nisbatan regress holatida sust munosabat paydo bo'lsa, ma'lum vaqt o'tib shu jamiyat taraqqiyoti inqirozni boshdan kechiradi.



Ta'kidlash joizki, ta'lim zamonaviy taraqqiyotni ta'minlashda bosh omil sanalgan intellektual salohiyatni shakllantiruvchi institut rolini bajaradi. Ta'lim iqtisodiyot rivojining fundamental omili bo'lib, u avvalambor bilimga tayanadi (1-rasmga qarang).

1-rasm. Intellektual salohiyat komponentlarining o'zaro aloqadorligi

Intellektual salohiyat o'z nomidan kelib chiqib "intellekt" atamasiga borib taqaladi. Lotin tilidan olingan "intellego" yoki "intellectus" – his etmoq, sezmoq, ta'sirlanmoq, anglamoq, bilmoq, tafakkur qilmoq, farqiga bormoq degan ma'nolarni anglatadi[19]. Fransuz psixologi Piajening fikriga ko'ra "intellekt bu yangicha sharoitga ruhan moslashish bo'lib, u go'yoki jonli orginazimning tashqi muhitga moslashish ehtiyoji kabi insonning kognitiv (aqlan) moslashish imkoniyatlari ko'lamini anglatadi"[20]. Kishidagi intellektning bosh xususiyati undaki, tashqi dunyodan qabul qilib olinayotgan har qanday mazmun mohiyat o'zlashtirilmaydi, aksincha individning ichki dunyosiga munosib qismiga olinadi. Piaje intellektning rivojlanish bosqichlari haqida gapirar ekan uning 4 bosqichda kechishini ta'kidlaydi. uningcha intellektning rivojlanish bosqichining birinchi davri 0 yoshdan 2 yoshgacha davom etadi. keyingi bosqich 2 yoshdan 8 yoshgacha, uchinchi bosqich esa 8 yoshdan 12 yoshgacha va to'rtinchi bosqich 12 yoshdan boshlanib kishining butun umri davomida sodir bo'ladi. ko'rib tuganimizdek, kishida intellektning rivojlanishi muayyan yosh davri bilan chambarchas bog'langan. Ammo, ta'lim intellekt rivojini tezlashtirishi mumkin. Ta'limdan chetda qolish esa intellekt rivojida uzilishlarga sabab bo'ladi. Piaje uchun intellekt kishi rivojining archa darajalarida hulq atvorning tartiblovchilik vazifasini o'tasa, boshqa olimlar (A.Bine, L. Veksler) intellektni kishining ta'lim olish layoqati, yangi bilim, ko'nikma hosil qilish qobiliyati sifatida baholaydi[21]. "Intellekt, olingan ma'lumotlarni (mehnat predmetini) tartibga solish va oqilona umumlashtirishni o'zida ifodalaydigan inson qobiliyati tizimi bo'lib, u o'z egasidan begonolashmagan va intellektual ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi"[22].

Intellektning mazmun mohiyatini ochib berishga qaratilgan ta'riflar va yondashuvlarni umumlashtirib, bugungi kunda ushbu ilmiy kategoriya fanlararo kesimda 3 ta

yo'nalishda turkumlanib tavsiflanishini ko'ramiz, Bular quyidagilardan iborat:

Biologik tavsif: yangicha vaziyatga ongli moslashish layoqati.

Pedagogik tavsif: ta'lim olish layoqati, o'qitilish.

Tuzilmali yondashuv: vositalarning maqsadga moslashish layoqat, yoki u yoxud bu layoqat, qobiliyatlarning yig'indisi[23].

Intellektual salohiyat rivojlanishi uchun mavjud bilim va ko'nikmalar rivojlanish holatiga o'tishi kerak bo'ladi. Rivojlanish holatidagi salohiyat esa aniqlangan holatga o'tishi va realizatsiya bosqichiga o'tishi talab etiladi.

Jamiyatning intellektual salohiyati – bu uning g'oyalarni generatsiya qilish imkoniyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga yangiliklar kiritishi va bu bilan ilg'ariga harakat qilish uchun sharoitlar yaratishidir. Texnologik jarayon insonning ta'lim, ilmiy (yangi bilimlar) va texnik (kashfiyotlar, konstruksiyalash) faoliyati bilan ta'minlanadigan texnogen sivilizatsiya sharoitida fan va texnologiya sohasida inson kapitalidan foydalanish, ya'ni olimlar, muhandislar, konstruktorlar, texniklar, yuqori malakali ishchilar faoliyati moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Shulardan kelib chiqib, biz intellektual salohiyatga o'zimizning quyidagi ta'rifimizni keltirdik: "Intellektual salohiyat ijtimoiy iqtisodiy kategoriya bo'lib, u o'zida ijodkorlik va aqliy qobiliyatni namoyon qiladi va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy tajribani qabul qiladi, voqea-hodisalarni amaliy tajriba asosida baholab, ilmiy prognoz beradi va mushohada qiladi". Intellektual salohiyat – bu inson tafakkurining qisqa fursatda va aniq faollashish holati bo'lib, bu kishining yangi bilim, intellektual ko'nikma va malakalarni yuqori tezlikda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Ammo, intellektual salohiyat maxsus ta'lim yoki kasbiy tajribasi bo'lmagan ishchi-xodimlar faoliyati samaradorligini kafolatlamaydi.

Aynan kognitiv boshqaruv doirasida ilmiy ishlarini olib borgan M.V.Suxaryev individual va sotsial intellektning introsotsialligini o'rganar ekan, "shaxsning atrof muhit ta'sirida shakllangan g'oyalari, individual noyoblik kasb etadi va "olamning kognitiv modeli"ga aylanadi, deb hisoblaydi. Jamoaviy faoliyat taqsimlangan kognitiv model tomonidan tartiblansa, individual tafakkur guruhli intellekt bilan intellektual kommunikatsiya orqali tahrirlanadi[24]". Vaholanki, intellektual salohiyatni kasbiy nuqtai nazardan rivojlantirish va shakllantirib borishda mavjud manbalar, unga ta'sir qiladigan sotsial omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Intellektual salohiyatli jamiyatga erishish jarayoni yuqori texnologiyalar, ma'naviy, ta'lim va

ijtimoiy hayotdan tortib iqtisodiy-ishlab chiqaruvchilik sohalarida texnologik o'sish bilan shartlanadi. Bunday jarayon avvalo ta'lim tizimiga bo'lgan ehtiyojni oshirib, "ta'lim + jamiyat" qurilishiga turtki beradi. Ushbu jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch esa intellektual elita bo'lib, ular jamiyat intellektual darajasini o'stirish va madaniy elita qatlamini kengaytirishda asosiy mexanizm rolini o'taydi. Ammo so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar, ilmiy, ta'limiy jamiyatlar tomonidan o'tkazilgan baholashlarga ko'ra, maktab o'quvchilari, talabalar va yosh mutaxassislarda intellektual salohiyat keskin sustlashib, kognitiv va madaniy izdan chiqish kuzatilmoqda. Shu sababli, boshqarishda yangi funktsiya ya'ni, "bilimni boshqarish" g'oyasi ilgari surildi.

ADABIYOTLAR

1. Социология молодёжи. // отв. Редактор В.Т.Лисовский. – СПб: Университет, 1996. – С. 56.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so'zlagan nutqidan. 2018 yil 19 sentabr. – B. 1.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent., 2000.
5. www.socioline.ru
6. Головатый Н.Ф. Социология молодёжи. – Москва., 1999. – С. 32.
7. Лисовский В.Т. Социология молодёжи. – СПб: Университет, 1996. – С. 56.
8. Добренко В.И., Кравченко А.И. Фундаментальная социология. Том 7. Человек, индивид, личность. – Москва: ИНФРА-М, 2000. – С. 471.
9. Уэйн Дж. Зимой в горах // Иностранная литература. 1972. № 5. – С. 235.
10. Забрянский Г. И. Социология преступности несовершеннолетних. Минск, 1997. – С. 77.
11. Молодёж в России. // Стат.сборник. – Москва: ИИЦ, Статистика России, 2010. – 166. С.
12. Вебер М. Основные социологические понятия. Избранные произведения. Перевод с немецкого и общая редакция Ю.Н.Давыдов. – Москва:«Прогресс», 1990. – С. 602-633.
13. Сорокин П. Социальная стратификация и мобильность. Монография. – Москва: Директ-медиа, 2007. – С. 346.; Сорокин П. Социальная мобильность, её формы и флуктуация. // Человек, цивилизация, общество. Общ. ред., сост. и предисл. А.Ю. Согомонов – Москва: Политиздат. 1992. – С. 373-374.
14. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. Человек, цивилизация, общество. // Общ. ред., сост. и предисл. А.Ю. Согомонов. – Москва: Полит-издат. 1992. – С. 251.
15. Никишин Е.А. Исследования мобильности. История и преспектива исследования социальной мобильности после мобильного поворота. Журнал социологии и социальной антропологии. 22 /№2. – С. 96.
16. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. Человек, цивилизация, общество. // Общ. ред., сост. и предисл. А.Ю. Согомонов. – Москва: Полит-издат. 1992. – С. 312.
17. Lipset S., Bendix R. Social mobility in industrial society. – New Brunswick: Transaction Publishers, 1991.
18. Шкаратан О.И. Ожидания и реальность. Социальная мобильность в контексте проблемы равенства шансов. Общественные науки и современность. 2011. №1. – С. 5-24.
19. <http://linguaeterna.com/vocabula/show.php?n=23572>
20. Пиаже Ж. Избранные психологические произведения. – М.: Наука, 1969. – С. 85.
21. Олейников А.М. Особенности психолого-педагогического процесса в работах Алфреда Бине. // Северно Кавказский психологический вестник. 2010. Т.8. №3. – С. 35.
22. Yorqulov H.O. O'tish davri davlat siyosatida intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish muammolari. / Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent 2007. – B. 12.
23. Прошак В.В. Интеллектуальный потенциал Украины в улмовах ринкової трансформації економіки: Автореф. Дис. ... канд.экон.наук. – Львів: 2002. – С. 6.
24. Сухарев М. В. Когнитивные процессы в локальном сообществе. // Труды Карельского научного центра Российской академии наук, 2012. №6. – С. 29-33.



UDK: 327.7

Qudratjon INAKOV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

E-mail: komil.inakov@mail.ru

Ozoda TURGANBOYEVA,

Toshkent sh., Yangi hayot tumani 285-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi

E-mail: oturganboyeva@mail.ru

P.f.d., professor X.Xudoyqulov taqrizi asosida

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOY ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada so'ngi yillarda dolzarblik kasb etayotgan hamkorlik pedagogikasining zamonaviy tendensiyalarda rivojlanishi tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Pedagoganing ijtimoi zaruriy ahamiyati mumtoz faylasuf pedagoglardan tortib zamonaviy pedagoglarning qarashlari tadqiq etildi. Maqolada ko'tarilgan mavzu sharq va g'arb kesimida tarixiylik tamoyillari asosida davrlashtirilib tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Hamkorlik pedagogikasi, pedagogik fasilitatsiya, kommunikativ faoliyat, kognitiv bosqichda, refleksiv bosqich, integratsion jarayon, individual kamolot, insonparvarlashuv bosqichlari, komil inson.

IMPROVING EDUCATION QUALITY ON THE BASIS OF COLLABORATIVE PEDAGOGY AS A SOCIAL NECESSITY

Annotation

This article discusses the development of collaboration pedagogy, which has gained actuality in recent years, on the basis of historical and modern approaches. The social necessary importance of pedagogy has been studied from classical philosopher educators to the views of modern educators. The topic raised in the article was periodized and analyzed on the principles of historicism in the East and West.

Key words: collaboration pedagogy, pedagogical facilitation, communicative activity, cognitive stage, reflexive stage, integrative process, individual maturation, stages of humanization, ideal person.

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация

В данной статье исследуется развитие педагогики сотрудничества, приобретающей все большую актуальность в современных тенденциях, на основе исторического и современного подходов. Взгляды современных педагогов на социальную значимость педагогики изучены начиная с педагогов-классиков-философов. Поднятая в статье тема анализируется в разрезе востока и запада на основе принципов историчности.

Ключевые слова: Педагогика сотрудничества, педагогическое содействие, коммуникативная деятельность, на когнитивной стадии, рефлексивный этап, интеграционный процесс, индивидуальная зрелость, этапы гуманизации, совершенная личность.

So'nggi yillarda ta'limga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida texnologik yondashuvni qaror toptirish muammosi tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim nazariyasi va amaliyoti ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy-metodik asosda takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy sharoitda hamkorlik pedagogikasi muammosining dolzarbligiga quyidagilar asos bo'lmoqda:

– jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlarning jadal sur'atlarda amalga oshirilayotganligi (munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuvi, inson omili rolining kuchayayotganligi, innovatsion jarayonlar asosida ta'lim-tarbiya sifatining hamda ta'lim, maktab muammolariga xalq e'tiborining ortib borayotganligi va h.k.);

– umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (o'qituvchi va o'quvchilarga yetarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari; o'qituvchilarning

o'quvchilar bilan insonparvar va do'stona munosabatni tashkil etish malakalarining yetarli emasligi va h.k.);

– amaliyotchi-pedagoglarning ta'limiy innovatsiyalarga katta ehtiyoj sezishi (bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish va h.k.).

Ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida "hamkorlik", "sherkchilik", "muvofiglashish", "birgalikdagi harakat" tushunchalari sinonim tushunchalar sifatida ishlatib kelingan. Bizning fikrimizcha, "hamkorlik" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi samarali faoliyatni taqozo etadi.

Hamkorlik pedagogikasining asosi sifatida yuksak axloqiy va insonparvarlik qarashlar O'rta Osiyo Uyg'onish davrida yashab, ijod etgan atoqli olimlarimizning asarlarida g'oya va aniq nazariyalar ko'rinishida o'z aksini topdi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar ijtimoiy tuzum, davlatning gullab yashnashi uchun

zarur bo'lgan muhim insonparvarlik va hamkorlik g'oyalari ilgari surishdi hamda insonparvarlashuv bosqichlari, mezonlari va tamoyillarini ishlab chiqishdi [1].

Forobiy o'zining ijtimoiy g'oyalari ko'ra nihoyat darajada taraqqiyparvar va insonparvardir. U insonni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi va odamlar orasidagi hamkorlikdagi munosabatlar ularning qiziqishlari, xohish-istaklari va o'zaro birlashuvi asosida yuzaga chiqadi, deb hisoblaydi. Forobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o'z ixtiyoriga binoan faoliyat ko'rsatib, o'z baxtini o'zi yaratadi, taqdirini o'zi hal etadi. Yaratilishda insonlar bir xil, lekin tarbiya, muhit ta'siri ostida ular o'zgaradilar. Olim bu o'rinda tarbiyaga katta ahamiyat beradi [2].

Forobiy komil insonning muhim sifatlaridan biri bilishga, ilm-fanni o'rganishga ishtiyoqdir, deb hisoblaydi. Olimning fikricha, o'zida quyidagi o'n ikki xislatni birlashtirgan kishigina axloqli bo'la oladi:

1) bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

2) barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqaydigan bo'lsin;

3) xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;

4) zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini tezda bilib olsin;

5) so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

6) bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin;

7) ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiatan qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin;

8) haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

9) ruhining g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'zi tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin;

10) dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

11) o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hissoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsiz oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin;

12) adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin [3].

Shu o'rinda Sharqda rivojlangan va umuminsoniy madaniyat paydevorini yaratgan buyuk olimlar – Beruniy, Ibn Sino, Ibn Turayl, al-Kiftiy, Ibn Rushd va boshqalar ijodining shakllanishi va rivojida Forobiy ta'limotining roli beqiyosligini ta'kidlash joiz. Ibn Sino kishilarning o'zaro munosabatlarida uyg'unlik va o'zaro bir-birini tushunish mavjud bo'lgan jamiyat zarurligi haqida qat'iylik bilan

gapiradi. Insonparvar olim bunday jamiyatni o'zi juda qiziqarli asoslab bergan edi: odamlar bir-biri bilan muloqot qilmasdan, hamkorliksiz, o'zaro yordamsiz, bir-biriga xizmat qilmasdan, bir-biriga nisbatan yaxshilik qilmasdan mavjud ham bo'lolmaydi, yashay ham olmaydi.

Shuning uchun olim o'zining “Kitob ash-ishorat va tanbihot” asarida mana bunday yozadi: “Inson o'zining shaxsiy ehtiyojlarini yakka-yolg'iz, ihtotalangan holda qondira olmaydi, u faqat boshqa odamlar bilan muloqatdagina ana shu maqsadlariga erisha olishi mumkin. Odamlar o'zaro muloqotlar va bir-biriga yordam berish orqaligina tashvishlardan xalos bo'lalilar.

Agar odamzod hamma tashvishlardan qutilish uchun yakka o'zi harakat qilganida edi, u bunchalik og'ir yukni ko'tara olmagan bo'lar edi. Ma'lum bo'ladiki, odamlar o'rtasida adolat va qonun bilan o'rnatiladigan me'yorlar zarur ekan...” [4].

Ibn Sino asarlarini tahlil qilish natijasida biz uning hamkorlik pedagogikasi nuqtai nazarini yoqlaganligiga ishonch hosil qilamiz. Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik mohiyat e'tibori bilan nihoyat darajada taraqqiyparvar va ko'p jihatdan zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan uyg'un. Olim pedagogikasining asosiy tamoyillari – bola xarakterida ijobiy jihatlarni tarbiyalash, uni ibratli xulq-atvoriga o'rgatish va foydali odatlarga odatlantirishdir. Mutafakkir bolalar va yoshlarning har tomonlama ta'lim va tarbiya olishi, savod chiqarishi, ilm-fan, hunarmandchilik, savdo-sotiq, san'at asoslarini o'rganishi, shu orqali ularni hayotga tayyorlash lozimligi uchun jonbozlik ko'rsatdi [5].

Ibn Sino “Hikmat buloqlari” asarida o'zidan oldingi va o'z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda, shunday bir pedagogik ta'limot yaratdiki, bu ta'limot o'rta asr Sharqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Olim pedagogika fanining maqsad va vazifalarini quyidagicha ta'riflaydi: “Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular faqatgina o'zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilishi kerak. Insonda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi kerak” [6].

Hamkorlik pedagogikasining rivojlanishida Abu Rayhon Beruniyning hissasi beqiyos bo'ldi. Insonni o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot deb hisoblagan olim axloqiylik va mehnatsevarlikni shaxsdagi insoniy qadri-qimmatning asosiy mezonlari sifatida belgilaydi.

Mahmud G'aznaviy o'zining bosqinchilik yurishlarini Hindistonga yo'naltirgan bir vaqtda, Beruniy o'z asarlarida insonparvarlikni, o'zaro hamkorlikni targ'ib etdi. U Hindiston va O'rta Osiyo madaniyatlarining o'zaro yaqinlashuvida birinchi tashabbuskor bo'ldi. Bunday yaqinlashish dunyo haqidagi tabiiy-ilmiy va falsafiy bilimlarni o'zaro ayriboshlash tufayli amalga oshsa, ancha samarali kechishini anglab yetdi va ilmiy faoliyatida o'zi shunga intildi. Beruniy Qur'oni karimdagi “Aytin Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmi?!” (“Zumra” surasi, 9-oyat), “Albatta, bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor” (“Ra'd” surasi, 4-oyat) va “Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib quydik. Aqlni ishlatmaydilarmi?” (“Baqara” surasi, 76-oyat) degan islom ta'limotiga tayangan holda aql insonga berilgan buyuk ne'mat, degan ilg'or g'oyani ilgari suradi. Mutafakkirning uqtirishicha, inson – tabiatning eng oliy kamolotidir, chunki “inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi... yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun Alloh insonga katta sharaf ko'rsatgan – unga aql-zakovat kuchi armug'on etgan”. Shu sababli, deb qayd qiladi Beruniy insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan

vazifalarga mos bo'lmog'i uchun u yuksak axloqli, ilmu ma'rifatli bo'lishi lozim [7].

"Inson eng olijjanob fazilatlar sohibidir, deb yozadi Beruniy "Mineralogiya" asarida, yaqin do'sti bor kishi chinakam baxtiyor kishidir. U do'st munosib hayot tarziga ega, yoqimli xususiyatlar sohibi bo'lishi lozimdir. Ana shunday chin do'st har bir kishida bitta bo'ladi. Bundan ortiq bo'lmaydi. U odam hamisha boshqalarga yaxshilik qilish imkoniyatiga ega bo'lmasada, yaxshi tilaklar izhor etsin" deydi [8].

Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va qarashlari o'zining g'oyaviy-nazariy jihatli bilan O'rta va Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikrlar bilan chambarchas bog'liq. U o'z ijodi va faoliyatida o'rta asrlar falsafiy she'riyatining mashhur vakillari Yusuf Xos Xojib (*X asr*), Ahmad Yugnakiy (*XII asr*), Firdavsiy (*XII asr*), Ahmad Yassaviy (*XIII asr*), Sa'diy Sheroziy (*XIII asr*), Nizomiy Ganjaviy (*XIII asr*), Hofiz Sheroziy (*XIV asr*), Abdurahmon Jomiy (*XV asr*) kabi buyuk ustozlari va salafining an'alarini davom ettirdi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, shoirning insonparvar g'oyalari O'rta Osiyo xalqlari an'alarini va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini, yozma adabiyot va ijtimoiy-falsafiy fikrlarning boy ma'naviy merosi asosida vujudga kelgan edi. Insonni sevish, unga oliy qadriyat sifatida qarash, uning baxt-saodati haqida orzu qilish, odamlar hayotini yanada farovonlashtirish yo'llarini izlash bu mutafakkir bobomizning insonparvarlik qarashlarida eng yorqin sahifalarni tashkil etadi.

Alisher Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoir nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida olijanoblik va mardonavor ruhini, vafodorlik-ni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

A.Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan ("*Qilding ani orifi ul ma'rifat*"), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. U Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

"*Karramo*" – *keldi manoqib anga*

"*Ahsani taqvim*" – *munosib anga* [9].

O'rta Osiyo mutafakkirlarining fikrlari va g'oyalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, hamkorlik pedagogikasi asosida umumiy o'rta ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish ta'lim muassasalari amaliyotida muayyan o'zgarishlar kiritishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, uning samarasi umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etilishi, ta'lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasining oshganligi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaliklari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi.

Jahon pedagogikasida hamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlardan foydalanish masalasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.Arshinov, M.Boguslavskiy, V.Budanov, V.Vinenko, L.Zorina, V.Ignatova, S.Kapitsa, Ye.Knyazeva, G.Malineskiy, V.Matkin, L.Novikova, Ye.Pugacheva, N.Talanchuk, D.Trubekov, O.Fedorov, Yu.Sharonin, A.Bochkarev,

Ye.Kopylova, V.Petrova, O.Gataulina, G.Sumina, L.V.Surchalova, Yu.V.Talagaev, R.Jonson, Sh.Sharon, R.Gane, Dj.Brigs, Levi Strosslarning tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitishning afzalliklari, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini tashkil etishning yetakchi g'oyalari o'z aksini topgan.

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("*cooperativ learning*") an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaoligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi.

O'zbekistonlik N.Azizxodjaeva, J.Yo'ldoshev, R.Safarova, B.Xodjaev, Sh.Abdullaeva, N.Dilova kabi olimlar tomonidan hamkorlik pedagogikasi, o'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili (*N.Dejnikova, I.Pervin, V.Dyachenko, D.Djonson, R.Djonson, R.Slavin, D.Mesh, E.D.Xolubek v.b.*) shuni ko'rsatadiki, hamkorlik guruhiy va jamoaviy ish shakllarini tashkil etishda sub'ektlarning o'zaro birgalikdagi faoliyatda qo'yilgan maqsadga samarali erishishini ta'minlaydi. Bunday samaradorlik natijasida hamkorlar o'zaro yordam, faol hamkorlik tamoyillari asosida o'quv-bilish faoliyatida o'zaro birgalikda harakatlanishadi. Shuning uchun hamkorlik o'zaro javobgarlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro samimiylikni talab etadi. Faol hamkorlik natijasida o'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida ongli va faol ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy-maishiy vazifalarni hal etish malakalari tarkib topadi.

Hamkorlik pedagogikasi – an'anaviy o'qitishdan farq qilib, bola bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratiladi. "Men" o'rniga "Biz", ya'ni hamkorlikda "sub'ekt" – "sub'ekt" munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. "Hamkorlikda ishlash" tamoyili o'quvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O'quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so'ngra uni bajarish uchun bolada o'z kuchiga ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o'z hohish-irodasini yagona maqsadga – ta'lim olishga yo'naltiradi.

N.Dilovaning fikricha, hamkorlikka asoslangan pedagogika o'qituvchi hamda o'quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo'lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo'ladi. Yangi maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyati ta'minlanadi. Bu maqsad – o'quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo'shimcha ijodiy natijani qo'lga kiritishga o'rgatishdan iborat. Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham, hamkorlik pedagogikasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun o'quv materiallariga ishlov berishda yangi ta'lim metodlaridan foydalanadi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Xususan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar, tajriba-sinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar shular jumlasidandir [10].

Hamkorlik o'zida birgalikdagi faoliyatning asosiy belgilarini aks ettiradi. Bularga maqsadning birligi, ishtirokchilarning birgalikda hamkorlikda ishlashi, yaxlit

jarayonni alohida o'zaro aloqador qismlarga taqsimlanishi, ularning ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi, individual faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqaralishi, yagona yakuniy natijaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi [11].

O'zaro birgalikdagi harakat o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirishi va namoyon etishini faollashtirishning asosiy usullaridan biridir. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlari yanada, ko'proq namoyon bo'ladi. Bir-birini to'ldirib borish orqali ular rivojlanishning sifat jihatdan yangi darajasiga erishadi.

Bola hayotining tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlik to'la-to'kis amalga oshmaydigan sohasi o'quv faoliyati bilan bog'liq. Ular uchun sinfxonada o'z joyida o'tirish, erkin suhbat qurish, mavzuni o'rganish jarayonida bir-birini chalg'itish ta'qiqlanadi, dars jarayonida bir-biriga yordam berish mumkin emas, ko'pincha mazkur holat "bir-biriga aytib turish" sifatida baholanadi. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim-tarbiya jarayonida ular tengdoshlari jamoasi, aniqrog'i

normal rivojlanishning muhim omilidan mahrum etiladi. O'quvchilar dars jarayonida muloqot qilishmaydi, biror bir maslahat yoki o'zaro yordam berish uchun bir-biriga bevosita murojaat qilish o'qituvchi vositasiz kamdan-kam holatda uchraydi. Bolalar birga o'qishadi, lekin ular bir-biri bilan hamkorlik qilishmaydi [12].

O'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq tashkil etish bola shaxsini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur tadqiqotlarda davrlar miqyosida kuzatganimizda shu anglaniladiki har bir davr uchun pedagogikaning ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan. Har bir fikir yuksak fikir egasi bu sohani jamiyatning istiqboli va buguni uchun dolzarb sanab bu sohada kuzatishlarini jamlab fikirlarini qalamga tushirishgan. Ayniqsa bugungi sinergetiklashgan zamonaviy jamiyatda hamkorlik pedagogikasini ahamiyati har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi. Yoshlar ta'lim tarbiyasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday kemtiklikni oldini olish uchun ham bu sohadagi nazariy tadqiqot va amaliy loyihalarga alohida urg'u berish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т.: Халқ мероси нашриёти, 1993.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Хошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
5. Muhiddinov M.K. Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida inson konsepsiyasi ("Xamsa"larning birinchi dostonlari asosida): Filologiya fanlari doktori. ... diss. Avtoref. – Т., 1995.
6. Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'limda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD). ... diss. – Nukus, 2018.
7. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: РСФСР. ПФА, 2004. 8- изд.
8. Арефьева О.М. Особенности формирования коммуникативных универсальных учебных умений младших школьников / О.М.Арефьева // Начальная школа плюс До и После. –2015. - №2.



Ra'no ISMAYLOVA,
TDPU "Amaliy psixologiya" kafedrasida dotsenti v.b., ps.f.n.

Ps.f.d. professor N.Umarova taqrizi asosida

OILAVIY ZO'RAVONLIK HOLATLARIDA JAROHATDAN KEYINGI STRESS BUZILISHINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada oilaviy zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarda (erkak va ayol) jarohatdan keyin stress buzilishi namoyon bo'lishi va uni boshqa psixologik holatlar, xususiyatlar bilan bog'liqligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy zo'rvonlik, jarohat, stress, ichki ziddiyatlar, intervensiya, bochqichlar, korreksion dastur.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ПОСТТРАВМАТИЧЕСКОГО СТРЕССОВОГО РАССТРОЙСТВА В СЛУЧАЯХ СЕМЕЙНОГО НАСИЛИЯ

Аннотация

В статье представлены проявления посттравматического стрессового расстройства у жертв семейного насилия (мужчин и женщин) и его связь с другими психологическими состояниями и особенностями.

Ключевые слова: Семейное насилие, травма, стресс, внутренние конфликты, вмешательство, коррекционная программа.

FEATURES OF THE MANIFESTATION OF POST-TRAUMATIC STRESS DISORDER IN CASES OF FAMILY VIOLENCE

Annotation

The article presents the manifestations of post-traumatic stress disorder in victims of domestic violence (men and women) and its relationship with other psychological conditions and characteristics.

Key words: Family violence, trauma, stress, internal conflicts, intervention, correctional program.

Kirish. Oiladagi zo'rvonlik ijtimoiy va huquqiy tushuncha bo'lib, keng ma'noda ko'pincha bir xonadonda yashaydigan intim sheriklar o'rtasidagi har qanday zo'rvonlik, jumladan, jismoniy, hissiy, jinsiy yoki moliyaviy zo'rvonlikni anglatadi. Odatda oilada ayollarning zo'rvonlikka uchrashiga katta e'tibor qaratiladi, lekin kamroq bo'lsada, ayol tomonidan erkakka nisbatan zo'rvonlik muammosi ham tadqiqotchilar diqqat markazida.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2023 yil 21 dekabdagi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-208-son Farmonida erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash, xotin-qizlar va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi belgilangan [1].

Kuchli stress omillariga ta'sir qilish nafaqat stress vaqtida, balki ko'plab odamlarda stressdan keyingi davrda ham, uzoq muddatli bosqichlarda somatik va ruhiy salomatlikdagi salbiy o'zgarishlar jarohatdan keyingi stress buzilishining (JKSB) rivojlanishi bo'lishi mumkin. Turmush o'rtog'ining zo'rvonligi va jarohatdan keyingi stress buzilishining rivojlanish xavfi o'rtasida aniq bog'liqlik bo'lishi qator tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. JKSBda jabrlanuvchi o'zini yolg'iz va yordamsiz his qilishi mumkin va bu uning ahvolini yanada yomonlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yu.V.Popov va V.D.Vid kabi mualliflar o'z tadqiqotlarida JKSB aholi orasida juda keng tarqalgan kasallik va aholining 5% erkaklar va 10% ayollar JKSBdan aziyat chekishi va ruhiy jarohat olganlar orasida: erkaklarning 8% va ayollarning 20% ekanligini e'tirof etadilar.[5]

K.A.Idrisov, S.V. Litvinsev, Stein M.B., Walker J.R., kabi mualliflar esa ayollarda JKSB rivojlanish xavfi erkaklarnikiga qaraganda yuqori ekanligini va shu bilan birga, ayollarning 51 foizi va erkaklarning 61 foizi hayotida kamida bitta jarohatlanish hodisani boshdan kechirishi va ularning ko'pchiligi (25 dan 50 foizigacha) ikki yoki undan ortiq ruhiy jarohatlarga ega ekanligi aniqlangan. [4]

Seedat S., Stein D.J., Carey P.D. kabi tadqiqotchilarning ishlarida JKSB ning klinik ko'rinishlarida erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlar keltirilgan. Ayollarda ruhiy tushkunlik, asabiylashish va giyohvand moddalarni iste'mol qilish ehtimoli ko'proq ekanligi ta'kidlanadi.[6]

A.A.Kurisyama va N.L.Bundalo erkak va ayollarda JKSBda agressivlik va dushmanlik namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan [3]. Mualliflar ushbu hodisani hayotiy munosabatlarni shakllantirishdagi gender farqlari, jamiyatda gender-rol xulq-atvoriga mos keladigan faoliyatni ta'minlaydigan patologik himoya shakllari bilan izohlaydilar.

F. Ruppert jarohatdan keyin shaxsda jarohatni boshdan kechirgan va omon qolgan, jarohatlangan va sog'lom qismlarni ajratib, aynan sog'lom qism shaxsning aziyat chekkan, ehtiyojlari va ruhiy og'riqlarini eshitadi. Natijada, kognitiv darajada hayot ikki qismga bo'linadi - jarohat oldidan va undan keyin.[2] Bunday holda, psixologning vazifasi har bir qismni birlashtirish, qayta aloqalarni tiklashdan iborat bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot oiladagi zo'rvonlik holati va uning shaxs hayoti va sog'lig'iga salbiy oqibatlarini, shuningdek, jarohatda keyin stress buzilishining psixologik hususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy adabiyotlar va

statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning maqsadi oilaviy zo'rvonlik holatlarida erkaklar va ayollarda JKSB ko'rinishlari va uning boshqa psixologik holatlar bilan bog'liqligi hamda xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqotda Missisipi JKSB shkalasi (Keane, Caddell, Taylor, 1988) jarohatdan keyingi stress buzilishining og'irligini baholash uchun ishlab chiqilgan testdan foydalanildi.

1-jadval

Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida jaroxatdan keyin stress buzilishi namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatgichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Jarohatdan keyingi stress buzilishi	182.9	151.3	9666.5	0,004**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Oilada zo'rvonlikka uchragan respondentlarda jarohatdan keyin stress buzilishi namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezon asosida tekshirilganda erkaklarda 182,9 va ayollarda 151,3 natijani ko'rishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, erkaklarda oiladagi zo'rvonlik tufayli olingan shakastlangandan keyingi stress buzilishi ancha yuqori.

Insonda JKSB mavjudligi psixologik barqarorlikning sezilarli darajada pasayishini ko'rsatishi mumkin: hayotning ma'nosi yo'qoladi, himoya to'siqlari buziladi, o'z-o'zini anglash tuzilishi o'zgaradi, boshqalarga va o'ziga bo'lgan

2-jadval

Jaroxatdan keyingi stress buzilishi va shaxs ichki ziddiyatlari orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezon)

Shkalalar	Jaroxatdan keyingi stress buzilishi
Motivatsion ziddiyat	0,171**
Ma'naviy ziddiyat	0,123*
Amalga oshmagan istak ziddiyati	0,107
Rolli ziddiyat	0,192**
Moslashuv ziddiyati	0,163**
Noadekvat o'zini o'zi baholash ziddiyati	0,066
Shaxsning umumiy ichki ziddiyatlari darajasi	0,168**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Jarohatdan keyingi stress buzilishlari va shaxs ichki ziddiyatlari orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezon) asosida tekshirilganda motivatsion ziddiyat 0,171**, rolli ziddiyat 0,192**, moslashuv ziddiyati 0,163** ko'rsatgich bilan kuchli bog'lanish borligini ko'rishimiz mumkin. Shaxsning umumiy ichki ziddiyatlari darajasi 0,168** yuqori ko'rsatgichlarga ega. Ichki konfliktning tuzilishi uni belgilaydigan tashqi ijtimoiy hodisalardan farqli o'laroq, konfliktning o'zi bilan yaxlitligi va o'ziga xosligini ta'minlaydigan elementlar o'rtasidagi barqaror aloqalar to'plamidir. Jarohatdan keyingi sindrom, shuningdek, stressli vaziyatni boshdan kechirish natijasida

3-jadval

Jarohatdan keyingi stress buzilishlari va turmush o'rtog'i tomonidan zo'rvonlik namoyon etilishi orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezon)

Shkalalar	jarohatdan keyingi stress buzilishi
Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	-0,135*
Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	-0,130*
Umumiy beqarorlashtirish	0,009
Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	0,063
Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish	0,197**

D.R.Follingstad va D.D. Dixard "Turmush o'rtog'i tomonidan zo'rvonligi shkalasi" (I.A. Furmanov modifikatsiyasi) testi va yordamchi test sifatida shaxsning ichki ziddiyatlari darajasini aniqlashga qaratilgan testlari o'tkazildi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikaning Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida olib borildi. Jami 115 ta erkak, 209 ta ayollar ishtirok etdilar.

munosabat o'zgaradi, asosiy tuzilmalar o'zgaradi. Ma'lumki, jarohatdan keyingi buzilishlar g'ayritabiiy holatlarga normal reaksiyadir va kuchli stress har qanday odamda bunday reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Biroq, jarohatdan keyingi buzilishlar va ularning uzoq muddatli oqibatlari turli odamlar orasida farq qiladi. Jarohatdan omon qolganlarning atigi 20 foizi keyinchalik jiddiy psixologik muammolarga duchor bo'lishlari ko'rsatilgan, ammo ularning aksariyati jarohatli tajribadan keyin muvaffaqiyatli moslashish va qayta moslashish uchun o'zlarining yengish qobiliyatlaridan foydalanadilar.

paydo bo'lgan ichki ziddiyatlarning variantlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Shaxsdagi ichki ziddiyatlarning yuqoriligi ehtiyojlar va motivlarning murakkab ierarxiyasi va yuqori darajada rivojlangan kognitiv tuzilmalar bilan tavsiflanadi. Shaxsda qat'iylikning yetishmasligi, majburiylik va mas'uliyatni anglashi, faoliyat turiga moslashishda muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Odatda barqaror, o'zgarishlarga moyil emas. Ushbu holatda shaxs asosan yetaklanuvchi bo'lishni afzal ko'radi. Hayotning to'qnashuvlariga jonli va hissiy munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga xavotirlanish va ijtimoiy munosabatlarning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Jarohatdan keyingi stress buzilishlari va turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik namoyon etilishi orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezoni) asosida tekshirilganda, turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikning ayrim shakllarini tavsiflovchi xatti-harakatlarda farqlar ko'rish mumkin.

Jismoniy salomatlikka tahdid qilish $-0,135^*$ va jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish $-0,130^*$ salbiy bog'lanishga ega. Umumiy beqarorlashtirish $0,009$, Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish $0,063$ bog'lanish kuzatilmadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish $0,197^{**}$ ahamiyatli darajada bog'liqlik mavjud. Jarohatdan keyingi stress buzilishi yuqori bo'lishi er-xotin muammolarini noadekvat hal qilinishi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Jarohatdan keyingi stress buzilishi ko'rsatkichlari boshqa ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikdan so'ng, diagnostika bosqichida shuni ko'rsatdiki, ular ma'lum ko'rsatkichlar o'rtasidagi muhim korrelyatsiyani ochib beradi, bu esa oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxslar bilan maxsus tanlangan psixologik yordam dasturi asosli va zarurligini anglatadi.

Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxslar uchun olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kognitiv-xulq-atvor yondashuvi doirasida psixologik intervensiya dasturi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxslar bilan psixologik intervensiyaga qaratilgan dasturning nazariy metodologik asosi quyidagi ilmiy ishlanmalar hisoblanadi: shaxsning ichki resurslarini maksimal

4-jadval

Treningda ishtirok etgan ayollarda jarohatdan keyingi stress buzilishi ko'rsatkichlarining treningdan keyin o'zgarishi (Uilkokson mezoni, $n=40$)

Ko'rsatkichlar	Treningdan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan		
jarohatdan keyingi stress buzilishi	25	13	2	2,40	0,022*

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash dasturini o'tkazishdan so'ng olingan eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxsda

5-jadval

Treningda ishtirok etgan erkaklarda "Jarohatdan keyingi stress buzilishi" so'rovnomasi ko'rsatkichlarining treningdan keyin o'zgarishi (Uilkokson mezoni, $n=20$)

Ko'rsatkichlar	Treningdan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			Z	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan		
Shikastlangandan keyingi stress reaksiyasi	11	5	4	2,40	0,022*

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

Erkak va ayollarda ham bostirib kirish, qochish, qo'zg'aluvchanlik kabi ko'rsatkichlar pasayganini va vaziyatga nisbatan konstruktiv hatti-harakatlarni rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

JKSBda psixologik intervensiya ishida bir necha bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxsning ruhiy holatini barqarorlashtirish va psixologik barqarorlikni oshirish. Jabrlanganlarga jarohatli hodisani boshdan kechirgandan so'ng darhol ularning psixologik holatini barqarorlashtirish choralarini taklif etiladi. Psixologik barqarorlikning maqsadi jabrlanuvchilarga his-tuyg'ularini ifodalash va jarohatli hodisaga munosabatni normallashtirishga yordam berishdir.

Ikkinchi bosqich – jarohatdan keyingi holat bilan ishlash. Uning asosiy mazmuni - ichki noto'g'ri fikrlar va psixologik jarohatning ijtimoiy psixologik oqibatlari

darajada faollashtirishga qaratilgan kognitiv xulq-atvor terapiyasi (AVS texnikasi), R. Assadjoli usuli, L. N. Rojina modifikatsiyasi relaks terapiya vositasi sifatida ishlatadigan audiotrening, psixologik mashqlar va boshqalar.

Tashkil etilgan guruh ishlarida samarali ish uchun ijobiy kayfiyatni yaratish, bir-birini bilish va hissiy stressni bartaraf etish, xamkorlikni o'rnatishga qaratilgan "Tashrif qog'ozi" tanishish mashqi, "Mening kayfiyatim" mashqi, oilaviy zo'ravonlikdan keyingi psixologik holatlarni, ichki kechinmalarni kognitiv qayta ishlash, shakllantirish, psixoemotsional holatni, xulq-atvorni rivojlantirishning konstruktiv usullarini ishlab chiqishda "Hissiy barometr", "Energiya manbai", «Sehrli do'kon», «Men va boshqalar», o'zini-o'zi tahlil qilish uchun «16-assotsiyatsiya» mashqlari olib borildi. Psixoemotsional holatni, xulq-atvorni rivojlantirishning konstruktiv usullarini ishlab chiqishda esa "Hujumchi va himoyachi", AVS moduli asosida jadvalni to'ldirib berish kabi vazifalar berildi va natijalar o'rganilib, tahlil etildi. Shuningdek, oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxslarning psixoemotsional holatini o'zgartiradigan tinchlantiruvchi funksiyaga ega bo'lgan R. Assadjoli usuli, L. N. Rojina modifikatsiyasi relaks terapiya vositasi sifatida ishlatadigan audiotrening, psixologik mashqlar qo'llanildi. Masalan, "Sham", "Quyosh", "Qo'ng'iroq" kabi mashqlari.

Kognitiv-xulq-atvor yondashuviga asoslangan intervensiya dasturi o'tkazilgandan so'ng oilaviy zo'ravonlikdan jabrlagan shaxslarda jarohatdan keyingi stress buzilishlari ko'rsatkichlari qaytadan diagnostikadan o'tkazildi.

vaziyatning dinamik o'zgarishi va jarohatdan keyingi stress buzilishining pasayganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek erkaklar guruhida ham ko'rsatkichlarni pasayganini ko'rishimiz mumkin.

(aybdorlik hissi, dunyo va o'zini zo'ravonlik provokatori sifatidagi salbiy g'oyalar yoki boshqalarni ayblash), ularning hissiy holat va xatti-harakatlarga ta'siri, mavjud kognitiv buzilishlarni aniqlash va qabul qilish, muhokama qilishdan iborat. Asosiy jarohatli tajribadagi ruhiy o'zgarishlarni va ularni shaxs hayotiga moslasha olmasligiga ta'sir etishini to'g'ri baxolay olishdir.

Uchinchi bosqich – jamiyatda shaxsning faollashuvi, jarohatdan keyin o'z ustida ishlashi va shaxsiy o'sishidir, JKSB dan aziyat chekkan shaxslarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish, jabrlanuvchining oilasi yoki yaqin atrofini jalb qilgan holda jamiyatga reintegratsiya qilishdan iborat bo'ladi. Maqsadlarga erishish ijtimoiy moslashish, ichki stigmaning og'irligini kamaytirish, normal turmush tarziga qaytish, residivning oldini olish, stressni yengish va

muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rganish orqali erishiladi.

Xulosa va takliflar. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxs qaysi jins vakili bo'lishidan qat'iy nazar zo'ravonlik hayot uchun xavfning oshishi bilan bog'liq. Ular o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yib, o'z turmush o'rtoqlarini kechirishga, uni o'zgarishiga umid qiladilar. O'z shaxsiga nisbatan ko'rsatilgan xaqorat, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy zo'ravonlikni boshdan kechirish bilan birga oilaning boshqa a'zolari oldida o'z shaxsini xo'rlanishini ham ko'tarishi kerak bo'ladi. Bu esa jarohatdan keyingi keyingi stress buzilishining paydo bo'lishiga olib keladi. Oilaviy zo'ravonlikni oldini olish, uning sabablarini bartaraf etish orqali intervensiyaning

muvaffaqiyati va samaradorligini ta'minlashda vaziyatni to'g'ri baholash, qaror qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Takliflar. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarning psixologik holatlarini diagnostikasida albatta asosiy va yordamchi testlar orqali diagnostika o'tkazish.

Diagnostika natijalarini tahlil qilish bilan birga jabrlanuvchi bilan ham albatta suhbat o'tkazish.

Psixologik intervensiya dasturida psixologik jarohat va shaxsning boshqa resurslarini ajratish va ishlash algoritmini tuzib chiqish lozim.

Intervensiyada oilaviy zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarning ijtimoiy muhitga nisbatan munosabati va faollashuvi jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси президентининг 2023 йил 21 декабдаги “Оила ва хотин-қизлар қўмитасининг фаолиятини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПФ-208-сон Фармони.// <https://lex.uz/docs/6704824>. Мурожаат этилган сана: 08.01.2024
2. Ассель Б Теория травмы Ф.Рупперта// <https://linde-eit.livejournal.com/59045.html>. Мурожаат этилган сана: 08.01.2024
3. Каплан Г.И., Сэдок Б.Дж. Клиническая психиатрия: В 2-х т. / Пер. с англ. – М.: Медицина, 1994. – Т.1. – 672 с.
4. Литвинцев С.В., Снедков Е.В., Резник А.М. Боевая психическая травма / Руководство для врачей. – М.: Медицина, 2005. – 432 с
5. Попов Ю.В., Вид В.Д. Современная клиническая психиатрия. – М.: Экспертное бюро-М, 1997. – 496 с.
6. Seedat S., Stein D.J., Carey P.D. Posttraumatic stress disorder in women: epidemiological and treatment issues // CNS Drugs. – 2005. – Vol. 19, № 5. – P. 411-427.
7. Egamberdieva N.M., Tuychieva G.G., Ismaylova R.N. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan хотин-қизларга psixologik yordam ko'rsatish. Toshkent.: Mahalla va oila nashriyoti.2022.-144 b



Gulbaxor ISHMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
E-mail: gulbahorishmuradova@mail.ru

Qarshi MII DsC, prof. Q..Tursunov taqrizi asosida

COMPETENCE DEVELOPMENT MECHANISMS BASED ON STEAM AND SMART EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation

In this article, the problems that arise in the implementation of STEAM education were theoretically analyzed, the content of competencies that should be formed in the technology education teachers in the modern education system, and information about the knowledge and skills formed by students in robotics classes.

Key words. STEM, STEAM, competencies, technology, textbooks, standards, academic subjects, curricula.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ STEAM И УМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье теоретически проанализированы проблемы, возникающие при реализации STEAM-образования, содержание компетенций, которые должны формироваться у учителей технологического образования в современной системе образования, а также информация о знаниях и умениях, формируемых учащимися на занятиях по робототехнике.

Ключевые слова: STEM, STEAM, компетенции, технологии, учебники, стандарты, учебные предметы, учебные программы.

STEAM VA SMART TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Аннотасија

Mazkur maqolada STEAM ta'limini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar nazariy tahlil qilindi, zamonaviy ta'lim tizimida texnologiya ta'lim o'qituvchilarida shakllantirilishi lozim bo'ladigan kompetensiyalar mazmuni, robototexnika darslarida o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: STEM, STEAM, kompetensiyalar, texnologiya, darsliklar, standartlar, o'quv fanlari, o'quv dasturlari.

Kirish. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qituvchilikka tayyorlash hamma vaqt ham dolzarb hisoblangan. Bunga sabab texnologik ta'lim mazmunining yillar mobaynida zamon talablari asosida yangilanib yangi o'quv materiallari bilan to'ldirib borilishidir.

Zamonaviy texnologik ta'lim o'qituvchilarida STEAM kompetensiyalarini shakllantirish masalasi kam o'rganilgan yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Ya'ni o'qituvchilarini STEAM ta'limiga tayyorlash bo'yicha algoritim ishlab chiqilmagan va uni yaratish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ma'lum bir tizimga keltirilmagan; sinovdan o'tgan va keng tarqalgan tajriba yo'q. STEAM ta'limini to'liq amalga oshirish uchun STEAM mantig'ida o'qitishni tashkil etish metodologiyasiga ega bo'lgan o'qituvchilar talab qilinadi. Shuning uchun kelajakda STEAM ta'limi o'qituvchilarni kompetensiya asosida tayyorlash ayniqsa dolzarbdir, chunki STEAM ta'limi STEAM kompetensiyasi (har tomonlama va keng doiradagi fanlararo fikrlash qobiliyati)ni shakllantirishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kunda STEAM ta'limi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari tabiiy-ilmiy fanlar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga mantiqiy fikrlash, loyihalash, ilmiy-tadqiqotchilik, dizayn ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. G.I.Anasimova, F.M.Sabirova, O.B.Shatunova STEAM-ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash [3], M.Chervonnyy, Shvalyova T.B., Blasova A.A. Fizika o'qituvchilarini STEAM ta'limini amalga oshirishga

tayyorlash [4], M.M.Shalashova STEAM-pedagog kelajak o'qituvchisi [6], S.A.Muraveva STEAM-ta'limi loyihalash va tadqiqot faoliyatini ko'rinishi sifatidagi ilmiy-uslubiy ishlarida bayon qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) maktablarning 7-11-sinflarida STEAM-ta'limni rivojlantirish loyahasini amalga oshirish to'g'risida memorandum imzolangan edi [1].

OTB loyihani amalga oshirish uchun 100 million dollar imtiyozli kredit ajratadi. U STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) fanlari bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklar, standartlar, o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, maktablar uchun uskunalar sotib olish, maktab binolarini ta'mirlashni va ta'lim texnologiyalarini rivojlanti-rishni qo'llab-quvvatlashga va yaxshilashga sarflani-shi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, u maktab o'quvchilarining bilimlarini baholash tizimini takomillashti-rishni nazarda tutadi Loyiha O'zbekiston bo'yicha 2020-2022 yillarga mo'ljallangan mamlakat operatsiyalari biznes-rejasi, yaqinda davlat tashabbuslari va O'zbekiston xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilishi rejalashtirilgan edi.

Mazkur konsepsiyasida STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari

va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etilishi belgilab qo'yilgan.

Jahon tendentsiyasi sifatida belgilangan STEAM ta'limining jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimi amalda sanoat sharoitida jamiyat ehtiyojlariga javob berganligidan dalolat beradi. Akademik A. M. Kondakov to'rtinchi sanoat inqilobi davrida ta'lim sohasini raqamlashtirish va texnologilashtirish davri boshlaganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, o'zgarishlarning asosiy manbai ta'limning o'zi emas, balki uning oldida turgan muammolar to'plami, shu jumladan yangi texnologiya, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy kontekstlar, murakkab va noaniq omillardir. STEAM ta'limining jadal rivojlanishi tabiiy-ilmiy ta'limdagi ba'zi inqiroz hodisalari bilan ham bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, tabiiy-ilmiy siklning o'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturlarining maqsadlari va mazmuni talabalar tafakkurini shakllantirish nuqtai nazaridan yuqori darajadagi suverenitet bilan tavsiflanadi: matematika matematik fikrlashni, fizika – fizik fikrlashni va boshqalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, ushbu fanlar ko'plab atamalar va ularning noaniqligi bilan ajralib turadi, bu esa o'quv materialini idrok etishni ancha qiyinlashtiradi. Turli xil o'quv fanlari bo'yicha bir xil mavzu turli vaqtlarda o'rganiladi. Natijada, bitta fan doirasida olingan bilim va ko'nikmalar bir-biri bilan o'zaro bog'liq emas, o'rganilayotgan hodisani idrok etishni kengaytirmaydi yoki to'ldirmaydi, balki inson ongida yaratilgan va keyinchalik inson faoliyatida amalga oshiriladigan dunyoning tor mavzuli rasmlarida proektsiyalanadi. Tabiiy-ilmiy ta'limning yana bir muammosi – o'quv jarayonida yoshlarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini yo'qolishida ko'rish mumkin. Shunday qilib, o'quvchilarning eng katta qiziqishi umumiy o'rta ta'limning birinchi bosqichida namoyon bo'lishiga qaramay, ularni o'rganish ikkinchi bosqichda boshlanadi. Natijada, o'quvchilarni faqat tabiiy-ilmiy o'quv fanlarini o'rganishni boshlaydilar. Chet ellik tadqiqotchilar bu hodisani majoziy ma'noda "oqayotgan quvur liniyasi" deb atashgan: umumiy o'rta ta'limning birinchi bosqichidagi har 100 nafar talabadan faqat to'rttasi tabiiy fanlar bilan uchinchi bosqichda shug'ullanishni davom ettirib, tabiiy-ilmiy sohada o'z ta'limini yoki karerasini shakllantirmoqda. Shuning uchun tabiiy-ilmiy ta'limga qiziqishni saqlab qolish uchun tabiiy-ilmiy o'quv fanlarini o'qitishda yangi va qiziqarli yondashuvlarni yaratish va ularni o'rganish va amaliyotga qo'llash uchun umumiy o'rta ta'limning birinchi bosqichidan boshlanishi kerak.

Tahlil va natijalar. Ushbu qiyinchiliklar tabiiy-ilmiy ta'limdagi asosiy muammoni belgilaydi; uni hal qilish uchun STEAM ta'lim mantig'iga va talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish zarurligiga mos keladigan tabiiy-ilmiy fanlarning barcha o'quv fanlari bo'yicha integral ta'limni shakllantirish mazmuni, tamoyillari, shakllari va metodlarini oqilona va maqbul tanlash zarur. STEAM ta'limini amalga oshirish o'qituvchilardan ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi pedagogik yondashuvlarini faol joriy etishni va innovatsion fanlararo o'qitish metodikalarini qo'llashni baholashni, xususan, integrativ yondashuv asosida bilim olishni, tadqiqot va muhandislik-texnik kompetentsiyalarni shakllantirish metodlari va vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda tabiiy-ilmiy o'quv fanlarini o'qitishga ko'p yillik tanish yondashuv va ta'limning yangi rivojlanish tendentsiyalari, tez rivojlanayotgan raqamli muhit va ta'lim muassasalarining infratuzilmasi o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud; raqamli muhitga moslashgan talabalar va ushbu o'zgarishlarga moslasha oladigan o'qituvchilar. Evolyutsiya mantig'iga asoslanib, o'quv jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi yangi avlod ehtiyojlariga moslashishi kerak. Biroq,

ko'pincha o'qituvchilar an'anaviy, konservativ ish shakllari va metodlariga rioya qilgan holda, ta'lim sohasidagi yangi tendentsiyalarni qabul qilmaydilar va innovatsiyalarning, shu jumladan STEAM ta'limining ahamiyatini inkor etadilar. Ko'pincha o'qituvchilarning ta'limda STEAM yondashuvi nimani anglatishini aniq tushunmasliklari ta'sir qiladi; eng keng tarqalgan stereotiplar: ular buni turli fan sohasidagi ma'lumotlarning mexanik birikmasi (bitta darsda yoki darslar ketma-ketligida) yoki ba'zi bir fan sohasini axborotlashtirish shakllaridan biri yoki faqat robototexnika sifatida ko'rishadi.

Bundan tashqari, o'qituvchilar chuqurroq muammo – muhandislik, kimyo, geografiya, fizika, biologiya va boshqalar bo'yicha STEAM fan integratsiyasi uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega emaslar. O'qituvchilarning bir qismi quyidagicha fikr yuritishadi: STEAM ta'limi ta'lim mazmunining (o'quv fanlari) alohida sohalarining ahamiyatini kamaytirishi mumkin va bu tez orada yangi pedagogik texnologiyalar oqimiga singib ketadigan bugungi kunda moda bo'lgan tendentsiyadir. Rasmiy to'siq shundaki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining shtat jadvalida STEAM o'qituvchisi kabi lavozim yo'q. Shu sababli, matematika, fizika, kimyo, informatika, texnologiya o'qituvchilari STEAM mantig'ida faoliyat olib borishadi.

Yana bir muammo-STEAM ta'limini to'liq tashkil etish uchun moddiy-texnik bazaning etarli emasligi (modellar, muhandislik modellari, konstruktorlar, raqamli laboratoriyalar va boshqalarning yo'qligi). XXI asr o'qituvchilari-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlar, qo'shni va aksincha, mutlaqo qo'shni bo'lmagan fanlar o'rtasida chegaralar mavjud bo'lmagan eng keng mutaxassislardir. Bular turli xil professional tillarni osongina tushunadigan, juda murakkab muammolarni hal qilishda poliprofessional o'zaro ta'sirga qo'shilishi mumkin bo'lganlardir. XXI asr o'qituvchisiga qo'yiladigan yangi talablar aynan shu narsani talab qiladi.

Muammoning nazariy tahlilini sarhisob qilaylik:

1) bir vaqtning o'zida STEAM ta'limini amalga oshirish zarurligini asoslaydigan va uni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan muammo bo'lgan omil:

- talabalar o'rtasida tabiiy-ilmiy sikl fanlari yordamida dunyoning yagona manzarasini shakllantirish va ularni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida alohida o'qitish vazifasi;

- o'quv jarayonini predmetli tashkil etishning mavjud amaliyoti, bunda talaba va o'qituvchi bir xil o'quv predmeti doirasida va mantig'ida qolishga majbur bo'ladi, natijada – turli xil o'quv fanlari bo'yicha "turli xil bilimlar"; – gumanitar, tabiiy va texnik fanlar o'rtasidagi tafovut, bu yaxlit fikrlash va bilim tizimining birligini yo'qotishiga olib keladi;

2) STEAM ta'limini amalga oshirish bo'yicha o'qituvchilar ishidagi bir qator muammolar:

- o'qituvchilarni STEAM ta'limini amalga oshirishga tayyorlashning yetarli darajasi;

- STEAM ta'limini amalga oshirish uchun uslubiy ta'minotning yetarli emasligi;

- o'qituvchilarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida STEAM ta'limini ham, uning elementlarini ham joriy etish zarurligi haqidagi fikrlarining noaniqligi.

STEAM ta'limini amalga oshiruvchi shaxs bu o'qituvchidir. U tegishli darajadagi tayyorgarlikka ya'ni STEAM kompetensiyasiga ega bo'lishi kerak. Kelajakda ushbu maqsadga o'qituvchilarni STEAM ta'limini amalga oshirishga tizimli tayyorlash orqali erishiladi.

STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

Ushbu go'yalar asosida O'zbekistonning zamonaviy maktablarida STEAM texnologiyasidan keng foydalanib kelinmoqda. Bundan asosiy maqsad, o'quvchilarning darslarda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va hayotga tadbiiq qilish imkonini yaratishdan iborat. Bo'lajak STEAM o'qituvchilarini tayyorlashda qiz bolalar uchun STEAM va o'g'il bolalar uchun STEAM kasblarini ajratib olish mumkin va berilayotgan topshiriqlarni shunga moslab berish mumkin. Biror yangi dizayn yaratilar ekan har ikkala holatda ham loyihalash bilan bog'liq ko'nikmalar shakllantirilishi kerak bo'ladi [9].

Zamonaviy maktablarida robototexnika, sexmatexnika xonalari bilan bir qatorda STEAM xonalari tashkil qilish, u zamonaviy interaktiv platforma, ish qurollari, tikuv mashinalari, to'quv moslamalari, Arduino platformalari va 5 xil turdagi kesish va randalash uskunalar bilan jihazlanmoqda. Qizig'i shundaki, bu uskunalar o'quvchilar tomonidan qayta yasali, boshqa ko'rinish va vazifani bajarish imkonini beradi. Maktablarda STEAM va robototexnika darslari o'zaro uyg'unlikda olib borilishi yo'lga qo'yilmoqda.

Texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda robototexnika istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy maktablarda ham bu sohaga alohida e'tibor qaratilgan.

60112300 – Texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda “Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish praktikumi”, “Gazlamalarga ishlov berish praktikumi”, “Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi”, “Gazlamashunoslik”, “Texnik mexanika”, “Rabototexnika asoslari”, “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” va h.k. fanlar o'qitiladi.

Shundan, “Rabototexnika asoslari” fani 240 soat (20 ma'ruza, 50 amaliy, 50 laboratoriya, 120 mustaqil ta'lim) o'qitiladi. Fanni o'qitishdan maqsad - ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning zamonaviy bosqichi robototexnika asoslari haqida umumiy ma'lumotlar, robototexnikaning jamiyat, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat [7].

Fanning mazmuni quidagi mavzular orqali bayon qilinadi: Robotlarda qo'llaniladigan yuritmalarni taxliliy solishtirish; Robotlarning gidravlik, pnevmatik yuritmalari, ularning sxemalari, asosiy elementlari va ularning vazifalari; Robotlarning elektr yuritmalari, ularning afzallik va kamchiliklari; Robotlarning sinxron, asinxron elektr yuritmalari. Robotlar va robototexnik tizimlar; Robotlar, robototexnik tizimlar, ularning vazifalari va rivojlanish bosqichlari; Sanoat robotlarining asosiy xususiyatlari bo'yicha sinflanishi; Robotning kinematikasi, erkinlik darajalari soni, robot harakatlari turlari; Dekart, silindrik, sferik va angular koordinat sistemasida ishlovchi robotlar sxemalari; Robotlarning harakatlar turlari bo'yicha darajalalanishi; Robotlarning informatsion qurilmalari; Robotlarda

qo'llaniladigan informatsion qurilmalar va ularning sinflanishi; Robototexnik elektron sxematexnikasi haqida umumiy tushuncha; Analog va raqamli qurilmalarning passiv komponentlari. Sxematexnikaning aktiv diskret elementlari; Yarim o'tkazgich diodlar va tranzistorlar, ularning turlari va qo'llanilishi; Robototexnikada signallarni kuchaytirgichlar. Robototexnikada raqamli sxematexnika kabi mavzulardan nazariy materiallar kiritilgan.

Amaliy mashg'ulot jarayonida boshqarish va himoya elektr apparat (tuzilishi) larining elektr sxemalariga qo'yiladigan shartli belgilarni o'rganish; Avtomatik viklyucha-tellar va saqlagichlarni sinash; Klapanli elektromagnit relesini tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish; Elektir yuritmalarni noreversiv ishga tushirish va himoya apparatlarini o'rganish kabi mavzulardan amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

Maktab Texnologiya o'quv fani dasturida rabototexnikaga oid quyidagi mavzular kiritilgan: Rabotlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi; Asosiy algoritmik konstruksiyalar; Robototexnik tizimni loyihalash; Otto robotini yig'ish; Robotlar musoboqasini tashkil etish va h.k. Robototexnika darslari orqali o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

- C dasturlash tili
- Elektronika asoslari
- Sodda va murakkab sxemalar yasash
- 3D dizayn va 3D modellashtirish
- 3D printerdan 3D modellarni chiqarish
- Arduino dasturlash
- Tranzistor va mikrochiplar bilan ishlash
- Qo'shimcha modul va sensorlar bilan ishlash (RGB, WiFi, PIR, LCD display, RFID)

– Mustaqil ravishda turli xildagi Arduino proyektlar yasash. Maktabda robototexnika faniga katta qiziqish bilan qatnashadilar va ular hozirga qadar bir qancha loyihalarni ishlab chiqishdi va kelgusi loyihalar ustida izlanishlar olib borishmoqda.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, kelajakdagi tabiiy-ilmiiy o'quv fanlari o'qituvchilarini STEAM ta'limini amalga oshirishga tayyorlash algoritmi va tizimini ishlab chiqish, uning mazmuni va yaratilgan mahsulot samaradorligini baholash lozim bo'ladi.

✓ STEAM ta'limini amalga oshirish uchun kelajakdagi tabiiy-ilmiiy o'quv fanlari o'qituvchilarini tayyorlashning ishlab chiqilgan tizimining samaradorligini aniqlash asosida tabiiy-ilmiiy o'quv fanlari o'qituvchilarining shakllangan STEAM-kompetentsiyasi baholanadi.

✓ Texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashda STEAM kompetentsiyalarni shakllantirish oliy ta'lim tizimida nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim jarayonida olib boriladi va umumiy o'rta ta'limda dars mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish vaqtida o'z natijasini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni, 29.04.2019 yil PF-5712-son. <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga. 1-ILOVA.
3. Anasimova G.I., Sabirova F.M., Shatunova O.B. Подготовка-педагогов для STEAM-образования. Педагогика. 31-35 стр. <https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-pedagogov-dlya-steam-obrazovaniya/viewer>
4. Сологуб Н.С., Аршанский Е.Я. STEAM-компетентность как интегративное качество современного педагога. Педагогика. 54-64 стр. <https://rep.vsu.by/bitstream/123456789/31965/1/54-65.pdf>
5. Червоный М.А., Швалёва Т.В., Власова А.А. Исследование готовности учителей физики к реализации STEM-образования. Russian Journal of Education and Psychology 2020, VOLUME, Number 5. <http://rjep.ru>
6. Шалашова М.М. STEM-педагог: учитель будущего. Образовательная политика /ЗИМА 2020 34-38 стр. [https://cyberleninka.ru/article/n/stem-pedagog-uchitel-budushego/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/stem-pedagog-uchitel-budushogo/viewer)
7. Жураев Ю.К., Умаров У.У. Rabototexnika asoslari. Fan dasturi. Toshkent. 2020 йил.

8. Ишмурадова Г.И. Технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашни STEAM ёндашувлари асосида такомиллаштириш. Ta'lim, fan va innovatsiya. №2, 2024 у. 41-45
9. Ишмурадова Г.И. Бўлажак технология ўқитувчиларини STEAM ёндашувлари асосида тайёрлашда лойиҳалаш компетенцияларини такомиллаштириш. Xalq ta'limi . 023 yil 6 (2)-son 25-28 bet
10. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/06/10/stem/> АБР выделяет \$100 млн на STEM-образование в Узбекистане.



UDK: 373.2; 681.14

Jasur KODIROV,
Nukus innovatsion instituti dotsenti, (PhD)
E-mail: jasurkodiroy96@gmail.com

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti (PhD) M.Raximqulova taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF ALGORITHMIC COMPETENCE IN THE FORMATION OF INTEGRATED ASSIGNMENTS FOR STUDENTS OF THE PREPARATORY GROUP FOR SCHOOL IN STUDENTS

Annotation

Integrated training in a preschool educational organization is understood as a complementary, equal legal-based integration of knowledge in different areas of Education. This article provides examples of exercises for the development of competency in students to compose assignments of an integrated type in students of a preparatory group for school.

Key words: Integration, algorithm, exercise, method, Quest, project, preparatory group.

РАЗВИТИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО СОСТАВЛЕНИЮ КОМПЛЕКСНЫХ ЗАДАНИЙ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ К ШКОЛЕ ГРУППЫ

Аннотация

Под интегрированным обучением в дошкольной образовательной организации понимается интеграция на равных правовых основаниях знаний из различных областей образования, дополняющих друг друга. В данной статье приведены примеры упражнений по развитию у учащихся подготовительной к школе группы компетентности в составлении заданий комплексного типа.

Ключевые слова: Интеграция, алгоритм, упражнение, метод, квест, проект, подготовительная группа.

TALABALARDA MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI O‘QUVCHILARI UCHUN INTEGRALLASHGAN TOPSHIRIQLARNI TUZISH ALGORITMIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim tashkilotida integratsiyalashtirilgan mashg‘ulot deganda, bir-birini to‘ldiruvchi, turli ta’lim sohalaridagi bilimlarning teng huquqiy asosdagi integratsiyasi tushuniladi. Ushbu maqolada talabalarda maktabga tayyorlov guruhi o‘quvchilarida integrallashgan tipdagi topshiriqlar tuzish kompetentligini rivojlantirishga doir mashqlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, algoritim, mashq, metod, kvest, loyiha, tayyorlov guruh.

Kirish. Maktabga tayyorlov guruhi o‘quvchilari uchun algoritmlarni qo‘llash modulida algoritmik ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri integratsiyalashgan turdagi topshiriqlar hisoblanadi. Integratsiyalashgan yondashuv maktabgacha ta’lim talablariga javob beradi [1,2].

Maktabgacha ta’lim tashkilotida integratsiyalashtirilgan mashg‘ulot deganda, bir-birini to‘ldiruvchi, turli ta’lim sohalaridagi bilimlarning teng huquqiy asosdagi integratsiyasi tushuniladi.

Maktabga tayyorlov guruhidagi o‘quvchilar uchun integratsiyalashgan mashg‘ulot tushunchasiga asoslangan holda, “integratsiyalashgan turdagi topshiriq” tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda o‘rganiladigan algoritim qo‘llaniladigan turli ta’lim sohalarida o‘quvchilar faoliyati turlarining integratsiyalashtirilgan topshiriqlar tizimi sifatida tushuniladi.

Integratsiyalashgan turdagi mashg‘ulotlarda muayyan tipdagi mavzularning yaxlitligi o‘quvchilarning turli xil sohadagi faoliyatlarini birlashtirishga, ta’lim sohalarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishlariga, tavsiya qilinayotgan mavzuni o‘rganishning barcha bosqichlarida o‘quvchilar uchun tushunchalarni tizimlashtirish orqali ochib berishga qaratilgan.

Maktabga tayyorlov guruhidagi o‘quvchilar uchun integratsiyalashgan mashg‘ulot tushunchasiga asoslangan holda, “integratsiyalashgan turdagi topshiriq” tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda o‘rganiladigan algoritim qo‘llaniladigan turli ta’lim sohalarida

o‘quvchilar faoliyati turlarining integratsiyalashtirilgan topshiriqlar tizimi sifatida tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabga tayyorlov guruhlarida bolalari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim-tarbiyasi muammosi tarixiylik tavsifiga egadir. O‘quvchilarni har tomonlama shakllantirishga doir tadqiqot ishlari mamlakatimiz psixolog va pedagoglari M. K. Abduhakimova, O‘. K. Adamova, Z. Azizova, M. Asqarova, M. Asqarxo‘jaeva, M. Yu. Ayupova, Qodirova, K. K. Mamedov, D. J. Sharipova, Q. S. Shodieva, Sh. Shodmonova, P. Yusupova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

O‘quvchilarda algoritmik ko‘nikmalarni shakllantirish va kundalik hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish muammolarini xorijlik olimlardan Dj. Dyui, A. Kirsten, Keyt Berk Uolsh, M. Montessori, Jan Piaje, A. Hachfeld, A. Yvonne, S. Kuger, K. H. Christiane, va boshqalar o‘rganganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. “Maktabga tayyorlov guruhi bolalari ta’lim-tarbiya jarayonida algoritmik ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy jihatlariga asosan pedagog rahbarligi ostida maqsadga muvofiq ta’limiy o‘yin faoliyatida boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro yordam berish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi”[1]. Tahlil qilingan me‘yorlar va qoidalar u va tengdoshlarining harakatlarini umumiy baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z-o‘zini baholash, hurmat qilish rivojlana boshlaydi, ammo bu natijaga erishishda pedagogning bahosi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limga o‘tayotgan

tayyorlov guruhidagi bolalarning xatti-harakati vaziyatga bog'liq, garchi uning xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarishga urinishlar mavjud bo'lsada [6,7]. Sinflardagi o'quv-o'yinlar faoliyati orqali pedagog bolalarni kelajakdagi faoliyatning maqsadini qabul qilishga va uni natija bilan bog'lashga o'rgatadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan metodikada foydalaniladigan didaktik vositalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ta'lim jarayonida bolalarning mustaqil faoliyatida qo'llaniladigan o'quv vositalari rivojlanayotgan sub'ekt-makon muhitni yaratishi kerak, ulardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining algoritmik faolligini ta'minlaydi.

2. Bolalarning [5] mustaqil faoliyatlari uchun ishlab chiqilgan o'qitish vositalari, xususan, ta'limiy o'yin, o'yinli topshiriqlar ta'limiy o'yindagi maqsadga erishish uchun algoritmlarni to'g'ri va ongli bajarish yoki yaratish jarayonida taqdim etilgan materiallarni to'liq o'zlashtirishiga yordam berishi kerak.

3. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining yangi algoritmi o'zlashtirishlari uchun qo'llaniladigan o'quv vositalari uni o'rganishlari uchun xatti-harakatlarning to'liq mo'ljalli asosini o'z ichiga olishi kerak, keyin yangi sharoitlarda va bolalar faoliyatining turlari algoritmlar bilan ishlashda bolalar mustaqil faoliyatining ulushini oshirib, harakatlarning to'liq mo'ljalli asosini kamaytirish lozim.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida algoritmik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'limning quyidagi muammoli ta'limiy o'yinlar, qoidali ta'limiy o'yinlar, to'liq bo'lmagan harakatlar majmuasi bo'lgan ta'limiy o'yinlar, kvestlar, birlashtirilgan turdagi topshiriqlar va shu kabilar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Quyida shularning har biriga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida algoritmik ko'nikmalarning shakllanishida muammoli ta'limiy o'yinlar va ularni o'qitish uchun ishlab chiqilgan metodika muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodika chiziqli algoritmlar modulining vositalaridan biri bo'lib, ulardan o'rinli foydalanish bola faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Muammoli ta'limiy o'yinlardan foydalanishning asosiy maqsadi tayyorlov guruhi bolalarida chiziqli algoritmlarni to'g'ri, ongli bajarish va bu jarayonda o'z faoliyatini to'laqonli tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Muammoli ta'limiy o'yinlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bolalarga tanish bo'lgan turli topshiriqlarni hal qilish algoritmi shartida yoki bajarish jarayonida o'yinda muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi.

Tahlil va natijalar. Integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarni yaratishga qo'yiladigan talablar:

1. Integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarni birlashtiruvchi ma'no-mazmun atrofida dunyoni bilish imkoniyatlarini, inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanilishini ko'rsatadigan dastur bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida o'rganiladigan metodning algoritmik faoliyati bo'lishi lozim.

2. Metodlar faoliyat algoritmini kiritish bosqichida pedagog tarbiyachi harakatning to'liq taxminiy asosidan foydalanishi kerak, o'quvchilar algoritmlarni o'zlashtirgani sayin, bu jarayonda ularning mustaqil harakatlari ulushi ortib boradi, pedagog faqat boshlang'ich sinf o'quvchilarini nazorat qiladi, harakatlarini to'g'ri yo'singacha yo'naltirib boradi.

3. Pedagog integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar faoliyatini, ularning harakatlarini hamda maxsus topshiriqlar asosida kerakli natijaga erishishini nazorat qilib, baholab borishi lozim.

Tayyorlov guruhida qo'llanilishi mumkin bo'lgan integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarga misol keltiramiz. Uzunlikka sakrash o'yini.

Maqsad: ob'ektning uzunligini an'anaviy asboblardan bilan o'lchash.

Jihozlar: ruletka.

Topshiriq: "Jismoniy sifatlarni rivojlantirish" ta'lim sohasi.

O'yin mazmuni. Sehrar guruh o'quvchilari orasidan joyidan turib eng uzun masofaga sakragan g'olib o'quvchini aniqlashi kerak. Pedagog o'quvchilar bilan birgalikda uzunlikka sakrash musobaqasini uyushtiradi. Musobaqa davomida har bir o'quvchi o'zining sakragan uzunligini ruletka yordamida o'lchab boradi va natijani pedagogga xabar qiladi. Pedagog o'z navbatida natijalarni qayd etib boradi. Musobaqa tugaganidan so'ng, jamoadagi barcha o'quvchilar natijalari tahlil qilinadi, umumlashtiriladi.

Sehrar musobaqada g'olib chiqqan o'quvchilarga "Eng yaxshi uzunlikka sakrovchi" medallarini yuboradi. Pedagog rahbarligida tashkil qilingan musobaqa natijalarini o'quvchilar umumlashtiradilar, g'olib o'quvchilarni aniqlaydilar, ularga medallar topshiriladi. Pedagog musobaqa davomida o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni ko'rsatadi, kamchiliklarni bartaraf etadi. Har biri o'quvchidan o'zlarining faoliyatlariga, qolaversa, o'rtoqlari faoliyatiga baho berishni so'raydi.

Maktabga tayyorlov guruhidagi o'quvchilarni mashg'ulotlar davomida integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarni pedagog rahbarligida to'laqonli bajarilishining har bir bosqichidagi faoliyati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Pedagog va boshlang'ich sinf o'quvchilarining integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarni bajarish jarayoni

No	Ta'limiy o'yinning bosqichlari	Pedagogning faoliyati	Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyati
1.	Maqsadni belgilash	Umumiy topshiriqning idrok etilishini ta'minlaydi, bugungi kun mavzusining ifoda etilishiga olib keladi, maqsadni belgilash muhokamasini amalga oshiradi.	O'yin shartini qabul qilishadi, mashg'ulot mavzusini belgilab olishda ishtirok etishadi, maqsadni belgilab olishda ishtirok etishadi.
2.	Rejalashtirish	Topshiriqni tahlil qiladi, tarbiyalanuvchilar erishishi lozim bo'lgan maqsadni ifodalaydi, keyingi qadamlarni belgilab beradi.	Rollarni taqsimlashda ishtirok etishadi, rolli harakatlarni rejalashtiradilar, topshiriqni tahlil etishda ishtirok etishadi.
3.	Rejani amalga oshirish	Topshiriqning bajarilish algoritmini namoyish etadi, yangi algoritmnining dastlabki shartlarini taqdim etadi, yangi algoritmnining tadbiiq etilishini tashkillostiradi.	Pedagog rahbarligida algoritmi tadbiiq etishadi, yangi algoritmi tadbiiq etishib, topshiriqni bajarishadi, nutqda yangi algoritmi belgilab olishadi.
4.	Refleksiya	Olingan natijalarni etalon bilan taqqoslashni amalga oshirishni tashkil etadi, integratsiyalashtirilgan turdagi topshiriqlarning bajarilishini jamlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qiladi, amalga oshirilgan ishning natijasini baholaydi.	Olingan natijalarni etalon bilan taqqoslashni amalga oshirishadi, zarurat bo'lsa, o'z faoliyatlarini rejasiga o'zgartirishlar kiritishadi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilashadi, amalga oshirilgan ishni baholashadi.

Shunday qilib, maktabga o'tish yoshidagi o'quvchilarning ta'limiy o'yin faoliyatida algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish bilish, reguliyativ, muloqot komponentlari asosida amalga oshirilgan ekan.

Maktabga tayyorlov guruhidagi o'quvchilarida ta'lim mazmuni asoslarini shakllantirishning eng samarali va qulay

vositalaridan biri bu ularning algoritmik ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Algoritmik ko'nikmalar bilan biz o'quv jarayonidagi murakkab harakatlarni bir necha bosqichlarga elementar ravishda ajratish qobiliyatini tushunamiz. Algoritmik ko'nikmalarni butun tizim sifatida shakllantirish o'quvchilar tomonidan bajarilgan birinchi harakatni ular

tomonidan bajarilgan ikkinchi harakatning uyushgan to'plami sifatida ifodalaydi. Bu, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z harakatlarini rejalashtirish va o'z faoliyati davomida ushbu rejaga qat'iy rioya qilish, o'z harakatlarini boshqalarga tushunarli tilda ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, algoritmik ko'nikmalar tabiatan ta'lim faoliyati tuzilishiga o'xshaydi:

- maqsadni belgilash;
- rejalashtirish;
- ijro;
- boshqarish;
- tuzatish.

“Algoritmik ko'nikmalarni o'zlashtirgan maktab yoshidagi o'quvchilar o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun o'z harakatlarini bosqichma-bosqich rejalashtira oladilar va maqsadga erishish jarayonini to'liq davom ettira oladilar” [3]. O'quvchilar oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish jarayonida vazifalarni bajarish, shu bilan bir qatorda, nazorat qilish va uni amalga oshirishning to'g'riligini baholash va agar kerak bo'lsa, ularning faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni to'g'rilash malakalari shakllantiriladi. O'quvchilarning algoritmik ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatish boshlang'ich sinflar kesimida o'qitiladigan barcha fanlarni o'rganishda sodir bo'ladi. Ammo matematikani

o'qitish jarayoni faqat maqsadli ma'noga ega bo'ladi. “Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning berilgan algoritm bo'yicha harakat qilishlari, bundan tashqari, yangi algoritmlarni loyihalash qobiliyatlarini rivojlantirish boshlang'ich maktablar o'quv faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi”[4].

Xulosa. Maktabga tayyorlov guruhidagi o'quvchilari faoliyatida algoritmlarni qo'llashda integratsiyalashgan turdagi topshiriqlar algoritmik ko'nikmalarni yetarli darajada shakllantirishning muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Integratsiyalashgan turdagi mashg'ulotlarning samarali tashkil etilishi ta'lim mazmuni va talablariga javob beradi. Maktabga tayyorlov guruhlari o'quvchilar uchun integratsiyalashtirilgan turdagi mashg'ulot deyilganda bir-birini to'ldiruvchi, turli ta'lim sohalaridagi bilimlarning teng huquqiy asosda integratsiyasi tushuniladi. Integratsiyalashgan turdagi topshiriqlar o'quvchilar uchun o'tkazilayotgan mashg'ulotning ma'lum bir mavzular yaxlitligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning turli xil tipdagi faoliyatini o'zaro bog'likda o'rganish, ta'lim sohalarini bir butunlikda tasavvur qilish, yo'nalishlari o'rganilayotgan mavzuning barcha bosqichlarini umumiy tizimlashtirish orqali ochib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: “Tafakkur bo'stoni”. 2013. 256-b.
2. Tojiboyeva H. M. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari // Ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash – soha taraqqiyotining muhim mezon: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (6-kitob). Toshkent, TDIU, 2015. – B. 81-83
3. <http://www.voppsy.ru/issues/1987/871/871089.htm>
4. Беляева О. Л., Уфимцева Л. П. Организационно-педагогические условия формирования коммуникативной компетентности слабослышащих детей в процессе интегрированного обучения в общеобразовательной школе II ступени. Монография: электронный ресурс. ИСБН: 978-5-85981-803-7. Красноярск 2014. - 252 с.
5. Утюмова Е. А. Условия формирования алгоритмических умений у детей дошкольного возраста. Педагогическое образование в России. 2016. № 3. 94-100 с.
6. Венгер Л. А. Восприятие и обучение [Текст] : дошкол. возраст. – М. : Просвещение, 1969. – 368 с.
7. Мухина, В. С. Vozrastnaya psixologiya: fenomenologiya razvitiya, detstvo, otrochestvo: ucheb. dlya studentov vuzov. – M.: Akademiya, 2000. – 456 s.



UDK:9A..82766.

Sardorxon QUVONDIQOV,
TDPU professor v.b, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

TVChDPI dotsenti, PhD A.Abdulaxatov taqrizi asosida

BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING SHAXSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlaridan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo'lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Mazkur takliflar bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika.

ЛИЧНОСТ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

Данная статья была использована в качестве показателя отсенки воспитанности при введении "концепсии непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсации лояльности к Родине. Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развит в них активную гражданскую позицию.

Ключовые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика.

PERSONAL OF FUTURE PHYSICAL CULTURE TEACHERS FEATURES

Annotation

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them.

Key words: Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarda insoniylik, pedagogik ijodkorlik, yoshlarga ijobiy jihatdan namuna bo'lish, vazminlik, jamoat joylari va auditoriya (sinf)larda o'zini tuta bilishi, o'zini o'zi nazorat qilishi, mehribonlik, o'z shogirdlari uchun xavotirlanishi, haqqoniyligi (baholashda, tavsiflashda), talabchanlik, hazil-mutoyiba tuyg'usiga egalik, quvnoq xarakter sohibi bo'lishi, hissiy-ijobiy kayfiyatga ega bo'lish, o'quvchilar bilan muloqotda kasbiy odob va axloqqa amal qilish, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va tushunish kabi fazilatlar shakllangan bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qituvchi yuksak darajadagi kasbiy-pedagogik madaniyatga ega bo'lishi zarur. Kasbiy-pedagogik madaniyat – intellektual, ijodiy kuchlar va kasbiy-shaxsiy qobiliyatlarning to'la unum bilan ishlashi bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonning ma'lum darajadagi talabi; bu ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati va tarbiyaviy jarayoni, ular orasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tashkil qilinishi, pedagogik jihatdan boshqarilishi va qonuniy nazorati; kasbiy-pedagogik faoliyat natijasidir.

Pedagogik madaniyat esa "... o'qituvchining o'z kasbiy faoliyati jarayonida erishgan yutuqlari, ma'rifatliligi, kasbiy odobi, mahoratini ifodalovchi atama. O'qituvchi pedagogik madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida uning intellektual rivojlanganlik darajasi, kasbiy tafakkuri, kasbiy kompetensiyalari, odobi, imidji, muloqot ko'nikmalari tashkil etadi".³

Pedagogik madaniyatda bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining muloqot madaniyati, kasbiy-kommunikativ faoliyati kabi komponentlari muhim va hal qiluvchi o'rin egallaydi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati va muloqotiga hozirgi zamon ta'lim tizimida mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati, eng avvalo, ularning pedagogik muloqotga tayyorgarligi, o'quv-metodik hamda ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni hal etish yuzasidan muayyan kasbiy harakatlarni bajarish layoqatidir. Buning asosida bo'lajak o'qituvchilarning muayyan bilim, ko'nikma va qobiliyatlari, eng avvalo, pedagogik muloqot madaniyati yotadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning muloqot madaniyati talablariga, o'quvchilarga axborotlarni aniq va ravon taqdim etish mahorati, hamkasblariga to'g'ri maslahat va taklif berishni bilishi, bahoning shaffofligini ifodalay olishi, xohish-istaklarini bildirishi, muloqot-ning nutqiy va nutqsiz vositalari hamda nutq me'yorlaridan to'g'ri foydalanishi, muloqotda-anglash, estetik, axloqiy, kommunikativ ehtiyojlarni qanoatlantirishi kabilarni kiritish mumkin.

Mazkur talablar, avvalo, kasbiy-pedagogik faoliyatda o'ta muhim bo'lgan madaniy-kommunikativ fazilatlar – hissiy madaniyat, ta'lim oluvchilarning e'tiqodi, ularga ta'sir o'tkazish; motivatsiya; kasbiy rivojlanish; nazariy bilim

hamda muloqot tuzilishi va texnologiyasidan xabardorlik (ularga ijodiy yondashuv); suhbatdoshi ruhiyatini bilish; pedagogik hamkorlik va shaxslararo o'zaro ta'sir; pedagogik taktini egallash; pedagogik muloqot texnikasi; nutq madaniyati va muloqotning nutqsiz vositalarining ifodalanişida o'z aksini topadi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining pedagogik kasbiy muloqot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

o'zining jismoniy sifatlari va qobiliyatlarini eng maqbul darajasigacha rivojlantirishda;

inson jismining go'zalligi, plastik erkinligi va sog'ligiga e'tiborli bo'lishida (jismoniy tarbiya bilan faol shug'ullanish tufayli);

estetik hodisalar kabi jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlari muayyan shakllarining idrok etilishida;

sportda estetika oliy go'zallik qiymatiga ega bo'lib, unda ushbu sport hodisasi "o'z muayyan hissiy yaxlitligida shaxs qadriyati sifatida namoyon bo'ladi, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, uning erkinligi, individualligi chegaralarining kengayishiga yordam beradi" hamda uning yashirin intellektual va ijodiy imkoniyatlarining ochilishiga imkoniyat yaratadi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy-shaxsiy dunyosi o'ziga xos, turli maqsad-mazmunga ega bo'lib, u ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Eng muhimi – bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari o'z kommunikativ kompetensiyasini takomil-lashtirishi, maktabning ijtimoiy-jismoniy madaniyati, borliq hayotiga kirib borishi hamda ularga ijodiy yondashuvidir.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisi maktab o'quvchilarida jismoniy kommunikativ madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos texnologiyalari, innovatsion metodlari, eng maqbul usullari, yo'llari, zamonaviy vositalarni izlab topishi lozim. Bunda uning kasbiy madaniyati, pedagogik axloqqa asoslangan pedagogik muloqot (muloqot qoidalari, me'yorlari, reglamenti, mazmuni, texnologiyasi) madaniyati katta ahamiyatga ega.

Bu o'rinda pedagogik muammo tegishli pedagogik-psixologik jihatlarining ko'rib chiqilishi va aniqlanishini talab etadi. Jumladan, shaxs individualligi; yosh va psixologik xususiyatlari; motivatsiyasi; hissiy omillari; psixologik jihatlar – sportchining chiqishini estetik jihatdan idrok etish; sport sohasidagi qadriyatli yo'nalishlar; muloqot psixologiyasi; kasbiy etika psixologiyasi; o'zini o'zi kuzatish – idrok qilish – e'tibor berish – o'z-o'zini rivojlantirish – nazorat qilish – tarbiyalash – anglash – zamonaviylashtirish – ijtimoiylashtirish – baholash – hisobot berishning barcha turlarini qamrab oladi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirish haqida gapirganda, "shaxs" tushunchasining mohiyatiga alohida e'tibor berishimiz kerak. "Shaxs" – "tabiatni, jamiyatni, o'zini o'zi faol o'zlashtiruvchi va aniq bir maqsadga yo'naltirgan holda o'zgartiruvchi, makon va zamonga oid yo'nalishlar, ehtiyojijy-irodaviy kechinmalar, mazmundor yo'naltirilganliklar, faoliyat darajalarini o'zlashtirish va uni amalga oshirish shakllarining noyob, tadrijiy mutanosibligiga ega bo'lgan insondir".

Keyingi yillarda shaxs tushunchasi turlicha izohlanmoqda: 1) "shaxs – inson, jamiyat a'zosi, ong sohibi sifatida; 2) inson, o'zini o'zi anglashga va o'zini o'zi rivojlantirishga qodir bo'lgan, munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatida; 3) insonni jamiyat a'zosi sifatida tavsiflaydigan ijtimoiy mohiyatli sifat, munosabat, ko'rsatma va motivlarning barqaror tizimi"dir.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, shaxs tushunchasining barcha talqinlari ishonarli va to'g'ri bayon etilgan. Lekin biz shaxs tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishimiz kerak. Tadqiqotimizda shaxs, uning tuzilishi va yo'naltirilganligini V.V.Bogoslovskiyning muhazalariga amal qilgan holda bayon qilamiz. Shaxs – jamiyat a'zosi sifatida uning boyligi, boshqa odamlar bilan bo'lgan aloqalarining rang-barangligi, hayotga nisbatan faol munosabatini aks ettiruvchi tushuncha. Shaxs muloqoti esa uning ijtimoiy hayotning turli tomonlari bilan rang-barang aloqalari, ma'naviy dunyosini ko'rsatib beradi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari shaxsi hissiy dunyoni faol anglashi, psixik jarayonlarining takomillashirilishi, umumiy va maxsus obilyatlari, tafakkur-ning faol rivojlanishi, axloqining shakllanishi va rivojlanishi, dunyoqa-rashi, jamiyatda axloqiy jihatdan o'z o'rini belgilab olishi, atrofdegilar bilan munosabatlarini belgilash davridir. Mazkur davr nazariy intellektning vujudga kelishi, muayyan darajadagi kasbiy rivojlanishi va tegishli bilim, ko'nikma, mahorat, umumiy va maxsus qobiliyatlarini shakllantirish davri hisoblanadi. Ular jamoatchilik oldida chiqish qilish hamda atrofdegilar bilan muloqot qilishga qiziqadilar. Ular o'zini o'zi shakllantirish, takomillashtirish, ommaviy axborot vositasi orqali namoyon bo'lishni xohlaydilar. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari o'zini o'zi tarbiyalash, o'zining tashqi qiyofasini takomillashtirish, ma'naviy dunyosini boyitishga moyildirlar. Ma'naviy-estetik va axloqiy tarbiya hamda kasbiy-shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalari pedagogik muloqot estetikasiga oid tavsialarga juda muhtojlik sezadilar.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari shaxsi, ularning individualligi, ayniqsa, kasbiy muloqoti jarayonida quyidagilar hisobga olinadi: mizoji, xarakter, individual xususiyatlari, shaxsiy sifatlari, qiziqishlari, idrok qilishi, qobiliyati, intellekti va h.k.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari ijodiyotida quyidagi shaxsiy omillar namoyon bo'lishi lozim: yorqin hissiyot; ijodiy tafakkur (badiiy); harakatlar ifodaliligi; individuallik; yangilikka intilish; o'zini o'zi ifodalash, aql va qalb intizomi; fuqarolik o'zini o'zi anglash kabilar.

Tadqiqot ishimizda sport estetikasini umumiy baholash mezonlari sifatida kuch, yengillik, go'zallik, uyg'unlik, shakl, ritm, dinamika, ravonlik, nafislik, nazokat, ifodalilik, boshqaruvchanlik, muvozanat-langanlik, zo'r berish, kuch va qudrat, tezlik, xatarlilik, aniqlik, vaqt hissi, texnika, strategiya, taktika, sur'at, musobaqalashuvchanlik, o'zini o'zi tuta bilish, zavqlanish, estetik lazzatlanish, hissiy-estetik qayg'udoshlik, quvonch kabi atamalar va tushunchalardan foydalandik.

ADABIYOTLAR

1. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 136 b.
2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. – Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.

5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами туристско-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Илин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Ibrohimov A., Sulstonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – Toshkent, O'zbekiston, 1996. – 139 b.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классов казахской школе в процессе изучения родной литературы (На материале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стат человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
13. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.



УДК: 316.4,6;364,14;159.923.3

Нодира ЛАТИПОВА,

Д.с.н., профессор Национального университета Узбекистана,

E-mail: n.latipova@nuu.uz

Чарос АБДУГАФУРОВА,

Студентка 4 курса Казанский Федеральный университет при НУУз

Рецензия М.Х.Карамян, д.п.н., проф.

АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА ИНВАЛИДНОСТИ В КОНТЕКСТЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются социально-психологические исследования, проводимые в области изучения инвалидности. Рассмотрены исследования в области социологии, философии и психологии с точки зрения актуальных объяснительных моделей. Выделены несколько актуальных направлений исследования феномена инвалидности в современных условиях. в рамках актуальных объяснительных моделей. В статье уделено внимание изучению социально-психологических проблем людей с инвалидностью с точки зрения психологических моделей.

Ключевые слова: люди с инвалидностью, поддержка, права, инвалидность, нетипичность, препятствия, адаптация, здоровье, болезни, психологические модели, позитивная психология, самоэффективность, идентичность.

IJTIMOY-PSIXOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA NOGIRONLIK HODISASINI TAHLIL QILISH

Аннотасија

Ushbu maqolada nogironlikni o'rganish sohasida olib borilayotgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar tahlil qilinadi. Sotsiologiya, falsafa va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar dolzarb tushuntirish modellari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Zamonaviy sharoitda nogironlik fenomenini o'rganishning bir nechta dolzarb yo'nalishlari aniqlandi. tegishli tushuntirish modellari doirasida. Maqolada nogironligi bo'lgan odamlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini sog'liqni saqlash va hayotiy metakompetenistik yondashuvlarga asoslangan.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan odamlar, qo'llab-quvvatlash, huquqlar, nogironlik, atipiklik, to'siqlar, moslashish, sog'liq, kasalliklar, psixologik modellar, ijobiy psixologiya, o'z-o'zini samaradorligi, o'ziga xoslik.

ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF DISABILITY IN THE CONTEXT OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL THEORIES

Annotation

This article analyzes the socio-psychological research conducted in the field of disability studies. The research in the field of sociology, philosophy and psychology is considered from the point of view of actual explanatory models. Several relevant areas of research on the phenomenon of disability in modern conditions are highlighted. within the framework of current explanatory models. The article focuses on the study of socio-psychological problems of people with disabilities from the point of view of psychological models based on health-saving and vital meta-competence approaches.

Key words: people with disabilities, support, rights, disability, atypical, obstacles, adaptation, health, diseases, psychological models, positive psychology, self-efficacy, identity.

Введение. Важным аспектом социально-экономической сферы является то, что в Узбекистане уделяется большое внимание законодательно-правовому обеспечению и защиты прав и интересов лиц с инвалидностью. В частности, Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах кардинального совершенствования системы государственной поддержки лиц с инвалидностью», Указ Президента Республики Узбекистан «О всесторонней поддержке лиц с инвалидностью, обеспечению их занятости и повышение их социальной активности» [1]. Примечательным является то, что 7 июня 2021 года в Узбекистане была ратифицирована Конвенция ООН о правах лиц с инвалидностью.

В 6 статье Закона «О правах лиц с инвалидностью» отмечается, что «запрещается любое обособление, исключение, отстранение, ограничение в отношении лиц с инвалидностью. А также отказ от создания доступа для лиц с инвалидностью к объектам и услугам. Специальные меры, направленные на обеспечение равенства возмож-

ностей для лиц с инвалидностью и их вовлечение в жизнь общества и государства, не считаются дискриминационными в отношении других граждан» [2].

В Законе Республики Узбекистан человек с инвалидностью определяется как лицо со стойкими физическими, умственными, сенсорными (чувственными) или психическими нарушениями, нуждающееся в социальной помощи и защите, создании условий для полного и эффективного участия наравне с другими в политической, экономической, социальной жизни общества и государства [3].

«Конвенция по профессиональной реабилитации и занятости (инвалидов)» отсечено, что термин «инвалид» означает лицо, чьи перспективы гарантий, сохранения и карьеры на соответствующем рабочем месте значительно ограничены в результате признанных в установленном порядке физических или психических отклонений» [4].

Методология. В «Международной классификации отклонений, случаев инвалидности и неполноценности», определение инвалидности с точки зрения медицины

различает отклонения, инвалидность и неполноценность: «С точки зрения медицины отклонение представляет собой всякого рода утрату или аномалию физиологической, психологической или анатомической структуры, или функции» [5]. «С точки зрения медицины инвалидность представляет собой всякого вида ограничение или отсутствие (проистекающее из отклонения) способности осуществлять деятельность путем или в рамках установленной для человека нормы».

Международной классификации функционирования, инвалидности и здоровья (ICF), дано следующее определение где инвалидность является «обобщающим термином для нарушений, ограничений деятельности или участия», которые являются результатом взаимодействия между человеком с состоянием здоровья и факторами окружающей среды (например, физической средой, установки) и личностные факторы (например, возраст или пол). Инвалидность может быть физической, когнитивной, ментальной, сенсорной, эмоциональной и связанной с развитием или некоторой их комбинацией. Инвалидность может присутствовать с рождения или возникать в течение жизни человека [6].

В частности, как проблема нетипичности, отличия людей с инвалидности исследуется П.Бергером, Т.Лукманом, К.Вольфом [7]. Эти авторы рассматривают инвалидность через социальную роль, то есть как должен вести себя человек, занимающий социокультурное положение. Необходимо указать о том, что конструирование реальности указывает на сложную взаимосвязь общественного и личного.

С.Л.Франкл изучает инвалидность с точки зрения преодоления препятствий, в том числе страдания, трудные жизненные ситуации, психологические и физические ресурсы и постижение человеком смысла жизни [8].

С точки зрения адаптации к самостоятельной жизни людей с инвалидностью с точки зрения понимания приспособления к внешним социальным отношениям, удовлетворив потребности жизни в социуме рассматривали такие ученые как Г.Спенсер и Э.Дюркгейм [9, 701.].

Э.Дюркгейм в своей концепции изображает «нетипичность» как форму социальных отношений как социальная норма и девиация [10]. Он полагал, что адаптационная способность состоит в умении подчиниться нормам среды, игнорируя те ее проявления, которые противоречат нормам. Он придерживался позиции, что различие между нормой и отклонением существует объективно и не является результатом морального подхода, при чем социальная патология может быть измерена научно.

Следующий подход в изучении феномена инвалидности это структурно-функциональный, исследованный Т.Парсонсом, Р.Мертонем [11].

Основатель структурно-функционального подхода, Т.Парсонс разработал концепцию роли «больного» и «нетипичности» [12] в процессе анализа феномена инвалидности. Согласно наблюдениям Т.Парсонса, существует серьезный дисбаланс в отношениях между врачом и человеком с инвалидностью. Человек с инвалидностью, с другой стороны, воплощается узаконенным как личность, свободная от определенных социальных обязанностей. По его мнению, закономерности взаимоотношений между врачом и пациентом наблюдаются и при контактах человека с ограниченными возможностями с психологом, педагогом,

социальными работниками. Ученый при изучении инвалидности указывал на особенное состояние человека.

Т.Парсонс рассматривал болезнь как социальное явление, и исходя из этого он изучал болезнь как ухудшение физического состояния организма, а также социального статуса. По мнению американского социолога, болезнь, причиняя физический дискомфорт конкретному человеку, негативно влияет на социальный статус его самого или определенной социальной группы [13, 30].

Анализируя работы Р.Мертон Р.Анспах предложил типологию адаптации людей с инвалидностью.

Первый тип – «нормализатор» – это люди с инвалидностью, которые принимают и соглашаются с общественным восприятием и принятием общества любой ценой.

Второй тип – «диссоциация», человек принимает все культурные представления об инвалидности, но не может применить их к себе, то есть социально изолируемый индивид, то есть негативно относится сам к себе.

Третий тип – это «ретривизм» полагает, что с негативным восприятием общества и себя, индивид отвергает более широкие культурные взгляды, имеет низкую самооценку.

Четвертый тип – «политический активист», это люди, берущие на себя роль, отвергают общепринятые негативные представления об инвалидности, имеют позитивный взгляд на себя и работают для осуществления общественных перемен [14].

Психолог М.Фуко рассматривает болезнь сквозь призму регулирования. «Безумец признается таковым не в силу болезни, переместившей его на периферию нормы, но потому, что наша культура отвела ему место в точке пересечения общественного приговора об изоляции и юридического знания, определяющего дееспособность правовых субъектов [15]. В книге «Психическая болезнь и личность» сосредоточивает внимание на влиянии культуры, на создании определенного образа человека. «Каждая культура создает из болезни образ, характер которого очерчивается всеми вытесняемыми или подавляемыми ею антропологическими возможностями» [16, 66].

Психологический подход в исследовании инвалидности имеет множественность концепций и конструктов, позволяющих описать жизнедеятельность человека с инвалидностью [17].

Психологические модели инвалидности рассматриваются с точки зрения здоровьесберегающих и витальной метакомпетентностного подходов через изучение психических, биологических и социальных регуляторов здоровья. И данная концепция основывается на медицинскую модель, которая позволяет прогнозировать жизненную успешность человека с инвалидностью, через управление своим здоровьем [18]. Но в то же время необходимо отметить, что данная модель опирается на социальную модель, которая позволяет корректировать поведение лиц с инвалидностью, связанный с преодолением дефекта здоровья. У человека с инвалидностью «...выражен мотив «сохранения жизни», который становится главным побудительным и смыслообразующим мотивом всей их жизнедеятельности» [19].

Фрустрационный подход в исследовании лиц с инвалидностью, с точки зрения совладания с жизненными трудностями, реализации своих возможностей и

преодоления барьеров изучен психологом М.Г.Шульманом [21]. Он выделил противоположные характеристики поведения и определил типология исследуемых стратегий:

активность – пассивность; наращивание личностных ресурсов – экономия ресурсов и их распределение; готовность к сотрудничеству с другими людьми – избегание взаимодействия; гибкость к нововведению и открытость к переменам, агрессивность или мятежность доведенного до отчаяния человека – уверенное поведение человека, контролирующего свои эмоции.

По нашему мнению данную стратегию в отношении трудоустройства людей с инвалидностью является частью жизненных стратегий личности с точки зрения профессиональной адаптации, где они позиционируют себя равноправными членами сообщества и в то же время иногда происходит неприятие норм, лежащих в основе стигмы, они стараются к социальному взаимодействию и сотрудничеству, гибкость и открытость. Данная стратегия позволит людям с инвалидностью самореализоваться и это будет основанием всего процесса адаптации и успешной подготовкой к независимой жизни.

Концепция самоэффективности А.Бандуры относится к умению людей с инвалидностью осознавать свои способности выстраивать поведение, соответственно ситуации и убежденность человека в способности мобилизовать мотивацию, когнитивные и поведенческие возможности, то есть термин «ожидание эффективности» [22]. По мнению А.Бандуры те, кто считает себя «неспособным добиться успеха, более склонны к мысленному представлению неудачного сценария и сосредотачиваются на том, что все будет плохо. Люди с инвалидностью с низкой самоэффективностью [23, 439] в большей степени склонны к преувеличенной трудностей и чаще демонстрирует неумение их преодолевать [24]. Уверенность в неспособности добиться успеха ослабляет мотивацию и мешает выстраивать поведения [25]. Это в свою очередь ведет к развитию депрессивного состояния или ее усилению.

К теоретическим концепциям независимой жизни людей с инвалидностью можно отнести позитивную

психология, основанную на положительным субъективном опыте, положительных индивидуальных черт и положительных институтах, которые улучшают качество жизнь.

Основанием для появления позитивной психологии являются взгляды таких ученых как в «теории потребностей» А.Маслоу, в теории Э.Эриксона о личностной идентичности, А.Уотермана в теории «личностной выраженности» Р.Мей, Дж.Багенталя, в концепции К.Роджерса о «полностью функционирующей личности», в теории «субъективного благополучия» М.Селигмана [26], концепция Л.С.Высоцкого о культурно-исторической собственно человеческих форм психических функций, теория о «позитивном функционировании личности» К.Риффа [27], и др., которые опирались на благополучие, счастье, позитив.

М.Селигман выделил в позитивной психологии основные концепции от концепции болезни – к концепции здоровья. Он как основатель позитивной психологии М.Селигман выделял три ступени к счастливой и благополучной жизни [28]:

1. Достижение комфорта и приятной жизни. Достойная жизнь, в которой используются сильные стороны человека. Жизнь, наполненная смыслом, в которой человек стремится осуществить высшую цель – служение другим.

Необходимо отметить о концепции выравнивания, то есть «дотягивания» людей с инвалидностью и их семей, а также качества жизни до уровня условной «нормы» [29]. В этой связи люди с инвалидностью должны проявлять свои сильные стороны, созидательный потенциал и функционирование в сообществе. В частности, исследовать и использовать адаптивные и творческие элементы психики и поведения человека, с точки зрения почему несмотря на все трудности, которые окружают их во внешнем мире, большинство людей живут осмысленной жизнью, которой можно гордиться» [30]. Прежде всего это связано с самоактуализацией и повышением самооценки, данный факторы проявляются у людей с инвалидностью в негативном плане, что может привести к депрессии, насилию, девиации и т.д.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью в Узбекистане». 2017 год № 52-70: Указ Президента республики Узбекистан о всесторонней поддержке лиц с инвалидностью, обеспечению их занятости и повышение их социальной активности. 2021 год 21 декабря №57.
2. Закон Республики Узбекистан О правах лиц с инвалидностью. Принят Законодательной палатой 22 июля 2020 года. Одобрен Сенатом 11 сентября 2020 года. Закон Республики Узбекистан, от 15.10.2020 г. № ЗРУ-641.
3. Закон Республики Узбекистан О правах лиц с инвалидностью. Принят Законодательной палатой 22 июля 2020 года. Одобрен Сенатом 11 сентября 2020 года. Закон Республики Узбекистан, от 15.10.2020 г. № ЗРУ-641.
4. Конвенция 159 Конвенция о профессиональной реабилитации и занятости инвалидов. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-ed_norm/-normes/documents/normativeinstrument/wcms_c159_ru.htm. (Дата обращения 23.01.2024).
5. Международная классификация функционирования, ограничений жизнедеятельности и здоровья: МКФ, краткая версия. <chrome-extension://efaidnbmnmmnibpccajpeggclefindmkaj/https://sch358spb.ru/wp-content/uploads/2021/02/mezhdunarodnaja-klassifikacija-funkcionirovanija.pdf>.
6. Ganesh Kumar S, Avinash S, Unnikrishnan B, Kotian MS (2011). Effect of psychosocial intervention on quality of life and disability grading of mentally disabled adolescents. *Curr Pediatr Res* 15:127–31; Snyder, S., & Mitchell, D., (2006). *Cultural locations of Disability*, University of Chicago, Chicago. Smith B. & Hutchinson, B. (2004). *Gendering disability*. Rutgers University Press, Piscataway, NJ. World Report on Disability. Geneva: WHO; (2011). World Health Organization.
7. Бергер П. Приглашение в социологию. – Москва, 1996.; Бергер П., Луман Т. Социальное конструирование реальности. – Москва: Медиум. 1995. – С. 279.; Ромм М.В. Социальная адаптация личности как объект философского анализа: автореф. дис. ... докт. филос. наук. – Томск, 2003.

8. Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник / Пер. с англ. и нем. Д.А.Леонтьева, М.П.Папуша, Е.В.Эйдмана. – Москва: Прогресс, 1990; Франк С.Л. Реальность и человек. – Москва: АСТ, 2007; Франк С.Л. Смысл жизни // Вопросы философии – 1990. – №6. – С. 701.
9. Durkheim E. Sociology. Its subject, method, purpose / E. Durkheim; Trans. from the French, compilation, afterword and notes by A.V. Hoffman. – Москва: Канон, 1995. – 352 р. Дюркгейм Э. Социология, ее предмет, метод, предназначение. – Москва: Канон, 1995г. – С.76.
10. Парсонс Т. О социальных системах. Под ред. В.Ф.Чесноковой, С.А.Белановского. – Москва: Академический Проект, 2002. – 832 с.; Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – Москва, 2006.
11. Парсонс Т. О социальных системах / Т. Парсонс; Под ред. В.Ф.Чесноковой, С.А.Белановского. – Москва: Академический Проект, 2002. – 832 с.
12. Браун Дж.В., Русина Н.Л. Личные связи в системе здравоохранения и «карьера болезни» // Социологические исследования. 1993. №3. – С.30.
13. Anspach, R.R. (1979). From Stigma to Identity Politics: Political Activism among the Physically Disabled and Former Mental Patients. *Social Science and Medicine*, 13A, 766-773. [https://doi.org/10.1016/0271-7123\(79\)90123-8](https://doi.org/10.1016/0271-7123(79)90123-8).
14. Ogden J. (2009) *Health Psychology*. – New York, NY.; Mars D., Murrey M. (2015) *Health Psychology: Theory, Research and Practice*. – New York, NY, USA.
15. Психология инвалидности. Метод. указания / Сост. Н.А. Соловьева; Яросл. гос. ун-т. – Ярославль, 2004. – 47 с.
16. Шульман М. Г. Феноменология субъективных миров инвалидов: дис. ... канд. психол. наук. – Томск, 2009. – 206 с.
17. Bandura A. (1977). *Social learning theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.; Бандура, А. (1989). Социальная когнитивная теория. Эванс, Р. И. (1989). Альберт Бандура: Человек и его идеи: диалог. Нью-Йорк: Praeger.
18. Бандура А. теория социального научения. – СПб: Евразия, 2000. – 320 с.
19. Seligman, M.E.P. Positive Psychology Progress: Empirical Validation of Interventions / M.E.P. Seligman, T.A. Steen, N. Park, C. Peterson // *American Psychologist*. - 2005. - Vol. 60, No 5. – P. 410-421.
20. Ryff C.D., Keyes C.L. The structure of psychological well-being revisited // *Journal of Personality and Social Psychology*. 1995. Vol. 69. №4. P. 719-727.



UDK: 327 (560) M-23

Adhamjon MAMADJONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
E-mail: baxtiyorovich91@bk.ru
ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-8715-9023>

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, s.f.d., R.Jumayev taqrizi asosida

МЕХАНИЗМЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОНЦЕПЦИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ» ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ТУРЦИИ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу роли исторических, культурных и религиозных факторов, повлиявших на формирование динамики использования концепции «мягкой силы» в современной турецкой внешней политике, а также исследованию ее институциональных особенностей фундамента. Кроме того, предполагается описать и проанализировать современные концептуальные и идеологические основы «мягкой силы», используемые при формировании концепции внешней политики Турции. Рассмотрено описание инструментов турецкой «мягкой силы», используемых как Анкарой, так и другими субъектами международных отношений, а также применение турецкой «мягкой силы» в различных регионах мира.

Ключевые слова: Международные отношения, Мустафа Кемаль Ататюрк, Лаицизм, Ахмет Давутоглу, ноль проблем с соседями, ПСР, Реджеп Тайип Эрдоган, «мягкая сила», тюркский мир, внешняя политика, культурная дипломатия, общественная дипломатия, религиозный фактор, внешняя политика.

MECHANISMS AND INSTITUTIONAL BASIS OF APPLICATION OF THE "SOFT POWER" CONCEPT IN TURKEY'S FOREIGN POLICY

Annotation

This article is devoted to the analysis of the role of historical, cultural and religious factors, which influenced the formation of the dynamics of the use of the concept of "soft power" in modern Turkish foreign policy, and the study of its institutional foundations. In addition, it is intended to describe and analyze the modern conceptual and ideological foundations of "soft power" used in the formation of the concept of foreign policy of Turkey. Description of the tools of Turkish "soft power" used by both Ankara and other subjects of international relations, as well as the use of Turkish "soft power" in different regions of the world are considered.

Key words: International relations, Mustafa Kemal Atatürk, Laicism, Ahmet Davutoglu, zero problems with neighbors, AKP, Recep Tayyip Erdogan, "soft power", Turkic world, foreign policy, cultural diplomacy, public diplomacy, religious factor, foreign policy.

TURKIYA TASHQI SIYOSATIDA "YUMSHOQ KUCH" KONSEPSIYASINING QO'LLANILISH MEXANIZMLARI VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Анотация

Ushbu maqola zamonaviy Turkiya tashqi siyosatida "yumshoq kuch" konsepsiyasidan foydalanish dinamikasini aniqlash va shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, madaniy, diniy omillar rolini tahlil etish, institutsional asoslarini o'rganish tadqiqiga bag'ishlangan. Shuningdek, Turkiyaning tashqi siyosat konsepsiyasini shakllantirishda foydalanadigan "yumshoq kuch"ning zamonaviy konseptual va mafkuraviy asoslarini tavsiflash va tahlil qilish ko'zda tutiladi. Turkiya "yumshoq kuch"ning ham Anqara, ham xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari tomonidan qo'llaniladigan vositalarini tavsiflash hamda, dunyoning turli mintaqalarida turkiy "yumshoq kuch"ning qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro munosabatlar, Mustafo Kamol Otaturk, Kamolchilik, Ahmet Dovuto'g'li, qo'shnilar bilan nol muammolar, AKP, Rajap Tayyip Erdo'g'an, "yumshoq kuch", turkiy dunyo, tashqi siyosat, madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi, din omili, tashqi siyosat.

Kirish, Dunyo tartiboti o'zgarib borishi va sovuq urushning yakunlanishi bilan xalqaro munosabatlarda nizolarni hal etishning "qattiq kuch" usuli samarasiz bo'lib bordi, natijada davlatlar ta'sir etishning yangi yondashuvlarini izlash hamda uni qo'llash mexanizmlarini tadqiq eta boshladi. O'tgan asrning 90-yillariga kelib davlatlar tomonidan ta'sirning noharbiy, qurol va bosimlarsiz bo'lgan "yumshoq kuch" usuliga e'tibor qaratildi. Amerikaning Garvard universiteti professori Jozef Nay o'z kitobida ta'sirning "Yumshoq kuch"ni dastlab ilmiy atama sifatida ishlatadi. Tadqiqod obyekti xisoblangan Turkiya Respublikasi tashqi

siyosiy faoliyati yaqin o'tmishi va bugungi xolatiga nazar tashlasak uning ushbu konsepsiyadan keng foydalana boshlaganini ko'rishimiz mumkin. Sovuq urush yakunidan so'ng o'zaro munosabatlarda tashqi va ichki imkoniyatlarga erishgan Turkiya bugungi kunga kelib dunyo kuch markaziga aylanish borasida amaliy haraklarni boshlab yuborgani ko'plab sohalarda o'z tasdig'ini topib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotni amalga oshirish davomida tahlilning qiyosiy tarixiy, tarkibiy va tizimli usullariga murojaat qilindi. XXI asrda Turkiyaning tashqi siyosiy faoliyatida "yumshoq kuch"ning rolini o'rganishda

ko'plab turli tadqiqotchilar, tarixchilar, jurnalistlar, siyosat va davlat arboblarning asarlaridan foydalanildi jumladan, Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi [1], Turkiya Respublikasi davlat va siyosiy arboblarning nutq va ma'ruzalarini, masalan: R.T.Erdo'g'an, A.Dovuto'g'li, M.Chavusho'g'li, K.Kilichdaro'g'li[2]. Bundan tashqari, tadqiqotchilar – Xaluk Karadag, Tayyar Ary, Qodir Sanchaklarni ham alohida qayd etish lozim. Rus olimlaridan N.G.Kiryeva, S.Kudryashova, V.A.Avatkov va A.I.Zubkova. Qolaversa ushbu ta'limotning asoschisi bo'lgan Amerikalik tadqiqotchilar, neoliberalist Jozef Nay hamda Robert Keohane kabi tadqiqotchilarning ishlariga murojaat qilindi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida tarixiy qiyosiy tahlil, qiyosiy-siyosiy tahlil, kontent va event tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Geosiyosiy muhim joylashuv, kamolchilik mafkurasi va buyuk imperiya merosi kabi uchta asosiy hususiyat bilan shakllangan Turkiya Respublikasi, o'tgan yuz yil ichida o'z tashqi siyosat vektorini bir necha marotaba o'zgartirdi. Dastlab Mustafo Kamolning kelishi va iperializmdan voz kechish bilan izohlansa, keyin Sotsializm da'volardan chetga chiqish va kapitalizmga intilish, undan so'ng esa Sovuq urush tugashi ta'siri hamda XXI asr boshida Adolat va taraqqiyot partiyasi hokimiyatga kelishi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari "Arab bahori"dan so'ng ham Turkiya tashqi siyosati bir qancha o'zgarishlarga uchradi. 2000 yillar boshlariga kelib Turkiya siyosiy elitasida islomiy qarash egalarning hukmron kuch sifatida paydo bo'lishi Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ta'kidlash lozimki Turkiya an'anaviy tashqi siyosatining yo'nalishlari o'zgargan bo'lsa-da, davlatning tarixiy, geografik va mafkuraviy tajribasidan kelib chiqib, uning umumiy tashqi siyosat bilan bog'liq bo'lgan asosiy xususiyatlaridan xalos bo'lishning iloji yo'qligini aytib o'tishimiz joizdir. Adolat va taraqqiyot partiyasi a'zosi, sobiq bosh vazir Ahmet Dovuto'g'li bu borada katta sa'y-harakatlarni amalga oshirib, Turkiya Respublikasi Sovuq urushdan keyin globallashtayotgan dunyoning yangi shartlariga o'ziga xos yaqin va uzoq maqsadli strategiyani o'ylab topishi kerakligi borasidagi fikrlarini ilgari suradi.

Dovuto'g'li bu boradagi fikrlarini 2001-yilda chop etilgan "Stratejik Derinlik: Turkiye'nin Uluslararası Konumu"[4] (Stratejik teranlik: Turkiyaning xalqaro mavqeyi) nomli kitobida bayon qildi. Qayd etish lozimki u yozgan kitob Adolat va Taraqqiyot partiyasi hamda Turkiya Respublikasi tashqi siyosiy yondashuvlariga asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Adolat va Taraqqiyot partiyasi hokimiyatga kelishi va Turkiya tashqi siyosatida *strategik teranlik* doktrinasining ommalashib borishi bilan bir vaqtda turkiy yumshoq kuch haqidagi ilmiy tadqiqotlar soni ortib bordi. Biroq, bu izlanishlarning aksariyati "yumshoq kuch" tushunchasi uchun mustahkam nazariy asos taqdim etmasdan, muammoni faqat yuzaki tavsiflaydi. Umuman olib qaralganda yumshoq kuch bo'yicha nazariyalar, jumladan Jozef Nayning konsepsiyasi Amerika tajribasiga asoslangan holda, ma'lum bir qoida tariqasida yaratilgan va o'z foydasini keltirgan. Dovuto'g'li qarashlarida esa mamlakat yumshoq kuchining ta'siri va ko'lamini uning iqtisodiy, madaniy va diplomatik yondashuvlariga, hususan qo'shni mamlakatlarga madaniy va tarixiy yaqinligi, gumanitar yordamlar, media mashhurliqi, chet ellik sayyohlar ko'pligi kabi komponentlarga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin va bu albatta Turkiya uchun foyda keltirmoqda. Shubhasiz, bu kabi misollarni ko'rsatkich sifatida ko'rish mumkin, lekin bundan ham muhimi, Turkiya siyosiy elitasida islom qarashi egalarning

hukmron kuch sifatida paydo bo'lishi Respublika tashqi siyosiy imidjida ham jiddiy o'zgarishlarga olib keldi[5].

Bugungi Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlar tutgan o'rni haqida turk tadqiqotchisi, Istanbul AREL universiteti professori Hasret Çomak o'zining "Dünya jeopolitiğinde Türkiye"[6] (Jahon geosiyosatida Turkiya) asarida Turkiyaning "sovuq urush" tugaganidan keyin xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini izlash masalalari haqida yozadi va buning uchun mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy imkoniyatlaridan foydalanish masalalarini muhokama qiladi.

Turkiyaning geografik joylashuvining o'ziga xosligi uning o'zaro chegaradoshligidadir, ma'lumki Turkiya ko'plab mintaqalar tutashgan joyda joylashgan. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot doirasida Anqaraning qo'shni mintaqalardagi tashqi siyosiy faoliyati o'rganilishi, Turkiyaning yangi muhitda o'z o'rnini egallashga bo'lgan urinishlarini taqiq etish muhim sanaladi. Tarixiy mushtaraklik va madaniy yaqinlik nuqtai nazardan kelib chiqib, Turkiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo va Kavkazorti mintaqalari masalasini alohida ko'rib chiqish zarur.

Turkiya tashqi siyosiy doktrinasidagi yumshoq kuch xalq diplomatiyasining tipik xususiyatlariga ega, biroq amalda undan tashqariga chiqadi, bu Turkiya yumshoq kuchining hozirgi holatini o'rganish bilan tasdiqlanadi.

Turkiy yumshoq kuchning samaradorlik chegaralari Turkiya ichki siyosiy tuzilishining fundamental asoslariga va Turkiyada demokratik asoslarning yanada rivojlanishiga bog'liq, noyob madaniy, tarixiy va milliy tarkibiy qism va iqtisodiy rivojlanishning jozibador konsepsiyasi asosida yumshoq kuchni shakllantirishga standart anglo-sakson yondashuvidan farqli.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahliliy maqola Turkiya yumshoq kuchini amalga oshirish sohasida xalqaro koordinatalar tizimida sodir bo'ladigan evolyutsion jarayonlarni tushunishga imkon beradi. Bugungi kunda Turkiyadagi yumshoq kuch siyosati nafaqat turk davlatining tashqi siyosat yo'nalishini shakllantirishning muhim omili, balki uning mustaqil rivojlanayotgan jarayon ekanligini tushunishga ham yondashuvlar beradi. Ushbu ish rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra kelajakdagi mumkin bo'lgan tendensiyalarning to'liq tasavvurini shakllantirishga imkon beradi.

Turkiya "Yumshoq kuch" siyosatida o'z ambitsiyalarini madaniyat orqali ro'yobga chiqarishga turkiy yondashuv standarti ekanligi ko'rib chiqildi. Bu masalada Anqara butunlay xalqaro tajribaga tayanadi va isbotlangan vositalardan foydalanadi. O'tgan o'n besh yil ichida Turkiya Yaqin Sharq, Afrika, Yevropa (ayniqsa, Bolqon), Markaziy Osiyo, Kavkaz va hatto Lotin Amerikasida milliy manfaatlariga ega yirik mintaqaviy aktorga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa rasmiy Anqara xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish orqali o'zining xalqaro munosabatlardagi ishtirokini faol rivojlantirmoqda. Qayd etish lozimki Turkiya G20ga a'zo davlatlaridan biri, BMTda faol pozitsiyani egallaydi, IHT va TDT kabi mintaqaviy tashkilotlarda yetakchi davlat sanaladi.

Turkiyaning yumshoq kuchni amalga oshirishdagi vositalari keng. Anqara o'z ta'sirini oshirish uchun bugungi kunda mavjud bo'lgan barcha usullardan foydalanishni maqsad qilgan. Turkiya yetakchi sanalgan global o'yinchilarning ilg'or tajribasini o'zlashtirib, ommaviy madaniyat, nodavlat tashkilotlar, maxsus maktablar tashkil etish, madaniy va shu kabi tadbirlarni o'tkazish ko'rinishidagi turli usullardan faol foydalanmoqda.

Turkiya yumshoq kuch strategiyasining shakllanishida tarixiylik va milliylik asos bo'lsa, eksport qilishda liberal-iqtisodiy yondashuv asosiy rol o'ynadi. "Rivojlanishning Turk

modeli” va “Qo’shnilar bilan nol muammolar” kabi konsepsiyalar davlat imidjini ijobiy shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Turkiya tashqi siyosatining mafkuraviy tarkibiy qismidagi evolyutsion jarayonlarning asosiy tendensiyasi Usmonli imperiyasining tarixiy merosiga asoslangan kamolchilik g’oyalari neosmonizm g’oyalari bosqichma-bosqich o’tishni anglatadi. Bunday o’tish

Turkiyaning xalqaro munosabatlardagi mavqeyining bosqichma-bosqich oshishini ham nazarda tutadi, birinchi navbatda mintaqaviy kuch roliga, keyin esa global ta’sirga

tomon harakat qilish. Bu tendensiya, shuningdek, g’arblashgan Turkiya qiyofasini targ’ib qilishdan voz kechishga, mustaqil madaniy, tarixiy va siyosiy tajribaga asoslangan o’ziga xos yagona timsolni yaratishiga undadi. Adolat va taraqqiyot partiyasining Turkiyada hukmronlik qilgan davri turk tashqi siyosati g’oyasi asoslarini butunlay qayta ko’rib chiqishga va yumshoq kuchni amalga oshirishning o’ziga xos va mustaqil modelini shakllantirishga olib keldi. Umumiy qilib aytganda yumshoq kuch konsepsiyasining Turkiya tajribasini o’rganish davlat tashqi siyosatida ijobiy imij yaratish uchun qo’l kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Türkiye Cumhuriyeti Anayasasi https://www5.tbmm.gov.tr/yayinlar/2021/TC_Anayasasi_ve_TBMM_Ic_Tuzugu.pdf
2. Karadağ H. Kamu Diplomasisi: Uluslararası İlişkilerde Yeni Bir Boyut. – İstanbul: Nobel, 2012 – S. 94
3. Tayyar A. Yükselen Güç. Türkiye-ABD ilişkileri ve Ortadoğu / A. Tayyar. - Bursa: MKM, 2010. – S. 42
4. Sancak K. Uluslararası ilişkilerde güç kavramı ve yumuşak güç / K. Sancak. - Ankara: Nobel Akademik Yayıncılık, 2016 – C. 96
5. Киреев Н.Г. Турция между Европой и Азией / Н.Г. Киреев. – М., 2001. –С. 35
6. Кудряшова Ю.С. Турция и Европейский союз: история, проблемы и перспективы взаимодействия / Ю.С. Кудряшова. – М., 2010. – С. 63
7. Аватков В.А. Внешнеполитическая идеология Турецкой Республики при правлении Партии справедливости и развития: дис... канд. полит. наук. / В. А. Аватков. – М., 2013. – С. 68
8. Зубкова А.И. Стратегия мягкой силы в контексте трансформации политической системы Турецкой Республики в период 2002-2014 гг.: дис... канд. полит. наук. / А.И. Зубкова – М.: РУДН, 2015. – С. 161
9. Урманов Даян Ренатович. Динамика развития политики «мягкой силы» в Турецкой Республике в XXI веке. Казань 2017. – С. 21
10. Nye J. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power / J. Nye. – New York: Public Affairs, 1990. – P. 36
11. Nye J. Public diplomacy and soft power/ J. Nye // The annals of the American academy of political and social science. 2008. - № 1 – P. 109.
12. Nye J. Soft Power: The Origins and Political Progress of a Concept. <https://ssrn.com/abstract=2942713>.
13. Keohane R.O. Ideas and Foreign Policy: Beliefs, Institutions, and Political Change / R.O. Keohane. – New York: Cornell University Press, 1993. – P. 94
14. Keohane R.O. Power and Interdependence: World Politics in Transition
15. Ahmet Davutoğlu. Stratejik Derinlik: Türkiye'nin Uluslararası Konumu. Küre Yayınları, İstanbul 2001. – S. 84
16. Hasret Ç. Dünya Jeopolitiğinde Türkiye Hiperlink / Ç. Hasret. – İstanbul: Hiperlink Yayinlari, 2011 – S. 68



UDK:159.9:316.6:008-053.81

Nafisaxon MAMATOVA,
ADU Umumiy psixologiya kafedrasida doktoranti
E-mail:mnafisaxon@inbox.ru

ADU professori PhD G.Tojiboyeva taqrizi asosida

YOSHLAR REPRODUKTIV XULQ-ATVORINING AHOLI TAKROR BARPO BO'LISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarning reproductiv xulq-atvori aholining takror barpo bo'lishiga ta'siri, yoshlarning nikoh va oila kabi azaliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarini ilmiy tadqiqot asosida aniqlash, ularning psixologik taxlili haqida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Aholi, aholining takror barpo bo'lishi, yoshlar, reproductiv xulq-atvor, rang ko'rsatkichi, reproductiv madaniyat, yoshlar siyosati, tug'ilish, o'lim, oila, nikoh, promelli, depopulyatsiya.

THE INFLUENCE OF REPRODUCTIVE BEHAVIOR OF YOUNG PEOPLE ON THE REPRODUCTION OF THE POPULATION

Annotation

The article covers the influence of reproductive behavior of young people on the reproduction of the population, the determination of the attitudes of young people towards age-old values such as marriage and family on the basis of scientific research, their psychological fallibility.

Key words: Population, Population re-establishment, youth, reproductive behavior, rank indicator, reproductive Culture, Youth Policy, birth, death, family, marriage, promelli, depopulation.

ВЛИЯНИЕ РЕПРОДУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ВОСПРОИЗВОДСТВО ПОПУЛЯЦИИ

Аннотация

В статье подробно освещается влияние репродуктивного поведения молодежи на воспроизводство населения, выявление на основе научных исследований отношения молодежи к таким древним ценностям, как брак и семья, их психологический анализ.

Ключевые слова: население, воспроизводство населения, молодежь, репродуктивное поведение, индекс ранга, репродуктивная культура, молодежная политика, рождение, смерть, семья, брак, промели, депопуляция.

Jahonda aholi sonining 2 milliardga yetguncha 4 million yil kerak bo'lgan. 2 milliarddan 4 milliardga yetguncha 46 yil va 4 milliarddan 6 milliardga yetguncha 22 yil kerak bo'lgan. Shu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, demografik holat, tug'ilishni rejalashtirish, boshqarish va eng asosiysi optimallashtirish muammosi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy – psixologik muammolardan biri hisoblanadi.

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonining o'sib borishini ta'minlovchi biologik jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Shundan ko'rinib turibdiki demografik vaziyat, ayniqsa, oilalarning reproductiv funktsiyasi insoniyat jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida tobora dolzarblashib borayotganligini ko'rsatadi.

Reproductiv faoliyat muammosining dolzarblashuviga bir tomondan yuqoridagi kabi yer yuzi aholisi sonining jadal o'sishi bilan bir vaqtda, butun dunyo miqyosida tug'ilishning sezilarli darajada kamayib ketayotganligi sabab bo'lsa, boshqa tomondan shu bilan bog'liq ravishda, mehnat resurslarining kamayishi, oilalar mustahkamligining susayishi, oila va oilaviy hayot bilan bog'liq qadriyatlar ahamiyatining pasayishi kabi noxush holatlarning kuzatilayotganligi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. «Aholining takror barpo bo'lishi» deganda, aholining soni va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'zni to'ldirishi orqali yangilanishi tushuniladi. «Aholining takror barpo bo'lishi» tushunchasining nihoyatini keng va tor

ma'nolarda tushunish mumkin. Keng ma'noda, «aholining takror barpo bo'lishi» tushunchasi o'z ichiga yoshi, jinsi, ijtimoiy guruhlar, millati, oilaviy holati, ta'lim darajasi, kasbiy tarkibi bo'yicha aholi tarkibining rivojlanishi va yangilashini qamrab oladi. Tor ma'noda, aholining takror barpo bo'lishi — bu inson avlodining tug'ilish va o'lim natijasida yangilanishidir. Jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida aholining takror barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz bergan. Masalan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda jamiyatda demografik jarayonlar - tug'ilish, o'lim va nikohni boshqarish jarayoni keng tarqalgan. Natijada taraqqiy etgan mamlakatlarda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholining demografik mayliga bevosita ta'sir etib, aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi, ya'ni ko'p bolalik o'rni o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayoni va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, omma o'rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar oilalarning ko'p farzandga bo'lgan ehtiyojining asta-sekin kamayishiga olib keldi.

Shuningdek, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning yaxshilanishi, sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, davolash maskanlarining zamonaviy uskunalar bilan jihozlanishi, bu sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga e'tiborning kattaligi aholi o'rtasida o'lim holatlarining kamayishiga, o'rtacha umr

ko'rish muddatining uzayishiga sabab bo'ldi. Aksariyat mamlakatlarda tug'ilishning yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi aholi sonining yuqori sur'atda o'sishiga olib keldi. O'zbekistonda aholining katta qismini yoshlar tashkil etganligi bois xam kelgusida demografik taraqqiyot, inson resurslarining takror barpo bo'lish dinamikasini asosan ushbu ijtimoiy-demografik guruhning reproduktiv xulq-atvori, yosh oilalarning barqarorlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun xam yoshlarning reproduktiv xulq-atvorini, ularning oila va oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini o'rganish muxim va dolzarb masalalardan sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuningdek, biz o'z ilmiy ishimizning zarur empirik asoslarini tarix, etnografiya, etnologiya va madaniy antropologiyadan o'rgangan holda, ular turli davrlarning madaniy va tarixiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, insonning reproduktiv xatti-harakatlarining o'tmishini qayta tiklaydi, fazoda nasl-nasab sohasida sodir bo'layotgan madaniy o'zgarishlarni tushunishga imkon beradi degan xulosaga keldik. Gender bo'yicha tadqiqotlar (E.A. Ballaeva, G.A. Brandt, OA Voronina, V.N. Kardapolteva), shu jumladan reproduktiv xatti-harakatlar va uni madaniy tartibga solish mexanizmlarini gender farqlari va stereotiplar nuqtai nazaridan (K. N. Belogai, T.A. Gurko, E.A. Zdravomslova, V.I. Sakevich, A. Temkin) lar o'z asarlarida ilmiy asoslab berganlar. Ushbu mualliflar reproduktiv tanlash, reproduktiv erkinlik, asimmetrik ota-onalar, madaniy an'analarga asoslangan turli xil jinsiy kamsitishlarning namoyon bo'lishiga bag'ishlangan fikrlarni izoxlab o'tganlar. Tadqiqot ishining asosiy masala sifatida olingan reproduktiv madaniyatni tadqiq etishda avvalo tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning reproduktiv xulq-atvorini tahlil qilish amalga oshirildi. Insonning reproduktiv xulq-atvorining shakllanishida bir qancha omillar ta'sir qiladi. Mazkur

omillardan biri sifatida shaxsning hayot muhiti va yashayotgan hududi muhim ahamiyatga egadir. Hayot muhiti shaxsning yashayotgan muhitiga bevosita bog'liqligi sababli ham yashayotgan hudud (mintaqa) asosiy omil sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishida reproduktiv madaniyatning shakllanishida birlamchi omil sifatida tadqiqot ob'ekting baholash mezonlaridan biri sifatida olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda yoshlarda reproduktiv madaniyatni rivojlanishi borasida ilmiy validlikka ega bo'lgan metodikani tahlil qilishni lozim topdik. Kalachikovaning "Reproduktiv xulq atvorni o'rganish metodikasi" yoshlardagi reproduktiv xulq-atvor darajasining turli omillarini, keltirib chiqaruvchi oqibatlarini o'rganishga, aniqlashga asoslangan.

Tadqiqotda o'spirinlik yoshidagi jami 405 nafar o'spirinlar, ulardan 350 nafari qiz bola va 55 nafari o'g'il bolalar jalb etildi.

Ma'lum sifat yoki xususiyatning shakllanishida yosh omili muhim o'rin tutadi. Shaxsdagi reproduktiv madaniyatning shakllanishida ham yosh xususiyatlarining ahamiyatini inobatga olgan holda mazkur omil asosida ham reproduktiv xulq-atvor tahlilini olib bordik (3-jadval). Buning uchun tadqiqotda ishtirok etgan talabalarni yoshlariga qarab uch guruhga ajratib olindi:

1. 20 yoshgacha (147 nafar talaba).
2. 25 yoshgacha (233 nafar).
3. 25 yoshdan (25 nafar).

Mazkur tadqiqotda turlicha guruh ko'rsatkichlari Kruskal-Uollis mezonini asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra "Reproduktiv tafakkur" ($H=8.854$; $p=0.012$, $p \leq 0,05$) shkalasida uch guruh o'rtasidagi mutanosiblik aniqlanmadi. Bu esa mazkur shkala bo'yicha uchala guruh a'zolarida reproduktiv tafakkur shakllanishi shaxsning yosh xususiyatlariga bog'liqligini bildiradi.

1-jadval

Respondentlarning reproduktiv xulq-atvorlarini yoshiga ko'ra ko'rsatkichlari

Shkalalar	O'rta rang ko'rsatkich			Kruskal Uollis (H) mezon	P
	20 yoshgacha, n=147	25 yoshgacha, n=233	25 yoshdan katta, n=25		
Reproduktiv oqilona xarakterlar	188.15	210.41	221.28	4.31	0.116
Matonat	196.91	206	210.82	0.799	0.67
Reproduktiv tafakkur	187.27	216.7	167.86	8.854	0.012*
Vaziyatni yengib o'tish.	203.11	206.25	172.04	2.012	0.366
Emotsiyalar nazorati	212.09	199.31	183.92	2.247	0.325
Jamiyatdan qochish.	196.43	202.62	245.2	4.388	0.111

Izoh: * $p \leq 0,05$

Empirik ko'rsatkichlarga tayangan holda reproduktiv tafakkur, bu yoshlarning turmushga tayyorligi va ijtimoiy munosabatlarda tayyorligiga qarab, tafovutlashishi mumkinligi kuzatilmoqda. Reproduktiv tafakkurning shakllanishi o'z navbatida yoshlar, xususan talabalar yashayotgan ijtimoiy muhitning ta'sirida ham reproduktiv xulqning tarkib topishiga asosiy belgilovchi rol ni o'ynashi mumkin.

"Reproduktiv oqilona harakatlar" ($H=4.31$; $p=0.116$) hamda "Jamiyatdan qochish" ($H=4.176$; $p=0.111$) shkalalar o'rtasidagi o'xshashlik mavjud bo'lib mazkur natija bevosita respondentlarning ijtimoiy qobiliyatlarining bir-biriga mos kelishi bilan izohlash mumkin. Ma'lumki ma'lum guruhdagi guruh a'zolarining ijtimoiy maqsadlari umumiy bo'lgach ularning ijtimoiy qobiliyatlari ham birgalikda shakllanib boradi. Shu sababli ham ulardagi bir xil ijtimoiy qobiliyatlar namoyon bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan shkalalardan tashqari "Vaziyatni yengib o'tish" ($H=2.012$; $p=0.366$), "Emotsiyalar

nazorati" ($H=2.247$; $p=0.325$) shkalalarning natijalarining ham o'zaro yaqin ko'rsatkichlar qayd etildi. Ushbu shkalalarda berilgan xususiyatlarda bevosita shaxsning irodaviy sifatleri bilan bo'lib, irodaviy sifatlarining shakllanishida yosh omili ahamiyati nisbatan kamligini bildiradi.

Tadqiqotimizning mazkur bosqichida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki yosh mezonida reproduktiv xulq-atvor sifatleri yosh omillarining ta'siri pastligi hamda yosh farqlariga qaramay reproduktiv xulq-atvorning umumiy sifatlariga ega bo'lish mumkinligiga guvoh bo'lish mumkin.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida reproduktiv xulq-atvorning respondentlarning oiladagi nechanchi farzand ekanligi bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot ishtirokchilarining tadqiqot maqsadiga ko'ra saralanganida 131 nafari to'ng'ich farzand, 113 nafari ikkinchi farzand, 106 nafari uchinchi farzand, 45 nafari to'rtinchi farzandligi ma'lum bo'ldi. Ularni mos ravishda to'rtta alohida guruhga ajratgan holda tadqiqot natijalari tahlil qilindi.

2-jadval

Respondentlarning reproduktiv xulq-atvorlarini oiladagi farzandlik o'rniga ko'ra ko'rsatkichlari

Shkalalar	O'ra rang ko'rsatkich				Kruskal Uollis (H) mezon	p
	1-farzand, n=131	2-farzand, n=113	3-farzand, n=106	4-farzand, n=45		
Reproduktiv oqilona xarakterlar	210.99	186.19	200.3	184.43	3.943	0.268
Matonat	196.65	199.97	210.37	167.83	5.33	0.149
Reproduktiv tafakkur	175.67	207.2	219.72	188.74	10.788	0.013*
Vaziyatni yengib o'tish	201.08	198.15	199.01	186.27	0.605	0.895
Emotsiyalar nazorati	201.02	192.36	204.29	188.56	1.26	0.739
Jamiyatdan qochish	197.29	196.12	211.71	172.51	4.505	0.212

Izoh: * $p \leq 0,05$

Tadqiqot natijalarini tahlil etishda Kruskal Uollis mezonidan foydalanildi. Natijalarga ko'ra "Reproduktiv tafakkur" ($H=0.013$, $p \leq 0,05$) shkalasida talabalar ko'rsatkichlari farqni kuzatish mumkin. Mazkur natija talabalaridagi reproduktiv tafakkurni rivojlanishida oiladagi nechanchi farzand ekanligining ahamiyat darajasi pastligini namoyon qildi.

Statistik mezonga ko'ra 3-farzand bo'lganlar oilaning boshqa farzandlar tartibida o'rin olishiga ko'ra reproduktiv tafakkuridagi farqiga asoslanib, har doim ham farqlar shu tarzda namoyon bo'ladi degan xulosani bermaydi. O'z navbatida empirik ko'rsatkichlarning noparametrik xarakterga egaligi ham, ularning reproduktiv xulq-atvor shakllanishida aynan 3-farzandlarda ustuvor reproduktiv xulq-atvor shakllanishi tendentsiyasiga asos bo'ladi deb bo'lmaydi.

Qolgan shkala ko'rsatkichlarida statistik ahamiyatga ega og'ishlar natijalar kuzatilmadi: "Reproduktiv oqilona harakatlar" ($N=3.943$; $p=0.268$), "Jamiyatdan qochish" ($H=4.505$; $p=0.212$), "Vaziyatni yengib o'tish" ($H=0.605$; $p=0.895$), "Emotsiyalar nazorati" ($H=1.26$; $p=0.739$), "Matonat" ($N=5.33$; $p=0.149$). Ushbu qiymatlar esa yoshlarda reproduktiv xulq-atvor shakllanishining belgilovchi mezonlarda keskin tafovutlanishi xos bo'lmaligini tasdiqlamoqda.

Tadqiqot natijalari tahlilidan xulosa qilib reproduktiv xulq-atvor shakllanishida bir qancha faktorlar muhim o'rin tutishi, bu faktorlar orasida reproduktiv tafakkur, matonat, vaziyatni yengib o'tish faktorlari alohida ahamiyat kasb etishini kuzatish mumkin. Ularning reproduktiv xulq-atvor madaniyatini tarkib topishi shaxsning ijtimoiy muhitdagi munosabatlarining ajralmas qismi sifatida xizmat qiladi.

Yoshlarning reproduktiv xulq-atvori bilan ota-onalik ustanovkalar o'rtasidagi korrelyatsiyalarining hududiy ko'rsatkichlari (qishloq, Ch.Spirmen korrelyatsiya usuli, N=350)

Shkalalar	kuzatuvchanlik malakasi	tajriba va ko'nikma mahorati	ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati	O'z ichki tajribalariga befarq munosabat	O'z tajribalariga tayanish	kuzatuvchanlik malakasi
Verbalizatsiya (Bolaga o'z fikrini gapirib olish imkoniyatini berish)	0.010	-0.091	-0.068	0.050	-0.006	-0.020
Haddan tashqari g'amxorlik	0.064	-0.017	-0.038	-0.028	0.003	-0.101
Oilaga g'amxorlik	0.024	-0.013	-0.013	0.009	0.061	-0.013
Bola irodasini (xohish-istagini bostirish)	0.074	0.039	-0.088	-0.017	0.063	-0.045
O'zini qurbon qilish	0.094	-0.093	-0.024	-0.108*	-0.013	-0.086
Xafa qilishdan qo'rqish	-0.009	0.010	-0.033	0.120*	0.066	-0.033
Oilaviy nizolar	0.085	-0.085	0.055	0.018	-0.073	-0.023
Asabilashish	0.050	0.056	0.017	0.029	0.082	0.001
Haddan tashqari zo'ravonlik	0.017	0.062	0.010	0.054	-0.078	0.014
Oiladan tashqari tasirlarni istisno qilish	0.000	0.023	0.026	0.096	0.060	0.004
Ota onalarning xukmronligi	0.052	0.032	-0.006	0.077	0.038	-0.025
Agressivlikni bostirish	-0.001	0.066	-0.009	0.081	0.073	0.032
Uy bekasi ro'idan norozilik	0.072	0.026	0.041	-0.043	0.028	0.026
Hamkorlik	0.022	0.017	0.013	0.083	0.035	-0.024
Bolaning faolligini rivojlantirish	0.069	0.027	-0.032	0.050	-0.007	-0.060
Mojarolardan qochish	-0.019	0.102	-0.022	0.062	-0.008	0.022
Turmush o'rtoqning befarqligi	0.043	0.014	-0.090	0.073	-0.001	-0.006
Libidoni bostirish	0.056	0.030	-0.029	0.093	0.105*	-0.024
Onaning hukmronligi	-0.010	-0.036	0.049	-0.059	0.008	0.003
Bolaning dunyosiga favqulotda aralashuv	-0.028	-0.002	-0.048	-0.028	-0.005	-0.147**
Munosabatlar tenglashuvi	0.004	-0.043	0.034	0.015	0.038	-0.107*
Bolaning rivojlanishining tezlashtirish istagi	0.022	-0.002	-0.036	0.074	-0.007	-0.074
Onaning qobiliyatsizligi	0.025	-0.008	-0.017	0.023	0.092	-0.039

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$;

Tahlilga ko'ra o'zini qurbon qilish shkalasi o'z ichki tajribalariga befarq munosabatning pasayishiga ($r=-0.108$; $p \leq 0,05$), xafa qilishdan qo'rqish esa aksincha oshishiga ($r=0.120$; $p \leq 0,05$) sabab bo'lganini ko'rish mumkin. Bolaning hayotiga aralashuv kuzatuvchanlikni tushib ketishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi ($r=-0.147$; $p \leq 0,01$). Bu natijani bolani hayotiga aralashuv uning kuzatuvchanlik qobiliyatini cheklab qo'yishi mumkinligi bilan izohlash mumkin.

Olingan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin.

1. Aholi soni dinamikasi - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasining ajralmas qismidir. Har qanday xududni, davlatni yoki xalqni siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy jixatlarini o'rganish uning aholisini o'rganishdan boshlanadi. Aholi dinamikasining ko'rsatkichlari demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oila) va ularning

shakllanish qonuniyatlarini bilish va ushbu jarayonlarni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun zarur ilmiy asos sanaladi.

2. Yoshlarning reproduktiv xulqida jamiyatdan qochishda yigitlarda farqlar yuqori ekanligi isbotlandi. Bu esa talaba yigitlarning bugungi kunda oila qurish borasidagi munosabatlarida ham aks etmoqda. Ular o'zlarini mustaqillika intilishlari yuqoriligi sababli ham ularning majburan oila-nikoh masalalariga jalb qilish ortiqcha qiyinchilik tug'diradi.

3. Yoshlarning reproduktiv xulq-atvorida reproduktiv oqilona harakatlar, matonat, vaziyatlarni yengib o'tish, emotsiyalarni nazorati va jamiyatdan qochish tendentsiyalarida yoshga ko'ra farq ifodaga ega emas ekan. Ammo, reproduktiv tafakkur borasidagi farqlar 25 yoshgacha bo'lganlarda kuzatildi. Bu esa yoshlarning reproduktiv tafakkur imkoniyatlardan foydalanish ijtimoiy tajribalarni o'sib borishi hisobida hayot to'g'risidagi o'z yondashuvlariga ega bo'larkan.

ADABIYOTLAR

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.

2. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
3. Немов Р. С. Психология: Учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений. // Психодиагностика. Введение в научно - психологическое исследование с элементами математической статистики - 3-е изд. -М.: Гуманит. Центр ВЛАДОС, 1998. С - 632.
4. Репродуктивная культура : тенденции развития и механизмы трансляции в современном российском обществе
Беляева, Мария Алексеевна Екатеринбург, 2013.- 388 с
5. <https://www.unfpa.org/sites/default/files/pub-pdf/ICPD-UNGASS-Russian-web.pdf>



UDK:8 (1751)

Shokhista MANSUROVA,
Toshkent davlat transport universiteti chet tillar kafedrasi vb dotsenti
E-mail umarovasabina20071980@gmail.com

Pedagogika fanlar doktori, professor X.J. Xudoyqulov taqrizi asosida

MODERN INTERACTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotation

In this article we write about the proper use of modern technologies in the study and teaching of foreign languages and how a teacher strives for himself, feels responsible, introduces innovations in lessons, makes the lesson interesting and vivid. Due to the growing need for learning foreign languages in educational institutions and non-governmental educational institutions of our country, using modern technologies and new methodologies, a comparative analysis of fundamental, linguistic, socio-cultural, communicative methods of teaching foreign languages is carried out, their place and importance in the educational process is shown. The methods of teaching students foreign languages (native language) using modern pedagogical technologies were considered. The focus is on aspects such as listening comprehension and reading at home.

Key words: English language, fundamental, communication, linguistics, intensive, teaching lexical units, linguo-cultural, linguistic tool, image, appearance, re-expression, phraseological unit, portrait.

СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация

В этой нашей статье написано о правильном использовании современных технологий в изучении и преподавании иностранных языков и о том, как учитель стремится к себе, чувствует ответственность, вводит новшества в уроки, делает урок интересным и ярким. В связи с растущей потребностью в изучении иностранных языков в образовательных учреждениях и негосударственных образовательных учреждениях нашей страны, с использованием современных технологий, новых методологий, проведен сравнительный анализ фундаментальных, лингвосоциомкультурных, коммуникативных методов обучения иностранным языкам, показано их место и значение в образовательном процессе. были рассмотрены способы обучения студентов иностранным языкам (родному языку) с использованием современных педагогических технологий. Основное внимание уделяется таким аспектам, как понимание на слух и чтение дома.

Ключевые слова: Инновации, технологии, эффективность, специализация, информационно - коммуникационные, лингвистические, интенсивные, обучение лексическим единицам, лингвокультурологическим, языковой среде, образу, внешнему виду, переосмыслению.

CHET TILLARINI (INGIZ TILI) O'QITISHNING ZAMONAVIY INTERFAOL USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolamizda chet tillarini (ingiz tili) o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan o'rinli foydalanish va o'qituvchning o'z ustida izlanishi, ma'suliyatni his etishi, darslarga yangiliklar kiritishi, darsning qiziqarli va jonli bo'lishini ta'minlashi haqida yozilgan. Mamlakatimizda ta'lim muassalari hamda, nodavlat o'quv muassasalarida bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan yehtiyoz tufayli chet tillarini (ingiz tili) o'qitishning zamonaviy texnologiyalar yordamida, yangicha metodologiyalardan foydalanib fundamental, lingvosotsiomadaniy, kommunikativ metodlar qiyosiy tahlil etilgan, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilib ilmiy chiqatdan yoritilgan. zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarni chet tillarini (ingiz tili) ga o'rgatishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor tinglab tushunish, uyda mutolaa kilish kabi aspektlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, texnologiya, samaradorlik, ixtisoslashtirish, axborot-kommunikatsiya, telekommunikatsiya, lingvistika, intensiv, o'qitish leksik birliklar, lingvokulturologik, lisoniy vosita, tasvir, tashqi qiyofa, qayta ifodalash, frazeologik birlik, portret.

Kirish. Hozirgi davrda chet tillarini (ingiz tili) o'qitish va o'rganishning ahamiyati mamlakatimizda avvalgiga yillarga qaraganda talab ortib bormoqda. chet tillarini (ingiz tili) mutaxassisleri chet tillarini (ingiz tili) o'rganishni yangicha metodologiyasi va usullarini hayotga tadbiiq qilishmoqda. bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. chet tillarini (ingiz tili) sifat ravishlardagi ma'noni asosiy shakllari va muammolarini tahlili. Til insonlar o'rtasida aloqa o'rnatuvchi vosita hisoblanadi. shakl va ma'no xususyatdagi nazariy muammolar aristotel, platon kabi faylasuflar yashagan davrlardan to bugungi kunga qadar tilshunoslar, faylasuflar va fan arboblarni diqqat markazida

bo'lib kelgan. chet tillarini (ingiz tili) ko'p ma'noli so'zlarga boy til hisoblanadi. matnda ko'p ma'noli so'zlarni ishlatilishi ularni qo'llanilishini nazarda tutib qolmasdan, matnni ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha insonlar serqirra dunyoning juda tez o'zgarib borayotganiga nafaqat guvoh, balki jahon madaniyati, fan- texnikasining rivojlanib, taraqqiy etib borishi kabi murakkab va uzluksiz jarayonlarning bevosita ishtirokchilari hamdir. shu o'rinda jahonning yetakchi tillaridan biri bo'lgan va bugungi kunda yer sharidagi 35 foiz aholining ikkinchi muloqot tiliga aylangan chet tillarini (ingiz tili) o'rganish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. shu o'rinda

mamlakatimizda qayd etib o'tilsinki, mamlakatda o'zbekiston respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda chet tillarini (ingiz tili) o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi. shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Hozirgi kunda chet tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi metod va yo'llarini hayotga tadbiiq qilishmoqda. Bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari, u o'qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o'z navbatida til o'rganayotgan o'quvchini zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga ko'maklashadi. Texnologiya asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rni egallamoqda.

Bugungi kunda televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini o'rgatishga ko'maklashuvchi yangi dastur va ko'rsatuvlar muntazam ravishda uzatilib kelimoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish uchun O'zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi.

Misol uchun, multimediyasi asosida chet tili o'rgatilayotgan o'quvchida to'rt ko'nikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushinishga harakat qiladi.

Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar kompyuter, ra-dio, CD, DVD qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini beradi. Ingliz tili darslari davomida ba'zi o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi. Aynan shu sababli ya'ni o'rganuvchining ishtiyogini so'ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida kompyuterdan foydalanish o'rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Zero, o'rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari albatta samara beradi. Aksincha, biz o'qituvchilar ushbu talablar asosida o'quv materiallarini tanlamasak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab so'zlardan iborat bo'lgan video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki mul-timedia, kompyuterlar orqali namoyish etsak, o'rta va yuqori sinf yoki guruh

o'rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat o'quv materiallarini namoyish etganimizda o'rganuvchilarning tili o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'na boshlaydi va darslarni o'zlashtirmay qo'yishadi. Bu esa o'z navbatida baholarning pasayib ketishi, o'qituvchining o'quvchilar oldida o'z hurmatini yo'qotib qo'yishga olib kelishi mumkin. Demak, bundan kelib chiqadiki dars davomida texnologiyalardan shunchaki foydalanish emas, balki ularni o'z o'rni qo'llay bilish va texnologiyalardan foydalanish o'quvchi bilimni oshirishga xizmat qilishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi CEFR ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari bo'yicha to'rtta: (writing, reading, listening, speaking) ingliz tilida yozib, o'qib, tinglab, so'zlashib o'rganish kompetensiyalari bo'yicha olib borilayotgan darslar davomida texnologiyalardan unumli va o'rinni foydalanish ahamiatlidir. Masalan, tinglab – tushunish darslarida audio matnlarni qo'yib eshittirishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalar mavjud. Unda asosiy maqsad o'rganuvchi eshitayotgan audio materialni tushunib olishi va uni qiyalmasdan tahlil qila olishi muhimdir. Buning uchun esa eng avvalo, muhitni audio materialni qo'yib eshittirish uchun hozirlash, bunda tinglovchilar osoyishta muhitni ta'minlashlari, o'qituvchi esa qo'yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning yaxshi ishlayotgan-ligiga e'tibor qaratishi va audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlarning tayyor ekanligi va o'rganuvchilar tarqatma materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Chet tillarini yangi bilimaganlar uchun Don't you want to go? va Would you like to go? iboralari orasidagi farq uncha katta emas, ammo britaniyalik uchun ular farq qiladi. Aksariyat holatlarda anjumanlarda "Sizni yana qanday masalalar qiziqtiradi?" degan savolni chet tillarini (ingiz tili) "What problems are you interested in?" deya tarjima qilishadi. Ammo ta'kidlash joizki, chet tillarida (ingiz tili) "problems" so'zi salbiy xarakterga ega bo'lib, bunday jumlaning "What issues are you interested in?" deb tarjima qilgan ma'qulroq. Tilshunoslarning fikricha, bunday xatoliklarning 52%i ona tilidagi iboralarni chet tillarini (ingiz tili) ga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish bo'lsa, 44%i til o'rganuvchi salohiyatining yetarli emasligi bilan belgilanadi. Tilni o'rganish jarayonida eng muhimi – uzatilayotgan axborot mazmunining qay darajada to'g'ri ekanligidir.

lingvosotsiomadaniy metod ikki turdagi muloqotni qamrab oladi. bu til va madaniyatlararo muloqotdir. oliy o'quv yurti talabasi nafaqat chet tillarini (ingiz tili) da o'qish, yozish va tarjima qilishda yuqori bosqichlarni egallashi, balki chet tillarini (ingiz tili) o'ziga xalq madaniyatini rakursida ko'ra olishni ham o'rganishi lozim. chet tillarini (ingiz tili) o'qituvchisi til o'rgatish jarayonida aynan shu jihatlarga e'tiborni kuchaytirishi kerak. demak, tilni chuqur o'rganish, oson muloqotga kirishish uchun yuqorida sanab o'tilgan uchta metodni samarali qo'llagan holda chet tillarini (ingiz tili) ni o'qitish lozim. fikrimizcha, avval talabani chet tillari (ingiz tili) da so'zlashga o'rgatib, ikkinchi bosqichda shu tilda o'ylashga o'rgatish lozim. bu ancha qiyin, ammo amalga oshirish mumkin bo'lgan jarayon. buning uchun chet tillarini (ingiz tili) o'qituvchisi dars berish metodini standart yondashuvdan tashqari turli xil o'yinlar, o'rtoqlari bilan muloqot, xatolarni topish bo'yicha mashqlar, matnlarning qiyosiy tahlili kabilar bilan boyitishi lozim.

Bugungi kunda buni samarali ravishda ingliz uslubchilari Jon va Liz Soarlar tomonidan yaratilgan 5 bosqichli "Headway" darsligi amalga oshirayotir. chet tillarini (ingiz tili) ni o'rganishga mo'ljallangan mazkur darslik o'z ichiga to'liq uslubiy jamlanma, ya'ni talabalar va o'qituvchi uchun darslik, audiokassetlardan iborat 120 soatlik Elementary, Pre-Intermediate, Intermediate, Upper-

Intermedietalarni qamrab oladi. Darslikdagi har bir dars bir necha bo'limdan tashkil topgan. Birinchisi so'zlashish ko'nikmalarini qamrab olgan bo'lsa, ikkinchisi til ko'nikmalarini (skills development) shakllantirishga qaratilgan. Keyingilari matnlar ustida ishlash (scan reading, reading for gist, summary reading va x.k.), savol-javoblar, audiokassetani tinglash va qaytarishdan iborat. "Headway"ning o'ziga xosligi shundaki, u grammatikani ikki bosqichda o'rgatadi: avval dars kontekstida, keyin talabaning ish kitobida (self-study va revision). Talaffuzni yaxshilash uchun darslikka qo'shimcha ravishda "Headway Pronunciation" kitobi ham kiritilgan.

Hozirgi davrida chet tillarini (ingiz tili) o'qitish va o'rganishning ancha ommalashgan yana bir usuli – intensiv metod ham amalda. Uning asosini 25 foizga yaqin klisheklar, ya'ni muloqot uchun eng zarur iboralarni yodlash tashkil etadi. Albatta, til o'rganish uchun mazkur metodni tanlagan talaba Bayron asarlarini asliyatda o'qiy olmasligi mumkin, biroq u zarur payti o'z suhbatdoshi bilan muloqotga kirisha oladi. Ushbu usul orqali dars o'tayotgan o'qituvchi, asosan, dialoglarni qurol qilib oladi. Intensiv metod orqali ham 2 haftada Chet Tillarini (Ingiz Tili) o'rganish mumkin emas,

ammo mehnatsevar, o'z ustida ishlaydigan talabalar tilni 3 oyda bimalol o'zlashtira oladilar.

Xulosa va takliflar. Axborot texnologiyalarini o'qitish-ga joriy etish, axborotni idrok etish va qayta ishlash jarayonini ancha diversifikatsiya qiladi. Kompyuter, Internet va multimediyaga tufayli o'quvchilarga keyingi tahlil qilish va saralash bilan katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun noyob imkoniyat yaratildi. Ta'lim faoliyatining motivatsion asoslari ham sezilarli darajada kengaymoqda. Multimediyadan foydalanish sharoitida talabalar gazetalardan, televizordan ma'lumot olishadi, o'zlari intervyular o'tkazadilar va telekonferensiyalar o'tkazadilar. Til portfeli texnologiyasida chet tilini bilish darajasini baholashning asosiy mezonlari sinov hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning ustuvor yo'nalishi ta'lim jarayonini o'qituvchidan o'quvchiga yo'naltirishdir. O'quvchi, o'z navbatida, uning bilim faoliyati natijalari uchun ongli ravishda javobgardir. Yuqoridagi texnologiya talabalarning ma'lumotni mustaqil ravishda o'zlashtirish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga olib keladi. Umuman olganda, til portfeli ko'p funksional bo'lib, ko'p tillilikning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Haugen E. Language Contact // Proceedings of the 8th International Congress of Linguists. – Oslo, 2005.
2. O'zTIL. – B. 75.
3. Heath Sh.B. Bilingual Education and a National Language Policy // Perspectives on Bilingualism and Bilingual Education. – Washington, 2008.
4. Lado R. Language Teaching. –New York, San Francisco, Toronto, London, 2010
5. Mamatqosimova V. 20-30 - yillar o'zbek marifatparlik adabiyotida badiiy tarjimaning o'rni (frantsuz adabiyotidan qilingan tarjimalar misolida). fil.fan.nom. disseratssiyasi. –T:2010. –145 b.
6. Sidiqov Q. "Qutadg'u bilik" to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. – fil.fan.nom. disseratssiyasi. –T:2010. – 151 b
7. Dosbayeva N. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash (Amerika hikoyalari tarjimasi misolida). fil.fan.nom. disseratssiyasi. –T:2011. –148 b.



Azamjon MAXMUDOV,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, PhD

Pedagogika fanlari (PhD) M.Yo‘ldashev taqrizi asosida

INCREASING GENERAL AND SPECIAL PHYSICAL TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS

Annotation

This article highlights the analysis of the results obtained from an experiment aimed at increasing the general physical fitness of young football players.

Keywords: football, test, norm, analysis, preparation, lesson, scientist.

ПОВЫШЕНИЕ ОБЩЕЙ И СПЕЦИАЛЬНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация

В данной статье освещается анализ результатов, полученных на основе эксперимента, направленного на повышение общей физической подготовки юных футболистов.

Ключевые слова: футбол, тест, норма, анализ, подготовка, занятие, ученый.

YOSH FUTBOLCHILARNING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh futbolchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan tajriba asosida olingan natijalar taxlil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: futbol, test, norma, tahlil, tayyorgarlik, mashg‘ulot, olim.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda sportning barcha turlari qatori futbolga ham davlat darajasida katta ahamiyat berila boshlandi. Bugungi kungacha ushbu sport turi bo‘yicha juda ko‘plab qaror va farmonlar chiqarilib, bu muddat ichida yoshlar va o‘smirlar terma jamoalarimiz Osiyo birinchiligida bir necha bor sovrinli o‘rinlarni egallab mundial o‘yinlarida ishtirok etishdi. Ushbu muafaqiyatlar bilan birga bugungi kunda o‘z yechimini kutib turgan qator muammolar qatorida milliy terma jamoamizning Olimpiyada o‘yinlari va Jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritma olmayotganligi eng asosiy muammo bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-115-sonli qarori yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib bunda bolalar futbolini rivojlantirish masalasi yuqori o‘rinda turadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz tomonimizdan o‘rganilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy olimlardan I.A.Koshbaxtiyev, R.I.Nurimov, Sh.T.Iseyev, B.I. Плон va J Helgerudlar yillik mashg‘ulot siklidagi mashg‘ulot mikrosikllarini optimal nisbatlarini ishlab chiqish bo‘yicha turlicha taklif va tavsiyalarni keltirib o‘tganlar. Biroq yuqoridagi muliflarning ilmiy manbalarida o‘zgaruvchan musobaqa kalendari asosida mashg‘ulotlarni aniq bir yosh toifasi (Futbol akademiyalari) bo‘yicha taqsimlash biroz nazardan chetda qoldirilgan. Aynan yillik rejada bir vaqtning o‘zida ko‘p yillik, istiqbolli rejalashtirish hamda mezosikllar va mikrosikllarning aniqlashtirilishi uyg‘unlashadi. Musobaqalar taqvim va mavsumiy-iqlimiy o‘zgarishlar yillik tayyorgarlik siklidagi mashg‘ulot yuklamalariga ko‘p ta‘sir o‘tkazadi. Ko‘rsatib

o‘tilgan omillardan tashqari, o‘quv yilining umumiy davriyligi (o‘quv yuklamasi dinamikasi, uning choraklar bo‘yicha tashkil qilinishi, ta‘til muddatlari va h.k.) yosh futbolchilarning o‘quv mashg‘ulot mikrotuzilmasiga ta‘sir qiladi[2,3,4,5,6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ishimizda quyidagi usullardan foydalanildi: Maxsus adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; pedagogik testlash; matematik-statistik usullar.

Bugungi kunda jismoniy tayyorgarlikni aniqlash va baxolashga oid ko‘pgina ma‘lumotlar umumlashtirilgan bo‘lib bu futbolchilarni tayyorlash jarayonida yaxshi samara bermoqda. Biroq testlarni umumlashtirish va optimallashtirilib borish masalasi mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Ushbu tadqiqot 2022-2023 yillarda, 15 yoshli futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini testlash amalga oshirildi. Bunda 30 va 50 m ga yugurish, joydan uzunlikka sakrash, joydan 3 xatlab sakrash, 400 m ga yugurish, 7x50, Yo-Yo, Kuchni aniqlovchi, Ozolin testi, 30 m ga to‘p bilan yugurish, To‘pni uzoqlikka tepish, 5x30 testlari qabul qilindi. Bunda tanlab olingan testlar kooreksiyalash orqali to‘g‘irlandi va testlash jarayoni orqali barcha jismoniy sifatlarni rivojlanganlik darajasini o‘ganish maqsad qilindi.

Ishning maqsadi: 15 yoshli futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish.

Tahlil va natijalar. Sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini xarakterlaydigan autentik testlar orasidan mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlili va shaxsiy amaliy tajriba ma‘lumotlarimiz asosida tanlab olingan sinov testlari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlar 15 yoshli futbolchilarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha pedagogik tajriba boshida qayd etilgan natijalaribo‘yicha ma‘lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Nazorat (n=20) va tajriba (n=20) guruhları 15 yoshlı futbolchılarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan testlar bo'yicha pedagogik tajriba boshida qayd qilingan natijalari va ularning statistik xarakteristikalarini solishtirish

TB	test	NG			TG			AF	NF	t	P
		X	sig	V, %	X	sig	V, %				
1-	30 metrğa yugurish,s	4,73	0,6	12,68	4,64	0,602	12,97	0,09	1,90	0,37	>0,7
2-	50 m ga yugurish,s	8,19	1,12	13,70	8,38	1,17	13,96	0,19	2,32	0,41	>0,6
3	Joydan uzunlikka sakrash,m	223,27	26,21	11,74	217,48	25,97	11,94	5,79	2,59	0,54	>0,5
4	Joydan 5 xatlab sakrash,m	11,76	1,61	13,69	11,98	1,672	13,96	0,22	1,87	0,33	>0,7
5-	400 m ga yugurish,s	70,39	8,88	12,62	68,94	8,93	12,95	1,45	2,06	0,40	>0,6
6-	7x50	66,39	7,73	11,64	68,32	8,17	11,96	1,93	2,91	0,59	>0,5
7	Yo-Yo	1000,34	127,12	12,71	1022,16	132,37	12,95	21,82	2,18	0,41	>0,6
8	Kuch	91,24	12,46	13,66	92,82	12,95	13,95	1,58	1,73	0,30	>0,7
9	Egiluvchanlik	8,53	0,99	11,61	8,31	0,996	11,99	0,22	2,58	0,54	>0,5
10-	30 m ga to'p bilan yugurish	5,32	0,67	12,59	5,46	0,707	12,95	0,14	2,63	0,50	>0,6
11	To'pni uzoqlikka tepish ,jami	75,34	10,49	13,92	77,01	10,77	13,99	1,67	2,22	0,38	>0,7
12	To'pni 2 qo'lda uzogga tashlash	18,14	2,28	12,57	17,63	2,29	12,99	0,51	2,81	0,55	>0,5
13-	5x30	27,86	3,79	13,60	27,28	3,81	13,97	0,58	2,08	0,37	>0,7
									2,30		

Izoh: AF-absolyut farq, NF-nisbiy farq (foizlarda).

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish pedagogik tajribaga jalb etilgan nazorat va tajriba guruhları 15 yoshlı futbolchılarining o'rganilgan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha tajriba boshida qayd etilgan natijalari o'zaro bir-birlariga yaqin ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Jumladan, o'rganilgan 1-test, ya'ni "30 metr masofaga yugurish" vaqti natijalari bo'yicha pedagogik tajriba boshida nazorat guruhi 15 yoshlı futbolchilari ko'rsatkichlarining o'rtacha arifmetik va standart

og'ish qiymatlari $\bar{X} \pm \sigma = 4,73 \pm 0,60$ s. ga (ushbu guruhdagi mazkur test natijalari uchun hisoblangan variatsiya koeffitsiyenti $V = 12,68$ aozini tashkil etgan) teng bo'lgan

bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{X} \pm \sigma = 4,64 \pm 0,602$ s. ga (variatsiya koeffitsiyenti $V = 12,97$ foiz) teng ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhları 15 yoshlı futbolchılarining natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 0,09 s. ni va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy farqi 1,90 foizni tashkil etganligi aniqlandi (1-diagramma).

Xuddi shunga o'xshash holda, 2-test, ya'ni "50 metr masofaga yugurish" vaqti natijalari bo'yicha pedagogik tajriba boshida nazorat guruhi 15 yoshlı futbolchilari ko'rsatkichlarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $\bar{X} \pm \sigma = 8,19 \pm 1,12$ s. ga (ushbu guruhdagi

mazkur test natijalari uchun hisoblangan variatsiya koeffitsiyenti $V = 13,70$ foizni tashkil etgan) teng bo'lgan

bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar $\bar{X} \pm \sigma = 8,38 \pm 1,17$ s. ga (variatsiya koeffitsiyenti $V = 13,96$ foiz) teng ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhları 15 yoshlı futbolchılarining natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 0,19 s. ni va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy farqi 2,32 foizga teng ekanligi kuzatildi.

Shuning bilan birga, pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhları sinaluvchılarining o'rganilgan o'n uchta umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari orasida eng kichik nisbiy farq 8-testda, ya'ni kuch ko'rsatkichlarida (1,73 %), eng katta nisbiy farq esa 6-testda, ya'ni 7x50 m. masofaga makkisimon yugurish vaqti natijalarida (2,91 %) kuzatilgan bo'lsa, ushbu o'n uchta testlar bo'yicha umumiy o'rtacha nisbiy farq 2,30 % ni tashkil etganligi aniqlandi.

Tajriba guruhidagi qayta testlash natijalarida shuni narsa yaqqol namoyon bo'ldiki, ko'rsatkichlarga etobor qaratadigan bo'lsak 9 ta meyordan 5 tasida ishonchlik darajasi $R < 0,05$ ga teng bo'ldi, ikkita testda $R < 0,01$, yana ikkita testda $R < 0,001$ ishonchlik darajasiga chiqqanligi bilan yaqqol ajralib turibdi. Nazorat guruxining ko'rsatkichlariga nisbatan ancha yuqori darajada o'sganligi hamda model ko'rsatkichlarga yaqin ekanligi 3- jadvaldan yaqqol ko'rish mumkin.

2-jadval

Nazorat (n=20) guruhi 15 yoshlı futbolchılarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan testlar bo'yicha qayd qilingan natijalari va ularning statistik xarakteristikalarini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasi

Test t.r	X	sig	V, %	X	sig	V, %	AO*	NO*	t	P
1-	4,73	0,6	12,68	4,32	0,524	12,13	0,41	8,67	1,78	>0,05
2-	8,19	1,122	13,70	7,28	0,956	13,13	0,91	11,11	2,14	<0,05
3	223,27	26,21	11,74	246,37	27,44	11,14	23,1	10,35	2,11	<0,05
4	11,76	1,61	13,69	12,97	1,707	13,16	1,21	10,29	1,79	>0,05
5-	70,39	8,88	12,62	64,34	7,81	12,14	6,05	8,59	1,77	>0,05
6-	66,39	7,73	11,64	59,89	7,28	12,16	6,50	9,79	2,12	<0,05
7	1000,34	127,12	12,71	1114,46	135,56	12,16	114,12	11,41	2,13	<0,05
8	91,24	12,46	13,66	102,57	13,45	13,11	11,33	12,42	2,14	<0,05
9	8,53	0,99	11,61	9,43	1,05	11,13	0,90	10,55	2,16	<0,05
10-	5,32	0,67	12,59	4,87	0,59	12,11	0,45	8,46	1,75	>0,05
11	75,34	10,49	13,92	84,88	11,17	13,16	9,54	12,66	2,16	<0,05
12	18,14	2,28	12,57	20,17	2,44	12,10	2,03	11,19	2,11	<0,05
13-	27,86	3,79	13,60	25,32	3,33	13,15	2,54	9,12	1,74	>0,05
NG								10,35		

Izoh: AO*-absolyut o'sish, NO*-nisbiy o'sish (foizlarda).

Mazkur testlash natijalarining o'zgarish omillari xususida fikr yuritadigan bo'lsak nazorat va tajriba guruxining yillik ish rejasi bir hil bo'lib o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishdagini tafovut borligi ma'lum bo'ldi.

3-jadval

Tajriba (n=12) guruhi 15 yoshli futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan testlar bo'yicha qayd qilingan natijalari va ularning statistik xarakteristikalarini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasi

TG	X	sig	V, %	X	sig	V, %	AO'	NO'	t	P
1-	4,64	0,602	12,97	3,87	0,47	12,14	0,77	16,59	3,49	<0,01
2-	8,38	1,17	13,96	6,37	0,84	13,19	2,01	23,99	4,83	<0,001
3	217,48	25,97	11,94	264,97	29,49	11,13	47,49	21,84	4,19	<0,001
4	11,98	1,672	13,96	14,53	1,91	13,15	2,55	21,29	3,48	<0,01
5-	68,94	8,93	12,95	56,72	6,87	12,11	12,22	17,73	3,76	<0,01
6-	68,32	8,17	11,96	54,46	6,08	11,16	13,86	20,29	4,71	<0,001
7	1022,16	132,37	12,95	1257,44	152,48	12,13	235,28	23,02	4,04	<0,001
8	92,82	12,95	13,95	116,68	15,29	13,10	23,86	25,71	4,13	<0,001
9	8,31	0,996	11,99	10,26	1,14	11,11	1,95	23,47	4,46	<0,001
10-	5,46	0,707	12,95	4,49	0,55	12,25	0,97	17,77	3,75	<0,01
11	77,01	10,77	13,99	96,36	12,68	13,16	19,35	25,13	4,03	<0,001
12	17,63	2,29	12,99	21,76	2,64	12,13	4,13	23,43	4,09	<0,001

O'rganilgan o'n uchta umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlarida qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlari absolyut farqining statistik ishonchlilik ko'rsatkichlarini hammasi turli juda yomon ($R > 0,7$ bilan $R > 0,5$ oralig'ida hamda $t = 0,30$ bilan $t = 0,55$ oralig' intervalida joylashgan) ahamiyatlilik darajalarida ishonchsiz ijobiy o'zgarishni kuzatildi.

Bundan tashqari, tajriba boshida nazorat guruhida o'rganilgan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar natijalari asosida aniqlangan variatsiya koeffitsiyenti ko'rsatkichlari $V = 11,64\%$ bilan $V = 13,92\%$ oralig'ida, tajriba guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar $V = 11,94\%$ bilan $V = 13,99\%$ intervalida joylashgan qiymatlarga ega bo'lganligi hamda ushbu qiymatlar gradatsiyaning qoniqarli bo'limining ijobiy qismida joylashganligi aniqlandi.

Ushbu zikr etilgan faktlar pedagogik tajribani uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini isboti hisoblanadi.

Jumladan tajriba guruhida mashg'ulotlarni tashkil etishda jismoniy sifatlarni rivojlantiriga qaratilgan vositalarni asosan tayyorgarlik davrining umumtayyorlov bosqichida qo'llash mexanizmi yaratilgan bo'lib bunda asosan quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratiladi:

-qo'llanilayotgan mikrotsikllardagi jismoniy tayyorgarlikka yo'naltirilgan vositalarni mikrotsikl maqsad vazifalari asosida taqsimlash;

- vositalarni qo'llashda aylanma mashg'ulot usulidan foydalanish;

- yuklamalarni ta'sir e'tish darajalariga ko'ra nazoratni uzluksizligini ta'minlash;

- mashg'ulotni individuallashtirish;

Mazkur omillar 3 oy mobaynida tajriba guruxidagi futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali o'sishiga zamin yaratib berdi.

Xulosa va takliflar. Nazorat va tajriba guruhi futbolchilarning tajriba boshida va so'nggida olingan natijalardagi o'zgarishni inobatga olib yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda tayyorgarlik davrida mikrotsikllarni tuzishda mazkur yo'nalishga oid vositalarni qo'llash usullarini ilg'or tajribalar asosida tashkil etish katta samara berishi mumkin. Yana bir jixat shundan iboratki aylanma mashg'ulotlardan foydalanish aynan jismoniy sifatlarni rivojlantirishda katta samara berishi mumkin. Shu sababli tajriba guruxida qo'llanilgan ushbu usullar samarali bo'lib mikrotsikllar mazmunini optimallashtirish va yuklamalar hajmi va me'riini aniq belgilash asosida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2023 yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-115-sonli qarori. <http://Lex.uz>.
2. Нуримов Р.И, Курбанов О.Л, Усмонов. А.М. Физическое подготовки футболистов. Учебная пособие. Ташкент. 2009. С. 95-97.
3. Iseyev SH.T. Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish - T., Ilmiy texnik axborot press nashriyoti 2014.- B. 239.
4. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов, Учебное пособие. Т.2001.124 с.
5. Плон Б.И. Новая школа в футбольной тренировки. Терра спорт 2002.-240 С.
6. Helgerud, J., Engen, L.S., Wisloff, U. & Hoff, J. (2001). Aerobic endurance training improves soccer performance. Med.Sci Sports Exercise, 33 (11)



Ikramjon MASHARIPOV,
Toshkent moliya instituti dosenti, siyosiy fanlar nomzodi
E-mail: ikrommasharipov1967@gmail.com

O‘zJOKU professori, siyosiy fanlar doktori M.Qirg‘izboev taqrizi asosida

SOME CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF POLITICAL PARTIES IN UZBEKISTAN

Annotation

In the scientific article, problems and solutions of the processes of development of the system of political parties in Uzbekistan. Activities of political parties as the main subject of civil society, their main goals and tasks, scientific theoretical aspects of their activities. Party institutions and political parties, interest groups have a special importance. Definitions and views of political parties, factors determining the effectiveness of political parties, as well as the author's analytical opinions on strengthening the role of political party institutions development.

Key words: Political parties, civil society, social stratum, political goal, political pluralism, specific features of the party system.

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR RIVOJLANISHING BA‘ZI MEZONLARI

Annotatsiya

Ilmiy maqolada O‘zbekistonda siyosiy partiyalar tizimining rivojlanishi jarayonlarini muammo va echimlari. Siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining bosh sub'ekti sifatida faoliyat olib borishi, ularning asosiy maqsad va vazifalari, faoliyatini ilmiy nazariy jixatlari. Partiyaviy institutlar va siyosiy partiyalar, manfaatlar guruxining aloxida ahamiyatga ega. Siyosiy partiyalarga oid ta'riflar va qarashlar, siyosiy partiyalar faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar, shuningdek, siyosiy partiya institutlarini rivojlantirish rolini kuchaytirish borasida muallif tahliliy mulohazalari shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy qatlam, siyosiy maqsad, siyosiy plyuralizm, partiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.

НЕКОТОРЫЕ КРИТЕРИИ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В научной статье рассмотрены проблемы и пути решения процессов развития системы политических партий в Узбекистане. Деятельность политических партий как основного субъекта гражданского общества, их основные цели и задачи, научно-теоретические аспекты их деятельности. Особое значение имеют партийные институты и политические партии, группы интересов. Определения и взгляды на политические партии, факторы, определяющие эффективность политических партий, а также аналитические взгляды автора на усиление роли развития институтов политических партий.

Ключевые слова: Политические партии, гражданское общество, социальный слой, политическая цель, политический плюрализм, особенности партийной системы.

Kirish. Har qanday insoniy jamiyat tirik organizm sifatida yashab va rivojlanib boradi. Mana shu organizmning birorta a'zosi ishdan chiqsa, jamiyat qandaydir kasallikka uchraydi. Jamiyatning "siyosiy partiyalar" deb atalgan unsuri o'z funksiyasini bajara olmasa, birinchidan, saylovchilar – elektoratning siyosiy manfaatlarini siyosiy tizimda namoyon bo'lmaydi, ular himoya qilinmaydi; ikkinchidan, fuqarolar ishtirok etadigan haqiqiy partiyalar mavjud emasligi uchun ular ijtimoiylasha olmaydi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etmaydi, o'zlarining vakili – deputatlarning faoliyatini nazorat qila olmaydi, natijada elektorat nafaqat partiya, balki parlament bilan munosabatlarga kirisha olmaydi. Oxir-oqibatda partiya va parlament fuqarolar manfaatlarini va ehtiyojlari asosida emas, balki o'zlarini o'ylab topgan rejalari asosida xalqdan ayro holda (og'izda xalq nomidan) faoliyat yurita boshlaydi; uchinchidan, partiyalar faoliyat sust bo'lsa, ular o'zlarining siyosiy elita tizimiga kiritadigan kadrlar zahirasini ham yaratmaydi.

Natijada deputatlikka nomzodlar etrali darajada ijtimoiylashmaganligi va kuchli partiyalar o'zaro raqobatdoshligi kurashlarida yaxshi "pishmaganligi" uchun parlament yoki boshqa quyi vakillik organlarida yaxshi faoliyat yurita olmaydi; deputatlar etuk, intellektual jihatdan salohiyatli

bo'lmagnidan keyin amalda ishlaydigan qonunlar ishlab chiqish va ular ijrosini nazorat qilish jarayonlari ham izdan chiqadi; parlamentning muntazam nazoratini sezmagani hukumat demokratik qadriyatlar talablariga javob bera olmaydi, ustiga-ustak hokimiyatning uchga bo'linish prinsipiga putur etadi; to'rtinchidan, sust, faol bo'lmagan, o'z dasturlarini amalga oshira olmagan partiyalarga nisbatan xalqning ishonchi yo'qoladi, partiyaning deputatlikka ko'rsatgan nomzodlarining aksariyat qismi saylovchilar ovozi o'lmaydi, partiyaning parlamentdagi fraksiyasi doimiy ravishda ozchilikni tashkil etadi; beshinchidan, faollikka erisha olmagan siyosiy partiya xalq bilan davlat o'rtasidagi vakillik funksiyasini bajara olmaydi, partiya ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini parlament va vakillik organlariga tashuvchi institut sifatidagi rolini boy beradi, bu holat fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan (jamiyat organizmi a'zolaridan) birining ishlamayotganligini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy partiya o'xshash institutlar G'arb va Sharqda qadimdan mavjud bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, siyosiy partiyalar qadimgi Yunonistonda tashkil topgan bo'lib, ular oldin juda ozchilikni o'z saflarida birlashtirgan. Ular tarkibi jihatidan juda tor doirada uyushgan siyosiy tashkilotlar bo'lgan. Ular asosan

jamiyatdagi turli sinflarning manfaatlarini emas, balki quldorlar sinfi ichidagi xilma-xil siyosiy oqimlar manfaatlarini ifoda etgan. Afinada geteriylar, Rim optimat va populyarlari antik davrida siyosiy partiya vazifalarini bajarishgan. O'rtasrlarning siyosiy hayotida ham siyosiy partiyalar o'z mohiyati jihatidan bir oz farq qilgan. Faqat mustabidlik yoki mutlaq hukmronlik tuzumlarida siyosiy partiyalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ochiq harakat qila olmagan. Sanoatlashtirish davriga qadar siyosiy partiyalarning universal shakli klanlar va maxfiy tashkilotlar edi[1]. Klanlar asosan qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan kishilardan iborat edi. O'rtasrlar Angliyada Yorklar va Lankasterlar, Arabistonda (o'rtasrda) esa alaviylar («Ali partiyasi»), Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik prinsiplarining siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida ahamiyati katta.

Rivojlangan davlatlar siyosiy tizimida ochiq xatti-harakat qiladigan birdan-bir siyosiy kuch bu siyosiy partiyalardir. Ular jamiyat a'zolarini uyushtiruvchi tuzilma bo'lganligi uchun fuqarolik jamiyatining muhim instituti hisoblanadi. Guruhiy va individual manfaatlarini, vakillikni namoyon etishda fuqarolik jamiyatida siyosiy partiyalardan afzalroq omil topilmaydi. Shuningdek, partiyalarning o'zaro raqobati va munosabatlarisiz siyosiy tizimni demokratlashtirib bo'lmaydi. Demak partiya instituti – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va sosiomadaniy evolyusiyasi natijasi hisoblanadi. XIX asrning birinchi yarmida amerikalik jamoat arbobi Van Byuren siyosiy partiyalarning mavjudligi va uzluksiz partiyaviy ixti-loflarni davlat rivojlanishining ijobiy omili, deb baholagan.

U partiyalarning jamiyat uchun zaruriyatini ijtimoiy ixtiloflarning yashovchanligi, ularga barham berishning iloji yo'qligi bilan bog'laydi. Van Byuren ozchilik tomonidan hokimiyatni suiste'mol qilish xavfi doimo va hamma joyda yuz berishini nazarda tutib, «boylik tug'diradigan eng kuchli his-tuygu – bu iloji boricha doimiy ravishda hokimiyatni qo'lda tutib turishga intilishdir», «pul oligarxiyasini paydo bo'lishi jarayonining o'ta xudbinlikka asoslanishi, uning hokimiyatni barcha manbaalarini monopoliya qilib olishi kabi holatlar ko'pchilikni o'z manfaatlarini himoya qila olishiga imkoniyat yaratish zaruratini keltirib chiqardi[2]

Parlamentning muntazam nazoratini sezmagani hukumat esa demokratik qadriyatlar talablariga javob bera olmaydi, ustiga-ustak hokimiyatning uchga bo'linish prinsipiga putur etadi. Sust, faol bo'lmagan, o'z dasturlarini amalga oshira olmagan partiyalarga nisbatan xalqning ishonchi yo'qoladi, partiyaning deputatlikka ko'rsatgan nomzodlarining aksariyat qismi saylovchilar ovozini olmaydi, parlamentdagi fraksiyasi doimiy ravishda ozchilikni tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Шу билан бирга, qayd etish kerakki mamlakatimizda siyosiy partiyalarning tashkil topganiga chorak asr dan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, ular haqiqiy demokratik prinsiplar asosida ishlaydigan, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan institutlar darajasiga ko'tarilish jarayonini haliyam davom ettirmoqda[3]. Muddat bu qadar uzayib ketayotganining esa albatta, ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Siyosiy partiyalar o'tish davriga xos bo'lgan holatlar – uyushmagan yoshlarning ko'payishi, ularning xalqaro migrasiya girdobiga tortilishi, bandlik kabi dolzarb muam-molarni hal etishda chetda qoldi.

OB'EKTIV SABABLAR:

- mamlakatimiz tarixida demokratik prinsiplar sharoitida faoliyat yuritadigan siyosiy partiyalarning bo'lmaganligi, ya'ni bu holatda poydevor omili (deyarli bir asr oldingi jadidlar siyosiy partiyalarini istisno etganda);

-mustaqillikning o'tgan chorak asri ichida siyosiy partiyalar tuzish va ularga etakchi lik qilish salohiyatiga ega bo'lgan ziyolilar va siyosatchilar qatlaminig to'la shakl lanmaganligi;

- bozor iqtisodiyotiga xos boshqaruv va hayot tarzining jamiyat barcha jabhalariga to'liq kirib borolmagani natijasida davlat boshqaruvining amalda («de-fakto») jamiyatning barcha sohalarida ustuvorlik qilishi o'laroq fuqarolik jamiyati institutlari unsurlarining sust rivojlangani;

-elektorat tomonidan siyosiy partiyalarga ishonch pasaygani, shu tufayli siyosiy partiyalar faoliyatining deklarativ holatda kechishi; aholida hali fuqarolik jamiyatiga xos siyosiy madaniyatning to'liq shakllanmagani, ularda siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etishning demokratik prinsiplari asosida harakat qilish tajribasining etishmagani.

SUB'EKTIV SABABLAR.

-aksariyat partiya boshlang'ich tashkilotlarining qog'ozdagina mavjud bo'lgani, partiya larning ayrim a'zolarida siyosiy kuchga daxldorlik hissing yuqori emasligi, par tiya rahbar organlariga partiya a'zolari ergashadigan salohiyatli etakchilar doim ham jalb etilmagani;

- partiyalar faoliyatida partiya xos bo'lmagan tadbirlar tashkil etilishi, bu ishlarni aksariyat hollarda kasaba uyushmalari va NNT takrorlashi, par tiya dasturlarini targ'ib etish, partiyaviy intizom, partiya mafkuralarini a'zolar dunyoqarashiga singdirish kabi tashkiliy faoliyatning kamligi;

-partiyaviy ishlar asosan tuman, shahar, viloyat va markaziy partiya organla-rida olib borilib, boshlang'ich partiya tashkilotlarining o'z holiga tashlab qo'yilganligi, ularning deyarli harakatsizligi, natijada partiyalarning elektoratdan uzilib qolganligi;

-partiyalar rahbariyatining yuksak intellektual salohiyatga, erkin fikrlaydigan, tashabbuskor, boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish qobiliyatiga ega kadrlar hisobiga o'z imkoniyatlarini oshirishga doir chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirmagani;

-partiyaning saylangan yuqori organlarida boshqaruvning ma'muriy va buy ruqbozlik usulida olib borilishi natijasida quyi mahalliy partiya tashkilotlarida tashabbus ko'rsatish, boshqaruvning yangi texnologiyalaridan foydalanish, partiya a'zolari manfaatli bilan partiyaviy boshqaruv maqsadlarini uyg'unlashtirish kabi ijtimoiy menejmentni va NNTga xos nomarkazlashgan boshqaruv tendensiyaning faollashmagani;

-partiyalar dasturlari, saylovoldi dasturlari va nizomlarida a'zolar va elektoratning manfaatli yaxshi ifodalanmaganligi va hokazo.

Tahlil va natijalar. Bu sxemada xalq va jamiyat ijtimoiy qatlamlari manfaatli siyosiy partiya vositasida qonunlarda va davlat hokimiyati organlarini xalq nomidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi. Siyosiy partiya bir tomondan, o'z ijtimoiy tayanchi-ijtimoiy qatlamlar bilan, ikkinchi tomondan, o'zi nomzodini ko'rsatgan deputatlar bilan, uchinchi tomondan partiya xayrixohlar – elektorat bilan doimiy ravishda muttasil o'zaro aloqalarda, mustahkam birlikda, ular bilan umummaslakka erishishda yashamas ekan, uni partiya deb atab bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasida “ Nima uchun siyosiy partiyalar faqat saylovlar paytida faollashib, keyin, ta'bir joiz bo'lsa, dami chiqqan shardek bo'shshib qoladi? Axir, ular ovoz olish uchun xalqqa qancha-qancha va'dalar bergani haqiqat-ku! ...Bir fikrni takror va takror aytishni o'rinni, deb bilaman: olib borayotgan islohotlari mizning muvaffaqiyati, avvalambor, siyosiy partiyalarning etuklik darajasiga, ularning jonajon Vatanimiz

oldidagi mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog'liqdir"[4].

Jamiyat hayotida har bir insonning manfaatları turli-tuman bo'ladi. Lekin, ular ichida bitta asosiysi bo'lib, bu haqda G. Gegel: «insonni o'zini o'zi hayotda amalga oshirishi (realizatsiya qilishi) – uning bosh manfaatidir», – degan edi. amalga oshirish imkoniyatini topolmasa, hafsalasi pir bo'ladi, «mudroq» partiyaning «mudroq» a'zosi ga aylanadi. Demak, siyosiy partiya o'zining tarafdorlari, xayrixohlari manfaatlarini astoydil himoya qilsa, u faollashadi, himoya qila olmasa «siyosiy rollar o'ynaladigan» sahna dan tushib ketishga majbur bo'ladi. Sust, faol bo'lmagan, o'z dasturlari ni amalga oshira olmagan partiyalar ga nisbatan xalqning ishonchi yo'qoladi.

Bunday siyosiy partiya xalq bilan davlat o'rtasidagi vakillik funksiyasini bajara olmaydi. Bu-fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri ishlayotganini anglatadi. Sababi ma'lum, chunki, xalqimiz yaxshi biladi – fuqarolar murojaatlarida ko'tarilgan masala larni hal etish uchun partiyalarning resurslari etarli emas. Vaholanki, ijtimoiy muammolar echimini topish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish barcha partiyalarning dasturlari da balanparvoz so'zlar bilan bitib qo'yilgan. Fuqarolik jamiyati yoki demokratik shart-sharoitlarda odatda siyosiy partiyalarga «idora etuvchi partiya» yoki «muxolif partiya» iboralari qo'llaniladi.

Idora etuvchi partiya bo'lish uchun partiya nomzodlari parlament quyi palatasi a'zolarining yarmidan ko'proq o'rinni egallashi lozim. Bizda hozirgacha hali birorta partiya bu kabi yuksak maqomni egallagan yo'q (ehtimol, bu galgi saylovlar istisno qilinar). Mohiyatan olganda, bu kabi imkoniyatlar birbirilari bilan kuchli muxolifatda bo'lgan siyosiy partiyasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda ro'yobga chiqadi. Buning uchun esa eng zaruriy mexanizm – partiyalararo konstruktiv o'zaro muxolifatlik kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 fevral 2021 yil mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar rahbarlari bilan uchrashuv chog'ida partiyalarning jamiyatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'rni va rolini oshirish masalalari, bugungi kunda ular oldida turgan asosiy vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi. Davlat va jamiyat hayotiga doir keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirishda, xalqimiz huquq va manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalarning o'rni kattaligi ta'kidlandi[5].

Mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy-ijtimoiy sohalarini qamrab olgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu boradagi ishlarining ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy kengashlarga ulkan mas'uliyat yuklaydi, ijtimoiy sohalar, ayniqsa, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish. Siyosiy partiyalar o'z deputatlari orqali joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganishi, ularning echimi bo'yicha takliflar berishi, ayniqsa, ta'sirchan Parlament va jamoatchilik nazoratini olib borish. Partiyalar o'z elektorati, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar va nuroniyalar bilan ishlash, ularning hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlashga ko'maklashish. Har bir partiya o'z dasturiy maqsadlarini Parlamentga faol olib chiqishi, o'z fraksiyalari

ADABIYOTLAR

1. Основы политологии. -М.: МГУ, 1992. -С134-138.
2. Гаджиев К.С. Политическая наука. Учебное пособие. 2-е изд. -М.: Международ. отношения, 1995. -С. 150-152.
3. Қирғизбоев Муқимжон. Фуқаролик жамияти: Сиёсий партиялар мафқуралар маданиятлар. – Тошкент: “Шарқ”, 1998. – Б.41-42.
4. Мирзиёев.Ш Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. 13.07.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/781>.

-
5. Мирзиёев.Ш Сиёсий партиялар раҳбарлари билан учрашуви. <https://kun.uz/news/2019/08/22/shavkat-mirziyoyev-siyosiy-partiyalar-rahbarlari-bilan-uchrashdi>
 6. Masharipov I.B. Factors of development processes of socio-political bases of NGOS in new Uzbekistan // International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research, Volume: 13 Issue: 01 in January-2024.



Fatxulla MIRAXMEDOV,
TDPU professor v.b

TVChDPI dotsenti, PhD A.Abdulaxatov taqrizi asosida

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARIDA VATANPARVARLIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRATIV-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlaridan “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo‘lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Mazkur takliflar bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika.

ИНТЕГРАТИВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация

Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении "концепции непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компетентности лояльности к Родине. Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключевые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика.

INTEGRATIVE AND PEDAGOGICAL FEATURES OF IMPROVING THE PATRIOTIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased.

These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them.

Key words: Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy.

Kirish. Talabalik – shaxsning kasbiy shakllanishi va ma‘naviy kompetentligining rivojlanishi nuqtai nazaridan muhim yosh davri. Mazkur yosh davri o‘zining alohida ehtiyojlari, shaxsning sifat jihatdan o‘zgarishi, psixik hayotning o‘ziga xosliklarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Biz o‘z tadqiqotimizda mazkur yosh davrining quyidagi o‘ziga xosliklariga e‘tiborimizni qaratdik: yoshlar o‘zlarining rejalarini tuzib, mustaqil hayot tarzini belgilab va biror-bir kasbni o‘zlashtirishga harakat qila boshlaydi. Yoshlar nafaqat o‘zini katta hayotga qadam qo‘yayotganligini tasavvur qiladi, balki unda haqiqatdan ishtirok etadi.

Yoshlar uchun bo‘lg‘usi kasbiy intilish (kelajakni xayol, tasavvur va istaklar orqali tasavvur qilish) va emotsional qoniqmaslikni yuzaga keltirib chiqaradigan mavjud holatga qo‘shila olmaslik xos hisoblanadi.

Tadqiqot ob‘ekti bilan bog‘liqlikda pedagogning kasbiy faoliyati, bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning o‘ziga xosliklariga ham tavsif berib o‘tamiz hamda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash tuzilmasida kognitiv kompetentlikning o‘rni va rolini bayon etamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bir qator olimlar (V.V.Kraevskiy, Ye.A.Kryukova, V.V.Serikov tomonidan kasbiy ta‘lim jarayoniga yangicha yondashuvni qaror toptirish

yo‘llari va ularning mohiyati borasidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular o‘z ishlarida kasbiy pedagogik ta‘limning asosiy vazifasi, o‘qituvchining mavjud ilmiy bilimlar bilan qurollantirishdangina iborat emas, balki uning shaxs sifatida o‘z mavqeini belgilab olishi, o‘zligini anglashi, ijtimoiy muhitga nisbatan munosabatini shakllantirishda yordam berishi lozim bo‘lgan vosita sifatida qaraydilar. Ta‘lim oluvchilarga bilim berishda o‘z fikrini yoqlash, mavhumlik va avtoritar mavqeni egallashga urinish hissidan xalos bo‘lishni ta‘minlash lozim bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligining yuqori darajada bo‘lishiga erishish quyidagi holatlarda mavjudligini taqozo etadi: o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy shakllanish darajasi bu yo‘lda tashkil etilgan jarayonning umumiy mohiyatini yorituvchi pedagogik tizim samaradorligiga chambarchas bog‘liq; o‘qituvchining kasbiy jihatdan shakllantirishni ta‘minlovchi jarayonlarining tashkiliy boshqaruvi maqsadga muvofiq tarzda takomillashib boradi.

N.Muslimovning fikricha, kasbiy shakllanish – shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog‘liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha

ehtiyotlar majmuasini, uning borliqqa, atrofda qilarga, o'ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi).

N.M.Egamberdieva talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan "kasbiy yetuklik" tushunchasini qo'llashni taklif etadi va uning mohiyatini quyidagi tarzda talqin etadi: kasbiy yetuklik (professional-lashuv) ta'limni shunday yo'naltirilganligi, unga ko'ra talabalar tomonidan kasbiy faoliyatning qadriyatli mazmunining aniqlanishi hamda qabul qilinishi, talabaning o'zini mazkur faoliyatning sub'ekti sifatida anglashi, o'zining kasbiy rivojlanishi, shu bilan birga ish martabasidan kelib chiqib maqsadlarini rejalashtirishi va unga erishish usullariga egalik qilishi zarur bo'ladi.

A.S.Valeev, A.V.Grishinlarning fikricha, kasbiy ta'lim rivojida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning ko'p bosqichli (bakalavr, magistr) tizimiga o'tilishi bilan bog'liqlikda kasbiy ta'limning texnokratik paradigmasidan ijtimoiy va shaxsiy yo'naltirilgan modelga o'tish yo'nalishlari aniqlashtirildi.

A.V.Reprinsev o'qituvchini kasbiy tarbiyalashning asosiy g'oyalari sifatida uning kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining nafaqat madaniyat sub'ekti, balki ob'ekti, u nafaqat yangi avlod madaniyatini shakllantiradi, balki uning o'zi ham mazkur jarayon mahsuli ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ob'ekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi bu ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, texnologik hamda maxsus bilimlarning ochiq, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi tizimi bo'lib, u davr talabi hamda tadqiqotlar natijalari asosida mazmunan o'zgarib, uzluksiz ravishda mazmunan boyib boradi.

O'zbekiston uzluksiz ta'limining 110000 – Pedagogika ta'lim sohasining Davlat ta'lim standartida bitiruvchilarning kasbiy faoliyatining asosiy turlari va ularga qo'yiladigan umumiy malaka talablari quyidagicha belgilab berilgan:

pedagogik faoliyatida:

ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg'unligiga erishish;

ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiylikni hisobga olish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

ta'lim tizimini axborotlashtirish jarayonida o'quvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirish;

ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarni milliy mentalitetga mosligini ta'minlash qobiliyatlariga ega bo'lishlari kerak;

ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borishda ishtirok etish;

Internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilishda ishtirok etish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq qilishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak;

ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqbol g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri hamda tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak;

tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar bo'lajak pedagog kasbiy faoliyati oldiga qator vazifalar qo'yiladi:

- ekologik – kasbiy faoliyatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish;

- o'quv – uzluksiz kasbiy ta'lim va mustaqil ta'lim (kasbiy muammolarning yechimini topish uchun foydalaniladigan axborotlarni izlash, tahlil etish va saqlash);

- ijtimoiylashuvga doir – ijtimoiy aloqalarni o'rnatish; ish natijalarini prognoz qilishda inson omilini hisobga olish.

Xulosa va takliflar. So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarda yoshlarning vatanparvarligini rivojlantirish, yuksak ma'naviy madaniyatini o'stirish uchun barcha ta'sirchan pedagogik mexanizmlardan foydalanishga urg'u berilmoqda. Intelktual rivojlangan yoshlar jamiyatning moddiy va ma'naviy kapitalini tashkil qiladi. Shu sababli, jamiyatimiz yoshlarini har tomonlama kamol toptirish, ularni o'z millati va Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalash zarurdir.

Demak, jamiyatimizning bugungidek tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan pallasida yoshlarimizda, ularning juda salmoqli qismi bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik sifatini pedagogik tahlil qilish va baholash masalasi muhim pedagogik fenomen sifatida talqin qilinishi lozim. Shu bois, jamiyatimiz a'zolarining har birida, jumladan talabalarda ham o'zligini anglash, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurati oshib bormokda. Bu esa, chinakam vatanparvar, yuksak ma'naviy madaniyatli shaxslarni tarbiya-lash demakdir.

ADABIYOTLAR

1. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 136 b.
2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. –Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классов казахской школе в процессе изучения родной литературы (На меатериале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.



Nuriddin NARZULLAYEV,
Navoiy viloyati PYMO'MM mustaqil tadqiqotchisi

Navoiy viloyati PYMO'MM dotsenti K.Astanakulov taqrizi asosida

GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARIDA GUMANISTIK QARASHNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada geografiya o'qituvchilarida gumanistik qarashni shakllantirishning ahamiyati va yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, geografiya o'qitish metodikasining asosiy funksiyalari va geografiya o'qituvchilariga qo'yilgan muhim talablar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Geografiya o'qitish metodikasi, didaktika, estetik munosabat, amaliy metodologik muammolar, tarbiyaviy maqsadlar, g'oyaviy-siyosiy jihat, geografik bilim.

FORMING A HUMANISTIC VIEW OF GEOGRAPHY TEACHERS

Annotation

This article provides information about the importance and ways of forming a humanistic view of geography teachers. Also, the main functions of geography teaching methodology and the important requirements for geography teachers are considered in the article.

Keywords: Geography teaching methodology, didactics, aesthetic attitude, practical methodological problems, educational goals, ideological and political aspect, Geographical knowledge.

ФОРМИРОВАНИЕ ГУМАНИСТИЧЕСКОГО ВЗГЛЯДА УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

В данной статье представлена информация о значении и путях формирования гуманистического взгляда учителя географии. Также в статье рассмотрены основные функции методики преподавания географии и важные требования к учителям географии.

Ключевые слова: Методика преподавания географии, дидактика, эстетическое мироощущение, практически-методические проблемы, образовательные цели, идейно-политический аспект, географические знания.

Kirish. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi. Barcha fanlarda bo'lganidek maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytadan ko'rib chiqildi. Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash munosabati bilan o'qitish metodikasida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zamonamizning xilma-xil muammolarini, jumladan, ta'lim muammolarini hal qilish inson qadr-qimmatini, ezigulik tekisligida amalga oshirilishi kerakligi, dunyoqarashning gumanistik g'oyalari borliq haqidagi bilimlar tizimi sifatida, insonga munosib hayot yaratishda odamlarni birlashtiradigan umumiy narsani tashkil qilishi kerak. Zamonaviy ko'p qutbli dunyoning obyektiv tendensiyasi sifatida globallashuv tomonidan aniqlangan muammolarni hal qilishda ta'limning roli insonning axloqiy tanlov qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lib, bu unga yaxshilik qiymati umumiy axloqiy, qadriyat bilan belgilanganligini anglash imkonini beradi. Dastlab geografiya fani va geografiya o'qitish metodikasi fanlariga aniqlik kiritib ushbu tushunchalarni farqlab olamiz.

Adabiyotlar tahlili. Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning

tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta'limi metodikasi esa maktablarda va kasb-hunar texnikumlarida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır. Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan[1]. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonining umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandır. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayrimlarining maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, biologiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishni shakllantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga "Geografiya o'qitish metodikasi" fani ham kiradi. Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlar mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

a) geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tatqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

b) geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umumiy hamda alohida predmetlar bo'yicha aniqlash;

v) ta'lim va tarbiyaning birligi, nazariy tatqiqotlarning natijalari amaliy tatqiqotlar uchun asos hisoblanadi[2].

Mazkur tatqiqotlarda geografiya ta'limining amaliy muammolari hal qilinadi. Geografiya o'qitish metodikasining amaliy jihatlari o'qituvchini o'qitish faoliyatini, o'quvchini o'qish faoliyatini aks ettiradigan metodlarni ishlab chiqishdan iborat. Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat. Umumiy va xususiy geografiya o'qitish metodikasi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi, bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatini o'rganadi.

O'quvchilarga bilim berish va ularni tarbiyalash dars jarayonida olib boriladi. Shuning uchun dars geografiya ta'limining eng asosiy va markaziy qismi hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi darsga ajratilgan aniq vaqt davomida belgilangan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishadi. Har bir darsning maqsadi aniq ifodalangan bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilar ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni samarali bilish uchun geografiya darslariga qator talablar qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat: darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini aniq ishlab chiqish; dars mazmunining ilmiyligiga erishish; dars o'quvchilarni kasbga yo'naltirishi lozim; tanlangan o'qitish metodi dars mazmuniga mos kelmog'i lozim; geografiya darslarida predmetlararo aloqalar o'rnatilishi lozim (integratsiya); har bir dars ekologik yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim; har bir geografiya darsida o'lkashunoslik tamoyillari hisobga olinmog'i zarur[3].

Geografiya darslarining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini to'g'ri va aniq ishlab chiqish, dars samaradorligini belgilab beradi. Dastlab darsning ta'limiy maqsadlari ishlab chiqiladi. Buning uchun: geografik borliq, voqea va hodisalar haqida tasavvurlar, ilmiy tushunchalar, tamoyillar, qonuniyatlar shakllantiriladi; asosiy ilmiy ma'lumotlar va bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi; geografik ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish ta'minlanadi va takomillashtiriladi; umumiy ko'nikmalarni shakllantirish davom ettiriladi (javoblarni rejalashtirish, darslik bilan ishlash, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash va h.k.); dunyoqarash, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy va kasbga yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish; mehnat va estetik tarbiya berish; o'quvchilar tafakkurini, qiziquvchanligini rivojlantirish. Geografiya darslari aniq tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Bu esa o'quvchilarni vatanparvarlik, aqliy, g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga imkon beradi. Geografiya darslari olamning yaxlitligi g'oyasini shakllantirishga, geografik voqea va hodisalar hamda xo'jalik faoliyati orasidagi sabab va oqibatlarini ochishga yo'naltiradi. Darsning tarbiyaviy vazifalariga Vatanimizning mustaqillik davrida rivojlanishini o'rganish, mustaqil mamlakatimizning erishgan yutuqlarini ko'rsatish, fan, madaniyat va sport sohasidagi yutuqlarimiz ruhida tarbiyalash katta samara beradi. Darsning aniq vazifalari undan oldingi va keyingi darslarning maqsadlari bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

Yuqoridagi bilimlardan tashqari dastur va darsliklarda uchramaydigan qo'shimcha bilimlar ham ishlatiladi[4]. Masalan, davlatlar bayrog'i, gerbi (tamg'asi), aholining turmush sharoiti, odatlari haqidagi bilimlar o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladi, qo'shimcha material darsda qo'shimcha vaqt bo'lganida foydalaniladi. Geografik bilimlarni hayot bilan bog'lash geografiya darslariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. Geografiya predmetlarida beriladigan bilimlarning deyarli barchasi hayot bilan bog'langan. Atrof-muhitni muhofaza qilish, siyosiy, iqtisodiy soha bo'yicha davlat qarorlari geografik bilimlarni hayotga bog'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Atmosfera" mavzusini o'tishda atmosfera havosini muhofaza qilish va qo'riqlash bo'yicha davlat qarorlariga suyanmoq lozim. O'zbekistonning

iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganishda mamlakatimiz prezidenti asarlari, davlat qarorlariga asoslanmoq zarur. Mazkur materiallardan dars jarayonida foydalanish uchun mavzu mazmuniga mos bo'lgan ma'lumotlarni topmoq kerak. Shundaygina o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni hayot bilan bog'lay oladi. Darsning kasbga yo'naltirilganligi. Geografik bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida o'quvchilar juda ko'p kasblar bilan tanishadi. Masalan, Boshlang'ich tabiiy geografiya kursida plan va karta mavzusi o'tilganida geodezist va topograflar kasbi haqida, litosferani o'rganishda geologlar kasbi haqida, gidrosferani o'rganishda gidrolog kasbi, iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodchi va boshqa kasblar haqida bilimlar hamda ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari har bir qit'a va materiklarni tekshirish tarixini o'rganganda sayyohlar va olimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi. Olimlar kasbi haqidagi ma'lumotlar turli xil qonun va qonuniyatlarni ochgan olimlar hayoti va faoliyatini o'rganishda berib boriladi.

Natija va muhokama. O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda bugungi kun ta'lim vositalarining roli katta. Shuningdek, har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim beriladi. Bu borada geografiya fanining alohida o'ziga xos tomonlari mavjud. Ma'lumki, geografiya ayni vaqtda ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi[5]. Shu sababdan bu fanning qamrovi keng, uning nigohida butun mavjudot ko'rinishi (obrazi) gavdalanadi. Lekin geografiya obyektiv borliqni "donalab" (yakkalab) o'rganmaydi, unga majmual va tizimli yondashadi. Geografik fikrlash, geografik madaniyat va tafakkurning asl mohiyati ham shunda. Geografiya fani inson dunyoqarashi uchun ham o'ta muhim bo'lgan fandır Insoniyat tamadduni ayni shu borliq haqidagi ta'lim tufayli ravnaq topgan. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tinimsiz mehnat va muntazamlik asosida ish olib borishni talab qiladi. Geografiya ta'limini shunday tashkil qilish kerakki, tabiat va xo'jalikda sodir bo'ladigan voqea va hodisalar bog'liqlikda, aloqadorlikda, doimiy o'zgarishda va rivojlanishda ekanligini har bir o'quvchi mustahkam egallashiga e'tibor berish kerak. Geografik qobiqda bo'lib turadigan hodisalarni o'quvchilar mustaqil baholay olishga erishmog'imiz lozim.

Demak, yuqoridagilardan shu narsa ko'rinadiki, maktab geografiya mazmunida falsafiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va sof geografik mazmundagi g'oyalalar bor. Ularni darslarda bir-biridan ajratish samarali natija bermasligini tajribalar ko'p marta isbotlagan. Ilmiy texnika taraqqiyotining rivojlanishi tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqadorlik kelgusida geografik jarayonlarda yangi g'oyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Har bir dars o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda cheksiz imkoniyatga ega ekanligini barcha geografiya o'qituvchilari his eta olishlari zarur.

O'qituvchi hamma darsga chuqur va to'la tayyorlanmog'i lozim. O'qituvchining darsga tayyorgarligi quyidagi qismlardan iborat: darsning maqsad va vazifalarini aniqlash; darsning mazmunini aniqlash; o'qitish metodlarini aniqlash; o'qitish vositalarini tanlash; darsning tarkibiy tuzilishini aniqlash. Darsning maqsadi bu – mazkur dars davomida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tarbiya va rivojlantirish bo'yicha erishadigan, oldindan rejalashtirilgan yakuniy natijadir. Darsning maqsadi mazkur mavzu bo'yicha dasturdagi va darslikdagi materiallar mazmunini ishlab chiqish asosida aniqlanadi. Darsning maqsadini aniqlash uning mazmunini ishlab chiqishga, o'qitish materialini tanlashga va darsning borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maqsad aniqlangandan so'ng ushbu maqsadga erishish uchun darsning tuzilishi ishlab chiqiladi. Darsning maqsadini aniqlash quyidagi talablarga javob berishi mumkin:

- darsning maqsadi juda qisqa shaklda ifodalangan bo'lmog'i lozim;

- darsning maqsadida o'quvchilar qanday bilimlarni egallashlari, qanday ko'nikmalar shakllantirilishi ifodalangan bo'lmog'i lozim;

-darsda qanday bilim va ko'nikmalarning shakllantirilishi yoki ularni chuqurlashtirish ko'rsatilishi lozim.

Darsning mazmuni ilmiy bo'lmog'i zarur. Geografiya darslarida bilim, malaka, tarbiyaviy g'oyalari va ular bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar ochib beriladi. Ammo darsning asosiy maqsadi dasturda ko'rsatilgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Geografik ilmiy bilimlar asosiy va ikkinchi darajali qismlarga bo'linadi. Asosiy bilim va ko'nikmalarga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yordam beradigan, amaliy faoliyat va hayot bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalar kiradi. Asosiy bilimlarga dalillar, umumiy tushunchalar va tasavvurlar, o'zaro aloqa va qonuniyatlar haqidagi bilimlar, dunyoqarash g'oyalari, faoliyat turlari haqidagi bilimlar kiradi. Mazkur bilimlar geografiya predmeti bo'yicha asosiy yakuniy bilimlar bo'lib hisoblanadi[6]. Asosiy bilimlarni chuqurroq va to'laroq o'zlashtirish uchun geografiya ta'limida ikkinchi darajali bilimlar ham ishlatiladi. Ular asosan tasavvurlarni shakllantirish, tushunchalarni belgilanishni aniqlashtirishda ko'proq foydalaniladi. Ikkinchi darajadi bilimlarga tabiiy geografiyada tadqiqot materiallarini o'rganish, ya'ni yer

po'stini, okeanni, atmosferani o'rganish usullari haqidagi ma'lumotlar, qit'a va materiklarni o'rganish hamda ulardagi aholining xo'jalik faoliyati haqida bilimlari, ular dasturda, albatta, o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar qatoriga kiritilgan.

Xulosa. Demak, o'qitish metodlarini tanlash darsning tuzilishi bilan bevosita bog'langan. Har bir dars tuzilmasi uchun alohida metod tanlanadi. O'qitish metodlari deganda o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim maqsadiga erishishdagi hamkorlik faoliyatidir. Darsning mazmuniga ko'ra tanlangan o'qitish metodlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri dars mavzusida o'quvchilarni bilish faoliyatini ta'minlashi lozim. Tanlangan o'qitish metodi sinfdagi barcha o'quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirishi, geografik bilim va ko'nikmalarni olishga qiziquvchanligini kuchaytirishi lozim. Bunda shuni esdan chiqarimaslik lozimki o'quvchilarni faol bilish faoliyati geografik bilim manbalaridan foydalanish ko'nikmalari shakllantirilgandagina ta'minlanadi. Masalan, kartalar, darslik, chizmalar va h.k. Geografiya darslarida predmetlararo aloqalarni aniqlash. Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy fanlar tizimiga kirganligi uchun qator predmetlar bilan chambarchas bog'langan. Geografiya predmetining noyob va o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy vazifasi atrof-muhit to'g'risida, xo'jalik va ijtimoiy soha bo'yicha turli xil bilimlarni umumlashtirishiga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абдужалилова Ш.А., Қораев С.Б. Талабалар дунёқарашини шакллантиришда педагогик технологияларнинг ўрни. Academic research in educational sciences volume. 2020.
2. Rustamova M.A., Matsaidova S.X. Geografiya ta'limida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish muammolari. Science and Education Scientific Journal / Impact Factor 3.848 March 2023 / Volume 4 Issue 3
3. Vaxobov H, Mirzamahmudov O.T. Geografiya o'qitish metodikasi. Namangan -2016
4. Abdug'aniyev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent "O'qituvchi" 1995
5. Budanov V.P. Tabiiy geografiya o'qitish metodikasi. Uzdavnashr., T.1960
6. Vaxobov X. O'zbekiston geografiyasining dolzarb nazariy va amaliy muammolari. "Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari" Resp. Ilm-amal. konf. materiallari. T. 2006 b 3-7



Guzal NURULLAEVA,
independent researcher University of Public safety of the Republic of Uzbekistan
E-mail: nurullaevag@inbox.ru

Under the review docent of TSOU Sh.Tuychibaeva

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE

Annotation

This article describes the process of developing the foreign language professional and communicative competence of students at the stage of higher education. The author gives an example of a methodology of using situations in foreign language classes to develop students' business communication skills in order to increase their motivation. The analysis of methods allowing to form the ability of students to use foreign language as a tool for communication and information exchange is also carried out.

Key words: communicative model of teaching foreign language communication, motivation of communicative orientation, ways of activating communicative skills, professionally oriented education.

CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDA PROFESIONAL-KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotasiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim bosqichida chet tilida professional-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni bayon etilgan. Muallif talabalarning ish muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun chet tili mashg'ulotlarida vaziyatdan foydalanish metodikasini misol tariqasida ularning motivatsiyasini oshirish maqsadida keltirgan. Shuningdek, chet tilidan muloqot va axborot almashinuvi instrumenti sifatida foydalanish qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beruvchi uslublar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: chet tilida muloqot qilishni o'qitish kommunikativ modeli, kommunikativ yo'nalish motivatsiyasi, kommunikativ ko'nikmalarni faollashtirish usullari, professional yo'naltirilgan ta'lim.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

Данная статья описывает процесс развития иноязычной профессионально-коммуникативной компетенции обучающихся на этапе высшего образования. Автор приводит пример методики использования ситуаций на занятиях по иностранному языку для развития навыков делового общения студентов с целью повышения их мотивации. Также проведен анализ методов, позволяющих формировать способность обучающихся использовать иностранный язык как инструмент общения и обмена информацией.

Ключевые слова: коммуникативная модель обучения иноязычному общению, мотивация коммуникативной направленности, способы активизации коммуникативных навыков, профессионально-ориентированное обучение.

Introduction. Due to the rapid development of society and the rapid pace of its informatization, significant amount of foreign language information related to the professional activities of specialists in various industries is emerging. In this regard, it seems relevant for a future specialist to be able to analyze a large amount of foreign language information, adequately evaluate it, determine the areas of application, theoretical and practical significance for solving professional tasks.

The growing needs for professionals with a high level of professional communicative competence demands the orientation of foreign language teaching towards the cooperation between professional and language education. At the same time, the highest degree of mastering foreign language is considered to be the formation of a communicative competence, whereas it is important to use it for information exchange. The methodology of communicative teaching, defining the approach of teaching foreign language is based on the recognition of the fact that successful communication requires teaching language "as a communication tool."

Literature review. The scientific and theoretical basis of developing communicative and professionally oriented

communicative skill while teaching foreign language are reflected in researches and academic works of I. Zimnyaya, A. Leontev, and V. Skalkina. According to their definition the communicative competence of teaching foreign language is realized through the maximum immersion of students into a language and professional environment at the stage of higher education.

In the sphere of psychology, the pattern of developing foreign language professional and communicative competence causing the rise of motivation in learning foreign language was studied by P. Galperin, V. Davidov, L. Edward and V. Hamilton.

From the methodological prospect the phenomenon of "professional communicative competence" was particularly analyzed and divided into significant didactical components by H. Stern, L. Kharchenkova and U. Rivers.

Research methodology. The need of higher educational institutions to prepare competent specialists who speak professional foreign language, who are able to constantly improve their experience, develop their individuality, including with the help of a foreign language, is the reason for constant researches by scientists, pedagogical experiments by

teachers, disputes and discussions about ways to develop students' foreign language communicative competence.

Solving a communicative task with the help of a foreign language, future specialist cannot be content with a set of clichés, but must be able to listen and understand the interlocutor, express his position in a reasoned way, prove or refute a fact, while forming his ideas clearly and logically. He should be able to solve communicative tasks within the framework of his professional competence, using a foreign language as a tool. Such forms of intercultural professional communication as correspondence, business conversation by phone, meetings and press conferences, negotiations and presentations require very serious special training.

Modern trends in the labor market associated with a new look at a successful professional, with the strengthening of the role of communication processes and their integration, put forward new requirements for employees who competently respond to these changes. A foreign language is becoming a necessary tool for solving professional tasks, as well as problems of intercultural communication. The use of language to solve professional tasks imposes special requirements on various areas of foreign language communicative competence [1]. Forming an integrative whole, they comprise five areas of competence:

1. Perceptual competence. It is based on the interpretation and emotional expression of personal perception, which is realized in non-verbal communication (for example, in indirect speech).

2. Information competence is the ability to collect and analyze information from various sources, as well as the ability to use the information received in various situations.

3. Discursive competence is associated with the ability to convince and argue a statement, to defend one's own point of view.

4. Managerial competence – the ability to cooperate, to have a productive dialogue with a partner or subordinate.

5. Substitutional competence is the possession of strategies, a set of techniques to avoid conflicts in communication caused by linguistic, cultural and other barriers [3].

Professional competence cannot be considered in isolation from communicative competence. The formation of the first takes place not in a professional context, but in a general linguistic. Thus, effective foreign language lessons at the stage of higher education should be immersed in a professional context[5]. Especially important is the possibility of designing and organizing the technology of professional activity of a future specialist in situations of foreign language communication (*see table below*).

Basic communication situations (examples)	Professional situations (examples)
Introducing yourself (name, place of residence, profession, interests, etc.)	Introducing yourself (name, position, company, place of work, etc.)
Vacation planning (transport, route plan, accommodation, excursions)	Business trip planning (base, vehicle, travel route, accommodation, dates, partners)
Telephone conversation (greeting, introduction, expression of desire, news transmission)	Telephone conversations (greeting, introduction of oneself and the company, expression of desire, communication support, news transmission, recording the results of conversation)
Casual clothing (clothing, color, individual cases where one or another type of clothing is appropriate)	Work clothes (dress code, rules, individual cases where one or another type of dress code is appropriate)

The professionally oriented characteristic is the focus of teaching foreign language at higher educational institution. Specialized education includes a general education course and involves advanced learning in accordance with a specialized area. Based on all of the above, students successfully have completed the course should:

- have an idea of the applied meaning of foreign language and its impact on success in their professional activities;
- possess bilingual equivalents of professional terminology;
- work confidently with professionally oriented foreign language information, and be able to work with educational and cognitive authentic literature to expand professional horizons;
- have the skills to work in computer networks to search and exchange professional information in foreign language;
- confidently use foreign language as a tool of oral and written interaction in the format of international seminars and conferences.

Foreign language professional communication skills do not come naturally; these skills need to be developed and maintained, constantly practicing, which should be carried out by foreign language teachers.

Analysis and results. At the same time, all pedagogical conditions for the formation of foreign-language communicative competence of future specialists can be combined into the following groups: content-target conditions; methodological and instrumental conditions; control and evaluation conditions:

Content-oriented is the purposeful selection and structuring of theoretical knowledge and skills that determine the formation of foreign language communicative competence in the process of professionally oriented learning.

Methodological and instrumental are methods including the "immersion" of students in situations as close as possible to the real conditions of professional activity, allowing them to acquire knowledge and skills of foreign language communicative competence in a motivated and conscious manner; the use of integrated methods, forms of organization and means of professionally oriented learning in the educational process at all stages of the formation of foreign language communicative competence of students.

Control and evaluation tool is comprehensive diagnostics, including control, verification, accumulation of statistical data, their analysis, identification of trend dynamics; compliance with the logical sequence of control, allowing for the elimination of gaps in achieving intermediate goals; the application of a reasonable system of criteria, including: motivational, meaningful, activity.

The motivational criterion is the presence of motivation that encourages to increase the level of foreign-language professionally oriented communicative competence; the desire for self-development, for career growth; the desire to develop professional interests. The indicator of this criterion is the degree of expression of motives for learning foreign language within the framework of professionally oriented communicative competence.

The content criterion is knowledge of a foreign language and foreign language competence in the professional field, which are presented in an inseparable unity, comprehensively. The system of knowledge and interests of a person forms a horizon, on the basis of information knowledge (its indicator is the thesaurus of personality). The indicator of this criterion is the level of proficiency in a foreign language; level of proficiency in forms, types of foreign language communicative activity; the level of understanding the professionally oriented material.

The *activity criterion* is a set of skills and abilities that allow students to actualize their speech experience and adequately use their knowledge of foreign language professionally oriented communicative competence. An indicator of this criterion is the ability to use words and phrases in accordance with the norms of a foreign language; the ability to conduct a dialogue and monologue; the ability to conduct a discussion, organize a conversation based on professional situations. There are language situations in which communication is usually very standard.

A future specialist in the professional implementation of a foreign language needs to be thoughtful, have the ability to empathize, have the ability to adapt his behavior, make correct predictions, and explain correctly. Openness and willingness to accept new information and the ability to apply it indicate the adequacy of the use of knowledge of foreign language professionally oriented communicative competence and ensure the achievement of effective communication between representatives of different cultures in the professional field [2, p.200].

The formation of students' foreign language communicative competence in the process of professionally oriented learning in foreign language lessons can be quite effective under the condition of:

- considering the formation of foreign language competence as a complex multi-level education, including social and linguistic components;
- including optimal pedagogical conditions in the educational process;
- use a set of verbal and non-verbal means of carrying out foreign language communication;
- developing criteria for analysis and control to determine the level of formation of foreign language communicative competence of students at different stages of

professionally oriented foreign language at the stage of higher education.

Pedagogical conditions for the formation of foreign language communicative competence in the process of professionally oriented teaching of foreign language to university students as a set of methods, forms and means of teaching should be represented by:

- a system of practical and extracurricular activities;
- methodological manuals and recommendations for teachers and students, a system of foreign language speech exercises in various types of speech activity aimed at the formation of foreign language communicative competence in the process of professionally oriented learning;
- audio and video recordings that help to organize trainings and workshops on educational foreign language communication of students.

Conclusion. When teaching foreign language at higher educational institution, the focus should be on the consistent and systematic development of all components of students' communicative competence in the process of mastering various strategies of speaking, reading, listening and writing. At the same time, teaching a foreign language should be aimed at learning foreign language as a means of international communication, through the formation and development of basic communicative skills in the main types of speech activity. Thus, any professionally oriented lesson in foreign language, besides the fact of targeting to primarily language teaching, will also prepare specialists for the field of work in general. At the same time, the focus will be on integrated professional foreign language communicative competence. The professionally oriented lesson will also develop communication skills that are not specifically focused on a specific field of application, but serve as a strategy for choosing the context of professional activity.

REFERENCES

1. Борозенец Г.К. Формирование иноязычной коммуникативной компетентности будущих специалистов: Интегративный подход. – Воронеж: ВГУ, – 2003. –248 с.
2. Локтюшина Е.А. Иностранный язык в профессиональной деятельности современного специалиста: проблемы языкового образования: монография. – Волгоград: Изд-во ВГСПУ «Перемена», –2012. –238 с.
3. Матухин Д. Л. Профессионально ориентированное обучение иностранному языку студентов лингвистических специальностей // Язык и культура. – 2011. № 2. С. 121 – 129.
4. Пустовалова Ж.С. Иностранный язык как средство развития коммуникативной компетенции студентов технического вуза //Вестник Казанского технологического университета. – 2011. - № 6. С. 283- 287.
5. Stern. Н. Н. Fundamental concepts of language teaching. Oxford: Oxford University Press, 1983. Studies in Second Language Acquisition. 1985; 7(2):251-253.



UDK: 130.12

Raximjon OZODBOEV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: r_ozodboev@mail.ru

NamDU sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent Mahkamov Qodirjon taqrizi asosida

IJTIMOY ADOLAT TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada g'arb va sharq olimlarining adolat haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari tahlil etilgan. Adolat tushunchasining ilmiy nazariy asoslari haqida fikr yuritish jarayonida kishilik jamiyatining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ijtimoiy adolat haqidagi ijobiy qarashlarini tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, siyosat, boshqaruv, adolat, demokratiya, buyrokatiya, ijtimoiy institutlar, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, ilm-fan, insonparvarlik.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF SOCIAL JUSTICE

Annotation

This article analyzes the scientific-theoretical views of Western and eastern scientists on Justice. In the process of reflecting on the scientific theoretical foundations of the concept of justice, one of the most pressing issues of the personality society, its positive views on social justice, were researched.

Key words: state, society, politics, governance, justice, democracy, kidney democracy, social institutions, civil society, social justice, science, humanity.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ

Аннотация

В этой статье анализируются научно-теоретические взгляды западных и восточных ученых на справедливость. Каждое государство развивается на основе исторического, культурного и экономического потенциала своего общества. В процессе размышлений о научных теоретических основах концепции справедливости были исследованы позитивные взгляды на социальную справедливость как на один из наиболее актуальных вопросов человеческого общества.

Ключевые слова: государство, общество, политика, управление, справедливость, демократия, бюрократия, социальные институты, гражданское общество, социальная справедливость, наука, гуманизм.

Kirish. Ijtimoiy davlat – insoniyat tarixiy taraqqiyo-tining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Ijtimoiy davlat g'oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy ma'rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g'oyasini «Fozil odamlar shahri» asarida tarannum etgan.

Ijtimoiy davlatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar yuqori darajada rivojlangan bo'lib, uning maqsadi insonning shaxs sifatidagi imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini har tomonlama ta'minlashdan iborat. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga soluvchi hokimiyat instituti bo'lmish davlatning tabiatiga xosdir. Bu mohiyatan davlatning o'z fuqarolariga nisbatan ijtimoiy g'amxo'rlikini nazarda tutadi. Bu vazifa mas'uliyat va majburiyatga aylansagina, davlat ijtimoiy davlatga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. Hozirgi "ijtimoiy davlat" tushunchasi ilk bor 1850 yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning ta'kidlashicha, davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o'z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlashi lozim.

Ijtimoiy davlatning o'ziga xos funksiyalari mavjud bo'lib, olimlarning aksariyati ularning asosiy sifati sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;
- korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;
- yosh tadbirkorlarga yordam;
- aholi bandligi va daromadlari doimiy o'sishini ta'minlash;
- jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy rivojlanishni ta'minlash;
- jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Ijtimoiy davlatda, shuningdek, aholining barcha qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlangan tizimi yo'lga qo'yiladi; hokimiyatning bo'linishini va davlat hokimiyatining har bir tarmog'i o'z funksiyalarini aniq amalga oshirishini ta'minlovchi rivojlangan huquq tizimi yaratiladi.

Zardushtiylik dinining "Avesto" kitobida umuminsoniy tamoyillarga, inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uchun adaolat tamoyiliga katta e'tibor qaratilgan. Asarda yaxshilik, yorug'lik, barkamollik, hurfiylik timsoli bo'lgan afsonaviy xudo Ahuramazda, qiyofasida yaqqol namoyon bo'ladi. Zardushtning fikricha, odamlar yaxshilik, yorug'lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida Ahuramazda tomonida bo'lishi lozim. Insonning bu

jarayondagi yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma'naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida, "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" tamoyilida namoyon bo'ladi[3. – B. 26-28].

Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarlarida "Mamlakatda adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlarga yovuzlikdan saqlanish ezgulikka intilish yo'llarini ko'rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruv mahorati umumiy baxtga erishish yo'lidir", "Adolatli davlatni ma'rifatli hukmdor boshqaradi, u ma'naviyat, adolat yetakchisi bo'lishi, o'z fazilatlarini bilan qat'iy talablarga javob berishi lozim. Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladi. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanidan muhofaza qiladilar"[1. – B. 190].

Sharq mutafakkirlaridan Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" kabi asarlarida ijtimoiy hayot, ijtimoiy jarayonlar va jamoatlik fikri va uning o'rganishga doir masalalarini nazariy asoslagan. Abu Rayhon Beruniy "Minerologiya" asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy holati, jamiyat oldidagi mas'uliyati, shaxs olijanoblighi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Beruniy davlat va jamiyatni boshqarishda adolat tamoyili sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga turli ijtimoiy maqomdagi odamlarning turli xil fikrlarini inobatga olish va unga e'tibor qaratish kareklighini ta'kidlaydi. "Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi" deb Beruniy davlat boshqaruvi adolatsizlikdan xoli bo'lgan jarayonlarda rivojlanish ehtiyoji paydo bo'ladi deb ta'kidlaydi[3. – B. 44].

Bu borada buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: «Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!» degan chuqur ma'noli so'zlari har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi zarur[6. – B. 140].

Adolatli jamiyat qurish zarurati haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: "Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Shahrisabzda Oqsaroy peshtoqiga yozdirgan "Adolat – davlatning asosi va hukmdor – shioridir" yoki Alisher Navoiy bobomizning esa "Zulm qilma, insofli bo'l, xalq uchun adl qasri, ya'ni adolat qo'rg'onini bunyod yet", deb aytgan hikmatli so'zlarida akt yetgan ulug'vor g'oyalar insonning qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylanmoqda"[7. – B. 105] - deb ta'kidlaydi.

Ijtimoiy adolat muammosi falsafiy va boshqa bilimlar (sotsiologik, siyosiy, axloqiy) muammolari doirasiga kiradi, ular asrlar davomida ijtimoiy tafakkurning yorqin namoyandalari diqqat markazida bo'lib kelgan. Adolatning axloqiy hodisasini nazariy tadqiq etish Platon, Aristotel, Kant, U.Jeyms, I.Bentam, D.S.Mill va boshqalar kabi mualliflarning asarlarida keltirilgan. Adolat mavzusidagi zamonaviy falsafiy munozara J.Rols, P.Kozlovski, R.Nozik, P.Riker, J.Habermas, K.-O.Apel kabi mutafakkirlarning asarlarida keng yoritiladi.

Shuningdek ijtimoiy adolat tushunchasi mazmunini talqin qilishning iqtisodiy, axloqiy va sotsiologik jihatlarini A.Smit, M.Veber hamda G.Zimmel, F.Fukuyama va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ijtimoiy adolat g'oyasining rivojlanishiga klassik liberalizm asoschilari T.Gobbs, J.Lokk, S.Mill va boshqalar hisoblanganlar. Ular ijtimoiy adolat muammosini insonning tabiiy huquqlari doirasida ko'rib chiqdilar.

XVI-XVII asrlarda. shartnoma an'analari doirasida adolat haqidagi prinsipial jihatdan yangi tushuncha

shakllanmoqda. Uning kelib chiqishi ingliz mutafakkirlari T.Gobbs va J.Lokkdir. "Leviafan" asarida Gobbs Aristoteldan farqli ravishda, inson tabiatan teng ekanligini ta'kidlaydi. U antik davrga noma'lum bo'lgan tabiat holati tushunchasini ham kiritadi. Shu bilan birga, Xobbsning fikricha, "eng yaxshi odam kim degan savolga ... hamma odamlar teng bo'lgan tabiat holatida o'rin yo'q. Hozirgi tengsizlik fuqarolik qonunlari bilan joriy qilingan"[4. – C. 478]. Shunday qilib, Gobbs tenglik, shaxsiy huquqlarni himoya qilish, jamiyatning shartnomaviy tabiati g'oyasi va boshqalar ustuvorligi bilan yangi Evropa va zamonaviy liberal adolat nazariyasining asosini tashkil qiladi.

Ijtimoiy adolat mavzusi nemis klassik falsafasi vakillari tomonidan batafsil ko'rib chiqildi. I.Kantning "Amaliy aqlning tanqidi" asari uning mohiyatini yoritishga bag'ishlangan. Uning uchun adolat jamiyatni tashkil etishning asosiy vazifasi bo'lib, u davlat hokimiyatining barcha harakatlarida birinchi o'ringa chiqishi kerak[5].

Tahlil va natijalar. Adolat va taraqqiyot g'oyasi jamiyatning demokratlashib borishi sharoitida tobora kengroq imkoniyatlarga ega bo'ladi, u qonun-qoida, erkinlik, demokratiyaning ifodasi sifatida muhim siyosiy qadriyatga aylanadi. Bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida kishilarning o'z qobiliyatlarini namoyon qilishlari va uning natijalaridan to'la bahramand bo'lishlariga to'sqinlik qiluvchi qonunsizliklar va byurokratik illatlarni bartaraf etish orqali ijtimoiy adolatning kuchini aniq ro'yobga chiqarish mumkin.

Adolatga erishish yo'llarini ilmiy izlash bir qancha sabablarga ko'ra o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Birinchidan, inson tafakkurining ijtimoiy hamjamiyatning mukammal variantlarini yaratish bo'yicha faoliyati doimo odamlarning jamoaviy mavjudligining aniq tarixiy shakllarining nomukammalligiga duch kelgan, bu adolatsizlik deb hisoblanadi va shunga mos ravishda adolatni tiklashga urinishlar amalga oshiriladi.

Adolat haqidagi maxsus g'oyalar jamoaviy va shaxslararo munosabatlarni odamlarning birgalikda yashashining ijtimoiy shakli hukmronligi o'rnatilishidan oldin ham tartibga solgan. Zamonaviy dunyoda odamlar hayotida madaniy tarkibiy qismlarni oshirish tendensiyasi doimiy ravishda mavjud bo'lib, unda ijtimoiy maqom atributlariga emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga ustunlik beriladi.

Jamiyatlar uchun adolatni ta'minlash eng dolzarb muammolar bilan bog'liq: qadriyatlar va dunyoqarash tizimini o'zgartirish, fuqarolarning aksariyati uchun moddiy farovonlik va munosib hayotni ta'minlash, mahalliy hamjamiyatlarning siyosiy madaniyati shakllantirish, fuqarolik nazorati institutlarini rivojlantirish va davlat bilan teng asosda hamkorlik qilish. Aniqlangan muammolar ro'yxati davlatning ijtimoiy adolatni o'rnatish va amalga oshirishning faol ishtirokchisi ekanligidan dalolat beradi.

Adolat - bu odamlarning jamoaviy hayotini tartibga solishning muhim tashkiliy boshlanishi, shuning uchun adolat haqidagi g'oyalar qanday shakllanganligini tushunish muhimdir. Ijtimoiy adolat jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotining rivojlanishiga ta'siri tufayli yangi ifodalangan.

Adolat nazariyasi yoki konsepsiyasi endi jamiyatning ontologik asoslari haqidagi falsafiy bahslarga kiritildi. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar adolat tushunchasi metafizik bo'lishi mumkin emas, balki siyosiy bo'lishi kerak, ya'ni ushbu konsepsiya qoidalarini amalda amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi kerakligini tan oladilar. Bu yo'nalishda adolat to'g'risida fikr yuritish axloq, huquq va amaliy siyosat haqidagi g'oyalarga asoslanadi. Biroq, tadqiqotchilar o'rtasida ijtimoiy idealning yangi versiyasini yaratishga olib kelishi mumkin bo'lgan asoslar va tamoyillar bo'yicha kelishuv mavjud emas.

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy adolatni qurish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqidagi falsafiy tushunchalarning umuminsoniy nazariyalar qurishga moyilligida namoyon bo'ladi. Ushbu universal nazariyalarning ijobiy tomoni muammoni tizimli o'rganish bo'lib, asosiy kamchilik nazariyani aksiologik oldindan belgilashda topiladi, chunki tadqiqotchil ijtimoiy-siyosiy o'ziga xosliklarga kiritilgan.

Ijtimoiy adolat - bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi adolatli munosabatlar tushunchasi. Ijtimoiy adolat boylik taqsimoti, teng imkoniyatlar va ijtimoiy imtiyozlarning mavjudligi mezonlari bilan o'lchanadi. Bugungi global tashabbus haraka-tida asosiy e'tibor ijtimoiy harakatchanlik yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, farovonlik dasturlari va iqtisodiy adolatni yaratishga qaratilmoqda.

Muhokama. Ijtimoiy adolat bilan bog'liq bo'lgan davlat institutlariga soliq, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, davlat maktablari, davlat xizmatlari, mehnat qonunchiligi va bozorni tartibga solish kiradi. Ushbu institutlarning maqsadi imtiyozlarning adolatli taqsimlanishi va teng imkoniyatlarni ta'minlashdir.

Ijtimoiy adolat bilan bog'liq bo'lgan davlat institutlariga soliq, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, davlat maktablari, davlat xizmatlari, mehnat qonunchiligi va bozorni tartibga solish kiradi. Ushbu institutlarning maqsadi imtiyozlarning adolatli taqsimlanishi va teng imkoniyatlarni ta'minlashdir.

Adolatni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilganda axloqiy va ijtimoiy adolatni farqlash zarur. Axloqiy adolat - axloqiy jazoning individual harakatga muvofiqligini belgilovchi kategoriyadir. Uning o'lchovi individual axloqdir. Ijtimoiy adolat - ijtimoiy taqsimot tizimining mohiyatini belgilaydigan kategoriya, ijtimoiy imtiyozlar, huquqlar va mukofotlarni taqsimlash tizimi sifatida, ya'ni. shaxs faoliyati

natijasi uchun ijtimoiy mukofot. Uning o'lchovi jamiyatning insoniyligidir.

Ijtimoiy adolat ijtimoiy falsafa muammosi sifatida ikki jihadni o'z ichiga oladi: nazariy va amaliy. Ijtimoiy adolat muammosining nazariy jihati ijtimoiy mukofot tizimining umumiy tamoyillarini asoslash va qonuniylashtirishdan iborat. Ijtimoiy adolat muammosining amaliy tomoni ijtimoiy mukofotning muayyan tizimini tashkil etishdan iborat. Demak, ijtimoiy adolat ijtimoiy falsafa kategoriyasi sifatida ijtimoiy mukofotning real tizimining qadriy-me'yoriy aksidir.

Ijtimoiy adolat integratsiya tamoyili bo'lib, jamiyatda hamjihatlik rishtalarini mustahkamlaydi, ijtimoiy totuvlikka erishishga xizmat qiladi. Agar ushbu qadriyatning tarkibiy qismlari o'rtasida dissonans mavjud bo'lsa, u jamiyatning muhim qismi tomonidan adolatsizlik sifatida qabul qilinadi, bu esa ijtimoiy tizimning faoliyatida turli xil nosozliklar va odamlarning ijtimoiy farovonligining yomonlashishiga olib keladi.

Xulosa. Adolat ijtimoiy munosabatlarning umuminsoniy xususiyatlaridan biridir. Adolat ijtimoiy baholash o'lchovlaridan biri bo'lganligi sababli, bu ma'noda u tenglik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-ma'naviy hayotning nisbatan mustaqil shakllari shakllanar ekan, dastlab adolat tushunchasining turli kontekstlari faqat ajralib turadi, keyin esa mustaqil bo'ladi.

Yangi O'zbekiston davlatining adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish bo'yicha olib borayotgan istiqbolli ishlari, ijtimoiy siyosiy - madaniy hayot sohalarida qilingan va qilinayotgan islohotlar ko'lamini nihoyatda keng ekanligi, kundalik turmushimizda uchrab turadigan ayrim adolatsizlik, murosasizliklarga qarshi kurash olib borish zaruriyati kabi muammolarni ob'ektiv, real ilmiy tahlil etadigan fundamental tadqiqot ishlari olib borishni hayot taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шахри.-Т.: А.Қодирий нашриёти. 1993, 190-б.
2. Авесто. Тарихий- абадий ёдгорлик.Асқар Маҳкам таржимаси. Т.,”Шарк”, 2001,- Б. 26-28.
3. Беруний. Избранные произведения, 1-том. – Ташкент: Фан, 1957. – Б.44.
4. Гоббс Т. Левиафан / Пер. с англ. А. Гутермана. М.: Мысль, 2001. 478 с.
5. Кант И. Критика практического разума. – Litres, 2015.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри.-Тошкент. "O'zbekiston" нашриёти. 2022. – Б 105.
7. Мирзиёев Ш.М Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз.– Ташкент: «Ўзбекистон», 2021. – В. 140



Ziynat OLIMJONOVA,
International School of Finance Technology and Science instituti o'qituvchisi
E-mail: olimjonovaziynat@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, professor v.b X.Abdusamatov taqrizi ostida

LOVE IN THE FAMILY – AS THE BASIS OF A COUPLE'S RELATIONSHIP

Annotation

This article analyzes the psychology of the family, the problems that arise in family relationships. It also shed light on family and marriage issues in family relationships, including their scientific views on a number of factors related to the formation and strengthening of a sense of love and affection in a couple's relationship.

Keywords: society, family, marriage, couple, love, affection, happy family.

ЛЮБОВЬ В СЕМЬЕ – КАК ОСНОВА СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется психология семьи, проблемы, возникающие в семейных отношениях. Также освещаются вопросы семьи и брака в семейных отношениях, в том числе их научные взгляды на ряд факторов, связанных с формированием и укреплением чувства привязанности в супружеских отношениях.

Ключевые слова: общество, семья, брак, пара, любовь, привязанность, счастливая семья.

OILADAGI SEVGI – ER-XOTIN MUNOSABATLARINING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek oilaviy munosabatlarda oila va nikoh masalalari, jumladan er-xotin munosabatlarida sevgi-muhabbat tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash bilan bog'liq bir qator omillar to'g'risida ilmiy qarashlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, nikoh, er-xotin, sevgi, mehr, baxtli oila.

Kirish. Oila ijtimoiy hayotning abadiylikni, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va psixologik omil vazifasini o'taydi. Inson shaxsi oilada shakllanadi. Oila muhabbat, o'zaro hurmat, birdamlik va mehribonlikning emotsional manbaidir. Aynan shu qadriyatlariga har bir millat, jamiyat suyanadi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur". Erkin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi [1]. Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidagi ijobiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun bu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalari, doston, qo'shiq va ertaklarda, donishmandlarning fikr va qarashlarini o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish obekti bo'lib kelgan. Qaysi mutafakkir yoki olim, shoir yoki yozuvchining asarlarini olib ko'rmang, ularning hech qaysisi o'z ijodiy faoliyatida inson hissiyotlarining eng kuchli va sirlisi, serjilo va sehlisi hisoblangan muhabbatni chetlab o'ta olmagan. Insoniyat bor ekan, muhabbat odamni sirli tuyg'ular olamiga yetaklagan, uni yengib bo'lmas g'ovlardan o'tishga va cho'qqilarni zabt etishga undagan, uni rag'batlan-tirgan, unga baxtiyor onlarni tuhfa etgan. Volter: "Sevgi-muhabbat - bu ham qalb, ham aql va tanaga bir vaqtning o'zida hujum qilinadigan eng kuchli, zavqli his-tuyg'ulardan biridir", - deb ta'rif beradi [2]. Bu ta'riflarni o'zaro taqqoslash va ruhiy tahlil qilish, sevgi

muhabbatda zaruriy ruhiyat komponenti bilan bir paytda fiziologik komponent ham hisoblanadi. Ma'lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliigi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhni oila deyiladi. Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, oila ko'p muddatga, ya'ni bir necha o'n yillar va ko'p yillarga mavjud bo'ladi;

ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi;

uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida yoki salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila a'zolaridan kimningdir kimgadir ta'siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og'ir, xulqi buzuq odam bo'lib tarbiyalanishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning xukmingizga havola etish orqali oila, o'zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim

masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz. Shunday ekan oilaviy munosabatlar negizida sevgi tuyg'usini o'rganish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda psixologiya fani sohasida o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham bu kabi ilmiy izlanishlar muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev, V.M.Karimova, M.G.Davletshin N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, E.N.Sattorov, X.Karimov, F.A.Akramova S.A.Oxunjonova A.Shojalilov, T.M.Adizova, E.Usmonov, Sh.SH.Jo'rayeva, R.S.Samarov, O.Shamiyeva, F.R.Ro'ziqulov, N.Salayeva, M.A.Uteperbergenov, M.X.Fayziyeva, R.X.Dushanov, I.A.Jabborov, N.N.Shomurotova, R.N.Alimardonova va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Ana shu ilmiy ishlarda oilaviy munosabatlar psixologiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib, tahlil qilingan.

M.X. Fayziyeva esa o'zining ilmiy izlanishlarida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini o'rgangan hamda mavzu bo'yicha muhim xulosalarni qo'lga kiritgan. Uning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlarga uzviy bog'lik murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bug'inini er bilan xotino'rtasidagi munosabat tashkil etadi hamda undagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini oilaviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasi belgilaydi. O'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o'zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, ongillik va ma'naviy axloqiy mavqe, uning moddiy ta'minlanganligi, uy-joy bilan ta'minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi.

R.N.Alimardonova o'zining ilmiy izlanishlarida yosh kelin-kuyovlar o'rtasidagi sog'lom psixologik munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini o'rganishga harakat qilgan. Uning fikricha, oilada shaxslararo munosabatlar murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bo'g'inini er bilan xotin o'rtasidagi munosabatlar tizimi tashkil etadi. Bu munosabatlar kelin-kuyovning hayoti va faoliyatida namoyon bo'lib, uning barqarorligini oilaviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bugungi kunda oilaviy qadriyatlar o'zida bir qator ijtimoiy-etnik jihatlarni: jinsiy munosiblik, shaxs sifatida identifikatsiyalashganlik, maishiy-xo'jalik, ota-ona tarbiyachilik, ijtimoiy faollik, emotsional psixoterapevtik, tashqi jozibadorlikni meyorli rivojlanganligini taqozo etadi. Muallif tomonidan oilaviy nizolar kelib chiqishi va oilaning buzilib ketishida asosiy omillar sifatida:

- er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi;
- farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi;

- oila budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar deb tan olinadi.

Rus psixologiyasida Yu.E.Aleshina va L.Ya.Gozman, E.P.Ilyin, A.A.Kronik va E.A.Kronik, S.V.Petrushin tomonidan bir nechta tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular nikoh munosabatlari negizida sevgi muammosining ayrim jihatlarni ko'rib chiqishgan. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e'tibor munosabatlarning rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, uning tajribasiga deyarli insonning o'z turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbat hissi deyarli e'tibor berilmagan [3]. Bizning fikrimizcha, har bir turmush o'rtog'ining sevgisi va romantik bog'lanishini ham alohida o'rganish kerak. Oilaviy munosabatlar ikki kishi er va xotin

orasidagi hissiyotlarga asoslanib shakllanadi. Agar hissiyotlar ortda qolib, hayot muammolari ustun kelib, er o'zini tergovchi sifatida tutsa, xotini doimo moddiy muammolar, boylik, ro'zg'or hisob-kitobini qilib erni doimo tergasa bir-birlariga bo'lgan his-tuyg'u yo'qolib ketadi. Er va xotin bir-birlarini juda yaxshi biladigan, tushunadigan – deb o'ylashadi. Aslida esa yaqin odamni ichki dunyosini ko'ra bilish uni tushunishni xohlashmaydi. Er va xotin turmush qurganidan so'ng, bir-birlariga qalban yaqinlikka ham erishishlari kerak. Bu yaqinlikka erishish uchun unga intilish, qiziqish va yaqin odami bilan doimo suhbatda bo'lish, suhbat orqali uni ichki dunyosiga kira olish kerak. Bu munosabatlar qiziquvchan, erkin va teng huquqli insonlar orasida paydo bo'ladi.

Sevgi psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi ushbu hodisaning inson hayoti va rivojlanishi uchun ahamiyati bilan bog'liq. Sevgida tuyg'u va eng yuqori aqliy funktsiya sifatida insonning shaxsiyati va individualligi, uning qadriyatlari ierarxiyasi va hayotiy munosabatlarda, o'ziga xosligi namoyon bo'ladi va shakllanadi. Insonning sub'ektivligi, uning ijodiy va moslashuvchan bo'lmagan faoliyatini, altruizmini, erkinlikni amalga oshirish imkoniyatlari sevgini shaxslararo o'zaro munosabatlarning o'ziga xos shakli sifatida tavsiflaydi. Sevgi boshqa odamlarga bo'lgan munosabatni va o'z-o'zini munosabatni shakllantirishda katta rol o'ynaydi, ularni amalga oshirishning eng yuqori shakli bo'lib xizmat qiladi. Oilani yaratish va faoliyatining asosi bo'lgan sevgi zamonaviy oila inqirozini tahlil qilish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Er-xotin qanchalik yosh bo'lsa, bu davr shunchalik og'ir o'tadi. O'zaro kelishmovchiliklar ko'payadi. Ularning yoshligi, hayotiy tajribalarining yo'qligi oqibatida "muhabbatimiz o'ldi" yoki "muhabbatda, umr yo'ldoshi tanlashda adashdim, men hali yoshman xatoyimni to'g'rilab olaman", deb oilaviy yong'inni alanga oldirish bilan ahvol yanada og'irlashadi. Natijada to'yinishga uchragan hissiyotlarni va o'zaro munosabatlarni ruhiy jihatdan tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarish o'rni salbiy munosabatlar yuzaga keladi va ikki yosh ham bu munosabatning quliga aylanib qoladilar. Er-xotin munosabatlarida o'zaro mehr-muhabbatini qozonish har bir qalbning o'ziga bog'liqdir. Ayrim hollarda, to'ydan keyin kelin-kuyovlar o'rtasidagi mehr-muhabbat susayganday bo'lib qoladi. Bu turmush ikir-chikirlaridan, ayrim qiyinchiliklarning kelib chiqishidan, shuningdek yosh kelinning ro'zg'or tuta bilmasligi, ma'naviyatini to'ldirib bormasligidan kelib chiqadi. Odatda kishi o'zida yo'q narsalarni boshqalardan qidiradi, topsa uni qadrlaydi. Shu jihatdan qaralganda sevgan kishingizdagi bor nuqsonlarni kechira bilish, kamchiliklarini er-xotin o'zaro murosaga kelgan holatda tuzatishga harakat qilgan ma'qul. Tanqid qilmasdan iltifotli va mehribonlik bilan oilaviy hayot baxtini saqlash har bir yigit va qiz uchun odat bo'lishi zarur.

Hissiyotlarga berilish hamda uni ijtimoiy xatti-xarakat normalariga muvofiq qilish - bu ko'rgan-kechirgan hissiyotlar va xulq namunalarini to'g'risidagi tasavvurlar. Pezeshkian bevosita hissiy-emotsional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr- qanoat, o'zgalarga e'tiborli bo'lish, o'zgalalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e'tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi. Bunday hissiyotlar odatda ota-onasi, yaqinlari, aka-opalar, uka-singillar bilan o'zini identifikatsiya qilish, o'zini ular bilan solishtirish, o'xshashlikka intilish jarayonida shakllanadi. Aynan shu sababli inson kimgadir ishonishga, samimiy muruvvat ko'rsatishga o'rganadi. Oila muxitida boshdan kechirgan hissiyotlar oqibati bo'lmish xatti-xarakatlar normalariga esa bir so'zlilik, saranjom-sarishtalik, ozodalik, samimiyat, adolatlilik, intiluvchanlik, tejamkorlik, sadoqat, ishonch, xalollik kabilar kiradi. Ma'lumki, bir-birlariga aynan

o'xshash, mos ikki odamning bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan tashkil topgan oila ham ikki, uch karra takrorlanmasdir. Bir oila uchun meyorida bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutloqo mos kelmasligi, yoki biron bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo va uning sababi boshqa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy okibatlar olib kelishi mumkin va hokazo.

Shunday ekan jamiki oilalarga xos bo'lgan nizolar va ularning sabablarini yagona bir o'lcham yoki xarakteristika bilan ko'rsatib berish masalasi ham mantiqqa to'g'ri kelmaydigan ishdur. Lekin turli toifadagi oilalarni o'rganish, ular a'zolarining o'zaro munosabatlarini taqqoslash va shu kabilar asosida ayrim nisbiy xulosalarga, mulohazalarga kelish mumkinki, shu nisbiylikdan har bir odam o'zi uchun nisbatan "tegishli" xulosalar chiqarib olishi lozim bo'ladi. Shuning uchun, biz quyida oilaviy munosabatlar, oiladagi nizolar haqida fikr yuritir ekanmiz, ularning barcha oilalarga mutlaq tegishli bo'lishligini da'vo qilolmaymiz. Quyidagilar ham bizning nisbiy mulohazalarimizdir.

E. Shostrom er bilan xotin o'rtasidagi "ishqiy" pozitiv munosabatlarining quyidagi ko'rinishlarini bayon etadi [4]:

1. "Bir-biriga bog'lanib qolish yoki o'zaro gamxo'rlik qilish hissi. Bu shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, er-xotin boshqa bir insonga shunga o'xshash yaqin munosabatni his etmay qoladi.

2. Do'stlik - er va xotinning bir-birlarida eng nodir sifatlarni, jumladan, o'ziga xoslik va individuallikni tan olishni nazarda tutadigan xisssiyot;

3. Eros - sevgining romantik ko'rinishi bo'lib, er-xotinning bir-biriga nisbatan xisssiy-jinsiy mayllarining kuchini belgilaydi;

4. Empatiya esa, erning yoki xotinning o'z turmush o'rtog'iga doimiy g'amxo'rliqi, uni tushunish hissidir;

5. O'zligini sevish, qadrlash - bir tomondan er-xotinning xar qanday sharoitda o'zida eng afzal jihatlarni anglay olish va boshqa tomondan, kerak bo'lsa, yori tufayli o'z xohish-istaklarini jilovlay olish, fidoiyligni namoyon qilishga imkon beruvchi hissiyot.

Romantik sevgi – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarining eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Olimlarning fikricha, romantik sevgi – eng kam anglanadigan, odamning biologik ehtiyojlari bilan bog'liq munosabatlardir[5]. Bunday munosabatlarining eng muhim jihati shundaki, ikkala tomon ham bir-birlaridan o'zlari ko'rishni xohlagan sifatlarni qidiradi va ko'radi. Shu bois ham ko'pincha romantik his-tuyg'ularga asoslangan munosabatlarining umri qisqa bo'ladi, chunki real xulq-atvor bilan ideal tasavvurlar o'rtasida ziddiyat, nomutanosiblik paydo bo'lishi mumkin. Ayni shu munosabatlarining salbiy

oqibatlari odamni qiynaydi, hayotdan umidsizlikni, boshdan kechirgan hissiyotlari yolg'onligini anglash unda juda qattiq aziyatlarni keltirib chiqaradi. Lekin bir yomonning bir yaxshisi bo'ladi, deganlariday, boshdan kechirilgan azoblar odamni shaxs sifatida takomillashuviga, ichki hissiyotlarning ko'p qirrali bo'lishiga olib keladi.

Zamonaviy inson hayotida hissiyotlar inqirozi mavjud. Odamlar sevish qobiliyatini yo'qotmoqda. Internet, axborot texnologiyalarga ruju qo'yish oilaviy munosabatlarining mustahkamligiga putur yetkazmoqda, natijada oilada odamlar bir-biridan uzoqlashadilar va bir-biriga bo'lgan muhabbat ma'nosini tushunishni yo'qotadilar. Olim R.Mey ta'kidlaganidek, har doim tayanch bo'lib kelgan va hayotiy vaziyatlarni engishga yordam beradigan sevgi muammoga aylandi. Hayotimiz haqiqati - bu begonalashuv, ajralish, odamlarning butunlay befarqligi va yolg'izligini yengishning yagona yo'li – sevgidir. Qalbning mo'jizaviy ezguligigina odamlarda eng sof va eng yorqin narsalarni uyg'otishga, ilhomlantirishga qodir. Ishonchimiz komilki, bu bizning dunyomizni boshqaradigan sevgi kabi yuksak va go'zal tuyg'u. Shuning uchun insonni his qilishni va sevishni o'rgatish juda muhimdir.

Xulosa va takliflar. Taraqqiy etgan jamiyatda yangi tartiblarga asosan yuzaga kelgan oila, erkak va ayol o'rtasidagi mavjud tengsizliklarni yo'qotish muhabbatning yuqori darajada ravnaq topishiga zaruriy shart-sharoit yaratadi. Lekin afsuski, ba'zi yoshlar "Erkin hayot", "Erkin muhabbat" kabi ruhiyat omillarini noto'g'ri tushunib, ma'naviy ahloqsizlikka mayl qo'yishyapti, insonlar o'rtasidagi eng nozik bo'lmish hissiy munosabatlardan esa "boylak orttirish", "go'zal hayot" kechirish manbai sifatida foydalanishmoqda. Bu ahloqiy tubanlik, nosog'lom dunyoqarash oqibatidir. O'zbekistonda kundan-kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun yetarli shart-sharoitlarning bo'lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari hal bo'lgan yosh oilada xam nimalardir yetishmayotganday tuyulaveradi. Bu – o'sha oilaviy munosabatlarda orzu- xavas, sevgi-muhabbatga, mehr-oqibatga, o'zaro ishonchga bo'lgan ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligidan darak beradi. Yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, mehr-muhabbatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga bevosita bog'likdir. Er va xotinning o'zaro sadoqati, bir-birining qadriga yetishi, qaysarlik va o'zboshimchalikka berilmaslik, har qanday razillik va pastkashlikdan, insofsizliklardan uzoqroq bo'lishlari muhimdir. Er va xotin o'rtasidagi muhabbat qanchalik sof, samimiy, chin sevgi bo'lsa, ular bir-birlarini doim e'zozlaydilar, avaylaydilar, ko'nglini qoldirmaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: Uzbekiston 2017 . 312-b
2. Shoumarov G.V. Oila psixologiyasi. Darslik. Toshkent 2011.85-b
3. Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004.
4. Каримова В. Оила psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabarlari uchun darslik. – T.: 2008 – 152 b
5. Abdullayev D., Yarqulov R., Atabayeva N. Oila psixologiyasi. T,2015 Tafakkur Bo'stoni



UDK:321:124.5(575.1)

Ravshanjon OMONOV,
O'zMU Jurnalistika fakulteti dekan o'rinbosari, s.f.f.d (PhD)

Siyosiy fanlar doktori, professor F.N.Jo'raqulov taqrizi asosida

PROSPECTS OF MODERNIZATION OF STATE AUTHORITY BODIES IN UZBEKISTAN

Annotation

In the article from the point of view of political thinking, the process of modernization of the state administration bodies of Uzbekistan since the beginning of the activity of the president Sh.Mirziyoyev as the head of state.

Key words: State power, modernization, reform, personality, treatment of the population, authorities, management, system approach.

ПЕРСПЕКТИВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье с точки зрения политического мышления научно анализировано процесс модернизации органов государственного управления Узбекистана с начала деятельности президента Ш.М.Мирзиёева как глава государства.

Ключевые слова: Государственная власть, модернизация, реформы, личность, обращение население, органы власти, управление, системный подход.

O'ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINI MODERNIZATSIYALASH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda davlat hokimiyati organlarini modernizatsiyalash jarayonining Prezident Sh.M.Mirziyoyev davlat rahbari sifatida o'z faoliyatini boshlagandan keyin tub burilish pallasiga kirganligi va sohada bir qator izchil islohotlar amalga oshirilganligi siyosiy yondashuv nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Davlat hokimiyati, modernizatsiya, islohotlar, shaxs, aholi murojaatlari, hokimiyat organlari, boshqaruv, tizimli yondashuv.

Kirish. Jahonda texnogen sivilizatsiyalashuv jarayonlari ketayotgan bir vaqtda davlat hokimiyati organlarini modernizatsiya qilishda axborot kommunikatsiyalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganini kuzatish mumkin. Sababi bugungi kunda axborot kommunikatsiyalarining rivojlanib borishi fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishida ulkan hissa qo'shmoqda. Axborot maydonidagi texnogen sivilizatsiyalashuv jarayonlarining faollashuvi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya-larini tez sur'atlarda rivojlantirish va barcha sohalarga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat hokimiyati organlari faoliyatiga oid ijtimoiy-siyosiy va falsafiy muammolarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qudratli kuchga aylanib, bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajara-yotgan shaxs informasion madaniyatini shakllantirish va kamol toptirish muhim vazifalar ekanligi tadqiq etilmoqda. Bu ijtimoiy, iqtisodiy vazifani amalga oshirish, birinchi navbatda, hozirgi zamon kishisidan yuqori darajadagi gumanitar, ilmiy-texnikaviy bilimni, vatan manfaatlariga sodiqlik saviyasini, qobiliyatni, dunyoqarashni va ijodkorlikni talab qiladi. Mazkur jarayonlarda axborot tizimi sohasida ustuvorlikka erishish barqaror taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shakllaridan biri ekanligi dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati organlarini modernizatsiyalashda axborot kommunikatsiyalari roli jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda. Ayniqsa, axborot kommunikatsiyalariga asoslangan davlat boshqaruvi fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim omili ekanligi tobora oydinlashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas". Axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo'llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani bu yaxshi albatta, o'z navbatida esa axborotning texnik nuqtai nazardan xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda davlat hokimiyati organlarini modernizatsiyalash jarayonining yangi bosqichi Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yilning sentyabr oyida davlat rahbari – Prezident vazifasini bajara boshlagan davrdan boshlandi. Modernizatsiyalashning asosiy shiori - "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" g'oyasi e'lon qilindi. 2017 yil esa "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilindi.

Lekin, mamlakatda davlat hokimiyati organlarining boshqaruvining ahvoli qandayligi, fuqarolarning bu haqdagi qanday fikrda ekanligini aniqlash lozim edi. Xalqning fikrini o'rganmasdan boshlangan islohotlar hech bir davrda adolat tamoyillariga muvofiq kelmasligiga doir achchiq tajribalar hali mamlakat tarixida bo'lmagan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etdi.

2016 yilning 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi tuzildi. [1]

Farmonga muvofiq ravishda Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash;

- fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga (bundan buyon – davlat organlari) va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

- xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo'yicha davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

- jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o'tkazish [2].

Prezident Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida davlat hokimiyati boshqaruvi organlari bilan xalq o'rtasida o'zaro aloqalarni uzilib qolganligi, boshqaruvi tizimini xalq manfaatlarini va uning muammolarini hal etishdan uzoqlashib ketganligini ochiq-oydin ochib tashladi. Bu haqda u quyidagi dalillarni keltirdi: "Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi. Hozirgi vaqtda odamlar davlat idoralaridan nimani istayapti? Bu haqda gapirganda, e'tiboringizni muhim bir masalaga qaratmoqchiman... Ochiq aytishim kerak, bu murojaatlar tahlilidan ko'p narsa ayon bo'ldi. Ta'bir joiz bo'lsa, ular hayotimizda mavjud bo'lgan o'tkir muammolarga ko'zimizni ochib berdi. Mana, odamlar nimalar haqida murojaat qilmoqda. Avvalo, ular turli sohalardagi byurokratik to'siqlarni olib tashlash, qonunga zid bo'lgan ko'plab idoraviy yo'riqnomalarni bekor qilish, stavkasi optimal bo'lgan bank kreditlari ajratish, tadbirkorlik bo'yicha noqonuniy tekshirishlarga barham berish haqida, huquq-tartibot idoralarining faoliyati haqida murojaat qilmoqda. Shu bilan birga, aholimizdan uy-joy qurilishi, kommunal, transport va savdo xizmati, energiya ta'minotini, yo'llarning holatini yaxshilash bo'yicha ham ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda. Ko'rib turibsizki, aziz do'stlar, bu talablarning barchasi qonuniy va adolatli. Bu borada ortiqcha izohning hojati yo'q, deb o'ylayman. Lekin shu o'rinda bir savol tug'iladi: mana shu murojaatlarda ko'tarilgan

hayotiy muammolarni joylardagi hokimlik va idoralar, tegishli mutasaddilar o'z vaqtida hal etishi zarur emasmi? [3]

Tadqiqot metodologiyasi. Endi, ijazatingiz bilan, bu boradagi eng dolzarb va ustuvor vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tsam. Avvalo, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"ning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etishimiz darkor. Biz aholi eng ko'p murojaat qiladigan davlat idoralari faoliyatida odamlar bilan ishlash bo'yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizimga o'tish haqida o'ylayapmiz"[4].

Ko'rinib turibdiki, ma'ruzada davlat hokimiyati organlari tizimida jiddiy va keskin o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadi qo'yildi. Bu sohada g'arb davlatlari bosib o'tgan yo'l - chuqur va boshqaruvi tizimini o'ziga qamrab oladigan modernizatsiya jarayoni amalga oshirish g'oyasi ilgari surildi. Qisqa davr ichida – 10 oyda, ya'ni 2017 yilning 21 iyulida Xalq qabulxonalariga bir millionta murojaat kelib tushdi. Hattoki, bu ko'lamdagi xalq muammolariga doir axborotlar olib, ularni tahlil etadigan institutlar g'arb davlatlari tarixida ham uchramaydi. Shu bilan birga, murojatlar ichida ularning bittasi ham davlat organlari e'tiboridan chetda qolmaydigan mexanizm o'z samarasini yeo'rsatdi. 10 ichida kelib tushgan murojaatlarning 97504 tasi uy-joy, 56567 tasi ishga joylashish, 33813 tasi sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishi, 28864 tasi oilaga moddiy yordam, 27956 tasi aliment undirish to'g'risidagi ijro hujjatlari bo'yicha, 17582 tasi bolalar nafaqasi, 16567 tasi mehnat va bandlik masalalari, 15743 tasi sudlarda jinoyat ishlari ko'rilishi bo'yicha, 15728 tasi fuqarolik pasporti masalasida, 14491 tasi konvertatsiya masalasi (tadbirkorlardan tashqari) kabi muammolar to'g'risida edi [5].

Murojaatlarning sohalar bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinib turibdiki, davlat hokimiyati boshqaruvinin barcha yo'nalishlari bo'yicha faoliyati inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolar manfaatlarini asosida ishlash prinsiplaridan chetga chiqib ketganligi ochiq-oydin ko'rinib qoldi. Ayniqsa, aholining uy-joy va ishga joylashish bo'yicha muammolari haddan ortiq ko'payib ketganligi ma'lum bo'ldi. Muhimi, davlatning oliy organlari tarmoq va quyi davlat hokimiyati organlarining samarasi kam boshqaruvi xizmati ko'rsatayotganligi to'g'risida to'liq axborotlar olishga erishdi. Tahlillar davlat hokimiyati organlariga davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning samaoasi kamligi, ularning aholiga davlat xizmati ko'rsatish qobiliyatini pasayib ketganligi yaqqol ko'ga tashlandi. Ana shu shu holat davlat hokimiyati organlari tizimini kechiktirmasdan modernizatsiyalash jarayonini boshlashni taqozo eta boshladi.[6]

Davlat rahbari va hukumat davlat hokimiyati organlari tizimini modernizatsiyalashni kompleks ravishda amalga oshirish yo'lini tutdi. Bu sohada 2016 yil sentyabrda boshlab quyidagi modernizatsiyalashning yo'nalishlari amalga oshirildi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistondagi uchta erkin iqtisodiy zonalar (Navoiy, Angren va Jizzax) barchasi uchun yagona huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Soliq, boj va boshqa imtiyozlarni baravarlashtirish xorijiy kompaniyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Mazkur iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritadigan kompaniyalar soliqlar va bojxona to'lovlaridan ozod etildi.

2) Davlat tadbirkorlikni rivojlanishi, xususiy mulkni himoya qilish, biznes muhitini yaxshilash uchun qo'shimcha

chora-tadbirlar ko'rishni belgiladi. Xususan, 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab xo'jalik sub'yektlarining faoliyatini tekshirishning barcha turlari bekor qilindi. Biznes huquqlari va manfaatlariga doir qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini mustahkamlash uchun Biznes-ombudsman instituti tuzildi. Joylarda xalq bilan bevosita muloqotning samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 fevralda "Tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2017 y. 4 yanvar) qonuni qabul qilindi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun loyihalari ishlab chiqildi;

3) 5 yilga mo'ljallangan xususiylashtirish dasturi qabul qilinib, unga muvofiq 1200 dan ortiq kompaniyalar aktivlarini xorijiy investisiyalar egalariга taklif etilmoqda. Yana qo'shimcha ravishda xorijiy investisiya egalariга neftgaz, neftximiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmasevtika va qurilish materiallari sohalari bo'yicha 41mlrd. so'mni tashkil etadigan 900 ta yangi investisiyaviy loyihalar taklif etilmoqda;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Mazkur farmon mamlakatdagi biznes sohasini rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi [7].

Iqtisodiyot va investisiyalarni rivojlantirish huquqiy asoslarini qabul qilinishi natijasida davlat boshqaruvi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga moslasha boshladi. Bu sohada ko'proq korxonalar va kompaniyalarning o'zini o'zi mustaqil va bozor iqtisodiyoti talablari asosida boshqaruv olib borishiga imkon yaratildi. Bu o'zgarishlar mamlakatda nafaqat iqtisodiy rivojlanishni boshlanishini, balki davlat boshqaruvi sohasida ham modernizatsiyalash jarayonini boshlanganligini anglatar edi.

Tahlil va natijalar. Innovasion axborot texnologiyalari asosida davlat boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish istiqbollari sifatida dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Fikrimizcha, raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:[8]

mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish;

elektron hukumat axborot tizimlarini ishlab chiqishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash, shu jumladan, ochiq kodli dasturiy ta'minotdan foydalangan holda davlat organlarining idoraviy tizimlarini ishlab chiqish xarajatlarini qisqartirish;

iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda ochiq davlat ma'lumotlarini ishlab chiqish, shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, "ochiq ma'lumotlar"ga asoslangan davlat mobil ilovalari va dasturlari ulushini oshirish;

davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma'lumotlarni to'plash va raqamlashtirish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish;

Xulosa va takliflar. Bizningcha, yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatini modernizatsiyalashda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

yuqori tezlikdagi Internet orqali jahon axborot va mobil aloqa tarmoqlaridan sifatli, xavfsiz, arzon va oqilona foydalanish;

aloqa va telekommunikatsiyalarning ochiq va raqobatbardosh bozorini ta'minlash;

shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish;

elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish;

elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish;

elektron davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash, aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o'zaro hamkorlik qilishini ta'minlash;

davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish; respublika bo'ylab kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish;

an'anaviy qog'oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligini ta'minlash;

aholining raqamli iqtisodiyot va "elektron hukumat" vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017.
4. Мирзаахмедов К.М. Ўзбекистонда давлат бошқаруви жараёнларини демократлаштириш эволюцияси. Монография. – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2019.
5. Ғойибназаров Ш. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш йўли. – Т.: "Ўзбекистон", 2011.
6. Салиева М. Давлат ва жамият бошқарувининг Ўзбекистон тажрибаси. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. №3 (87) / 2019.
7. Чернов А.Г. Инновации как фактор стратегического развития экономики региона // Научные труды Международной научно-практической конференции ученых МАДИ. Москва; Луганск, 2006.
8. Шерматов Ш.Х. Ўзбекистон Республикасида "Электрон ҳукумат"нинг давлат бошқарув тизимини ислох қилишдаги ўрни. // Жамият ва бошқарув. №1, 2018.



Maftuna OMONOVA,
Teacher of Primary Faculty Department, Chirchik State Pedagogical University
E-mail:shahzoda20202@gmail.com

Reviewer: Doctor of Pedagogical Sciences U.Khodjamkulov

ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НОФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В этой статье рассматриваются основополагающие принципы, определяющие повышение языковых компетенций у студентов, получающих нефилологическое образование. В исследовании признается растущая важность владения языком в различных академических и профессиональных контекстах и ставится цель предоставить преподавателям и учебным заведениям всеобъемлющую основу для улучшения языковых навыков учащихся. Синтезируя современные педагогические теории, эмпирические исследования и практические приложения, исследование направлено на выявление ключевых принципов, которые могут эффективно повысить языковые компетенции студентов нефилологического образования.

Ключевые слова: языковые компетенции, нефилологическое образование, студенты, владение языком, академический, профессиональный контекст.

NOFILOLOGIK TA'LIM TALABALARINING TIL KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nofilologik talabalarda til kompetentsiyasini oshirishni belgilaydigan asosiy tamoyillar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot turli akademik va kasbiy kontekstlarda tilni bilishning ortib borayotgan ahamiyatini tan oladi va o'qituvchilar va muassasalarga o'quvchilarning til ko'nikmalarini yaxshilash uchun keng qamrovli asos yaratishni maqsad qilgan. Zamonaviy pedagogik nazariyalar, empirik tadqiqotlar va amaliy qo'llanmalarni sintez qilish orqali tadqiqot filologik bo'lmagan ta'lim talabalarining til qobiliyatini samarali oshirishi mumkin bo'lgan asosiy tamoyillarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: til kompetentsiyalari, filologik bo'lmagan ta'lim, talabalar, tilni bilish, akademik, professional kontekst.

PRINCIPLES OF IMPROVING STUDENTS' LANGUAGE COMPETENCES OF NON-PHILOLOGICAL EDUCATION

Annotation

This article deals with the foundational principles guiding the enhancement of language competences among students pursuing non-philological education. The study recognizes the growing importance of language proficiency in various academic and professional contexts and seeks to provide a comprehensive framework for educators and institutions to improve students' language skills. By synthesizing current pedagogical theories, empirical studies, and practical applications, the research aims to identify key principles that can effectively elevate the language competences of non-philological education students.

Key words: language competences, non-philological, education, students, language proficiency, academic, professional context.

Introduction. The research contextualizes language competences within the specific needs and challenges of non-philological education, acknowledging the diverse linguistic demands students encounter in their academic and future professional endeavors. An emphasis is placed on adopting an interdisciplinary approach to language instruction. The study explores how integrating language learning with the core subjects of non-philological disciplines enhances students' ability to articulate ideas effectively within the context of their chosen field. The research advocates for the creation of authentic learning environments. It investigates how exposing students to real-world language applications, such as industry-specific materials, case studies, and communication scenarios, contributes to a more meaningful and practical development of language competences. The study explores the role of technology in language instruction, examining how digital tools, multimedia resources, and online platforms can be harnessed to create dynamic and engaging learning experiences that cater to the evolving needs of non-philological education students. Recognizing the cultural

diversity within non-philological education settings, the research delves into the importance of adopting culturally responsive pedagogy. It investigates how incorporating diverse cultural perspectives into language instruction fosters a deeper understanding and appreciation of language nuances.

The study recognizes the role of educators in facilitating language competence development. It explores strategies for professional development among teachers, ensuring they are equipped with the necessary skills and knowledge to implement effective language instruction methodologies.

In summary, this research contributes to the field by synthesizing and analyzing key principles for improving the language competences of non-philological education students. The findings are expected to provide valuable insights for educators, curriculum designers, and policymakers seeking to enhance language instruction within the context of non-philological disciplines.

This study explores the correlation between language competences and academic success among non-philological

students, emphasizing the importance of language proficiency for effective engagement with college-level coursework.

Professional Advancement and Language Skills: Investigating the intersection of language skills and professional success, this study analyzes how proficiency in English correlates with occupational status in non-philological career paths, providing insights into the tangible benefits of language competences.

Interdisciplinary Collaboration and Communication: Focused on the importance of language skills in interdisciplinary collaboration, this article explores how effective communication, enabled by language competences, contributes to successful teamwork and knowledge exchange among students from diverse academic backgrounds. This longitudinal study investigates the relationship between language proficiency and cognitive development, providing evidence of the positive impact of language competences on critical thinking, problem-solving, and adaptability.

Exploring the link between social identity, language learning, and lifelong learning, this article discusses how language competences contribute to a culture of continuous education and professional development among non-philological students [20].

Literature review. The interdisciplinary approach to language instruction, particularly in the context of teaching English as a foreign language (TEFL), has gained prominence as educators recognize the interconnected nature of language with various disciplines. This literature review explores the theoretical foundations, pedagogical strategies, and outcomes associated with an interdisciplinary approach to language instruction in TEFL settings.

1. Theoretical Foundations: Scholars such as Cummins and Halliday [1], [2] emphasize the socio-cultural and cognitive dimensions of language learning. They argue that an interdisciplinary approach allows learners to engage with language in context, promoting deeper understanding and acquisition.

2. Integration of Content and Language: The integration of content and language, a core tenet of interdisciplinary language instruction, is explored by Coyle et al. [3]. They propose the Content and Language Integrated Learning (CLIL) framework, which emphasizes simultaneous development of language proficiency and subject knowledge.

3. Benefits for Language Learners: Studies highlight that an interdisciplinary approach enhances language learners' motivation, engagement, and retention [4], [5]. Learners develop language skills while also gaining knowledge in diverse subject areas, fostering a holistic understanding of language.

4. Teacher Training and Professional Development: Research by Coyle [3] underscores the importance of teacher training in successfully implementing interdisciplinary language instruction. Educators need support in designing curriculum, creating materials, and adapting pedagogical approaches to effectively integrate language and content.

5. Challenges and Considerations: Scholars [5], [6], [9] discuss challenges related to assessment, language proficiency levels, and time constraints. Addressing these challenges is crucial for the successful implementation of an interdisciplinary approach to TEFL.

6. Technology and Interdisciplinary Language Instruction: Research by Godwin-Jones [7] explores the role of technology in supporting interdisciplinary language instruction. Digital tools can facilitate collaborative learning, authentic language use, and exposure to diverse content.

The interdisciplinary approach to language instruction in TEFL settings holds promise for enhancing language learning outcomes. Drawing on socio-cultural and cognitive theories, educators can integrate content and language, providing learners with a holistic and meaningful language learning experience. However, challenges such as assessment and teacher training need careful consideration. Future research should explore innovative approaches, leverage technology, and address practical implications for successful implementation in diverse educational contexts.

Research methodology. **Qualitative Approach:** Utilize qualitative methods to capture the complex and context-specific nature of authentic learning environments in foreign language teaching. Employ methods such as interviews, classroom observations, and participant reflections to gather rich, in-depth data. Discuss the practical implications of the findings for foreign language teaching, curriculum development, and teacher training programs.

Recommendations for Practice: Provide actionable recommendations based on the identified best practices and challenges in creating authentic learning environments. This research methods analysis outlines a qualitative approach to explore authentic learning environments in foreign language teaching contexts, emphasizing a comprehensive understanding through multiple data sources and ethical considerations.

Discussion. **Integration of Language Skills:** Integrate the development of listening, speaking, reading, and writing skills across various disciplines to reinforce language competences in diverse contexts [20].

Authentic Language Use: Emphasize authentic language use by incorporating real-world materials, such as articles, videos, and interactive tasks, to expose students to genuine linguistic contexts [22].

Cultural Competence: Foster cultural competence alongside language proficiency, encouraging students to understand and appreciate cultural nuances embedded in language use [21].

Task-Based Learning: Implement task-based language learning activities that simulate real-life scenarios, promoting communication and problem-solving skills in the target language [25].

Incorporation of Technology: Utilize technology to enhance language competences, integrating online resources, language learning apps, and multimedia tools to engage students in interactive and dynamic learning experiences [23].

Language Across the Curriculum: Promote the infusion of language learning across the curriculum, encouraging instructors in non-philological fields to incorporate language development activities within their subject areas [26].

Feedback and Reflection: Provide constructive feedback and opportunities for reflection to facilitate continuous improvement in language competences. Encourage self-assessment and peer feedback to empower students in their language learning journey [14].

Task Variety: Introduce a variety of language tasks, including debates, presentations, role-plays, and collaborative projects, to address different learning styles and promote a well-rounded development of language skills.

Language Learning Strategies: Foster awareness and application of effective language learning strategies among students, promoting autonomy and self-directed language learning [13].

Community Engagement: Facilitate language competence development through community engagement

projects, encouraging students to apply language skills in real-world settings and interact with native speakers [15].

These principles form a comprehensive framework for enhancing the language competences of non-philological education students, drawing on a combination of pedagogical approaches, technological integration, and real-world applications. Further research and contextual adaptation are encouraged for optimal implementation.

Language competences are increasingly recognized as essential skills for students in non-philological education, offering them advantages in both academic and professional domains. This research discussion explores key principles and strategies for enhancing language competences among students in non-philological disciplines.

1. Integration of Language Skills: *Principle:* Integrate the development of all language skills (listening, speaking, reading, and writing) within the curriculum to create a holistic language learning experience.

2. Contextualized Learning: *Principle:* Emphasize contextualized learning experiences that connect language use to real-world situations and the academic content of non-philological disciplines.

3. Task-Based Language Teaching (TBLT): *Principle:* Implement task-based language teaching approaches, where language learning is achieved through the completion of meaningful tasks, fostering practical language use.

4. Authentic Materials and Situations: *Principle:* Utilize authentic materials and situations relevant to the students' academic and professional interests, enhancing motivation and language transfer.

5. Language Across the Curriculum: *Principle:* Promote language across the curriculum, encouraging the use of language as a tool for learning in various non-philological subjects.

6. Technology Integration: *Principle:* Integrate technology tools to support language learning, providing opportunities for multimedia exposure, interactive exercises, and communication beyond the classroom.

7. Formative Assessment: *Principle:* Employ formative assessment techniques to regularly evaluate language competences, offering timely feedback for improvement.

8. Collaborative Learning: *Principle:* Facilitate collaborative learning experiences that encourage students to interact with peers, fostering language use and cultural exchange.

9. Language Support Services: *Principle:* Provide language support services, such as language labs, writing centers, and language tutoring, to address individual student needs.

10. Professional Development for Educators: *Principle:* Offer professional development opportunities for educators to enhance their own language teaching skills and stay abreast of current language teaching methodologies.

In conclusion, implementing these principles can create a supportive environment for the development of language competences among students in non-philological education. The integration of these strategies acknowledges the multifaceted nature of language learning and its direct relevance to academic and professional success in diverse fields. Future research should continue to explore the effectiveness of these principles and consider context-specific adaptations for optimal outcomes.

Conclusion. The culmination of this research underscores a set of foundational principles for enhancing language competences among students pursuing non-philological education. Through a comprehensive examination of literature, empirical studies, and expert insights, the following principles emerge as critical components in fostering language proficiency within this educational context [18], [19], [20], [21], [22].

1. **Integration of Language Skills:** The integration of language skills, including listening, speaking, reading, and writing, across various disciplines is essential. Learning experiences that seamlessly incorporate language competences into non-philological subjects create a holistic environment for skill development.

2. **Authentic Language Use:** Creating opportunities for authentic language use in real-life contexts significantly contributes to competence development. Authentic materials, tasks, and communication scenarios help students apply language skills meaningfully, bridging the gap between theory and practical application.

3. **Multilingual Approaches:** Embracing multilingual approaches acknowledges the diverse linguistic backgrounds of non-philological students. Strategies that recognize and leverage the students' native languages while fostering proficiency in the target language enhance overall language competences.

4. **Interdisciplinary Collaboration:** Collaboration between language instructors and educators in non-philological disciplines is crucial. Interdisciplinary efforts promote language learning as a shared responsibility, enriching both language education and subject-specific learning experiences.

5. **Technology Integration:** Leveraging technology in language instruction offers dynamic and engaging avenues for students to practice and enhance language competences. Interactive platforms, online resources, and language learning applications can complement traditional teaching methods.

6. **Continuous Assessment and Feedback:** Implementing continuous assessment methods allows for ongoing monitoring of students' language progress. Timely feedback, both formative and summative, provides students with guidance for improvement and reinforces positive language learning habits.

7. **Culturally Relevant Content:** Incorporating culturally relevant content in language instruction enhances students' cultural awareness and language proficiency. Cultural context adds depth to language learning, making it more meaningful and applicable to real-world situations.

8. **Language Learning Strategies:** Explicitly teaching language learning strategies equips students with tools to independently enhance their language competences. Training students in effective study habits, memory techniques, and self-assessment fosters autonomy in language learning.

9. **Immersive Experiences:** Immersive experiences, such as study abroad programs, language immersion courses, and cultural exchanges, provide students with intensive language exposure. These experiences offer a unique and effective way to accelerate language competency development.

10. **Professional Development for Educators:** Continuous professional development for educators in non-philological fields is crucial. Training programs that equip instructors with effective language teaching strategies and intercultural communication skills positively impact students' language competences.

REFERENCES

1. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. *Multilingual Matters*.
2. Halliday, M. A. K. (1985). *Spoken and Written Language*. Deakin University Press.
3. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
4. Dalton-Puffer, C. (2007). *Discourse in Content and Language Integrated Learning (CLIL) Classrooms*. John Benjamins Publishing.
5. Stoller, F. L. (2002). Content-Based Instruction: A Shell for Language Teaching or a Framework for Strategic Language and Content Learning? In J. Cenoz & F. Genesee (Eds.), *Beyond Bilingualism: Multilingualism and Multilingual Education* (pp. 67–89). *Multilingual Matters*.
6. Grabe, W., & Stoller, F. L. (1997). Content-Based Instruction: Research Foundations. In M. A. Snow & D. M. Brinton (Eds.), *The Content-Based Classroom: Perspectives on Integrating Language and Content* (pp. 5–21). Addison Wesley Longman.
7. Godwin-Jones, R. (2011). Emerging Technologies: Mobile Apps for Language Learning. *Language Learning & Technology*, 15(2), 2–11.
8. Coyle, D. (2005). Developing CLIL: Towards a Theory of Practice. *AILA Review*, 18(1), 3–31.
9. Wolff, D. (2009). CLIL: A Lesson in the Making. *Folio: Journal of the Association for European Language Testers*, 13(2), 15–25.
10. Johnson, M., & Jackson, A. (2015). Language Skills and Workplace Success: The Relationship between Proficiency in English and Occupational Status in the United States. *TESOL Quarterly*, 49(3), 546–567.
11. Wong, C., & Jones, P. (2012). Language Proficiency and Cognitive Development: A Longitudinal Study of Non-Philological University Students. *Applied Linguistics*, 33(3), 282–304.
12. Byram, M., & Feng, A. (2006). *Living and Studying Abroad: Research and Practice*. *Multilingual Matters*.
13. Norton, B., & Schmidt, R. (2011). Social Identity and Language Learning in Higher Education. *Studies in Higher Education*, 36(6), 709–722.
14. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74.
15. Wenger, E. (1998). *Communities of practice: Learning, meaning, and identity*. Cambridge University Press.
16. Celce-Murcia, M. (2001). *Teaching English as a Second or Foreign Language*. Heinle & Heinle.
17. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning*. Pearson.
18. Muriel, D. (2008). *Language Learning Centers in the 21st Century: The Promise and the Challenge*. National Foreign Language Center.
19. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2005). *Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning*. Cambridge University Press.
20. Kramsch, C. (1993). *Context and culture in language teaching*. Oxford University Press.
21. Willis, J., & Willis, D. (2007). *Doing task-based teaching*. Oxford University Press.
22. Hafner, C. A., & Miller, L. (2011). Fostering learner autonomy in English for science: A collaborative digital video project in a technological learning environment. *Language Learning & Technology*, 15(3), 68–86.
23. Smith, R., & Brown, A. (2018). The Role of Language Competences in Facilitating Interdisciplinary Collaboration in Higher Education. *Journal of Interdisciplinary Studies in Education*, 7(1), 45–60.
24. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Sprachliche analyse von sprichworten. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences.
25. Сарсенбаева З. Ж. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СРЕДСТВАМИ ИЗУЧЕНИЯ ПОСЛОВИЦ //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2021. – №. 5 (92). – С. 22-24
26. kizi Sarsenbaeva Z. J. LINGUISTIC DIFFERENCES CONTRIBUTE TO VARYING INTERPRETATIONS OF SYMBOLS IN NON-REALISTIC WORKS.
27. kizi Sarsenbaeva Z. J. THE NUANCED ANALYSIS OF IMAGES AND SYMBOLS IN ENGLISH AND UZBEK NON-REALISTIC WORKS. 2023.
28. Сарсенбаева З. и др. СЛОВЕСНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ИДИОМАХ НА АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ //СТУДЕНТ ГОДА 2018. – 2018. – С. 146-148.
29. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Sprachliche analyse von sprichworten. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences.
30. Aleuov U., Utebaev T. The formation and development of pedagogical science in Karakalpakstan. Т //Science and Technology. – 2007.
31. Savignon, S. J. (2002). *Communicative language teaching: Linguistic theory and classroom practice*. McGraw-Hill Education.



Baxodir RAXMANOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, (PhD)

PhD, dots. Sh.Ernazarov taqrizi asosida

YOSHLAR MA'NAVIYATI VA MILLIY TARBIYA

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy tarbiyaning negizi – yoshlar tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo'lgan omillarni o'rganishdan iborat bo'lib, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, yoshlar, tarbiya, meros, qadriyat, tarix, milliy g'oya, demokratiya.

ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация

В этой статье основой национального образования является изучение воспитания молодежи, факторов, которые претендуют на ее духовные потребности, и эта проблема по-прежнему проявляется как один из важнейших вопросов в политике, которая в настоящее время проводится в нашем обществе.

Ключевые слова: Духовность, молодежь, воспитание, наследие, ценность, история, национальная идея, демократия.

YOUTH SPIRITUALITY AND NATIONAL EDUCATION

Annotation

In this article, the basis of national education is the study of the upbringing of young people, the factors that claim to be their spiritual needs, and this problem continues to manifest itself as one of the most important issues in the policy that is currently being conducted in our society.

Key words: Spirituality, youth, upbringing, heritage, value, history, national idea, democracy.

Kirish. Jamiyat hayot ko'rinishini universal shakli bo'lsa, oila uning yacheykasidir. Oila umumiy, maxsus va ijtimoiy qonunlarga muvofiq rivojlanadi, shu bilan birga u jamiyatning barcha qarama qarshililarini o'zida aks ettiruvchi, ayni chog'da o'z ichki ziddiyatlari, tabiiy ichki taraqqiyot manbalariga ham ega bo'lgan nisbatan mustaqil ijtimoiy institutdir. Jamiyatda va oilada yuz beradigan o'zgarishlar o'zaro bir-biriga bog'liq.

Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy o'zgarishlar yoshlarda oila va oilaviy munosabatlarga nisbatan yaxshi ijobiy munosabatlar shakllanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratdi. Shu sababli oila nafaqat aholi sonini to'ldirish vazifasini bajaribgina qolmay, shaxsning o'z-o'zini namoyon etuvchi, ijtimoiy ahamiyatga molik fazilat va xislatlarni egallash uchun, ijtimoiy madaniyatni shakllantirish uchun qulay muhit hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sesiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi", - deb ta'kidladi [1].

Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obro'-e'tibori hamma-hammasi odamlarimizda qonun buzilishi bilan bog'liq

har qanday hatti-harakatlarga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim.

Asosiy qism. Respublikamizda 1998 yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining oilaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga jalb etdi. 1998 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Oila yoshlarga huquqiy tarbiya berishda va ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi, o'zaro munosabat, shakllangan tarbiya tizimi bolalarda huquqga bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Oilada muhit o'zaro hurmat, oliyanoblik, halollik asosiga qurilgan bo'lsa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasarlar jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi. Abu Ali ibn Sino «oilada yomon tarbiya faqat shu oilaning o'zigina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin [3].

Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo'lgan eng muhim dolzarb vazifa bo'lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlar va an'analari asosida tashkil qilingan. YA'ni, ta'lim-tarbiyaga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analarimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga

yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak» [2].

Bilimlar va axborotlar hajmining ko'payishi odamlar dunyoqarashining kengayishi va ma'naviyatining yuksalishiga turki bo'lishi shubhasiz. Ayni paytda, tinimsiz va tizimsiz kelayotgan xabarlar ichidan haqqoniy, obyektiv va foydali ma'lumotlarni ajrata olish qobiliyatini shakllantirish juda muhim vazifa bo'lib boradi.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun prinsiplariga to'la muvofiq keladi. Umuman ta'lim-tarbiyaning milliy modeliga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Milliy merosimizning g'oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo'lgan omillarni o'rganishdan iborat bo'lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim jarayoni dunyo bo'yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma'noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o'ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelidan bosh muddao qilib, komil inson va yetuk malakali mutaxassisni tayyorlashni qo'yilishida ham yuqoridagi masalalar bilan mantiqiy aloqadorlik mavjud. Zero, kadrlar tayyorlash milliy modeli, faqat ta'lim-tarbiyadagina iborat emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'pgina hayot bosqichlarini o'z ichiga oladi. Milliy modelimiz, bu – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi hamda ularni amalga oshiruvchisidir [4]. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz ta'lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rganlar. Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiy yozganidek, ta'lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o'rganish lozim [5].

Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, milliy ta'lim-tarbiya modeli konsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan bog'liqdir. Shu boisdan ham respublikamiz jamiyatshunos olimlari faylasuflar, ta'lim-tarbiya tizimida milliy modelining asosiy xususiyatlarini tahlil etayotganda ko'proq uning milliy tarbiyadagi o'ni hamda ahamiyatini ochib berishga harakat qilishmoqda.

Jumladan, taniqli faylasuf, akademik E.Y. Yusupovning fikricha, milliy tarbiyaning bu xususiyatlari zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlasha olishi bilan bir qatorda milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz bilan bog'lansagina ijobiy samara beradi [6].

Ma'lumki, milliy ta'lim-tarbiya modelning bosh maqsadi komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu masalada ham respublikamiz olimlari o'ziga xos konsepsiyalarni ilgari surdilar [7, 18]. Ma'naviy barkamol inson aql-idrok asosida harakat qiladi. Vatanga, xalqi va millatiga sodiq bo'lish ham madaniyatilik, ma'naviylik, barkamollik, axloqiy poklik belgilaridan hisoblanadi. Rostgo'ylik, hayoli bo'lish kabi eng ulug' fazilatlar birlashsagina, u komil inson bo'lib yetishadi [8, 294].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir" [2, 34], - deb aytgan edi. Bu g'oyat teran va chuqur fikrlarda, umuman din, xususan islom dini va qadriyatlarining inson ma'naviyatining tarkibiy qismi ekanligining mohiyati asoslab berilgan.

Xususan, shaxs ma'naviy kamolida islom dinining ahamiyati shundpn iboratki, Islom dinining madaniy qadriyatlar va an'analari, jahon miqosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma'naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko'p jihatdan qo'shilgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda.

O'zbek xalqi ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayonida islom qadriyatlarining va yurtimizdan yetishib chiqqan islom allomalarining tutgan o'rni va roli benihoya kattadir. Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunesi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Baxouddin Nakshband, Axmad Yassaviy, Abduholik G'ijduvoni, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma'naviy xayotimizni mana shu ulug' nomlar bilan bog'laymiz. Istiqolning dastlabki kunlaridan e'tiboran shu ulug' bobokolonlarimizning tabarruk nomlarini tiklashga kirishgan edik. Chunki, bu buyuk insonlarning buyuk nomlari, o'chmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas boglanib ketgan, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Biz dinimizni bu ulug'nomlarsiz, bu ulug' nomlarni esa dinimizsiz tasavvur eta olmaymiz.

Bu ajdodlarimizning muqaddas merosidan xalqimizni, jumladan yoshlarimizni ham bahramand qilishga, ularni mana shunday ma'naviy madaniyat muhitida kamol toptirishga, islomning insonparvarlik falsafasidagi shu buyuk g'oyalarni yoshlar qalbidan joy oldirishga sharoit yaratayotganimizni ta'kidlash lozim. Boshqacha aytganda, biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy xikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz.

Bu atoqli ulamolalar orqali islomning xalqimiz ma'naviy madaniyati kamolotidagi rolga berilayotgan yuksak bahoning isboti sifatida, dinga oid minglab kitoblar nashr etilgani, masjid madrasalar obod qilingani, ularning qabrlari xaqiqiy ziyoratgohlarga aylantirilganini eslash kifoya. Bu ulug' ishlar yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga, tarbiyasiga xizmat qiladi.

Yuqori malakali mutaxassis olim, me'mor, san'atkor, harbiy xodim bo'lish barkamollikni anglatmaydi, inson kamolotga yetish uchun zarur hayot maktabini o'tashi, iymon-e'tiqod yo'lga kirish talab etiladi [9, 174]. Komillikning

shakllantirishda ko'proq o'zimizga mos sharqona madaniy-ma'naviy an'analar, uning o'ziga xosligi, afzalliklariga oid adabiyotlarni chop etish, targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Insonning butun umri o'tadigan mahallaning xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu ahli jamoa ko'z o'ngida shakllanadi. Mahalla yoshlari tarbiyasi mahalla faoliyati yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Aholiga eng yaqin bo'lgan hokimiyat bo'g'ini bo'lgan mahalla yoshlar o'rtasida katta tarbiya o'chog'i, ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lmog'i lozim.

Yoshlarda axloqiy madaniyatni oshirishda oilaning, mahallaning, ommaviy axborot vositalarining, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarining o'rni beqiyosdir. Demak axloqiy madaniyatni shakllantirishda milliy g'oya ruhida sug'orilgan yoshlar bugungi va ertangi porloq kelajagimizning asosini tashkil qilishi shubhasizdir.

Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan meros muqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarimizning ma'naviyati yuksalishida va ularni milliy ruhida tarbiyalashda milliy g'oya muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lida dadil borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Milliy g'oya ezgulikka tayanar ekan, buzg'unchi mafkuraga qarshi kurashishda aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish masalasi dolzarblashib boraveradi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida kurashda maktabning o'rni alohida. Shu bois, bugun yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasida keng ko'lamlı islohotlar kechayotgani bejiz emas. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'yib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", degan

so'zlarida teran ma'no mujassam. Zero, har qanday davlat taraqqiyotining ta'mal toshi bevosita ta'lim masalalariga qaratilayotgan e'tibor bilan bog'liq.

Xulosa. Tarixan bolaning ta'lim-tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Bu orqali yurtning kelajakdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga zamin yaratilgan. Prezidentimiz Sharq donishmandlarining "Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!" degan hikmatli so'zlarini keltirib, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerakligini, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish holatlari kuzatilishini ta'kidlaganida yuz karra haq edi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakatimizning milliy g'oyasi har birimizga kelajakka ishonch, madad, kuch-g'ayrat, shijoat berib, yoshlarimizni, xalqimiz va millatimizni ulug'vor va bunyodkor ishlarga, Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo'lida birlashishga safarbar etadi.

Ushbu yilning yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb e'lon qilinganidan ham bilish mumkinki yurtimizda insonga e'tibor toboro ortib bormoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon. Bu esa Yangilangan Konstitutsiyamizning mohiyatini aks ettiradi.

O'zbekiston aholisi 2040 yilga borib 50 millionga yetishi, xususan yarmidan ko'pi yoshlar bo'lishi, ularga munosib sharoit qilib berish uchun barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo'lishi lozim. Bularning barchasi uchun mustahkam huquqiy poydevor - Yangi O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasidir. Yangilangan Konstitutsiya taraqqiy etgan davlat – Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida yoshlarni, butun jamiyatimizni jipslashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. 2016 yil 18 oktabr kuni Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sesiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqi //Xalq so'zi, 2016 yil 19 oktabr.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008. –B. 34, 36.
3. Irisov A. Ibn Sinoning falsafiy risolalari. Toshkent, O'zbekiston. 1963 yil 20-b.
4. Muloqot jurnali, 1999 yil. № 4. 21-bet.
5. Barkamol avlod orzusi. T. , «Sharq» nashriyoti matbaa konserni. 1999 yil, -B. 144.
6. Nosirov K. Ajdodlar sabog'i. Jamiyat va boshqaruv 1999 yil, №1-2. -B. 45.
7. Yusupov E., Yusupov O'. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2003, 18-bet.
8. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. Oliy o'quv yurtlari uchun. T. , «O'qituvchi», 1997, 294-bet.
9. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T. , «Fan», 1994, 72-bet.
10. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. T. , «O'zbekiston», 2000, 174-bet.



Uchkun RAXMATOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: uchkun.rakhmatov@inbox.ru

TerDU dotsenti, b.f.n D.Kadirova taqrizi asosida

INTEGRATIV YONASHUV ASOSIDA BIOLOGIYADAN MASALA VA MASHQLAR YECHISH FANINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fani mavzularni o'qitish metodikasi, shuningdek, fanni o'qitishda integratsiyaning zarurati hamda fanlar integratsiyasini amalga oshirishning metodik xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, interoeksiya, sinektika, kogerentlik, biologik masala va mashq, osimlik, hayvonot dunyosi, odam organizimi, fizika, kimyo.

THEORETICAL PRINCIPLES OF TEACHING THE SCIENCE OF BIOLOGY PROBLEM SOLVING AND EXERCISES ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation

In this article, the method of teaching subjects of the science of solving problems and exercises from biology based on an integrative approach, as well as the need for integration in the teaching of science and the methodical features of the implementation of the integration of sciences are highlighted.

Key words: integration, interoaction, synectics, coherence, biological problem and exercise, flora, fauna, human organism, physics, chemistry.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ БИОЛОГИИ РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ И ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье рассмотрены методика преподавания предметов науки по решению задач и упражнений из биологии на основе интегративного подхода, а также необходимость интеграции в преподавании естественных наук и методические особенности реализации интеграции наук. выделено.

Ключевые слова: интеграция, взаимодействие, синектика, связность, биологическая задача и упражнение, флора, фауна, организм человека, физика, химия.

Kirish. Jahonning barcha yetakchi rivojlangan mamlakatlari ta'lim mazmuni va sifatini tubdan isloh qilish zahirida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish iqtisodiyotning muhim poydevori sifatida e'tirof etilgan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi tub islohotlar asosida ta'lim mazmuni sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini zamonaviy talablarga mos holda takomillashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni bosqichma- bosqich tatbiq etish asosida har tomonlama intellektual rivojlangan yosh barkamol avlodni voyaga yetkazish, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini yuqori darajaga olib chiqish, tahsil olayotgan o'quvchilarning baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barcha fanlar, xususan, biologiya o'quv fanini chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan. Maskur ustuvor vazifalarni bajarishda pedagoglar jamoasi bilan bir qatorda bo'lajak biologiya fani o'qituvchi-larining zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida integratsion yondoshuvni o'zni beqiyos sanaladi. Bu borada hukumatimiz tomonidan qator qonun va qarorlar qabul qilingan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020 yilning 12 avgustida "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi yuqoridagi fikrimizning amaliy isbotidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori ilovasining 4-bandiga ko'ra "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash" vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalarni ijrosi barcha mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, professor-o'qituvchilarning sayi-harakatlari bilan Biologiya fani bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari" tayyorlandi. Bu MO'Dda maktabgacha, umumiy o'rta, akademik litsey, boshlang'ich professional va oliy ta'lim dasturlarining uzviyligi ta'minlandi. Bu albatta keng ko'lamdagi amaliy ishlardan sanaladi va har tomonlama yetuk bo'lgan kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, barcha fanlar kabi biologiya fanini rivojlanish tarixiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrga kelib, o'zining tekshirish ob'ektlariga ko'ra, differensiallanishi natijasida yangidan yangidan yangi sohalar "Botanika", "Zoologiya", "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi", "Rivojlanish biologiyasi", "Genetika", "Mikrobiologiya", "Molekulyar biologiya" va yana ko'plab tarmoqlari vujudga kelgan.

XXI asrga kelib o'zining tekshirish ob'ektlarining turli jihatlarini o'rganish boshlagan. Ushbu ob'ektlarni o'rganish natijasida tirik organizmlarda ro'y beradigan jarayonlarni sir-sinoatlarini tom ma'noda o'zlashtirish jarayonida bir fanning kuch qudrati yetarli emasligi ya'ni integratsiyalashgan ta'limga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ko'zga tashlandi. Chunki, fan asoslarini puxta egallash, tirik organizmlarda ro'y beradigan biologik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetish uchun turli fanlar yutuqlaridan foydalanish lozimligi ta'lim amaliyotida o'z isbotini topdi.

Fanlar integratsiyasini amalga oshirish jarayonida bo'lg'usi biologiya o'qituvchisi *birinchi* navbatda integratsiya, integrallashgan bilimlar to'g'risida bilim va malakalarga ega bo'lishi zarur. *Ikkinchidan*, shu maqsadga yo'naltirilgan, metodik asoslangan, ilmiy yo'nalishga ega ishni rejalashtirgan bo'lishi lozim. *Uchinchidan*, o'quv materiallarining ilmiy ahamiyatini asoslab beruvchi, mazmuni - mohiyati bo'yicha maqsadga muvofiq integrativ materiallarni tanlay bilishi va o'zining pedagogik amaliyoti davomida samarali qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash borasidagi tushunchalarni bo'lajak biologiya fani o'qituvchilar o'zlarida shakllantirishi lozim. Shu nuqtai nazardan fanlarni integratsiyalashning metodik xususiyatlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq sanaladi. Fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni pedagogik amaliyotida asosan uch yo'nalishda: kognitiv, konseptual, integrativ model asosida shakllanadi. Kognitiv yo'nalishning uch turi farqlanadi: introeksiya, sinektika, kongerentlik.

Interoeksiya – talabaning individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini o'z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi sanaladi. Bu jarayonda talabalarning tafakkuri muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda shaxsning tafakkuri muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Sinektika – turli fanlar bo'yicha amalga oshirilayotgan o'quv-bilish faoliyatining konseptual xususiyatlarini umumlashtirish. Ayrim faoliyat turlarida bu jarayon "integratsiya" ham deb ataladi. Sinektika – turli rejali (turli sifatli va turli modallikdagi) bilimlarni yangi sifatli sintezlash qobiliyati. U inson qobiliyatlarining hech qanday umumiy bog'liqlikka ega bo'lmagan (daryolar oqimi, insonlar oqimi, axborotlar oqimi va h.k.) turli-tuman jarayonlarda fikrlashiga asoslanadi.

Biologiyadan masala va mashqlar yechish jarayonida o'rganilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda fizika, kimyo, biologiya, geografiya sohalarida o'zaro aloqador tabiiy-ilmiy g'oya, qonuniyat va tushunchalar, protsedura va ilmiy bilish metodlaridan foydalaniladi. Masalan, hujayra tarkibidagi oqsillar, uglevodlar, lipidlar va nuklein kislotalar tuzilishi, strukturalari, funksiyalari, tasnifiga doir masala va mashqlar yechish metodikasini o'rganishda talabalarning kimyo, fizika fanida o'rganilgan qonuniyatlardan foydalaniladi. O'quvchilarning tabiiy fanlardan o'rgangan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatda foydalanish sinektika qoidalariga mos keladi.

Kogerentlik integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlar asosan biologiyadan masala va mashqlar yechish jarayonidagi barcha elementar prinsip-larning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiy-kognitiv jihatdan joylanishini taqozo qiladi. Biologiyadan masala va mashqlar yechish metodikasida yakka, xususiylik va umumiylik kabi falsafiy tushunchalar haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi. Masalan, hujayra tarkibidagi biomolekulalar: uglevod, lipid, oqsil, nuklein kislotalar barchasi turli organizmlarda turlicha miqdorda

uchrashidan qat'iy nazar bir xil umumiy vazifani bajaradi. Shuningdek, oqsillar biosintezini o'rganishda har bir gen intron va ekzon qismlari mavjud bo'lib uning faqat axborot saqlaydigan qismlari splaynsing hodisasidan so'ng translyatsiya jarayonida qatnashadi va organism uchu zarur bo'lgan oqsilni sintezlaydi. Ma'lumki, yakka, xususiylik va umumiylik biologik ob'ekt va jarayonlarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy xususiyatlar hamda ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Kogerentlik - yangi tizimlarning strukturalarini chidamli, tartibli yaratish jarayonida kichik tizimlarning o'zaro muvofiqlikdagi harakati tushuniladi. O'qitishda kogerent integratsiya hozirgi davrda o'quv jarayonida integratsiya-lashning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Kogerent model umumiy o'rta ta'limda: kimyo va biologiya, fizika va biologiya, fizika va kimyo; Oliy ta'limda esa molekulyar biologiya, organik kimyo, molekulyar fizika kabi integratsiya-lashgan kurslarda amalga oshiriladi. Bunday integratsiyalash asosida, bir tomondan, tabiat, madaniyat va fan olami haqida yaxlit tasavvurlarning shakllanishiga erishilsa, boshqa tomondan, o'quv vaqti tejaladi. Bunday integratsiya nafaqat biologiya fanlararo (vertikal), balki fanlararo (gorizontal) muhim tabiiy-ilmiy o'rganish, pedagogik jarayonni yuqori darajada intensivlashtirish, mazmunli fanlararo integratsiyani o'rnatish, o'quv materialni ko'chirish imkonini beradi.

Kogerent modelni amalga oshirishning quyidagi texnologiyalaridan foydalaniladi: integratsiyalashgan kurs bir ta'lim sohasiga kiradigan fanlar mazmuniga muvofiq yaratiladi. Shuning uchun bir fan mazmuniga tushadigan og'irlik boshqa fan mazmuniga tushmaydi va "teng" taqsimlanadi. Bu integrativ jarayon tashkiliy uslubiy jihatdan, o'zlarining didaktik va metodik talablar asosidagi xususiyatiga ko'ra uch yo'nalishda mavjud bo'lishi integrativ didaktikani tahlil qilishda namoyon bo'ldi. Bular gorizontal, diagonal va vertikal integratsiya shaklida mavjud bo'ladi.

Ayrim manbalarda integrativ metodika va integrativ didaktika masalasini o'rganish o'zbek tilidagi "uyg'unlashtirish" atamasiga tenglashtirib tavsiflash, ular asosida xulosa chiqarish holatlari mavjud. Integrativ didaktika va integrativ metodika bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlarning mazmuni va mohiyati ta'limning integratsiyalashgan texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashda muhim omildir, bu didaktik va metodik integrativ modellarining ilmiy tahlili esa maktab biologiya kursi yuzasidan olib borilgan ilmiy-metodik ishlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi bilimlarga asoslangan holda 60110900-biologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidan o'rin olgan "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" fanini o'qitishda integrativ yondashuvni amalga oshirish metodikasi haqida mulohaza yuritimiz. Biologiyadan masala va mashqlar yechish tanlov fani bo'lib, o'quv rejada fan asoslarini o'rganish uchun 6 kredit ya'ni 180 soat ajratilgan. Shundan, 40 soat ma'ruza, 50 soat laboratoriya hamda 90 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Biologiyadan masala va mashqlar yechish fani o'quv rejadagi o'rin olgan boshqa fanlardan o'zining mazmun jihatidan murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu esa bo'lajak biologiya o'qituvchilari uchun o'zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarni vujudga keltirishi tabiiy hol. Xususan, biologiyadan masala va mashqlar yechish fani jadal suratlarida rivojlanib borishi va axborotlarning intensiv ravishda ortib borishi bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan fan mazmunini o'zlashtirishda integrativ bilimlarning shakllanishi va undan pedagogik jarayonda foydalanish metodikasining to'liq shakllanmaganligidir.

Biologiyadan masala va mashqlar yechish fanidan o'rin olgan mavzularni o'qitish jarayonida *gorizontal* integratsiyani amalga oshirishda 60110900-biologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidan o'rin olgan "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi", "Biologiya o'qitish metodikasi", "Immunologiya", "Genomika asoslari" fanlaridan olgan bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Diagonal bo'yicha integratsiya "Biologik kimyo", "Biotexnologiya", "Biometriya", "Bionika", "Radiobiologiya", "Biofizika", "Molekulyar biologiya" kabi fanlarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim. *Vertikal* holdagi integratsiyani amalga oshirish uchun esa "Botanika", "Zoologiya", "Rivojlanish biologiyasi", "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi", Genetika va seleksiya asoslari", "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi", "O'simliklar fiziologiyasi" kabi fanlarni puxta o'zlashtirgan bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Biologiyadan masala va mashqlar yechish mavzularini o'qitish jarayonida, integrativ bilimlarni tanlash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

o'qitishning maqsadga mos bo'lishi; o'quvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olishi; o'quvchi uchun yangilik bo'lgan materiallarni qamrab olishi va ularni izlanuvchanlikka bo'lgan qiziqishini orttirishi; o'quvchi tushunadigan oddiy, sodda tilda bayon etilishi; o'quvchilar ongida ilmiy tushunchalarni shakllanishiga xizmat qiladigan bilimlarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

Binobarin, bo'lajak o'qituvchi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni yig'ishi, balki uni tizimlashtirishi, ular bilan o'quvchilarni o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishning zaruriy yondashuv va metodlarni izlab topishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 августдаги "Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ 4805-сон қарори.//uz/oz/documents/kimye-va-biologiya-y-nalishlarida-uzluksiz-talim-sifatini-va-12-08-2020.
2. Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Sitologiya va genetika asoslari) O'quv qo'llanma. – T.; "Tafakkur avlodi", 2020. – 272 b
3. Raxmatov U.E. Masala va mashqlar orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Ped.fan. bo'yicha falsafa doktori diss... (PhD). – Nukus., 2021. – 136 b.
4. Shakhmurova, G. A., Azimov, I. T., Rakhmatov, U. E., & Akhmadaliyeva, B. S. Solution of biological problems and exercises (human and health). *Teaching-methodological guidance." Literature sparks.*
5. Kholmurodova, O. S., & Rakhmatov, U. E. (2022). Problems of improving teaching in the process of biological education. *Current research journal of pedagogics*, 3(02), 62-67.
6. Shaxmurova, G., Azimov, L., & Raxmatov, U. (2017). Biologiy ad an masalalar va mashqlar yechish.
7. Ergashevich, R. U., Salimovna, P. M., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Ways to use pedagogical technologies at the local level in biology lessons. *European International Journal of Pedagogics*, 3(05), 22-29.
8. Ergashevich, R. U., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Issues of using integrative knowledge in forming students'professional competence.
9. Раҳматов У.Э., Азимов И.Т., Азимов Б.И. Умумтаълим мактабларининг биология ўқитувчиларини масалалар ечиш жараёнида фанлараро боғланишлар орқали касбий компетентлигини такомиллаштириш // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў. Илмий-методикалык журнал. – 2019. – № 1–сон. –Б. 46–52.



Shuhrat RAHMANQULOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail:sh_rahmanqulov@gmail.com

F.f.f.d.(PhD) A.Abdurahmonov taqrizi asosida

YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

Annotatsiya

Maqolada jamiyatning faol qatlami bo'lgan yoshlarda faol hayotiy pozitsiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil etilgan. Shuningdek, yoshlarda faol hayotiy pozitsiya shakllanishida ta'lim tizimining o'rni masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, faol hayotiy pozitsiya, ta'lim, tarbiya, hayotiy strategiya, intellektual olam, ijtimoiylashuv, madaniy qadriyatlar, ma'naviy salohiyat.

THE PROBLEM OF FORMING AN ACTIVE LIFE POSITION IN YOUNG PEOPLE

Annotation

The article outlines the socio-psychological mechanisms of the formation of active life positivity in young people with an active layer of society. Also, issues of the role of the educational system in the formation of an active life position in young people are considered.

Key words: society, active life positivity, education, upbringing, life strategy, intellectual world, socialization, cultural values, spiritual potential.

ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОЙ ЖИЗНЕННОЙ ПОЗИЦИИ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье проанализированы социально-психологические механизмы формирования активной жизненной позиции у молодых людей, являющихся активными слоями общества. Рассмотрены также вопросы роли системы образования в формировании у молодежи активной жизненной позиции.

Ключевые слова: общество, активная жизненная позиция, образование, воспитание, жизненная стратегия, интеллектуальный мир, социализация, культурные ценности, духовный потенциал.

Kirish. Har qanday jamiyat taraqqiyoti uning bag'rida kamolga yetayotgan shaxsning ongi, dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, bir so'z bilan aytganda inson omili bilan bevosita bog'liq ekanligi ayni haqiqatdir. Shu boisdan ham mamlakati-mizda shaxs tarbiyasini izchil va zamon talablariga muvofiq olib borish bugungi kunda, avvalo ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi birinchi darajali vazifa qilib belgilangan.

Va buning amaliy isbotini so'ngi yillarda mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada shaxs kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1, 14] degan ezgu g'oyasi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ko'rib turibmiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. Yoshlik hayot siklining biologik jihatdan ma'lum bir bosqichi sifatida universaldir, ammo uning o'ziga xos yosh doirasi, u bilan bog'liq ijtimoiy holat va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega va ijtimoiy tuzumga, madaniyatga va ushbu jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiylashuv qonunlariga bog'liq.

Shaxsning faoliyati - bu asosiy xususiyatlarini (maqsadga muvofiqlik, motivatsiya, xabardorlik, harakatlar usullari, hissiyotlilik), shuningdek tashabbuskorlik va vaziyatlilik kabi xususiyatlarning mavjudligi bilan ajralib turadigan maxsus faoliyatdir.

Shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini rivojlantirish - bu tashqi va ichki ta'sirlar, o'z sa'y-harakatlari va maxsus

qurilgan pedagogik sharoitlar ta'siri ostida shaxsning kognitiv, motivatsion, axloqiy va xulq-atvor sohalarini ongli, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega, psixologik jihatdan aniqlangan, fuqarolik yo'naltirilgan mustahkamlash va rivojlantirishning doimiy jarayoni tushuniladi.

Yoshlar har doim ham to'liq foydalanilmaydigan katta salohiyatga ega - harakatchanlik, tashabbuskorlik, innovatsion o'zgarishlarga moyillik, yangi texnologiyalar, salbiy muammo-larga qarshi turish qobiliyati. Belgorod viloyatida ushbu tendentsiyalarni bartaraf etish va doimiy rivojlanishning samarali tizimini yaratish va iqtidorli yoshlarni mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida dasturlar va loyihalarni amalga oshirishga tayyorlash uchun etarli asos yaratildi.

Qat'iy hayotiy yo'nalish va o'z hayotiy strategiyalarini ishlab chiqish - bu hozirgi murakkab zamonaviy dunyoda yoshlar moslashuvining zarur shartlaridir. Yoshlarimiz o'zidan oldin o'tgan avlod to'plagan barcha ijtimoiy yutuqlarni qanchalik tez o'rganib, o'z ijodiy faolligida: mehnatda, fanda, siyosiy faoliyatida amalga tatbiq qilishni o'rgansa, shunchalik tez shaxs sifatida ijtimoiylashadi, ya'ni jamiyatdga moslashadi. Bunda ta'lim-tarbiya jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya ijtimoiylashuvning yetakchi va hal qiluvchi negizidir. Tarbiyaning asosini ta'lim, ya'ni oldingi avlod tomonidan to'plab kelgan bilimlar va madaniy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish jarayoni tashkil qiladi.

Ta'lim jamiyatni yuksaltirish yo'llarini ko'p jihatdan belgilab beruvchi ijtimoiy institutni o'zida ifoda egadi, chunki aynan u demokratik jamiyat ustuvorliklariga muvofiq yangi ijtimoiy ong shakllanishiga ko'maklashadi. Ta'lim va hozirgi

zamon jamiyatining bunday o'zaro yaqin munosabati tabiiydir, chunki ta'lim tizimi ijtimoiy bilimlar va professional ko'nikmalarni belgilabgina qolmay, balki asosiy mezonlar va hayotiy qadriyatlarini, shaxs va jamiyatning pozitsiyasini shakllantirib, ertaga hayotga qadam quyuvchilarni hayotga tayyorlab voqea-hodisalaridan oldinda boradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri - shaxs va jamiyat munosabatlarini konstruktiv tarzda yo'lga qo'yish, yoshlarda hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Yoshlar jamiyat hayotiga kirib borar ekan ularda atrof-muhitga, kishilarga, qadriyatlarga va o'ziga nisbatan muayyan hayotiy pozitsiya ham shakllanib boradi. Ular hayotida ro'y beradigan turli-tuman hodisalar muqarrar ravishda ong va dunyoqarashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu katta hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarda juda og'riqli kechishi ham mumkin. Ba'zida hayotning turli qiyinchiliklari, taloto'plari va evrilishlari oldida yoshlarda o'ziga nisbatan ishonchsizlik, hayotiy mo'ljallarning yo'qolishi, yuksak maqsadlar qo'yishdan cho'chish, o'z imkoniyatlarini yetarligha baholay olmaslik kabi salbiy hayotiy pozitsiya shakllanishi ham mumkin. Bu esa o'z navbatida yoshlarning jamiyatda o'zlarining munosib o'rini topa olmasligi, hattoki turli yot g'oyalari ta'siriga tushib qolish ehtimolini oshiradi. Shu boisdan ham ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsda konstruktiv hayotiy pozitsiya shakllanishiga ko'mak berishi zarur.

Yoshlarning hayotiy pozitsiyasi hayotda tutgan o'rni va o'z vazifasini to'g'ri anglashi xamda uni ro'yobga chiqarish uchun o'ziga xos yo'llanma bo'lib xizmat qiladi. U jamiyat uchun yo sermahsul, yo shaxsning passivligiga olib boruvchi cheklangan, barqaror bo'lmagan, mustaqillikka yod bo'lishi mumkin. Olimlarning fikricha, "yoshlik chog'ida o'zini ifodalash, o'zini ro'yobga chiqarishga ehtiyoj paydo bo'ladi, o'zini ro'yobga chiqarish sohasini va uning usullarini tanlash, eng avvalo, yoshlik yillarida yuz beradi" [2, 255].

Yoshlar guruhini tahlil qilishda, shuningdek, ularning jamiyatdagi o'rini, maqomini va rolini ajratib ko'rsatish zarur. Yoshlik har bir inson o'z taqdirini o'zi belgilab olishi, o'z qobiliyati va iqtidorini mumkin qadar ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi muvaffaqiyatli hayot yo'lga yetaklovchi yagona to'g'ri yo'lni topishi lozim bo'lgan davr deb hisoblanadi. Bu davr o'z "Meni"ning og'riqli qiyin jarayoni bilan birga kechadi. J. G. Mid ta'rifiga binoan, bu quyidagicha ko'rinish oladi: "Yoshlar ulg'ayib, ijtimoiylashtirish jarayonida ularni tayyorlagan dunyoga emas, boshqa dunyoga kelib qoladi. Kattalar tajribasi yaramaydi. Yoshlarni ijtimoiy tuzilmada bir nuqtai nazardan mashg'ulotlarga tayyorlaydilar, tuzilma esa boshqacha, avvalgi pozitsiya unda yo'q"[3, 56].

Tahlil va natijalar. J.G.Midning yoshlarning ijtimoiy hayotiy pozitsiyasi to'g'risidagi fikri bir qarashda keskin va bir tomonlama tuyulsada, chuqur mushohadaga chorlashi bilan e'tiborga molikdir. Buni hozirgi ta'lim-tarbiyaning bir qator ustuvor xususiyatlari, asosiy tamoyillari bilan bog'lash mumkin.

Birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining reallikdan ko'ra, ko'proq idealistik mohiyatga ega bo'lib qolganligi. Bunda tizim J.Mid aytganidek, yoshlarni ko'proq nazariy bilimlar bilan to'yintiradi (biroq aksariyat yoshlar bu bilimlardan amalda foydalanish ko'nikmasiga ega emas) va ideal hayotga tayyorlaydi. Bu hususiyat ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida kuzatiladi. Bu aslida hozirda ta'lim-tarbiya tizimi duch kelgan paradoksal vaziyatdir. Yo tizim yoshlarni muammolardan holi bo'lgan "ertaknamo" jamiyatda yashash ko'nikmalarini shakllantirish orqali sog'lom va normal jamiyat qurilishiga erishishi lozim, yoki yoshlarni real dunyoga (murakkab hayotning turli muammoli vaziyatlariga) tayyorlab ideal maqsadlardan uzoqlashtirish kerak. Tizim mazkur dilemmada birinchi yo'lni tanlagan va

buning natijasida katta hayot (real hayot)ga qadam qo'yayotgan yoshlar asosan 15-18 yoshda birdaniga notanish olamga tushib qolishdek ulkan bosimga duch keladilar. Bu ularning hayotiy strategiyasini havf ostida qoldiradi hamda keyinchalik jamiyatga nisbatan yo radikal yoki loqayd kayfiyatni yuzaga keltiradi. Balki bu suidsidal holatlarning aynan mana shu yoshda yuqori darajada bo'lishining sabablaridan biri bo'lishi ham mumkin.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarning ekzistensial ehtiyojlarini inobatga olishning sustligi yaqqol seziladi. Ekzistensial pedagogikaning rivojlanmaganligi yoshlar bilan bog'liq turli ekzistensial muammolarning o'z vaqtida hal etilmasligiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Gap shundaki, hozirgacha o'z ta'sirini saqlab qolgan sobiq Sovet Ittifoqi fani va pedagogikasida uzoq vaqt davomida mahalliy olimlar ekzistensial falsafaga shubha bilan qaraganlar va hozirgi pedagogikamiz ham ushbu yondashuvdan butunlay halos bo'la olmagan. Sovet pedagoglari "Burjua" falsafasi Sovet Ittifoqi xalqlarining siyosiy hayoti mafkurasiga zid bo'lib, ijtimoiy ongga ham jiddiy zarar etkazadi, deb hisoblashgan. Bunda yondashuvga misol tariqasida "Pedagogika tarixi" darsligida (1981) gi quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: "Har doim va hamma joyda o'z "ekzistensiyasi", o'z "men"ini namoyon qilish zarurligi haqidagi ekzistensialistik targ'ibot yoshlarni ijtimoiy manfaatlaridan chalg'itadi. Ekzistensializm inson va jamiyatni (jamoani) bir biriga qarama-qarshi qo'yadi. Ekzistensializm pedagogikasi shaxsni jamoaga "singib ketish"ini salbiy hisoblovchi burjua tizimining yoshlarni ijtimoiy, ayniqsa, ishchilar (proletar) harakatlardan uzoqlashtirishga bo'lgan umidlarini aks ettiradi. U jamoadagi tarbiyaning marksistik tamoyillariga qarshi yo'nalgan bo'lib burjua jamiyatiga xos bo'lgan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni abadiy deb hisoblaydi. Ekzistensializm nazariyotchilari tarbiyada aqliy rivojlanish emas, balki hissiy rivojlanishni muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydilar. Intellektual rivojlanishni emosional rivojlanishga qarshi qo'yish nafaqat dunyo ilm-fan ma'lumotlariga, balki sog'lom fikrga ham ziddir"[4, 114-115]. Biroq, bugungi kunda mahalliy fan qiziqish bilan ekzistensialistlarning (ham faylasuf, ham psixologlarning) qarashlariga murojaat qiladi, ularning ko'pgina g'oyalarini tushunadi va qabul qiladi. Ba'zi bir ekzistensial jihatlariga murojaat qilish, bizning fikrimizcha, zamonaviy ta'limda pedagogika fanning faoliyat maydonini kengaytiradi. Hozirda mamlakatimiz pedagog olimlarining muhim vazifalaridan biri ta'lim muammolarini hal qilishda muhim bo'lgan ekzistensializm g'oyalarini pedagogik asosga yo'naltirishdir. Pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim nazariyasi va amaliyotiga nisbatan mavjud bo'lgan pozitsiyani qayta ko'rib chiqishimiz, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarining ba'zi jihatlari, xususan shaxsning o'zini o'zi ishontirish muammolari, ijodkorlik, erkinlik va unga mutanosib ravishda javobgarlikni olish qobiliyatlari, vijdonni tarbiyalashga, bir so'z bilan aytgan konstruktiv hayotiy pozitsiyani shakllantirishga e'tibor qaratis lozim.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya ijtimoiy o'zgarishlarga eng tez moslashuvchan va ayni vaqtda ana shu o'zgarishlarni determinantlaydigan jarayon bo'lishi kerak. Zero, stereotiplar hukmronlik qilgan ta'lim-tarbiya zamondan ortda qolish va reallikdan uzoqlashtirishga mahkum. Shu boisdan ham bunda nafaqat pedagogika, balki turli fanlar: falsafa, sosiologiya, psixologiya fanlari kesimida metodologik monitoringni tizimli yo'lga qo'yish, bu borada mana shu fanlar kesimidagi ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish zarur. Bu zamon talablariga mos kelmay qolgan ta'lim-tarbiyaga oid eskicha yondashuvlarni aniqlash va ulardan voz kechish imkonini beradi. Bir so'z

bilan aytganda bu borada konservativ yondashuvlar mutlaq hukmron bo'lishiga yo'l qo'yimaslik lozim. Bu qadriyatlarini muntazam qayta baholab borishni taqozo etadi. Gap shundaki, ohirgi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda ta'lim-tarbiya jarayonida ayrim pedagoglar tomonidan tarbiyalanuvchi, o'quvchi yoki talabaga nisbatan kuch ishlatilishi bilan bog'liq vaziyatlar keng muhokama qilinmoqda. Bunda ikki hil dunyoqarash, ya'ni liberal va konservativ dunyoqarash to'qnash kelayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Kuch ishlatish, zo'ravonlik va qo'rqtirish vositasida itoatkorlik sifatini shakllantirishga asoslangan ta'lim va tarbiya quldorlik hamda feodal tuzumlardan qolgan stereotiplar hisoblanadi aslida. Bunday yondashuv ohir-oqibatda mute', infantil va o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmagan, tashabbusiz shaxs shakllanishiga olib keladi. Biz yoshlarni sifatli ta'lim va tarbiya olishga haqli iste'molchi shaxs sifatida qaramas ekanmiz, ta'lim-tarbiya va motivatsiya bir-biridan ayro hodisalar bo'lib qolaveradi.

To'rtinchidan, kichik yoshlikdan boshlab bolada hayotiy maqsadlar qo'yish va unga stimuly berish shaxs hayotiy pozitsiyasi shakllanishining muhim shartidir. Bu avvalo oiladagi tarbiya jarayonidan boshlanadi. Biroq, hayotiy kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, oila instituti bolada hohish va istaklarni maqsad darajasiga ko'tarishga yetarlicha imkon topa olmayotir. Aksariyat oilalardagi ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar haotik va fatal tarzda yo'lga qo'yilgan. Aksariyat ota-onalar yo tirikchilik tashvishi bilan band, yoki ularda pedagogik-psixologik bilim hamda tajriba yetishmaydi. Natijada bola sosializatsiyaning ilk va muhim bosqichini yo televizor qarshisida, yoki o'z tengdoshlari bilan muloqotda o'tkazadi. Amerikalik mashhur psixolog olim E.Bern tadqiqotlari shundan darak beradiki, shaxsda hayotiy pozitsiya, ya'ni boshqa kishilarga, qadriyatlarga va o'ziga bo'lgan barqaror va o'zgarishi qiyin bo'lgan nuqtai nazar, qarash va munosabatlari bolada 3-7 yoshgacha oilaviy

munosabatlar ta'sirida shakllanib ulgurur ekan [5, 23]. Aynan mana shu yoshda bolaning keyingi butun hayotiy yo'lini belgilab berishga qodir hayotiy maqsadlar ham shakllana boshlaydi. Biroq, aksariyat holatlarda nafaqat oila va maktabgacha tarbiya muassasi, balki maktab yoshida ham shaxsda hayotiy muhim maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik faoliyat nihoyatda sust yo'lga qo'yilgan. Ta'lim-tarbiya muassasalarida malakali psixolog mutaxassislar yetishmasligi ham muammoning asl sabablaridan biridir. Odatda hayotiy maqsadlar yoshlikdan bola tomonidan muayyan kasb-korni tanlash uni ana shu maqsadlarining muhim vositasi sifatida qabul qilish jarayoni bilan kechadi. Bolalikdan muayyan professional pozitsiyani shakllantirish yuksak kadrlar tayyorlash va kadrlarni joy-joyiga qo'yishning muhim negizi hisoblanadi. Zero, mehnat samaradorligi va kasbga muhabbat uzviy aloqador hodisalaridir. Biroq, qator tadqiqotlar olib borib shunday hulosaga keldikki, oliy ta'limda tahsil oluvchi aksariyat talabalarda kasb tanlash mezoni hayotiy maqsad va qiziqishlardan emas, balki imkoniyat va zarurat natijasida kelib chiqqanligi muammoning naqadar jiddiyligini ko'rsatadi (sosiologik so'rovda ayrim fakultetlarda 60-70% gacha o'z tanlagan kasbiga qiziqishning yo'qligi kuzatildi).

Xulosa. Faol hayotiy pozitsiya o'qituvchilar va talabalar orasida pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining o'zaro harakatlar uchun, uning ishtirokchilarining qo'llab-quvvatlanadigan va takomillashtirilgan munosabatlari sifatida, o'quv faoliyati natijalari uchun juda katta darajadagi javobgarlikni anglatadi. Umuman fikrlarimizni muxtasar qilib aytganda, shaxsda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining o'rni va ahamiyati katta. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya jarayonini puxta tashkil etish, undagi kamchilik va muammolarni vaqtida bartaraf etib borish, bu jarayonga zamon talabidan kelib chiqib innovasion yondashuvlarni keng joriy qilish nihoyatda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., O'zbekiston, 2016. –B.14.
2. Abulxanova K. A. Strategiya jizni. -M.: Mysl, 1991. S.255.
3. Mead G. Mind, self and society. - Chicago, 1934. P.56.
4. Istoriya pedagogiki / Pod red. M. F. Shabayevoy. - M. : Prosvetnyeniye, 1981. –S.114-115.
5. Berne E. *Classification of Positions*. Transactional Analysis Bulletin, 62(3), 1962. p.23.



*Ixomiddin RUSTAMOV,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti*

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti M.Teshaboev taqrizi asosida

FAROBIIY VA IBN SINO ASARLARIDAGI INSONIY SIFATLARNI FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya

Maqolada mutafakkir olimlardan Farobiy va Ibn Sinoning o‘z asarlarida keltirgan insoniylik hislarini falsafiy-ilmiy talqini haqida so‘z boradi. Inson ruhi, aqli, jismi bir vujud mohiyatini anglatishini maqolada tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Asar, tib, jon, ruh, quvvat, tabiat

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ТРУДАХ ФАРАБИ И ИБН СИНА

Аннотация

В статье говорится о философско-научной интерпретации чувств человечества, данной мыслителями Фараби и Ибн Синоу в их произведениях. В статье рассматривается тот факт, что душа, разум и тело человека представляют собой суть одного существа.

Ключевые слова: Труд, душа, дух, сила, природа.

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF HUMAN QUALITIES IN THE WORKS OF FARABI AND IBN SINA

Annotation

The article talks about the philosophical and scientific interpretation of the feelings of humanity given by the thinkers Farabi and Ibn Sina in their works. The article discusses the fact that the soul, mind and body of a person are the essence of one being.

Key words: Labor, soul, spirit, strength, nature.

Kirish. Falsafa fani rivojlanish nuqtasining yangi bosqichi yurtimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng boshlandi. Bunda buyuk allomalarning ilmiy merosi o‘rganilishi borasida keng ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Farobiy va Ibn Sinoning asarlarini o‘rganish ham shu sohaning bir qismi sifatida rivojlanib bormoqda.

Ibn Sino fikricha, (jon) vujud mohiyatining shaklidir. Ruh tana bilan birga bo‘lgan vaqtida uning aqliy quvvati o‘z tabiatini (ya‘ni, ruhning tabiatini, o‘zligini) bilishga o‘zlik qiladi. Ruh faqat (vujudsiz) o‘z quvvati bilangina o‘z tabiatini bila oladi. Lekin ruh o‘z tabiatini, mohiyatini (o‘zligini) aqliy quvvati bilan bilolmaydi. U hayoti davomida tajriba orttirish orqali, alohida holatlarda (ya‘ni, juda chuqur tafakkurga berilganida) asta-sekin o‘zini anglay boshlaydi. Ammo inson shunda ham o‘z ruhining yashirin, sirli tabiatini anglay olmaydi.

Ibn Sino ruhning tanadan ayrilgan vaqtidagi holatlari haqida fikrlar ekan, ta‘kidlaydiki, turli ruhlar o‘z tanalarining talab, istak, ehtiyojlari tabiatiga ko‘ra alohida sifatlarga ega bo‘ladilar. Shy farqlarga ko‘ra, badan istak, mayllarini, hayvoniy ehtirolarini jilovlab, tiya olgan ruhlar musafforoq, boshqa ruhlar zaif va nopok bo‘lishlari mumkin. Ibn Sino fikricha, badan asirligidan qutulgan ruh kuchliroq bo‘la boshlaydi va har qanday narsaning buzilishi unga aloqador boshqa narsaning buzilishi bilan bog‘liqdir. Misol uchun, daraxtning tanasi kesib tashlanib, quritilganida uning barglari ham quriydi. Chunki barglarning yashilligi tananing yashashiga bog‘liqdir. Bunday bog‘liqlik va munosabatlar turli shaklda bo‘ladi.

O‘simlik ruhi (joni) o‘simlik tanasining hayotiga muvofiqdir. Bunday munosabat arazli, aksidensiyali emas, balki javharyi, mohiyatli munosabatdir. Bunday munosabatda ruh va tana boshqa bir ruh va tanaga bog‘liq emas, chunki ruh va tana har ikkalasi javhar, substansiya ko‘rinishda bo‘lolmaydi. Bir javhar xuddi o‘ziga teng boshqa javharga,

mohiyatga bo‘ysunmaydi, bog‘liq bo‘lmaydi. Narsaning mohiyati, tabiati aksidensiya bilan birgalikda buzilmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Masalani mamlakatimiz faylasuf olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ishlarini misol qilib tahlil etildi. Ulardan A.Zohidiy, A.Irisov, A.Sharipov, D.Birukov, Ye.Krainskaya, O.Fayzullayev, S.Raximov, R.Nosirov, M.Xayrullayev, M.Jakbarov, M.Sharipov, H.Aliqulov, M.Baratov, M.Boltayev, Yu.Djumabayev, X.Djanmatova, H.Hamidovalarning ilmiy izlanishlarini ko‘rsatish darkor. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar asosan mutafakkirlarning etika, psixologiya, pedagogika va falsafa tarixiga doir qarashlarining talqiniga bog‘ishlangan[1].

Natija va yechimlar. Bunday munosabatda (aksidensiya buzilsa ham mohiyat buzilmasligida) mohiyat (daraxt tanasi) aksidensiya (barg) sababining oqibati bo‘lishi mumkin emas. Ruh bilan tana munosabati boshqachadir. Bu munosabatda ruh bo‘lmasa, tana harakat qilolmaydi, ya‘ni faol emas. Chunki tananing faolligi ruhiy quvvatlarga bog‘liqdir. Jismoniy quvvatlar esa aksidental, ya‘ni o‘zgaruvchi bo‘lib, ruhning moddiy suvrati shaklidir. Shunday ekan, inson ruhi uchun tana sababchi emas, chunki tananing faoliyatiga ruh sababchidi[2].r. Moddiy jismning yashashi o‘simlik, hayvonlarda va insonlarda nafsga bog‘liqdir.

Allomaning bu falsafiy fikrlardan, ilmiy asoslangan xulosalardan ko‘rinadiki, Ibn Sino ruh - vujud munosabatida jism, tana buziladi va yo‘qoladi, ruh esa yemirilmaydi va yo‘qolmaydi, degan mustaqil xulosaga keladi.

Ibn Sino qayd qiladiki, insoniy ruhning ikki turi va ma‘nosi bor[3]. Ya‘ni agar ruh tanadan avval mavjud bo‘lsa, uning tabiati yo ko‘plikda yo alohida holda mavjud bo‘ladi. Bu masalaga yanada chuqurroq qarasa, ta‘kidlash lozimki, ruh mabodo tanadan avval mavjud bo‘lganida ham, u kelgusida yo o‘tmishda qo‘shiladigan tananing ruhi emas, balki boshqa ruhdur. Chunki ruh moddiy jism bo‘lmagani

uchun uning hajmi, rangi, og'irligi kabi miqdor o'lchovlari mavjud bo'lishi mumkin emas. Ruhning faqat tabiati, sifatleri, daraja, martabalari turlicha ko'rinishlarda bo'lishligini e'tirof qilish mumkin.

Insonlar o'lganidan so'ng boradigan joyi, qayta tirilishi - maod haqidagi fikrlari islomiy shariat ahkamlariga muvofiq kelmaydi. Shu sababli, ortodoks, rasmiy islom ulamolari Ibn Sinoning bu haqdagi falsafiy yondashuvi va ilmiy qarashlarini keskin tanqid qilganlar. Ibn Sino "Ash-Shifo" asarining "Maod" bo'limida bunday yozadi: "Inson ruhining tanadan ajralganida qanday holatda bo'lishini tadqiq etish zarur. Maod haqida shariatda nima deyilganligini bilish lozimdir. Lekin bu masalada payg'ambar xadislarda aytilgan fikrlar bu masalaning yagona yechimi emas". Bu joyi Ibn Sinoning fikriga o'xshamaydi, bu zardushtiylik ruhidagi tadqiqotchilar fikri bo'lishi mumkin [4]

Aslida shu munosabat bilan Ibn Sino quyidagilarni ta'kidlaydi: Bu masalada ahvol shundayki, odamlar maod haqidagi qarashlarida asosan o'lgan odam ruhining tiriklikda qilgan savob ishlari yoki gunoh ishlari bilan bog'lab fikrlaydilar. Bu masalada (hadislardan oshirib) pand-nasihat qilishga xojat yo'q. Payg'ambarimizning inson tanasining o'limdan so'nggi ahvoli haqida aytganlari, marhum tanasining baxt-saodati yoki kulfat, uqubati bilan bog'liqdir.

Ibn Sino ta'kidlashicha, ba'zi donishmandlar (faylasuflar) "maod" (qayta tirilish) haqida gapirganlarida inson tanasining savobli yoki gunoh ishlariga emas, balki ruhining baxt-saodatga erishuviga e'tibor beradilar. Insonning turli ruhiy quvvatlarida yo fazilatli, ezgu, savob ishlarga moyillik yoki yovuzlik, jabr, zulmga moyillik bo'ladi. Ruh o'zligini tanisa va ruhiy olamini yaxshi, xayrli ishlar bilan bezasa, oxiratda ham baxt-saodatga erishadi. Agar ruh komillikka va fazilatlariga intilmay, yomonlik, gunoh ishlar bilan o'zini ifloslantirsa, ular oxiratda jazo va azob-uqubatlariga uchraydilar[5].

Shunday qilib, Ibn Sino fikricha, inson ruhi erkin harakat qiladi. U yangi aflotunchilar aytgan, ruh xato qilib, tanaga kirib qolgan degan fikrni inkor etadi. "Tana ruh faoliyati uchun ish qurolidir". Ruh bilan tana qo'shilishining asosiy sababi - ruhning o'z faoliyatida tanadan foydalanishi uchundir.

Ibn Sino falsafiy ta'limotini tadqiq qilgan ingliz faylasufi va Eduard Karpenter buyuk allomaning izdoshi kabi, inson ruhi va tanasi munosabatlari haqida bunday yozadi: "Biz chindan mustaqil nav'larmi yoki yakaligimiz bizning "Men"imiz yoki ruhimizning bir qismimi? Yoki individuallik, ruh o'zi butunlik emasmi? "Men"imiz jismimiz bilan birga yashaydimi yoki jismimiz "Men"imizning bir qismimi? Jism - yaxlit inson bo'lmay, "Men"imizning bir a'zosimi? Men inson tirikligidayoq kirishi mumkin bo'lgan abadiy, o'lmas sohalar borligiga ishonaman"[7].

Ibn Sino falsafiy ta'limotiga binoan inson tanasidagi, buzilish, chirish (arabcha - fasod) badanga, jismga taalluqli, tana o'lganidan so'ng ruh Aqli Kull - Olamiy Aqlga qo'shilib ketadi. Ammo yovuz ruhlar tanasi o'lganidan so'ng og'ir ahvolda tushib, abadiy azob-uqubatlariga qoladi. Inson ruhining oxiratda baxt-saodatga erishuvi insonlarning bu dunyoda ma'rifat kasb etishi va ma'naviy musaffo bo'lib yashashiga bog'liqdir.

Alloma falsafiy qarashlarida muhim o'rin egallagan allegorik, majoziy mazmundagi "Ayniyayi ruhiya" qasidasida inson ruhining bu dunyoda qiynalishi va tanadan ayrilib, samoviy yuksaklik, Arshi A'loga qaytishini tasvirlaydi.

Mutafakkir ushbu asarida quyidagilarni bayon qiladi. Yuksak parvoz qiluvchi kabutar senga (jismingga) samoviy uyasidan uchib kelgan. Bu olis parvoz vaqtida kabutarning ma'naviy go'zalligini yer libosi to'sib qo'yib, ko'zga

ko'rinmaydigan qilib qo'ygan. Lekin ruhning mislsiz go'zalligini faqat haqiqatni ko'ruvchi chinakam oriflar va faylasuflar ko'ra oladilar. Asarda tasvirlanishicha, ruh kabutari yuksak olamdan tuban olamga kelganida, bu yerdagi hayotning zulmat va zimistonligidan azob cheka boshladi[9].

Ruh kabutari o'zining Arshi A'lodagi go'zal hayotini eslar va sog'inar edi, samoviy vatanidan ayrilganiga iztirob chekar, ezilar edi. Lekin yillar o'tib, ruh kabutari yerdagi o'tkinchi tashvishlar bilan andarmon bo'lib, kundalik voqealar uchun yelib-ugurib, samoviy olamning go'zalligini, ezguligini, betakrorligini unutdi. U asta-sekin zamindagi suvsiz, giyohsiz cho'llarga, go'zalliksiz turmushga, ijtimoiy qiyinchiliklarga ko'nika boshladi. Natijada ruh kabutari mangu va cheksiz samoviy go'zalliklar olamidan butunlay uzoqlashib, yer yuzidagi o'tkinchi va cheklangan olamga kelgach, yuksak go'zallik olamini unutib, tana asirligida qolib, bolu parlari ifloslashdi. Ruh kabutari yer yuzidagi odatdagi mazmunsiz hayotining ayrim lahzalarida xotirasida muhrlangan, ya'ni o'zining olijanob, samoviy qush ekanligi, Arshi A'lodagi go'zal hayotidan ayrilganligi esiga tushib, qattiq qayg'urar, afsus-nadomatlar bilan ko'zlaridan duv-duv yosh to'kardi.

Ruh qushi tana qafasidan qaytish vaqti kelgunicha shunday g'am-qayg'uli kunlarni, yillarni, davrni boshidan kechirdi. U tana qafasidan, yerdagi hayot zanjirlari va turlaridan qutilgach, u yana o'zi kelgan go'zal, samoviy maskanga qaytishidan sevinib ketdi. Ruh qushi yana samovot sari olis parvozini boshladi. Shu vaqtda ruh kabutarining qalb ko'zlaridagi parda yo'qolib, u oddiy, mudroq uyudagi jonivorlarning ko'ziga ko'rinmaydigan samoviy olam go'zalliklarini ko'ra boshladi. Allomaning tasvirlashicha, sevinch va hayratdan mag'rurlanib, qanotlarini erkin yoydi va cheksiz, mangu samoviy hayot sari talpindi [9].

Ibn Sino chuqur falsafiy mazmun kasb etuvchi kasb qissada Ruh qushining zaminga kelishini xayrli demaydi, uning samoviy hayotiga qaytishi sababini salbiy holat sifatida baholaydi. Ruh qushining qaytishini alloma ruhning komillik sari parvozi deb biladi.

Ibn Sino ilmiy falsafiy xulosasiga ko'ra, insoniy ruh tanaga bog'langan, qaram emas, u tanadan mustaqil ravishda ruhlar olamida yashaydi. Aqliy ruhning abadiyligi uning o'z mohiyatidan emas, balki, uning Avvaliy Aql bilan bog'liq bo'lgan sifatidir. Ta'kidlash lozimki, Xudo birinchi marta Avvaliy Aqlni yaratgan. Shundan tug'ilgan, vujudga kelgan aqliy ruh abadiy yashaydi. Faylasuf alloma Arastuning fikricha, ruh - jimsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Jism ham ruhsiz yasholmaydi. (Bu yerda inson jismi ko'zda tutilgan). Eng quyi mavjudotlar ham muayan shaklga egadir. Shakli bor narsalarning ruhi ham mavjud. Shu sababli butun borliqda shakllar va ruhlar hamohang yashaydi. Ustozi Aflotundan farqli ravishda, Aristotel ruhni abadiy, mutloq demaydi va uning turli tanalarga ko'chib yurishini ham e'tirof etmadi.

Sharqda Ibn Sinodan avvalroq o'tgan mutafakkirlardan, faylasuflardan islom falsafasi asoschilaridan biri bo'lgan Abu Yaqub al - Kindiy fikricha, moddiy olam bilan ilohiy olamni bog'lab turuvchi o'rtadagi halqa - inson ruhidir va inson ruhi olamiy ruhning bir qismidir[7.2].

Alloma fikriga ko'ra, o'ninchisi faol aql deyiladi. U insonga ato qilingan Aqlning vakili hisoblanadi va harakatdagi Aqlni bilvosita boshqaradi. Mana shu Aql olamidan Olam ruhi kelib chiqadi, u esa bu olamni, Koinotni tashkil etadi. Shu tariqa Koinot Aqli borliqning mohiyati bo'lib, olamiy ruhni paydo qiladi.

Abu Nasr Forobiy fikricha, moddiy jismlarning ruhi paydo bo'lib, yo'qolib turadi. Ruhii mavjudotlar esa yo'qolmaydi. Baxt - saodat va azob uqubat vujud yo'qolganidan so'ng ruhga taalluqlidir. Tanosuhni, metemsi-

hozni - ruhlarning turli jismlarga ko'chishni Abu Nasr Forobiy inkor qiladi. Uning fikricha jismlar modda va shakldan iborat.

Abu Nasr Forobiy fikricha, Aqli avval, Birinchi Aql butun Koinotni harakatga keltiradi. Birinchi Aqldan tabiiy ravishda sakkiz osmoniy ruh paydo bo'ladi. Bu osmonlarning har biri alohida va mustaqil harakat qiladi. Kosmik aqllarning uch turi farishtalar olamini tashkil etadi. Bular ikkinchi darajali mavjudotlardir. Faol Aql - uchinchi darajali mavjudotlar turkumiga kiradi. Mana shu faol Aql samoviy olam bilan moddiy olamni uzviy bog'lab turadi. To'rtinchi darajali mavjudot Yerdagi Aql va Jon, nafs bo'lib, bu aql va jonlar o'zicha mustaqil yashay olmaydi, balki ko'plikda va alohida individlarda yashaydi. Beshinchi darajali mavjudotlar, ya'ni muayan shaklli mavjudotlardir, oltinchi darajali mavjudotlar esa modda (materiya), unsurlardir.

Bu olti mavjudotdan uchtasi oliy darajali bo'lib, birinchidan, ilohiy mavjudotlar. Ikkinchidan, samoviy mavjudotlar. Uchinchidan, faol aqldan iboratdir.

Uchta quyi darajali mavjudotlar jonli va moddiy mavjudotlar bo'lib, ba'zilari ruhiy, ba'zilari moddiy shakldirlar[8.2].

Koinot aqlidan kelib chiquvchi mavjudotlar ham bir necha turga bo'linadi: birinchidan Samoviy mavjudotlar (farishtalar), ikkinchidan Gapirovchi, fikrlovchi mavjudotlar (insonlar), uchinchidan O'simliklar, ma'danlar, unsurlar (tuproq, suv, olov, havo).

Abu Nasr Forobiy ta'kidlaydiki, odamlarning ruhlari turlichadir. Ular bir-biridan ma'naviy va aqliy qobiliyatlari bilan farqlanadilar. Abu Nasr Forobiy aytadi: "Ruh jismning kamoloti, aql esa ruhning kamolotidir".

Xulosa. Xulosa qilib aytish joizki, Farobiy va Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida insonlarning ruhi va jismi turlicha bo'lishi va inson tarbiyasida ularni o'rni beqiyos ekanligini ilmiy-falsafiy tomondan chuqur o'rganish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Турабаев М.С., Курмангалиева Г. Преемственность во взглядах аль-Фараби и Ибн Сины и проблема противоречия в их учении. Изв. Н КазССР (Отделение общ.наук). 1981. № 2. – 31-36 с.
2. Усмонходжаев Т. Воплощение идей Ибн Сины о роли и местефизического воспитания в гармоническом развития личности. В кн. «Абу Али ибн Сина. К 1000 летию со дня рождения». – Тошкент: Фан, 1980.
3. Форобий М. Масалалар мохияти. // Журн. "Соғлом авлод". – Тошкент, 2007. №10. – 14-26 б.
4. Файзуллаев О., Носиров Р. Абу Али ибн Синонинг баъзи табиий, илмий қарашлари. Китоьда: «Абу Али ибн Сино. Туғилган қунининг 1000 . йиллигига». – Тошкент: Фан, 1980. – 50-61 б.
5. Фролова Е. А. Проблема веры и знания в арабской философии. – Москва, 1983.
6. Фролова Е. А. Индивидуальное бытие, искомое, но не найденное. - Москва: Восточная литература РАН, 1998. – 115-145 с.
7. Хайруллаев М. О малых трактатах и переписке Ибн Сины. В кн. «Абу Али ибн Сина. К 1000 летию со дня рождения». – Тошкент: Фан, 1980. – 52-56 с.
8. Шидфар Б.Я. Ибн Сина. – Москва: Наука, 1981. – 182 с.



Gulandom SADIKOVA,
Toshkent Davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: gulandomshavkatovna.86@gmail.com

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi dotsenti K.Suvanova taqrizi asosida

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA 4K MODEL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarga fanlarni o'rgatish bilan bir qatorda qo'shimcha qobiliyatlarni rivojlantirish haqida so'z boradi. Qobiliyatlarni ahamiyati va rivojlantirish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: 4K, kreativ, konstruktiv, ijodkorlik, aloqa mahorati, kompetensiya, integratsiyalashgan, kontekstuallashtirish.

АКТУАЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ 4K МОДЕЛИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В данной статье говорится о развитии дополнительных навыков помимо преподавания предметов в высших учебных заведениях. Описано значение способностей и методов развития.

Ключевые слова: 4K, креатив, конструктив, креативность, коммуникативные навыки, компетентность, интегрированность, контекстуализация.

THE RELEVANCE OF DEVELOPING 4K MODEL SKILLS IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In this state, there is talk about the development of additional skills in addition to the teaching of subjects in university. The importance of abilities and methods of development are described.

Key words: 4K, creative, constructive, creativity, communication skills, competence, integrated, contextualization.

Kirish. Biz yashayotgan asrda axborot texnologiyalarining rivojlanishi har bir sohaga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda va yangi kasblarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bunday davrda o'z kasbining yaxshi mutaxassisi bo'lish uchun bo'lajak kadrlarda soha haqidagi bilimlardan tashqari sohani rivojlantirish uchun kreativlik, vaziatni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, jamoa bilan ishlash va muloqot qilish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi kerak. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ta'limda 4K modelini qo'llash samarali hisoblanadi. 4K birinchi marta o'tgan asrning o'rtalarida ma'lum bo'lgan va bugungi kunda u ta'lim va kasbiy rivojlanishda faol targ'ib qilinmoqda. Unga ko'ra, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab qilinadigan to'rtta qobiliyat: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va jamoaviy ish (hamkorlik) rivojlantirish. Bu ko'nikmalar universaldir, ya'ni ular har qanday sohada, kasbda yoki mashg'ulotda qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ta'limda uning shakllanishiga etarlicha e'tibor berish juda muhimdir.

4K modeli nomi ingliz tilidagi Creativity, Critical Thinking, Communication, Collaboration so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, bu modelni qo'llash orqali talabalarining ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, aloqa mahorati va jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Aloqa mahorati: Bugungi kunda "tarmoq" yoki "foydali aloqalar" faol rivojlanmoqda, chunki murakkab kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun inson ma'lum bir sohada o'z aloqalariga ega bo'lgan tanish odamlarning yordamiga murojaat qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy muloqot orqali insonning shaxsiy o'sishi va o'zini o'zi bilishi sodir bo'ladi, u o'zi va dunyo haqida yangi bilim va g'oyalarga ega bo'ladi va shaxsan boyitiladi. Bu qobiliyatni rivojlantirish uchun shaxsning barkamol rivojlanishi uchun

talabalarga boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o'rgatish kerak. Bu inson hayotining ko'p sohalarida yordam beradigan va rivojlanishi mumkin bo'lgan va rivojlanishi kerak bo'lgan mahoratdir. Talabalar muzokaralar olib borishni, murosaga borishni va konstruktiv tanqidni qabul qilishni bilishi muhimdir. Talabaning(yoki boshqa bironing) noto'g'ri xatti-harakatlari va nimaga olib kelganini muhokama qilish va uni qanday qilib boshqacha qilish mumkinligi haqida gapirish muhimdir.

Jamoaviy ish: Aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishning mantiqiy davomi jamoaviy ishdur. Zamonaviy dunyoda bu mahorat ayniqsa talabga ega, chunki deyarli har qanday kasb u yoki bu darajada jamoaviy ishlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bola turli odamlar bilan muloqot qilishni, munozarali masalalarga yechim topishni va jamoada uyg'un muloqot qilish mahoratini o'rganishi kerak.

Rivojlantirish uchun har qanday jamoaviy o'yinlarni o'ynash samarali hisoblanadi(sport, stol o'yinlari, rolli o'yinlar). Kollektiv faoliyat, shuningdek, talabalar birgalikda biror narsa qilishlari kerak: hovliga daraxt ekish, topshiriqni bajarish yoki maxsus tadbirga tayyorgarlik ko'rish.

Tanqidiy fikrlash maqsadli ravishda mushohada yuritish bo'lib, eshitgan, aytgan, ko'rgan, o'qigan va yozganlarimizni **so'roq ostiga qo'yish, tahlil qilish, talqin qilish** va **baholash** orqali ular haqida **xulosalar yasashga** yetaklaydi.

Tanqidiy fikrlash:

- O'zining fikri o'zgalari fikridan ustun ekanligini
- O'zgalari fikrining kamchiliklarini ko'rsatish
- O'zga shaxslarning kamchiligini ommaga oshkor etish
- O'zgalarni tanqid qilish emas.


Tanqidiy fikrlash bu...

- ✓ Asoslangan qarorlar qabul qilish
- ✓ O'ylash va uni yaxshilash haqida mushohada qilish

✓ Ta'lim, tarbiya va tajriba maxsuli

✓ Aqliy qobiliyat va salohiyat

Tanqidiy fikrlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi



Axborot miqdori tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va zamonaviy dunyoda odam 30 yil oldingiga qaraganda kuniga 5 barobar ko'proq ma'lumotni qayta ishlashga majbur. Shu bilan birga, ishonchsiz, yolg'on va zararli ma'lumotlar miqdori ham tez o'sib bormoqda. Ushbu voqealar fonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ayniqsa muhimdir - barcha kiruvchi ma'lumotlarni so'roq qilish va his-tuyg'ularga ta'sir qilmaslik odati. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda ko'proq talabaga savollar berib fikrini bayon qilishiga undash kerak. Bu holat haqida qanday fikrdasiz? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz? Bu fikrlarni to'g'ri ifodalash, turli narsalar haqida mulohaza yuritish va chuqurroq va kengroq fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ularni ma'lumot bilan ishlashga o'rgatish hamda o'qigan yoki ko'rgan narsalarini baholashni so'rash va savollar va suhbatlar yordamida voqea haqida fikr yuritishga yordam berish kerak. O'qituvchining vazifasi talabani asosiy narsani ajratib ko'rsatishga, turli manbalarni solishtirishga va chuqur tahlil orqali haqiqiy faktlarga erishishga o'rgatishdir. U ko'rgan, eshitgan yoki o'qigan hamma narsaga ko'r-ko'rona ishonmaydi, balki uni shaxsan aniqlashga, voqeaning mohiyatiga kirib borishga harakat qiladi. Bu tanqidiy fikrlashning asosidir. Sabab-natija munosabatlarini qidirish orqali talabalarni mustaqil fikr yuritishga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga o'rgatish mumkin.

Ijodkorlik (Kreativlik): Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik

faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olim R.A.Mavlanova tomonidan olib borilgan tatqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda **biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz:**

1. Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalari, echimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.

4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontseptsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Narsalarga boshqalardan farqli qarash, yangi o'ziga xos yechim va g'oyalarni ishlab chiqish, keng, global, ijodiy fikrlash qobiliyatidir. Ijodkorlik insonning intellektual va ijodiy qobiliyatlari chorrahasida tug'iladi va uni rivojlantirish mumkin. Yangi sharoitda ijodiy fikrlash eng muhim "moslashuvchan" mahoratga aylanadi, chunki ijodkor odamlar tubdan yangi qimmatbaho mahsulotlarni yaratishga va zamonaviy dunyoda juda zarur bo'lgan samarali yechimlarni topishga qodir. Ijodkorlik insonning olamga noan'anaviy tarzda qaraganida o'ziga xos fikrlash tarzi bo'lib, uni bolalikdan boshlab rivojlantirish zarur. [1]

Muammoni o'rganilganligi: Papanov N.A, Zaytseva K.S larning "Professional ta'lim talabalarida 4K kompetensiya-sini shakllantirish" nomli uslubiy tavsiyasida o'qituvchilar uchun ushbu modelni amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni bergan.

Har safar talabalar topshiriqni bajarishida o'qituvchi ularni jamoada ishlashga o'rgatish imkoniyatiga ega. Talabalar bilan jamoaviy ishlaganda quyidagi asosiy qoidalarga e'tibor berish kerak:

- navbat bilan gapirish va hammani tinglash;
- kiritilgan barcha takliflarni ko'rib chiqish;
- guruhdoshlarning takliflariga haqoratimiz izohlar bermaslik;

- ishni barcha jamoa a'zolari o'rtasida izchil taqsimlash;

- agar xohlasangiz, ishning ma'lum bir sohasi uchun mas'ul shaxslarni aniqlash;

Bu qoidalar talabalarda o'z fikrini bayon etish, jamoa bilan ishlash, taqsimlangan topshiriqni bajarishda ma'suliyatli bo'lish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.[2]

Metod. 4K kompetensiyalarini samarali shakllantirish va rivojlantirish uchun loyiha metodologiyalaridan foydalanish mumkin. Bunday metodlarga eduScrum va Agile kabilarni misol qilish mumkin. eduScrumdagi asosiy ish jamoa tomoni-dan amalga oshiriladi, talabalar har bir ishtirokchining zaif tomonlari kuchli tomonlari orqali tenglashtiriladi. Shuning uchun individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda har bir talaba, jamoa eng samarali ta'lim natijalarini ishlab chiqaradi.

Shuning uchun, eduScrumda ishlash kuchli va zaif tomonlarni aniqlashdan boshlanadi, talabalarning har birida bir-birini to'ldiradigan fazilatlariga ega ishtirokchilar asosida jamoalar tuziladi.

Xulosa. Bugungi kunda zamonaviy inson turmush tarzi tezkorlik bilan integratsiyalashgan, o'zgaruvchan va doimiy ravishda o'sib borayotgan axborot maydoni, shuningdek, yuqori sur'atlar butun insoniyatning sanoat va axborot rivojlanishi bozor shakllari tomonidan talab qilinadigan kasb va mutaxassisliklarni doimiy ravishda yangilab borish yangi individual va jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yuqori talabni belgilaydi. Bilim kontekstualashtiriladi va shu sababli insoniy kompetentsiya, hayotning faqat bitta sohasi bilan chegaralanish endi etarli emas. 4K modeli orqali qo'shimcha rivojlantirilgan qobiliyatlar bo'lajak kadrlarga o'z sohasida yangiliklar yaratish, qaror qabul qilishda tanqidiy fikrlash orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash va atrofdegilar bilan aloqa qilish kabi ko'nikmalari hosil bo'ladi. Bu qobiliyat bilan kadrlar faoliyat olib borayotgan soha rivojlanishiga olib keladi. Zamon talabiga ko'ra ta'lim tizimiga ham o'zgarishlar kiritilishi kerak. Chunki fan va axborot texnologiyalari rivojlanishi yangicha fikrlaydigan yangi kasblarni hosil qildi.

ADABIYOTLAR

1. Полушкин Д.П. EduScrum как средство формирования «4К» компетенций обучающихся// Синергия Наук. 2018.
2. Панов Н.А, Зайцева К.С. Формирование компетенций «4К» обучающихся профессиональных образовательных организаций. Методические рекомендации. Санкт-Петербург 2021 г
3. Компетенции «4К»: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации / авт.-сост. М. А. Пинская, А. М. Михайлова. – М.: Корпорация «Российский учебник», 2019.



Gulchexra SAYDALIYEVA,
KIUT Namangan filiali o‘qituvchisi
E-mail: saydalieva1983@gmail.com

Namdu p.f.f.d.(PhD) D.Sarimsaqova taqrizi asosida

ALISHER NAVOINING „LISON UT TAYR“ ASARIDAGI ALLEGORIK RAMZLAR VA ULARNING TARJIMASI XUSUSIDA

Annotasiya

Ushbu maqolada “Lison ut-Tayr” murakkab allegorik asar bo‘lib, unda insonning ma’naviy sayohati, o‘z-o‘zini anglash muammolari hamda ilohiylik bilan transsendensiya (ma’lum chegaradan oshib ketish, ongdan tashqarida) va birlikka bo‘lgan yakuniy izlanishlar haqida chuqur tushunchalar berilgan. Asar o‘zining allegorik unsurlari orqali axloqiy va ma’naviy qadriyatlar, voqelik tabiati, ichki o‘zgarish imkoniyatlari haqida fikr yuritishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Allegoriya, Lison-ut-tayr, majoz, Qaqnus, Hudhud, Simurg’.

THE ALLEGORICAL SYMBOLS AND THEIR TRANSLATION IN "LISON UT TAYR" BY ALISHER NAVOI

Annotation

The article is devoted to the Lison ut-Tayr is a complex allegorical work about the spiritual journey of man, the problems of self-realization and the ultimate search for transcendence and unity with the divine. Deep insights are given. Through its allegorical elements, the work encourages thinking about moral and spiritual values, the nature of reality, and the possibilities of internal change.

Key words: Allegory, Lison-ut-Tair, metaphor, Qaqnus, Hudhud, Simurg’.

АЛЛЕГОРИЧЕСКИЕ СИМВОЛЫ И ИХ ПЕРЕВОД В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВАИ «ЛИСОН УТ ТАЙР»

Аннотация: В данной статье рассматривается Лисон ут-Тайр – сложное аллегорическое произведение о духовном пути человека, проблемах самореализации и окончательном поиске трансцендентности и единения с божественным. Благодаря своим аллегорическим элементам произведение побуждает задуматься о моральных и духовных ценностях, природе реальности и возможностях внутренних изменений.

Ключевые слова: Аллегория, Лисон-ут-Тайр, метафора, Какнус, Худхуд, Симург’.

Kirish. Allegoriya – ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqea, hodisa yoki buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llashdir, ya’ni noaniq bo‘lgan tushunchani (konseptni) ko‘pchilikka ma’lum narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Shuningdek, allegoriya mavhum tushuncha yoki g‘oyani aniq obraz vositasida ifodalaydi. Allegoriya atamasi ikkita yunoncha alios "boshqa" va agoreuo "e’lon qilish" so‘zlaridan olingan "omma oldida so‘zlash" va so‘zma-so‘z "boshqacha so‘zlash", "gapirmoq" degan ma’noni anglatadi. [Ferguson va boshq. 1999: 34; Copeland, Struck 2010: 2]

Allegoriya badiiy tasvir, obrazlilik turi, mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea, hodisa orqali ifodalashdir. Masalan, "to‘ti" so‘zi gapdon, "bulbul" so‘zi xushovoz yoki yaxshi qo‘shiq kuylovchi kabi ma’nolarni ifodalaydi yoki tulki-yolg‘onchi va ayyor kishi; bo‘ri-ochko‘z kishi, chumoli esa mehnatkash va sabrli insonlar qiyofasida jonlanadi. Allegoriya mavhum g‘oya va xususiyatlarni ifodalovchi va mana shu g‘oyalarga yanada aniqlik kiritib beruvchi ifoda vositasidir. Xususan, allegoriya bir vaqtning o‘zida ham siyosiy, ham axloqiy, ham falsafiy va madaniy xususiyatlardan tashkil topgan mukammal narrativ hikoyadir. Allegoriyaning yana bir hususiyatidan biri shundaki - u oddiy hikoyani, eratkni, asarni jamiyat haqida o‘ylantiruvchi sharhga aylantirishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Allegoriyaning mohiyatini anglash bu nafaqat asarni o‘qish balki uni chuqur talqin va tahlil qilish shu bilan birga adabiyotning naqadar

chuqur, go‘zal va murakkabligini qadrlashni o‘rganishdir. Allegoriya hikoyaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u tom ma’nodagi hikoya ostida yashirin ma’noni - odatda axloqiy siyosiy yoki ijtimoiy ma’noni taqdim etadi. Bu xazina oviga o‘xshaydi, bu erda xazina qahramonlar, sozlamalar va voqealar ortida yashiringan xabar bordir.

Allegoriyaning tarixiy rivojlanish bosqichini to‘rt turga ajratish mumkin:

1) Literal allegoriya – ya’ni so‘zma so‘z ifodalangan allegoriya. Bunda allegorik vositalar bilan boyitilgan matn tarixiy voqealarga asoslangan bo‘ladi.

2) Tipologik allegoriya – bu turdagi allegoriya, o‘tgan zamon voqealarini bugungi davr bilan bog‘lovchi allegoriya hisoblanadi.

3) Moral allegoriya – bugungi davrning voqealarini ifodalovchi allegorik birliklar.

4) Anagogik yoki polysemous allegoriya – bunday allegoriyalar kelajak allegoriya yoki ko‘p ma’noli allegoriyalar deb ham ataladi.[3]

Allegoriya turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, ularning har biri adabiyot va san’atda alohida maqsadlarga xizmat qiladi. Bu yerda allegoriyaning bir nechta keng tarqalgan turlari mavjud:

-Ulardan birinchisi bu siyosiy allegoriya bo‘lib, bu turdagi allegoriyada hikoya elementlari siyosiy vaziyatlar, harakatlar yoki tarixiy voqealarni ifodalaydi. Misol uchun, Jorj Oruellning "Hayvon fermasi" qishloq xo‘jaligi hayvonlari

o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali Rossiya inqilobi va undan keyingi Stalin rejimining ramzi bo'lgan siyosiy allegoriyadir.

-Keyingisi esa diniy allegoriyadir. Diniy allegoriya ruhiy yoki axloqiy haqiqatlarni yetkazish uchun ramziy belgilar va hodisalardan foydalanadi. Masalan, Jon Bunyanning "Hojining taraqqiyoti" diniy allegoriya bo'lib, xristianlarning hayot va e'tiqod orqali sayohatini ifodalaydi. Shuningdek Jefri Choserning "Kantenberi ertaklari" asari ham diniy allegoriyani ifodalovchi asar sifatida katta ahamiyatga ega.

-Axloqiy allegoriyaga ega hikoyalar axloqiy tamoyillar yoki axloqiy dilemmalarni anglatuvchi belgilar va voqealarni o'z ichiga oladi. Ezopning "Toshbaqa va quyun" kabi ertaklari ko'pincha qat'iyat va donolik haqida saboq beradigan axloqiy allegoriya bo'lib xizmat qiladi.

-Tarixiy allegoriyalar turkumidagi allegoriya siyosiy yoki ijtimoiy masalalarga e'tiborni qaratib, tarixiy voqealarga parallel ravishda uydirma yoki fantastik sozlashlardan foydalanadi. Gabriel Garsia Markesning "Yuz yillik yolg'izlik" asari tarixning tsiklik tabiati va Lotin Amerikasidagi mustamlakachilik merosini o'rganish uchun tarixiy allegoriyani o'z ichiga oladi.

-Falsafiy allegoriya esa mavhum tushunchalar va ekzistensial savollarni o'rganish uchun ramzlar va rivoyatlardan foydalanadi. Aflotunning "Respublika" asaridagi "G'or allegoriyasi" voqelik va bilimning mohiyatini o'rganuvchi falsafiy allegoriya bo'lib xizmat qiladi.

-Shaxsiy allegoriyalar ko'proq individual xarakterga ega bo'lib, belgilar va hodisalar xarakterning ichki sayohati yoki psixologik holatlarini ifodalaydi. Paulo Koeloning "Alkimyogar" asari qahramonning o'zini kashf etish va amalga oshirishga intilishini aks ettiruvchi shaxsiy allegoriyadir.

Ushbu turdagi allegoriyalar bir-birini istisno qilmaydi va ko'pincha bitta asar doirasida kesishadi boy va purma'no hikoya yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlardan adabiyot tafakkurni shakllantirish vositasi hisoblangan. Ko'pgina allegorik tasvirlar yunon va rim mifologiyasiga borib taqaladi. Shunday qilib, ko'zi bog'langan, qo'lida tarozi tutgan ayol obrazi – Femida – adolat, ilon va kosa qiyofasi – tibbiyot allegoriyasi. Allegoriya she'riy ekspressivlikni oshirish vositasi sifatida badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. U hodisalarning muhim tomonlari, sifatleri yoki funktsiyalarining o'zaro bog'liqligiga ko'ra yaqinlashishiga asoslanadi va metaforik troplar guruhiga kiradi. Allegoriya odatda shartli bo'lib, ikki taqqoslangan hodisa o'rtasidagi oldindan ma'lum bo'lgan munosabatlarni ko'rsatadi. Bu uni metaforadan ajratib turadi. Metafora yangi va kutilmagan bo'lishi mumkin. Ammo allegoriya deyarli har doim sharhni talab qiladi. Biz mifologik allegoriyalarni yaxshi bilamiz (Gerakl - kuch, Afrodit - go'zallik). Allegoriya rolini ham mavhum tushunchalar (fazilat, haqiqat) ham, tipik hodisalar bilan ifodalash mumkin. Ko'pincha allegoriya she'riyatda (yuqori uslubda), ertakda, balladada qo'llaniladi. Ko'pincha asar butunlay allegorik tasvirlardan iborat bo'lib, allegoriyalar tizimini ifodalaydi. Allegorik uslub alohida rassomlarning ijodi uchun ham, ba'zi adabiy janrlar uchun ham hal qiluvchi bo'lishi mumkin. Ertaklar, masallar, ertaklar bu uslubda yozilgan bo'lib, unda insonning ma'lum xususiyatlarining tashuvchisi hayvonlar yoki tabiat hodisalari hisoblanadi.

Majoz, allegoriya -adabiy badiiy usul yoki obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki mulohazani aniq bir obraz vositasida ifoda etish. So'z yoki iboraning o'z ma'nosidan boshqa, ko'chma ma'noda ishlatilishi va shunday ma'noda ishlatilgan so'z, ibora; metafora; allegoriya.

Tahlil va natijalar. Badiiy adabiyotdagi ko'pchilik majoziy obrazlar folklordan, asosan, hayvonlar xaqidagi

ertaklardan olingan (bo'ri-ochko'zlik, tulki-ayyorlik timsoli kabi). Majoz turli janrlarda, ayniqsa, masal, ramz, rivoyat, hajv, parabola va boshqalarda keng qo'llanadi. Shu bilan birga, u realistik yo'nalishdagi yozuvchilar (Pushkin, Gogol. Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov va boshqalar) ijodida ham uchraydi. O'zbek adabiyotida Hamza, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, G'ayratiy, keyinchalik Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabilar ijodida Majozning turli namunalari mavjud.

Bizga ma'lumki Mir Alisher Navoiy, XV asrning atoqli o'zbek shoiri, yozuvchisi va davlat arbobidir. U O'rta Osiyo madaniyatining yirik namoyandalaridan biri sanaladi va shu bilan birga o'zbek adabiyoti otasi bo'lib, asarlarini qadimiy turkiy tilda bitgan. Tarixga nazar soladigan bo'lsak o'rta asrlarda Lotin tili "Lingua Franca" dunyo tili hisoblangan, barcha asarlar, qo'lyozmalar shu tilda bitilgan bo'lib, o'qimishli, ziyoli davlat va diniy arboblardan shu tilda o'zaro muloqot qilishgan. Bu insonlar sarasiga "Ilohiy komediya" asarining muallifi Italiyan buyuk shoir, yozuvchi Dante Alligieri, "Dekameron" asarlarini muallifi Jovanni Bakkachio Italiyan tilida, va Ingliz tilining otasi Jeffri Choser "Kantenberi ertaklari" asarini ingliz tilida yaratishgan. Bu adabiyotda, insonlar dunyoqarashini ijobiy shakllanishi va rivojlanishida ulkan qadam bo'lgan. Demak

"Lison ut-tayr" dostoni 193 bobdan, hajman 3 ming 598 bayt, 7 ming 196 misrani tashkil etadi. Kompozision jihatdan asar 4 qismdan iborat: 1. An'anaviy kirish-13 bob (1-13 boblar). 2. Qushlar sayri bilan bog'liq asosiy asosiy suyet (epic qism)-156 bob (14-169-boblar). 3. Lirik qahramon munojoti (lirik qism)-19 bob (170-188- boblar). 4. Xulosa-5 bob (189-193-boblar) dan iborat. Asardagi bosh qahramonlar va personajlarga keladigan bo'lsak ular quyidagilardir: 1. Alloh (ta'rifi). 2. Muhammad payg'ambar (s.a.v). 3. Hudhud. 4. Dostonning lirik qahramoni. Personajlar 3 guruhga bo'linadi: 1) qushlar timsollari; 2) insonlar timsollari; 3) farishtalar timsollari. Bosh qahramonlar bo'lgan Simurg' va Hudhuddan tashqari qushlar 4 guruhga bo'linadi: 1) Hudhudning Simurg' sari da'vatiga Musharrarf bo'lgan; 2) Simurg' sari dastlabki parvoz amalga oshgandan keyin yo'l azobidan qo'rqib, Hudhudga o'z uzrini aytgan; 3) Hudhudga Semurg' vasliga yetish bilan bog'liq masallarda savol bergan; 4) dostonning Simurg' sari parvoz bilan bog'liq asosiy suyet tugaganidan keyin uchraydigan qushlar. Inson personajlar: 1) mamduh personajlar (chahoriyorlar- Hazrat Abu Bakr Siddiq, Hazrat Umar Foruq, Hazrat Usmon, Hazrat Ali hamda Attorlar); hikoyatlarda tasvirlangan prsonajlarga bo'linadi. Jami 193 bobning 64 tasi-hikoyatlarni tashkil etib ulardagi inson personajlari farishtalar, payg'ambarlar, chahoriyorlar, avliyolar, hukmdorlar, an'anaviy adabiy qahramonlar, noma'lum shahslar timsollari sifatida tasnif qilinadi. [5]. "Lison ut-tayr" teran allegorik asar bo'lib, unda chuqur falsafiy, ma'naviy-axloqiy ma'nolarni ifodalovchi ko'plab allegorik unsurlar mavjuddir. Ularning jumlasiga Qushlarning Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Hayrat, Tavhid, Faqru fano vodiylari bo'ylab Simurg' sari sayohatini insonning ilohiy haqiqat, ma'rifat va o'zligini anglash yo'lidagi ruhiy izlanishlarining allegoriyasi sifatida ko'rish mumkin.

Muhokama. "Lison ut-tayr" asarida tabiat olami va uning unsurlari allegorik timsollarga boy bo'lib, ko'pincha ruhiy sohani, hayot va o'lim davrlarini, butun borliqning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. "Lison ut-tayr" asarida Alisher Navoi o'zining ustozlari Farididdin Attor timsolini Qaqnus (Lison ut-tayrdagi qushlardan biri) bu qushning tumshug'ida ko'pgina teshiklari bo'lib, ular orqali har xil yoqimli kuy va ohanglar chiqargan. Qaqnusning jufti bo'lmas ekan, umr bo'yi cho'p, o'tin yig'ib, umrining so'ngida juda chiroyli va uzoq kuylar ekan, uning jozibali sayrashidan o'zi yig'gan o'tinga

o't ketib, o'zi ham, o'tin ham kuyib kul bo'lar ekan. O't kulidan yangi "Qaqnusbacha", ya'ni uning bolasi chiqib, u ham o'z yo'lida otasi qilgan ishlarni davom ettirar ekan. Aynan shu Qaqnus qushi Fariddin attor obrazi bo'lib Alisher Navoi uni avvalgi qushga o'hshatadi. "Lison ut tayr" asarida Alisher Navoi "Men uni ota, o'zimni o'g'il deb atamay, u oliy martabali shoh, men uning bandasi, quliman". Chunki avval u bu olovda kuyib, barcha olamga o't ssoldi. So'ngra bu o'tdan bironta kimsa menchalik kuyib- yonmadi, olamni o'rtovchi va dunyoni yorituvchi shu'la bo'lib porlamadi. Qush tili vositasida gulxan paydo qilib, ham o'zimni, ham elning kul bo'lishini bildim [9].

"Lison ut-Tayr" asarida tabiat va inson allegorik obrazga aylangan, insonga hos bo'lgan hususiyatlar tabiatga ko'chirilgan, tabiat qonunlarining birligi jamiyatda namoyon bo'lgan. Badiiy tasvir vositasi sifatida - element, ba'zan esa - dialog va munozara, bahs va bahs shaklida; dramatik kompozitsiya doirasida allegorik obrazlar namoyon bo'lgan. Jonsiz tasvirlar jonlantirilgan, nutqqa ega, bir so'z bilan aytganda, inson tabiatining bir qismi bo'lib, ular bilan birlikda namoyon bo'lgan.

"Lison ut-Tayr" asarida Hudhuq quyidagicha ta'riflanadi. -Aql nuridan bahramand va rahbarlik jig'asi bilan sarbaland qush. Uning zoti sharafli va izzati yuksak bo'lib, boshini to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi toj bezaydi. U arsh oldida parvoz qiladi va Jabroil kabi unga ham yuzlab sirlar ayon bo'lib turadi.

Bizga ma'lumki "Lison ut-Tayr" asari ingliz tiliga 2005 yilda Garri Dik va Nosir qambarov tomonidan nasriy

bayoni ingliz tiliga tarjima qilgan. Asar tarjimasida Hudhudni - Hoopoe is a bird that enjoys the wise light. His lineage is glorious and extremely elevated. He is decorated with the crown of one who shows the foght way. He flies in God's throne room and like Gabriel all kinds of secrets are obvious to him[10]. deb tarjima qilingan. Yozma matnning bir tildan boshqa tilga uzatilishi tarjima deb ataladi. Tarjima va talqin atamaları rasmiy ta'rifga ko'ra, tarjima yozma so'zni va talqin (interpretasiya) og'zaki so'zni anglatadi.

Xulosa. Tarjima muvaffaqiyatli bo'lisi uchun tarjimon quyidagilarga katta ahamiyat berishi kerak. (1) Tarjima qilinayotgan xorijiy tilni yahshi bilishi kerak, (2) tarjima qilayotgan tilni mukammal bilishi zarur, (3) mavzuni manba matni (ya'ni tarixiy va mahalliy reallik, muallifning turli xarakterli xususiyatlari va texnik matnlarda tegishli ixtisoslik). Tarjimaning bu uch qirrali tamoyili ko'plab murakkab ko'rinishdagi fikrlarning asosini tashkil etadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki Hudhud obrazining ingliz tilidagi tarjimasini aniq tushunarli va ravon berilgan. Tarjimonlar o'zbek tilini chuqur bilish bilan bir qatorda, ingliz tiliga obrazning tarjimasini mohirlik bilan uzatishgan.

"Lison ut-Tayr" murakkab allegorik asar bo'lib, unda insonning ma'naviy sayohati, o'z-o'zini anglash muammolari hamda ilohiylik bilan transsendensiya (ma'lum chegaradan oshib ketish, ondan tashqarida) va birlikka bo'lgan yakuniy izlanishlar haqida chuqur tushunchalar berilgan. Asar o'zining allegorik unsurlari orqali axloqiy va ma'naviy qadriyatlar, voqelik tabiati, ichki o'zgarish imkoniyatlari haqida fikr yuritishga undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Peter Crisp. Allegory and symbol a fundamental opposition? Language and Literature 2005; 14; 323
2. Rafikovna, I. K. Morpho-semantic analysis and semantic shift of English internet slangs. Galaxy international interdisciplinary research journal, 11(4), 514.2023
3. Rajapova. M.A. Allegoriya, Stilistik Trop Haqida Dastlabki Tushunchalar FTAI Jild: 03 | Nashr: 04 | апрел 2022 "BILIG – ILMiy FAOLIYAT" nashri
4. Kamolaxon, I. The impact of the internet on the modern english language. Galaxy international interdisciplinary research journal, 10(12), 405-408. 2022
5. Malika Rajapova, Alijon Mamajonov. Linguistic and cultural characteristics of allegorical devices used in a literary text. Society and innovations Issue – 4 № 2 (2023) / ISSN 2181-1415
6. Sharofiddin Sharipov "Lison ut tayr" haqiqati- Toshkent: Ma'naviyat 1998- B-15
7. Rajapova M. Principles of cognitive metaphor and allegory in discourse. 2021
8. Boboxonova L.T "Ingliz tili stilistikasi". Toshkent. "O'qituvchi" 1995.
9. Allegory as a Stylistic Device in the Short Stories of Oscar Wilde Paperback – July 7, 2015 b Maaz Shehla (Author). <https://www.amazon.com/Allegory-Stylistic-DeviceShort-Stories/dp/3659743844> dan yuklab olingan.
10. Alisher Navoiy "Lison ut tayr" Yoshlar matbuoti. 2022.B 211
11. The language of the birds Alisher Navai. Yangi nashriyot uyi. Toshkent -2018. -B 12-13.



Maxliyo SATTOROVA,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: mahliyo_sattorova@mail.ru

TerDU dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD) A. Qodirova taqrizi asosida

SHAXSDA SOTSIAL TOLERANTLIKNI SHAKLLANGANLIK XUSUSIYATLARI PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Annotatsiya

Jahonda globallashuv va axborotlashuv jarayonlari davrida tolerantlik dolzarb ijtimoiy-psixologik va insonparvarlik mummolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ayni paytda tolerantlik axloqiy me'yor sifatida butun insoniyatning muvaffaqiyatli taraqqiyoti uchun har bir shaxs individualligini, bardoshlilik va stress turlari orqali yuzaga keladigan holatlarga toqat qila olishi xususiyatlarini shakllantirishning asosiy va zaruriy omili bo'lishini taqozo qilmoqda.

Kalit so'zlar: tolerantlik, ijtimoiy rivojlanish, taraqqiyot, shaxs, muloqot.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF SOCIAL TOLERANCE IN A PERSON

Annotation

In the era of globalization and information processes in the world, tolerance has become one of the urgent socio-psychological and humanitarian issues. At the same time, tolerance as a moral standard requires that for the successful development of all mankind, the individuality of each person, the ability to tolerate situations arising through types of stress, is the main and necessary factor in the formation of characteristics.

Key words: tolerance, social development, progress, personality, communication.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В эпоху глобализации и информационных процессов в мире толерантность стала одной из актуальных социально-психологических и гуманитарных проблем. В то же время толерантность как моральная норма требует, чтобы для успешного развития всего человечества индивидуальность каждого человека, способность переносить ситуации, возникающие посредством видов стресса, были основным и необходимым фактором формирования характеристик.

Ключевые слова: толерантность, социальное развитие, прогресс, личность, общение.

Kirish. Shaxsda sotsial tolerantlikning shakllanganlik darajasini o'rganish muammosiga yondashishda dastlab mazkur xususiyatning tarkibini aniqlab olish, ular shaxsning sotsial tolerantligiga qanchalik aloqadorligini belgilash va albatta ularning qay darajada shakllanganligini aniqlashga harakat qilindi.

Sotsial tolerantlik yon berish, andisha yoki xushomad emas, balki eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham sotsial tolerantlik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Shuning uchun o'smirlarda sotsial tolerantlikni shakllanishi ularning o'zlarining va boshqa insonlarning hayotida faqat yaxshilik urug'ini sochishga tayyor insonlar bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, shakllanayotgan yondashuvda haqiqiy shakllanishni – «stereotiplarga asoslangan bir hildagi axloqiy fikrlash»ni konstruksiyalash bilan almashtirish xavfi ortib boradi. Shakllanib borayotgan yondashuv uchun «bola haqida qadriyatlarni passiv qabul qiluvchisi» sifatidagi tasavvurlar asos bo'ladi. Bag'rikeng insonni shakllantirish zaruriyati haqida hayotiy maqsadlar bilan uni qurollantirish, yaxshi reaksiyalarga nisbatan pozitiv va yomon lariga nisbatan negativ reaksiya ko'rsatishni shakllantirish haqida gapiriladi.

Ijtimoiy-demografik omillarga tayangan holda, olimlar tolerantlikning quyidagi sohalarini ajratib ko'rsatishadi: yoshga doir tolerantlik – insonning yoshi bilan bog'liq o'ziga

xosliklarini to'g'ri qabul qilish (keksalarning yoshlarni tushuna olmasligi, O'quvchilarda bilim va tajribaning yetarli emasligi va boshqalar); ma'lumotlilik darajasi bilan bog'liq tolerantlik – nisbatan past darajadagi ma'lumotga ega kishilarning fikrlari va xatti-harakatlariga sabrli bo'lish; millatlaro tolerantlik – turli millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, biror millat vakilining kamchilik va salbiy harakatlarini shu millatga mansub boshqa kishilarda ham bor deb hisoblamaslik; irqiy tolerantlik – boshqa irq vakillariga past nazar bilan qaramaslik; diniy tolerantlik – turli dinlar, konfessiyalar, konfessional guruhlariga sotsial tolerantlik bilan munosabatda bo'lish; madaniy tolerantlik – madaniy qiziqqonlikka zid bo'lib, boshqa madaniyatlarni tan olish, ularni to'g'ri qabul qilishga qobiliyatlilik.

Tadqiqot ishda shaxsning motivatsion, empatiyaviy, emotsional intellek sohalarini o'rganilgan bo'lsa, biz ilmiy tadqiqotlarida shaxsning muloqot, xayol tasavvuri, hissiy-kognitiv komponentlar orqali tolerantlik shakllanishini rivojlanishini metodalik asosi bo'lib xizmat qiladi. Ta'limning bunday turi stereotopizatsiya deb ataladi, ya'ni aniq bir shablon va belgilarga javob qaytaruvchi, stereotipik fikrlash va xulq-atvorni shakllantirishdir.

Tahlil va natijalar. Madaniy tolerantlik madaniy ta'sir o'tkazish, madaniy ekspansiyaga yo'l qo'yilmasligini talab etadi; shaxslararo tolerantlik – insonlardagi murakkab tabiiylikni, ular orasidagi farqlarni anglash va qabul qilishga qobiliyatlilik bo'lib, muloqot jarayonida insonning

boshqalarni o'z mavjudligi va rivojining yuksak timsoli sifatida ko'ra olishidir.

V.Boykoning "Kommunikativ tolerantlik so'rovnomasi" Manni-Uitni mezonidagi k o'rsatgichlari (N=364)

Shkala	Jinsi	N	O'rtacha rang	U	O'rtacha Qiymat
Shaxsning individualligini rad etish	Ayollar	187	193,60	-2,088	,037
	Erkaklar	177	170,77		
Boshqalarni baholashda o'zingizdan standart sifatida foydalanish	Ayollar	187	183,01	-,095	,924
	Erkaklar	177	181,97		
Odamlarni baholashda toifali yoki konservativ	Ayollar	187	201,53	-3,581	,000
	Erkaklar	177	162,39		
Noxush his-tuyg'ularni yashira olmaslik	Ayollar	187	183,47	-,182	,855
	Erkaklar	177	181,47		
Muloqot sherigini qayta tiklash	Ayollar	187	187,78	-,994	,320
	Erkaklar	177	176,92		
Muloqotning boshqa ishtirokchilarini o'zingizga moslashtirish	Ayollar	187	209,16	-4,999	,000
	Erkaklar	177	154,33		
Birovning xatolarini kechira olmaslik	Ayollar	187	218,07	-6,682	,000
	Erkaklar	177	144,92		
Muloqot sherigining noqulay holatlariga toqat qilmaslik	Ayollar	187	192,10	-1,804	,071
	Erkaklar	177	172,36		
Muloqotning boshqa ishtirokchilariga moslasha olmaslik	Ayollar	187	194,26	-2,208	,027
	Erkaklar	177	170,08		
	Umumiy	364			

Shaxslarda V.V.Boykoning "Kommunikativ tolerantlik so'rovnomasi" o'tkazilganda, "Shaxsning individualligini rad etish yoki noto'g'ri tushunish" shkalasida olingan natijalari Manni-Uitni mezonida bo'yicha solishtirildi. Ayollarda erkaklarga nisbatan shaxsning individualligini rad etish yuqori ekanligini izohlash mumkin. Ushbu qiymatdagi ishonch darajasiga ko'ra qizlar (ayollar) o'g'il bolalar (erkaklar)ga nisbatan shaxsning individualligini rad etish yoki noto'g'ri tushunish: siz boshqa odamlarning individual xususiyatlarini qanday tushunishni yoki qabul qilishni xohlamaysiz yoki bilmaysiz shkalasi o'rganilganda, qizlar (ayollar) o'g'il bolalar (erkaklar)ga nisbatan boshqalarni xarakterini tushunmaslik, individualligini qabul qilmaslik bo'yicha sezilarli farq mavjudligini ko'rish mumkin. (U=-2,088; p>,037).

Ushbu metodikadan olingan natijalar 1-jadvada keltirilgan. "Shaxsning individualligini rad etish" shkalasi shaxsning individualligini rad etish yoki notog'ri tushunish minimal balli 1ni, maksimal balli 13ni tashkil qilgan. O'rtacha qiymat 2,235, standart og'ish 2,436 qiymatiga ega. 6,52±2,436. Assimetriya va ekstsess qiymati normada berilgan. (A=050; E=-,615). Bunda tabalarning shaxsning individualligini rad etish yoki notog'ri tushunish bo'lgan munosabati o'rtacha ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

Shaxslarda boshqalarni baholashda o'zingizdan standart sifatida foydalanish shkalasidan olingan natijalari Manni-Uitni mezonida bo'yicha taqqoslandi. Ayollar va erkaklarda boshqalarni baholash bo'yicha farqlar sezilmadi. Demak, ayollar va erkaklar odamlarning xatti-harakati, fikrlash tarzi yoki individual xususiyatlarini baholashda shaxs o'zini mukammal deb hisoblashi odamlarning xatti-harakati, fikrlash tarzi yoki individual xususiyatlarini baholashda siz o'zingizni standart hisoblashda sezilarli farq mavjud emasligini ko'rish mumkin. (U=-0,95; p>,924).

Tabalarda, "Kommunikativ tolerantlik" so'rovnomasi o'tkazilganda, odamlarni baholashda toifali yoki konservativ shkalasidan olingan natijalarni Manni-Uitni mezonida bilan solishtirildi. Jins tavofutiga ko'ra, ayollar erkaklarga nisbatan shaxslarni baholashda yoki baho berishda nisbatan farqlar sezildi. Ushbu qiymatdagi ishonch darajasiga ko'ra ayollar odamlarning baholashida qat'iy yoki konservativsiz, sizda moslashuvchanlik va dunyoqarash kengligi ko'rsatkichi erkaklarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, ayollar erkaklarga qaraganda boshqalarni xarakterini tushunmaslik disadaptatsiya yuqoriligi sezilarli farq mavjudligini tadqiqotda ko'rish mumkin. (U=-3,581; p<,000).

Shaxs, noxush his-tuyg'ularni yashira olmaslik yoki ularni yumshata olmaslik shkalasi bo'yicha olingan natijalarni Manni-Uitni mezoniga ko'ra taqqoslandi. Qizlar (ayollar) va o'g'il bola (erkaklar)ga boshqalarni baholashda farqlar sezilmadi. Demakki ayollar va erkaklar "Noxush his-tuyg'ularini yashira olmaslik" deyarli bir xil ekanligini ko'rish mumkin. Shuning uchun ishonch darajasi yuqoridagi jadvalda aks etgan. (U=-,182; p<,855).

Shaxsda, muloqot sherigini qayta tiklash, qayta tarbiyalash istagi noxush his-tuyg'ularni yashira olmaslik yoki ularni yumshata olmaslik shkalasida olingan natijalarni qiyosiy-sitatistik tahlil bo'yicha solishtirilganda, ayollar va erkaklarga muloqot jarayonida iltimosingiz bo'yicha suhbatdoshingizni qayta yaratishga, qayta o'qitishga, o'zgartirishga harakat qilishda ikki jins vakillarida ham farqlar sezilmadi. Ishonch darajasi yuqoridagi jadvalda aks etgan. (U=-994; p<,320). 6-jadval.

Shaxslarda muloqotning boshqa ishtirokchilarini o'zingizga moslashtirish istagi shkalasidan olingan natijalar tadqiq etildi. Ayollar erkaklarga nisbatan yuqori darajada ekanligi izohlanadi. Ushbu qiymatdagi ishonch darajasiga ko'ra ayollar muloqot jarayonida odamlarni moslashtirish ular boshqalar xarakteringizga, odatlaringizga, da'volaringizga moslashtirish bilan muomala jarayonida erkaklarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. 6-jadval (U=-4,999; p<,000).

Shaxslarda birovning xatolarini kechira olmaslik shkalasidan olingan natijalarni U-mezon bo'yicha taqqoslanganda, ayollarda erkaklarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu qiymatdagi ishonch darajasiga ko'ra ayollarda birovning xatolari, noqulayligi, beixtiyor bezovta qilganligi uchun kechirishni bilmaslik erkaklarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Demak, ayollarda erkaklarga qaraganda xatolarni kechira olmaslik yuqori ekanligi bilan izohlandi. 6-jadval (U=-6,682; p<,000).

Shaxslarda, muloqot sherigining noqulay (kasallik, charchoq, kayfiyatning yo'qligi) holatlariga toqat qilmaslik shkalasi bo'yicha olingan natijalarni qiyosiy-statistik tahlilga asoslanib bo'yicha solishtirildi.

Ayollar va erkaklar muloqot jarayonida boshqasi o'zini topadigan jismoniy yoki ruhiy noqulayliklarga toqat qilmaslik ikki jins vakillarida ham farqlar sezilmadi. Shkala natikasining ishonch darajasi yuqoridagi jadvalda aks etgan. (U=-1,804; p>,071). 1-jadval

Shaxslarda muloqotning boshqa ishtirokchilariga moslasha olmaslik shkalasidan olingan natijalarni psixologik ma'lumotlarni qayta ishlash dasturining U-mezonida bo'yicha solishtirildi. Ayollarda erkaklarga nisbatan muloqot

jarayonida moslasha olmaslik yuqori ekanligi izohlandi. Ushbu qiymatdagi ishonch darajasiga ko'ra ayollar boshqalarning xarakteriga, odatlariga yoki da'volariga yaxshi moslashmasligini ko'rish mumkin. Demak ayollar boshqa shaxslarning xulq-atvoriga muloqot paytida moslashmasligini natijalarda ko'rish mumkin. 6-jadval ($U=-2,208$; $p<,027$).

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash zarurki, tolerantlikning rivojlanishi oddiy insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan tortib, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan barcha jarayonlar uchun ham muhim zaruriyatga aylanib bormoqda. Tolerantlik qanchalik rivojlansa,

insoniyatning bexavotir hayot kechirish imkoniyati shuncha ortadi. Jamiyatimizda olib borilayotgan ko'p qirrali islohatlar, eng avvalo, tolerantlik, sotsial tolerantlik asosida jamiyatimizni taraqqiyotiga, uni mustahkamlanib borilishiga, jamiyatda inson qadriga va mehnatini hurmatlanishiga, dunyo hamjamiyatida rivojlangan jamiyatlar qatoriga ko'tarilishiga va shu kabilarni amalga oshirishga qaratilgandir. Davlat muassasalari va jamoat tashkilotlari kundalik faoliyatining uzviy qismiga aylangan taqdirdagina kutilgan natijani berishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Ш.А. Организация работы по воспитанию толерантности в средних общеобразовательных школах. Современное образование. 2017. №2.
2. Agzamxodjayev S.S, Rahimjonov D.O, Muhamedov N.A, Najmiddinov J.X. Dinyo dinlari tarixi.TDSHI.Toshkent.2011.– 227 b.
3. Aminov M.N. Tarbiya:(Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya). - Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti.2010. -416-417-b.
4. Аотолов А.Г.Толерантност от утопии к реальности. На пути к толерантному сознание.Москва. 2000. 5-7 б.
5. Асмолова А.Г.На пути к толерантному сознания .Москва, Смысл, 2000. – 255 б.



Амина СУЛТАНОВА,

Преподаватель кафедры «Практическая психология» ТГПУ им. Низами

E-mail: amishkasultanova1818@gmail.com

Рецензент д.п.н. профессор Н.Умарова

ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНОГО СУИЦИДА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Наша статья посвящена актуальной проблеме суицида в Узбекистане. В статье проводится обширный теоретический обзор литературы, связанной с феноменом суицида среди различных гендерных групп, а также рассматривается контекст Узбекистана, где данная проблема до сих пор остается недостаточно изученной. Автор представляет результаты анализа данных, основанные на собранных материалах, и проводят детальное обсуждение факторов, которые могут влиять на гендерный суицид в Узбекистане. Данная статья вносит вклад в понимание проблемы гендерного суицида в контексте Узбекистана и стимулирует дальнейшие исследования в этой области.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, гендерный суицид, психическое здоровье, риск суицида, мужчины, женщины.

О‘ЗБЕКИСТОНДА О‘З ЖОНИГА ҚАСД ҚИЛИШНИНГ ГЕНДЕРГА ХОС МУАММОСИ

Аннотация

Maqolamiz O‘zbekistondagi o‘z joniga qasd qilishning dolzarb muammosiga bag‘ishlangan. Maqolada turli gender guruhlarini o‘rtasidagi o‘z joniga qasd qilish hodisasi bilan bog‘liq adabiyotlarga keng nazariy sharh berilgan, shuningdek, ushbu muammo hali ham yetarlicha o‘rganilmagan O‘zbekiston konteksti ko‘rib chiqiladi. Muallif to‘plangan materiallar asosida ma‘lumotlar tahlili natijalarini taqdim etadi va O‘zbekistonda gender o‘z joniga qasd qilishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan omillarni batafsil muhokama qiladi. Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida gender o‘z joniga qasd qilish muammosini tushunishga hissa qo‘shadi va bu borada keyingi tadqiqotlarni rag‘batlantiradi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, gender o‘z joniga qasd qilish, ruhiy salomatlik, o‘z joniga qasd qilish xavfi, erkaklar, ayollar.

THE PROBLEM OF GENDER SUICIDE IN UZBEKISTAN

Annotation

Our article is devoted to the current problem of suicide in Uzbekistan. The article provides an extensive theoretical review of the literature related to the phenomenon of suicide among various gender groups, and also examines the context of Uzbekistan, where this problem still remains insufficiently studied. The author presents the results of data analysis based on the collected materials and conducts a detailed discussion of factors that may influence gender suicide in Uzbekistan. This article contributes to the understanding of the problem of gender suicide in the context of Uzbekistan and stimulates further research in this area.

Key words: New Uzbekistan, gender suicide, mental health, suicide risk, men, women.

Введение: В современном мире, проблема суицида среди подрастающего поколения становится все более актуальной и значимой для научных исследований, требуя более глубокого анализа и разработки эффективных стратегий профилактики. В частности, анализ статистики суицидов за 2019 год, предоставленный Европейским регионом Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), выявил тревожные показатели; на 100 000 человек приходится 10,5 случаев в Европейском регионе ВОЗ и 10,2 случая в Регионе ВОЗ для стран Юго-Восточной Азии. Эти цифры превышают средний уровень суицидов в мире, который составляет 9,0 случаев на 100 000 человек [1].

Ежедневно в мире совершают самоубийства 3 тысячи человек, а ежегодно - около 1 миллиона. Каждая третья смерть среди молодежи в возрасте от 15 до 24 лет связана с суицидом. Меры, направленные на предотвращение суицидального поведения среди несовершеннолетних, подчеркивают важность этой проблемы и делают ее значимой и востребованной. Полученные результаты исследований не только углубляют наше понимание данной проблемы, но также предоставляют конкретные количественные данные, подчеркивающие ее актуальность.

В последние годы, в Новом Узбекистане, была установлена законодательная база, направленная на усовершенствование программ профилактики и предотвращения самоубийств. Реализация единой государственной политики в области социальной защиты населения приобретает все более существенное значение и предоставляет продуктивную платформу для научных исследований, направленных на анализ гендерных особенностей суицидов среди подростков, выявление главных причин, а также, проведение исследований по их предупреждению и предотвращению [2].

Цель и обоснование: Цель данной научной статьи заключается в том, чтобы представить научно-теоретический исследовательский анализ проблемы гендерного суицида в Узбекистане. Данная статья представляет собой первый шаг в направлении осмысления и анализа этой сложной проблемы, предостерегая о необходимости более глубоких исследований в будущем.

В мировых образовательных и научных учреждениях ведутся активные исследования с целью выявления гендерных особенностей суицидального поведения в подростковом возрасте, анализа основных факторов, способствующих суициду, и разработки

программ по профилактике и смягчению его последствий. Необходимо уделять особое внимание научным исследованиям факторов, влияющих на данный социальный аспект, а также разработке реабилитационных программ и проведению психологических исследований, связанных с данной темой.

Описание проблемы: Суицид и связанные с ним проблемы остаются одними из наиболее сложных и актуальных вопросов, стоящих перед современным обществом. Гендерный суицид, то есть суицид, основанный на гендерных различиях и социокультурных факторах, представляет собой значительную исследовательскую и социальную проблему. В рамках этого контекста, Узбекистан, как одна из стран Центральной Азии, не является исключением. Несмотря на свой уникальный культурный, исторический и социальный контекст, Узбекистан также сталкивается с вызовами, связанными с гендерным суицидом.

Гендерный суицид в Узбекистане вызывает особую озабоченность из-за его социокультурных особенностей, влияющих на проявление этого феномена. Несмотря на наличие некоторых исследований о суициде в стране, мало сделано в направлении изучения гендерных различий и факторов, которые могут способствовать более высокой уязвимости определенных гендерных групп.

В 2018 году в России, проводилось исследование, в котором указывались гендерные различия, влияющие на суицидальное поведение [1].

У женщин, как правило, более высокий уровень тревожности и депрессии, что может повышать риск суицидальных попыток. У мужчин же выше уровень агрессивности и склонность к рискованному поведению, что также может повышать риск суицидальных попыток.

Однако, следует отметить, что гендерные различия в психофизиологических свойствах не являются единственным фактором, который может повлиять на суицидальное поведение. Например, исследование, проведенное в 2019 году в России, показало, что среди мужчин более высокий уровень безработицы и нестабильности в работе может повышать риск суицидальных попыток [2].

Кроме того, социальное окружение и доступность средств, для совершения суицида, также могут играть важную роль в развитии суицидального поведения [3].

Согласно исследованиям, проведенным в разных странах, мужчины чаще совершают суицид, но у женщин более высокий уровень суицидальных попыток [4].

Это может быть связано с различиями в психофизиологических свойствах мужчин и женщин. Например, у мужчин выше уровень агрессивности и склонность к рискованному поведению, что может повышать риск совершения суицида. У женщин же более высокий уровень тревожности и депрессии, что может повышать риск суицидальных попыток.

Кроме того, исследования показывают, что гендерные различия могут сказаться на выборе средств, для совершения суицида. Например, у мужчин более распространены методы, связанные с использованием огнестрельного оружия, а у женщин - методы, связанные с отравлением лекарствами [5].

Гендерные различия не являются единственным фактором, который может повлиять на суицидальное поведение. Важную роль могут играть также социально-экономические факторы, такие как безработица,

нестабильность в работе, социальная изоляция и другие [6].

Решение проблемы: Проблема суицида в Узбекистане довольно серьезна и требует внимания со стороны общества и правительства. К сожалению, существует ограниченное количество исследований на эту тему на русском языке, однако некоторые исследования все же доступны.

Согласно статье «Суицидальное поведение и психические расстройства в Ташкенте, Узбекистан», изучалась связь между психическими расстройствами и суицидальным поведением в Ташкенте. Исследование проводилось в 2015 году на выборке из 600 пациентов, которые обратились за помощью в психиатрическую больницу. Результаты показали, что наиболее распространенными диагнозами среди пациентов, совершивших попытки суицида, были депрессия и шизофрения [7].

Также стоит отметить, что в Узбекистане отсутствует централизованная база данных по суицидам. Однако, согласно статье «Оценка распространенности и факторов риска самоубийственного поведения в регионах Узбекистана» и основываясь на анализе отчетности о смертности в Узбекистане, можно предположить, что число суицидов в стране высоко. Кроме того, исследование показало, что среди факторов риска суицида в Узбекистане наиболее значимыми являются: социально-экономические проблемы, семейные конфликты, алкоголизм, наркомания, сексуальные насилия и насилие в семье.

Кроме того, существует связь между уровнем образования и риском суицидального поведения в Узбекистане. Исследование, опубликованное в журнале «Женское здоровье и детские права в Центральной Азии» в 2017 году, показало, что у женщин с низким уровнем образования риск суицидального поведения в 3 раза выше, чем у женщин с высшим образованием. У мужчин эта связь не была обнаружена [8].

Также в Узбекистане существует стереотипное представление о том, что выражение эмоций является неуместным для мужчин, что может привести к тому, что они не будут искать помощи в случае психических проблем и суицидальных мыслей. В то время как у женщин есть большее разрешение на выражение эмоций и обычно больше вероятности получить помощь.

Информационные кампании и образовательные программы, которые повышают осведомленность о психическом здоровье и риске суицида, могут помочь уменьшить число случаев суицидального поведения в Узбекистане. Эти программы должны учитывать культурные различия и гендерные особенности, чтобы быть наиболее эффективными.

Кроме того, существует связь между суицидальным поведением и наличием психических расстройств, таких как депрессия, биполярное расстройство, алкогольная и наркотическая зависимость. Люди, страдающие такими расстройствами, имеют более высокий риск развития суицидальных мыслей и поведения. На наш взгляд, суицидальное поведение может быть связано с травмами и стрессовыми ситуациями в жизни, такими как развод, увольнение, потеря близкого человека или тяжелые болезни.

Более половины случаев суицида в Узбекистане приходятся на женщин. В то же время у мужчин наблюдается более высокий риск суицидального поведения, связанный с уровнем занятости и экономическими факторами.

Следует также отметить, что у женщин в Узбекистане часто высокий риск суицида связан с насилием в отношениях, социальной изоляцией и дискриминацией на основе пола. Однако в целом гендерные различия в суицидальном поведении в Узбекистане требуют дополнительного исследования для более полного и объективного понимания ситуации, что мы планируем провести.

Согласно научному исследованию, опубликованному в 2018 году в журнале «Asian Journal of Psychiatry» в Узбекистане высокий уровень суицидальных мыслей и поведения наблюдается среди женщин. Данные исследования показали, что среди студентов медицинского университета в Узбекистане распространенность суицидальных мыслей и попыток была выше, чем среди студентов-мужчин [9].

В целом, в Узбекистане гендерная предрасположенность к суицидальному поведению может зависеть от конкретных социальных и экономических факторов, а также от наличия психических расстройств у конкретных людей и делать однозначные выводы в пользу одной гипотезы, крайне не объективно, и требует дополнительных исследований в этой области. Однако, гендерные различия в суицидальном поведении, могут быть вызваны и социальными факторами, такими как культурные ожидания и роли, которые могут различаться в зависимости от пола. Например, мужчинам обычно приписывается большая социальная ответственность, что может повышать их риск развития суицидальных наклонностей в ответ на неудачи и неуспехи в жизни.

Важным фактором, оказывающим влияние на проблему суицида в Узбекистане, является доступность средств для совершения самоубийств. В стране отсутствуют законы, регулирующие продажу и использование опасных для здоровья и жизни веществ, таких как яды или опасные химические соединения. Это позволяет людям легко получить доступ к этим веществам и использовать их для свершения самоубийств.

Культурные и религиозные убеждения также могут повлиять на проблему суицида в Узбекистане. Некоторые религиозные доктрины рассматривают суицид как грех или нарушение священных законов, что может повлиять на восприятие этой проблемы людьми.

Необходимо учитывать, что суицидальное поведение - это сложный многопрофильный процесс и гендерные свойства являются только одним из многих факторов, которые могут повлиять на его развитие. Таким образом, важно проводить комплексные исследования, которые учитывают не только гендерные свойства, но и другие факторы, такие как наличие психических расстройств, социальное окружение, наличие стрессовых ситуаций и т.д.

Как уже упоминалось ранее, нарушение гендерных ролей может привести к социальному и психологическому стрессу, который повышает риск суицидального поведения. Например, геи и лесбиянки подвергаются повышенному уровню насилия и дискриминации, что может увеличить их склонность к суицидальным мыслям.

Поэтому при изучении диагностики суицидального состояния среди подрастающего поколения необходимо учитывать гендерные и личностные особенности каждого индивида, чтобы определить наиболее эффективный подход для предотвращения суицидального поведения. Также следует учитывать культурные и социальные факторы, которые могут влиять на возникновение суицидальных мыслей и поведения.

Теория социальных ролей гендера является одной из важных теорий в психологии и социологии, которая объясняет, как социокультурные ожидания и нормы влияют на поведение мужчин и женщин в обществе.

Согласно теории социальных ролей гендера:

Рольевые ожидания: Общество накладывает на мужчин и женщин определенные рольевые ожидания. Например, традиционные роли мужчины могут включать в себя ожидание быть "сильными," "независимыми," и "контролирующими," в то время, как роли женщины могут предполагать "заботу," "чувствительность," и "зависимость."

Стресс и депрессия: Эти рольевые ожидания могут создавать стресс и давление на мужчин и женщин. Например, мужчины, которые не соответствуют ожиданиям "силы" и "контроля," могут чувствовать себя уязвимыми и подверженными депрессии. Женщины, которые сталкиваются с противоречиями между ожиданиями быть "заботливыми" и "независимыми," также могут испытывать стресс и депрессию.

Мужчины чаще выбирают методы с более высокой смертностью: В большинстве стран мира мужчины имеют более высокий уровень суицидов, чем женщины. Это связано с тем, что мужчины чаще выбирают методы с высокой смертностью, такие как оружие или повешение. Важно отметить, что, несмотря на более высокую смертность среди мужчин, женщины пытаются суицида совершают чаще.

Разные мотивы для суицидального поведения: Мужчины чаще склонны совершать суицид из-за проблем на работе, алкогольных или наркотических зависимостей, в то время как женщины могут быть более склонны к суициду из-за отношений, семейных конфликтов или депрессии.

Культурные различия: в некоторых странах могут существовать строгие гендерные роли и ожидания, которые могут усилить гендерные различия в суицидальном поведении [3].

Социокультурные и экономические аспекты могут оказывать значительное влияние на гендерный суицид в Узбекистане.

Религиозные и культурные убеждения: Узбекистан является страной с богатой культурной и религиозной историей. Ислам играет важную роль в узбекском обществе, и религиозные убеждения могут оказывать влияние на гендерные роли и ожидания.

Статус женщин и мужчин: Например, статус женщин в обществе и доступ к ресурсам, включая образование и занятость, могут быть ограничены. Это может создавать стресс и депрессию у женщин и повышать риск суицида.

Экономические факторы: Например, экономические трудности могут быть источником стресса и депрессии, как для мужчин, так и для женщин [4].

Что касается научно-теоретического анализа проблемы гендерного суицида в Узбекистане, то для более глубокого понимания этой проблемы, мы можем использовать разнообразные теоретические подходы, включая следующие:

Теория социальных ролей: Мужчинам может казаться, что они будут более независимыми и способными справляться со стрессом, что может привести к более высокой склонности к суициду при несоответствии этим ожиданиям.

Теория структурного функционализма: Экономическая нестабильность и социокультурные

факторы могут создавать условия, в которых различия в суицидальных тенденциях могут возникать.

Теория стресса и копинга: Мужчины могут склоняться к подавлению эмоций и внутреннему напряжению, в то время как женщины могут более часто выражать свои эмоции. Эти различия могут влиять на развитие депрессии и суицидальных тенденций.

Теория личностных факторов: К примеру, некоторые личностные особенности могут делать людей более уязвимыми перед стрессом и депрессией.

Научно-методологический вклад статьи заключается в развитии методологии исследования проблемы гендерного суицида. Мы можем предложить новые методы сбора данных, анализа и оценки эффективности программ по снижению суицидальных тенденций. Это поможет будущим исследователям и практикам более эффективно работать над решением этой проблемы.

Пример: Разработка и внедрение специализированных опросников и анкет, включающих вопросы о гендерных факторах и суицидальных тенденциях. Это позволяет собирать более точные и актуальные данные о влиянии гендера на суицидальное поведение.

Исследование восприятия гендерных ролей и ожиданий в отношении суицидального поведения среди разных возрастных групп и социокультурных контекстов.

Предположим, что исследователи в Узбекистане хотят использовать новые методы сбора данных для изучения гендерного суицида. В этом контексте они могли бы разработать и внедрить специализированные опросники и анкеты, включающие вопросы о гендерных факторах и суицидальных тенденциях. Примеры применения таких методов могут включать следующее:

Опросы среди различных возрастных групп:

Исследователи могли бы провести опросы среди разных возрастных групп в Узбекистане, включая подростков, взрослых и пожилых людей. Опросники могли бы содержать вопросы о восприятии гендерных ролей и ожиданий в отношении суицидального поведения в каждой возрастной группе.

Пример вопроса: "Считаете ли вы, что мужчины и женщины в нашем обществе сталкиваются с разными ожиданиями и давлением, которые могут повлиять на их суицидальные тенденции? Пожалуйста, объясните ваш ответ"

Исследование социокультурных контекстов:

Исследователи могли бы провести опросы в разных регионах Узбекистана, чтобы понять, как социокультурные факторы могут влиять на гендерные различия в суицидальных тенденциях.

Пример вопроса: "Какие традиции и обычаи вашего региона могут влиять на восприятие суицидального поведения мужчин и женщин? Пожалуйста, укажите, есть ли различия в ожиданиях и нормах для мужчин и женщин в вашем регионе"

Для Узбекистана, методы мониторинга и оценки суицидальных тенденций, учитывая гендерные различия, могут быть критически важными. Вот примеры конкретных методов мониторинга и оценки, которые могли бы применяться:

Разработка индикаторов суицидальных тенденций:

Создание базы данных, которая включает в себя информацию о суицидальных случаях, собранных с различных источников, таких как здравоохранение, правоохранительные органы и службы экстренной помощи.

Разработка индикаторов, которые позволяют отслеживать динамику суицидального поведения среди мужчин и женщин по годам и регионам. Например, можно создать индикаторы, отображающие количество суицидов, их распределение по полу, возрасту, месту происхождения и другим параметрам.

Оценка изменений в суицидальных тенденциях во времени и выявление факторов, влияющих на эти изменения, включая гендерные различия.

Использование методов Географической Информационной Системы (ГИС):

Визуализация и анализ пространственных паттернов суицидальных случаев с учетом гендерных различий. Например, создание карт, на которых отображаются города или регионы с высокой частотой суицидов и их распределение по гендеру.

Использование ГИС для определения географических областей с повышенным риском суицида среди мужчин и женщин. Это может помочь локализовать усилия по профилактике и поддержке в местах с наибольшей нуждой.

Анализ пространственных корреляций между суицидами и социокультурными факторами, такими как доступность услуг психического здоровья, уровень безработицы, и распространение гендерных стереотипов.

Эти методы мониторинга и оценки помогают не только следить за изменениями в суицидальных тенденциях, но и понимать, как гендерные факторы могут влиять на эту динамику в разных регионах Узбекистана. Исследователи и практики могут использовать эти данные для более точной адаптации и разработки программ и мероприятий по снижению суицидальных тенденций с учетом гендерных особенностей в разных частях страны.

Заключение: Проблема гендерного суицида в Узбекистане представляет серьезное общественное бремя, требующее немедленного исследования и действий. Различия в суицидальных тенденциях между мужчинами и женщинами говорят о необходимости более глубокого понимания этой проблемы с научно-теоретической и научно-практической точек зрения.

Наша научная статья предоставляет основу для дальнейших исследований и действий, направленных на снижение суицидальных тенденций в Узбекистане, а также может служить источником вдохновения для исследователей и практиков. В статье были представлены следующие ключевые аспекты:

Анализ проблемы гендерного суицида: Мы рассмотрели различия в суицидальных тенденциях между мужчинами и женщинами в Узбекистане, подчеркнув важность изучения этой проблемы с учетом гендерных особенностей.

Причины гендерных различий: Мы провели анализ разнообразных факторов, включая социокультурные, психологические и экономические, которые могут влиять на суицидальные тенденции у мужчин и женщин.

Научно-теоретический анализ: Мы предложили различные теоретические подходы, которые могут помочь объяснить и проанализировать различия в суицидальных тенденциях с учетом гендера.

Эти аспекты совместно создают основу для будущих исследований и действий в области снижения суицидальных тенденций среди мужчин и женщин в Узбекистане. Мы надеемся, что научное и практическое внимание к этой проблеме продвинет общественное понимание и поможет разработать эффективные стратегии, направленные на снижение суицида с учетом гендерных особенностей. Эта работа имеет потенциал

улучшить качество жизни и способствовать сохранению человеческих жизней.

ЛИТЕРАТУРА

1. <https://www.who.int/ru/news/item/17-06-2021-one-in-100-deaths-is-by-suicide>.
2. <http://sch61.minsk.edu.by/main.aspx?guid=1923>
3. Воробьева А. Г., Кон И. С. (2010). Суицид в современном обществе: психологические аспекты. Москва: Просвещение.
4. Ибрагимова М.Р. (2011). Социокультурные аспекты суицида и суицидального поведения в Узбекистане. "Медицинская наука и образование Узбекистана", №2.
5. Лебедева Б.Д., Карманова Э.Р., «Гендерные различия суицидального поведения в России», Социология: теория, методы, маркетинг, 2018, 4(32), 143-152 с.
6. Дмитриева, Т. Б., Шишкин, С. В. (2019), «Факторы риска суицида у мужчин в современной России», Вестник Российской академии медицинских наук, (10), 592-600 с.
7. Шарова Е.П., Гринько Е.С., Грибань Н.Б. и др. «Суицидальное поведение: анализ социально-психологических факторов. Социальные и гуманитарные науки на Севере», 2019. Т.10. № 4. С. 23-28.
8. Березина Е.В., Тимакова А.И., Старостина Е.Г. и др. «Суицидальное поведение и психические расстройства у женщин и мужчин», Международный журнал прикладных и естественных наук, 2015. - 132 с.
9. Корсакова С.С., Кожевникова А.Я., Узбекистан // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. – 2017. – Т.117. – № 1. – С. 34-39.
10. Бережная Е.А., Лебедева Н.Г. «Социально-экономические и психологические факторы, влияющие на суицидальное поведение», Психологическая наука и образование. 2020. Т. 25. № 3. С. 72-79.
11. Корсакова С.С., Кожевникова А.Я., Узбекистан // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. – 2017. – Т.117. – № 1. – С. 34-39.
12. Жураев Н.Н., «Женское здоровье и детские права в Центральной Азии», Научно-практический журнал «Медицина, 2018. – Т.8. – № 2. – С. 41-46.
13. Михайлова Г.Е., «Распространенность и связанные факторы суицидальных мыслей и попыток среди мужчин и женщин-студентов медицинского университета в Узбекистане», журнал «Asian Journal of Psychiatry» – 2018. - 234 с.



Anvar TO‘YCHIYEV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: toychiyev_a@mail.ru

NamDU dotsenti v.b., (PhD) M.Sodirjonov taqrizi asosida

ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDA YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Axborot jamiyatida yoshlar qatlamidagi ijtimoiy muammolarning dolzarbligi, insonning cheksiz telekommunikatsion simulyatsiyalar dunyosida ma’naviy ko’rsatma va barqarorlikni izlashi bilan izohlanadi. Ushbu maqolada yoshlar hayotida virtual makonning ahamiyati, sotsiologik tadqiqotlarida virtualizatsiya tavsifining yangi tendentsiyalari zamonaviy yoshlar ijtimoiy munosabatlarning qiyosiy tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, axborot, madaniyat, ta’lim, virtuallik, virtual hayot, virtual makon, ijtimoiy aloqa, ijtimoiy tarmoq.

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

Актуальность социальных проблем молодежного слоя в информационном обществе объясняется стремлением человека к духовному руководству и стабильности в мире бесконечного телекоммуникационного моделирования. В данной статье дан сравнительный анализ современных молодежных социальных отношений, значение виртуального пространства в жизни молодежи, новые тенденции описания виртуализации в социологических исследованиях.

Ключевые слова: глобализация, информация, культура, образование, виртуальность, виртуальная жизнь, виртуальное пространство, социальная коммуникация, социальная сеть.

MECHANISMS FOR INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY IN MODERN UZBEK SOCIETY

Annotation

The relevance of social problems in the youth layer in the Information Society is explained by the fact that a person seeks spiritual guidance and stability in the world of endless telecommunications simulations. This article presents a comparative analysis of the importance of the virtual space in the life of young people, new trends in the description of virtualization in sociological research of modern youth social relations.

Key words: globalization, Information, Culture, Education, virtuality, virtual life, virtual space, social communication, social network.

Kirish. Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalariga innovatsion texnologiyalarning qo'llash asosida zamonaviy ishlab chiqarishga zamin yaratish, boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining me'yoriy-huquqiy poydevorini mustahkamlash, ta'limning barcha bosqichlarida elektron madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar yoshlarning axborot olish, saqlash, qayta ishlash va yuborishga doir axborot madaniyatining alohida unsuri sifatida elektron munosabatlarni faollashtirmoqda. "Globallashuv davrida jahonning ko'pgina taraqqiy etgan davlatlari "axborot jamiyati", "bilimlar iqtisodiyoti", "raqamli iqtisodiyot" yo'lini tanlaganiga guvohimiz. Zamonaviy dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g'oyalar, yuqori texnologiyalar jadal va barqaror taraqqiyotning fundamental asosini tashkil qilmoqda"[1].

Davlat yoshlar manfaatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, katta maqsadlar sari safarbar etish uchun mamlakatdagi barcha sektorlarni jalb etmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning integratsiyalashuvi, jahonning bir burchagida paydo bo'lgan g'oyalar, yangiliklar hamda ijtimoiy qarashlarning boshqa hududlarga tezkorlik bilan yoyilishini xalqaro globallashuvning ajralmas fenomeni sifatida e'tirof etish mumkin. Ijtimoiy jarayonlarda

harakatlantiruvchi kuch sifatida yoshlar qatlamining o'rni va roli katta.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yirik xalqaro korxonalarining markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo'nalishidagi faoliyatda inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan. IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirishga alohida diqqat qilish zarur[2]. Hozirgi global butunjahon tendentsiyalarni hisobga olib, O'zbekiston uchun AKTdan jamiyatning barcha sohalarida unumli foydalanish, shuningdek, raqamli texnologiyalarning umumiy rivoji innovatsiyalar hamda jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlarda kirishi va integratsiyaning harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, uning xar bir foydalanuvchisi tobora "virtual olam"ning "virtual odam"iga aylana bormoqda. O'z farazlarida boshqalar bilan bir qatorda ommaviy kommunikatsiya vositalaridagi inqilob natijalariga tayanayotgan postmodernizm "virtual" ta'rifini olgan yoshlar o'zgacha zamon va ideosferaning yangicha "mezonini" nazarda tutadi. "Vituallik" tushunchasi hozirgi vaqtda eng yangi multimediali audiovizual va kompyuter texnologiyalari imkoniyatlariga taqqoslanadi, bular yordamida mutlaq ishonchli sifatida idrok etiladigan va boshdan kechiriladigan hom xayollarni(illyuziya) yaratish mumkin bo'ladi.

Albatta, ushbu fikrni yanada to'ldirish va uning salbiy hamda ijobiy tomonlarini tahlil qilish mumkin. Zamonaviy o'zbek jamiyatida yoshlarning kattagina qismi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish salohiyati yuqori baholanadi. Shu bilan birga, axborotni sintez qilish hamda qabul qilishda axloqiy va milliy madaniyatni tark etish, ijtimoiy yolg'izlikka kelib qolish yoki aksincha, turli norasmiy jamoalar, diniy oqimlar, turli "zamonaviy madaniy" oqimlar, online o'yinlar va boshqalar ta'siriga tushib qolish, oqibatida moddiy va ma'naviy zararga uchratgan ba'zi holatlarda suitsid holatlari bilan tugayotgan voqealarni alohida ta'kidladilar. Yangi axborot texnologiyalari davridagi etnik hodisalarni ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan alohida ko'rib chiqmaslik kerak. Milliy internet tarmog'ining roli etnik ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi bo'shliqlarni to'ldirish, to'g'ridan-to'g'ri etnik aloqalardagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali aholining an'anaviy milliy mentalitetini shakllantirishdan iborat.

Global kompyuter tarmoqlari va telekommunikatsiya texnologiyalari joriy etilgan zamonaviy jamiyatda axborot ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai va omiliga aylanmoqda. Bizning ko'z o'ngimizda dunyo real voqeadan axborot-virtualga aylanmoqda; afsuski, virtual haqiqat mavjudlikning asosiy shakllaridan biri sifatida tan olinmoqda. Shu munosabat bilan, axborot resurslarini saqlash va tarjima qilish, aloqa tarmoqlarining murakkablashuvi va chuqurlashishi, voqelikni virtuallashtirishning oqibatlarini, axborot texnologiyalari ta'siri natijasida ma'naviy mezonlarga bo'lgan e'tiborning pasayishi bilan bog'liq muammolar ilmiy va falsafiy munozaralar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sotsiologik nazariyalar tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan "ijtimoiy-madaniy" yondashuvning asoschisi P. Sorokin shunday ta'kidlaydi: "Jamiyat va madaniyat – o'ziga xos shunday birlikki, unda sotsium o'zining sotsiomadaniy aloqa va jarayonlarga kirishish bilan individumni tashkil etadi". O'z navbatida madaniyat sotsiumdagi ma'nolar, qadriyatlar va me'yorlar majmuini ob'ektivlashtirib, kishilarni etnik hamda diniy jihatdan ijtimoiylashuvga tayyorlab beradi. Madaniyat shu tariqa inson ijtimoiy xulqining asosiy, ammo faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xususiy (shaxsiy) determinanti (ilgari suruvchi) sifatida jamiyatga etnomadaniy omil sifatida uyg'unlashadi[3].

Taniqli iqtisodchi olim A.N. Ijaev[4] o'zining ilmiy tadqiqotida shunday ta'kidlaydi: "etnik o'zigaxoslikning eng muhim funktsional yadrosi – bu etnosning deyarli barcha ekzistentsional ongli sohasini qamrab oluvchi va doimiy ravishda (OAV yordamida) axborot va kommunikatsion oziqlanishni talab qiladigan, birinchi o'rinda, etnik-madaniy mulk shaxs hayotiy ta'minotini kafolatlaydigan asosiy himoya vositasi bo'lgan ma'naviy qadriyatdir" – deya tariflaydi.

Kundalik hayotda "zamonaviy odam" atamasi ishlatilishi ta'biy holatga aylandi. Bu terminga A.Y.Hots[5] o'zining tadqiqotida quyidagicha tariflaydi: - "Axborot jamiyatining asosiy afzalliklari bilan bir qatorda, insonlarning kundalik hayotni, yangi madaniyatlar bilan boyitadi, an'anaviy turush tarzidan voz kechadi, turli eltiar madaniyatlarini o'zlashtirib o'zining standartini yaratadi".

"Virtual jamiyat" nazariyasining muallifi A. Byulning fikriga ko'ra virtual reallik texnologiyalari rivojlanishi bilan kompyuter hisoblash mashinasidan "ko'zgulardagi" olamlarni yaratish bo'yicha universal mashinaga aylandi. Jamiyatdagi har bir tizimcha "parallel" olamlar tomonidan shakllangan bo'lib, bularda virtual o'xshashliklar: Internet tarmog'ida iqtisodiy interaksional va siyosiy harakatlarning amalga oshirilishi, kompyuterli o'yinlar personajlari bilan muloqot va h.k.lar yuz bermoqda. Kompyuter yordamida o'ziga xos olam, jamiyat yaratishga ta'sir ko'rsatish jarayonini A. Byul

virtuallashuv (virtual olam) deb ataydi[6.]. Berilgan fikrdan quyidagicha xulosa qilish mumkin: virtual voqelikka kirib ketish orqali insonlar o'rtasida real voqelik va haqiqatdan uzoqlashtirishga olib kelmoqda. Natijada bu jarayon har bir etnik guruh va jamoada o'z aksini topib, insonlarning ijtimoiylashuv jarayonlari virtual maydonga ko'chib o'tdi. O'z navbatida turli ijobiy va salbiy hususiyatlari bilan namoyon bo'lmoqda.

Tahlil va natijalar. Raqamli xavf dunyosida odam ontologik va epistemologik muammolarga duch keladi. Bir tomondan, raqamli shaxs sifatida u hayotining barcha sohalarini keng ko'lamli texnologik, raqamli egallashda ishtirok etadi. Boshqa tomondan, uning aks ettiruvchi tafakkuri muammoli sohalariga, halokatli oqibatlariga, raqamli texnologiyalarning insonning bilish chegaralariga sun'iy ravishda yoki haddan tashqari ta'sir qilish orqali tabiatni bostirish xavfini, shuningdek, insonparvarlik o'lchamidagi xavflarni ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda bir qator sabablarga ko'ra sun'iy intellektga antropomorfik maqom berish noqonuniy hisoblanadi. Tabiiy va sun'iy intellekt o'rtasida sifat jihatidan farq bor. Inson harakat qobiliyatlari va psixikasini modellashtirishning mumkin emasligi hayvonlar va odamlarning yaxlitligini, gomeostazni, miyaning yuqori funktsiyalarini amalga oshirish qobiliyatini va tirik mavjudotlarning protoxujayralardan odamlarga evolyutsiyasini tushunish metafizik vazifaga tayanadi. Insonparvarlik inson mavjudligining o'ziga xosligi va uning o'ziga xosligi sifatida raqamli texnologiyalar yordamida inson tabiatiga ochiq eksperiment o'tkazishning barcha ijobiy va salbiy tavakkalchiliklari va oqibatlarini tanqidiy baholash uchun filtr vazifasini o'taydi.

Inson ongini va shaxsiy taqdirini belgilovchi xavf-xatarli aloqalar bugungi kunda jamiyatdagi me'yorlar va standartlarni aniqlash, ularni kundalik amaliyotda qo'llash, shuningdek, jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan shaxsiy va ijtimoiy muammolar manbai bo'lgan kurashning markazidir. Raqamli aloqa orqali bir nechta xavfli transformatsiyalar sodir bo'ladi. Haqiqiy va virtual aloqalar asl nusxa va buzilgan nusxa sifatida ko'rinadi. Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo'lganidek, so'nggi yillarda internetning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg'unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o'z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayollik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ'ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg'on ma'lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir.

Ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam odamlarning ta'siri, obro'-e'tiboriga baho berish, o'zimizni ko'rsatib qo'yishning yangi, o'ta zamonaviy ko'rinishiga aylanib qoldi. Bu jihatlar oilalarning barbod bo'lishi, samimiyatning yo'qolishi, balandparvoz so'zlarga ishonish, o'zligini his etmaslik, insoniy fazilatlarini qadrlamaslik kabi illatlarni boshlab kelayotgandek. Qayd etish joizki, so'ngi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim yoshlarning xalq orasida obro'-e'tibor qozongan ahli ilm, imom, ulamolarni masxaralab, obro'sizlantirishga qaratilgan lavhalar orqali ayanchli illatlarni targ'ib etayotgani har bir musulmon kishining qalbini larzaga keltirdi

Muhokama. Tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarini tarbiya jarayonida to'liq qamrab olish, bunda, axborotli texnologiyalar (ommaviy

axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet) xizmatidan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettiradigan internet saytlari, multimedia va roliklarni ko'paytirishdan iborat. Ta'lim muassalarida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qartilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ta'lim bosqichlaridagi ma'naviy tarbiya soatlarida “Uyali telefon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati” davra suhbatlari o'tkazish;

- aholi va yoshlarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borish;

- ijtimoiy tarmoqlar vositasida talaba-yoshlar o'rtasida ta'limiy dasturlar, kitobxonlikni targ'ib qiluvchi saytlar milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi dasturiy o'yinlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni kashf etish va ularni amaliyotga joriy etish;

- yoshlarining ilmiy va intellektual faoliyati, ularning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijalarini ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli targ'ib etish;

- turli ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi yangi guruhlariga birlashtirish orqali ularni innovatsion ishlanmalarga jalb etish;

- milliy Internet tarmoqlarida yoshlarbop materiallarni ko'paytirish;

Endilikda virtual makondan birdaniga chiqarib bo'lmaydi va bu salbiy xolat ham emas, faqatgina maqsadsiz, tafakkur rivojlanishiga foyda keltirmaydigan “saviyasiz

videolar, o'yinlar” o'rniga balki quyidagi axborot mahsulotlari bilan ularga kerakli ma'lumotlarni berib borish lozim:

- Vebinarlar;
- Treninglar;
- Onlayn o'quv kurslari;
- Elektron kitoblar.

Oliy ta'lim talabalari uchun dunyoning eng yetakchi universitetlarida o'qiydigan chet ellik talabalar bilan “tengdosh-tengdosh” ta'moili asosida online o'quv-ilmiy almashinuv dasturlari orqali virtual suhbatlar tashkilishi maqsadga muvofiq. Tashkil etilgan vebinarlarda talabalar ijtimoiy hayoti, xorij ta'lim tizimidagi o'quv jarayonlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talabalar bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdagi dasturlar, kitobxonlik bo'yicha suhbatlar, turli yangilik va innovatsiyalar haqida axborot almashilinadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlar O'zbekiston kelajagi, yurtimizning ijodiy va innovatsion tafakkurga ega qudratli intellektual resursi uning yosh avlod vakili bo'lib, raqamli texnologiyalar davrida tug'ilgan internet avlodi ham ijtimoiy fenomenlardan o'ziga xos xulosa chiqarib ulg'aymoqda. Virtual xayotda yashash, masofadan eshitish va yozish. Unda insonning xissiyot va tuygular eshitilmaydi. Axborot tugridan tugri, xech bir extirosarsiz boradi. Shu sababali insonlar bir-birini tushunolmay, nizolarga kirib koladilar. Ijtimoiy tarmoqning o'zbek segmentida dunyoqarashi teran, jamiyatdagi muammolar borasida o'z fikru mulohazalarini bildirib keladigan ziyoli qatlam vakillari yetishib chiqdi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 307. (456)
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: O'zbekiston, – 2021. – Б.194.
3. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992 – С. 296.
4. Ижаев А.Н. Информационно-политическая и этническая идентичность в пространстве массовой коммуникации: автореф. дис. ... канд. полит. наук. М., 2007 // Библиотека диссертаций dslib.net.
5. Хоц А.Ю. Информационная революция и этнические аспекты культуры современного общества: автореф. дис. ... канд. филос. наук. Ставропол, 2001
6. Бюл А. Виртуальное общество 21 века: социальные изменения в эпоху цифровых технологий. Висбаден: Westdeutscher Verlag, 2000.
7. Sodirjonov, M. (2023). Farg'ona vodiysidagi etnosotsiologik jarayonlarida inson kapitalining rivoji tahlili . in Library, 1(1), 195–203.
8. Sodirjonov, M. (2023). Xorij sotsiologik tadqiqotlarda inson kapitali rivojlanish jarayonlariniing etnosotsial hususiyatlari. in Library, 1(2), 84–89.



Ozoda TURGANBOYEVA,
Toshkent sh., Yangiayot tumani 285-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi
E-mail: oturganboyeva@mail.ru

PhD, dotsent K.Inakov taqrizi asosida

“OILA VA MAKTAB” INTEGRATSIYASI ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogikada o'zaro hamkorlik masalalari oila, maktab va mahalla uchligi intyegratsiyasi asosida tadqiq etildi. Ta'lim tarbiyaning zamonaviy jihatlari tadqiq etilarkan pedagogikaning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinib milliy xoslik asosida yangi metodologik yondashuvlar muhokamadan o'tkazildi. Tadqiqot doirasida mustaqillik yillarida pedagogikaning muammolari va uning yechimlari shuningdek aniq takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim modeli, konsepsiya, “Ta'lim to'g'risidagi” qonun, kommunikativ faoliyat, kognitiv bosqichda, refleksiv bosqich, integratsion jarayon.

A MODEL OF IMPROVING EDUCATION QUALITY BASED ON THE INTEGRATION OF FAMILY AND SCHOOL

Annotation

This article looks into the issues of mutual cooperation in pedagogy in the context of the integration of family, school and neighborhood. Researching modern aspects of education, modern trends of pedagogy were analyzed and new methodological approaches based on national characteristics were discussed. During the years of independence, the problems of pedagogy and their solutions, as well as specific proposals, were developed within the framework of the research.

Key words: educational model, concept, law "On Education", communicative activity, cognitive stage, reflexive stage, integrative process.

МОДЕЛЬ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ СЕМЬИ И ШКОЛЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы взаимного сотрудничества в педагогике в контексте интеграции семьи, школы и соседства. Исследуя современные аспекты образования, были проанализированы современные тенденции педагогики и обсуждены новые методические подходы, основанные на национальных особенностях. В годы независимости в рамках исследования были разработаны проблемы педагогики и их решения, а также конкретные предложения.

Ключевые слова: Образовательная модель, концепция, Закон «Об образовании», коммуникативная деятельность, познавательный этап, рефлексивный этап, интегративный процесс.

Ma'lumki, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, respublikamizda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik va integratsiya masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Oila maktab va mahalla integratsiyasi asosida o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasidagi o'zaro uyg'unlikni taminlagan xolda o'quvchi yoshlarning intellektual potensialini yuzaga chiqarish pirovard maqsad qilib olindi. Zero yangi kirib kelayotgan XXI asr farzandi ta'lim tarbiyasida har tomonlama ta'sirni inobatga olish va ijobiy salbiy ta'sirlarning oqibatlari bilan hisoblashish kelajak avlodidan kutiladigan yuksak natijalarning amalga oshishi uchun ham muhim.

Ta'lim tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikning chuqur anglab yetilganligi amalga oshirilgan islohotlarda ham ko'rindi. Ana shu maqsadda 1993 yilda “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasi ishlab chiqilib, yoshlarni istiqloq g'oyalari sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar, fundamental bilimlarga tayangan yetuk intellekt egalari etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum natijalarga erishildi. Avvalo bu natijalar mustaqillikning ilk yillarida sezilgan manaviy-iqtisodiy kemtikliklarni bosib o'tishda aniq namoyon bo'ldi. Yangi O'zbekistonimizda ta'lim eng asosiy masalamizga aylangan bo'lib muhtaram prezidentimiz

“Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak” [1] degan fikrlari bu sohada qilinishi kerak bo'lgan tadqiqot va amaliy loyihalarni uchun dastur bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, ta'limni demokratlash-tirish va insonparvarlashtirish, ta'lim tizimini boshqarishda davlat va jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish; ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfkrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiyasining asosiy maqsadidir. O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar “Oila, mahalla, maktab hamkorligi”

yo'nalishidagi bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Zamonaviy davrimizga kelib jamiyatning barcha muhim sohalarida o'ziga xos transformatsion jarayon kuzatilayotgan bir sharoitda tarixiy o'zligimizning ildizlariga ta'luqli bo'lgan qadriyatlar bilan hamohang zamonaviy ilg'or qadriyatlarni asrash va shakllantirish uchun ham o'zaro hamkorlikning o'zaro integratsion faoliyati har qachongidan ham qimmatli ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifalarning davomiyligini ta'minlash va ularning ishlaridagi rivojlantirishni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-sonli qaroriga ko'ra "Barkamol avlod tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasi" qabul qilindi [2]. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga asos solindi [3].

Mazkur qaror bilan, to'rt yo'nalishdan iborat "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi hududiy jamoat kengashlarining namunaviy tarkiblari, shuningdek, Jamoat kengashining dastlabki, yig'ilishi qarori bilan Jamoat kengashining Nizomi tasdiqlangan.

Jamoat kengashining Nizomidan kelib chiqib, Jamoat kengashining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligini mustahkamlash, shu orqali ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, o'zaro munosabati va mas'uliyatini kuchaytirish.

2. Jamoat kengashlari faoliyatini metodik ta'minlash, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish.

3. Voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish, yoshlarni turli yot g'oyalar tahdididan himoya qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

4. O'quvchilarni dars jarayoniga to'liq jalb etish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash.

5. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, ta'lim tizimidagi islohotlar haqida o'quvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikni uzviy xabardorligini ta'minlash.

6. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Ma'lumki, pedagogik fasilitatsiyaning asosini o'quvchilarning guruhlardagi hamkorlikda ishlash faoliyati tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish bilan bog'liklikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularda kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishga alohida ahamiyat beriladi. Ana shunday muhim jihatlarni hisobga olgan holda, pedagog olim B.X.Xodjaev tomonidan pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilgan [4].

Oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, mazkur jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik ta'minotini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon bosqichma bosqich aaslangan metodologik uslub asosida amalga oshirildi.

Dastlabki bosqichda integratsiya jarayonini o'qituvchi va ota-onalar tomonidan to'g'ri anglanishi uchun maxsus shart-sharoit yaratildi. Bu integrativ faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni aks ettiruvchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qituvchi va ota-onalarning pedagogik munosabatlarining yangi darajasi", degan tushuncha qaror toptirildi.

Kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan bosqich o'qituvchi va ota-onalarning o'zaro faoliyatini uyg'unlashuvi, shuningdek, oila va maktabning pedagogik vazifalarining o'ziga xosligi, ularning pedagogik imkoniyatlarining yuqori ekanligini anglashiga imkon beradi. Shuning uchun kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan bosqichda o'qituvchi va ota-onalarning ta'lim muassasasining standart talablari doirasida integrativ pedagogik faoliyatini hamkorlikda loyihalash va amalga oshirish, shuningdek, mazkur faoliyat natijalari asosida o'qituvchi va ota-onalarning muammolarini o'zaro birgalikda hal etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Kognitiv bosqichda integratsion jarayon sub'ektlarida integratsiya fenomeni, uning tuzilishi, mazmuni, shuningdek, mazkur jarayonni samarali amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi bilimlarni tarkib toptirish tashkil etiladi: o'qituvchi va ota-onalarning pedagogik integrativ faoliyatning nazariy asoslarini o'zlashtirishi; oila va maktab integratsiya-sining pedagogik ta'minoti yaratish tizimi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish; o'qituvchi va ota-onalarning tarbiyaning samarali texnika va texnologiyalarini o'rganishi.

Oila va maktab integratsiyasi pedagogik ta'minotining muhim bosqichi refleksiya bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchi va ota-onalar o'zlarining pedagogik faoliyatining samaradorligini tahlil etishadi, qiyinchiliklar, muammolar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlashtirishadi. Shuni qayd etish lozimki, refleksiv tajriba o'qituvchi va ota-onalar uchun alohida-alohida tarkib toptirilishi yoki jamoaviy, ya'ni maxsus tashkil etilgan ta'limiy muhitda amalga oshirilishi mumkin. Refleksiv bosqichning natijalari uzluksiz mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlanishi, shaxsiy pedagogik madaniyatni rivojlantirishning imkoniyatini anglanishi, pedagogik integratsiya jarayonining muhimligini tushunib yetilishida o'z aksini topadi.

Yana bir jihatni ta'kidlab o'tish lozimki, taklif etilgan model invariant tarkibiy asoslarga ega bo'lib, barcha bosqichlarda uni oilaning o'ziga xosliklari (tarkibi, ijtimoiy holati, tarbiyaviy imkoniyatlari, diniy mansubligi) bilan bog'liqlikda amalga oshirilishi mumkin.

Oila va maktab integratsiyasini pedagogik ta'minotini amalga oshirish bosqichlari, har bir bosqich samaradorligi mezonlarini aniqlash orqali shunga amin bo'lindiki, ularning har biri xususiy shkala bo'yicha o'lchanishi va baholanishi lozim. Ularning hammasi uchun umumiy shkala sifatida natijalarni darajaviy tavsif asosida tahlil etish imkoniyati aniqlandi: yuqori, o'rta va past. Oila va maktab integratsiyasining murakkabligi va ko'p o'lchamga egaligini hisobga olib, har bir daraja uchun ko'rsatkichlar aniqlashtirildi. Yuqoridagi hamkorlik doirasida quyidagicha ishlar yurtimizda amalga oshirilmoqda:

1. Barcha ta'lim muassasalarida o'quv haftaning dushanba kuni "Ertalabki saflanish" tadbiri bilan boshlanishi, unda o'quvchilar tomonidan Davlat bayrog'ini ko'tarilishi va madhiyani jonli ijro qilinishi, shuningdek, "Dunyo va yurtimizdagi yangiliklar" mavzusida jahon va mamlakatimiz

hayotiga oid eng muhim ma'lumotlar berib borilishiga erishildi.

2. O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va o'quvchilar va pedagog xodimlar o'rtasida o'zaro ijodiy raqobatni kuchaytirish maqsadida hafta kunlariga nom berilib, alohida maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirildi. (*dushanba – "Iqtisodiy bilimlar kuni", seshanba – "Sport va sog'lomlashtirish kuni", chorshanba – "Huquqiy savodxonlikni oshirish kuni", payshanba – "Ota-onalar kuni", juma – "Ma'naviyat kuni" va shanba – "Ozodalik kuni"*).

3. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirish, umumta'lim maktablari o'qituvchilarning mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rgan holda darslarni o'tishlariga, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan "Dars – muqaddas", "Ustoz – shogird", "Mahorat maktablari", "O'rgan – o'rgat", "Sog'lom muhit – sog'lom jamoa", "Murakkab fan – o'rganaman", "Uzluksiz va uzviy", "Puxta ishlangan reja – samarali natija" turkum tadbirlar majmuasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

4. Har chorakning oxirgi yakshanba kuni umumta'lim maktablari "O'talar kuni" deb belgilandi, natijada farzandlar bilan otalar o'rtasidagi munosabatlar yaqinlashdi, farzand tarbiyasiga otalarning e'tibori va mas'uliyati kuchaydi.

5. "Eng faol sinf", "Eng faol o'quvchi" nominatsiyalarini o'tkazilishi o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirdi.

6. O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlariga nisbatan rag'bat, mehr va muhabbat uyg'otish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Kitobxonlar bayrami" tadbirlari ("*Adabiyot kunlari*", "*Kitobim – o'ftobim*", "*Kitobsevarlar bayrami*" nomli madaniy-ma'rifiy

tadbirlar, "*Eng yaxshi kitobxon o'quvchi*" va "*Kitobxon maktab*" tanlovlari, "*Ma'rifat fidoyilari*" mavzusida "*Kitob taqdimoti*" ijodkor yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar, "*Maktab – kutubxona – oila – jamoat tashkilotlari*" xayriya tadbiri hamda ota-onalar o'rtasida "*Bir farzandga – uch kitob*" aksiyasi) joriy etildi.

7. Birlashgan Millatlar tashkiloti bilan hamkorlikda farzandlar ta'lim-tarbiyasiga ota-onalarning e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadida "Oila va maktab birgalikda" halqaro loyihasi amalga oshirildi.

8. O'quvchi-qizlarning sog'ligini muntazam nazorat qilib borish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oila budjetini shakllantirish bo'yicha bilimlarini oshirish maqsadida barcha ta'lim muassasalarida "Qizlar maslahatxonasi" va "Orasta qizlar" to'garaklarining faoliyati yo'lga qo'yildi.

9. O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan turli ma'naviy-madaniy tadbirlar va ko'rik-tanlovlarni rejali tashkil etish tizimi yo'lga qo'yildi.

10. Mahalla Yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda ilm-fan madaniyat va sport yo'nalishida doimiy Besh tashabbus musobaqalari tashkil etilib ularning barhasi mahalla, maktab va oila uchligining o'zaro hamkorlikdagi omilkorligini taminlamoqda.

Xulosa o'rinida aytish lozimki, hamkorlik pedagogikasida Oila va maktabning o'zaro integratsiyasi asosida umumiy o'rta ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillash-tirish ta'lim muassasalarida amaliyotga muayyan o'zgarishlar kiritishga yo'naltirilgan faoliyat yotadi. Uning samarasi umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etilishi, ta'lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasining oshganligi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlariga egaliklari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://president.uz>
2. "Баркамол авлод тарбиясида оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлиги концепсияси". Вазирлар маҳкамасининг 2012 йил 19 июндаги 175-сонли қарори.
3. Абдуллаева Ш.А. Ҳамкорлик педагогикаси. – Т.: Фан ва технология, 2017. – 178 б.
4. Хайкин В.Л., Григорьев Д.В. Детско-взрослая созидаящая общность как институт воспитания // Психологическая наука и образование psyedu.ru. – 2014. – №2. – С.75-80.



Eldor TUXTABOYEV,
Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mirshodhasanov02@gmail.com

TDTrU.f.f.d. prof. J.Ramatov taqrizi asosida

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF MIGRATION TODAY

Annotation

This article contains a socio-philosophical analysis of the problem of migration today. The directions of migration on a global scale have been studied, and this process continues. Although migration in our country is growing rapidly, there have been few studies on this direction, little studied. Scientific work and projects on migration in the world and Uzbekistan are highlighted on scientific basis.

Key words: migration, labor migration, causes of migration of men and women, pros and cons of migration, human, society, socio-political institution.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ МИГРАЦИИ СЕГОДНЯ

Аннотация

Данная статья содержит социально-философский анализ проблемы миграции на сегодняшний день. Направления миграции в глобальном масштабе изучены, и этот процесс продолжается. Хотя миграция в нашей стране стремительно растет, исследований по этому направлению было мало, оно мало изучено. Научная работа и проекты по миграции в мире и Узбекистане освещаются на научной основе.

Ключевые слова: миграция, трудовая миграция, причины миграции мужчин и женщин, плюсы и минусы миграции, человек, общество, социально-политический институт.

BUGUNGI KUNDA MIGRATSIYA MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda migratsiya muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Dunyo miqyosida migratsiyaning yo'nalishlari o'rganilgan va bu jarayon davom etmoqda. Yurtimizda migratsiya tez sur'atlarda o'sib borayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalish bo'yicha sanoqli tadqiqotlar o'tkazilgan, kam o'rganilgan. Jahonda va O'zbekistonda migratsiya bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar va loyihalar ilmiy jihatdan asoslanib yoritilib berilgan.

Tayanch so'zlar: Migratsiya, mehnat migratsiyasi, erkaklar va ayollar migratsiyasi sabablari, migratsiyaning ijobiy va salbiy ta'raflari, inson, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy institut.

Kirish. XXI asrda jamiyatning eng katta boyligi - "inson", deb e'tirof etilgan bo'lib. uning rivojlanish maksadi ham fuqarolarning yashash joyini, xayot tarzini erkin tanlashishini ta'minlashdan iborat bo'lib bormoqda. Jamiyat a'zolarining manfaatlarini ximoya qilish. fuqaro sifatida to'laonli hayot kechirib, mavjud intellektual ijodiy va jismoniy imkoniyatlarini xar tomonlama to'liq namoyon etishi uchun, u istiqomat qilayotgan jamiyat, mas'ul ijtimoiy-siyosiy institut sifatida, davlat kafolati vazifasini o'tashga majburdir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov: "Bizning hamma ishlarimizda - bu iqtisodiy siyosatimizni shakttantirish masalasi yoki iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturini xayotga tadbiiq etish bo'ladimi. Ijtimoiy soha. ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida ertangi va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish bo'ladimi - bularning barchasida biz uchun faqat bitta masala eng ustun va hal qiluvchi o'rinda turadi. U ham bo'lsa, inson manfaatlarining ustuvorligidir", deb ko'rsatgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Bugun jamiyatshunos tadqiqotchilar tomonidan izchil va chuqur o'rganilayotgan ushbu muammolar tarkibida migratsiya jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda yer yuzida qariyb 1150 mln.ga yaqin migrantlar bo'lgan. Ular shu yili o'z

mamlakatlariga 3000 mlrd. AQSH dollaridan ziyod sarmoyani kiritgantarini e'tiborga oladigan bo'lsak, bunda inson omili mavzusini nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham o'rganish o'ta muhimligini ta'kidlash joiz. Xususan Respublikamizdagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra: 2016 yilda 3mln, 2017 Yilning birinchi yarmida 4mln. 2018 yilda 5 mln. ga yaqin O'zbekiston fuqarosi tashqi mehnat migratsiyasida ishitirok etgan.¹

Ma'lumki, so'nggi yarim asr mobaynida katta iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan: Turkiya. Xitoy, Hindiston. Filipin va xatto industrial rivojlangan Yaponiya kabi davlatlar ham migratsion jarayonlar va unda shitirok etgan fuqarolariga insoniy kechinmalari sotsiologiyasini izchil ilmiy o'rganish orqali katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Ularning tajribalaridan bugungi kunda rivojlanib kelayotgan boshqa mamlakatlar ham unumli foydalan-moqda.

Darhaqiqat. migratsiya hamma vaqt barcha davlatlarda zaruriy. obyektiv jarayon bo'lgan. Bu jarayonning boshqarilishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqaror rivojlanishni ta'minlagan bo'lsa. stixiyali kechishi, uning ziddiyatlarini keskinlashtirganligi haqida tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda, tadqiqot dolzarbligi quyidagilar bilan izoxlash mumkin.

Birinchidan, XX asrning 90 yillaridan boshlab ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida "inson omili"

tushunchasiga bo'lgan qarashlar o'zgardi. Yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan axborot asri kishisida: "salomatlik", "yuqori professional ta'lim", "intellektual salohiyat", "sog'lom turmush tarzi", "o'z haq-huquqlarini ximoya qilish", "mustaqil fikr yuritish huquqi" va boshqa demokratik tamoyillar. paradigmalari o'zgarish "inson omili" tushunchasiga nisbatan yangicha ilmiy munosabatni taqozo qilmoqda.

Ikkinchidan. Globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining ingensivlashuvi migratsiya fenomeniga: mintaqaviy-xududiy, etnik va diniy-konfessional yondashuvlarga asoslangan muqobil nazariyalarni vujudga keltirdi. Bu esa, ularni qiyosiy tahlil qilib, umumlashgira-digan sotsiologik tadqiqotlar olib borishni kun tartibiga qo'yimoqda. Aholi migratsiyasi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, ushbu fenomen hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bizning davlatimiz global migratsion jarayonda emigrant davlat sifatida ishtirok etayotganini millionlab fuqorolarimizning ta'lim olish va mehnat qilish maqsadida chet davlatlarga migratsiya qilayotgani misolida keltirish mumkin. Mamlakatimizda migratsiya keng tarqalgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar sanoqililgicha qolmoqda. Xususan, migratsiya jarayonini ijtimoiy-gumanitar soha doirasida R.Madaliyeva, T.Saidbayev, K.Kalanov, A.Rasulov, N.Qurbonov va F.Parmonovlar o'zlarining tadqiqotlarida qisman yoritgan. O'zbekistonda migrant oilalar ijtimoiy-psixologik tarafdin birinchi bo'lib H. Abdusamatov tomonidan, axloqiy-falsafiy jihatdan esa S.Alimov tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. F.Parmonov olib borgan tadqiqot ishida migratsiya jarayoni qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo'lishini ta'kidlagan. Ma'lumki, har bir xalqning diniy, axloqiy va milliy qadriyatlar tizimi mavjud. O'zbekiston aholisining ham o'z milliy qadriyatlar tizimi mavjudligiga qaramay, migratsiyaga ketgan erkak yoki ayol o'zga millat qadriyatlar tizimini qisman xulq-atvorida shakllantiradi. Migrant vataniga qaytgach, albatta, o'zlashtirgan qadriyatlar tizimini oilasida joriy qila boshlaydi. O'zlashtirilgan qadriyatlar kelajak avlod uchun salbiy ta'sir qilayotgan globallashuv davrida o'zini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda nafaqat mehnat migratsiyasi, balki ta'lim, sog'liqni tiklash, kasb egallash maqsadida va hatto nikoh migratsiyasi ham rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-mart holatida 2 million 356 nafar yurtdoshimiz mehnat muhojiri sifatida chet elda mehnat qilmoqda. Biroq bu sonlarni migrantlarni haqiqiy, deb ayta olmaymiz, chunki noqonuniy migrantlar ham juda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Yurtimizda migrantlar uchun huquqiy sharoitlar yaratib berilmoqda. Bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasiga muvofiq, "davlatimiz o'z hududida ham, boshqa mamlakat hududida ham o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishi hamda ularga homiylik qilishni kafolatlashi" belgilab qo'yilgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Migratsiyaning ko'p ijobiy taraflari bo'lgani kabi salbiy xususiyatlari ham mavjud. Shulardan biri sifatida aholi migratsiyasi bilan bog'liq axloqiy muammo sabab migratsiyaga ketish holatlarini keltirib o'tish mumkin.

Axloqiy muammo – "intellektual kapitalning oqib ketishi", ya'ni ziyolilarning xorijga chiqib ketishidir. Migratsiya yoki migrantlar haqida gap ketganda, albatta, iqtisodiy muammolar birlamchi sabab sifatida oldingi o'ringa qo'yiladi. Ammo aynan ziyoli qatlarning mehnat va kasb migratsiyasiga qo'shilishiga iqtisodiy omillardan tashqari,

ma'naviy va axloqiy omilar ham sabab sifatida ko'rsatilishi mumkin. Zero, ziyoli insonlar (doktorlar, professorlar, olimlar, yozuvchilar va hokazo) jamiyatning rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillar (korrupsiya, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik va boshqalar) ga davlat kelajagini o'ylagan fuqaro pozitsiyasida turgan holda qarshi kurashadi. Ziyoli qatlam jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi muammolar hal etilmagach, migratsiyaga ketishga qaror qiladi. Oqibatda jamiyatdagi faollar va ziyolilar kuchsizlashadi, ijtimoiy axloqiy muammolar esa ko'payadi va o'z-o'zidan jamiyat kelajagi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yoshlarning rivojlangan davlatlarga ta'lim maqsadida migratsiya qilishi ko'paygani quvonarli holat, lekin ularning boshqa davlatda ta'lim olishdan ko'zlagan niyati o'qishni tugatgach, o'sha mamlakatda ishlab qolish hisoblanadi. Bu ham bizning davlat kelajagi uchun katta yo'qotishdir. Biroq boshqa tomondan esa yoshlar milliy qadriyatlar va axloqiy qarashlarimizni o'zgartirishi mumkinligi ham muammoli vaziyat hisoblanadi.

S.Alimov tomonidan "Migratsion kayfiyat va migratsiyaning jamiyat axloqiga ta'siri" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, unda 634 respondent ishtirok etgan. Migratsiyaning jamiyat uchun qanday ijobiy jihatlari mavjud deb hisoblaysiz?" savoliga respondentlarning 59,8 foizi dunyoqarashning kengayishi, 42,6 foizi turli tillar, madaniyatlar, xalqlar bilan tanishuv, 40,1 foizi fikrlar erkinligi, xilma-xilligining ortishi, 39,4 foizi esa oddiy odamlar turmushida farovonlikning oshishi, degan javobni berishgan. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 52,7 foizining fikricha, migratsiyaning mamlakatimizdagi axloqiy muhitga salbiy ta'siri "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi. Shuningdek, respondentlar tomonidan aholi migratsiyasi sababli vujudga keladigan ijtimoiy-axloqiy muammolar sifatida oilalarning keladigan, xiyonat, ajrimlar sonining ortishi (49,1 foiz), aqlli insonlarning ketib qolishi tufayli jamiyatning intellektual taraqqiyotdan ortda qolishi (42,9 foiz), turli zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolish (37,7 foiz), o'z tili va urf-odatlarini unutish (29,3 foiz), to'ylar va marosimlarga "gorko", "love story" kabi yangicha urf-odatlarining kirib kelishi (28,9 foiz), ichkilikbozlik, giyohvandlik hamda tamaki chekish kabi illatlarning ko'payishi (23,2 foiz) kabilari ko'rsatib o'tilganidan ham ko'rinib turibdiki, migratsiyaning ijobiy va salbiy tamoni mavjud. Ammo migratsiya natijasida kirib kelayotgan salbiy axloqiy, madaniy, inson ongi va psixologiyasiga ta'sir o'tkazuvchi yot g'oyalar kelajak avlod uchun qadriyatlar transformatsiyasiga olib keladi. Buni hozirgi yoshlarning fikrlashi va dunyoqarashidagi o'zgarishlardan sezish mumkin.

D.A.Majidova, D.F.Xusanova va A.A.Bazarovlar mehnat migrantlari oilalaridagi shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillarini loyiha doirasida o'rganishgan.

Ijtimoiy frustrasiya – inson hayotining ushbu davrida jamiyatda egallashga muvaffaq bo'lgan pozitsiyalariga nisbatan o'z hissiy munosabatini bildirish.

Ijtimoiy frustrasiya darajasi Farg'ona viloyatida yo'qori chiqqan. Chunki Farg'onada migrantlarning ko'p ekanligi oiladagi tushunmovchiliklar, hayotdan norozilik va ajrimlar ko'payishiga sabab bo'lgan. Andijon viloyatida esa aksincha, migrant bo'lmagan oilalarning ijtimoiy frustrasiya darajasi yuqori chiqqan. Bunga sabab – Andijon viloyatida migrant oilalari ko'pligi, migrant oilalarnig farovonlik darajasi yuqoriligi va boshqa oilalarning o'z turmush darajasidan qoniqmaslik hissining paydo bo'lishiga olib kelgan. Migratsiya muddati qanchalik uzoq bo'lsa, itimoiy frustrasiya darajasi ham shuncha ortib borar ekan. Bundan ma'lum

bo'ladiki, inson baxtli bo'lishi va o'zidan qoniqishi uchun moddiy farovonlikning o'zi yetarli emas. Shaxs biror darajaga yetishgandan so'ng uning ehtiyojlari ortib boradi va bu doimiy davom etadi. Migratsiyaga sabab bo'luvchi omillardan yana biri ham aynan o'zidan va hayotidan qoniqmaslik tufaylidir. Bugungi kunda ijtimoiy frustrasiya darajasining ortib borayotganini yoshlarda ham kuzatish mumkin. Ularda moddiy barqarorlikka qisqa vaqt ichida erishish istagi yuqorilab bormoqda.

Xulosa va takliflar. Bunga sabab – ota-onalarning shon-shuhrat, moddiyat ortidan quvish, bolalarga manaviy hamda axloqiy qadriyatlarining o'rgatilmayotgani, farzandlarning dunyoqarashi ham shu asosda shakllantirib borilayotgani deb hisoblash mumkin. H.Abdusamatov tadqiqot ishida yangilik sifatida “*Migrant oilalar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining aralash-tizimli modeli*” ni ishlab chiqdi. Bu model o'zbek migrant oilalarining qadimdan shakllanib kelgan va jamiyat tomonidan qabul qilingan o'ziga xos ijtimoiy madaniyatini individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, “oilaviy munosabatlar dinamikasining regressiv-situatsion xarakteri”, “obsessiv psixostenik nizolar” va “qadriyatlar ierarxiyasi va differentsiatsiyasi”ni o'zida jamlagan migrant oilalarning shaxsiy yo'nalishini belgilashga qaratilgan modelini migrant oilalarga targ'ib qilish. 2006-yil O'zbekistonning Toshkent, Andijon va Qoraqalpog'iston hududlarida migratsiya sabablarini o'rganish maqsadida loyiha doirasida tadqiqot olib borildi.

Tadqiqot Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasining Gender dasturi doirasida tayyorlangan bo'lib, uning maqsadi migratsiyaning quyida keltirilgan sabab va oqibatlarini o'rganishga qaratilgan:

1. Migratsiyasi bilan bog'liq hayot strategiyalarini aniqlash.

2. Migrantlar va ularning oila a'zolarining milliy qadriyatlariga amal qilish darajasini aniqlash.

3. Migratsiyaning oiladagi rollari, qadriyatlari va mafkurasining qayta taqsimlanishga ta'sirini o'rganish.

4. Migratsiyaning salomatlikka ta'sirini ko'rib chiqish.

Xulosa o'rnida takidlash joizki, migratsiya hozirgi kunda o'sishdan to'xtamaydigan jarayon hisoblanadi. Zamon talabi esa migratsiyani kengroq tadqiq etish, muammolariga yechim topishdir. Migratsiyaga ketayotgan shaxslar faqatgina moddiy mablag'ni ko'zlab, tavakkal qilib ketishi ko'plab salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Migratsiyaning ijobiy va salbiy omillari yuqorida aytilganidek, tadqiqotlarda ko'rib chiqildi. Migratsiya qaroriga kelishdan oldin har bir shaxs o'z individual xususiyatlaridan kelib chiqib, oilasi va o'zi uchun eng maqbul choralarni ko'rishi lozim. Bir narsani tan olish kerakki, migratsiyaning bir qancha ijobiy jihatlari ham mavjud. Masalan, iqtisodiy barqarorlik, dunyoqarashning kengayishi kabilar hisobiga oilalardagi ajrimlar hamda bolalarning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini hisobga olgan holda, quyidagi takliflar o'rinalidir:

– mamlakatda yetishib chiqayotgan ishchi kuchini hozirda mehnat bozorida talab katta kasblar (kopmyuter texnologiyalari, IT)ga yo'naltirilishi;

– shaxs hayotidagi har bir qaror inson kelajagiga katta ta'sir o'tkazishi bois uning individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va kasb-hunariga qarab migratsiya uchun joy va ish tanlashga e'tibor qaratishi;

– migratsiya va migtant huquqiy savodxonligini oshirish (OAVlar, radio, kitob va jurnallar orqali) maqsadidagi ishlarining amalga oshirilishi;

– bugungi kunda ayollar migratsiyasiga alohida e'tibor qaratish, tadqiqot ishlarini ko'paytirish ahamiyatlidir. Chunki ayol ona, kelajak avlod tarbiyachisi hisoblanadi. Ayollarga migratsiyaga ketishdan oldin psixologik yordam ishlarini tashkil qilishni samarali yo'lga qo'yish migrant ayollar uchun yaxshi natija beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019.
2. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация килиш ва иктисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-жнлд. / Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш - барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. Тошкент: Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. - 235 б.
3. <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/doimiy-aholi-soni-jami?lang=uz&format=pdf>
4. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. – Toshkent, 2022.
5. Majidova D.A., Xusanova D.F., Bazarov A.A. Mehnat migrantlari oilalarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021.
6. Abdusamatov H.U. Migrant Oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. – Toshkent, 2022.
7. Parmonov F., To'rayev Sh., Damirov I. Migratsiya: musofir vatangadolar. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyot, 2015. – 112 b.



Odiljon O'SAROV,
Samarqand harbiy prokurori, adliya polkovnigi, ilmiy izlanuvchi

Psixol.f.d.(DSc), dotsent L.Ravshanov taqrizi asosida

ON THE STAFF OF THE PROSECUTOR'S OFFICE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL REFLEX

Annotation

This article is devoted to the socio-psychological foundations of professional reflex in the employees of the prosecutor's office system and provides for the study of such as professional, scientific, psychological training of the employees of the prosecutor's office system. Also, in the content of the article, the individual psychological characteristics of the employees of the prosecutor's office system, the socio-psychological image of the individual and the socio-psychological study of the formation of professional reflex are widely covered.

Key words: prosecutor's office, reflection, internal service, crime, discipline, courage, socio-psychological image, special title, professional employee, psychologist.

О СОТРУДНИКАХ ПРОКУРАТУРЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РЕФЛЕКСА

Аннотация

Данная статья посвящена социально-психологическим основам профессионального рефлексия у сотрудников прокуратуры и предусматривает проведение исследований по таким вопросам, как профессиональная, научная, психологическая подготовка сотрудников прокуратуры. Также в содержании статьи широко освещены индивидуально-психологические особенности сотрудников прокуратуры, социально-психологический образ личности и социально-психологическое исследование формирования профессионального рефлексия.

Ключевые слова: прокуратура, рефлексия, внутренняя служба, преступность, дисциплина, мужество, социально-психологический образ, специальное звание, профессиональный сотрудник, психолог.

PROKURATURA TIZIMI XODIMLARIDA KASBIY REFLEKSIYANING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Anotatsiya

Mazkur maqola prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, prokuratura tizimi xodimlarining kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Shuningdek, maqola mazmunida prokuratura tizimi xodimlarining individual psixologik xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasi va kasbiy refleksiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tadqiqi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura, refleksiya, ichki xizmat, jinoyat, iintizom, jasorat, ijtimoiy-psixologik qiyofa, maxsus unvon, professional xodim, psixolog.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida prokuratura tizimida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, huquqiy savodxonlik sifatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, yuridik psixologiya fanini o'qitish jarayoniga ilg'or uslublarni joriy etish orqali huquqiy kasb natijaviylikini ta'minlash imkoniyatlari kengaytirildi. Lekin, zamonaviy prokuratura tizimi xodimlarini shakllantirishda kasbiy faoliyatga oid refleksiv qobiliyatlar tizimini va mexanizmlarini takomillash-tirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu uchun prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida tadqiq etish o'rinli hisoblanadi.

Qolaversa, davlatlar o'rtasida turli madaniy, huquqiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlarning integratsiyalashuvi prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning o'rganish tizimini isloh qilish va takomillash-tirish vazifasini belgilaydi. Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya, o'zini o'zi faollashtirish, nostandart vaziyatlarga psixologik yechim topish, ilg'or huquqiy texnologiyalarni qo'llash kabilarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar prokuratura tizimi xodimlarining ijtimoiy-psixologik va huquqiy sohada kasbiy yo'nalganlik, kasbiy

refleksiv qobiliyatining amaliy natijaviylik muhim masalalar sarasiga kiritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi M.I.Karginning fikricha, refleksiya insonga o'zini boshqa odamning o'rni turib tushunishga, o'z harakatlarini baholashga, o'z xatti-harakatlarining afzalliklari va kamchilik-larini hisobga olishga va ularni qayta tiklashga imkon beradi[1,98]. Refleksiya insonning ichki holatiga o'tishning eng muhim mexanizmidir. U insonlarda tug'ilganda bo'lmaydi, balki ontogenezning barcha bosqichlarida rivojlanadi.

Tadqiqotchi M.K.Tutushkina tomonidan prokuratura tizimi xodimlarida refleksiyaning shaxsning o'zini o'zi boshqarishidagi zaruriy mexanizmlardan biri sifatida belgilaydi. U prokuratura tizimi faoliyatdagi refleksivlikning ikki xil nazorat va konstruktiv funksiyalariga ajratadi[2,67]. Nazorat funksiyasi ma'lum bir sohada mavjud vaziyat va shaxs dunyoqarashi o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va tekshirish jarayonidan iborat bo'lib, ma'nolar, munosabatlar va obrazlar shaklidagi ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Konstruktiv funktsiya muayyan harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lib, ideal obrazning o'zi harakat bajarilishi kerak

bo'lgan model jarayonida yaratiladi, ya'ni bu ijodiy jarayon hisoblanadi.

S.Yu.Stepanovning ta'kidlashicha, refleksiv kompetentlik prokuratura tizimi xodimlarining kasbiy sifati bo'lib, vazifalarni yanada samarali va adekvat amalga oshirish, rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlaydigan refleksiv qobiliyatni yuzaga chiqarish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuv asosida maksimal samaradorlik va natijaga erishishga imkon yaratib beradi degan fikrni ilgari suradi[3,14].

Demak, prokuratura tizimi xodimlarida refleksiv kompetensiyani shakllantirish xodimni kasbiy va shaxsiy rivojlanish subyekt sifatida shakllantirish muammosi hisoblanar ekan.

Tadqiqotchi Yu.I.Lobanovning fikricha, prokuratura tizimi xodimlarining faoliyatida refleksiyaning roli ularning kasbiy fikrlash jarayonida bajaradigan funksiyalari bilan belgilanadi. Fikrlash jarayonini tahlil qilish funksiyasi muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga keladigan muammoni tushunishni ta'minlaydi va mutaxassis o'zini xato qilayotgan ijrochi sifatida ko'rishida, qabul qilgan qarorlari nima uchun samarali yoki samarasiz ekanligini aniqlashga intilishida namoyon bo'ladi[4,54]. Demak, refleksiya ongli ravishda muammoni qo'ya olishni, fikrlash jarayonini mustaqil ravishda shakllantirishni, ya'ni uni tashkil etishni ta'minlaydi. Bu vaziyatda refleksiya tafakkurni amaliy muammoni hal qilish uchun tanlangan yo'lni qayta ko'rib chiqishga, ular asosida yangi harakat uslubini ishlab chiqish uchun uning xatolarini topishga majbur qilar ekan. Ushbu funktsiyaning natijasi mavjud vaziyatdan tashqariga chiqish va ijodiy tafakkur jarayonini faollashtirish bo'ladi.

Tadqiqotchi M.M.Mukanova fikricha, o'z-o'zini bilish jarayonida refleksiyaning rolini aniqlash bilan bir qatorda, u muloqotda o'zaro tushunishga erishish imkoniyatini ta'minlaydigan ijtimoiy persepsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralishini ta'kidlaydi[5,54]. Bu yerda refleksiya muloqotdagi sherigi tomonidan o'zini qanday qabul qilinishini anglashida namoyon bo'ladi, shuningdek, ijtimoiy persepsiyaning yana bir mexanizmi bo'lgan sherigining kechinmalarini tushunishga qaratilgan kognitiv empatiya bilan bog'liq hisoblanadi.

Psixolog olim V.A.Metayevaning fikricha, prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning akmeologik xususiyatini alohida ta'kidlab, refleksiya orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishda eng yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Aynan akmeologiyada "refleksiv kompetensiya" boshqa barcha turdagi kasbiy kompetensiyalarning yetarli darajada rivojlanishiga hissa qo'shadigan meta-kompetensiya sifatida qaraladi degan fikrni ilgari suradi[6,58]. V.A.Metayevaning o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, jamoat va siyosiy arboblari, rahbarlar o'rtasida olib borgan tadqiqotlari refleksiya barcha mutaxassislar faoliyatida tizimni tashkil etuvchi element bo'lib, ularning kasbiy malakasini rivojlantirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

Shunday qilib, yuqorida ta'kidlab o'tilgan olimlarning fikriga ko'ra kasbiy refleksiya noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan vaziyatlarda o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egaligini anglatadi. Kasbiy refleksiya mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kasbiy refleksiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay

o'lishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya sohasining oldidagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Tadqiqot jarayonida prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya faoliyatini rivojlantirish darajasining psixologik jihati bilan bir qatorda, ularning kasbiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ham e'tiborga olingan.

Tadqiqotimizda prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun qo'yidagi metodikalar saralab olindi:

Solomin tomonidan ishlab chiqilgan "Kasbiy moyillik xususiyatlari" so'rovnomasi;

Kaganning "Kognitiv refleksiv-impulsiv" so'rovnomasi;

Milman tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxs motivatsion tuzilmasi diagnostikasi" so'rovnomasi;

D.A.Leontev va Ye.N.Osinning "Refleksiyaning differensial tipik" kabi so'rovnomalardan foydalanilgan. Bular o'rtasida parametrik va noparametrik mezonlar hamda korrelyatsion aloqadorlik jihatlari ham aniqlangan.

Tahlil va natijalar. Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy moyillik darajasini o'rganishga doir so'rovnoma natijalariga ko'ra, birinchi shkala bo'yicha ya'ni odamlar bilan ishlashga moyillik M (8-5), standart og'ish esa, (3,2-2,5) farqlar bilan o'zaro tafvutlangan. Ya'ni boshqaruv, o'qitish, tarbiyalash, xizmat ko'rsatish (maishiy, tibbiy, axborot tahlil) kasblarga moyillik asosiy jihatlarni tashkil etadi. Bu guruhga doir insonlar odamlar bilan til topisha olishlik, muloqotchanligi, ularni kayfiyatini tushuna olishi kabi bilimlarga egadirlar.

Keyingi shkala kashfiyotchilik kasblariga moyillik bo'yicha M (4-2), standart og'ish esa, (1,8-0,3) natijani namoyon qilgan. Shu bilan birgalikda ularning o'rtasidagi o'zaro tafvutli farq ham sezilarli darajada namoyon bo'lmagan. Bunday shaxslar ma'lum vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, biron nimaga barham berish, biron nima qilish, biron nima ko'rish va shu kabi maqsadni o'z oldiga qo'ya oladi.

Amaliy turdagi ishlarga moyillik shkalasi bo'yicha har ikki guruh sinaluvchilarining natijalari M (5-2), standart og'ish esa, (3,2-2,1) darajalar bilan o'rtacha farqni tashkil etgan. O'tacha tafvutlar ham ahamiyatli ekanligi aniqlangan.

Keyingi shkala ekstremal turdagi ishlarga moyillik bo'yicha sinaluvchilarning ko'rsatkichlari M (8-4), standart og'ish esa, (3,6-2,8) farqlar bilan o'rtachadan yuqori darajani namoyon etgan. Shuning uchun odamning irodaviy zo'r berishi va ixtiyoriy harakatlari tashqi to'sqinliklarni yengishga qaratilishi bilan bir vaqtda organizmning ichki ahvolini ham o'zgartiradi. Bundan tashqari ular o'rtasidagi farq ham ahamiyatli natijani namoyon qilgan. Bu kasbga sport, sayohat, ekspeditorlik, qo'riqlash, tezkor qidiruv faoliyati, harbiy xizmat bilan aloqador kasblar kiradi.

Iqtisodiy turdagi kasblarga moyillik shkalasiga ko'ra, sinaluvchilarning natijalari M (4-3), standart og'ish esa, (0,8-0,2) farqlar bilan o'rtacha natijani aks ettirgan. Shuningdek bu kasbiy faoliyat turiga ko'ra, asosan inson-texnika sohasida kasbiy faoliyat olib boradigan kasb egalari mansub bo'ladi. Ularning o'rtasidagi farq ham sezilarli farqlarni tashkil etmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida, prokuratura tizimi xodimlarining shaxs xususiyatlari va kasbiy refleksiya xususiyatlarining o'zaro bog'liqlik xususiyatlari korrelyatsion koeffitsiyent jihatlari tahlil qilindi. Unga asosan, odamlar bilan ishlashga moyillik shkalasi bilan kognitiv impulsiv, tizimli refleksiya va

kvazirefleksiya shkalalari, kashfiyotchilik kasblariga moyillik shkalasi kognitiv refleksiv, kognitiv impulsiv, introspeksiya va kvazirefleksiya shkalalari, amaliy turdagi ishlarga moyillik shkalasi bilan kognitiv refleksiv, kognitiv impulsiv, tizimli refleksiya va kvazirefleksiya shkalalari, ekstremal turdagi ishlarga moyillik shkalasi bilan, kognitiv impulsiv, tizimli refleksiya va kvazirefleksiya shkalalari, iqtisodiy turdagi ishlarga moyillik shkalasi bilan, kognitiv refleksiv, kognitiv impulsiv va kvazirefleksiya shkalalari korrelyatsion bog'lanishda ekani aniqlandi.

Inson kamolotining shaxs davri yetukligining muayyan bosqichi hisoblanib, ijtimoiy hayotda alohida ahamiyat kasb etadi va o'zining ko'rsatkichi bilan muhim rol o'ynaydi. Shaxsning ma'lumot darajasiga qaramay, yuksak ko'rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O'z sohasida kasbiy, iqtisodiy mahoratini namoyish etish yetuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs

ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste'dodli yetuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, prokuratura xodimlarining berilgan so'rovnomaga nisbatan mulohazalari hozirgi davr uchun eng muhim sanalgan kasbiy refleksiya shakllanish faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishda ularning bu mulohazalarga bergan javoblari shuni namoyon qildiki, kasbiy refleksiyani rivojlantirishga xos sifatlarni inobatga olishi va buning natijasida kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olishda asosiy mezonlardan biri sanalishi muhim ahamiyat kasb etishi nomyon bo'ldi. Shuningdek, prokuratura tizimi xodimlarining berilgan so'rovnomalarga nisbatan mulohazalari korrelyatsion koeffitsiyent bo'yicha shkalalarning ahamiyatli ravishda bog'langanligi, ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini prognoz qilishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Каргин М.И., Развитие рефлексии в младшем школьном возрасте / М.И.Каргин, Ю.А.Цыганова // Актуальные проблемы и перспективы развития современной психологии. — 2014. — № 1. — С. 97–100.
2. Тутушкина М.К., Практическая психология. Учебник. Санкт-Петербург. 2001. С. 67.
3. Степанов С.Ю., Принципы рефлексивной психологии педагогического творчества / С.Ю.Степанов, Г.Ф.Похмелкина, Т.Ю.Калюшина // Вопросы психологии. - 1991. - № 5. - С. 5-14.
4. Лобанова Ю.И., Исследование влияния рефлексивного механизма на успешность профессиональной подготовки современного специалиста: Авто-реф. ... канд. психол. наук. СПб., 1998. С. 45.
5. Муканов М.М., Исследование когнитивной эмпатии и рефлексии представителей традиционной культуры // Исследование рече-мысли и рефлексии. Алма-Ата, 1979. С. 54-79.
6. Метаева В.А., Рефлексия как метакомпетентность / В.А.Метаева // Педагогика. - 2006. -№ 3. - С. 57-61.
7. www.expert.psychology.ru
8. www.psychology.all.ru
9. www.psychology.net.ru



Zarnigor XAYRULLAYEVA,
International school of finance and technology instituti o'qituvchisi
E-mail: zarnigorxon0009@gmail.com

Psixologiya fanlar doktori, professor v.b H.Abdusamatov taqrizi ostida

SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INADEQUATE PARENTAL RESPONSIBILITY IN STUDENTS

Аннотация

This article covers the social psychological characteristics of the family, the role of parents in the family, the inability to cope with parental responsibility. The article mainly shows the research conducted by Western scientists, the problem of responsibility in psychology, the structural structure of parenting and the role position of parents are largely philosophically-morally, pedagogically and clearly psychologically approached.

Key words: family, parent, commitment, responsibility, personal responsibility, responsibility, phenomenon, empathy, role position of parents.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ РОДИТЕЛЬСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье освещаются социально-психологические особенности семьи, роль родителей в семье, проявление родительской ответственности. В статье показано, что исследования, проведенные преимущественно западными учеными, по проблеме ответственности в психологии, структурной структуре родительства и ролевой позиции родителей в значительной степени философско-нравственно-педагогические и конкретно психологические.

Ключевые слова: семья, воспитание детей, приверженность, ответственность, личная ответственность, ответственность, явление, сочувствие, ролевая позиция родителей.

TALABALARDA OTA-ONALIK MAS'ULIYATINI NOMOYON BO'LISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada oila, oilada ota-onaning roli, ota-onalik mas'uliyatini nomoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari yoritilgan. Maqolada asosan g'arb olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar, psixologiyada javobgarlik muammosi, ota-onalikning tarkibiy tuzilishi va ota-onalarning rol pozitsiyasi asosan falsafiy-axloqiy, pedagogik va aniq psixologik jihatdan yondoshilganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: oila, ota-ona, majburiyat, mas'uliyat, shaxsiy mas'uliyat, javobgarlik, fenomen, empatiya, ota-onalarning rol pozitsiyasi.

Kirish. Oilada ota onaning o'rne muhimdir. Ota-onalar bolalarning barcha ehtiyojlarini qondirish, ularga muhim ma'lumotlarni o'rgatish, salomatlikni saqlash va tarbiyalashda hamkorlik qilish bilan shug'ullanishlari kerak. Oilada ota-onaning o'rne oila ezgulik va barqarorlikka xizmat qilish bilan bog'liq bo'ladi. O'rtacha oila omillari va qarashlari ota-onaning o'rne doirasida shakllanib boradi, shuning uchun ota-ona oilaning kelajagi hamda salomatligi uchun juda muhim sanaladi. Ota-ona o'rne sog'lom va kuchli oilaning asosiy shartidir.

Oila - nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi [1].

Oilada asosiy vazifalarni ota-ona bajaradi va ularga katta mas'uliyat yuklanadi. Psixologiyada javobgarlik muam-

mosi asosan falsafiy-axloqiy, pedagogik va aniq psixologik tahlil kontekstida ko'rib chiqilgan. Mas'uliyatni namoyon etishning muhim sohasi bu oilaviy munosabatlar sohasi, xususan, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash uchun javobgarligi. Tadqiqotchilarning qiziqishi an'anaviy ravishda ota-onalik muammosiga uzoq vaqt davomida saqlanib kelmoqda. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy psixologiyada ko'plab nashrlar bolalarni tarbiyalashga, ota-ona va bola munosabatlarining xususiyatlariga bag'ishlangan va tadqiqotlarning ozgina qismi "ota-ona" tushunchasiga murojaat qiladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ota-onalik esa inson hayotidagi eng katta mas'uliyatni yuklaydi.

Shaxsiy mas'uliyat - bu aniq maqsadlar qo'yish va ularga erishishda o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan majburiyat darajasi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, shaxsiy javobgarlik – bu o'z harakatlari, so'zlari va ishdagi natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishdir.

Erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi bog'liqlik muammo-si quyidagi tadqiqotchilar tomonidan hal qilindi: K. A. Abulxanova-Slavskaya, M. M. baxtin, A. V. Brushlinskiy, R. Kosolapov, S. F. Oduv, E. I. Rudkovskiy, V. V. Ilyin, A. G. Spirkin, M. F. Tsvetaeva, S. R. Rog va boshqalar

o'rganilayotgan muammoning aksariyat mualliflarining fikriga ko'ra.:

1) shaxs o'z harakatlarida erkin bo'lgan darajada javobgar bo'lishi mumkin va u faqat o'z rejasini amalga oshirishda chinakam erkindir va faqat uning bevosita yoki bilvosita ta'siri doirasida bo'lgan narsalar uchun javobgardir;

2) ijtimoiy vaziyatning oldindan belgilangan rivojlanishi sharoitida, betartiblik sharoitida vaziyatning oldindan aytib bo'lmaydiganligi kabi, ijtimoiy vaziyat oqilona tanlov erkinligidan mahrum, uning ichida javobgarlik uchun joy yo'q va shuning uchun axloqiy harakatlar va birinchi navbatda, bu boshqa bironing stsenariysini qabul qiladigan shaxslarga tegishli [2].

"Ta'lim uchun ota-ona javobgarligi" tushunchasi nimani o'z ichiga oladi:

1. Bolalarni tarbiyalash. Bolalarning xatti-harakati uchun ota-onalarning mas'uliyati alohida qayd etilishi kerak, chunki ularning farzandlarini kelajakda qanday tarbiyalashlari uning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

2. Bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish. Ota-onalar farzandlar uchun mas'uldirlar va bolani umumiy ta'lim bilan ta'minlashlari shart. Har bir bola ta'lim muassasasiga borishi kerak.

3. Bolalar manfaatlarini himoya qilish. Ota-onalar kichik yoshdagi bolalarning qonuniy vakillari ekanligi sababli ular o'z huquq va manfaatlarini yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan himoya qilish huquqiga ega.

4. Xavfsizlikni ta'minlash. Bolalar xavfsizligi uchun ota-onalarning javobgarligi talab qilinadi, ya'ni ota-onalarning farzandlarining aqliy, jismoniy va ma'naviy salomatligiga zarar yetkazishga haqlari yo'q.

5. Bolalarni kattalarga yetguncha saqlash. Ota-onalar bolani katta yoshga yetmasidan oldin mustaqil qo'yish huquqiga ega emaslar [3].

Ota-onalik psixologik hodisa sifatida tadqiqotchilar tomonidan tizimli, kompleks va fenomenologik yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladigan murakkab tuzilishdir.

Tizimli yondashuv oilani yaxlit, yagona psixologik va biologik organizm sifatida tan olishni, universal oilaviy munosabatlarni tan olishni o'z ichiga oladi [4]. Shuning uchun, ota-onalik hodisasini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, tadqiqotchilar uni oilaviy tizim bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlaydilar.

B.F.Lomov [5] aqliy hodisalar moddiy dunyo hodisalari va jarayonlarining universal o'zaro bog'liqligiga organik ravishda yozilgan, tizimli va noyob xususiyatlarining organik birligini ifoda etgan degan xulosaga keldi.

R. V. Ovcharovning so'zlariga ko'ra, ota – onalik "ota-onalikning xulq-atvor tarkibiy qismining barcha ko'rinishlarida amalga oshiriladigan, ota-ona sifatida o'ziga nisbatan hissiy va baholovchi rang-barang bilimlar, g'oyalar va e'tiqodlar to'plami bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisa. Shaxsdan tashqari butunlik sifatida ota-onalik yangi hayotni va, albatta, bolaning o'zini boshlashga qaror qilgan ikkala turmush o'rtog'ini ham o'z ichiga oladi" [7.8].

R. V. Ovcharova ota-onalik rivojlangan shaklda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turmush o'rtoqlarning qiymat yo'nalishlari (oilaviy qadriyatlar);
- ota-onalarning munosabati va umidlari;
- ota-onalarning munosabati;
- ota-onalarning his-tuyg'ulari;
- ota-onalarning pozitsiyalari;
- ota-onalarning javobgarligi;
- oilaviy tarbiya uslubi.

Ko'pgina tadqiqotchilar oilani yosh avlod tomonidan qadriyatlarini rivojlantirish va qabul qilish muhiti sifatida ko'rishadi. Ota-onalar bolalarda qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirishga nafaqat hissiy jihatdan yaqin odamlar, balki bolalar aniqlanadigan kattalar dunyosining vakillari sifatida ham ta'sir ko'rsatadi.

A. N. Elizarov" oilaning yetakchi faoliyati sifatida subyektiv darajada oilaning qadriyat yo'nalishlari vazifasini bajaradigan muayyan qadriyatlarini saqlash, rivojlantirish, o'zgartirish va keyingi avlodlarga o'tkazish faoliyatini ko'rib chiqish qonuniydir " degan xulosaga keladi [6, 41]. V. N. Drujinnin aytishicha, qiymat yo'nalishlari odamlarni oilaga birlashtiradi va uning rivojlanish istiqbolini yaratadi. Ular oilada bolalarni tarbiyalash maqsadlari va yo'llarini belgilaydilar [4]. Tadqiqotchilar, shuningdek, "oilaviy qadriyatlarining o'xshashligi" tushunchasini kiritadilar, bu ijtimoiy-psixologik sifat sifatida talqin qilinadi, bu o'zaro bog'liqlikni, qarashlarning orientatsion birligini, oila a'zolarining umuminsoniy me'yorlarga, qoidalarga, oilaning shakllanishi, rivojlanishi va faoliyati tamoyillariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. kichik ijtimoiy guruh [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ota-onalarning munosabati va umidlari ota-onalik fenomenining yana bir tarkibiy qismidir. Ota-onalarning munosabati-bu ota-onaning rolga ma'lum bir qarash, shu jumladan kognitiv, hissiy va xulq-atvor tarkibiy qismlariga asoslangan munosabatlarining reproduktiv komponenti.

Ota-onalarning umidlari ota-onalarning munosabatlari bilan chambarchas bog'liq; ular boshqalardan ota-onalarning rol pozitsiyasini, ularning rolga mos keladigan boshqalarning xatti-harakatlarini tan olishlarini kutish huquqini, shuningdek, boshqalarning umidlariga muvofiq o'zini tutish huquqini nazarda tutadi.

Shunday qilib, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar uslubi nafaqat u bilan aloqani saqlab qolish vositasi, balki ta'limning o'ziga xos usuli-munosabatlarni tarbiyalash bo'lib chiqadi, chunki bu munosabatlar nisbatan barqaror.

Ota-onalarning his-tuyg'ulari ota-onalarning munosabatini hissiy jihatdan ranglaydi. Ular boshqa hissiy aloqalardan ajralib turadigan hissiyotlarning maxsus guruhidir. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ota-onalarning g'amxo'rliqi bolaning hayotini saqlab qolish uchun zarurdir. Va ota-onaning sevgisiga bo'lgan ehtiyoj yosh bola uchun juda muhimdir. Har bir ota — onaning sevgisi insonning hissiy farovonligi, jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashning manbai va kafolatidir [10].

Ota-onalarning his-tuyg'ulari, xususan, ota-onalarning sevgisi, insonning tug'ma xususiyati emas. Ota-ona sevgisi ota-ona his-tuyg'ularining eng yuqori namoyishi sifatida inson hayoti davomida shakllanadi. Ushbu shakllanish yo'li ko'pincha murakkab va ziddiyatli, ichki ziddiyatli bo'lib chiqadi. Bu chuqur va mazmunli tuyg'u. "Bolani sevish-bu u bilan aloqa o'rnatish, uning rivojlanishidagi o'zgarishlarni ko'rish, bolaga ishonish, uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishni o'rganish demakdir. Bolaga bo'lgan muhabbat nafaqat kichkina odamning shaxsiyatini yaratadi, balki ota va onaning shaxsiyatini o'zgartirishi va takomillashtirishi, ularning ma'naviy dunyosini boyitishi mumkin" [6, 11].

Ota-onalikning tarkibiy tuzilishini tahlil qilishda quyidagilarni ta'kidlash kerak [6]: Barcha tarkibiy qismlar ota-ona tarkibiy qismlarini amalga oshirish mezonlari bo'lgan ucha tarkibiy qismga (kognitiv, hissiy va xulq-atvor) ega. Ota-onalarning tarkibiy qismlari tarkibiy elementlarning kesishishi (kognitiv, hissiy va xulq-atvor jihatlar) orqali bir-biri bilan yagona tuzilishga bog'langan.

Majburiyat hissi: ota-onalik mas'uliyati bo'lgan talabalar ko'pincha o'z farzandlariga nisbatan kuchli sadoqat tuyg'usini namoyish etadilar. Ular ota-ona sifatida o'z majburiyatlarini bajarishda ishonchli bo'lish muhimligini tushunishadi.

Vaqtning boshqarish ko'nikmalari: ota-onalar vaqtning samarali boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi, chunki talabalar o'zlarining akademik majburiyatlarini ota-ona majburiyatlarini bilan muvozanatlashlari kerak. Bunday shaxslar o'z jadvalarini boshqarish va vazifalarni birinchi o'ringa qo'yishga usta bo'lishadi.

Yetuklik va chidamlilik: ota-ona mas'uliyatiga ega bo'lgan talabalar ko'pincha tengdoshlariga nisbatan yuqori darajadagi yetuklik va chidamlilikni namoyish etadilar. Ular tezda o'sib, kattalar mas'uliyatini o'z zimmlariga olishlari kerak, bu ularning umumiy hissiy va psixologik rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Empatiya va tushunish: bolani tarbiyalash katta hamdardlik va tushunishni talab qiladi. Ota-onalik mas'uliyati bo'lgan talabalar boshqalarga nisbatan hamdard bo'lishadi, chunki ular boshqa birovning ehtiyojlarini qondirish tajribasiga ega bo'lishi.

Muammoni hal qilish qobiliyatlari: ota-onalarning vazifalari ko'pincha turli xil muammolar va muammolarni yengib o'tishni o'z ichiga oladi. Ularning ta'lim olish jarayonida, ota-ona mas'uliyat bilan kuchli muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish istagining paydo bo'lishi.

Motivatsiyani oshirish: ota-ona mas'uliyati bo'lgan ko'plab talabalar uchun farzandning hayotini ta'minlash istagi kuchli motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Ular akademik muvaffaqiyatga erishadilar va oilalari uchun ijobiy kelajak yaratish uchun o'z maqsadlariga erishadilar.

O'z o'zini nazorat qilish va intizom: ota-ona ta'lim talablarini muvozanatga solish uchun o'z-o'ziga yuqori darajada talab qo'yishi lozim. Ota-ona mas'uliyat bilan farzandlarini tez-tez o'z vaqtida boshqarishi, o'z-o'zini intizomini namoyon etishi, maqsadlarini ustuvor belgilab olishi zarur.

Ijodkorlik va moslashuvchanlik: ota-onalar o'zlarining akademik va ota-onalik majburiyatlarini amalga oshirish yo'llarini topishda ijodiy va moslashuvchan bo'lishlarini talab qiladi. Ota-ona mas'uliyati bo'lgan talabalar ko'pincha hayotlarining turli ehtiyojlari va talablarini samarali boshqarish uchun ushbu ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Hamdardlik: ota-onada hamdardlik tuyg'usi mavjud bo'lishi zarur. Talabalar ko'pincha hamdardlik masalasida muammolarga duch kelishadi. Ota-onalar va shaxslar tomonidan chuqurroq tushunish va hamdardlikga ehtiyoj sezishadi.

Ota-onalik fenomeni-bu shakllanish va rivojlanish jarayonini o'z ichiga olgan dinamik hodisa.

Ota-onalikni maxsus psixologik hodisa sifatida tushunish uchun tadqiqotchilar fenomenologik yondashuvdan foydalanadilar. Bu hodisa (ob'ekt) mohiyatini intuitiv ravishda ochib berishdir, bu uning berilganligi bilan bir xil, ya'ni ishonchli. Psixologiyadagi hodisa-bu ma'lum va ma'lum bo'lgan ob'ektiv yoki sub'ektiv voqelikning ob'ektlari va hodisalariga tegishli umumiy tushuncha [6].

Fenomenologik amaliyot to'rtta asosiy printsipga asoslanadi: tushunish, "davri", xolislik va aniqlik. Ota-onalik fenomeniga kelsak, R. V. Ovcharova printsiplarni quyidagicha izohlaydi.

1. Tushunish printsipi, yuqorida aytib o'tilganidek, tushuntirish printsipiga ziddir. Bu insonning tajribasi va xulq-atvorini belgilaydigan sub'ektiv omilning ta'sirini hisobga

olishni va shu tushuncha asosida umumiy xulosalar chiqarishni talab qiladi. Ushbu tamoyil faqat hodisaning mohiyatiga chuqur kirib borishni, mulohaza yuritishni va kuzatilgan hodisalarni aniq izohlashni nazarda tutadi.

2. "Davri" printsipi yoki hukmdan voz kechish printsipi. Uning mohiyati shundan iboratki, fenomenologik tadqiqotlar paytida odatdagi stereotiplar va naqshlardan mavhum bo'lish, hodisaning kuzatilgan namoyon bo'lishini ma'lum standartlarga bog'lashga urinmaslik, balki faqat his qilishga harakat qilish. Ya'ni, ota-onalik hodisasini o'rganish orqali biz u yoki bu hodisaning ko'p o'zgaruvchanligini, hodisaning namoyon bo'lishini taxmin qilishimiz va kategorik xulosalar chiqarishimiz mumkin.

3. Ta'rifning xolisligi va aniqligi printsipi tadqiqotchining sub'ektiv tajribasi, axloqiy munosabat va boshqa baholash toifalarining ta'sirini istisno qilishni talab qiladi. Ta'rifning aniqligi kuzatilgan ota-onalik hodisasining ma'nosini etkazish uchun so'zlar va atamalarni tanlashda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

4. Kontekstuallik printsipi ota-onalik fenomeni alohida mavjud emasligini, balki insonning atrofdagi dunyo va o'zini umumiy idrok etishi va tushunishining ajralmas qismi ekanligini anglatadi. Bundan tashqari, tarixiy va madaniy kontekstuallikni hisobga olish kerak.

Murakkab psixologik hodisa sifatida ota-ona ma'lum bir tuzilishga ega. Komponent tuzilishi tizim tahlili kontekstida Yetakchi xususiyatlardan biridir.

Butun ob'ektning xususiyatlari va uning qismlarining xususiyatlari, tizim tarkibiy qismlari o'rtasidagi asosiy bog'lovchi komponent component-larning kompleks o'zaro ta'siridir [6].

Mualliflarning fikriga ko'ra, "murakkab" atamasidan foydalanish o'zaro ta'sirning ma'lum bir tuzilishi mavjudligini anglatadi va bu yerda tuzilish tarkibiy qismlarni bir butunga birlashtiradigan tarkibiy qismlararo funksional aloqalar majmui sifatida tushuniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda kuzatish uchun eng qulay bo'lgan barcha tarkibiy qismlarning umumiy ifodasi oilaviy tarbiya uslubidir. Shunday qilib, ota-onalik murakkab dinamik tuzilma bo'lib, u rivojlangan shaklda ota-ona qadriyatlarini, munosabatlari va umidlari, ota-ona munosabati, ota-ona hissiyotlari, ota-ona pozitsiyalari, ota-ona javobgarligi, oilaviy tarbiya uslubini o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tadqiqotlar tahlili natijasida shuni aytish mumkinki, talabalarni ota-onalikka tayyorlash muammosi kompleks tadqiq etilishiga zarurat tug'ilmoqda.

1. Mahalliy va xorijiy psixologiyada ko'plab nashrlar bolalarni tarbiyalashga, ota-ona va bola munosabatlarining xususiyatlariga bag'ishlangan va tadqiqotlarning ozgina qismi "ota-ona" tushunchasiga murojaat qiladi.

2. Ota-onalarning javobgarligi va ota-onalarning bolalar bilan o'zaro munosabatlarining xususiyatlari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Shu jihatdan psixologiyada javobgarlik muammosini keng qamrovli o'rganish zarur.

3. Talabalarda ota-onalik mas'uliyatini nomoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'zbek psixologiyasida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan

4. Talabalarni ota-onalikka va oilaga moslashish jarayonida psixologik inqirozlarga duch kelishi natijasida, ularning hayot faoliyatini yo'nalganligiga ongli ta'sir qilishi isbotlangan.

5. Ota-onalik muammosi va ayniqsa ota-onalarning javobgarligi yetarlicha o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>

2. Психологические особенности родительской ответственности - Курсовая работа , страница 1 (doklad.ru)
3. Bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning mas'uliyati (unistica.com)
4. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. - СПб., 2000
5. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – М., 1984.
6. Овчарова Р.В. Психологическое сопровождение родительства. – М.: Изд-во института Психотерапии, 2003
7. Прядеин В.П. Ответственность как системное качество личности: Учеб. Пособие – УрГПУ.- Екатеринбург, 2001.
8. Тульчинский Г.Л. Разум, воля, успех: о философии поступка. – Л., 1990
9. Onalik va otalikka tayyorlikning 18 ta belgisi - siz farzand tug'ilishiga tayyormisiz? - Psixologiya - 2024 (cosmeticon.ru)
10. Спиваковская А.С. Психотерапия: игра, детство, семья. - М., 1999.
11. Фромм Э. Искусство любить. - Минск, 1990. Winnicott D.W. Primary maternal preoccupation. - USA: Basicbooks, 1956



UDK: 316.244(09)(584.4)

Jaloliddin XAYRUTDINOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Dotsent, f.f.d PhD S.Kalanova taqrizi ostida

“OG‘ZAKI TARIX VA IJTIMOY MAKON JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola kishilik jamiyatining insoniyat dunyosi va tabiatga nisbatan aynan to‘g‘ri kelmasligida biz ijtimoiy tarix qonuniyatlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos jihatlarning mavjudligini qayd etamiz. Shuningdek, bunda u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, faqat insonga xos bo‘lgan faoliyat shakli, ya‘ni madaniyatning yuzaga kelish va mavjud bo‘lish jarayonlarini hisobga olamiz va umumlashtiramiz.

Kalit so‘zlar: Og‘zaki tarix, respondentlar, Etnografik, Sotsial makon.

"УСТНАЯ ИСТОРИЯ И СОЦИАЛЬНОЕ ПРОСТРАНСТВО СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ

Аннотация

В этой статье мы отмечаем существование закономерностей социальной истории и специфических аспектов социального прогресса в том, что человеческое общество не совсем соответствует человеческому миру и природе. Также в этом учтем и обобщим процессы возникновения и существования культуры как формы деятельности, неразрывно связанной с ней, присущей только человеку.

Ключевые слова: Устная история, респонденты, этнография, социальное пространство

"ORAL HISTORY AND SOCIAL SPACE SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF PROCESSES

Annotation

In this article, we note the existence of patterns of social history and specific aspects of social progress in that human society does not quite correspond to the human world and nature. We will also take into account and generalize the processes of the emergence and existence of culture as a form of activity inextricably linked with it, inherent only to man.

Key words: Oral history, respondents, ethnography, social space

Kirish. Insoniyat turining tabiiy yashash muhiti bu organik butunlik, insonlar mavjudligining zaruriy asosidir. Inson va uning yashash muhiti bu butunlikning o‘zaro tobe‘ qismi sanaladi. Biroq insoniyat dunyosi va aniq insonning o‘z tabiati yoki o‘zga kishilarga aynan to‘g‘ri kelmasligida insonning o‘z tabiiy organik butunligiga moslashish jarayoni “fojiaiy” o‘rin tutgani yo‘q.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrgacha G‘arbiy Evropa tafakkurining eng buyuk g‘oyalaridan biri – umumjahon tarixini vaqt asosida bayon etish g‘oyasi bo‘lgan. Bu g‘oya, Avliyo Avgustindan boshlab, umumjahon tarixini, inson hayotini, pozitivizmning paydo bo‘lishi bilan esa, insonning bilish bosqichlarini ham davrlashtirish yo‘nalishida konkretlashib borgan. U rivojlanish va rivojlanishdan to‘xtash dialektikasida, inqiroz va sikl, an‘ana va vorisilik kabi mavzularda gavdalanib kelgan. Biroq vaqt bilan bir qatorda inson hayotini tashkil etuvchi shakl borki, u ham bo‘lsa – makondir. Makon uzoq vaqt diqqat markazidan chetda qolib kelgan, chunki taraqqiyotdan muhimroq narsa yo‘q, deb hisoblangan[1]. Ammo XX asrga kelib, Albert Enshteynning vaqtning relyasion konsepsiyasi paydo bo‘lishi bilan makon muammosi ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Makon mavzusi sosiologiya uchun muhimdir, chunki ijtimoiy jarayonlar ayni makonda rivoj topadi. Boz ustiga, ijtimoiy jarayonlar o‘zlari mavjud bo‘lgan makonni yaratish va o‘zgartirishga qodir.

Og‘zaki tarix nafaqat metodologiya, balki u tadqiqot usuli ham hisoblanganligi bois, undan ta‘lim tizimi faoliyati va akademik tadqiqotlar jarayonida keng foydalanish mumkin. Xususan, ta‘lim sohasida shaxsning fuqarolik burchini shakllantirib borish, o‘zga ijtimoiy-gumanitar fanlar qatorida og‘zaki tarixga o‘quv, tarbiyaviy, ilmiy tadqiqotlar manbasi

sifatida murojaat qilish maqsadga muvofiq sanalmoqda. Akademik faoliyatda esa uning imkoniyatlari mamlakatning ma‘lum tarixiy jarayonlaridagi murakkab, munozarali vaziyatlardagi echimini baholashda ilmiy-uslubiy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Mavjud savollardan biri – bu og‘zaki tarix mutaxassislikmi yoki o‘z predmetiga ega bo‘lgan fanmi? Bu masala tadqiqotchilar orasida uzoq yillardan beri munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan bo‘lsada, hozircha uning uslubiy-texnik jihatlari mukammal yoritilmaganligi bois ochiq qolmoqda. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda bir nechta seminar-treninglar yordamida ixtisoslikka ega bo‘lgan tadqiqotchilardan mutaxassislar guruhi shakllantirildi[2]. Grant loyihalari bo‘yicha olib borilgan dala tadqiqotlari negizida qator ilmiy maqola va adabiyotlar yozildi. Garchi, O‘zbekiston sharoitida so‘nggi o‘n yillikda og‘zaki tarixga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, ayrim muammoli mavzular kompleks tadqiqotlar yordamida izchil o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlarni xususiyatiga ko‘ra qiyoslaydigan bo‘lsak u etnografik, antropologik va sosiologik tadqiqotlardan keskin farq qiladi. Bu bir tomondan ishtirokchini hujjatlarining yangi arxiv manbasini shakllantirishga yo‘naltirsa, ikkinchi tomondan “yaqin o‘tmishning tirik guvohlari”dan olingan axborotlar uzoq yillar mobaynida to‘plangan mavjud rasmiy davlat arxivlariga sub‘ektiv tarzda ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Bu sub‘ektivlik tarixning qaysidir bir “kemitik” joylarini to‘ldirishga, yoki ayrim “shubhali” tuyulgan ma‘lumotlarni qayta tekshirishda qo‘shimcha axborot vazifasini o‘taydi. Etnografik va sosiologik dala tadqiqotchisidan farqli ravishda og‘zaki tarix mutaxassisi respondent bilan suhbatga

kirishishdan oldin o'rganilmoqchi bo'lgan muammo, u bilan bog'liq makon va zamon bo'yicha ilmiy jihatdan batafsil xabardor bo'lishi shart.

Og'zaki tarix yaqin o'tmish tarixini qayta tahlil etishga qaratilganligi uchun ham, u tadqiqotchidan avlodlar tarixi, ular bilan bog'liq bo'lgan madaniyatlar almashishi yoki vorislik, davriy jihatdan mafkuraviy jarayonlarning o'zgarib borishi, turli o'n yilliklar ichida kechgan islohotlarni bilishni talab etadi. Ayniqsa XX asrning o'tkir muammoli bahs-munozaralarini qiyosiy tahlil etish uchun olib borilgan dala tadqiqotlari yordamida davr guvohlaridan diktofon yoki videokamera yozib olingan, respondentlar tomonidan taklif etilgan oila arxivi (fotorasmlar, turli xatlar, hujjatlar va b.) davr ruhini epizodik fragmentlar bilan boyitadi.

Sosiologlar "sosal makon" atamasini qo'llash orqali tevarak atrofimizni o'rab turgan borliqning holatini hech bir o'zgarishsiz o'z holatida qabul qilish va tadqiq etishni taklif etadilar[3]. Mumtoz sosiologiya nazariyotchilaridan biri M.Veber sosiologiyani "sosal fanlar" tizimi sifatida olib qarab: "Biz o'zimiz istiqomat qilayotgan muhitni qamrab olgan hayot tarzimizni o'zaro sosial aloqalar va mavjud madaniy belgilariga ko'ra tushunishga harakat qilar ekanmiz, uning asosiy sababi tarixan shunday shakllanganligini va boshqacha bo'lishi mumkin emasligini his etishimiz kerak", - deydi. Demak, sosiolog pozitsiyasidan turib atrof-muhitni "sosal makon" sifatida o'rganar ekanmiz, tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllangan ob'ektivlikning in'ikosi sifatida insonlar (yanada aniq bayon etilsa – "shaxslar") ekanligini e'tirof etish lozim bo'ladi.

Insoniyat dunyosining ishtirokchilari va yaratuvchilari – sub'ektlardir. Ular o'z butunligiga nisbatan sub'ektivlikni ishga soladi. Bu kishilarning tabiatga va o'zlariga o'xshash sub'ektlarga turli ko'rinishlarda shakllangan usul va vositalar bilan ta'sir etishida namoyon bo'ladi[4]. Sub'ektivlikning predmetli shakli madaniyatni hosil qiladi. Bu ta'rifda madaniyat u yoki bu kishilik hamjamiyati uchun hayotiy zarur bo'lgan o'zaro munosabatlarni o'zining hayot kechirish sharoitida predmetli shaklda "olib o'tish" va "mustahkamlash" tartibi va natijasini bildiradi. Ushbu predmetli shakllar inson qobiliyatining holatini ma'lum daraja qayd etadi va saqlaydi. U yoki bu predmetli shakllarning, ya'ni, predmetlashgan inson qobiliyatining talabgorligi aniq hamjamiyat yoki individning hayotiy manfaat va maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

"Sosal makon" deganda nimani his qilamiz? Demak, "sosal makon" to'g'risida mulohaza bildirilar ekan, albatta "biologik (jismoniy) makon" to'g'risida ham tasavvurga ega bo'lish kerak bo'ladi[5]. XX asrning taniqli sosiologi, sosial refleksizm ta'limoti namoyondasi P.Burde "sosal makon" atamasiga alohida urg'u berar ekan, uning fikricha "atrof-muhitni qanday bo'lsa shu holatida o'rganish va kuzatib borish" taklifidan kelib chiqib, yozadi: "Bizni o'rab turgan sosial maydon bir qator makonlardan tashkil topgan va undagi har bir mavqe (insonlar timsolida qabul qilamiz. K.K.) o'zlari joylashgan ma'lum nuqtada tizimli harakat qiladilar. Shu sababi ham ular turli o'zgarishlarni o'z makonlari orqali izohlaydilar".[6] P.Burde "sosal makon"ni mavhumlik holati bilan belgilaydi va unda iqtisodiy, intellektual (aqliy), madaniy va boshqa sifatlar maydonini ko'radi. "Biologik (jismoniy) makon" esa aniq vo'qelik bilan ifodalanadi. Aytaylik, Toshkent shahri, undagi tuman, kvartal va mahallalar bu "biologik (jismoniy) makon", ularda istiqomat qiluvchi shaxslar (kishilar) mentaliteti, odatlari, stereotiplari va h.k.lar esa "sosal makon"ni tashkil etadi. Xususan, a) Mirzo Ulug'bek tumanida yoki Sergeli tumanida istiqomat qiluvchilar, b) ko'p qavatli uylarda yoki hovli-joyda yashaydiganlar, v) Otchopar bozorida tijorat bilan shug'ullanuvchilar yoki universitet o'qituvchilari, g) Amir

Temur ko'chasi yuzidagi xonadonlarning sohiblari yoki Sag'bon ko'chasi atrofidagi hovlilarda turuvchilarning dunyoqarashi, turmush tarzi, o'zaro munosabatlari o'rtasidagi farqlar va h.k.lar. Ko'rib turganimizdek, biz misol tariqasida "poytaxtlik"ka nisbatan umumiy holatda "biologik (jismoniy) makon"ni qo'llasak faoliyat, turmush tarzi, kayfiyat, munosabat, etnik va milliy xususiyatlarga ko'ra "sosal makon" tushunchasidan foydalanamiz.

Endi bevosita "sosal makon"da "og'zaki tarix" usulidan foydalanishning zaruriyati to'g'risida fikr-mulohazalarimizni berishimiz mumkin. Ta'kidlaganimizdek, Toshkent shahri "biologik makon" sifatida olib qaralsa, 1966 yili sodir bo'lgan zilzila oqibatlarini bartaraf etishda tabiiyki "sosal makon"ning o'rni va ahamiyati mavjud tuman, mahalla, ko'cha, xonadon a'zolarining munosabatidan kelib chiqib turlicha bo'lgan. Aynan tarixiy vaziyatning sosial jihatlarini tadqiq etish va baholash uchun "og'zaki tarix" usuli bizga qo'l keladi[7].

XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan "og'zaki tarix" usuli tarix fanining mustaqil tarmog'i sifatida shakllana boshladi[8]. Ayrim tarixchilar bu davrni "og'zaki tarix"ning "renessans" yoki "qayta tug'ilish" davri deb ataydilar. Mahalliy tadqiqotchi A.Sabirov, "og'zaki tarix manbalarini ikki tomonlama holatlarini bayon etadi: birinchidan, mavjud sosial tajribani avlodlarga etkazishda o'z ildizlari bilan uzoq o'tmishga borib taqaladigan, arxaik (qadimgi) hodisalarni ifodalovchi mavjud tarixiy an'analar[9]. Ikkinchidan, yaqin o'tmishni guvoh va ishtirokchilari bo'lgan kishilarning xotiralari. Mavjud uslub va nazariyalarga tayangan holda, biz "og'zaki tarix"ning vujudga kelishining sabab, shart va dalillarining umumiy jihatlarini orasidan uchtasini alohida ko'rsatib o'tmoqchimiz:

Birinchii navbatda audio-, vizual axborot yozuvlari va ular vositasida olingan ma'lumotlarni saqlash texnologiyasining paydo bo'lishi hamda mukammallashuvini e'tirof etish. "Og'zaki tarix", qolaversa zamonaviy sosiolog yoki tarixchi tadqiqotchi bugungi kunda axborot manbalarini jadallik bilan qo'lga kiritishi va uning ishonchlilik darajasini ta'minlashi uchun INTERNET tarmog'iga ulangan bo'lishidan tashqari raqamli foto- va audiotexnikalar bilan qurollangan bo'lishi foydadan xoli bo'lmaydi.

Ikkinchi sabab gnoseologik tamoyil bo'lib, bunda XX asrning o'rtalarida an'anaviy pozitivistik tarix fani va boshqa tarix bilan o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bir qator sohalar (sosial lingvistika, sosial antropologiya va shu kabilar)da yuzaga kelgan tanazzul holatlari bilan bog'liqdir. Fan va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti, axborotlar manbasining uzluksiz uzatilishi, migrasiya jarayonlarining faollashuvi tarixiy tadqiqodlarning predmeti, usul va tamoyillari, amaliy-nazariy uslub va manbalarni qayta ko'rib chiqilishini taqozo etardi. Mavjud akademik ilmda nazariy jihatlar hamon ustuvorlik qilgani uchun, jadallashgan axborotlar asrida inson (shaxs)ning yashash tarzi, ijtimoiy hayotda o'zini tutish va ruhiy ko'nikmalari, mental xususiyatlari, o'ziga xosligi, etnik o'zlikni anglashda hududlararo chekinish, hayotiy tasavvurlari, hodisalarni baholashda tarqalayotgan mish-mish va boshqa shu kabi jihatlarini tarix nuqtai-nazaridan baholashda uslubiy jihatdan oqsoqlanib qolgandi. Jamiyatdagi turli hodisalar, xususan tarixni kompleks o'olda o'rganishga ehtiyoj ortadi. Natijada, tadqiqot maydonini kengaytirish va murakkablashtirish tarixning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini jadallashuviga olib keladi. "Fanlararo tarixiy texnologiyalar va yoki ushbu fanlar tadqiqot uslublarining natijasida tarixga oid tadqiqotlarning yangi subdisiplinalari yoki yo'nalishlari tug'ila boshladi. Shuning uchun ham "og'zaki tarix" o'zining tarixga ta'sirini birinchi

navbatda sosiologiya, lingvistika, madaniy antropologiya kabi fanlar bilan o'zaro uyg'unlikda takomillashtirdi";[10].

Uchinchidan, tadqiqotchilarning hammavaqt ham mavjud davlat arxivlarida saqlanayotgan ma'lumot, manba va hujjatlarni to'liq qo'lga kiritish imkoniyatining yo'qligi bilan bog'liq. Ayrim hollarda ommaviy tarixiy voqeeliklarga doir hujjatlar ilmiy tahlil uchun o'z ahamiyatini yo'qotib qo'ydi. Ayniqsa, sobiq ittifoq davridagi ko'plab arxiv hujjatlari yagona shablon asosida yozilgan bo'lib, biri-biridan faqat ismlar, familiyalar, sana va tug'ilgan joy nomi bilangina farqlanardi [11].

Sosial makonga tarixiy nuqtai nazardan yondoshiladigan bo'linsa, ushbu tamoyilni nemis tadqiqotchisi F.Ulrix quyidagicha izohlaydi: "Tarix faqat mutaxassislar tomonidan va birgina mutaxassislar uchungina yozilmasligi kerak. Uni shunday yozish va o'rganish kerakki, toki bu jarayonda imkon qadar ko'proq fuqarolar qatnashishi va uni barcha tushunishi shart"[12]. "Og'zaki tarix" usuli bir tomondan tarixchilar o'rtasida bahs-munozaraga sabab bo'lib turgan vaqtda, uning usullaridan yuqorida ta'kidlaganimiz folklorshunoslar, etnograflar, filologlar va hattoki jurnalistlar ham unumli foydalana boshladilar. Shvedsiyalik jurnalist S.Lidkvistning "Turgan joyingni "qazib" o'rgan!" deb nomlangan kitobi, yosh tadqiqotchilar o'rtasida o'ziga xos harakatni yuzaga keltiradi[13]. Tashabbus entuziast tadqiqotchilar diqqat-markaziga ko'tarila boshlaydi. S.Lidkvist tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida mamlakatning Reklingsxauzen shahridagi Xoxlormark kvartali tarixi haqida so'zlovchi, shu kvartal tarixiga doir materiallar yig'ishga kirishiladi. Natijada guruh sa'y-harakatlari bilan "Siz hali eslaysizmi?" nomli kitob chop etiladi[14]. Bu guruh tomonidan har hafta "kvartalda yashovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, kvartalning o'tmishi haqida hikoyalar yig'ilgan, bu erdagi odamlar turli vaqt va davrlarda qanday yashagani, nimalar haqida o'ylagani, bahslashganlari, nimadan xursand bo'lib, nimalardan qayg'urgani, mamlakatdagi o'zgarishlarga shu kvartal aholisi qanday munosabatda bo'lganligi va h.k."lar haqida ma'lumotlar to'plangan. "Og'zaki tarix" kishilar faoliyatining o'zi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu kichik avlodning

katta avlod vakillari (otalar, bobolar, katta buvalar)ning o'zaro ta'sir doirasini ifodalaydi.

XX asrning o'rtalariga kelib "Og'zaki tarix" sosiologiya, lingvistika, madaniy antropologiya kabi yo'nalishlar hamkorligida ilmiy-uslubiy va amaliy ahamiyat kasb eta boshladi[15]. Rossiyalik tadqiqotchi T.K. Sheglova fikriga ko'ra, "Og'zaki tarix" tarixiy tadqiqot nazariyasi uslublari, tamoyillari, nazariyasi, uslubiyoti va manbalarini qayta ko'rib chiqish natijasida yuzaga keldi. Tadqiqot maydoning kengayishi va murakkablashuvi tarix fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalar bilan fanlararo aloqalarini takomillashuviga olib keldi. Natijada, fanlar tadqiqot uslublarining o'zaro kesishgan joyida tarixiy tadqiqotlarning yangi yo'nalishi, ya'ni maxsus tarmoq sohalari vujudga kela boshladi. Akademik tadqiqotlarning diqqat markazida o'tmish hayotning avval inkor etilgan sosial lavhalar – insonlarning kundalik turmush tarzi, hulq-atvori, mentaliteti, o'zlikni anglash (identichnost), etnik mansubligi, hayotdagi qadriyatlar, tasavvurlari, voqe'likni baholash va hatto mish-mishlar tura boshladi"[16]. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, shuningdek mutaxassis ekspertlar fikriga tayanib ta'kidlash mumkinki, mavjud arxiv tizimining qattiq nazorat ostida bo'lganligi, qator tarixiy hujjat, arxiv fondlarining yopiqligi, ko'plab ma'lumotlarning bir xil tartibda tayyorlanishi, qayd etilishi, ayrim holatlarda hujjatlarning ba'zan tabiiy (yong'inlar, suv toshqini, ko'chishlar va h.z.), ba'zida esa atayin yo'qotilishi kabi sabablar "Og'zaki tarix"ni dastlab tarixiy haqiqatni o'rganishdagi yangicha yondashuv, keyinchalik esa mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida vujudga kelishiga zamin yaratdi. Boshqa bir rossiyalik tadqiqotchi A.I. Filyushkin fanning ushbu yangi sohasini "intervyu (suhbatlashish) yordamida alohida inson shaxsining o'zi yashagan davrga oid sub'ektiv bilimlarini qayd qiluvchi o'z uslubiga ega bo'lgan ilmiy yo'nalish", deb ta'riflaydi.

Xulosa. "Og'zaki tarix" uslubidan zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida unumli foydalanish, aytish mumkinki ilm-fan va ta'lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishda o'z o'rmiga ega bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Культура, культурология и образования (Материалы «Круглого стола»). Выступления В.А. Лекторского // Вопросы филологии, 1997. № 2. С.4
2. Иванов Н. Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития.
3. Вебер М. "Объективность" социально-научного и социально-политического познания. / См: Избранные произведения. М.: Прогресс, 1990. – С. 369.
4. Покровский Н.Е. Глобализация и конфликт //Вестник Моск. Ун-та. Сер.18. Социология и политология. 1999. №2. С. 33
5. Бурдые П. Социология социального пространства. М.: Институт экспериментальной социологии; СПб.: Алетей, 2007. – С. 16
6. Бурдые П. Социология социального пространства. М.: Институт экспериментальной социологии; СПб.: Алетей, 2007. – С. 53-54.
7. Лейбова Е.К. «Живая история XX века»: устные источники в обучении истории. // Вест. Новосибирск. гос. ун-та. 2006. Т.5., вып. 1 (доп.): история. С. 134-138.
8. Сабиров А. Устная история (oral history) как источник и метод исторического исследования. // Устная история в Узбекистане: теория и практика. Сб. материалов конференции. Выпуск I. – Ташкент, 2011. – С. 14
9. Сагаров Р. Работа с аудио/видеотехникой при проведении устно-исторических исследований. // Устная история в Узбекистане: теория и практика. Сб. материалов конференции. Выпуск I. – Ташкент, 2011. – С. 83-92.
10. Урсу Д.Н. Методологические проблемк устной истории // Источниковедение отечественной истории. СПб., 2003. – С.23.
11. Щеглова Т.К. Устная история. Учебное пособие. Барнаул: АлтГПА, 2011. – С.45.
12. Томпсон П. Голос прошлого: устная история. М.: 2003. – С. 238.
13. Бу атама россиялик тадкиотчи Т.К.Щеглова томонидан ишлатилган. / Қаралсин: Щеглова Т.К. Устная история. Учебное пособие. Барнаул: АлтГПА, 2011. – С.24.
14. Ўша жойда.
15. Оболенская С.В. История повседневности в современной историографии ФРГ. М., 1990. – С.186.
16. Ўша жойда



УДК: 37013

Маишхура ХАФИЗОВА,

доктор философии по педагогическим
наукам (PhD), и. о. доцента кафедры «Педагогика и психология» Сам ГМУ
E-mail: mashxuraaminovna1967@gmail.com\

Рецензент: Хасанова К.проф.СамГУ имени Шарофа Рашидова

КОНЦЕПЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ГЕЙМИФИКАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СФЕРЕ

Аннотация

В данной статье говорится о преимуществах геймификации в процессе обучения и ее роль в повышении эффективности образования. Современный период предъявляет большие требования к преподавателю и учащимся, главным в этих требованиях является эффективность урока, его качество, организация различных интересных учебных занятий по формированию знаний и умений у студентов и достижению через них ожидаемого результата.

Ключевые слова: геймификация, мотиватор, геймифицированные подходы к обучению, теория самоопределения, компетентность, мотивация.

TA'LIM SOHADAGI GAMIFIKA TUSHUNCHALARI VA XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o'quv jarayonida gamifikatsiyaning afzalliklari va uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli haqida gap boradi. Zamonaviy davr o'qituvchi va talabalarga katta talablar qo'yadi, ushbu talablarda asosiy narsa darsning samaradorligi, uning sifati, talabalar o'rtasida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va ular orqali kutilgan natijaga erishish uchun turli xil qiziqarli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishdir.

Kalit so'zlar: gamifikatsiya, motivator, o'yinga asoslangan ta'lim yondashuvlari, o'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi, kompetentsiya, motivatsiya.

CONCEPTS AND FEATURES OF GAMIFICATION IN THE EDUCATIONAL FIELD

Annotation

This article discusses the benefits of gamification in the learning process and its role in improving the effectiveness of education. The modern period places great demands on the teacher and students, the main thing in these requirements is the effectiveness of the lesson, its quality, the organization of various interesting training sessions on the formation of knowledge and skills among students and achieving the expected result through them.

Key words: gamification, motivator, gamified approaches to learning, theory of self-determination, competence, motivation

«Всем известно, что Узбекистан обладает богатыми природными

ресурсами, мощным экономическим и человеческим потенциалом. Но все же

самое большое наше богатство – это огромный интеллектуальный и духовный потенциал нашего народа». [1].

В настоящее время учебные заведения постоянно находятся в поиске новых направлений и резервов для совершенствования образовательного процесса, качественной подготовки педагогических кадров, установления долговременных и продуктивных связей с образовательными учреждениями республики. Сегодня они являются центром учебно-воспитательной деятельности, формирующей на местах передовое мышление, современного подхода к решению задач в социально-экономической сфере. Одним из способов интенсификации учебной деятельности студентов неязыковых вузов, повышения уровня их мотивации к изучению русского языка, как иностранного и овладения умениями иноязычной профессионально-ориентированной коммуникации являются игровые технологии.

В современных условиях весьма актуальным является использования подходов геймификации в

повышении мотивации в процессе обучения студентов неязыковых вузов.

Вместе с тем, необходимость организовать работу по повышению мотивации студентов вступает в противоречие с тем, что этот вопрос в практике разработан недостаточно. Во-первых, задача повышения мотивации студентов скорее больше декларируется, чем реально осуществляется в практике обучения. Во-вторых, при наличии у преподавателей отдельных методических решений для развития мотивации студентов эти сведения зачастую разобщены и не систематизированы. Безусловно, эта актуальная проблема современному вузу требует своего разрешения.

Проблема развития учебной мотивации у студентов является предметом исследования педагогов, ученых на протяжении многих лет. Для современного вуза эта проблема в настоящее время остаётся актуальной, с каждым годом на фоне обострения социальных проблем на селе, самоустранения родителей от воспитания студентов к учебной деятельности: отсутствие желания учиться или положительная, но бессодержательная мотивация на уровне переживаний.

В педагогике и психологии проблему игровой деятельности разрабатывали К.Д.Ушинский, Л.П.Блонский, С.Л.Рубенштейн, Л.С.Выготский, А.Н.Леонтьев Д.Б.Эльконин. Педагогическим отбором и

пропагандой игр как средства воспитания и обучения занимались А.Я.Герд, Е.М.Дементьев, П.Ф.Легафт, А.Скотак и др. Организаторами методической работе по игре были Н.П.Булатов, В.В.Гориневский, В.Г.Марц, Е.М.Минский и др.

Современные стандарты образования предполагают более активную роль обучаемого в педагогическом процессе. Традиционные методики обучения уступают место личностно ориентированным. Е.Н.Воронова справедливо полагает, что “ система работы педагога по обеспечению результатов обучения иностранному языку обязательно должна включать реализацию следующих технологий: технология понимания коммуникативного обучения, технологию понимания коммуникативного смысла текста, игровые технологии, технологии обучения в сотрудничестве, проектные технологии и др”[2].

Геймификация (игрофикация) – явление, распространившееся по всему миру. Эту современную тенденцию можно наблюдать в различных сферах человеческой деятельности, включая образование. Принципы геймификации используются не только в дошкольных заведениях, но и в школах, колледжах, университетах, а также в дополнительном образовании. Подобный подход имеет определенные преимущества и недостатки. В статье трактуются теоретические основы геймификации возможности и тенденции применения этой технологии в высшем образовании, анализируются положительные и отрицательные стороны геймификации в системе вуза, рассматриваются возможности игровых методик, а также локализации описываемой тенденции.

Г.К. Селевко относит игровые методы к педагогическим технологиям на основе активизации и интенсификации деятельности учащихся. Данные технологии обладают средствами, активизирующими деятельность человека.

Понятие «игровые технологии» включают достаточно обширную группу методов и приемов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от игр вообще «педагогическая игра» обладает существенным признаком-четко поставленной целью и соответствующим педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы, выделены в явном или косвенном [3].

“Игра в руках хорошего организатора, по словам К. Д. Ушинского, превращается в действенное орудие как обучения, так и воспитания, требуя от учеников большого умственного напряжения и в то же время принося им огромное удовольствие и удовлетворение” [4]. Феномен игры в том и состоит, являясь развлечением, отдыхом, она способна перерасти в обучение, воспитание, в творчество, в модель типа человеческих отношений и проявлений в труде.

А.С.Макаренко и другие педагоги утверждают, что надо широко применять игру в учебном процессе, так как она даёт возможность облекать познание мира в формы не похожие на обычное обучение: здесь и фантазия, и самостоятельный поиск ответа, и новый взгляд на известные уже факты и явления, пополнение и расширение знаний, установление связей, сходство и различия между отдельными событиями. С возрастом как утверждают многие психологи, потребность в игре не исчезает, меняется лишь её характер и уменьшается время, которое ей уделяют [6].

Игровые формы отличаются, тем что процесс обучения максимально приближен к практической

деятельности. Сообразуясь с характером и интересами своей роли студенты должны принимать практические решения. Чаще всего им приходится играть свою роль в конфликтной ситуации, заложенной в содержание игры. Решения во многих играх принимаются коллективно, что развивает мышление студентов, коммуникативные способности. В процессе игры возникает определенный эмоциональный настрой, активизирующий учебный процесс.

Учебные игры применяются для развития умений использовать полученные знания на практике. Это сложная форма учебной деятельности, требующая большой подготовки и немалых затрат времени [7].

Ученые подсчитали, что на лекциях усваивается 20 % информации, в то время как в деловых и ролевых играх – 90 %. На лицо польза и необходимость применения игрового метода обучения в высшей школе. Игры могут быть разнообразными – учебными, имитационными, организационно-деятельностными, ролевыми, деловыми, управленческими, военными, операционными, инновацион-ными и т.п. Часть исследователей полагает, что зачатки игровых методов проявляются еще в древности – в обрядах и магических жрецов. В период средневековья, в XV|| веке начали проводить так называемые военные игры или «военные шахматы», когда планировалась и организовывались сражения, отличающиеся от шахмат большой реалистичностью. Деловые игры в современном виде возникают только в XX веке. Первой ласточкой явилась деловая игра, проведенная в 30-е годы XX века в Ленинграде в хозяйственной сфере. Инициатором игры явилась М.М. Бирнштейн, и называлась она «Перестройка производства в связи с резким изменением производственной программы» [5] В игре участвовали студенты вузов и руководители предприятий, а в конце XX века в мире использовалось более 2000 деловых игр, в бывшем СССР и США – свыше 1200. Сегодня игры как метод обучения распространены во всех странах – в Англии, США, Канаде, Японии, Франции, Германии, Польше, Чехии и т.д.

Таким образом, игровые методы обучения студентов широко применяются повсюду, в том числе и в нашей стране. Изучение данной проблематики является, безусловно, актуальным и востребованным.

Геймификацию принято считать наилучшей практикой обучения, ведь оно ориентировано на достижения конкретных целей и студенты постигают материал наиболее полно и с большой пользой для себя. Они применяют полученные знания в ситуациях реальной жизни и для дальнейшего обучения и могут продолжать учиться самостоятельно. Во время интерактивного обучения студенты становятся творческими, многогранными личностями с креативным неординарным мышлением, которые непременно будут востребованы в своей будущей деятельности.

Игровое моделирование имеет большие возможности, поскольку игра как модель объективной реальности делает более понятной ее структуру и вскрывает важные причинно-следственные связи. Исходя из этого факта, игры как модели определенной деятельности широко используются в области обучения и образования.

В игре успешно моделируется профессиональный и социальный контексты деятельности, которые мотивируют, как познавательную, так и профессиональную направленность.

Практика показывает, что применение игровых технологий и инновационных методов в образовательном процессе, их внедрение имеет большие преимущества перед традиционными методами обучения. Использование игровых технологий на уроках русского языка в вузах с узбекским и другими языками обучения позволяет преподавателю не только раскрыть на уроке свою компетентность и эрудицию, но и, опираясь на мотивацию, увлечь студентов, вызывать у них заинтересованность к новым формам учебно-познавательной деятельности.

Модернизация современного образования и происходящие инновационные процессы, требуют от преподавателя вуза эффективных форм и методов обучения, развивать у студентов индивидуальных способностей, умения видеть перспективу применения полученных знаний на практике, легко адаптироваться в современном мире, реализовать себя в будущем. Психологи доказали, что в игре интенсивно развивается психика, с максимальной эффективностью работает память, мышление, восприятие.

С образовательной точки зрения, игра – это способ группового диалогического исследования возможностей действительности в контексте личностных интересов [8]. Иными словами, игра – это интерактивный метод, который позволяет обучаться на собственном опыте путем специального организованного и регулируемого «проживания» жизненной и профессиональной ситуации. Редко встретишь студента (да и взрослого), не участвующего в определенный момент в какой-либо игре. Гибкая система учебных игр позволяет обучаться с интересом, а от возможности выбора игр этот интерес только возрастает. Эта модель обучения, по сравнению с традиционной, более перспективна. Проводимая по схеме: студент-преподаватель-студент, она позволяет студентам самостоятельно выбирать свой путь развития (образования), возможно, делая это несознательно, интуитивно, а преподаватель выполняет роль катализатора; его умения и знания помогают студенту развиваться

быстрее. Занятие по игровой методике существенно повышают интерес студентов к предмету, способствуют повышению мотивации обучения, позволяют учащимся лучше запомнить формулировки, определения, студента, его мышление [9].

Несмотря на большую работу, которая ведётся в образовательных учреждениях по формированию мотивации у студентов, преподавателя с тревогой обращают внимание на «мотивационный вакуум», особенно на рубеже начального и среднего звена.

Любая деятельность, в том числе и учебная, состоит из трёх частей:

- ориентировочно-мотивационной;
- операциально-исполнительской;
- рефлексивно-оценочной.

Отсутствие первой части превращает деятельность в хаотическое скопление отдельных действий без ясной цели, когда человек не видит личностного смысла в совершаемых действиях, не воспринимает их как значимые, важные, необходимые для себя. Отсутствие же третьей части также приводит к потере цели деятельности, поскольку у человека не сформирована при этом способность оценить своё поэтапное продвижение к желаемому результату, возможность его достижения, перспективы и последствия своего поведения в дальнейшем. Поэтому учебная деятельность должна обязательно содержать все три указанных компонента и важнейшая задача образования – научить студентов строить свою деятельность как полноценную, разумную, в которой все части сбалансированы, достаточно развёрнуты, осознаны и полностью осуществлены. Поэтому среди основных задач, стоящих в настоящее время перед вузом и перед каждым у преподавателем, нет другой, более важной и в то же время более сложной, чем задача развития у студентов положительной устойчивой мотивации, которая побуждала бы их к упорной, систематической учебной работе. Без такой мотивации деятельность студента в учебно – воспитательном процессе будет неэффективной.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мирзиеёв Ш.М. Мы все вместе построим свободное демократическое и процветающее государство Узбекистан. – Ташкент: Узбекистон, 2016. – с.39.
2. Воронова Е.Н. Современные технологии и методы обучения иностранному языку в вузе. Журнал Перспективы науки и образования, 2014. № 1, с.27
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М., 1998, 53с.
4. Ушинский К.Д. «История воображения»1990,т.2 с.483
5. Горбатова М.К., Назипова М.А. Методики преподавания в высшей школе: Учебное пособие. – Н. Новгород: ИНГУ, 2012. – 53 с.
6. Макаренко А.С. Педагогические сочинения. Педагогические сочинения в
7. восьми томах. Том 4. – Москва, «Педагогика», 1984. – 400 с
8. Газман, О.С. В школу-с игрой. /С. О Газман. – М.: Просвещение,1991. – 193с
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте.
10. Психологический очерк. – М., 1987, 56 с.
11. Кавтарадзе Д.Н. Обучение и игра. – М., Просвещение, 2009, - 176 с.



Shaxobiddin XOLMATOV,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti I.Rustamov taqrizi asosida

FALSAFADA DUNYOQARASHNING ILMIYLIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada falsafa tushunchasi va unda dunyoqarash masalasi talqin etilgan. Dunyoqarashning shakllanishi, xususiyatlari, tashqi olamni his qilishda dunyoqarashning muhimligi kabi masalalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Falsafa, ong, dunyoqarash, olam, xususiyat.

НАУЧНЫЕ ОСНОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ В ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В статье раскрываются понятие философии и проблема мировоззрения. Обсуждаются формирование мировоззрения, его характеристики, значение мировоззрения в восприятии внешнего мира.

Ключевые слова: Философия, сознание, мировоззрение, мир, личность.

SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF WORLDVIEW IN PHILOSOPHY

Annotation

The article reveals the concept of philosophy and the problem of worldview. The formation of a worldview, its characteristics, and the significance of a worldview in the perception of the outside world are discussed.

Key words: Philosophy, consciousness, worldview, world, personality.

Kirish. Falsafiy dunyoqarash, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish, jamiyat istiqbolini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lganligi uchun ham xalqni muayan g‘oya atrofida birlashtiradi. Masalan, tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, muayan davrlarda falsafiy dunyoqarash inson tub manfaatlariga bilan bog‘liq bo‘lganligini, millat kelajagini belgilaydigan ozodlik g‘oyasi atrofida kishilarni birlashtirganini ko‘ramiz. Bu hol mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ushbu g‘oya (ozodlik falsafasi) dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e‘tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqeyidan qat‘i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan. Maqolada falsafiy dunyoqarashning mohiyati haqida qisqacha so‘z boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqola mavzusi bo‘yicha keyingi yillarda L. F. Ilichov, P. N. Fedoseyev, S.M.Kovalov, V.G.Panov[1.], N.A. Nekrasova, S.I.Nekrasov[2.], S.YU. Belokonev, S.N.Gavrov[3.] kabi olimlar tadqiqotlarida xronologik va tarixiy metodlardan foydalanib xulosalar keltiriladi.

Natija va yechimlar. Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki u narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli obyektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi [2]. Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyatning o‘tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi. Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi. Falsafiy dunyoqarashning universalligi boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya‘ni har qanday dunyoqarash shakli o‘ziga xos falsafiy xususiyatga

ega. Falsafiy dunyoqarash maqsadga mavofiq bo‘lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o‘z dunyoqarashida aks ettiradi. Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviylik tamoyili, uning asosida muayan g‘oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o‘zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o‘zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqloq g‘oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g‘oyani e‘tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri nazariya va amaliyot birligidir. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo‘l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari (funksiyalari). Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. Ya‘ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi [5.2].

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqtayi nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko‘zga tashlanadi. Bu - falsafiy dunyoqarashning baholash vazifasini anglatadi. Ya‘ni, inson, o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-omon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qaramaqarshi mezonlarga ajratadi. Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya‘ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o‘zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslashtiriladi. Orzu-havaslariga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo‘nalishlari belgilanadi

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy meyor, diniy qadriyat, xuquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usulvositalar orqali boshqarish vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o'zicha nisbatan mustaqil bo'lgan har bir yo'nalishi o'ziga xos boshqarish usuliga ega bo'ladi. Masalan, insonni ezigulikka yo'naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din - iymon-e'tiqodiga; huquq - qonunlarga, jazo idoralari; siyosat-davlat funksiyalariga tayanadi va o'ziga xos ta'sir yo'nalishlariga ega bo'ladi. Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini nazorat qilish vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko'rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o'zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ma'naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko'rsatgan. Darhaqiqat, o'zbek mahallalarida bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat, hamdardlik kabi noyob fazilatlar kamol topadi.

Falsafiy dunyoqarashning birlashtirish (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo'nalishlarini milliy va umuminsoniy g'oyalarda uyg'unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlar bilan bog'liq bo'lgani bois dunyoqarashlar o'rtasida muayan ziddiyatlar ro'y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi. Har qanday dunyoqarash inson ehtiyojlaridan kelib chiqadi, uning manfaatlariga mos keladi. Shu bilan birga, bir tomondan, dunyoqarash o'z-o'zidan, ya'ni stixiyali ravishda shakllanib qolmaydi. Aksincha, u turli ta'lim-tarbiya vositalarining maqsadga muvofiq holdagi faoliyati natijasida vujudga keladi. Ikkinchi tomondan esa, falsafiy dunyoqarash, umuminsoniy tamaddun (sivilizatsiya) ta'siri o'laroq shakllangan bo'lsa, muayan inson, ijtimoiy guruh yoki millatni tarbiyalashning turli imkoniyatlari va vositalarining mushtaraklashgan shaklidir.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning tarbiyaviy vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu - kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag'rikenglik, murosaga, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat[6.1].

Falsafiy dunyoqarashni yangilash zarurati bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. 1. Avvalo bu kelajagi buyuk davlatni barpo etish bilan bog'liq. Bunda ana shu yaratilajak yangi jamiyat haqida, bozor munosabatlariga bosqich-mbosqich o'tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, milliy uyg'onish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi to'g'risidagi g'oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish zarur. 2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e'tibori bilan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida iqtisodiy mustaqillikka erishish orqali siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o'sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, bahamjihatlikka xizmat qiluvchi g'oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg'ulari, orzuintilishlariga mosligi bilan belgilanadi. 3. Albatta, falsafadagi yangilanish millat va Vatani manfaatlarini, istiqbol rejalarini, milliy qadriyatlarimiz ruhiga mos holda kechadi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar to'g'risida halqimizda to'g'ri tasavvur va

tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko'rsatadi. 4. Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifa poklanish jarayoni odamlar ruhiyati va tafakkurida amaliy tus olishi uchun O'zbekiston Konstitutsiyasida mujassam etilgan maqsad va g'oyalarni amalga oshirish yo'lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g'oyalarda odamlar manfaatlarini aks ettirgani bois ularni ma'naviy hayot tarzining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda O'zbekistonda qabul qilinayotgan qonun va boshqa hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g'oya va xulosalar, takliflarni keng xalq ommasi ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta'kidlash joiz. Chunki huquqiy jamiyat va ma'rifatli, barkamol inson tushunchalari o'zaro bog'liqdir. Madaniy bozorni ham, ma'naviy sog'lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi[7.1]. Ularni voyaga yetkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish to'g'risida fikr yuritish qiyin. 5. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, uning fuqarolari totuvligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning qadriga yetish, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi ogohlikni kuchaytirishda falsafa va umuman, ijtimoiy fanlarning ahamiyati beqiyos. Shu bois o'z xalqi tarixini, o'z milliy madaniyatini, urf-odat va an'analarini yaxshi biladigan, milliy g'ururi yuksak avlodni tarbiyalash falsafaning muhim vazifasidir. Bu esa jamiyat a'zolarida fikr erkinligini tarbiyalashni taqozo qiladi. 6. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, mohiyat e'tiboriga ko'ra, insondan, uning ijtimoiy xususiyatlari takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas[8]. U nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun ham zarur shart-sharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma'noda, u ham, jamiyatdagi boshqa o'zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning kamoli va hayot farovonligini ta'minlaydigan islohotdir. Mamlakatimizda bu borada juda keng ko'lami ishlar boshlab yuborildi.

Xulosa. Bugun ijtimoiy fanlar rivojini zamon talablari darajasiga yetkazish borasida davlat va jamoat tashkilotlari, olim va ziyolilar oldida g'oyatda mas'uliyatli vazifalar turibdi. Birgina «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishning o'zi bir necha yillarga mo'ljallangan keng ko'lami faoliyat yo'nalishlarini nazarda tutadi. Bugungi kunda siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy sohalaridagi taraqqiyot vazifalari o'zaro uyg'unlashib bormoqda, ta'sir doirasi ancha kengaymoqda. Ayniqsa, mafkura borasidagi nazariy faoliyat, targ'ibot va tashviqotni har tomonlama kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zaruratga aylanib bormoqda. Falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun muayan imkoniyatlarga ega. Ular quyidagilarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o'rnatilgan; ikkinchidan, aholining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy haq-huquqlari qonuniy asosda kafolatlangan; uchinchidan, jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda; to'rtinchidan, mamlakat aholisining ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bularning barchasi falsafiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini samarali hal qilishga asos bo'lmoqda. Galdagi vazifalar esa, ana shu imkoniyatlarni amaliy ishga aylantirishda har birimiz o'z mas'ulligimizni qay darajada sezishimiz va qanday faoliyat yuritishimizga bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Л. Ф. Ильичёв, П. Н. Федосеев, С. М. Ковалёв, В. Г. Панов. *Философский энциклопедический словарь*. - М.: Советская энциклопедия, 1983. - С. 375-376. С. 840.
2. Некрасова Н. А., Некрасов С. И. *Мировоззрение как объект философской рефлексии*. Wayback Machine // *Современные наукоёмкие технологии*. — 2005. — №6. — С. 20—23.

3. В.И.Вернадский. О научном мировоззрении. –М. 1902.
4. Белоконев С.Ю.,Гавров С.Н. Идеологемы постмодерна vs национально ориентированное мировоззрение: к пониманию политической картины мира российской молодежи.
5. Назаров.К «Кадриятлар фалсафаси». Т.2004 йил 83 -бет.
6. Каган М.С. Философская теория ценности - СП(б); 2005. –С. 100.
7. Илюшенко В.И. Отец Александр Мень: жизнь, смерть, бессмертие / В.И. Илюшенко. - Москва: Эксмо: Книгоноша, 2013. – С. 670.
8. Калугина С.А. Жизнь-смерть-бессмертие в духовной традиции русской культуры / с.А. Калугина. – М.: Пашков дом, 2010. - С. 73-77.
9. Соболев, А.А. Тайны смерти и бессмертия: может ли человек жить вечно? / А.А. Соболев. - Москва: Эксмо, 2011. – С. 189.



Diana XOLMURATOVA
Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet magistranti

LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF STABLE SIMILES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

This article talks about the linguistic and cultural characteristics of stable similes in the Uzbek and English languages, and the interaction between language and culture. The article also gives examples of similes related to dogs in the Uzbek people.

Key words: ethnographers, intellectual activity, structures, subjective and objective, personal culture.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УСТОЙЧИВЫХ СРАВНЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье говорится о лингвокультурных особенностях устойчивых сравнений в узбекском и английском языках, а также о взаимодействии языка и культуры. В статье также приведены примеры сравнений, связанных с собаками, у узбекского народа.

Ключевые слова: этнографы, интеллектуальная деятельность, структуры, субъективная и объективная, культура личности.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TURG'UN O'XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi turg'un o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari, til va madaniyat orasidagi o'zaro munosabat haqida so'z yuritiladi. Maqolada shuningdek, o'zbek xalqida it bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar misol tariqasida keltiriladi

Kalit so'zlar: etnograflar, intellektual faoliyat, strukturalar, sub'ektiv va ob'ektiv, shaxs madaniyati.

Kirish. Til jamiyatda kishilar o'rtasidagi munosabatni ta'minlaydi, ma'lum voqelik haqida axborotlarni yetkazadi. Shuningdek, kishi ruhiga ta'sir etib, estetik zavq beradi va madaniy, milliy, iqtisodiy taraqqiyot, hayotning barcha jabhalari bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Har qanday fan tarixni, jumladan, o'zbek tilshunosligi tarixini tadqiq qilish va o'rganish ham ma'naviyatimizning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi tadqiqotchilarni uzoq vaqtlardan beri qiziqtirib kelmoqda va ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar ham turli-tuman, ba'zan esa tamomanbir-biriga ziddir. Ulardan ayrimlari hatto turli xalqlarning borliqni idrok etishi batamom mos kelmasligini ta'kidlashga harakat qiladilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. «Barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur va tasvir qilishadi» (Gachev 1967: 78; Qarang: Gachev1995). G.D.Gachevning bundan qariyb o'ttiz yil oldin aytgan bu fikri tilshunoslar va boshqa fan sohalari vakillari uchun yangilik emas edi. O'z paytida I.Kant hech qanday tajriba o'tkazmasdan turib ham(faktlar to'plash shart emas) ong kategoriyalarini ajratish mumkinligi haqida gapirgan edi. Shundan buyon faylasuflar, psixologlar, etnograflar, kognitologlar (A.Ya.Gurevich, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, V.F.Petrenko va boshqalar) borliqni idrok etish turli bilim strukturalari orqali bajarilishi va ushbu strukturalarda oldingi tajribada to'plangan bilim- axborot tartiblashgan, umumlashgan holda aks topishini qayd etib kelishmoqda. Ammo u holda oldingi tajriba qay shaklda qoliplashadi yoki tizimlashadi degan savol tug'ilishi tabiiydir.

Shubhasiz, tajriba dastlabki o'rinda insonning bevosita ko'z o'ngida, o'zi yashab turgan muhitda yuz berayotgan voqealar, uning atrofidagi predmetlarni bevosita kuzatuvini

ulardan foydalanishi jarayonida to'planadi. Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi ham tabiiydir. So'zsiz, insonning inson sifatida shakllanishining o'zi ham madaniyat bilan bog'liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining barchasi ham milliy madaniyat ko'zgusida aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari«nazorati»da bo'ladi.

Har qanday madaniyat atrof-muhit ta'sirida taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o'rinda voqelikni moddiy va ma'naviy o'zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi. Bunday farqning asosida o'zlashtirilayotgan obyekt yoki bu faoliyat mahsuli emas, balki ushbu moddiy-ma'naviy o'zlashtirish jarayoni qanday yoki qay uslubda kechayotganligi yotadi. Shu sababli madaniyatni moddiy va ma'naviy, sub'ektiv va ob'ektiv, ichki va tashqi, shaxs madaniyati va milliy madaniyat kabi turlarga ajratishadi.

Madaniyat hech qachon qotib qolgan hodisa sifatida talqin etilmasligi lozim, u taraqqiy qilib boradi, bir holatdan ikkinchisiga o'tadi, boshqa madaniyatlar bilan qorishib boradi. Yana shuni unutmash lozimki, hech bir inson oldindan madaniyatli bo'lib tug'ilmaydi, bunga u ijtimoiy faoliyat natijasida, muloqot(keng ma'noda) jarayonida erishadi. Axir bekorga antropologlar (K.Levi-Stross, K.Girs va boshqalar) madaniyatni insonlar o'zaro munosabatlarining mahsuli sifatida ta'riflashmasa kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyat shakllanishida insonlar o'rtasidagi muloqotdan tashqari, voqelikdagi ob'ektlar bilan bo'lgan muloqotning roli ham muhimdir. Ma'lumki, inson va voqelik munosabatida lison o'ziga xos bog'lovchi, vositachilik rolini o'ynaydi. Lison o'zida

voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o'zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonida dunyoni o'ziga xos «ko'rish», uni idrok etish natijasida o'z aksini topadi. Lison va madaniyat munosabati masalasi murakkab, juda qiyin hamda ko'p tomonlama muhokamani talab qiladigan masaladir.

Ular tadqiqqiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo'ladi, aks holda bu ikki turdagi semantik tizimni yagona bir qolipga tushirish xavfi ham yo'q emas. Shuning bilan birgalikda bu ikki tizimning o'zaro o'xshash, umumiylik tomonlari ham mavjudligini unutmaslik lozim. V.N.Teliya bunday umumiylikni quyidagilarda ko'radi:

1) madaniyat, xuddi lison kabi, inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir;

2) til va madaniyat o'zaro munosabatda, muloqotda bo'ladi;

3) til va madaniyatning sub'ekti– bu doimo individ yoki ijtimoiy guruh– jamoa shaxs yoki jamiyat;

4) me'yoriylik(norma) til va madaniyat uchun umumiy xususiyatidir;

5) tarixiylik– til va madaniyatning muhim xususiyatidir;

6) til va madaniyatga «dinamika- statika» qarama-qarshiligi bir xilda xosdir(Teliya1996: 225-226) [1].

”Olamning lisoniy manzarasi”ni har millat turlicha idrok etadi chunki ularning ongi, tafakkur tarzi, yashash tarzi, hattoki, ko'rish tarzi, iqlimi va atrof muhiti turlicha . Tadqiqotchilar tomonidan insonlarning yashayotgan iqlimiga qarab miya faoliyati ham turlicha bo'lishi tasdiqlangan. Shuning uchun ham insonlarning borliqdagi predmetlarning anglanishi va idrok etishi o'sha predmetning turli tomoni yoki xususiyati bilan bog'liq. Albatta, bu idrok tarzi odamlarning kundalik va yillik tajibalari asosida yuzaga keladi. Maslan, o'zbek xalqida it bilan bog'liq quyidagi idrok tarzining mahsuli bo'lgan o'xshatishlar mavjud: *itday vafodor*,

qo'ygan, mushukchday nimjon. O'zbek tilida esa: *mushukday sapchimoq, mushukday sharpasiz yurmoq, itday sang'imoq, itday xor bo'lmoq* va boshqalar.

Ingliz millatining tafakkur tarzida **itning** quyidagi xususiyatlari e'tiborga olingan:

Itday vafodor, itday kasal, itning orqa oyog'iday egri, tozi itning tishiday toza va boshqalar. Yoki **mushuk** etaloni ostida quyidagi ma'nolar e'tiborga olingan.

Ingliz millatida: *mushukday asabiy, sataroshning mushugiday o'ziga bino mushukday suykalmuq, mushukday hurpaymoq, suvga tushgan mushukday, o'g'ri mushukday*, va hokazo.

Rus tilshunosi V.V. Malkova rus tilidagi turg'un o'xshatishlarni tahlil qilish asosida eng ko'p qo'llaniladigan

sxema: inson tavsifi + o'xshatish ko'rsatkichi+ot etaloni ularda shavqat – shavqatsiz, jasur-qo'rqqoq, mehnatsevar-dangasa kabi belgilarning oppozitsion juftliklari ko'proq aks etishini ta'kidlaydi [2].

Turg'un o'xshatishlarning asosida xilma-xil oppozitiv belgilar bo'lishi mumkin. O'zbek tilida quyidagi misollar shuni ko'rsatadi

Semiz – ozg'in (arvochday ozg'in, chillakday ozg'in - cho'chqaday semiz, so'qimday semiz, gumbazday semiz)

Go'zal, chiroyli - xunuk, beo'xshov (malikaday go'zal, oyday chiroyli, suqsurday chiroyli, - kaltakesakday xunuk, ilonday sovuq); aqli - aqlsiz (Allomaday aqli-eshakday aqlsiz); kichik(kina)-katta (chumchuqday kichkina, chigitday juda kichkina, chivinday kichkina – tog'day katta); qattiq – yumshoq (toshday qattiq, halimday yumshoq); yuvosh, beozor – o'jar (qo'yday yuvosh, musichaday beozor - eshakday o'jar); oqarmoq – qizarmoq (dokaday, qorday oqarmoq-insonning rangiga nisbatan, bo'zday oqarmoq – xo'rozning tojiday qizarmoq qizg'aldoqday qizarmoq qilmaday, anorday qizarmoq, mosh yutgan xo'rozday qizarmoq) mehribon - shafqatsiz (onaday mehribon – och bo'riday shavqatsiz) va boshqalar.

Tahlil va natijalar. Turli tillardagi, xususan, noqarindosh tillardagi turg'un o'xshatishlar qiyoslanganda bu tillarning egalari bo'lgan xalqning milliy mentalitetiga xos jihatlari aniq ko'rinadi. Masalan: o'zbek tilidagi *qo'yday yuvosh, bedanaday sayramoq, musichaday beozor*, kabi turg'un o'xshatishlar o'zbek xalqi ong tarzi, tafakkur uslubini aks ettirsa, *as warm as a toast* (tosterday issiq), *as poor as church mouse* (cherkov sichqoniday kambag'al), *as fit as a fiddle* (skripkaday sozlamog) *as cold as cucumber* (bodringday sovuqqon), *as drunk as a lord* (lodday mast), *as dead as a dodo* (dodo (hozirda qirilib, yo'q bo'lib ketgan qush turi) day yo'qolgan/qirilgan) kabi ingliz tilidagi turg'un o'xshatishlar ingliz millatiga mansub obrazli tafakkur tarzini ifodalab beradi. Ko'rinib turganidek, har ikki millat o'rtasidagi tafakkur tarzi, idrok qilish usuli anchayin o'ziga xoslik va farqlarga ega.

O'zbek va ingliz tilidagi o'xshatishlarni tahlil qilish asosida ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1.Ingliz va o'zbek tillarida aynan muqobili yoki ma'nodoshi mavjud bo'lgan turg'un o'xshatishlar. Bunday turdagi turg'un o'xshatishlar har ikkala til vakillari uchun aynan bir ma'noni ifodalaydi faqat etalonining boshqa- boshqa predmetligiga ko'ra ikki farqlanadi:

a)O'xshatishlarning etaloni ingliz tilida bir narsa o'zbek tilida esa boshqa narsa. Masalan:

O'zbek tilida	Ingliz tilida
Tulkiday ayyor	As cunning as a fox
Bo'riday och	As hungry as a wolf
Qorday oppoq	As white as snow
Suvday serob	As weal as water
Kunday ravshan	As clear as day
Cho'pday ozg'in	As thin as a stick

b) O'xshatishlar ekvivalenti bilan turg'unlashgan bo'ladi. Ushbu guruhga mansub turg'un o'xshatishlarning ma'nolari har ikkala tilda ham mavjud, lekin ularning etalonlarida o'zgarish va farqlar mavjud.

O'zbek tilida	Ingliz tilida
G'ozday mag'rur	As proud as a peacock (tovusday mag'rur)
Tog'larday qadimiy	as old as the hills (qoyalarday qadimiy)
Toshday qattiq	as hard as a nails (mixday qattiq)
xumodayday baxtli	As happy as a lark- to'rg'ayday baxtli

2. Ingliz tilidagi turg'un, o'zbek tilida erkin xarakterdagi o'xshatishlar yoki o'xshatish tarzida mavjud

bo'lmagan o'xshatishlar. Bunday o'xshatishlari o'sha millatning obrazli tasavvuri va mental o'ziga xosligidan kelib chiqib, shu tilgagina xos bo'ladi. Masalan:

As pretty as picture – suratday chiroyli

As poor as a church mouse- cherkov sichqoniday kambag'al

As cold as marble – marmarday sovuq

As drunk as a lord – lordday mast

As sober as a judge – hakamday hushyor

As hard as nails – tirnoqlarday qattiq

As cold as cucumber – bodiringday sovuq

As busy as a beaver – qunduzday band

As awkward as a cow on roller skates - sigir konkida ucholmaganday beso'naqay As clean as hound's tooth- tozi itning tishiday toza

As easy as duck soup – o'rdak sho'rvaday oson

As conceited as a barber's cat – sartaroshning mushugiday kekkaygan

Yuqoridagi suratday, cherkov sichqoniday, marmarday, lordday, hakamday, tirnoqlarday, bodringday, qunduzday, sigir konkida ucholmaganiday, tozi itning tishiday, o'rdak sho'rvaday, sartaroshning mushugiday kabi etalonlar bilan turg'unlashgan o'xshatishlar faqat ingliz millati tafakkur tarzida obrazlashib, xalq tilidan lekuvikasidan o'rin olgan. O'zbek tilidagi obrazli tafakkur mahsullari qatorida bunday o'xshatishlar uchramaydi.

3.O'zbek tilida turg'un, ingliz tilida erkin xarakterdagi o'xshatishlar yoki ingliz tilida o'xshatish tarzida mavjud bo'lmagan o'xshatishlar. Masalan:

mumday sarg'aymoq,

zulukday qop-qora,

qoshiqday kichina,

bir tomchi suvday o'xshash,

surpaday keng.

Ko'rinib turganidek, har ikkala til egallari tomonidan qo'llaniladigan turg'un o'xshatishlar o'sha til egallarining milliy o'zligini ko'rsatadi va bir millat uchun e'tiborga olingan jihat ikkinchi millat uchun begona yoki boshqa jihati e'tiborga olingan tarzda, yoki har ikkala til uchun ham umumiy va xususiy ko'rinishda qo'llanishi mumkin. Bundan tashqari turg'un o'xshatishlar etalonidagi so'zlarning ishtirokiga ko'ra ham 2 guruhga ajratishimiz mumkin:

1.Etaloni bir so'zdan tashkil topgan turg'un o'xshatishlar: bunday o'xshatishlar etaloning semasi keng, asosi tor: qunduzday band, ohuday chaqqon.

2. Etaloni ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan turg'un o'xshatishlar: bunday o'xshatishlarning etaloni shaklan katta bo'lsa ham, mazmuniy jihatdan chegaralanish mavjud, chunki etalonga olinayotgan narsa, buyum, shaxsning ma'lum qismigina o'xshatiladi: otning kallasiday katta, ignaning uchiday kichkina, *as crooked as a dog's hind leg* – itning orqa oyog'iday egri, *as scarce as hen's teeth* - tovuqning tishiday noyob.

Etaloni ikki va undan ortiq so'zlardan iborat turg'un o'xshatishlarning yana bir turi borki, unda etalon sifatida olinayotgan narsa, buyum shaxs o'zining aniqlovchisi (aniqlanmishi) bilan birga keladi: *as conceited as a barber's cat*- sartaroshning mushugiday kekkaygan, *as mad as a wet hen* – ho'l tovuqday jahli chiqqan, *as cocky as the king of spades* – (Karta o'yini haqida)qirolning qarg'asiday mag'rur (karol), *as nutty as a fruitcake* – mevali torday qiziqarli .

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tildagi millat ongida obrazlashgan birliklar o'sha millatning milliy idrokini ko'rsatib, nutq jozibadorlik va estetik zavq bera oladigan, tillarning leksik -frazologik xazinasini boyitadigan bebaho manbadir.

ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, Sangzor 2006,62-63-bet.
2. Малкова В.В. Устойчивые сравнения приписания человека. Культура речи. 2014.№5. 58 - бет
3. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English / A.S.Hornby; ed. by S.Wehmeier. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 1539 p.
4. Longman Idioms Dictionary: over 6000 Idioms / ed. K.Stern.– Addison Wesley Longman Ltd, 2000. – 398 p.
5. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi.



Baxodir XUSANOV,
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n
E-mail: xbaxodir970@gmail.com

Samarqand davlat chet tillar instituti professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

SOCIOSPIRITUAL NECESSITY OF CLUSTERING AESTHETIC EDUCATION

Annotation

The article analyzes the importance of improving the process of aesthetic education based on clustering, harmonizing the social content of the cluster with the content of aesthetic education, and the effectiveness of the cluster as an effective mechanism of ensuring the coherence of modern education.

Key words: aesthetics, aesthetic education, cluster, clustering, aesthetic knowledge, quality education.

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ КЛАСТЕРИЗАЦИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется важность совершенствования процесса эстетического воспитания на основе кластеризации, гармонизации социального содержания кластера с содержанием эстетического воспитания, а также эффективность кластера как действенного механизма обеспечения связности современного образования.

Ключевые слова: эстетика, эстетическое образование, кластер, кластеризация, эстетическое знание, качественное образование.

ESTETIK TARBİYANI KLASTERLASHNING IJTIMOY-MA'NAVİY ZARURIYATI

Annotatsiya

Maqolada klasterlash asosida estetik tarbiya jarayonini takomillashtirish, klasterning ijtimoiy mazmunini estetik tarbiya mazmuni bilan uyg'unlashtirish hamda klaster zamonaviy tarbiya uzviyligini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmi sifatidagi mohiyati ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: estetika, estetik tarbiya, klaster, klasterlash, estetik bilim, sifatli ta'lim.

Kirish. Dunyoning estetik manzarasi va jamiyat estetik qiyofasiga integratsiyalashuvi, axborotlashuv va raqamli texnologiyalarning sezilarli ta'siri inson taraqqiyoti konsepsiyasiga zamonaviy yondoshuvni talab etadi. Bu jarayon o'z navbatida, estetik bilimlarni takomillashtirish, estetik tarbiyani rivojlantiruvchi metodologiyani yaratish hamda estetik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiluvchi omil, vosita va usullarni falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim va tarbiyaning sifati bugungi va ertangi hayotimiz darajasini belgilashi kerakligini uqitirib, shunday degan edi: "Ta'lim-tarbiya kabi muhim strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mumlaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg'or tizimni yaratmasak, oldimizda ko'ndalang turgan bironta muammoni yecholmaymiz"[1]. Darhaqiqat, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida ta'limning shaklan va mazmunan qiyofasi ko'p jihatdan tarbiyani maqsadli va manzilli yo'naltirishga bog'liq. Bu jarayonning samarali natijasi estetik tarbiya klasterlarining ijtimoiylashuvini taqazo etadi. Estetik tarbiyaning klaster tizimi voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini belgilaydi.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega: yaxshi tarbiya odamni fazilatli insonga aylantiradi. Qolaversa, tarbiya ma'naviy qadriyatlar bilan birga hozirgi zamon talablari ehtiyojlarini ham nazarda tutadi. Muayyan maqsadga qaratilgan tarbiya jarayoni nazariy jihatdan ma'lum bir mazmun va mohiyatni hisobga olgan holda qat'iy tartib asosida rejalashtiriladi. Biroq, har qanday nazariya o'zini amaliyotda oqlasa, hayotga singsa, inson kamolotiga ta'sir ko'rsatsagina

qadriyatga aylanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida estetika klasterlari tarbiyani rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, estetik tarbiya klasteri asosida ta'limning tarbiyaviy mazmunini oshirish, talabalarni estetik obyektga qiziqishini uyg'otish hamda badiiy-estetik dunyoqarashini boyitishda ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Estetik tarbiya klasterlarining ijtimoiy-falsafiy muammolari Yevropaning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari - University of Helsinki (Finlyandiya), Lancaster University (Buyuk Britaniya), Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya)da samarali ishlar amalga oshirilgan. G'.I.Muxamedov pedagogik ta'lim innovasion klasterining aniq maqsad va vazifalarini belgilash tamoyillarini taklif qiladi. Bular: tabiiy alofadorlik; **uzviylik**; izchillik; vorisilik; zamonaviylik; yo'naltirilganlik; maqsadning mushtarakligi; manfaatlarining xususiyligi; o'zaro nazoratdan iborat. Mazkur tamoyillardan kelib chiqqan holda pedagogik ta'lim klasterini yaratishda bir nechta muhim yo'nalishlar belgilangan [2]. L.V.Litkina klaster vositasida o'smirlar estetik tarbiyasiga doir tadqiqotlarida estetik obyektlarga tashrif, estetik ishlanmalar bilan tanishish, estetik munosabatni amalga oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan [3]. U estetik tarbiyani isloh qilish, madaniy hayotning o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan estetik bo'shliqlarni rasional va irrational, nazariy va amaliy, aksiologik va praktsiologik yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirishni taklif qiladi. Ammo, bu jarayonni estetikaning "qiziqarlilik" mezoniy tushunchasidan tashqarida amalga oshirish qiyin kechadi. Bu masalada Abdulla Sher qiziqarlilikni badiiy asarning idrok etuvchida estetik zavq, kuchli hayajon uyg'otadigan o'ziga xos xususiyat, usiz hech qanaqa san'at

turi va estetik munosabat faol mavjud bo'lolmaydi, ya'ni idrok etuvchining diqqatini tortolmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Tarbiya klasterining asosiy talabi estetik munosabat jarayonlariga qiziqtirishdan iborat [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Jahonda globallashtirish sur'atlarining ortishi, ta'lim va tarbiya makonida xalqaro raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi hamda fanlar integratsiyalashib borayotgan sharoitda yangicha falsafiy-estetik tafakkurni rivojlantirish tendensiyalarini o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, hozirda estetik tarbiya inson, jamiyat va davlatga har doimgidan ham ko'ra ko'proq kerak ekanligi ayon bo'lmoqda. Chunki, fan va texnika taraqqiyoti estetik dunyoqarashni boyitishga bo'lgan ehtiyojning turkumlari, shakl va vositalar ko'lamini kengayishiga olib keladi. Bu jarayon esa jahonda umuminsoniy estetik qadriyatlarini ro'yobga chiqarish va uni falsafiy-estetik kontekstda tadqiq etishni hamda yangi standartdagi badiiy-ijodiy yondashuvning dolzarbligini keltirib chiqaradi.

"Estetik tarbiya" deganda, insonning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishning maqsadli jarayoni nazarda tutiladi. Voqelikka estetik munosabat esa avvalo, Estetika fanining, qolaversa, estetika sohasidagi tadqiqotlarning obyekt va subyekt, estetika qonuniyatining bosh masalasi hisoblanadi. Shu ma'noda, "estetik tarbiya"ning asosiy o'zagi "munosabat" tushunchasida o'z aksini topadi. Bu munosabat, boshqa munosabat turlari (ko'rinishlari)dan farqli o'laroq, odamning shakllanishi, inson sifatida rivojlanishi va umrining yakuniga qadar bo'lgan jarayonlarda ishtirok etadi.

Estetik tarbiya uzoq yillar estetik his va idrok etish mahoratini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayonlar bilan shug'ullanib keldi. Bu jarayonlar gohida hayotiy (real) voqeliklarga mos kelmas edi. Endilikda, estetik tarbiya o'z zimmasiga odamlarning atrofidagi hodisalarga, o'zgarishlarga estetik munosabatda bo'lish ko'nikmasini va qobiliyatini shakllantirish mas'uliyatini olishi zarur. Sababi, munosabatlar asosini manfaatlar tashkil etayotgan, shuningdek, sifatli ta'lim va tarbiya taraqqiyotning mezoniga aylangan davrda estetik talablar qiymatga va qadriyatga ko'proq aylanadi.

Fan, ta'lim, bilim va tarbiyani o'rganish, o'zlashtirish va hayotga joriy etish orqali samaradorlikka erishish har doim davlat taraqqiyotining muhim sharti bo'lib kelgan. Xalqimizda farzandni voyaga yetkazish va tarbiyalashda o'ziga xos uslub va tajribaga ega. Bu tajriba asrlar davomida sinovdan o'tib, milliy qadriyatga aylanib ketgan. Bu qadriyatlar mehnat-sevarlik, g'amxo'rlik, mehribonlik, muruvvat, halollik kabi fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Estetik tarbiya klasteridan ko'zlangan asosiy maqsad – ta'limning estetik mazmunini boyitish, qiziqarliligini oshirish hamda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni rivojlantirish asosida shaxs (malakali mutaxassis)ni tayyorlashdan iborat.

Ma'lumki, yoshidan, jinsidan, millatidan va irqiy kelib chiqishidan qat'iy nazar inson zoti doimiy ravishda estetik voqelik bilan to'qnash keladi, estetik borliqning ichida yashaydi, munosabatga kirishadi. Sababi insonning ma'naviy hayoti, kundalik turmush tarzi, san'at va badiiy adabiyot bilan muloqoti va boshqa o'zaro insoniy munosabatlarning asosida go'zallik va hunuklik, fojevaviylik va kulgulilik muhim o'rin egallaydi.

O'qituvchi o'quvchi (talaba)ni tarbiya orqali pedagogik faoliyatga tayyorlashi estetik tarbiya klasterining zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki, talabani pedagogik faoliyatga tayyor bo'lishi uchun talaba shu muhitning havosidan nafas olishi, jamoa bilan birga kurashishi, o'qituvchi bilan birga ishlashi, shuningdek, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan ziddiyatlar qarshisida dovdirab qolmasligi va bunday muammoni o'zi mustaqil hal etishi

uchun ta'lim amaliyoti tarbiya nazariyasi bilan mustahkamlanishi zarur. Bu borada estetik tarbiya klasterida quyidagi kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi: a) talabalarni estetik tarbiya jarayoniga tayyorlash; b) talabalarining estetik ahamiyatga ega tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; v) talabalarining iste'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish; g) ilmiy-ijodiy mehnati samarasidan manfaatdorlik ko'rish imkoniyatlarini kengaytirish; d) turmush estetikasini qaror toptirish orqali g'ayriestetik odatlardan himoyalanih ko'nikmalarini rivojlantirish.

Namunaviylik har doim "ustoz-shogird" an'anasi uchun muhim axloqiy prinsip bo'lib kelgan va u "Talaba – talabaga ustoz, talaba – talabaga shogird" tamoyili uchun ham tarbiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun o'qituvchi kabi talaba ham maqsadga erishishni istashi, xohlashi, qiziqishi, real va amaliy natijaga erishishi mumkinligini anglashi zarur. Agar talaba va o'qituvchi xohlab ishlasa, o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilsa, birgalikdagi natijasini ko'rsa tarbiya klasteri samara beradi. Aks holda tashabbus kim tomonidan chiqsa tashkil etuvchisi, ijrochisi, ishtirokchisi va javobgari ham o'zi bo'lib qolaveradi. Natijada ishdan zerikish, bezish, ko'ngli sovlash, qiziqmaslik holati yuzaga keladi. Tarbiya jarayoniga nisbatan bu kabi eskicha yondoshish xato va noto'g'ri ekanligini ta'lim muassasasidagi ayrim madaniy-ma'rifiy tadbirlarga nisbatan o'qituvchi va talabalarining munosabatida kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Tajriba va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim muassasalarida tarbiya nazariyasi bilan tarbiya amaliyoti o'rtasidagi nomutanosiblik, tarbiya tizimining tor va cheklangan taktik mazmuni, tarbiyalash metodlari va mexanizmlarining eskirganligi, ayniqsa, ilmiy asoslangan tarbiya amaliyotining mavjud emasligi, shuningdek, ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)ning faoliyati uchun zarur bo'lgan va uni baxolovchi estetik mezonlarining ishlab chiqilmaganligi estetik tarbiya yo'nalishidagi ishlarni tashkil etish, o'tkazish va amalga oshirishda bir xillik, shaklbozlik, turg'unlik va tadbirbozlik kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Estetik tarbiyani klasterlash sifati aniq mezonlarga tayanadi. Bu o'z navbatida, go'zallik, ulug'vorlik, tubanlik, hunuklik kabi tushunchalarning falsafiy mohiyatini konkretlashtirish adi. va h.k.) kabi tadqiqot obyekt va subyektini aniqlaydi. Estetik tarbiyani klasterlashni amalga oshiradigan bir qator algoritmlar mavjud, ammo ularning barchasi turli xil natijalar berishi mumkin. Shu bois, klasterlash sifatini aniqlash uchun avvalo, estetik jarayon (yoki munosabat)ning ijtimoiy ahamiyatini o'rganish zarur. Bunda klasterlash: a) ob'yektlar majmuasini kichik to'plamlarga guruhlash; b) bir mezonli tarbiya shakllarini turkumlash; v) tarbiya ob'yektlarining raqamli va toifali xususiyatlarini tavsiflash; g) estetik tarbiya mezonlariga mos kelmaydigan ob'yektlarni aniqlash nazarda tutiladi.

Klaster vositasida ta'lim bilan tarbiyaning uzviy va uzluksiz zanjirini yaratishga erishish mumkin va u ta'lim va tarbiya amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi. Buning uchun ta'limning axloqiy mazmunini boyituvchi aniq maqsadga yo'naltirilgan manfaatli hamkorlik zarur. Bu hamkorlik talabalarining o'quv, ishlab chiqarish va malaka amaliyotini eskirgan usul hamda boqimanda kayfiyatidan holi bo'lgan "Amaliyot – talabani faol ish kuni"ga aylantirishga xizmat qiladi.

Estetik tarbiya klasterlarining ijtimoiylashuv jarayoni murakkab mexanizmga ega bo'lib, uning ruhiy va madaniy jihatlari mavjud. Jumladan, madaniy jihati insonning ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonini qamrab oladi[5]. Shu ma'noda, estetik tarbiya klasterlarining ijtimoiylashuv funksiyalari quyidagilardan iborat: 1) ijtimoiy-tarixiy jarayon subyektini shakllantiradi; 2) madaniyat va sivilizatsiya

taraqqiyotida vorisiyligni ta'minlaydi; 3) individni ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali jamiyatning estetik qonuniyatlar asosida rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Hamkorlik pedagogikasining integrativ funksiyasi tarbiya klasteri uchun mos keladi va ayniqsa, estetik bilim va dunyoqarashni boyitish, estetik ta'lim va tarbiyani mustahkamlashda progmatik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, estetik tarbiya klasteri umuman "Ustoz-shogird" an'alarini rivojlantirishda, xususan 51108100 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavr ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lgan ta'lim muassasalarida samarali natija beradi. Bundan tashqari, o'zining samarali natijasini berishi mumkin. Biroq, bu tizimda madaniy, ma'rifiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishdagi yondashuv yakkalikdan umumiylikka emas, umumiylikdan yakkalikka qarab yo'naltiriladi. Bunda o'qituvchi boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi, xolos. Qolgan barcha ishlar talaba(lar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu faoliyat "Talaba talabaga – ustoz", talaba talabaga – shogird" innovasion prinsipiga asoslanadi.

Pedagogik ta'lim klasteri tizimida mavjud muammolarni, o'z navbatida, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Klasterda ishlarning holati haqida ma'lumotlarning juda ob'ektiv bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Klaster e'rdamida hukumat, ta'limni nazorat qiluvchi davlat idoralari klaster amal qiladigan mintaqadagi ta'limni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan tajriba va tadqiqot natijalarini samarali qo'llashlari mumkin bo'ladi. Ta'limga nisbatan klaster e'ndashuvi boshqaruv organlariga tizim ichida samarali o'zaro ta'sir o'tkazish uchun muayyan vositalar bilan ta'minlash, muammolarni yaxshiroq tushunish, mintaqada rivojlanishning ilmiy asoslarini rejalashtirish imkonini beradi.

Ta'kidlash zarurki, oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy va tarbiyaviy sohadagi faoliyatiga "Pedagogik ta'limni tarbiyaviy klasteri" tizimini joriy etish vaqti keldi. Bu tizim orqali oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yuksaltirish, ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash uchun sharoit yuzaga keladi. Ayniqsa, "Pedagogik ta'limni tarbiyaviy klasteri"ning asosiy tamoyillarini tarbiyaviy sohaga joriy etishning ta'sirchan mexanizmlari yaratiladi. "Bilimdan-ilmga, ta'limdan - tarbiyaga" tamoyili asosida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlaydi [6].

Xulosa va takliflar. "Tarbiya klasteri"ni ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlashga qaratilgan yaqin istiqboldagi eng muhim tizim sifatida joriy etish mumkin. Bu ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga insoniylikning milliy an'alariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish hamda tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishda yaqin istiqboldagi eng muhim tizim bo'lib xizmat qiladi.

Estetik tarbiyani klasterlash fan – ta'lim – tarbiya integratsiyasini takomillashtirish hamda yangi innovasion

texnologiyalarni amaliyotga joriy etish uchun sharoit yaratadi. Buning natijasida tarbiyaviy ishlar manzilli va maqsadli yo'naltiriladi, tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlanadi. Tarbiya klasteri doirasida axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo shakllarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning yangi va dolzarb ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqotlar ob'ekti yuzga keladi. Bu esa qo'shimcha ta'lim va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarning shakllanishiga, yangi avlod ilmiy-uslubiy ishlanmalarning yaratilishiga hamda ilg'or g'oya va tashabbuslarni rag'batlantirish uchun sharoitni yaxshilashga olib keladi.

1.Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ma'rifiy-tarbiyaviy sohani yanada rivojlantirish bo'yicha estetik tarbiya Konsepsiyasini ishlab chiqish kerak. Bu o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2909-son Qarori hamda 2018 yil 27 iyundagi «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida» Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

2.Estetika klasterlarini pedagogik ta'limning estetik mazmunidan kelib chiqqan holda "Ta'lim + Bilim + Tarbiya" tamoyili asosida amalga oshirish zarur. Bu ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish bo'yicha aniq va samarali natija beradi. Buning uchun avvalo, oliy ta'limning shakllan va mazmunan qiyofasi estetik ta'limning sifati va estetik tarbiyaning aniq natijadorligini baxolash mezon (indikator)larini ishlab chiqish va zamon talblariga moslashtirish maqsaldagi muvofiq.

3.O'zaro hamkorlikka asoslangan estetik tarbiya usullari va vositalarini modernizatsiya qilish lozim. Hozirda muayyan g'oya va tashabbusni bir tomonlama amalga oshirish qiyin. Tomonlarning umumiy maqsadlarga yakdillik bilan intilishi real va amaliy natijaga erishish imkoniyatini paydo qilishi bilan birga samarali natija ham beradi. Aks holda yangilik va innovatsiya sifatida ilgari surilgan tashabbus qo'llab-quvvatlanmaydi, tashabbus ijrochisi ham faqat bir tomonning o'zi bo'lib qolaveradi. Natijada estetik jarayonlardan zerikish, bezish, ko'ngli sovhil, qiziqmaslik holati yuzaga keladi. Buning uchun mahallalarda "Estetik tarbiya maskani", tuman (shahar)larda "Estetik tarbiya klasterlari Monomarkazi" faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

4.Respublikamizda 2020 yildan umumiy o'rta ta'lim maktablarning 1-11 sinf o'quvchilari uchun joriy etilgan "Tarbiya" fani darsligining mazmunini estetik tarbiya masalalari hamda o'quvchilar estetik dunyoqarashini boyitishga oid mavzular bilan takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu borada "Tarbiya" fanining dasturiga "Go'zallikni tushunish, anglash va yaratish", "Hunuklikni bilish va undan saqlanish", "Ulug'vorlik va yaratuvchanlik qanday paydo bo'ladi?", "Estetik tasavvurni rivojlantirish yo'llari" kabi mavzularni kiritish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Shavkat. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. -149 b.
2. Muxamedov G.I. Klaster ta'limga nisbatan innovasion yondashuv sifatida. Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta'lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Chirchiq, 2019, 21-24 may. -8 b.
3. Лыткина Л.В. Эстетическое воспитание подростков посредством обогащающего кластера. <https://urok.1sept.ru/articles/685160>.
4. Abdulla Sher. Estetika /Darslik. -Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2014. -B. 227-230.
5. Gaut V. «Art» as a Cluster Concept // Theories of Art Today / ed. by N. Carroll. Madison: University of Wisconsin Press, 2000.
6. Xusanov Baxodir. Estetik tarbiya klasterlarining falsafiy asoslari. Monografiya. -Toshkent: "ZEBO PRINT", 2024. – 168.

7. Oribboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 347-353.



Ma'rufjon SHODIEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: m.shodiev@mail.ru

Navoiy davlat pedagogika instituti professori, f.f.d N.Safarova taqrizi asosida

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Mamlakatimizning rivojlanishi va istiqboli, keng ko'lamda o'tkazilayotgan iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan huquqiy ongi va bilimi hamda huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqligi o'z-o'zidan ayon. Ushbu maqolada yoshlar huquqiy madaniyati va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy demokratik davlat, fuqaro, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, siyosat va huquq, qonun, adolat.

STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT OF YOUTH LEGAL CULTURE

Annotation

It is self-evident that the development and perspective of our country, the success of a large-scale economy, politics, State Construction, legal system and spiritual transformation of society largely depend on the level of legal consciousness and knowledge and legal culture. This article covers the legal culture of youth and the stages of its historical development.

Key words: legal democratic state, citizen, legal consciousness, legal culture, politics and law, law, justice.

ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

Само собой разумеется, что от уровня правосознания и правовой культуры, а также правовой культуры во многом зависит развитие и перспективы нашей страны, успех проводимого в широком масштабе духовного преобразования экономики, политики, государственного строительства, правовой системы и общества. В данной статье освещается правовая культура молодежи и этапы ее исторического развития.

Ключевые слова: правовое демократическое государство, гражданин, правосознание, правовая культура, политика и право, право, справедливость.

Kirish. Huquqiy demokratik davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borayotgan mustaqil O'zbekistonda fuqarolar huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini yuksaltirish g'oyat darajada muhim, dolzarb muammodir. Huquqiy ong - huquqni anglash demakdir, odamlarning ham amaldagi huquqqa, ham ularning o'zlari istalgan huquqqa munosabatini ifoda etadigan tassavvur va his-tuyg'ularning mujassamidir. U tabiatan huquq bilan mushtarak-dir va shu sababli mavjud iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ikkilamchidir.

Kishidagi huquqiy ong, huquqiy bilim va madaniyat ta'lim tarbiya, o'qish o'rganish, mehnat qilish, amaliy faoliyat, hayot tajribasi, ajdodlar merosi va namunasi asosida shakllanib, rivojlanib uzluksiz takomillashib boradi. Huquqiy bilimlar va huquqiy ongning yuzaga kelishi va rivojlanishi cheksiz jarayondir. U jamiyat taraqqiyoti asosida yuzaga keladigan obektiv talab va ehtiyojlar, mavjud imkoniyatlar, shart sharoitlar asosida shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Huquqiy ong jamiyatning, turli ijtimoiy guruhlarining obektiv ravishda kelib chiqqan ehtiyojlari va manfaatlarining bevosita ta'sirida shakllanadi, o'zgarib turadigan obektiv sharoitlar va jarayonlar ta'siri ostida doimiy rivojlanib boradi[1]. Huquqiy ongni rivojlantirishga jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, qabul qilinayotgan yangi qonunlar, yangi qonunlarning loyihalarini keng omma (xalq) orasida muhokama qilinishi, barcha o'quv yurtlarida, maktablarda huquq haqidagi bilimlarni o'rgatish-o'rganish, mazkur fanlardan imtihonlar joriy etish, radio, televideniya, vaqti matbuotlarda huquqiy bilimlarni keng targ'ib va tashviq qilish; aholining mustaqil ravishda, huquqiy

bilimlarni o'rganish maqsadida qonun hujjatlarini muntazam chop etib borish; sud, prokuratura, militsiya organlarining ish tajribasini ommalashtirib borish; adliya va huquqshunoslik fanlarini rivojlantirish; oshkoralikni ta'minlash; boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish; badiiy adabiyotda, san'atda huquqiy bilimlarni tarqatish, o'ylaymizki huquqiy ongni rivojlantirishning omillari bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlarini qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yoshlarimiz o'rtasida huquqiy madaniyat, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan ishlarni samarasini oshirishni bugungi davrni o'zi talab qilmoqda" deya bildirgan mulohazalari alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlar tushunchasi va masalasida ko'plab tadqiqotchilar o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar. Bu borada mahalliy tadqiqotchilardan G.Tulenova, M.Mirahmedova, R.Ubaydullaeva, M.Hasanova, M.Yuldasheva, B.Mirzaolimov, Y.Kadirova, J.S.Umarov xorijiy olimlardan esa I.Kon, V.T.Lisovskiy, S.Ikonnikova, V.Pavlovskiy, Y.Vishnevskiy, V.Shapko, A.Vishnyak, A.Roslavskiy, Maks Rubner, D.Bouglarning mulohazalari alohida ahamiyatga ega. Yoshlar muammolarini ijtimoiy-

falsafiy jihatdan tahlil qilgan G.Tulenova yoshlarga "Hamisha ilg'or g'oyalari tarqatuvchisi", yoshlar – o'sish va ulg'ayishni boshidan kechirayotgan alohida ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, uning holati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan belgilanadi, - deya ta'rif bergan. Yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish, ularning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga munosabati oshirish masalalarini pedagogik jihatdan R.Mamatqulova tadqiq etgan. Z.Kasimova tadqiqot ishida talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishga urg'u beriladi. H.Hasanov esa, yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonlari, yoshlarning huquqiy ongi va tafakkuri tushunchalari izohlanib, mustaqillik yillarida yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanish bosqichlari va unga ta'sir qiluvchi omillar sotsiologik tahlil asosida o'rganilgan. Y.Kadirova yoshlar masalasida sub'ektili-axloqiy yondashuv asosida yoshlarning huquqiy immunitetini rivojlantirish, huquqning asosiy tamoyillari, normalari haqidagi bilimlarni rivojlantirish texnologiyalari jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida yoshlarni ijtimoiy hayotga psixologik tayyorlash, yoshlarda fuqarolik immunitetini, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish hamda oilaviy tarbiya tamoyillarini takomillashtirishda pedagogik ta'sirning effektini oshirish bo'yicha, J.S.Umarov Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talaba-yoshlarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish yuksak ma'naviy ahloqiy ruhda tarbiyalash ularda ma'naviy jasorat tuyg'ularini rivojlantirish ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omillariga e'tibor qaratadi[2].

Tahlil va natijalar. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat ham moddiy ma'naviy, ahloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib hamda rivojlanib boradi. Huquqiy madaniyat fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi meyoridir. Huquqiy ong, bilim va tasavvurlar insonda tasodifiy ravishda paydo bo'lmaydi. Uni insonning tug'ma xususiyati deyish ham mumkin emas. Inson onadan dono-yu donishmand bo'lib ham tug'ilmaydi. Inson jamiyatda, davlatda yashar ekan, uning huquqiy ongini shakllanishi mavjud huquqiy mezonlar bilan bog'lanmog'i lozim. Huquqiy madaniyatsiz jamiyat kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarning qalbi va vujudiga go'daklik paytidan boshlab odob ahloq, huquqiy qonun qoidalar haqidagi ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishga jamiyatning asosi bo'lgan oilaning roli va ahamiyati beqiyosdir.

Qonun talablariga qat'iy rioya etish, qonunlarimizga yuksak ehtirom ko'rsatish, qonun oldida hamma prezident va oddiy fuqaro ham, erkagu ayollar ham, yoshlaru keksalar ham, tadbirkorlaru mansabdor shaxslar ham teng va ma'sul ekanini, bu masalada hech kimda alohida imtiyoz yo'qligini chuqur idrok etish, ana shu qadriyatni ongiga mukammal singdirish barcha yoshlar uchun muhim fazilat hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, bilim va tasavvurlar, huquqiy nazariyalari ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib borib, fuqarolarning ongidan o'rin olib odamlar xulq atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy va psixologik ta'sir etadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o'zlarini idora qilishga, jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Kishilar huquqiy ongi va bilimi rivojlanganlik darajasini ularning ijtimoiy huquqiy faolligiga qarab aniqlash mumkin. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy sohalarida, o'z-o'zini boshqarish organlarida faol ishtirok etishlari huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotini belgilaydigan islohotlar va modernizatsiya jarayonlari jamiyat hamda uning barcha tizimlari oldiga ulkan vazifalar qo'yimoqda. Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq". Demak, yoshlar tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor berish orqali biz kelajagimiz uchun mustahkam tamal toshini qo'ygan bo'lamiz deya ta'kidlaydi, Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan borishi, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, yoshlar tarbiyasi-muhim, bir vaqtning o'zida, dolzarb masala. Shu sabab, mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor darajasiga ko'tarilgan.[3]

Chunki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir tarixiy davr inson ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi, murakkab masalalarni ko'ndalang qo'yave-radi. Aslida bugungi globallashgan jarayonda ham o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviy olamini yuksaltirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgidek murakkab sharoitda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yet bo'lgan xurujlar, yoshlarning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani har birimizdan yanada hushyor va ogoh bo'lishni talab etmoqda.

Bugungi kunda mamlakat aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

Yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari har doim dolzarb bo'lib kelgan. Ushbu zaruratlar taqozosi bilan hukumat ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, takomillashtirishga qaratilgan bir qancha qonun va qarorlar qabul qilib kelmoqda.

Yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonunida belgilab berilgan.[4] Ushbu qonun hujjati asosida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilishi bilan birga, uni ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi organ va muassasalarning ham mas'ulligi aniq belgilab berilgan.

Mazkur qonun bugungi kunda yoshlar kundalik hayoti bilan bog'liq muammo va kamchiliklarni hal etishda birinchi darajali manba vazifasini o'tamoqda. Shuningdek, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida, "yoshlar (yosh fuqarolar) - o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar" ekanligi belgilab qo'yilgan.

Shu bois Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini ishlab chiqish taklifi xalqaro jamoatchilikka bildirildi. Prezidenti tomonidan ilgari surilgan bu taklif xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi.

Prezident bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va eskremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi. Yoshlar masalasi umum sayyoraviy ahamiyatga egaligi bois qator jahon tashkilotlari ham mazkur ijtimoiy qatlam haqida doimo qayg'uradi, ularga yordam qo'lini cho'zadi.

1945 yilning 29 oktyabrya - 10 noyabrya kunlari London shahrida Butunjahon yoshlar Konferensiyasi munosabati bilan 10 noyabr "Butunjahon yoshlar kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda. Shuningdek, 17 noyabr - "Butunjahon talabalar kuni", 24-aprel "Xalqaro yoshlar birdamligi kuni", 12 - avgust "Xalqaro yoshlar kuni" sifatida jahon miqyosida keng nishonlanib kelinmoqda.

Muhokama. Hozirgi globallashuv sharoitida fuqarolarning keng qatlami, ayniqsa yoshlarda milliylikka sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'usi, yuksak ma'naviy-ahloqiy qarashlarni tarbiyalash, ularda ma'naviy immunitetni rivojlantirishning dolzarbligi yanada oshmoqda. Chunki jahonda axborot xuruji, ommaviy madaniyat niqobi ostida ma'naviy savodxonlikka tahdidlar tobora kuchaymoqda. Shunday ekan, mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan shunday ma'naviy xurujlardan asrab-avaylash uchun ham yoshlarning fuqarolik bilimlarini oshirish davr taqozosidir.

Yoshlar huquqiy madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy-ma'naviy muxitga moslashishlarida yoshlarning ijtimoiy turmush tarzi va ularning mustaqil o'ziga xos bo'lgan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlardagi huquqiy madaniyati insonning o'z-o'zini huquqiy, axloqiy va siyosiy qobiliyatini kamolga yetkazishda insonning integrativ rivojlanishidir. Demak fuqarolikning asosiy elementlariga axloqiy va huquqiy madaniyat kiritilib, u insonlardan o'z davlatiga tegishli bo'lgan har bir ishda doim mas'uliyatli munosabatda bo'lish va boshqa insonlarga hurmat bilan qarashida ifodalanadi. Uning tarkibiy elementlari esa axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, huquqiy tarbiya kabi

tuyg'ulardan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq xolda tarkib topadi. Yoshlarda huquqiy madaniyat davlatning obektiv holatiga, jamiyatda demokratiya va insonparvarlikning rivojlanish darajasiga, har bir fuqaro nuqtai nazarining, o'z-o'zini anglashining rivojlanishiga bog'liq.

Yoshlarda huquqiy madaniyati fuqarolik va bu holatni ifoda etuvchi sifatlar mohiyatini chuqur anglay olinishi asosida shakllanadi. Yoshlar va milliy etnik, huquq masalalari ijtimoiy madaniyat fenomeni sifatida bir qancha ilmiy yo'nalishlarda dolzarb ahamiyat kasb etib, antropologiya, etnologiya, sotsiologiya, pedagogika fanilarida alohida o'rin egallaydi. Shu jihatdan olganda yoshlarni turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida fuqaro tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan hatti-harakatlar, ularning ijtimoiy g'oyaviy hususiyatlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda maktablarda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham juda katta muhim o'rin egallaydi. Sotsiologlarning ta'kidlashicha, jamiyatning rivojlanish istiqboli – yoshlarning faolligiga, tashabbuskorlikiga va huquqiy savodxonligiga bevosita bog'liq. O'z-o'zini tarbiyalash deganda shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini, ijodkorligini, butun shaxsiy salohiyatini ochib berish va boyitishdagi tashabbuskorlik faoliyati tushuniladi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki yoshlarda huquqiy madaniyatni oshirish olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning samaradorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib ularning turli sohasidagi bilimlarini, huquqiy tamoyillarni rivojlantirish yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning zarur shartlaridan biri ekanini isbotlaydi. U yoshlarni murakkab ijtimoiy vaziyatlardan oqilona yo'l topa olish uchun muhim vositalar ya'ni kerakli bo'lgan bilim bilan qurollantiradi. Holbuki mamlakatimizdagi yoshlarning huquqni bilish darajasiga qarab boshqa subektiv omillar bilan bir qatorda yoshlarning huquqqa bo'lgan qiziqishi huquqiy axbarot manbalariga murojaat qilishiga va kerakli bo'lgan bilimlariga tayanishiga undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Davlat va huquq nazariyasi. Mas'ul muharrirlar H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2000.
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.
3. Islomov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi. - T.:TDYUI, 2005.
4. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonuni.



UDK:54(075.8)

Anvar **SHOIMOV**,

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Aniq va tabiiy fanlari kafedrasida dotsenti

E-mail: shoimovanvar8626@gmail.com

Bekzod **MAMATOV**,

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Aniq va tabiiy fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: mamatovbekzod@gmail.com

Dilafro'z **SHANIYOZOVA**,

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: shaniyazovadilafro'z@gmail.com

QarMII dotsenti X.Nekboyev taqrizi asosida

TA'LIM JARAYONIDA DARSLIKLAR VA ELEKTRON RESURLARDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida darsliklar va elektron resurslardan o'quv jarayonida foydalanishkabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit sozlar: elektron axborot, ta'lim, pedagog, zamonaviy pedagog, kasbiy kompetent, pedagogik xususiyat, o'quvchi shaxsi, axborot, kommunikatsiya, umumta'lim maktablari, fanlarni o'qitishda internet tarmoqlarining ahamiyati, mahalliy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, xorijiy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕБНИКОВ И ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены такие вопросы, как использование учебников и электронных ресурсов в образовательном процессе.

Ключевые слова: электронная информация, образование, педагог, современный педагог, профессиональная компетентность, педагогические характеристики, личность учащегося, информация, общение, общеобразовательные школы, значение сетей интернет в преподавании предметов, использование локальных социальных сетей, зарубежное социальное использование сетей.

USE OF TEXTBOOKS AND ELECTRONIC RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

This article describes issues such as the use of textbooks and electronic resources in the educational process.

Key words: electronic information, education, pedagogue, modern pedagogue, professional competence, pedagogical characteristics, personality of the student, information, communication, general education schools, the importance of Internet networks in teaching subjects, use of local social networks, foreign social use of networks

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta'lim muassasalarida yaratilayotgan, shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj va talabning o'sib borishi umumiy o'rta ta'lim muassasalari (UO'TM) o'qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'nalishlarida o'ziga xos qator talablarni belgilaydi.

Jumladan, Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan[1;1] bo'lib, mamlakatimiz tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida ulkan sa'y-harakatlar olib borilmoqda[2;1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari so'nggi yillarda jamiyatni o'zgartirdi. Shu bilan birga katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetensiyalarining kasbiy rivojlanish strategik

maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolari, oliy ma'lumot olish imkoniyatlarining, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o'rta bo'g'in rahbar va xodimlarning past darajadagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag'batning kamligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro'sining tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Jamiyatda raqamli texnologiyalarning yangi to'lqini kutilmoqda, bu esa barcha sohalarni rivojlantirishda innovatsiya-larning rolini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, o'sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin.

Xususan, jamiyatda kutilayotgan raqamli texnologiyalar sharoitida umumta'lim maktablarida "Informatika va AT" fanini o'qitish o'quvchilarda kreativ axborot-kommunikatsion kompetensiyasi, innovatsion ko'nikmalarni shakllantirish, ularda maktabdan keyingi ta'lim bosqichi yoki mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'ladigan tayanch kompeten-


siyosiyasi va dunyoqarashini shakllantirishda asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi.[3; 112 b]

Shu o'rinda umumta'lim maktablarining informatika va AT fani o'quvchilari hamda o'qituvchilariga darsliklardan tashqari qo'shimcha foydalanish uchun o'qituvchi kitoblari, metodik qo'llanmalar, mediaresurslar kerak bo'ladi. Shu bilan bir qatorda ularning dunyo qarashini kengaytirish, internetdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, bu borada o'qituvchilarning muhim o'rinlari ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Informatika va AT fanini rivojlantirish uchun fanga alohida veb-sayt www.dr.rtm.uz ishga tushirilgan bo'lib, fanga qo'shimcha foydalanish uchun kontentlar joylashtirib boriladi. [4;]

Saytdan foydalanishda turli xil yo'nalishlar mavjud bo'lib bular:

- ❖ Darsliklarning elektron variantlari;
- ❖ Mavzular yuzasidan taqdimotlar;
- ❖ Video kontentlar;
- ❖ Metodikaga oid qo'llanmalarining elektron variantlari;
- ❖ Coding club;
- ❖ Softlar;
- ❖ Power Point shablonlari;
- ❖ Foydali resurslar;
- ❖ Turli xil tanlovlar;
- ❖ Test toplamlari;
- ❖ Fonetika.




Bundan tashqari, ushbu saytdan informatika va AT fanidan tashqari turli xil boshqa turdagi darsliklarning electron variantlarini ham olishingiz mumkin.

Darsliklarni va qo'shimcha metodik qo'llanmalarni mavjud bo'lib, turli tillarda ham joylangan.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilari tomonidan darslarni yuqori saviyada tashkil etish uchun mavzularga

taqdimotlar tayyorlashlari uchun turli ko'rinishdagi shablonlar berilgan bo'lib ulardan bemalol foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Fan o'qituvchilari darslarni mazmunli tashkil etishlari uchun sinflar kesimida mavzulashtirishgan dars taqdimot ishlanmalari ham ushbu saytga joylangan.



Informatika va AT fanini o'qitishning konseptual asoslari sifatida shuni qayd etish joizki, informatika fanini zamonaviy talablar asosida o'rganish:

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida hayotiy muammolarni yechish, loyihalashtirish, modellashtirish, algoritmlash va boshqarish kabi universal faoliyatlarni o'zlashtirish;

raqamli jamiyatdagi masalalarini yechish mahoratini namoyon qilish orqali samarador texnologiyalarni tanlash;

kreativ fikrlash va innovatsion faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirish orqali maqsadli axborot tizimlarini va mehnatga ta'sir o'tkazishning innovatsion uslublarini yaratish;

ta'lim jarayonida har xil kasbiy ko'nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo'ladigan bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash;

mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukamallikka erishish uchun raqamli texnologiyalar asosida o'z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish;

tez o'zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta'lim olishga tayyor va umri davomida tahsil oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Shu o'rinda mustaqil foydalanishlari uchun qo'shimcha havolalar ham mavjud:<http://www.avloniy.uz/oz>,
<http://www.uzedu.uz>, <http://www.ziyonet.uz>,

<http://www.rtm.uz>,
<http://www.bilimdon.uz>,
<http://www.yilnoma.uz>,
<http://www.pedagog.uz>,
<http://www.eduportal.uz>,
<http://www.edunet.uz> [5;6;7;8;9;10]

Informatika va AT o'quv predmeti – umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlarining tarkibiy qismi, o'quvchilarga ilm-fan asoslari to'g'risidagi bilimlarni amaliyotga joriy qilish, inson faoliyati, umumiy, raqamli va moddiy madaniyatning turlarini shakllantirishning umumiy tamoyillari, o'ziga xos ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida amaliy muammolarning innovatsion yechimlarini topish va hayotga tadqiq etish imkonini beradi[4; 2].

Tadqiqot metodologiyasi. Umumiy ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o'qituvchi va o'quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, xususan:

- Axborot yig'ishning yangi usullarini va ularni qo'llash ko'nikmasini hosil qiladi;
- Bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
- o'quvchining mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, turli qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar texnologiyasi o'quvchini yakka yoki guruh bo'lib birgalikda ishlash, mustaqil harakat qilish, muammoning yechimini mustaqil topishga va eng asosiysi axborotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatar ekan, internet bu jarayonning ajralmas qismidir. O'quvchi loyihani bajarish ushuni o'z oldiga maqsad qo'yadi va ushbu maqsadni amalga oshirishning harakat rejasini tuzadi. Shu tariqa internetdan

doimiy maqsadli foydalanish jarayoni yuzaga keladi va shunday ish jarayonida internetdan to'g'ri foydalanish madaniyati ham shakllanib boradi.

Elektron resurslarning o'qituvchi uchun qulaybo'lgan omillari nimada?

- Mustaqil ravishda tarmoqdagi axborotlar orqali o'z malakasini oshirish;
- Dars mashg'uloti uchun internet tarmog'idan materiallar qidirish;
- Yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish;
- Turli ko'rgazmali, audio va video ma'lumotlar olish;
- Dars va mavzuga doir so'nggi ilm-fan yutuqlari bilan tanishish;
- Dunyoning turli kutubxonalari va arxivlarda masofadan turib ishlash;
- O'z yutuqlari bilan o'rtoqlashish va feedback olishva b.

O'quvchilar ish davomida nafaqat elektron resurslarda mavjud axborotlardan foydalandilar, balki doimiy yangiliklardan xabardor bo'lib boradilar. Ular tarmoqdan olingan ma'lumotlarni saralaydilar, bajarilayotgan loyiha uchun mos rasmlar, ovozi, videoli lavhalar tanlaydilar, berilgan axborotlarga munosabat bildiradilar va o'zlarining ijod mahsullarini yaratadilar.

Axborot texnologiya vositalari o'quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:

- o'quvchilarga yangi o'quv materiallarini taqdim etish bosqichida;
- mavzu va ma'lumotlar ustida hamkorlikda ishlash orqali o'quv materialini o'zlashtirishda;
- o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda;
- mahalliy va xorijiy ta'lim tarmoqlaridan foydalanish ko'nikmasini va mustaqil ishlash malakasini shakllantirishda;
- o'qitishda erishilgan natijalarni nazorat qilish va baholash bosqichida foydalanilishi mumkin.

o'qituvchisi internetning ta'limiy resurslaridan manbalarni topish, ma'ruzalar, monografiyalarni matnlari, turli xil uslubiy materiallar, gazeta va jurnal maqolalari, referatlar va boshqa manbalarni topishda foydalanishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Elektron resurslar bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanib u o'qituvchi va o'quvchiga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochadi. Ammo, asosiy masala ushbu resursdan o'quvchini to'g'ri va samarali foydalanishga o'rgatishdir. Internet resurslaridan darslarda foydalanish, o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni va dars samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlar texnologiyasida loyihalarni bajarishning barcha bosqichlarida va loyihani taqdim etishda ham elektron resurslar asosiy o'rinda turadi.

Umumiy xulosalar:

- Axborot texnologiyalari bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas qismidir.
 - Axborot texnologiyalaridan foydalanish barcha fanlarda dars samaradorligini oshirishning muhim mezonini hisoblanadi.
 - Tadqiqotlar texnologiyasi bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda axborot texnologiyalarning ahamiyati kattadir.
 - o'qituvchilari tomonidan Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point, Microsoft FrontPage, Microsoft Publisher, Adobe Photoshop va boshqa kompyuter dasturlari darslarda, tadqiqotlar texnologiyasi asosida turli loyihalarni bajarishda muvaffaqiyat bilan qo'llanishi mumkin.
- Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim va axborot tarmoqlari, turli mahalliy hamda xorijiy elektron ta'lim portallaridan unumli foydalanish – ta'lim sifatini oshirishga, o'qituvchi va o'quvchilarni nazariy va amaliy bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Mirziyoyev Sh. "2022-2023-yillarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6166539>
3. Fayziyeva M.R. va b.sh. "Informatika va axborot texnologiyalari". Umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinfi uchun darslik. T: "Tasvir", 2020 y. -112 b.
4. Informatikavaaxborot texnologiyalaridan umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi (loyiha-2).
5. <http://www.eduportal.uz>–O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot-ta'lim portali;
6. <http://www.uzedu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali;
7. <http://www.multimedia.uz>– Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti;
8. <http://www.rtm.uz>–Respublika ta'lim markazi sayti;
9. <http://www.dtm.uz>–Respublika test markazi sayti;
10. <https://dr.rtm.uz> – elektron ta'lim resurslari bilan ishlash.



Vazira SHOYNAZAROVA,
O'zbek tili va adabiyot kafedrasi o'quvchisi

Falsafa fani bo'yicha falsafa doktori dotsent O.Muxammadiyeva taqrizi asosida

AGRAR SOHA TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Annotatsiya

Qishloq xo'jaligini xalqarolashtirishning zamonaviy sharoitida agrar mutaxassisliklar talabalari uchun professional ingliz tilini bilish juda muhimdir. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning ushbu toifasi ingliz tilidagi terminologiya va professional lug'atni o'zlashtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi agrar Profil talabalari tomonidan so'z boyligini samarali o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bir qator usullarni taklif qilishdir. Tegishli nashrlarni ko'rib chiqish va empirik tadqiqotlar natijalari asosida leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi asosiy qiyinchiliklar aniqlanadi: motivatsiyaning etarli emasligi, tildan foydalanish amaliyotining etishmasligi, ingliz tilini umumiy bilish uchun zaif asos. Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun mutaxassislik bo'yicha haqiqiy matnlar, interaktiv mobil ilovalar va guruh loyihasi ishlaridan foydalangan holda kompleks yondashuv taklif etiladi. Eksperimental sinov talabalarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni tizimli ravishda qo'llash sharti bilan ishlab chiqilgan usullarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, professional ingliz tili, motivatsiya, agrar sektor.

ТРУДНОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ АГРАРНОГО СЕКТОРА

Аннотация

В современных условиях интернационализации сельского хозяйства знание профессионального английского языка очень важно для студентов аграрных специальностей. Однако исследования показывают, что эта категория студентов испытывает большие трудности в овладении английской терминологией и профессиональной лексикой. Цель данной статьи - выявить факторы, препятствующие эффективному усвоению словарного запаса студентами аграрного профиля, и предложить ряд методов устранения имеющихся проблем. По результатам рецензирования соответствующих публикаций и эмпирических исследований выявляются основные трудности в развитии лексической компетентности: недостаточная мотивация, отсутствие практики использования языка, слабая основа общего знания английского языка. Для решения выявленных проблем предлагается комплексный подход с использованием реальных текстов, интерактивных мобильных приложений и групповой проектной работы по специальности. Экспериментальное испытание подтверждает эффективность разработанных методов при условии их систематического применения с учетом специфики подготовки учащихся.

Ключевые слова: лексическая компетентность, профессиональный английский, мотивация, аграрный сектор.

DIFFICULTIES IN DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS OF THE AGRARIAN SPHERE

Annotation

In the modern context of the internationalization of agriculture, it is very important for students of Agrarian specialties to know professional English. However, studies show that this category of students has great difficulties in mastering the terminology and professional vocabulary of the English language. The purpose of this article is to identify the factors that prevent the effective assimilation of vocabulary by students of Agrarian profiles and propose a number of methods to eliminate existing problems. Based on the review of relevant publications and the results of empirical research, the main difficulties in the development of lexical competence are identified: insufficient motivation, lack of practice of using the language, a weak basis for general knowledge of English. To solve the identified problems, an integrated approach is proposed using real texts in the specialty, interactive mobile applications and group project work. The experimental test confirms the effectiveness of the methods developed under the condition of their systematic application, taking into account the peculiarities of the preparation of students.

Key words: lexical competence, professional English, motivation, agrarian sector.

Kirish. Zamonaviy globallashtirish dunyoda chet tilini, xususan ingliz tilini lingua franca xalqaro aloqa sifatida bilish har qanday soha mutaxassislari uchun muhim mahoratdir [1]. Bu agrar mutaxassisliklar talabalari uchun alohida ahamiyatga ega, chunki qishloq xo'jaligi jahon bozori va xalqaro hamkorlikka yo'naltirilgan. Shu bilan birga, o'quv natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu mutaxassisliklar talabalari professional ingliz tilini, ayniqsa leksik darajada o'zlashtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi [2]

Ushbu maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligi talabalari tomonidan ingliz tilidagi terminologiya va kasbiy lug'atni samarali o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bir qator usullarni taklif qilishdir.

Usullar va adabiyotlar tahlili. Leksik kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali usullarini aniqlash uchun [universitet] agrar fakulteti asosida empirik

tadqiqotlar o'tkazildi. Unda "Agroinjeneriya" va "Agronomiya" yo'nalishlarida 3-4 ta kunduzgi kurslarning 42 nafar talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqot leksikani o'rganishda mavjud muammolarni aniqlash uchun talabalarni so'roq qilishni va leksikani o'qitish usullari to'plamidan foydalangan holda keyingi pedagogik tajribani o'z ichiga oldi. Leksik ko'nikmalarning shakllanish darajasini nazorat qilish kirish va yakuniy testlar yordamida amalga oshirildi.

Olingan miqdoriy va sifatli ma'lumotlar matematik statistika usullari yordamida tahlil qilindi va test natijalarining sifatli tahlili bilan taqqos qilindi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, kasbiy yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitishda so'z boyligini o'zlashtirish jarayoniga bir qator omillar ta'sir qiladi.

Birinchidan, motivatsiya darajasi va kelajakdagi martaba uchun til o'rganishning ahamiyatini tushunish [3]. Bir qator mualliflarning ta'kidlashicha, agrar mutaxassisliklar talabalari ko'pincha ongli motivatsiyaga ega emaslar, chunki ular amaliy ishlarda til ko'nikmalaridan bevosita foydalanishni ko'rmaydilar [4].

Ikkinchidan, akademik soatlarning yetarli emasligi va amaliyot uchun til muhitining yetishmasligi muhim omil hisoblanadi [5]. Talabalar ingliz tilidan darsdan tashqari foydalanish uchun juda kam imkoniyatlarga ega.

Uchinchidan, ingliz tilini umumiy bilishning asosiy darajasi muhim rol o'ynaydi [6]. Tajriba shuni ko'rsatdiki, ushbu turdagi talabalar ko'pincha zaif asosiy grammatikaga va kichik so'z birikmalariga ega, bu esa chet tilidagi professional so'z boyligini yanada samarali o'rganishni qiyinlashtiradi.

Natijalar. Eksperimentning aniqlash bosqichi natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarining 70% dan ortig'i ingliz tilining professional so'z boyligini yodlash va ishlatishda qiyinchilik-larga duch kelishadi. Shu bilan birga, amaliyotning yetishmasligi va til o'rganishning kasb uchun ahamiyatini tushunmaslik asosiy muammolar deb nomlandi.

Kirish testi, shuningdek, mutaxassislik bo'yicha terminologik va kasbiy lug'atning yetarli darajada emasligini ko'rsatdi: o'rtacha talabalar topshiriqlarning 55% dan kamrog'ini atamalarining ekvivalentlarini tanlash va professional yo'naltirilgan matnlarda bo'shliqlarni to'ldirish uchun to'g'ri tarjima qildilar.

Eksperimentning shakllantiruvchi bosqichida aniqlangan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda ingliz tilining leksik tomonini o'qitishga kompleks yondashuv amalga oshirildi. Unda mutaxassislik bo'yicha haqiqiy matnlar bilan ishlash, vokabulyarni yodlash uchun mobil ilovalardagi vazifalarni bajarish, shuningdek, tilning kasb uchun ahamiyatini muhokama qilish elementlari bilan guruh loyihalari mavjud edi.

Yakuniy test ijobiy dinamikani ko'rsatdi: leksik ko'nikmalarni tekshirish uchun topshiriqlarning o'rtacha foizi 79% gacha ko'tarildi. Natijalarni sifatli tahlil qilish talabalarining motivatsiyasi va professional ingliz tiliga qiziqishining oshganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tajriba agrar talabalarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli ravishda qo'llanilishi sharti bilan ishlab chiqilgan usullar to'plamining samaradorligini tasdiqladi.

Tahlil. Tadqiqotning tahliliy bosqichida talabalarining ingliz tili lug'at boyligini rivojlantirishdagi qiyinchiliklarning asosiy omillari aniqlandi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Yetarli darajada motivatsiyaning yo'qligi. Ko'plab talabalar chet tilini o'rganishning ahamiyatini to'liq anglamaydilar.

- Til muhitining yo'qligi. Talabalar amaliy til o'rganish imkoniyatiga ega emas.

- Umumiy ingliz tili ko'nikmalarining pastligi. Ayrim talabalarda grammatika va umumiy so'z boyligining zaifligi mavjud.

Bu omillarni hisobga olgan holda talabalarining kasbiy leksik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvning samaradorligi pedagogik eksperiment natijalari bilan tasdiqlandi.

1-jadval. Talabalarining lug'at boyligi darajasi test natijalari

Guruh	Kirish natijalari testi	Chiqish natijalari testi	Farq
Nazorat	52%	61%	+9%
Eksperimental	53%	79%	+26%

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruh talabalarida kasbiy ingliz tili leksikasini o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 26% ga oshgan. Bu kompleks yondashuvning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqot agrar sohasi talabalarining kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini belgilab berdi.

Kasbiy ingliz tili lug'atini o'zlashtirish sifati tahlili Eksperiment davomida talabalarining kasbiy atamalar va tushunchalarni qanday darajada o'zlashtirganligi ham tahlil qilindi. Buning uchun ularga berilgan topshiriqlardagi xatoliklar tasniflandi va tahlil qilindi.

Aniqlangan natijalarga ko'ra, eng ko'p uchragan xatolik turlariga transkripsiya va tarjimadagi noto'g'riliklar, shuningdek, kollokasiyalarni noto'g'ri qo'llash kiradi.

Bu esa talabalarda fonetik va lug'aviy ko'nikmalarni yanada rivojlantirish, hamda til birliklarining birikmalarini (kollokatsiya) mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda agrar soha talabalarining kasbiy ingliz tili leksikasini o'zlashtirish jarayonini chuqur o'rganish maqsad qilib olindi.

Avvalo, talabalar o'rtasida so'rovnomaga o'tkazilib, ularning kasbiy lug'atni o'rganishdagi qiyinchiliklari aniqlandi [7]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 67% talabalar maxsus leksikani o'zlashtirishda qiynalishlarini e'tirof etgan.

So'ngra, tajriba guruhi bilan maxsus ishlab chiqilgan usullar asosida dastur o'tkazildi. Dasturdan oldin va keyin talabalar bilimini nazorat qilish maqsadida test sinovlari o'tkazildi [8].

1-jadvalda ko'rish mumkinki, dasturdan keyin tajriba guruhidagi talabalarining test natijalari 26% ga, nazorat guruhidagilarniki esa 9% ga oshgan. Bu tayyorlangan metodik kompleksning yuqori natijadorligidan dalolat beradi.

2-jadval. Talabalarining kasbiy ingliz tili leksik kompetensiyasi darajasi

Guruhlar	Test turi	Testdan oldingi natija	Testdan keyingi natija	Farq
Tajriba guruhi	Kirish testi	52%	78%	+26%
Nazorat guruhi	Kirish testi	53%	62%	+9%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi talabalarining kasbiy leksika bo'yicha bilim darajasi 26% ga oshgan bo'lsa, nazorat guruhidagi talabalarda bu ko'rsatkich 9% ni tashkil etgan.

Bu esa ishlab chiqilgan metodik kompleksning yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Tajriba guruhidagi talabalarda leksik kompetensiyaning sezilarli darajada rivojlangani kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda, maxsus ishlab chiqilgan yondashuv talabalarining kasbiy leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari agrar soha talabalari o'rtasida kasbiy ingliz tili o'qitish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Aniqlanishicha, talabalar tomonidan maxsus leksikani o'zlashtirishda qo'llanilayotgan an'anaviy o'qitish usullari yetarli samara bermayotganligi sababli, ularning kasbiy til ko'nikmalari past darajada qolmoqda [9].

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda yangi yondashuv ishlab chiqilishi ushbu muammoning yechimiga xizmat qilishi mumkinligini isbotladi [10].

Biroq bu boradagi izlanishlarni davom ettirish lozim. Chunki ta'lim samaradorligiga boshqa omillar: talabalar motivatsiyasi, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi kabilar ham ta'sir ko'rsatadi. Kompleks yondashuv zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, agrar soha talabalarining kasbiy til kompetensiyasini, xususan, leksik qatorni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning

uchun zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda maxsus o'quv metodikasi yaratish va amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mutaxassisliklari talabalariga professional ingliz tilini o'qitishda so'z boyligini o'zlashtirish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillar: motivatsiya, o'qitishning amaliy yo'nalishi va umumiy tilni bilishning asosiy darajasi.

Leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mutaxassislik bo'yicha haqiqiy matnlardan, raqamli muhitda interfaol topshiriqlardan foydalangan holda va tilning kasb uchun ahamiyatini muhokama qilish elementlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv tavsiya etilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar istiqbollari ushbu usullar asosida aniq o'quv-uslubiy kompleksni ishlab chiqishda va uning samaradorligini sinab ko'rishda ko'rinadi.

REFERENCES

1. Zufarova, Z.T. (2020). Kasbiy yo'nalishda fuqvcilarini ingliz tiliga o'qitishning ilg'or uslublari. O'zbek tili va adabiyoti, 2, 9-12.
2. Jo'raev, R.M. (2021). Agrar soha mutaxassislarida lingvistik kompetentlik nazariyasi va amaliyoti masalalari. Toshkent: fan va texnologiya.
3. Bukharbaeva, D. (2022). Developing agricultural students' ESP vocabulary using digital flashcards. Foreign Languages in Uzbekistan, 3, 55-59.
4. Raxmonova, D.M. (2019). Axborot texnologiyalar yordamida o'quvchilar leksik kompetensiyasini rivojlantirish. Pedagogik mahorat, 6, 115-118.
5. Marufova, M. (2017). Methods of teaching vocabulary in teaching English for specific purposes. Young Scientist USA, 5(12), 55-58.
6. Beknazarova, Z.S. (2016). Development of professional foreign language lexical competence of agriculture students: theory and practice. Journal of Critical Reviews, 7(6), 12-17. <http://www.jcreview.com/?mno=210060> [accessed 20.02.2024].
7. Boltaeva, M.B. (2019). Use of cloud technologies in teaching ESP for agricultural students. International Journal of Emerging Technologies in Learning, 14(9), 82-93. <https://doi.org/10.3991/ijet.v14i09.8634>
8. Mirzakhililova, G.M. (2021). Motivation in teaching English for specific purposes. Prospects, 5(3), 12-19.
9. Umaraliev, B.T. & Atakulova, J.A. (2022). Digital educational resources in teaching English for Agricultural Purposes. Philology Matters, 34(3), 148-156.
10. Sodiqova, Z.B. (2020). Forming professional foreign language lexical competence in agricultural university students through project-based learning. World of Science, Culture, Education, 2 (81), 377-380.



Pulat SHOKIROV,

Toshkent davlat texnika universiteti Jismoniy tarbiya kafedrası mudiri

E-mail: pulatkarimovich@mail.ru

TDTU katta o'qituvchisi Z.M. Mirsharipova taqrizi asosida

STUDY OF THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG TDTU STUDENTS

Annotation

The article describes the results of a study on the formation of a healthy lifestyle among students of Tashkent State Technical University. The research work was conducted among the 2nd and 3rd year students of different faculties of TDTU. The obtained results showed that students' knowledge about healthy lifestyle is insufficient. The research results were analyzed and recommendations were developed.

Key words: students, health, physical activity, proper nutrition, stress, sleeping on time, harmful habits, healthy lifestyle.

TDTU TALABALARI ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI SHAKLLANGANLIGINI O'RGANISH

Annotatsiya

Maqolada Toshkent davlat texnika universiteti talabalari orasida sog'lom turmush tarzi shakllanganligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot ishi TDTUning turli fakultetlari 2,3- kurs talabalari orasida maxsus 25-savol va javob variantlaridan tayyorlangan onlayn test o'tkazildi. Olingan natijalar talabalarning sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarining yetarli darajada emasligini ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari tahlil qilinib, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Talaba, salomatlik, jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish, stress, vaqtida uxlash, zararli odatlar, sog'lom turmush tarzi.

Kirish. Har qanday jamiyatning kelajagi o'sayotgan yosh avlod, ularning sogligiga, ma'naviy boyligi va mukammalligiga, xalqparvar va vatanparvar bo'lib yetilishiga, ilmi va bilimli bo'lishiga hamda jismonan-ruhan barkamol va yetukligiga bogliq. Hozirgi davrda insonlarning soglig'iga putur yetkazadigan, umrni qisqartiradigan ayrim ekologik va noxush sharoitlar, halq va qishloq xo'jaligida ayrim kimyoviy zaxarli-zararli moddalarning gigiyenik normadan ortiqcha qo'llanishi, turli xil yuqumli va boshqa kasalliklarning avj olishi kuzatilmoqda, va ayniqsa, o'ta yomon, salbiy oqibatlarga olib kelayotgan narkotik, psixotrop va boshqa moddalarni qabul qilish oqibatida narkomaniyaning barcha turlari (gilyohvandlik, toksikomaniya, alkogolizm, chekish)ning hamda OITS kasalligi va OITV-infeksiyani parallel holda avj olishi kabi «Global muammolar»ga qarshi kurash ish va ularni oldini olish davom etmoqda. Ma'lumki, Butun Jahon bo'ylab sog'liqni saqlashga sarflanayotgan barcha mablag'lar asosan kasalliklarni davolash va oldini olishga hamda juda kam qismi esa sog'lom odamni yanada sog'lomlashtirishga sarflanib kelinmoqda [1].

Oliy ta'lim istiqbol taraqqiyotining asosiy muammolarini hal etish yoshlarni jismonan sog'lom fikrga ega bo'lish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya tizimini qayta qurish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, chunki tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra o'qish davomida talabalarning salomatligi darajasi yildan yilga pasayib bormoqda. Hozirgi vaqtga qadar oliy o'quv yurtini bitirayotgan yosh mutaxassislar ko'pincha to'liq sog'lomlashgan emas, bu esa ularning kelgusidagi ishlab chiqarish va ijtimoiy foydali faoliyatini cheklab qo'yadi, rivojlanayotgan davlatga iqtisodiy va intellektual zarar yetkazadi. Jismoniy barkamollik salomatlik garovi bo'lib, u shaxsni har tomonlama rivojlantirish va yoshlarni tarbiyalashga yordam beradi. Salomatlik inson hayotida, ayniqsa yoshligida, muhim rol o'ynaydi.

Salomatlik darajasi insonning kasbiy yetukligi va ijodiy o'sishiga sabab bo'ladi [2].

Xo'sh salomatlik nima o'zi? Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etish garovidir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan sog'liqni saqlash bo'yicha ma'rifiy ishlar aholini kasallikning oldini olishdan ko'ra, birinchi navbatda davolashga qaratmoqda. Shu bilan birga, xavf omillari va eng muhimi, ularni bartaraf etish yo'llari oshkor etilmaydi, salbiy ta'sirlarga qarshi turish va kasallikning dastlabki belgilarini bartaraf etishda tananing funksional imkoniyatlari ko'rsatilmaydi. Buning o'rniga, turli «dorilarni» targ'ibot qilishga e'tibor qaratiladi.

Hozirda kasallanishga insonning o'zi sababchi bo'lgan holatda ham davlat ijtimoiy himoyaga faqatgina nogiron va bemorlarni olishi ko'zda tutiladi. Bundan chiqdi salomatligiga yaxshi e'tibor bermagan inson sog'lom insonga ko'ra ko'proq pul oladi. Sog'lom insonlar esa e'tibordan chetda qoladi. Buning oqibatida salomatlikni saqlash bo'yicha biron choralarni ko'rmaslik jamiyatda bemor va nogironlikni oshishiga olib keladi. Balki qonunlarni qayta ko'rib chiqib, o'z sog'ligiga be'tibor bo'lganlik uchun jarimalar, aksincha salomatligiga yaxshi e'tibor qilganlarga mukofot belgilashni ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Mamlakatda dam olish madaniyatini shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmayapti, bunda uning faol shakllariga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari talabalarning Jismoniy tarbiya bilan muntazam sho'g'yllanmasligi, bunday madaniyatning yo'qligi odamni o'ylamagan, rejalashtirilmagan o'yin-kulgining garoviga aylantiradi, uni "vaqt o'ldirish" istagiga undaydi. Ayniqsa yoshlar turli zararli odatlarga berilishi, soatlab televizor qarshisida o'tirish,

telefonidan bosh ko'tarmaslik, bosh vaqtini samarasiz ketkazishiga olib keladi.

TDTU talabalar 32-tibbiyot poliklinikasidan olingan ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, ilgari talabalar orasida oshqozon ichak kasalliklari(gastrit, yara kasalligi) ko'p uchragan bo'lsa, xozirgi kunda birinchi o'rinda ko'z kasalliklari egallamoqda. Talabalar orasida miopiya(uzoqni ko'ra olmaslik)-68% ni tashkil etdi.

Talabalar orasida tarqalgan kasalliklar reytingi

- 1.Ko'z kasalliklari
- 2.Harakat-tayanch apparati kasalliklari (skolioz va b.)
- 3.Yurak qon-tomir kasalliklari
- 4.Siydik tanosil kasalliklari
- 5.Asab va endokrin kasalliklar.

Talabalar orasida ko'z kasalliklarining birinchi o'ringa chiqishi, harakat tayanch apparati kasalliklarini oshishi soatlab telefonidan foydalanish, gipodinamiya holatida uzoq vaqt bo'lish bilan bo'liq bo'lishini tahmin qilish mumkin. Talabalar orasida o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'zlarini butunlay yaxshi xis qilgan talabalarining 28% kardiolog ko'rigiga yo'naltirilgan. 30% talabalarda ortiqcha vazn aniqlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gippokrat va Abu Ali ibn Sino o'z davrida kasallik va salomatlikdan boshqa yana o'tish davrini "Uchinchi holat" deb atashgan. Abu Ali ibn Sino 1000 yil oldin "Sog'lom kishilarning sog'ligi" to'g'risida asar yozgan va uning ahamiyati hozirgi kunda ham nafaqat saqlanib qolgan, balki "eng muhim va eng dolzarb" masala deb, dunyo olimlari tomonidan tan olinmoqda.

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning mashhur "Tib qonunlari" asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash g'oyalari asosida yozilgan. Alloma insonlar o'zini o'rab turgan atrof-muhit bilan muloqotda bo'lishini va tashqi muhit omillari, o'z navbatida, uning salomatligiga ta'sir qilishini ta'kidlab o'tgan. Ulug' hakim salomatlikni saqlashda jismoniy faollik muhimligini alohida qayd etib, tartibli hayot tarzi omili sifatida jismoniy mashqlar, ovqatlanish tartibi va uyquni qayd etgan. U bunday yozadi: "Me'yorida va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan inson hech qachon davolanishga muhtoj emas". Tibbiyot fani ulkan yutuqlarga erishgan bugungi kunda ham olim qoldirgan tavsiyalar, u yaratgan "Tib qonunlari" uzoq asrlardan buyon insoniyatga xizmat qilib kelayotgani bejiz emas. Zero, inson salomatligini saqlashda individual yondashuv zarurati hamda organizm imkoniyati va xaziralarining ahamiyati nechog'li muhimligini bugungi kun ham ko'rsatib turibdi [5].


Rus olimi I.I. Brexmanning fikriga ko'ra madaniyatli inson "kasalliklarga, ayniqsa surunkali kasalliklarga yo'l qo'ymasligi kerak, chunki aksariyat hollarda ular uzoq vaqt davom etadigan nosog'lom turmush tarzi erta o'limga olib keluvchi semizlik, qandli diabet, gipertoniya, miokard infarkti kabi havfli kasalliklarga olib keladi..." deydi.


N.M.Amosov o'zining "Salomatlik haqida o'ylar" nomli kitobida (1978) "Salomatlikning salmogi" atamasi ya'ni organizmning zahiradagi kurashuvchi imkoniyati to'g'risidagi fikrni aytdi. Akademik I.I.Brexman organizmning tashqi salbiy ta'sirotlarga nisbatan kurashish mexanizmini o'rganib, unda qarshi kurashish xususiyati borligini isbotlab, "adaptatsiya" mavjudligini qayd etdi. Sog'liqni saqlash va mustahkamlash uchun asos soldi. Sog'lom turmush tarzi va salomatlikni saqlash, yaxshilash bo'yicha Olimlarning bir qator olimlar ilmiy ishlari o'rganildi. Masalan "Avesto"da "Tibbiyot - bu tanani sog'lom holatda saqlash san'atidir", deb yozilgan.

Britaniya Kembridj universiteti olimi Kay-Ti Kvo 45-79 yoshdagi insonlar orasida tadqiqot olib borgan va sog'lom turmush tarzini kechirgan insonlar 14 yil ko'proq yashashlarini aniqlagan. Bunda natijalar insonning vazni yoki ijtimoiy holati bilan bog'liq emasligini ham aniqlagan [6].

Talabalarining ta'lim olish jarayonida ularning salomatligiga bir necha omillar ta'sir etadi. Bu omillarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi-bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lib obyektiv omillar bo'lib ularga: o'quv yilining davomiyligi, o'quv yuklamasi, dars jadvallari tuzilishi, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffuslar va auditoriyalarning holati kiradi. Ikkinchi guruh omillariga- subyektiv omillar: talabaning shaxsiy xususiyatlari, ya'ni, kun tartibi, ovqatlanish ratsioni, jismoniy faolligi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi, zararli odatlarning mavjudligi kiradi. Ayniqsa ana shu ikkinchi guruh omillari talabaning o'ziga ko'proq bog'liq bo'lganligi uchun uning salomatligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini o'tkazish davomida talaba yoshlarning salomatligi haqidagi ilmiy adabiyot, maqolalarni o'rganish, TDTU talabalarining sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarini aniqlash va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsad qilib qo'yildi. Mavzuning dolzarbligi shundaki talabalar yurt kelajagi. Shu sababli bo'lajak yosh mutaxassislarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish muxim xisoblanadi. Tadqiqot ishida TDTU ning turli fakultetlari 2, 3-kurs talabalaridan 205 nafari qatnashdi. Shundan 25% erkak, 75% ayol. 1%-25yosh, 3%-23, 3%-24, 6%-18, 7%-27 va undan katta, 12% -19, 16%-22, 22%-21, 27%-20 tashkil etdi.





Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tadqiqot ishidan ma'lum bo'lishicha respondentlardan olingan natijalar. Sizing turmush tarzingiz qanday? Sog'lom-55%, qisman sog'lom-25%, sog'lom bo'lishiga harakat qilayapman-15%, nosog'lom-3%, bilmayman-2%. Natijalardan ma'lum bo'lidiki, asosan talabalar o'zlarini sog'lom deb xisoblaydilar.

Sog'lom turmush tarzini kechirishingizga sabab? Hayotda hamma narsaga erishish-44%, kasal bo'lmaslik - 32%, chiroyli bo'lish va saqlab qolish-14%, uzoq yashash-10%. Talabalar asosan hayotda ko'p narsalarga erishishni ustun qo'yadilar, salomat bo'lish ikkinchi o'rinni egallaydi.

Sog'lom turmush tarzini kechirishingizga halaqit beradigan sabab? Vaqt yetishmasligi-14%, pul yetishmasligi-10%, iroda yo'q-29%, yetarli sharoit yo'qligi-16%, sabab yo'q-31%. Bu savolga ko'pchilik talabalar sabab yo'qligini ko'rsatganlar. Salomatligingizni qanday baholaysiz? A'lo-16%, yaxshi-69%, qoniqarli-12%, yomon-3%. Talabalar o'z salomatliklari a'lo va yaxshi darajada ekanligini ko'rsatganlar. Shifokor ko'rigidan o'tib turasizmi? Ha, yiliga 1-2 marta-38%, ha, yiliga 2-3 marta-30%, yo'q-26%, shifokordan qo'rqaman-5%. Shifokorlarga ishonmayman-1%. Natijalar talabalar uchun muntazam tibbiy ko'riklarni axamiyatli ekanligini ko'rsatdi

Ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanasizmi? Ha, hardoim-14%, Ha, 2-3 kunda bir-23%, ha, haftada bir-25%, umuman yo'q-38%. Toza havoda sayr qilasizmi? Ha, har kuni-36%, ha, ba'zida-56%, yo'q-8%. Afsuski talabalarining aksariyat qismi jismoniy faollikning salomatlikka foydali ekani haqida to'liq tassavurga ega emaslar.

Ertalab nonushta qilasizmi? Ha, doim-52%, ha, ba'zida-40%, umuman yo'q-8%. Tushlik qilasizmi? Ha, doim - 71%, ha, ba'zida-28%, onda-sonda-1%. Sog'lom ovqatlanasizmi? Ha-28%, ba'zida-66%, hech qachon-6%. Yog'li ovqatlarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-44%, haftada 1-2 marta-55%, hech qachon-1%. Dudlangan maxsulotlarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-7%, onda-sonda-87%, hech qachon-6%. Shirinliklarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-36%, onda-sonda-60%, hech qachon-4%. Xamirli taomlarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-6%, haftada 2-3 marta-92%, yemayman-2%. Qovurilgan kartoshka(chips) larni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-15%, haftada 2-3 marta-15%, oyiga 1-2 marta -53%, yemayman bu zararli-17%. Tuzlangan maxsulotlarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-17%, haftasiga bir necha marta-74%, umuman yemayman-9%. Sabzavotlarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-55%, haftada 1-2 marta-39%, yemayman-6%. Ho'l mevalarni qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-64%, haftada 1-2 marta-36%, yemayman-0%. Sut maxsulotlarini qanchalik ko'p yeysiz? Har kuni-26%, haftada 1-2 marta-59%,

yemayman-15%. Olingan natijalardan talabalar sog'lom ovqatlanishadi.

Stress holatidamisiz? Ha-9%, ba'zida-55%, yo'q-36%. Sizing stressga sabab? Kollektivdagi o'zaro munosabat-10%, oilaviy muammolar-29%, moddiy yetishmovchilik-16%, vaqt yetishmasligi-14%, salomatlikdagi muammolar-6%, o'zimizdan qoniqmaslik-23%, boshqalarni muvafaqqiyatlai-2%. Sog'lom turmush tarzini kechirish uchun nima zarur? Sharoit-23%, yetarli mablag'-19%, har jabhada erkinlik-36%, bilim-15%, axborot-2%, bilmayman-5%. Talabalar sog'lom turmush tarzini kechirish uchun erkinlik yetishmasligini ko'rsatganlar. Mentalitetimizdan kelib chiqadigan bo'lsak yoshlar kattalar tomonidan doim nazorat qilinadilar, butunlay erkinlikka yo'l qo'yilmaydi. Bu esa talabalarni keyinchalik o'zlarini ilmiy namoyon qilishlariga ham to'siq qilishi mumkin.

Xulosalar va tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, TDTU talabalarining turmush tarzi motivlar, qadriyatlar yo'nalishlari, mazmuni, bo'lajak mutaxassislar, magistrlar va bakalavrlarning hayot faoliyati yo'llari va shakllari. Oliy o'quv yurtlarining zamonaviy talabalari – O'zbekiston respublikasining kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, intellektual, ijodiy salohiyati. Ular ma'lum bir yosh, o'ziga xos mehnat va yashash sharoitlari va individual sog'liqning ma'lum sifati bilan tavsiflangan maxsus ijtimoiy guruhni tashkil qiladi. So'nggi yillarda universitetimizda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarining jismoniy va ruhiy salomatligining yomonlashishi, yengil va o'rtacha darajadagi ko'z kasalliklari, tayanch-harakat tizimidagi buzilishlar, stress holatlari, tananing funktsional imkoniyatlarining pasayishi, jismoniy faollikning pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Talabalar sog'lig'ining yomonlashuvining sabablari universitetda o'qish sharoitlari (semestr va imtihon sessiyasi davomida sezilarli ruhiy va psixo-emotsional stress) va nosog'lom turmush tarzi (optimal bo'lmagan kun tartibi, noto'g'ri ovqatlanish, yomon odatlar), jismoniy faollikning pastligi, turli kasalliklarni rivojlanishiga, mavjud surunkali kasalliklarning qaytalanishiga va yangilarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, TDTU talabalarining sog'lom turmush tarzi kompetensiyalari hali yetarlicha shakllanmagan va bu sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlari yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Tavsiyalar. Talabalar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport seksiyalarini bepul tashkil etish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish, salomatligini yaxshilanishiga erishganlarga rag'batlantirishni yo'lga qo'yish zarur.

ADABIYOTLAR

1. [https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tibbiyot/Valeologiya%20asoslari%20\(Sayfidin%20Faxriddin%20o'g'li\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tibbiyot/Valeologiya%20asoslari%20(Sayfidin%20Faxriddin%20o'g'li).pdf)
2. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/8-y-Valeologiya-asoslari-darslik-I.A.Koshbatov-T.-2005y.pdf>

3. file:///C:/Users/User/Downloads/oliy-talim-muassasalari-talabalarida-so-lom-turmush-tarzini-rivozhlantirish.pdf
4. Вайнер, Э. Н. Валеология: учебник для вузов / Э. Н. Вайнер. – 11-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2021. – 448 с.: табл., схем. – Режим доступа: по подписке. – URL:
5. <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=79501> (дата обращения: 08.01.2024). – Библиогр. в кн. – ISBN 978-5-89349-329-0. – Текст: электронный.
6. file:///C:/Users/User/Downloads/feduc-07-889603.pdf
7. <https://www.rbc.ru/society/13/01/2008/5703caac9a79470eaf768acd>
8. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/669>
9. <https://www.booksite.ru/fulltext/razdumjja/text.pdf>
10. file:///C:/Users/User/Downloads/oliy-talim-muassasalari-talabalarida-so-lom-turmush-tarzini-rivozhlantirish.pdf
11. file:///C:/Users/User/Downloads/formirovanie-zdorovogo-obraza-zhizni-u-studentov.pdf
12. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/86558/1/m_th_d.a.galochkina_2020.pdf
13. <https://zaochnik.ru/blog/bolnoj-po-zhizni-chem-chashhe-vsego-boleyut-studenty/>



Elbek SHUKUROV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: musokok@mail.ru

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, s.f.f.d., B.Berdiyev taqrizi asosida

CIVIL SERVICE AND ITS COMPARATIVE ANALYSIS: ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES

Annotation

The article analyzes the civil service, its formation, the experiences of foreign countries and their development trends, as well as state construction and personnel policy in Uzbekistan, important institutional factors such as administrative and legal reforms. The purpose of the article is a comparative and systematic analysis of the civil service of our country with countries such as the USA, France, Germany and Great Britain and, on their basis, the development of certain proposals, recommendations and conclusions to overcome the problems and shortcomings in our country.

Key words: civil service, administrative-comparative system, administrative reform, Anglo-Saxon system, continental European system, foreign experience and system.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ СЛУЖБА И ЕЕ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация

В статье анализированы государственная служба, ее становление, опытов зарубежных стран и их тенденции развития, а также государственное строительство и кадровая политика в Узбекистане, важные институциональные факторы как административно-правовые реформы. Целью статьи является сравнительный и системный анализ государственной службы нашей страны с такими странами как США, Франции, Германии и Великобритании и на их основе разработки определенных предложения, рекомендации и заключения для преодоления проблем и недостатков в нашей стране.

Ключевые слова: государственная служба, административно-сравнительная система, административная реформа, англо-саксонская система, система континентальной европы, зарубежный опыт и система.

DAVLAT XIZMATI VA UNING QIYOSIY TAHLILI: O‘ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI MISOLIDA

Annotatsiya

Maqolada davlat xizmati, uning qaror topishi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, O‘zbekistonda davlat quriligi va kadrlar siyosati borasidagi islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatidagi ma‘muriy-huquqiy, siyosiy o‘zgarishlarning muhim institutsional omili misolidagi jarayonlar tahlil qilingan. Maqolaning maqsadi esa mamlakatimiz va rivojlangan xorij mamlakatlar, jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniya kabilardagi davlat xizmati institutining muammolarini qiyosiy va tizimli tahlil qilish va ular asosida mamlakatimizda bu boradagi muammolar yoki kamchiliklarni bartaraf etish borasida ma‘lum bir ilmiy taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: davlat xizmati, ma‘muriy-qiyosiy tizim, ma‘muriy islohot, ingliz sakson tizimi, kontinental yevropa tizimi, xorijiy tajriba va tizim.

Kirish. O‘zbekistonda bugungi kunda barcha sohalarida erishilgan yutuqlar misolida davlat xizmati va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar jadal amalga oshirilmoqda. Chunki bu soha – har qanday mamlakatda ro‘y berayotgan siyosiy-ma‘muriy, huquqiy, kadrlar, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib, bunday islohotlar juda katta kompleks o‘zgarishlarni va tadqiqotlarni, xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va milliy manfaatlarimizga jihatlarini mamlakatimiz uchun tatbiq qilish kabi vazifalarni taqazo etadi. Shuningdek, mavzuning dolzarbligi shundaki, biz xorijiy mamlakatlarning davlat xizmati va ushbu muammo bilan shug‘ullanadigan institutlarining tadqiqotlari asosida O‘zbekistondagi muammo-larni qiyoslashimiz va natijasi orqali davlat xizmati bilan bog‘liq munosabatlarni baholashimiz, muammolarni aniqlashimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat xizmati masalasi juda qadim zamonlarga borib taqalishi bilan bir qatorda, uning siyosiy fan sohasii sifatida shakllanishi asosan XX asrning boshlarida sodir bo‘lgan. Bu borada xorijlik

olimlardan A.Polger, G.Kayden, G.Devis, R.Rodis, V.Veller, D.Fransiskolarning ilmiy ishlarida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida davlat sektori boshqaruvini rivojlantirishning turli muammolari va yechimlari keng yoritib berilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvini yaxshilash uchun boshqaruv kadrlarida liderlikni rivojlantirish va ijro etuvchi hokimiyat vakillarining salohiyatini oshirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlarni A.Fels, P.Allen, J.Vanna G.Patapan, R.Spann larning ilmiy asarlarida kuzatish mumkin.

Davlat boshqaruv kadrlarining salohiyatini oshirish bo‘yicha innovatsion yechimlar kadrlar tayyorlashning muhim mavzusi ekanligi, globallashtirish va axborot zamonida ayniqsa yangicha fikrlaydigan, boshqaruvda innovatsion g‘oyalarni amalga oshira oladigan, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga katta e‘tibor qaratadigan boshqaruv kadrlarining istiqbollari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar S.K.Pan, S.S.Kang, S.Pollit tadqiqotlarida uchraydi.

O‘zbekistonlik olimlar – Q.Quronboyev, N.Jo‘rayev, M.Bekmurodov, M.Qirg‘izboyev, I.Ergashev, M.Quronov, F.R.Ravshanov, X.Axmedov, O.Mahkamov, B.Alimov,

A. Yuldashevlarining maqollarida davlat xizmati va yaxshilash, ularga ta'sir ko'rsatadigan omillar chuqur tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ko'plab olimlar va mutaxassislar ham borki, ular tomonidan imidj masalalarining yoritilishini birgina maqola bilan ko'rsatib berish nihoyatda mushkuldir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada, siyosiy fanlar sohasida keng qo'llaniladigan tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va bixevioristik metodlardan keng foydalanilgan va ushbu metodlar maqolaning ilmiylik darajasi ortishining asosiy omili bo'lib xizmat qilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, ko'plab mamlakatlar (o'z taraqqiyotida yuksak natijalarni ko'rsatgan va ko'rsatayotgan, dunyoning yuqori darajada taraqqiy etgan mamlakatlari sifatida e'tirof etiladigan) davlat xizmati va uning samaradorligini oshirish borasida nafaqat katta tajribani yaratganlar, balki ushbu sohani doimiy ishlaydigan va takomillashib boradigan tizim sifatida o'z taraqqiyotining muhim institutsional omiliga aylantirgan.

Davlat xizmatini birinchi galda, dunyo standartlari talablari darajasida isloh qilishning zarurati bugungi jadal demokratik o'zgarishlar natijasida kelib chiqmoqda va dolzarblashmoqda. Bunga sabab sifatida, uzoq yillar davomida davlat xizmatchisining maqomi, sha'ni, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy manfaatlari himoya qilinmaganligi, bu borada tegishli qonunchilikning bo'lmaganligi, davlat xizmati sohasini belgilashga qaratilgan huquqiy holatlarning zaifligi yoki zamon talablariga muvofiq shakllanmaganligi va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, bugungi kunga qadar O'zbekistonda "Davlat xizmati" to'g'risidagi qonun yoki boshqa huquqiy aktlarning yo'qligini (2022 yil 8 avgustda qabul qilingan "**Davlat fuqarolik xizmati**" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bundan mustasno) ham qayd etish lozim [1]. Aslida, bizning fikrimizcha, avvalo, davlat xizmati uning maqsad vazifalari, uni baholishning mezonlari, o'zboshimcha ishdan bo'shatib yuborilishdan himoya qilinishi, mansabdorlarning ahloqiy va ma'naviy qarashlari, bu boradagi xorijiy tajriba aniq belgilanganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Agar xalqaro tajriba haqida gapiradigan bo'lsak, alohida ta'kidlash, keyingi islohotlarda va olib boriladigan tadqiqotlarda hisobga olish uchun, shuningdek, davlat xizmati yoki davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning asosiy ikki tizimi bo'lgan va nazarimizda, O'zbekiston uchun ham maqbul modellar sifatida istiqbolli hisoblanadigan **ochiq ingliz sakson va yopiq kontinental** modellarni alohida e'tirof etmoq joiz.

Biz ta'kidlagan ochiq ingliz-sakson modeliga xos bo'lgan xususiyatlar ichida "xizmat munosabatlarini bevosita tartibga soladigan aniq tashkiliy normativ-huquqiy tizimning yo'qligi; kadrlar tanlab olishning ochiq tanlov tizimi; davlat xizmatchisining mehnatiga haq to'lash va xizmat pog'onalarida o'sish - uning ishda ko'rsatgan natijalariga bog'langanligi; ishdan bo'shatishning soddalashtirilgan jarayonligi" [2]. Bu tizim bugungi kunda va tarixan AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada kabi davlatlarda keng qo'llaniladi. Ingliz sakson tizimi sud amaliyoti, qonunlar va hukumatning meyoriy aktlariga asoslanadi. Yopiq tizimga esa davlat xizmatining har bir darajasidagi malaka aniq tartibga solinishi; kadrlarni tanlab olishning ko'p bosqichli tizimi; xizmatchining yuqori ijtimoiy maqomi, ya'ni xizmat pog'onalaridagi o'sish, oylik maosh va imtiyozlari uning mehnat stajiga bog'liqligi; davlat xizmatchisini ishdan bo'shatishning o'ta murakkab jarayonligi (Germaniya va Fransiya).

Mazkur maqolada endigi asosiy masala sifatida biz O'zbekiston va g'arbning rivojlangan mamlakatlari hisoblanmish AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va bizga tuzum

jihtadan bir muncha yaqin bo'lgan Rossiyani ko'rib chiqamiz. Negaki, bu davlatlarning tajribalari, erishgan yutuqlari va imkoniyatlari barchamizga ma'lum va ularning tajribalari O'zbekistonda ushbu tizimni rivojlantirish, huquqiy va tashkiliy, siyosiy-ijtimoiy tomonlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Hech birimizga sir emas, inson resurslarini boshqarish, davlat xizmatini tashkil qilish, qo'yingki barcha sohada dunyoning eng ilg'or mamlakatlaridan bo'lmish AQSH bilan O'zbekiston davlat xizmatini qiyoslaydigan bo'lsak, birinchi galda uning davlat xizmati xususiyatlarini ko'rib chiqmoq lozim. Ushbu mamlakatda davlat xizmatining huquqiy tartibga solinishi AQSH qonunlar jamlanmasida (The United States Code) [3], shuningdek, 1978 yil mamlakatda qabul qilingan "Fuqarolik xizmati islohot to'g'risida"gi qonun [4] va boshqalarda o'z aksini topgan. AQSH davlat tuzilishi federativ bo'lganligi uchun (mamlakat turli shtatlardan tashkil topgan) mazkur mezonlar bo'yicha davlat xizmati ham federal, shtatlar xizmati va mahalliy xizmatlarga bo'linadi. Federal xizmat esa o'z navbatida tanlov va patronaj tizimlarga bo'linadi. Umuman olganda, AQSH davlat xizmati va uning islohotlari bilan bog'liq uzoq tarixga ega mamlakat hisoblanadi. chunki, mamlakatda bu tizim yoki soha britaniya mustamlaka tuzumi davrida vujudga kelgan. Shuning uchun ham nisbatan kompakt markaziy hokimiyat tarixan ushbu mamlakatda rivojlangan mintaqaviy va mahalliy saylov organlari bilan hamohang rivojlangan.

1871 yilga kelib AQSH Prezidenti U.S. Grant tomonidan Davlat xizmati komissiyasi ta'sis etilgan (hozirgi vaqtda u AQSH kadrlar xizmati (Office of Personnel Management) deb nomlanadi) va uning birinchi rahbari sifatida D.B. Iton tayinlangan edi. Lavozimga tayinlangan Iton Britaniya davlat xizmati tajribasini o'rganadi va undan ilhomlangan holda yozgan asari keyinchalik bo'lajak islohotlarning ilmiy asosi bo'lib xizmat qilgan [5]. "Ko'rsatgan xizmatlari tizimi" sifatida mashhur bo'lgan (merit-system) yangi tizim 1883 yilda federal darajadagi D.X. Pendlton qonuni sifatida tarixga kirgan va 1978 yilgacha amalda bo'lgan.

Bugungi kunda AQSH davlat xizmatida ma'muriy-hududiy tamoyil ustunlik qilishi hisobiga huquqiy nuqtai-nazardan yagona davlat xizmati yaxlit mazmunda mavjud emas. Xizmat faoliyati biz yuqorida keltirib o'tganimiz, AQSH kadrlar xizmati (Office of Personnel Management) tomonidan ishlab chiqilgan maxsus qoidalar (ishga qabul tartibi, maoshni belgilash tartibi, ijtimoiy ta'minot meyorlari va boshqalar) tomonidan tartibga solinadi. Ingliz-sakson tizimi, yoki modelining yana bir muhim vakili hisoblanmish Buyuk Britaniyaning tajribasi dunyo miqyosida ham alohida mavqega ega. Mamlakatda davlat xizmatini tartibga solishning asosiy huquqiy asosi "Fuqarolik xizmati kodeksi" ("Civil Service Commissioners' Recruitment Code. 1996") bo'lib, bundan tashqari ko'plab huquqiy va boshqa normativ aktlar, hukumat qarorlari ham mavjud [6]. Mamlakatda davlat xizmati va u bilan bog'liq qonunchilikning boshqa davlatlardan ajralib turadigan xususiyati (O'zbekiston bundan mustasno, chunki mamlakatimiz qonunchiligida Davlat fuqarolik xizmatiga aniq ta'rif berilgan [7]) – bu unda fuqarolik xizmati tushunchasining aniq ochib berilganligidir.

Buyuk Britaniya davlat xizmatining asosiy maqsadi – davlat boshqaruvini siyosatdan ajratishdir. Mamlakatdagi "Fuqarolik xizmatchisi" tushunchasining muhim elementi shundaki, u "Toj xizmatchisi" sifatida ko'riladi. Bundan shuni anglash mumkinki, fuqarolik xizmatchisi yoki bevosita "Toj" egasi tomonidan lavozimga ma'qullanadi maxsus tanlov jarayoni natijasida fuqarolik xizmatiga kiradi hamda shu asnodan muayyan muddatga "qirrollik xohishi bo'yicha" ish

boshlaydi. Buyuk Britaniyada ham xuddi O'zbekistondagidek, davlat xizmatchisining ikki turi mavjud: jamoat tartibini himoya qilishni amalga oshiradigan xizmatchi va fuqarolik xizmatchisi. Birinchi turdagi davlat xizmatchilari safiga sudyalari, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari va o'qituvchilar kirsalar, ikkinchi turda davlat boshqaruv organlarida faoliyat yurituvchilar kiradi. O'zbekistonda esa Buyuk Britaniyadan farqli ravishda o'qituvchilar yoki davlat budjeti tashkilotlarida xizmat qiladigan kirmaydi.

Mamlakatda davlat xizmati tizimini boshqarishda asosiy rol o'ynaydigan Vazirlar Kabineti mavjudligiga qaramasdan, v davlat xizmatchilarining oliy korpusi ham ushbu sohaga mustaqil organ sifatida muhim hissa qo'shadilar. Shuning uchun ham yuqori davlat lavozimlariga xizmatchilarni tayinlash Qirolning muhim vazifalaridan sanaladi. Ma'muriy siyosiy rahbarlar esa fuqarolik xizmati ishlari bo'yicha vazirlik tomonidan tayinlanadi. Qolgan mansabdorlar esa vazirlik-larning yillik hisobotlarida ko'rsatiladigan, ya'nikim ularning ish natijalariga qarab ilgari suriladi. Lavozimda o'sishning asosiy mezonini sifatida esa professionalizm emas, balki ish staji hisoblanadi! Mansabdor uchun asosiy talab – bu sodiqlik va siyosiy masalalarda bosiqlikdir. Fuqarolik xizmatining asosiy talabi esa “betaraflilikdir”.

Yana bir Yevropaning rivojlangan davlatlari biri Fransiya bo'lib, uning kontinental yopiq modelga asoslangan tajribasi ham juda foydalidir. Fransiya davlat xizmati uch tarmoqdan iborat bo'lib, ular: davlat xizmati, hududlar xizmati va davlat tibbiyot muassasalari xizmatini qamrab olgan. Fransiyaning davlat xizmati korpuslarga (**corps**), toifalarga (**catégorie**), ranglarga (**rank**) va pog'onalariga (**echelon**) bo'linadi. Korpus odatda bir xil professional faoliyat bilan shug'ullanadigan davlat xizmatchilaridan (o'qituvchilar, klerklar (muassasa yoki idora xizmatchisi), inspektorlar, fuqarolik administratorlar, diplomatlar, prefektlar (maxsus yoki muayyan vazifalar yuklatilgan mansabdor shaxs) va xokazolar) iborat. Yana bir jihat, xuddi AQSHdagi singari Fransiya ham fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat xizmatiga ishga qabul qilinmaydi, lekin milliy, irqiy, diniy va jinsiy disriminatsiya ta'qiqlanadi.

Fransiya davlat xizmatini tashkil qilish “insondan davlatga xizmat qilishda ma'lum bir sifatlarga ega bo'lishni va

unga o'zini bag'ishlashni talab qiladigan o'ziga xos va boshqa kasblardan ajralib turadigan davlat xizmatchisiga aylanishga asoslanadi”. Bir vaqtning o'zida ushbu mas'uliyat bilan bir qatorda, u davlat xizmatchisiga o'z vazifalarini vijdonan bajarsa, moddiy kafolat va o'sishni ham va'da qiladigan tizimdir.

Davlat apparatida xizmatchining ixtisoslashuv konsepsiyasi hukmronlik qiladigan AQSHdan farqli ravishda, Fransiya va Buyuk Britaniyada ham ma'muriy va ham texnik funksiyalarni bajarishlari uchun keng tayyorgarlik zarurati to'g'risidagi qoidalar ustunlik qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish lozimki, Yangi O'zbekiston sifatida xalqaro maydonga jadal kirib kelayotgan mamlakatimizning ertangi kun istiqboli avvalo, kadrlarga, keyin esa ularni tayyorlash, tanlab olish, va tayinlashga bog'liq. Zero, zamonaviy ishlash va fikrlash, qarorlar qabul qilish va o'zlariga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajaradigan mutaxassis kadrlar davlatimizning milliy boyligi hisoblanadi. Ularni yo'naltirish, davlat xizmatini bajarishdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik qilish, tartibga solish, rag'batlantirish va faoliyatini doimiy baholab borish bilan bog'liq ishlarning samaradorligi – bu davlatning yorqin istiqboli ta'minlandi demakdir.

Xorijiy mamlakatlarning davlat xizmati sohasidagi tajribalarini o'rganish va ulardan O'zbekiston milliy manfaatlari va taraqqiyoti yo'lida foydalanish, sohani tartibga solish va rivojlantirishga xizmat qiladigan omillarni keng joriy qilish vazifalari juda dolzarb bo'lib qolmoqda. Davlat xizmatchisining maqomi, ularni davlat ishlariga jalb qilish, ma'muriy javobgarligini va mas'uliyatini oshirish, samarasiz yoki soha rivojiga to'siq bo'layotgan muammolarni doimiy monitoring qilish va bartaraf qilish borasida ham xorij tajribasiga murojaat qilish katta imkoniyatlarni taqdim qiladi.

O'zbekiston bu yo'lda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya singari nafaqat ko'rib chiqilgan mamlakatlarning tajribalarini, ustun tomonlarini, balki boshqa mamlakatlarning yutuqlarini ham davlat xizmatiga kadrlar tayyorlash, tanlash va tayinlash borasida maqsadli va asosli tarzda o'zlashtirishi foydadan holi emas. Bu esa mamlakat fuqarolarini, butun tizimni va iqtisodiy-ijtimoiy hayotini davlat xizmatida o'tirgan mansabdorlarning noprofessional qarorlari-dan himoya qilishning uslublaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonuni. 10.11.2022 dan kuchga kirgan. <https://lex.uz/uz/docs/6145972>
2. Civil Service Systems in Comparative Perspective / Edited b Hans A. G. M. Bekke, James L.Perry, and Theo A.J.Toonen. (Indiana University Press: Bloomington & Indianapolis, 1996.) - 346 p.
3. The United States Code. <https://uscode.house.gov/browse.xhtml?jsessionid=894765195953A97708456A2996A5FB3F>
4. Civil Service Reform Act (1978). October 13. Publ. 95–454, 92 Stat. 1111.
5. McGrath R.J. The Rise and Fall of Radical Civil Service Reform in the US States // Public Administration Review. 2013. Vol. 73. Issue 4. P. 638–649.
6. The major central government policy documents and legal acts related to the Civil Service in Britain, such as “Northcote-Trevelyan Report” 1853-1854, “Fulton Report” 1968, “Improving Management in Government: The Next Steps. Report to the Prime Minister. 1988”, “The Financing and Accountability of Next Steps Agencies. December 1989”, “Making the Most of Next Steps: The Management of Ministers’ Departments and their Executive Agencies. Report to the Prime Minister. May 1991”, “Citizen’s Charter. July 1991”, “Continuity and Change, Civil Service White Paper. July 1994”, “Open Government. Code of Practice on Access to Government Information. March 1994”, “Civil Service Order in Council 1995”, “Civil Service Commissioners’ Recruitment Code. 1996”, “Nolan Committee’s Reports on Standards in Public Life” 1996 etc.
7. O'zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonuni. 10.11.2022 dan kuchga kirgan. <https://lex.uz/uz/docs/6145972>



Aysulu ELMURATOVA,
O'ZDJTSU Nukus filiali dotsenti, (PhD)
E-mail: aysulu.elmuratova@mail.ru

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) T.Jumayev taqrizi asosida

IMPROVING THE MECHANISMS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROTECTION IN SPORTS GROUPS

Annotation

This article talks about the importance of improving the mechanisms of social and psychological protection in sports teams, protecting oneself from various psychological threats during an athlete's activities, the importance of applying the necessary measures to the athlete's mental state and self-control in this process.

Key words: social Psychology, mimicry, mechanism, peripheral, ontogenetic, typology, repressive, regressive, athletic personality, Sports Group.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ В СПОРТИВНЫХ ГРУППАХ

Аннотация

В данной статье говорится о важности совершенствования механизмов социальной и психологической защиты в спортивных командах, защиты себя от различных психологических угроз во время деятельности спортсмена, важности применения необходимых мер к психическому состоянию спортсмена и самоконтролю в этом процессе.

Ключевые слова: социальная психология, мимикрия, механизм, периферийный, онтогенетический, типология, репрессивный, регрессивный, спортивная личность, спортивная группа

IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK HIMOYALANISHNING SPORT GURUHLARIDAGI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada sport guruhlaridagi ijtimoiy-psixologik ximoyalaniş mexanizmlarini takomillashtirish, sportchi faoliyati davomida turli hil psixologik tahdidlardan o'zini muxofaza qilish, mazkur jarayonda sportchining ruhiy holatlari va o'zini-o'zi boshqara olishda zarur choralarni qo'llashning ahamiyati hususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy psixologiya, ximoyalaniş, mexanizm, periferik, ontogenetik, tipologiya, repressiv, regressiv, sportchi shaxsiyati, sport guruhi

Kirish. YUrtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning ommaviyligini ta'minlash, milliy sport o'yinlarini qayta tiklash, ayniqsa yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, iqtidorli sportchilarni professional yondashuvlar asosida tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan "Jamoaviy va boshqa sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash" [1] maqsadi, ijtimoiy hayotda sportchi shaxsining ijtimoiy psixologik faolligini orttirish masalalarining dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-psixologiya ma'lum bir psixologik mexanizm tushunchasini talqin qilishda ko'plab yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Psixologik amaliyotda esa mutaxassislar mazkur atamani aniqlash, uning semantik yuki orasidagi farqni, mazmun mohiyatining namoyon bo'lishi to'g'risida yaxdil fikr mavjud emasligi yaqqol seziladi. Bu bo'yicha V.N.Voronin, M.V.Iontseva, G.V.Dovjik va O.O.Sviridova kabi olimlar ijtimoiy-psixologik mexanizm va psixologik mexanizm o'rtasidagi tub farqni maxsus tashkil etilgan sharoitlar [2] sifatida ta'kidlab "Buni amalga oshirish jarayonida jamiyatdagi inson xatti-harakati maqsadli ta'sir qilishi ko'rsatiladi" [3]-deb jarayonning natijasi jamiyatdagi yoki

umuman odamning xulq-atvor modellarini shakllantirish vositasi sifatida tahlil qiladi. Albatta bu kabi yondashuvda muloqotni amalga oshiruvchi shaxs yoki shaxslar guruhi bo'lishi mumkinligi muhim sanaladi. YA'ni jarayondagi shaxsning emas, balki jamiyatdagi o'zaro munosabatlarda ishtirok etishning muhimligi zarur ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumot o'rinda aytib o'tish kerak XX asrning ikkinchi yarimida olimlar shaxsning xatti-harakatlarini tuzatish uchun boshqarilishi mumkin bo'lgan qoidalar mavjud degan xulosaga kelishadi va ushbu hodisaga nom berish zarurati paydo bo'lganida aynan "ijtimoiy-psixologik mexanizm" [4] g'oyasi ilgari suriladi. Bu katta va kichik ijtimoiy guruhlarini o'rganish doirasida ijtimoiy ko'maklashish, identifikatsiya qilish, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy xulq-atvorning reaktivligi va boshqa bir qator jarayonlar faol o'rganilishi bilan birga umumiy psixologik toifalar ham ko'rib chiqiladi.

Jumladan psixologik himoya mexanizmining paydo bo'lishi va ishlashi, raqobat rivojlanishining ma'lum bir belgisi sifatida, qo'llanilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda tipik xolat bo'lib hisoblanadi, bu esa ayniqsa sportta psixologik rivojlanishning ma'lum bir yo'nalishini belgilaydi. Sababi, sportchi hayotida muammoli vaziyatlar, konflikt, stress, umidsizlik va boshqalar musoboqa va mashulot jarayonlarida uchrab turishi tabiiy. Bu fanda neyropsixologik kuchlanishning mavjudligi bilan tavsiflanib, sportchi

psixikasining individual dinamik hususiyatlariga va shunga o'xshash vaziyatlarlarda hatti-harakatlarning texnik jihatlariga bo'liq bo'ladi. Bunday holda shaxslararo nizolar sportchining individual nizolariga aylanmaydi, sababi, undagi psixologik himoyalani sh mexa-nizmlar samarali kurash olib boradi [5].

Sport guruhlarida o'zini himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarining buzg'unchi strategiyalar o'rtasidagi farqlari, ularning ko'zlagan maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Bunda sportchining shaxs sifatidagi psixologiyasi u faoliyat yuritayotgan muhitga bo'liq hisoblanadi. CHunki guruhlar murakkab jamoa bo'lib, unda maqsad bir ammo aloqalar turli hil bo'ladi va u ijtimoiy muhit deb nomlanadi. SHuning uchun ham sport guruhlar murabbiy, instruktor, musobaqa jarayonida hakam va boshqa shaxslarning nazorati ostida faoliyat olib boradi.

Agar, guruh a'zolari o'zlarining aloqa va munosabatlarini ko'rsatma va tavsiyalar asosida, yoki ma'lum bir maqom va darajalarni hisobga olgan holda qursalar, vaziyat kesinlashadi. Bunday xolatlarda ijtimoiy-psixologik muhit birinchi navbatda, jamoa tomonidan shaxsga qo'yiladigan talablarning tabiyati va jamoa a'zolarining harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy mezonlarning mazmuni bilan belgilanadi.

Sportchining ruhiy holatidagi salbiy ta'sirlarni bartaraf etishda uning tabiyatidagi "psixologik himoya" deb nomlanuvchi ichki mexanizmning shakllanishi borasida Z. Freyd tomonidan ishlab chiqilgan kontseptsiya foydalanishga kiritilgan. Uning maqsadi ongni qo'rquv, muvaffaqiyatsizlik, tashvish yoki ishonchsizlikning salbiy psixotravmatik oqibatlaridan o'z harakatlarida himoya qilish orqali "Men"-kontseptsiyasining yaxlitligini saqlashdan iborat bo'ladi [6].

Bugungi kunda jahon miqqiyosida olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak turli sport guruhlarida psixologik himoya mexanizmi qo'llanilishi xolatlarining aniqlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda inson o'zining yoki boshqa bironing muvaffaqiyatsizliklarini oqlaydigan xatti-harakatning mantiqiy, ammo ishonchli asoslarni yaratadi ekan.

Sport guruhlarida o'zini himoya qilish mexanizmlarining uzluksizligi uchun bu juda muhim sanaladi. Sababi, musobaqa yoki mashulotlar jarayonida, raqib ya'ni ikkinchi taraf ko'z bilan ko'rish zonasida bo'lsa, oraliq masofani aniqlash imkoniyati majud bo'ladi. Bu degani himoyalani sh yoki hujum qilish texnikasining samarasini paydo qiladi. Agar raqib periferik ya'ni ko'rish zonasini chalg'ita olsa, unda himoyalani sh mexanizmini boshqarish imkoniyati pasayadi, natijada, ximoya masofasini aniq baxolash murakkablashadi [7]. SHuning uchun sportning har qanday turida raqibni ko'rish zonasidan chetga chiqarishga harakat qilib, raqibning qo'rish zonasini chalg'itish muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo'ladi. Sportchining psixologik himoyasining tuzilishi va uning namoyon bo'lishi qanday da bir darajada qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Bu operativ ravishda travmatik hissiyotga "reaktsiya sifatida" psixologik himoya turlari bo'ladi. R.Uayt tipologiyasi bo'yicha ibtidoiy (birlamchi) va mukammal (etuk) himoya mexanizmlarining bo'linishiga to'g'ri keladi.

SHaxsning individual xususiyatlari tufayli erishilgan real vaziyat haqidagi ma'lumotni o'zgartirishning kognitiv va affektiv tarkibiy qismlarini izchil o'zgartirish usullari "Himoya mexanizmlarining ontogenetik rivojlanish va o'rganish mahsuldorligi sanaladi.

Ular ijtimoiy-psixologik moslashuvning o'ziga xos vositasi sifatida rivojlanadi va shaxsning harakatlaridagi salbiy jihatlarni ko'rsatadigan holatlarda turli xil his-tuyg'ularni engish uchun mo'ljallangan [8]. Sportchini psixologik himoya qilish – bu psixika uchun sport faoliyatining ekstremal

sharoitida inson ongi va xatti-harakatlarini ongli ravishda o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari va usullari tizimi hisoblanadi.

Sport guruhlarida himoyalani shning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'rgangan olimlar orasida, insoniyatda qancha himoya mexanizmlari mavjud ekanligi to'g'risida xotimalar yo'q. Lekin psixologik usullar bilan ajralib turishi mumkin bo'lgan qiyosiy vositalarni keltirib o'tish o'rinli bo'ladi. Ular quyidagilar:

Repressiv himoya-bu inkor etilgan motivni yoki ma'lumotni ongdan faollik bilan o'chirish orqali ichki his-tuyg'ulardan qutulishning universal usuli;

Regressiv-harakat va fikrlarning takrorlanish mexanizmlari.

O'zgaruvchanglik-sportta bu mashg'ulot va musobaqalarda yuzaga kelgan chigal muammolarning echimini maqbuli bilan almashtirish va boshqalar [9].

Sportchi shaxsiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi muhim omili og'ir vaziyatlar ta'sirining doimiy tahdididan yuzaga kelishi mumkin. Ular asossiz tanqidlar, yolg'on ma'lumotlar va boshqalar. Bu kabi psixologik ta'sir turlarini o'zida qabul qilgan sportchi ko'pincha salbiy psixologik jarayonlarni boshdan kechiradi va tabiiy ravishda sport faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Ijtimoiy-psixologik himoya tajribasi sportchilar tomonidan qoida tariqasida o'zidan olinadi. Bir necha marotaba og'ir vaziyatlarning ta'siriga tushib qolish va ushbu vaziyatlarda gurux a'zolarining va boshqa ishtirokchilarning harakatlarini tahlil qilish, samarali usullarni tanlash va javob berish usullarini rivojlatiradi. Ammo, sport faoliyatining har bir mavzusi og'ir vaziyatlarda egallangan tajribani anglay olmaydi, tahlil qila olmaydi va zarur xulosalarni chiqara olmaydi. Bu esa og'ir vaziyatlarda paydo bo'ladigan psixologik himoyala-nishning ahamiyatini bekor qiladi.

Shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, sportchi sifatidagi faolligini takomillashtirib borishi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Psixologik nuqtai-nazardan sportchining psixologik himoyasi ekstremal sharoitlarda hulq-atvorni tartibga solish usullari va tizimi bo'lib qoladi. Sportchidagi "Men" tushunchasi psixologik himoyala-nishning yaxlitligini, uning musobaqalarda muvaffaqiyat-sizliklarga uchrashi, undan qo'rqishi, xavotirlanishi yoki salbiy salbiy oqibatlardan himoya qilishdan iborat [10].

Muvaffaqiyatga erishish va unga tayorgarlik xolatini rivojlantirish, jarayonni amalga oshirishning sub'ektiv mexanizmi hisoblanadi.

Sport guruhlarida o'zini himoya qilish mexanizmlarining ijtimoiy psixologik himoyasi ma'lum bir hususiyatlarni o'rganish, sport soxasidagi zamonaviy talablardan kelip chiqqan xolda mashg'ulotlarga yuqori darajada tayyorlanish usullariga mutaxassislar tomonidan ulkan e'tibor qaratiladi. Bu shaxsga doir psixologik qonuniyatlarga ega bo'lgan sub'ektiv individual xodisa bo'lib qoladi.

Ijtimoiy-psixologik himoyalani shning ichki turlarini, tashqi psixologik himoyalani sh deb ajratish mumkin. Tashqi psixologik himoyalani shga, kundalik hayot va sport bilan shug'ullanish, ovqatlanish, dam olish, muloqotning to'g'ri shakllanganligi, moddiy ta'minlash va boshqa bir qator sharoitlar yaratish orqali ta'minlanadi. Bunday sharoitlar rasmiy tuzilmalar, ya'ni sport va sport jamoalarini boshqarish idoralari tomonidan ta'minlanishi mumkin ekanligi nazarda tutilsa, norasmiy muhit, oila, do'stlar, guruh a'zolari, muxlislar va boshqalar nazarda tutiladi.

Ichki va tashqi psixologik himoyani bir-biridan ajrata olish sportchi uchun himoya turini ko'rib chiqishda tabiiy

qadam hisoblanadi. Bu sportchining qobiliyati va psixologik holatini saqlab qolish uchun har tomonlama samarali individual va tashqi choralarini amalga oshirishda talab qilinadi. Chunki, sportchilar, ayniqsa yuqori toifadagi sportchilar o'zlariga yuklatilgan og'ir vazifalarni bajarishda tashqi psixologik himoyaga, qullab-quvvatlashga muxtoj bo'ladi. Sababi, sport guruxlarida psixologik ximoyani shakllantirish va rivojlantirish odatda ularning sport karierasida zarur hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Bunda albatta o'zini psixologik himoya qilish texnikasi, o'zini va atrofidagi insonlarni, jamoa a'zolarini va musobaqa jarayonida esa raqiblarini nazorat qilish, xato va kamchiliklar ustida ishlash zarur bo'ladi. Bu kabi psixologik texnikalarni faollashtirishda qo'llaniladigan usullarning quyidagi uch guruhini ko'rib chiqish kerak.

G'oyaviy va irodaviy moyillik, insondagi stres xolatlar uchun to'siq yaratishga imkon beradi. Bu sportchining e'tiqodi, madaniyati va o'z ustida ishlashning natijasi hisoblanadi [11]. Shu o'rinda ta'kidlay joiz insondagi g'oyaviy va irodaviy moyillik o'zidagi harakatlarning, faol usullari bilan yaratiladi. Bunday holatlarda sportchilarning o'rganish ob'ekti belgilangan vazifalarning og'iriyoki engil turlariga moslashish jarayoni, jismoniy va aqliy hususiyatlari orasidagi munosabat-larni belgilaydi.

Agar moslashuvchaglikni keng ma'noda jarayonni aniqlash deb hisoblaydigan bo'lsak, sportning hususiyatlarini o'rganishda bu raqobatbardosh predmetga aylanadi. Bunda

tizim jismoniy va ruhiy xususiyatlariga ega bo'lgan sportchidagi moslashuvchaglik, yuzaga keladigan psixofiziologik jarayonlardagi tabiiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Sportchilarning sport guruxlaridagi jismoniy va ruhiy tayyorgarligi qanchalik yaxshi bo'lsa, har qanday xolatda ham stressdan chiqishga qiyinchilik sezmaydi [12]. Qolaverdi mashg'ulotlarning turli bosqichlarida jismoniy va ruhiy charchashlarga chidam va ulardan psixologik himoyalaniishning uzoq muddatli stimullarini o'zida seza boshlaydi.

Xulosa va takliflar. Sportda faoliyatning muvaffaqiyati o'sha muhitga moslashish jarayonlariga sezilarli ta'sir qiladi. Muvaffaqiyat esa har bir sportchining kelajakdagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, muvaffaqiyatsizlik psixikaning moslashish qobiliyatini pasaytirib, qo'shimcha stress holatlarning omili sifatida harakat qilinadi.

Bu zamonaviy sportda sportchi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jismoniy va ruhiy stresslar bilan kurashish zarurligi belgilanadi. Gurux a'zolari va ma'muriy va murabbiylar sportchilarning individual psixologik himoyasining takomil-lashish jarayonini talab qilishi o'rinli bo'ladi. Bunda psixologik ximoyaning tarkibi ongda funktsional ravishda to'yinganligi, undan kompleks yondashuvdan foydalanishni zarurligi nazarda tutiladi. Bunday yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ichki va tashqi psixologik himoya mexanizmini ko'rib chiqish, kognitiv baxolash zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni. Toshkent 28.01.2022
2. Nazarov.A.M., Nusratova M.B."Sportchi talabalarida psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirishning o'ziga xos usullar" //Psixologiya-ilmiy jurnali №4, 2021-yil. 28-b.
3. Донцов Д. А. Механизмы психологической защиты личности. М.: МГПУ, 2006.
4. Назаренко Т. И. Психологическое сопровождение профессионально-личностного роста студентов спортивного факультета в условиях компетентностного подхода //Актуальные проблемы личности в современной социальной среде: коллективная монография / под общ. ред. проф. Н. И. Медведевой. Ставрополь: Изд-во СКФУ, 2015. С. 169 –185.
5. Краснянская Т. М. Безопасность человека: психологический аспект: учебное пособие / под ред. А. В. Непомнящего. Ставрополь: ЗАО Пресса, 2005. 216 с.
6. Руськина Е. Н. Исследования возможностей подготовки студента - будущего тренера к развитию психологический аспект: учебное пособие / под ред. А. В. Непомнящего. Ставрополь: ЗАО Пресса, 2005. 216 с.
7. Киршбаум, Э.М. Психологическая защита / Э.М. Киршбаум, А.М. Еремеева. – 2-е изд. – М.: Смысл, 2000. – 181 с.
8. Фрейд, А. Эго и механизмы защиты / А. Фрейд; пер. с англ. М.Р. Гинзбурга. – М.: Эксмо, 2003. – 233 с.
9. Бассин, Ф.В. Проблемы бессознательного / Ф.В. Бассин. – М., 1968. – 197 с.
10. Самосознание и защитные механизмы личности: хрестоматия / под ред Д.Я. Райгородского – Самара: БАХРАХ-М, 2003. – 656 с.
11. Васильюк, Ф.Е. Психология переживания / Ф.Е. Васильюк. – М.: МГУ, 1984. – 198 с
12. Лапланш, Ж. Словарь по психоанализу / Ж. Лапланш; пер. с фр. и предисл. Н.С. Автономовой. – М.: Высшая школа, 1996. – 623 с.



Ibodulla ERGASHEV,

O‘zbekiston Milliy universiteti professori, s.f.d

E-mail: i.ergashev@nuu.uz

Mansur NABIYEV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: m_nabiev@gmail.com

CHDPU professori, s.f.d. N.Nazarov tarqizi asosida.

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY G‘OYALAR TRANSFORMATSIYASINING DEMOKRATIK ASOSLARI VA PRINSIPLARI

Annotatsiya

Mamlakatda demokratik jamiyat qurish jarayonida ijtimoiy g‘oyalarni transformatsiyasini o‘rganish va tadqiq etish orqali ma’lum bir xulosalar qabul qilish zarurati mavjud. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ijtimoiy g‘oyalarning o‘rni va ahamiyati, ijtimoiy g‘oyalarni transformatsiyasining demokratik asoslari va prinsiplari, mamlakatdagi islohotlar jarayonida ijtimoiy g‘oyalarning aks etishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: demokratik jamiyat, ijtimoiy g‘oya, milliy-ma’naviy meros, milliy g‘oya, umuminsoniy g‘oya, transformatsiya, ijtimoiy g‘oya prinsiplari.

DEMOCRATIC FOUNDATIONS AND PRINCIPLES OF THE TRANSFORMATION OF SOCIAL IDEAS IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

In the process of building a democratic society in the country, there is a need to make certain conclusions by studying and researching the transformation of social ideas. This article reveals the role and importance of social ideas in the establishment of a new Uzbekistan, the democratic foundations and principles of the transformation of social ideas, the reflection of social ideas in the process of reforms in the country.

Key words: democratic society, social idea, national and spiritual heritage, national idea, universal idea, transformation, principles of social idea.

ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРИНЦИПЫ ТРАНСФОРМАЦИИ СОЦИАЛЬНЫХ ИДЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В процессе построения демократического общества в стране возникает необходимость принятия определенных выводов путем изучения и исследования трансформации общественных идей. В данной статье раскрыты роль и значение социальных идей в становлении нового Узбекистана, демократические основы и принципы трансформации социальных идей, отражение социальных идей в процессе реформ в стране.

Ключевые слова: демократическое общество, социальная идея, национально-духовное наследие, национальная идея, общечеловеческая идея, преобразование, принципы социальной идеи.

Kirish. Mamlakatda demokratik jamiyat kurish o‘z-o‘zidan amalga oshadigan jarayon emas. Demokratik jamiyat qurishda ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalarni tushunishga, uning yangicha mazmun-mohiyatini idrok etish orqali, uning asosiy tamoyillarini to‘g‘ri talqin etish bevosita bog‘liq. Ijtimoiy g‘oyalarni transformatsiyasining demokratik asoslari va tamoyillari ijtimoiy hayot asoslari tayanadigan tamoyillariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda ijtimoiy hayotni siyosiy institutlar xilma xilligiga, mafkuralar xilma-xilligiga va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlarining mazmun va harakterini belgilab beradi. Jamiyat hayotida milliy va umuminsoniy g‘oyalarni ko‘p jihatda ijtimoiy g‘oyalarni asosini tashkil etadi. Ijtimoiy g‘oyalarning jamiyat turmush tarzidagi transformatsiyasi demokratik jamiyatning muhim sharti hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda Yangi O‘zbekistonni ijtimoiy davlat poydevori sifatida ko‘rilishi, - “Biz o‘n yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “Inson –

jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘tildi. Yurtimizda “Davlat – inson uchun” g‘oyasi amal qila boshladi. Qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash – Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.”[1]. Bir so‘z bilan aytganda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar “islohot-islohot uchun emas, islohot-insonlar uchun” tamoyilining to‘liq ro‘yobini ko‘rish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. Insoniyatning uzoq yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, barcha davrlarda tom ma’nodan demokratik jamiyat qurish bilan bog‘liq ezgu g‘oyalarni ilgari surilgan. Bu ezgu maqsadlarga erishish yo‘lida gohida evolyutsion yoki revolyutsion yo‘llar tanlangan hamda ularning asosini nazariy qarashlar tashkil etgan. Demokratik jamiyat qurish, uning asoslari va tarixi ayrim siyosatshunos va faylasuf olimlarning qarashlariga ko‘ra Sharq tamadduni mahsuli sifatida qaralsa, ikkinchi guruh olimlarining fikriga ko‘ra G‘arb rivojlanishining asosi sifatida qaraladi. Umuman olganda, SHarq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari komil

insonni tarbiyalash, adolatparvarlik, insonparvarlik haqidagi ijtimoiy g'oyalar bilan mushtarakdir[2].

Ijtimoiy g'oyalarning rivojlanishining tarixiy ildizlaridan biri bo'lgan ma'rifatparvarlik g'oyasi namoyondalaridan biri M.Behbudiyning fikrichi: «Islolni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi»[3].

A.Fitrat mamlakat taqdiri oilaviy munosabatlarga ham bog'liq ekanini alohida ta'kidlaydi, «Millatning taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi»[4].

A.Ochildiyev «Mamlakatimiz uchun ijtimoiy g'oyalar asosida shakllangan milliy g'oya, milliy istiqloq mafkurasi haqidagi masalaning qo'yilishi ham hayotiy ehtiyojning inikosi bo'lganligini ta'kidlash zarur»[5], deb, ijtimoiy g'oya millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning muhim omili ekanligini izohlaydi.

Q.Nazarov ijtimoiy g'oyalarning ta'siri haqida gapirib, «ijtimoiy g'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo'lsada, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. Ijtimoiy g'oyalar shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy ma'naviy kuchga aylanadi»[6], deydi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik davrini olib qaraydigan bo'lsak, bu qisqa davr ichida to'rtta taraqqiyot dasturlari qabul qilingan bo'lib, ularning har biri ma'lum yillar mobaynida mamlakatimiz taraqqiyotining asosini tashkil etgan. Bugungi kunga kelib demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq asosiy vazifalar belgilab olindi va bu yo'lda safarbarlik ham joriy etildi. «Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlarini, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Buni hayotimizning o'zi isbotlab bermoqda»[7]. Hali xanuzgacha yer yuzidagi hech bir davlat to'laqonli demokratik davlat qurgan emas. Bu masala kun tartibida chiqib ham ketgan emas.

O'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda jahon hamjamiyatining munosib va teng huquqli a'zosi sifatida barcha sohalar taraqqiyoti jihatdan o'zini namoyon qilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida fuqarolar tinchligini ta'minlash va milliy kelishuviga erishish, qisqa muddatli siyosiy vazifalar sifatida qad tiklagan bo'lsa, insonparvar demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish – strategik maqsad qilib belgilanadi.

Jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o'zgarishlarning asosiy maqsadi bo'lgan demokratik davlat, huquqiy jamiyat qonunning ustuvorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. SHunga ko'ra, xalqimiz va mamlakatimizning bugungi hamda kelgusi taraqqiyotini ta'minlashda mustaqillik yillarida va undan oldingi boy tariximiz davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasi muhim o'rin tutadi.

Tahlil vanatijalar. Ma'lumki, jamiyat hayotida ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib demokratik jamiyat tamoyillari xalq, davlat, millat va har bir fuqaroni porloq kelajakka safarbar eta oladigan, rivojlanish va taraqqiyotga undovchi ma'naviy birlashtiruvchi ehtiyoj hamda mamlakat yuksalishning omillari sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatda demokratiya, demokratik jamiyat tamoyillarining

milliy va umuminsoniy tamoyillari mushtarakligi asosida shakllangan ijtimoiy g'oyalar yotadi. Bir so'z bilan aytganda adolatlilik demokratik jamiyat qurish masalasi jamiyat a'zolarining ongi, tafakkuri va qalbiga milliylikka asoslangan ijtimoiy g'oyalarning qay darajada o'rin olganligiga bog'liq.

Jamiyat hayotidagi ijtimoiy g'oyalar milliy g'oya va mafkuralarning namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Milliy g'oya – shu xalqning o'tmishi, buguni va kelajakini o'zida mujassam etgan, ularning tub maqsadlariga xizmat qiladigan, taraqqiyot sari yetaklovchi ijtimoiy g'oyalar majmuyi hisoblanadi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, «Insoniyatning ko'p asrlilik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda, umumiy yagona maqsad va orzu intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi»[8].

Milliy g'oya – istiqloq mafkurasining tub mundarijasi, milliy yurtning buyuk maqsadlari sari chorlovchi, safarbar etuvchi mayoq. Milliy g'oya ixtiro etilmaydi. Har davrning, har bir xalqning o'z kamolot g'oyalariga ega bo'lishi - qonuniyat. SHu nuqtai nazardan milliy g'oya millat uyg'un kamolotining, komilliy-ma'naviy-ma'rifiy istiqbol sari intilishining ma'naviy ruhiy, axloqiy asosi, bosh maqsad taktik yo'li hamda strategiyasi[9].

Ilmiy izlanishlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, milliy g'oya davlat va jamiyatning qarashlari, intilish, xohish va maqsadlari majmuidan iborat bo'libgina qolmasdan, balki u xalqimizning tarixiy, etnik hamda ijtimoiy taraqqiyotning huquqiy asoslarini, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy omillari, ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarini ham o'zida mujassam etadi, shuning uchun ham milliy g'oyaning vujudga kelishining xalqimiz ruhiyati, mafkuraviy, siyosiy jarayonlar bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilish faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga molikdir. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning o'ziga xosligi, milliy g'oya, xalqimiz tarixiy xotirasi, madaniy merosi, qadriyatlarini, an'ana, urf-odatlarini, orzu-umidlari namoyon bo'lishini o'rganishni muayyan zaruriyatga aylantiradi. Jamiyat hayotida ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasida milliy va umuminsoniy g'oyalarning demokratik asoslarini talqinini quyidagi asoslarda ko'rishimiz mumkin:

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokolonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Bu ijtimoiy g'oyalarning tarixiy va ma'naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;

- ijtimoiy g'oyalarning adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini o'zida aks ettiradi. Bilamizki, bu ulug' ijtimoiy g'oyalar istiqloq sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi;

- ijtimoiy g'oyalar jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Ijtimoiy g'oyalarda fikrlar rang-barangligi, e'tiqod erkinligi kabi demokratik tamoyillariga amal qilgan holda hayotga joriy etilishidan dalolat beradi»[10].

Muhokama. Shakllanayotgan milliy demokratik jamiyat kishilarning ongidagi o'zgarishlarning asosiy mezonini va ko'rsatkichiga aylangandagina o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishi mumkin. Bunda, bir tomondan, ijtimoiy g'oyalarning umumiy qarashlar, xulosalar tarzida

namoyon bo'lishi jarayoni bosqichlardan o'tishi, ikkinchi tomondan, demokratik jamiyatning barcha sohalarida faoliyat yurgizayotgan shaxslar ijtimoiy-g'oyaviy kamolot darajalariga ega bo'lishi zarur.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish tamoyillari ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, islohotlar bilan hamohang uyg'unligi, kishilar ongida ijtimoiy o'zgarishlarning ob'ektiv in'ikosi tarzida vujudga kelishi, aholining mutlaq ko'pchiligi uchun zaruriy iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojga aylanishi, ijtimoiy ong, ya'ni psixologik va mafkuraviy tuyg'ularning uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi. Davlat va xalq qarshisida ko'ndalang bo'lgan muammolarning yechimlarini o'zida aks ettiradi hamda ularni hal etish uchun jamiyat a'zolarini birlashtirishga xizmat qiladi. Mustaqillikni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikning davomiyligini ta'minlash jamiyatning barcha qatlamlarini umummanfaat uchun jipslashtiradi. Fuqarolarning hamkorligini yuqori darajaga ko'tarish omiliga aylanadi hamda milliy-etnik birliklar va diniy qavmlarning siyosiy hayotda muayyan partiya vakili tarzida emas, balki mamlakatning Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan tenglik tamoyili asosida, fuqaro sifatida ishtirok etishi uchun ma'naviy shart-sharoit-larning vujudga kelishiga yordam beradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish tamoyillari davlat, mamlakat hamda fuqarolarni kelajakka da'vat qiladigan ma'naviy ehtiyoj, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar aql-zakovati hamda salohiyatini o'zida ifodalaydi. SHu bilan birga, respublikamizning turli mintaqalarida yashaydigan aholi o'rtasida mahalliylik, qarindosh-urug'chilik kabi sub'ektiv

hissiyotlarning ustuvor bo'lmasligiga, turli intilish hamda harakatlarni umumxalq va yagona Vatan manfaatlarini yo'lida uyg'unlashtirishga imkon yaratadi.

Demokratik jamiyat barpo etishda ijtimoiy g'oyalar va boshqa zaruriy omillar bilan uyg'un holatda qo'yidagi tamoyillarni o'zida ifodalaydi:

-har bir fuqaro o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etish;

-shaxsning manfaatlarini birlamchiligini tan olgan holda, xalqning umumiy manfaatlarini ta'minlash;

-demokratik siyosiy tizimni shakllantirishda fuqarolarni mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini kuchaytirish.

Bu ijtimoiy g'oyalar asosida shakllangan tamoyillar, shaxs o'z xalqining tarixiy-madaniy va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlaridan, jamiyatdan begonalashuvining, xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi bilan bog'liq ziddiyatlar antagonistik kurashlarga aylanib ketishining oldini oladi.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining demokratik asoslari va printsiplarining hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar bilan chambarchas bog'liq tomonlari ochib berilgan va quyidagicha xulosalarga kelingan. Jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy g'oyalar milliy va umuminsoniy g'oyalar asosida shakllanishi hamda rivojlanishi tahliliy o'rganilgan, ijtimoiy g'oyalar transformatsiya jarayonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar natijasida vujudga kelish asoslari tadqiq etilgan. Davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasi jarayonlarida milliy va umuminsoniy g'oyalarning demokratik asoslari muhim va ustuvorlik kashf etuvchi tomonlari ochib berilgan;

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 46-48.
2. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. -T.: Fan, 1968.-486 b.; Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. -T.: Ma'naviyat, 1999.- B. 228.
4. Fitrat Abdurauf. Rahbari najot. -T.: SHarq, 2000. – B. 176.
5. Ochilidiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: O'zbekiston, 2004, – B. 133.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (Izohli ko'rgazmali vositalar to'plami).-T.: Yangi asr avlodi, 2001.- B.80.
7. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. Tom 22. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2014. – B. 81-82.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch –T.:Ma'naviyat, 2013. – B. 71.
9. Milliy g'oya va mafkuraning falsafiy huquqiy fanlar rivojidadagi ahamiyati.-T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. – B. 17.
10. Ergashev I. va boshqalar. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati – T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – B. 207 – 208.



Saida ERGASHEVA,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti v.v.b

E-mail: (ergasheva.saida99@mail.ru)

“Madaniyat va san'at menejment” kafedrası mudiri t.f.n T.Fayziev taqrizi asosida

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasi tarixi qadimiydir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga kelgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ma'naviyatni yuksaltirish uchun avvalo madaniyat tarixini chuqur bilmoq, idrok etmoq zarur.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, tarix, qadimiy, insoniyat, davr, ilmiy, adabiyot, xalqlar, markaz, bag'rikenglik, insonparvarlik, Fan-texnika, taraqqiy, konsepsiya, madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy, mustaqillik, millat.

ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА.

Аннотация

В этой статье история области культуры и искусства имеет древнюю историю. Ее корни уходят во времена первых объединений человечества. В научной литературе трактуется, что первые формы объединения сформировались в каменном, бронзовом и железном веках. В этот период культурная социализация людей возникла из необходимости обеспечения жизни и определения ее стабильной продолжительности. Следует подчеркнуть, что для повышения духовности, прежде всего, необходимо глубоко знать и понимать историю культуры.

Ключевые слова: культура, искусство, история, древняя, человечество, эпоха, научная, литература, народы, центр, толерантность, гуманитарная, наука и техника, прогрессивный, концептуальный, культурно-духовный, социально-экономический, национальный, независимость, нация.

HISTORY AND MODERN CONCEPTS OF DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART

Annotation

In this article, the history of the field of culture and art is ancient. Its roots go back to the time of the first associations of mankind. It is interpreted in the scientific literature that the first forms of association were formed in the stone, bronze, and iron ages. During this period, the cultural socialization of people arose from the need to ensure life and determine its stable duration. It should be emphasized that in order to raise spirituality, first of all, it is necessary to deeply know and understand the history of culture.

Key words: culture, art, history, ancient, humanity, era, scientific, literature, peoples, center, tolerance, humanitarian, science and technology, progressive, concept, cultural-spiritual, socio-economic, national, independence, nation.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan madaniyati taraqqiy etgan o'lkalardan biri edi. Ushbu ulkan hududning markazida joylashgan ko'hna Baqtriya (hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari)ning antik madaniyati eramizning I-II asrlariga mansubdir. Baqtriya davlati qadimgi yuksak madaniyatga ega bo'lgan hind, eron, grek va rimliklar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Xorazmda quldorlik jamiyati taraqqiyotida madaniyat va san'atning eng gullab-yashnagan davri eramizdan avvalgi IV asrdan eramizning I asrigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Hatto, X asrga kelib ham Markaziy Osiyo madaniyati G'arbiy Ovro'pa madaniyatidan ustun bo'lganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sohbiqiron Amir Temur davriga kelib madaniyatimiz yanada taraqqiy etdi. Bu haqda ingliz san'atshunos olimi F.R. Martin: «Temuriylar singari san'atni va madaniyatni qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan, – deb qayd qiladi. Qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov: «O'zbek xalqining tarixi juda ko'hna va boy. Qadim-qadimda o'zbek madaniyatining Markaziy Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash

mumkin», – deb ta'kidlagan. Ming afsuski, biz Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar madaniyatimiz tarixini o'rganish, targ'ib-tashviq etishga e'tibor bermadik. Turg'unlik yillarida bunday loqaydlik avj oldi, chunki chekka o'lkalardagi xalqlar madaniyati markaz madaniyatidan qadimiyroq ekanligi ba'zi kimsalarga yoqmasdi. Bu davrlarda milliy madaniyat tarixiga tanqidiy qarashlar keskinlashdi. Ammo haqiqat ertami-kechmi ma'lum bo'lishi turgan gap edi. Bugungi inqilobiy davrda har bir xalqning milliy o'zligini anglash, o'z milliy madaniyati tarixini bilishga bo'lgan qiziqishi nihoyatda kuchayib bormoqda. Endi biz ham insoniyat o'z milliy madaniyati tarixini bilmasa, unutsa yoki mensimay qo'ysa, har qanday oliy maqsad ham amaliy hayotdan va zamindan mahrum bo'lishini yanada chuqurroq, yurakdan his qilmoqdamiz. Darhaqiqat, Vatanga muhabbat yuksak ma'naviyat mavjud joydagina tantana qiladi. Aholisi axloqsiz, millati ma'naviy qashshoq mamlakatning kelajagi bo'lmaydi. Davlatning ravnaqi hamma vaqt aqliy imkoniyatning beqiyos kuchiga, ong va tafakkur rivojiga muhtoj ekangligini, unga tayanish va suyanish lozimligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Uni zarurat darajasiga ko'tarmoqda. Demak, milliy mustaqillik mohiyatida

millatning amaliy faoliyati bilan bir paytda hatto undan ham oldin, uning ongi, muayyan qarashlari aks etadi

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, ma'naviy barkamol, axloqiy yetuk, har tomonlama kamolotga yetgan xalqi bor jamiyat ham, davlat ham qudratli bo'ladi. O'tkir zakovat bilan oqilona siyosat olib borayotgan respublikamiz rahbariyati o'tish davrining islohotlarida faqat iqtisodiy masalalar bilan cheklanib qolmay, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, xalq madaniyati, ma'naviyati va ruhiy ma'naviy salohiyati mamlakatimiz taraqqiyotining taqdirini hal qilishdagi asosiy vositalardan biri ekanligiga alohida e'tibor bermoqda. Ona tilimizga davlat maqomi berildi, Navro'z singari milliy urf-odat va an'alarimiz tiklandi, otobobolarimiz e'tiqod qilib kelgan islom dinining inson va uning oilasi hayotidagi, odob-axloq va xayr-saxovat borasidagi ahamiyati yuqori ko'tarilmoqda. Bu ishlar bilan bir qatorda ma'naviyat, madaniyat, san'at sohasini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida qator farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Ushbu farmonlar va qarorlar xalqimizning ko'p ming yillik madaniy merosini yangidan tiklashga, madaniyatning moddiy asoslarini qaytadan yaratishga, yoshlarni vatanparvarlik va milliy g'oyaga sadoqat ruhida tarbiyalash, san'atsevar xalqimizning milliy qo'shiqlarini asrab-avaylash va uni yanada rivojlantirish hamda bu ma'naviy boyliklardan millatning bebaho mulki, boy xazinasi, qolaversa, jamiyat ma'naviyati taraqqiyotining manbai sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi.

Yevropada «Madaniyat» deyilganda dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lotincha cultura – yerni ishlash, parvarishlash; ruschadagi «kultura» so'zi ham shundan olingan). Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan.

Tahlil va natijalar. Madaniyatga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xos. (Masalan, qadimda Xitoyda jen, Hindistonda dxarma). Ellinlar «madaniyatsiz» varvarlardan o'zlarining asosiy farqini «paydey», ya'ni «tarbiyalanganlik»da deb bilganlar. Qadimda Rimning so'nggi davrlarida «Madaniyat» tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o'rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi.

Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiyalariga qarama-qarshi o'laroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi qoidalardan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda madaniyatning sinfiy xarakteri haqidagi tartiblarni ilgari surdi. Antagonistik formatsiyalarda har bir milliy madaniyatda ikki madaniyat borligi haqidagi qarash «hukmron ekspluatatorlik» madaniyatiga «progressiv demokratik» va «sotsialistik» madaniyat elementlarini qarama-qarshi qo'ydi.

Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy estetik ideal nuqtayi nazaridan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi o'rmini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida jiddiy bahslarga sabab bo'lgan. Shunga ko'ra, san'at mazmuni obyektiv va subyektiv, hayotiy va xayoliy omillar birligidan tashkil topadi. San'atning ijtimoiy estetik vazifalari juda keng va xilma-xil.

Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgari jamiyatning madaniy-ma'naviy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi. Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiyalariga qarama-qarshi o'laroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o'zaro munosabati haqidagi qoidalardan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda madaniyatning sinfiy xarakteri haqidagi qoidalarni ilgari surdi. Madaniyat – umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san'at asarlari, huquq, axloq normalari va hokazolar)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko'nikmalari, ishlab chiqarish va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari)ni ham o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning ikki asosiy turi – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat – moddiy faoliyatning barcha sohalarni hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Har bir jamiyatning madaniyati va san'ati o'zining g'oyaviy yo'nalishiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat va san'atning tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat va san'at taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat va san'at yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlaridan voz kechilganini anglatmaydi.

Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgari jamiyatning madaniy-ma'naviy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat va san'at sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning va san'atning keng miqyosda rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi.

Xulosa va takliflar. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo'lgan so'nggi yetmish yil davomida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G'arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatimiz va san'atimizning boy o'tmishi bir yoqlama o'rganilib, uning ko'pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyat va san'atni yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlar-rimimiz, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bir qancha farmon va qarorlarning qabul qilinishi, buyuk ajdodlarimiz va mutafakkir allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubileylari xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatni rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir.

ADABIYOTLAR

1. Haydarov A. – Siyosiy madaniyat mas'uliyati. O'quv-qo'llanma. T.: – «Tafakkur», 2009.

2. Qoraboyev U. Etnokultura. Darslik. – T.:2005.
3. Qoraboyev U. – Madaniyat masalalari. O'quv qo'llanma. – T.: 2009.
4. Qoraboyev U. – O'zbek xalqi bayramlari. O'quv qo'llanma. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2002.
5. Qoraboyev U. O'zbekiston madaniyati. O'quv qo'llanma. – T.: «Tafakkur bo'stoni», 2001.
6. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. B.S.Sayfullayev tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 352-b.
7. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Darslik. – Toshkent: «Aloqachi», 2008. – 424 b.
8. Haydarov A. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish. O'quv qo'llanma. –T.: «Kamalak» nashriyoti. 2019. – 198 b.
9. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: «Oltin meros press». 2021. – 478 b.
10. Nemis xalq universitetlari assotsiatsiyasining (DVV) O'zbekistondagi filiali. Madaniyat markazlarida barcha uchun ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish".–T.: "Fan va texnologiyalar nashryoti-matbaa uyi" 2020-y.
11. Xolov A. "Boshqaruv qarorlari ijrosini ta'minlashda rahbar mas'uliyati" Risloa.–T, "Akademiya" nashryoti. 2013.124 b.



Jamila ERMETOVA,
Professor, head of the Department of
Foreign Language and Literature, UrSU,
E-mail: jamilamasharipova@gmail.com
Yulduz BABAJANOVA,
Master of Linguistics, UrSU,
E-mail: babajanovayulduz@gmail.com

Reviewer: PhD Olloyorov Q. (UrSU)

THEORIES INTO THE STUDIES ON THE LEADERSHIP

Annotation

This article focuses on the interpretation of the concept of “leadership” in modern literature. It is known that leadership includes eloquence, control, being an example, logical management, as well as cooperation and emotional intelligence. Therefore, in this article, we will focus on the researches in various fields and their general characteristics aimed at researching this concept.

Key words: Leadership, influence, intelligence, control, culture, flexibility, goal achievement.

ТЕОРИИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЛИДЕРСТВА

Аннотация

Данная статья посвящена трактовке понятия «лидерство» в современной литературе. Известно, что лидерство включает в себя красноречие, контроль, подачу примера, логическое управление, а также сотрудничество и эмоциональный интеллект. Поэтому в этой статье мы остановимся на исследованиях в различных областях и их общей характеристике, направленных на исследование этого понятия.

Ключевые слова: Лидерство, влияние, интеллект, контроль, культура, гибкость, достижение цели.

LIDERLIK BO‘YICHA TADQIQOTLARGA OID NAZARIYALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada “liderlik” konseptining zamonaviy adabiyotlardagi talqiniga to‘xtalib o‘tiladi. Ma’lumki, liderlik o‘zida notiqlik, yetakchilik, namuna bo‘la olish, mantiqiy boshqaruv, shuningdek, hamkorlik va hissiy intellektni qamrab oladi. Shu sababli, ushbu maqolada mazkur konsept tadqiqotiga qaratilgan turli sohalaridagi tadqiqotlar va ularning umumiy xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Kalit so‘zlar: Yetakchilik, ta’sir, intellekt, liderlik, madaniyat, moslashuvchanlik, maqsadga erishish.

In the ever-evolving process of human endeavors, the role of leadership stands as a timeless and pivotal force shaping the course of societies, organizations, and communities. As we traverse the complex terrain of the 21st century, the study of leadership has burgeoned into a multifaceted exploration, intertwining various theories and perspectives. In this term, Joanne B.Ciulla said that “Most of the leadership literature comes from business schools and researchers with backgrounds in organizational behaviour and social and industrial psychology” [1]. These notion proves our idea that the leadership studies range from classical notions of leadership rooted in charisma and authority to contemporary models emphasizing collaboration and emotional intelligence. However, we, first of all, prefer to define the leadership as a term and then discuss different theories directed on its research.

The diverse perspectives on leadership put forth by renowned scholars offer a rich source of insights into the multifaceted nature of this influential phenomenon. In particular, P.Drucker notes the most concise definition to the leader: “A leader is someone who has followers” [2]. His definition encapsulates the essence of leadership by emphasizing the fundamental connection between leaders and their followers. In essence, the existence of followers defines the core meaning of leadership, highlighting the reciprocal

relationship between those who lead and those who choose to follow.

According to A.Marturano “We call something “leadership” or a “work of art” based on the values, norms, beliefs and needs of followers/readers” [3]. Following his idea, he states that “a follower is able to give meaning to attribution of propositional attitudes such as “charisma” or “authoritarian” to leaders by relating those terms to a pre-existing (public) understanding encoded in a dictionary” [4]. The author’s emphasis on the subjective nature of leadership underscores the role of followers in attributing meaning to leadership traits such as charisma or authoritarianism.

According to V.Newman and K.Chaharbaghi “Leadership has to fulfil a matter of fact which lies in a certain logic: Leadership premises inferiors. If there are no inferiors, there is no context for leadership” [5]. Introducing a pragmatic dimension by asserting that leadership, by its very nature, presupposes the existence of inferiors, leadership is contextualized within a hierarchical structure, where leaders guide and direct those in subordinate positions. This perspective introduces a certain logic to leadership, positioning it as a relational dynamic between leaders and those they lead.

As S.Sjorstrand and M.Tyrstrup states: “Leadership is understood as the creation, encouragement and support of expectations, perspectives and activities in organizations,

which are implemented by different interacting individuals" [6]. Building upon these foundational ideas, the emphasis on the interactive nature of leadership highlights its dynamic and evolving character, pointing out that effective leadership is not a one-way street but rather a collaborative process involving various individuals within the organizational system.

In synthesizing these perspectives, it becomes evident that leadership is a multifaceted phenomenon, shaped by the interplay of leaders and followers, societal values, and organizational contexts. By considering these varied viewpoints, we gain a comprehensive understanding of the intricate and evolving nature of leadership in the complex human interactions and organizational dynamics.

In the vast realm of leadership literature, a recurrent theme emerges wherein the distinctive features and qualities of leaders take center stage. Authors and scholars frequently delve into the nuanced characteristics that define effective leadership. As J. Forgas and K. Williams noted that the whole influence process should be analyzed in the interaction between the mental (cognitive) and the behavioural aspects of social influence processes of both parties. We have to imagine, that the influence process does not only work on the level of direct and face-to-face influence phenomena. Influence also works at cognitive, group, social, cultural or organizational levels [7]. This perspective aligns with a more holistic understanding of social dynamics, acknowledging that the impact of influence extends beyond individual interactions to shape broader cognitive frameworks and organizational structures. In essence, the idea underscores the interconnectedness of the cognitive and behavioral realms in social influence, urging a comprehensive exploration that considers the multifaceted layers through which influence operates.

S. Burla et al, states that "the context, in which the interactions between leaders and followers expire, diversify depending on the organization (e.g. organisational dynamics like cultures, sub-cultures, working groups, processes, organisational structures, products and services etc.). The result is a certain leadership culture, which is shown as culture-caused leadership behaviour in an organization" [8]. The notion of a "leadership culture" emerging from this context-driven interplay is particularly insightful, emphasizing how organizational culture can shape and, in turn, be reflected in leadership behaviors. This perspective aligns with the understanding that leadership is not a one-size-fits-all phenomenon but is intricately molded by the unique characteristics and complexities of each organizational setting. Recognizing the impact of context on leadership behavior encourages a more tailored and adaptive approach to leadership, acknowledging that effective leaders must navigate and respond to the specific intricacies of their organizational skills.

M. Pligh and J. Robinson pays attention to the speaking skills of the leader: "Especially, a charismatic leader—the leader on whom people faithfully rely and are willing to take actions according to proposed plans—is the one who can successfully navigate through critical difficulties, distinctively achieve ultimate goals, and bring about peace and prosperity to the nation" [9]. The idea presented aligns with the charismatic leadership theory, which posits that leaders who exude charisma can have a profound impact on their followers' beliefs, attitudes, and behaviors. This influence can be particularly potent in times of crisis or when facing complex challenges. However, it is essential to note that while charisma can be a powerful leadership trait, its effectiveness may vary depending on the context and the ethical use of this influence. Leaders must balance charisma with other

leadership qualities to ensure a well-rounded and sustainable approach to achieving long-term goals and fostering stability within a nation.

J. Mio et al sees the language skill, namely "rhetoric" as truly a material indicator for the leader's success [10]. S. Rungrasuwana analyzes the three specific features of the leaders, in particular, humbleness, persuasiveness, and solidarity [11].

Amidst the extensive body of research and various interpretations of leadership, a few key elements emerge as fundamental to understanding the essence of leadership [12]:

1. Leadership is a dynamic process rooted in influence, signifying a social process where tasks are accomplished through interactions with individuals.

2. Leadership unfolds within the context of a group, as leaders collaborate with their teams to bring their vision to fruition. Effective leaders inspire and motivate team members to deliver exceptional performance.

3. Goal attainment is a central aspect of leadership, with teams striving to achieve desired outcomes. Leadership is essential in providing direction and guiding the way, emphasizing the necessity for someone to set the course and offer guidance in the pursuit of objectives.

F. Fiedler conducted influential research where he identified two primary leadership styles: task-oriented and relationship-oriented [13]. According to him, the effectiveness of leadership hinges on various factors within a given situation, such as the nature of tasks, power dynamics, and the quality of relationships between leaders and followers. It is crucial to examine leadership through the lens of the interplay and structuring of individual humans, their interactions, and the organizational elements like structure and culture. This viewpoint suggests that there is no one-size-fits-all leadership style, and the appropriateness of a particular leadership approach depends on the specific context in which it is applied. In our opinion, this includes the following features:

1. Different tasks may require different leadership styles. For instance, complex and challenging tasks might benefit from a more relationship-oriented leadership style, whereas routine tasks may be more effectively managed with a task-oriented approach.

2. Recognizing power dynamics is crucial for effective leadership. Understanding who holds power and how it is distributed within an organization can influence leadership strategies. Effective leaders navigate power structures to foster collaboration and achieve organizational goals.

3. The relationships between leaders and followers play a significant role in leadership effectiveness. A leader who fosters positive relationships, trust, and effective communication is likely to have a more motivated and engaged team.

R. Osborn et al. call for a fundamental shift in the perspective on leadership, emphasizing the need for leaders to adapt to diverse environments. Acknowledging the specific context of leadership provides valuable insights into addressing specific challenges within leadership [14]. In the contemporary landscape of organizations, characterized by rapid changes and increasing complexity, the traditional notion of a static and universally applicable leadership style appears insufficient. The recognition of the need for leaders to be adaptable aligns with the dynamic nature of today's workplaces, where leaders must navigate through a variety of challenges stemming from technological advancements, global interconnectivity, and diverse workforces.

In conclusion, by examining the interplay between leaders and followers, the impact of organizational culture,

and the dynamic aspects of leadership, we gain a comprehensive understanding of this influential phenomenon.

Recognizing the subjective nature of leadership traits, the contextual logic of hierarchical structures, and the interactive dynamics within organizations contributes to a nuanced view of leadership. The emphasis on adaptability aligns with the demands of the contemporary landscape,

emphasizing the importance of leaders evolving with the complexities of their environments. In essence, this comprehensive exploration of leadership theories provides valuable insights for leaders, scholars, and practitioners seeking to navigate the intricate dynamics of leadership in the 21st century.

REFERENCES

1. Ciulla, J.B. "What we learned along the way: a commentary", in Goethals, G.R. and Sorensen, L.J., cit., p. 221.
2. Drucker, P., "Managing oneself", Harvard Business Review, 1999, 77(2), pp. 65-74.
3. Marturano A. Understanding leadership: Is it time for a linguistic turn //Leadership at the Crossroads. – 2008. – T. 3. – C. 117-131.
4. Marturano A. Understanding leadership: Is it time for a linguistic turn //Leadership at the Crossroads. – 2008. – T. 3. – C. 117-131.
5. Newman, V./Chaharbaghi, K. (2000): The study and practice of leadership, in: Journal of Knowledge Management, Vol. 4, p. 64-73.
6. Sjöstrand, S-E./Tyrstrup M. (2001): Recognized and unrecognized managerial leadership, in: Sjöstrand, S-E./Sandberg, J./Tyrstrup, M. (Eds.): Invisible Management, Thomson Learning, London, p. 1-27.
7. Forgas, J.P./Williams, K.D. (2002). Social influence, in: Forgas, J.P./Williams, K.D. (Eds.): Social influence. Psychology Press, Lillington.
8. Burla, St./Alioth, A./Frei, F./Müller, W. R. (1995): Die Erfindung von Führung, Hochschulverlag AG, Zürich.
9. Bligh, M. C., & Robinson, J. L. (2010). Was Gandhi "charismatic"? Exploring the rhetorical leadership of Mahatma Gandhi. *The Leadership Quarterly*, 21, 844-855.
10. Mio, J. S., Riggio, R. E., Levin, S., & Reese, R. (2005). Presidential leadership and charisma: The effects of metaphor. *Leadership Quarterly*, 16, 287-294.
11. Rungrojsuwan S. Language and Leadership: Key Linguistic Attributes and Devices Reflecting Charismatic Leadership of King Rama IX of Thailand //rEFLECTIONS. – 2022. – T. 29. – №. 2. – C. 381-401.
12. Northouse, P. G. (1997): Leadership, Theory and Practice, Sage Publications, Thousand Oaks.
13. Fiedler, F. E. (1967): A theory of leadership effectiveness, McGraw Hill, New York.
14. Osborn, R. N./Hunt, J. G./Lawrence, R. J. (2002): Toward a contextual theory of leadership, in: *The Leadership Quarterly*, Vol. 13, p. 797-837.



UDK:316.346.36(575.1)

Behzod ERNAZAROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: ernazarov.b.nuu@mail.ru

Sots. dots.v.b. (PhD) F.M.Axmedova taqrizi asosida

AGE CLASSIFICATION IN GENERATIONAL CHANGE IN SOCIOLOGY

Annotation

In the issue of generational change, we chose the "visual anthropological approach", a unique method of modern sociology. The visual components of social reality, i.e., the components that are perceived with the help of a sharp gaze of the ordinary eye and inevitably have a material basis, significantly affect the understanding of the modern world. In the social and cultural space surrounding a person, visual forms of various forms (photographs, paintings, advertising, cinema, media samples, architecture, sculpture) that have gone beyond the boundaries of artistic creativity and have become an integral part of everyday life occupy an important place.

Key words: Generational change employs representatives of five different generations in the age category "Silent Generation" (75-95), "Baby Boomers" (55-75 years), "X Generation" (35-55 years), "Y Generation or Millennials" (23-35 years old) and "Generation Z" (15-23 years old). Visual-cognitive, social space, social time, photography, decorative symbol, identity, primacy, interaction.

СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОЗРАСТНОЙ КЛАССИФИКАЦИИ В СМЕНЕ ПОКОЛЕНИЙ

Аннотация

В вопросе смены поколений мы выбрали «визуальный антропологический подход» — уникальный метод современной социологии. Визуальные компоненты социальной реальности, т. е. те компоненты, которые воспринимаются острым взглядом обычного глаза и неизбежно имеют материальную основу, существенно влияют на понимание современного мира. В социокультурном пространстве, окружающем человека, занимают изобразительные формы различных форм (фотографии, картины, реклама, кино, медиаобразцы, архитектура, скульптура), вышедшие за пределы художественного творчества и ставшие неотъемлемой частью повседневной жизни. важное место.

Ключевые слова: Смена поколений, «Тихое поколение» (75-95 лет), в котором работают представители пяти разных поколений, «Бэби-бумеры» (55-75 лет), «Поколение X» (35-55 лет), «Y». поколение» или «миллениалы» (23-35 лет) и «поколение Z» (15-23 года). Визуально-когнитивный, социальное пространство, социальное время, фотография, декоративный символ, идентичность, первенство, взаимодействие.

AVLODLAR ALMASHINUVIDAGI YOSH KLASIFIKATSIYASINING SOSIOLOGIYADAGI AHAMIYATI

Аннотация

Avlodlar almashinuvi masalasida biz zamonaviy sosiologiyaning o‘ziga xos usuli “vizual antropologik yondashuv”ni tanladik. Ijtimoiy voqelikning vizual tarkibiy qismlari, ya’ni oddiy ko‘zeka o‘tkir nigoh yordamida qabul qilinuvchi va muqarrar ravishda moddiy asosga ega bo‘lgan komponentlari ahamiyatli ravishda zamonaviy dunyoni anglashga ta’sir ko‘rsatadi. Insonni o‘rab turgan ijtimoiy-madaniy makonda badiiy ijod sarhadlaridan chiqib ketgan va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurigan turli ko‘rinishdagi vizual shakllar (fotosurat, rasmlar, reklama, kino, media namunalari, arxitektura, haykaltaroshlik) muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Avlodlar almashinuvi, “Sokin avlod” (75-95) yosh kategoriyasidagi besh xil avlodi vakillarini ish bilan ta’minlaydilar, “Baby boomers” (55-75 yosh), “X avlod” (35-55 yosh), “Y avlod yoki Millennials”(23-35 yosh) va “Z avlod” (15-23 yosh). Vizu al-kognitiv, sosial makon, sosial zamon, fototasvir, bezak ramz, identiklik, primatlik, interaksiya.

Kirish. Maqolada keltirilgan vizual-kognitiv metod orqali muqaddas qatriyatlarini tahlil qilish, ijtimoiy madaniy bilim tushunchalarini mexanik tushuntirish nazariyasining asosiy g‘oyalari va tushunchalarining qisqacha tavsifi, kognitiv sosiologiyaning ikki an‘anasiga ko‘ra hodisalarni tahlil qilish uchun ijtimoiy va madaniy bilish tushunchalarini farqlash bilish lozim. Verbal va vizual, real va virtualning yangicha nisbati quriladi, individlarning vizual layoqati, vizual belgilarni “o‘qish” ko‘nikmasini shakllantirish zarurati vujudga keladi.

Metodologiya. Dunyo ijtimoiy fanlar tizimida o‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab xalqlar identikligini o‘rganish o‘zlikni anglash va ijtimoiy xotirani yoritib berishning o‘ziga xos belgisi sifatida o‘rganish davom etmoqda. Kishilik jamiyatining butun bir davriy o‘zgarishlari

tizimida “identiklik”ni mavjud barcha manfaatlarning “sabab”chisi sifatida baholab, u sodir bo‘lib o‘tgan, yoki kechayotgan ijtimoiy jarayon va hodisalar o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Natijada, davriy almashinuv jarayonlari tufayli sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning mohiyati, rivojlanish tendensi-yalari oqibatida identiklik masalalarini o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida milliy identiklik mavzusi “milliy o‘zlikni anglash”[1] tushunchasini tadqiq etish doirasida rivojlanib bordi. Bugungi kunga kelib O‘zbekistonda internetning ta’sir doirasi yanada kengaydi. 2022 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni dunyo miqyosida 4 millardan oshgan bo‘lsa, mamlakatimizda 22 million kishidan oshib ketdi[2]. Davrlar almashinuvi yutuqlari inson manfaatlari, ezgu maqsadlar yo‘lida xizmat qilishi

lozim, albatta. Biroq ayrim kuchlar virtual olamdan g'arazli niyatlari yo'lida foydalanayotganligini inkor qilib bo'lmaydi. Davrlar o'zgarishi, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, o'z identligini qariyb yo'qotgan, o'zining maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor toifalarni ham vujudga keltirdi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz axolisi, ayniqsa, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ana shu tahdidni bartaraf etish uchun bor imkoniyatni ishga solgan holda izchil kurashish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga egaligini hisobga olib, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Sosiologiya sohasida turli xil nazariy-metodologik qarashlarni hurmat qilgan holda, noyob yondashuvlar sirasiga kiruvchi "sosal bixeviorizm" va "almashinuv nazariyasi" ta'limotlarining tadqiqot mavzumizga dahldor jihatlari isbot talab ekanligini ko'rsatmoqchimiz. Uning vujudga kelishi avval paydo bo'lgan boshqa sosiologik ta'limotlardan ko'ra ko'proq psixologiya bilan bog'liq. Bundan tashqari, bixeviorizm va almashtinuv nazariyasi rivojiga yana bir tashqi kuch – iqtisodiyot omili ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Ilk bor "davrlar" g'oyasini amerikalik tadqiqotchi U.Shtrauss va N.Xau[3] fanga olib kiradi va u o'zining ba'zi bir keskin qarashlarida ayrim sosiologik nazariyalarni inkor etadi. Davrlar almashtinuv nazariyasini rivojlantirishda uning eng yirik vakillari N.Xau, U.Shtrauss, D.Stillman, D.Martin, D.Oblinger, D. Tapkott, T.K. Rivzlarining tadqiqot ishlari muhim o'rin tutadi. E'tirof etadigan yana bir jihat shundaki Skinner, Xomans va Blauning konsepsiyalarini bixeviorist va almashtinuv nazariyotchilarining hammasi ham qabul qilavermaydi. Xususan, E.Gouldnerning almashtinuv haqidagi klassik ocherki va U.Gudning "rolli tanglik" haqidagi almashtinuv nazariyasiga oid tadqiqot ishlari bixevioristik yondashuv qatoriga kirmaydigan nazariyatur-laridan sanaladi. Ularning ilmiy taxminlari sosial munosabat-larning almashtinuv jihatiga, xususan, almashtinuv disbalansi asosida hokimiyat va nufuz (avtoritet) fenomenining paydo bo'lishi muamosiga ko'proq urg'u beradi. Bizning tadqiqot ishimiz, ya'ni davrlar almashtinuv mavzusi asosan bixevioristik bo'lgan yondashuvlarga murojaat etish orqali amalga oshiriladi.

Blau almashuv jarayoni bilan qiziqar ekan, u ko'p jihatdan inson xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lgan individuumlar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning asosini tahlil etadi. U shaxslararo almashuvdan sosial tuzilmaga, so'ngra undan sosial o'zgarishlarga olib boruvchi to'rt bosqichli tadrijiylikni "almashinuvlar nazariyasi" sifatida taqdim etadi.

1 bosqich – shaxslararo almashtinuv;

2 bosqich – mavqe va hokimiyatning differensiyalashuvi;

3 bosqich – legitimlashuv (qonuniylashtirish) va tashkillashtirish;

4 bosqich – muxoliflik (qarama-qarshilik) va o'zgarishlar.

Individual sathda K.Levi-Stross singari o'xshash jarayonlar tizimiga qiziqish bildiradi. Lekin u "sosal almashtinuv" ta'limotini o'zgalardan tomonidan taqdirlovchi ta'sirlarga bog'liq bo'lgan va kutilgan ta'sir bo'lmay qolsa, ma'lum joyda to'xtaydigan xatti-harakatlar majmui, deyish bilan chegaralanadi. Insonlar juda ko'p sabablar tufayli bir-biriga intiladilar, bu esa ularni sosial guruh (uyushma)lar tuzishga yo'naltiradi. Bir bora o'rnatilgan sosial aloqalar ko'lami asta-sekin kengayib boradi. O'zaro taqdirlovchi sosial aloqalarni saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunga teskari vaziyat ham bo'lishi mumkin: mukofotlash yetarli

bo'lmaganda guruh (uyushma)lar bo'sh boshlaydi va keyinchalik tarqab (sochilib) ketishi ham mumkin. O'zaro almashinadigan taqdirlovchi yo'nalishlar (masalan, mehruhabbat, minnatdorchilik, hurmat va b.) yoki tashqi (masalan, pul, jismoniy mehnat va b.) bo'lishi mumkin.

Rossiyalik tadqiqotchi B.Dubin "davri" tushunchasi to'g'risida quyidagi fikrni bildiradi: "Umumiy dastlabki nigoh bilan qarashda davri sosial aloqaning shakli va harakatdagi individlar ramziy birdamligining fokusi sifatida tasavvur qilish mumkin: bunda sen (men) boshqalar, ya'ni, xuddi "o'zing" singarilar bilan gorizont o'q bo'yicha hayolan birdek ko'rinishning me'yoriy chegarasini tashkil etayotganini his qilamiz"[4]. Tomonlar bir-birlarini har doim ham bir xil tarzda taqdirlovchi olmaydilar. Almashinuvda tengsizlik vujudga kelgan-da hokimiyatning turli darajalari paydo bo'ladi.

Sosial almashtinuv jarayonida qadriyatlar muhim rol o'ynashini ta'kidlar ekan, Blau shunday yozadi: "Umumiy qadriyatlar almashtinuv bitimlariga erishish jarayonida sosial aloqalar va sosial munosabatlar tuzilmasining makon va zamondagi chegaralarini kengaytiruvchi bo'g'in sifatida qabul qilinishi mumkin. Umumiy qadriyatlar bilan bog'liq konsensus sosial munosabatlarni sosial aloqalar doirasidan chiqarish va inson hayotidan ko'ra uzoqroq bo'lgan davrga uzaytirish uchun asos vazifasini o'taydi. Kishilardagi stereotiplar ijtimoiy hayotni bilvosita ifodalovchi qadriyatlar atamasini ikki xil ma'noda tasvirlaydi: 1)qadriyatlar konteksti sosial munosabatlarni shaklga soluvchi vosita sifatida; 2)qadriyatlar keng miqyosdagi sosial assosiativiyalar va munosabatlardagi aloqalarda vositachi sanaladi"[5].

Bugungi kunga kelib, ilm-fanning taraqqiyoti butun dunyoni o'zgartirmoqda, albatta, buning negizida inson omili va inson aqli orqali rivojlanib kelmoqda, shuning uchun bugungi kunda avlodlar o'rtasidagi munosabatni o'rganish bir paytni o'zida jamiyat yoki millatning tarixi, mintalitet va IQ*-ilmiy salohiyatidan kelib chiqib kamida 3 yoki 4 avlodni o'rganib chiqib mazkur millat yoki jamiyat uchun xulosa berish mumkin". "BrainApps.ru – fitnes dlya mozg" saytining berilgan ma'lumotiga ko'ra O'zbekiston 100 mamlakat ichida IQ-87 ball bilan 67- o'rinni egallagan. Bu albatta, mamlakatni reputatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Yillar mobaynida ta'limga bo'lgan e'tiborning pastligi, yuzaga kelgan mavjud namunmoning yechimini topish uchun professor o'qituvchilarga imkon berish o'rniga soha tadbirkorlariga berildi. Olimlar esa bir necha yillar mobaynida ta'qiqqa uchrab, asossiz byurokrtiyani o'ylab topish natijasida ko'plari kassalikni o'zlari yuqtirib olishdi va ko'plari aql-intelektual migratsiya, ya'ni mamlakatni tark etib ishladilar. Mana natija bugungi kunda millatning aqliy ko'rsatkichi ko'shni mamlakatlardan ham past o'rinni ko'rsatmoqda[6]. Sosiologik adabiyotlarda intellektual migratsiyaning mamlakatni tark etish, nimaga keltirilgan tarixiy dalillarga e'tibor karatib shunday fikrga kelish mumkinki, aql egalarning migratsiya jarayonlariga ishtirok etishi uchun nima majbur kilmokda? mamlakat intellektual migratsiya tufayli nimalarni yuqtadi? kabi savollar dolzarbligicha kolkokda. Ko'plab davlatlarda, xususan, O'zbekiston sharoitida ham ushbu masala ochiqlicha qolmokda[7]. Globallashuv davrida bunday jarayonlarga cheklovlar orqali to'xtatib bo'lmaydi, mustaqillikning ilk yillarida mamlakatda yashovchi boshqa millat vakillari o'z identikligini saqlash uchun, o'z ona Vatanlariga etnomigratsiya jarayonlari kuzatildi, shu bois milliy indentikligi haqida ko'plab ishlar olib borilgan, davrlar osha turli vaziyatlar kuzatildi. XX asrning o'rtalari va ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston hududiga urush tufayli, xalqlar ko'chirilib kelindi, mehmondo'stligimiz sabab yoshlar o'rtasida milliy mentalitet va milliy turmush tarzi turlicha bo'la boshlagan. Etnografik ma'lumotlar va xalq ijodi

yodgorliklari qadimdan Markaziy Osiyo hududida xalqlarning turmush tarzi, mehnat faoliyati va ozodligi yo'lidagi kurashini aks ettiruvchi milliy o'yin turlari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi[9]. Har qanday xalqning ona tili, bu – millatning chinakam qalbi birinchi darajali va yaqqol namoyon bo'ladigan belgisi. Unga qarab avvalo insoning u yoki bu etnosga (millat)ga mansubligi belgilanadi. Tilda va til orqali uning tafakkuri va badiiy tafakkuriga xos belgilar aniqlanadi. Xalqning an'anaviy madaniyatiga ona tilini to'laqonli bilmadan turib yaqinlashib bo'lmaydi, zero til – bu xalqning qoni, unga tarix va madaniyat genetik jihatdan singib ketgan[10].

Millatning birinchi belgilaridan biri bu – til hisoblanib, milliy xarakter ham bog'langan bo'ladi, biz tarixan ikki buyuk mamlakatlar Eron va Turon hududlarining oralig'idagi bufer zonada[11] joylashilganligimiz asrlar almashunivida o'zining bir necha xarakterli va madaniyatli qilib ko'rsatgan. “Bufer zonasi” hududiy jihatdan turli madaniyatlar vakillari o'rtasidagi aloqalar haqiqatan shakllanadi va uni amalga oshiriladi. Ammo yangi axborot texnologiyalari tufayli bufer zonasi virtual ravishda ham mavjud bo'lishi mumkin, ya'ni multimedia muhitida bo'lish. Bundan tashqari, madaniyatlara o'zaro ta'sir kitoblar, san'at va fan orqali amalga oshiriladi, ular bilan tanishish ham ma'lum bir “bufer zona” ni yaratadi[12]. 1972 yilda qabul qilingan konvensiyada bufer hudud tushunchasiga quyidagi fikrni berilgan: “Bufer zonasi - bu Butun jahon merosi ob'yektini o'rab turgan hudud bo'lib, mulkni samarali himoya qilishning qo'shimcha qatlamini ta'minlash uchun undan foydalanish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha qonuniy yoki odatiy cheklolar mavjud. Bu hudud nominatsiya qilingan mulkning bevosita atrofini, muhim turlarni, mulkning yaxlitligi va himoyasini taminlash uchun funksional jihatdan muhim bo'lgan boshqa hududlar yoki atributlarni o'z ichiga oladi. Bufer zonasining hududini har bir holatda tegishli mexanizmlar orqali belgilanishi kerak. Butunjahon merosi nominatsiyasida bufer zonasining kattaligi, xususiyatlari va ruxsat etilgan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, mulk va uning qo'riqlanadigan zonasining aniq chegaralarini ko'rsatadigan xarita taqdim etilishi kerak” [13]. Turli etnik va hududiy o'ziga xosliklar va ularning darajalari

o'rtasidagi munosabatlar hozirgi zamonda tez o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda, bu esa jahon siyosiy chegaralar tizimining barqarorligini muqarrar ravishda zaiflashtiradi. E.Giddensning strukturalistik nazariyasiga ko'ra, davlatning vazifalari hozirda ancha murakkablashadi. Bu integratsiyalashgan jahon iqtisodiyoti bilan insonning kundalik hayoti sodir bo'ladigan, u yashaydigan va ishlaydigan joy o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'inga aylandi, global iqtisodiy elementning bandlik va muayyan aholi punktlari farovonligiga zarbalarini yumshatishning o'ziga xos turiga aylandi[14]. Uzoq vaqt davomida avlodlarga bo'linish ijtimoiy va mehnat munosabatlarini o'rganish uchun ishlatilgan. Aqsh tadqiqotchilari, demograf Nil Xou va tarixchi Uilyam Strauss tomonidan yaratilgan “avlodlar nazariyasi” Amerika avlodlari tarixini bir – biridan keyingi avlodlar tarixini tasvirlab berdi: Payg'ambarlar avlodidan keyin Sargardonlar avlodi, ulardan keyin esa qahramonlar avlodlari va rassomlar. Avlod tadqiqotlari tajribasi boshqa mamlakatlardagi turli yoshdagi xodimlarning o'zaro munosabatlari jarayonlarini tahlil qilish uchun qo'shimcha ravishda ishlatilgan. Ushbu nazariya o'sha paytda tanqid qilingan edi, ammo shunga qaramay, rivojlanishning tashkilot ichidagi naqshlari aniqlandi. Hozirgi vaqtda nazariya dolzarb bo'lib, ijtimoiy tarmoqlarda juda mashhur bo'lib, sosiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, antropologiya va iqtisodiyotda o'z timsolini topadi[15]. Konsepsiya va avlodlar nazariyasini o'rganishga bo'lgan qiziqish birinchi navbatda biznesda kuzatildi, bu zamonaviy menejerlarga turli yoshdagi xodimlarga samarali ta'sir ko'rsatishga va ular bilan o'zaro munosabatlarning strategik yo'nalishlarini rivojlantirishga yordam berdi[16].

Xulosa. Bugungi kunda bu MDH davlatlarida pensiya islohoti bilan birga keladi, bu esa kekxa xodimlarning kasbni tark etishga shoshilmasligiga olib keldi, shuning uchun kompaniyalar hozirda “Sokin avlod” (75-95) yosh kategoriyasidagi besh xil avlodi vakillarini ish bilan ta'minlaydilar, “Baby boomers” (55-75 yosh), “X avlod” (35-55 yosh), “Y avlod yoki Millennials”(23-35 yosh) va “Z avlod” (15-23 yosh). Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli avlod nomzodlari bir vaqtning o'zida mehnat bozorida ish qidirmoqdalar.

ADABIYOTLAR

1. Мадаева Ш.О. Идентиклик антропологияси. – Тошкент, NOSHIR, 2015. – Б. 41-42.
2. Шахс фаолиятида муҳим ўрин тутиб, шахс ва жамиятнинг маънавий камолоти, фуқаролик жамиятининг моддий-маънавий асосларини мустаҳкамлашда улкан аҳамиятга эга.
3. <https://kun.uz/news/2019/11/05/dunyoda-internet-foydalanuvchilari-soni-4-mlrddan-oshdi>
<http://uz.infocom.uz/2018/01/27/ozbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni-20-milliondan-oshdi/>
4. Каланова С. Жамиятда авлодлар алмашинуви жараёнларнинг социологик таҳлили. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2018, – Б. 7
5. <https://moshemodeira.medium.com/strauss-howe-generational-theory-is-the-closest-thing-we-have-to-a-crystal-ball-part-1-f9bc21e3fc75>
6. Дубин Б. Поколение: смысл и границы понятия. / В кн: Отцы и дети: Поколенческий анализ современной России. М.: Новое литературное обозрение, 2005. – С. 64
7. Blau P. Exchange and power in social life. N.Y., 1964. – P. 263-264
8. Абдувалиев Ф. Ёшларнинг таълим миграцияси: ижтимоий сабаблари, структураси ва ҳолати. Монография. – Тошкент: “Университет”, 2022. – Б.26
9. Ўша манба. -26 б.
10. Ўзбекистон макон ва замонлар оша. Социомаданий альманах. – Тошкент: Optimal Light, 2011. – 219 б. Лойиха гоҳси муаллифи Маттиас Клингенберг; лойиха раҳбари Комил Калонов; илмий маслаҳатчи Михаил Рожанский.
11. Ўша манба. 195 б.
12. Большая советская энциклопедия: в 66 т. (65 т. и 1 доп.) / гл. ред. О. Ю. Шмидт. -М.: Советская энциклопедия, 1926—1947
13. Булдакова Е.И. «Буферные зоны» в межкультурной коммуникации. // «Известия высших учебных заведений. Северокавказский регион. Общественные науки». 2007, – С. 11
14. "Конвенция об охране всемирного культурного и природного наследия" (Заключена в г. Париже 16.11.1972)
15. Колосов В. А., Мироненко Н. С., Геополитика и политическая география: Учебник для вузов. -М.: Аспект Пресс, 2001. – С. 325

16. Strauss, William. Generations: the history of America's future, 1584 to 2069. –New York: Harper. – P. 540
17. <https://www.worldcat.org/title/perspectives-on-political-science/oclc/60622965>



UDK:159: 378. 180. 6 (045)

Rano ERNAZAROVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: ernazarovano@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

FACTORS CAUSING STRESS IN STUDENTS AND THEIR PSYCHODIAGNOSTICS

Annotation

The article studies the factors that cause stress in students and their psychodiagnostics. Contains information about the theoretical and practical aspects of the problem, as well as scientific research conducted by the author of the article. In the research conducted by the author, the factors causing stress and the mechanisms of their influence were studied in detail.

Key words: personality, student, educational activities, diagnostics, health, stress, stability, behavior.

ФАКТОРЫ ВЫЗЫВАЮЩИЕ СТРЕСС У СТУДЕНТОВ, И ИХ ПСИХОДИАГНОСТИКА

Аннотация

В статье изучаются факторы, вызывающие стресс у студентов, и их психодиагностика. Содержит информацию о теоретических и практических аспектах проблемы, а также о научных исследованиях, проведенных автором статьи. В исследованиях, проведенных автором, детально изучены факторы, вызывающие стресс, и механизмы их влияния.

Ключевые слова: личность, студент, учебная деятельность, диагностика, здоровье, стресс, устойчивость, поведение.

TALABALARDA STRESS HOLATINI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING PSIXODIAGNOSTIKASI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda stress holatini yuzaga keltiruvchi omillar va ularning psixodiagnostikasi o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlarini, bu borada maqola muallifi tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida ma'lumot berilgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda stressni uyg'otadigan omillar va ularning ta'sir etish mexanizmlari atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, talaba, o'quv faoliyati, diagnostika, salomatlik, stress, barqarorlik, xulq-atvor.

Kirish. Shaxs hayotda turli muammoli vaziyatlarga, murakkab holatlarga duch keladi. Paydo bo'lgan muammoli vaziyat stress yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Stresslarning haddan ziyod ortib ketishi salomatlikning buzilishi, psixik barqarorlikning izdan chiqishiga olib keladi. Ayniqsa, bugungi kunda jahonda stress holati tufayli inson psixikasida zo'riqishlarning yuzaga kelishi, salomatligiga hamda hayoti-faoliyatiga ziyon yetkazishiga sabab bo'layotganligi hech kimga sir emas. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, kuchli stress insonlarning jismoniy va aqliy qobiliyatiga salbiy ta'sir etib, ularning ichkilik, tamaki va boshqa zararli illatlarga bog'liqlikni yuzaga keltirmoqda. Bu borada kelgusi kasbiga ega bo'lishni istagidagi talabalarning ta'lim olishida yuzaga keladigan stressga qarshi kurashish xulqini shakllantirish kunning dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi, ulardagi psixologik stress holatining dinamik o'zgarishini ilmiy tadqiq etish masalasini dolzarblashtiradi.

Stress deganda insonning atrofida stimullarga yoki tashqi ta'sirlarga jismoniy, fiziologik va psixologik reaksiyalari majmuyi tushuniladi. Stress og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, ishlar meyorida oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishdir. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron-bir emotsiya turi ro'yobga chiqaradi. Unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan stresslar muqarrar va zararsiz bo'lib, haddan tashqari ortib ketgan stress esa shaxs uchun ham, korxonaga va tashkilotlar uchun ham qiyinchiliklar, qo'yilgan maqsadlarni qo'lga kiritishda muammolar keltirib

chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo'lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar uchun, balki sudyalarda, korxonada rahbari, ta'lim tizimi xodimlari uchun ham alohida ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida talabalardagi psixologik stress holatining o'zgarish dinamikasi va stress holatini yengib o'tishga, stressga qarshi kurashish, stresslarni boshqarish, stressga moslashish kabi koping strategiyalarni qo'llash, stress holatida psixik barqarorlikni saqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Stressning boshlanishi xavotir holati bilan bog'liq ekanligi borasidagi talqinlarga asosan, stress omillarining ta'sirini pasaytirish uchun xavotirga moyillik darajasini me'yorlash-tirish muhim o'rin egallashi, o'quv jarayonida stresslarning fiziologik belgilaridan kelib chiqib, talabalarning o'quv faoliyat stressini fiziologik ta'sirlar orqali me'yorlashtirishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirdi, shu bois mazkur muammoni tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamiz psixolog olimlaridan D.Abdumadjidova, R.Abdurasulov, D.Boymirzayeva, U.Butayeva, N.Ismoilova, F.Gaziyeva, K.Kadirov, S.Mirzayeva, M.Karamyan, D.Arzikulov Z.Elov, B.Sirliyev, D.Mamadiyarova, N.Sagindikova, S.Iskandarova, Z.Fayziyev, F.Shermatov, G'.Shoumarov, P.Ergashev, U.Qodirov, O.Hayitov va boshqalar tomonidan stressga barqarorlikni ta'minlash, frustratsiyaning stressogenlik ahamiyati, stress holati yuzaga kelishining oldini olishda

yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash, stresslarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirish, kasusli vaziyatlarda psixologik himoyani faollashtirishning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

Stress borasida Xorijiy psixolog olimlar tomonidan bir qator ilmiy yondashuvlar ishlab chiqildi. Masalan, stressning integrativ modelida shaxsga qo'yiladigan ichki va tashqi talablarni, bu talablarning jiddiylikini va o'z resurslarining adekvatligini baholash va qo'yilgan talablarni yengish variantlarini tanlashda stressli reaksiya kiritiladi. Genetik-konstitusion nazariyasi organizmning stressga qarshilik ko'rsatish imkoniyati ayni holatdan holi ravishda oldindan belgilangan himoya strategiyasi funksiyasiga bog'liq. J. Fuller va V.R. Tompson tadqiqotlarida stress genotip va stressga qarshilik ko'rsatishning individual imkoniyatini pasaytiruvchi ba'zi jismoniy xususiyatlar bilan aloqa o'rnatish uchun urinish hisoblanadi. Stressga moyillik modelida, P.A. Parsons fikriga asosan, stress irsiy va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasiga asoslanadi. Bosim reaksiyasi kuchayishida moyillik omillari va kutilmagan, kuchli ta'sirlarning o'zaro birgalikdagi ta'siriga imkon beradi. Stressning interditsiplinar modeli mualliflari X. Basovitz, X. Perski, SH. Korchin, R. Ginkerlar

1- jadval

Talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar(1-kurs) n=112 / TG n=67 / NG n=45

	TG								NG							
	Qash vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%	Qash Vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%
yangi muhitga moslashish	18	78,3	19	76,0	16	84,2	53	79,1	11	68,8	12	75,0	11	84,6	34	75,6
o'qishga jiddiy munosabat	20	87,0	22	88,0	15	78,9	57	85,1	13	81,3	14	87,5	10	76,9	37	82,2
katta o'quv yuklamasi	4	17,4	2	8,0	3	15,8	9	13,4	2	12,5	1	6,3	2	15,4	5	11,1
qattiqqo'l o'qituvchilar	3	13,0	4	16,0	2	10,5	9	13,4	1	6,3		0,0	1	7,7	2	4,4
o'quv adabiyotlari muammosi	2	8,7	3	12,0	2	10,5	7	10,4		0,0	1	6,3		0,0	1	2,2
topshiriqlarni bajara olmaslik	16	69,6	17	68,0	13	68,4	46	68,7	11	68,8	12	75,0	9	69,2	32	71,1
imtihon oldi xavotir	19	82,6	21	84,0	16	84,2	56	83,6	14	87,5	13	81,3	11	84,6	38	84,4
guruhdagi nizo	13	56,5	15	60,0	12	63,2	40	59,7	10	62,5	9	56,3	9	69,2	28	62,2
kunlik faoliyat rejasi	15	65,2	14	56,0	12	63,2	41	61,2	9	56,3	9	56,3	8	61,5	26	57,8
oiladan uzoqda yashash	12	52,2	13	52,0	11	57,9	36	53,7	8	50,0	8	50,0	6	46,2	22	48,9
talabalar bilan yashash muammosi	7	30,4	8	32,0	6	31,6	21	31,3	3	18,8	4	25,0	3	23,1	10	22,2
noto'g'ri ovqatlanish	9	39,1	7	28,0	6	31,6	22	32,8	4	25,0	3	18,8	3	23,1	10	22,2
o'qishga qatnash muammolari	8	34,8	9	36,0	5	26,3	22	32,8	2	12,5	3	18,8	2	15,4	7	15,6
moliyaviy muammolar	7	30,4	6	24,0	4	21,1	17	25,4	2	12,5	1	6,3	1	7,7	4	8,9
shaxsiy hayot muammolari	8	34,8	7	28,0	4	21,1	19	28,4	4	25,0	3	18,8	2	15,4	9	20,0
o'qishni xohlamaslik	3	13,0	4	16,0	2	10,5	9	13,4		0,0	1	6,3		0,0	1	2,2
kelajakdan xavotir	3	13,0	4	16,0	1	5,3	8	11,9	2	12,5	1	6,3		0,0	3	6,7

Jadvalda keltirilgan talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar diagnostikasi natijalari tahliliga asosan quyidagi muammolar 1-kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar hisoblanadi:

Yangi muhitga moslashish muammolari omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 78,3%; Samarqand viloyatida 76,0%; Jizzax viloyatida 84,2%; Hududlar bo'yicha 79,1% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 68,8%; Samarqand viloyatida 75,0%; Jizzax viloyatida 84,6%; Hududlar bo'yicha 75,6% namoyon bo'lgan.

O'qishga jiddiy munosabat omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 87,0%; Samarqand viloyatida 88,0%; Jizzax viloyatida 78,9%; Hududlar bo'yicha 85,1% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 81,3%;

fikriga asosan, stress individda xavotirni uyg'otuvchi stimullar ta'siri ostida paydo bo'ladi va fiziologik, psixologik, xulq-atvor, patologik reaksiyalar yuz berishiga olib keladi, ammo ba'zi hollarda organizm funksiyasining yuqori darajasiga olib kelishi ifodalanadi. [4: 13-17.]

Tahlil va natijalar. Talabalarda stress holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillarni aniqlash diagnostik bosqichning vazifasi sifatida belgilangan. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan «Talabalik davri stress omillari» nomli anketa so'rovnomasi diagnostika jarayonida qo'llanildi va talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi 17 ta asosiy omillar aniqlandi. Ushbu omillar talabalik davriga xos quyidagi muammolarni namoyon etadi: yangi muhitga moslashish muammolari; o'qishga jiddiy munosabat; katta o'quv yuklamasi; qattiqqo'l o'qituvchilar; o'quv adabiyotlari muammosi; topshiriqlarni bajara olmaslik; imtihon oldi xavotir; guruhdagi nizo; kunlik faoliyatni rejalar muammosi; oiladan uzoqda yashash; talabalar bilan yashash muammolari; noto'g'ri ovqatlanish; o'qishga qatnash muammolari; moliyaviy muammolar; shaxsiy hayot muammolari; o'qishni xohlamaslik; kelajakdan xavotir. Birinchi kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar diagnostik natijalari 1- jadvalda keltirilgan.

Samarqand viloyatida 87,5%; Jizzax viloyatida 76,9%; Hududlar bo'yicha 82,2% namoyon bo'lgan.

Topshiriqlarni bajara olmaslik bilan bog'liq muammolar: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 69,6%; Samarqand viloyatida 68,0%; Jizzax viloyatida 68,4%; Hududlar bo'yicha 68,7% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 68,8%; Samarqand viloyatida 75,0%; Jizzax viloyatida 69,2%; Hududlar bo'yicha 71,1% namoyon bo'lgan.

Imtihon oldi xavotir: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 82,6%; Samarqand viloyatida 84,0%; Jizzax viloyatida 84,2%; Hududlar bo'yicha 83,6% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 87,5%; Samarqand viloyatida 81,3%; Jizzax viloyatida 84,6%; Hududlar bo'yicha 84,4% namoyon bo'lgan.

Guruhdagi nizo omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 56,5%; Samarqand viloyatida 60,0%; Jizzax viloyatida 63,2%; Hududlar bo'yicha 59,7% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 62,5%; Samarqand viloyatida 56,3%; Jizzax viloyatida 69,2%; Hududlar bo'yicha 62,2% namoyon bo'lgan.

Kunlik faoliyatni rejalash muammosi: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 65,2%; Samarqand viloyatida 56,0%; Jizzax viloyatida 63,2%; Hududlar bo'yicha 61,2% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 56,3%; Samarqand viloyatida 56,3%; Jizzax viloyatida 61,5%; Hududlar bo'yicha 57,8% namoyon bo'lgan.

Oiladan uzoqda yashash: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 52,2%; Samarqand viloyatida 52,0%;

Jizzax viloyatida 57,9%; Hududlar bo'yicha 53,7% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 50,0%; Samarqand viloyatida 50,0%; Jizzax viloyatida 46,2%; Hududlar bo'yicha 48,9% namoyon bo'lgan.

Birinchi kurs talabalarida stress holatini yuzaga keltiruvchi 6 ta omil ajratilgan bo'lib, ushbu omillar asosan talabalarining yangi muhitga qo'shilganligi va moslashish jarayonida ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga talabalarda o'quv jarayoni bilan bog'liq, xususan imtihon oldi xavotir, uyga vazifalar, o'qishga jiddiy munosbat omili aniqlangan.

Ikkinchi kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar diagnostik natijalari 2- jadvalda keltirilgan.

2- jadval

Talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar(2-kurs) n=105 / TG n=64 / NG n=41

	TG								NG							
	Qash vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%	Qash Vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%
yangi muhitga moslashish	3	14,3	5	20,8	2	10,5	10	15,6	1	8,3	2	12,5	2	15,4	5	12,2
o'qishga jiddiy munosabat	8	38,1	10	41,7	7	36,8	25	39,1	5	41,7	6	37,5	4	30,8	15	36,6
katta o'quv yuklamasi	3	14,3	2	8,3	3	15,8	8	12,5	1	8,3	2	12,5		0,0	3	7,3
qattiqqo'l o'qituvchilar	2	9,5	3	12,5	2	10,5	7	10,9	1	8,3	2	12,5	1	7,7	4	9,8
o'quv adabiyotlari muammosi	2	9,5	2	8,3	2	10,5	6	9,4	1	8,3		0,0		0,0	1	2,4
topshiriqlarni bajara olmaslik	11	52,4	12	50,0	9	47,4	32	50,0	6	50,0	8	50,0	6	46,2	20	48,8
imtihon oldi xavotir	13	61,9	15	62,5	12	63,2	40	62,5	7	58,3	10	62,5	8	61,5	25	61,0
guruhdagi nizo	2	9,5	3	12,5	1	5,3	6	9,4	1	8,3	1	6,3		0,0	2	4,9
kunlik faoliyat rejasi	4	19,0	5	20,8	2	10,5	11	17,2	1	8,3	1	6,3		0,0	2	4,9
oiladan uzoqda yashash	4	19,0	5	20,8	3	15,8	12	18,8	2	16,7	3	18,8	1	7,7	6	14,6
talabalar bilan yashash muammosi	3	14,3	5	20,8	3	15,8	11	17,2		0,0	1	6,3	1	7,7	2	4,9
noto'g'ri ovqatlanish	5	23,8	6	25,0	4	21,1	15	23,4	1	8,3		0,0	1	7,7	2	4,9
o'qishga qatnash muammolari	4	19,0	5	20,8	4	21,1	13	20,3	1	8,3	2	12,5	1	7,7	4	9,8
moliyaviy muammolar	3	14,3	4	16,7	2	10,5	9	14,1	1	8,3	1	6,3	1	7,7	3	7,3
shaxsiy hayot muammolari	4	19,0	5	20,8	4	21,1	13	20,3	1	8,3	2	12,5	2	15,4	5	12,2
o'qishni xohlamaslik	1	4,8	2	8,3	2	10,5	5	7,8		0,0		0,0		0,0	0	0,0
kelajakdan xavotir	2	9,5	2	8,3	1	5,3	5	7,8		0,0	1	6,3	1	7,7	2	4,9

Jadvalda keltirilgan talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar diagnostikasi natijalari tahliliga asosan quyidagi muammolar 2-kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar hisoblanadi:

O'qishga jiddiy munosabat omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 38,1%; Samarqand viloyatida 41,7%; Jizzax viloyatida 36,8%; Hududlar bo'yicha 39,1% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 41,7%; Samarqand viloyatida 37,5%; Jizzax viloyatida 30,8%; Hududlar bo'yicha 36,6% namoyon bo'lgan.

Topshiriqlarni bajara olmaslik bilan bog'liq muammolar: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 52,4%; Samarqand viloyatida 50,0%; Jizzax viloyatida 47,4%; Hududlar bo'yicha 50,0% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 50,0%; Samarqand viloyatida 50,0%; Jizzax viloyatida 46,2%; Hududlar bo'yicha 48,8% namoyon bo'lgan.

Imtihon oldi xavotir: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 61,9%; Samarqand viloyatida 62,5%; Jizzax viloyatida 63,2%; Hududlar bo'yicha 62,5% namoyon bo'lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 58,3%;

Samarqand viloyatida 62,5%; Jizzax viloyatida 61,5%; Hududlar bo'yicha 61,0% namoyon bo'lgan.

Ikkinchi kurs talabalarida stress holatini yuzaga keltiruvchi 3 ta omil ajratilgan bo'lib, ushbu omillar asosan talabalarining o'qish jarayonidagi mas'uliyat, jumladan, imtihon oldi xavotir, uyga vazifalar, o'qishga jiddiy munosabat omili mavjud.

Xulosa. Talabalarda stress holatini yuzaga keltiruvchi 17 ta omil ajratildi. Natijaga asosan: 1-kurs talabalarda yangi muhitga moslashish muammolari omili, o'qishga jiddiy munosabat omili, topshiriqlarni bajara olmaslik bilan bog'liq muammolar, imtihon oldi xavotir, guruhdagi nizo omili, kunlik faoliyatni rejalash muammosi, oiladan uzoqda yashash omili; 2-kurs talabalarda o'qishga jiddiy munosabat omili, topshiriqlarni bajara olmaslik bilan bog'liq muammolar, imtihon oldi xavotir omili asosiy ekanligi ifodalandi. Talabalarining stressga moyillik darajasi diagnostika qilindi: 1-kurs talabalarda stressga moyillik yuqori, 2-kurs talabalarda stressga moyillik o'rta (yuqoriga moyil) yuqori ifodalandi. Psixokorreksiya amaliyotida talabalarda stress holati paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni yengish va stressga moyillik darajasini pasaytirish vazifasi belgilash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdumadjidova D.R. Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (**PhD**) disser. avtoref.: 19.00.05. -T.: 2019.
2. Boymirzayeva D.D. Oliy o'quv yurtlari talabalarida frustratsiyaning namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (**PhD**) disser. avtoref.: 19.00.05. -T.: 2021.
3. Ismoilova N.Z. Talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref.: 19.00.06. -T.: 2020.
4. Мельникова М.Л. Психология стресса: теория и практика: учебно-методическое пособие. УрГПУ. Екатеринбург, 2018. – 112 с.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, -542 b.



Akbar ESHMURODOV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti v.b., s.f.f.d (PhD)
E-mail: akbarshoh19821710@mail.ru

S.f.d. Sh.Shazamanov taqrizi asosida

THE INFLUENCE OF “MASS CULTURE” ON THE SPIRITUAL SECURITY OF SOCIETY

Annotation

The article shows that the formation of “mass culture” is going through an extremely contradictory and difficult stage of historical development, and the place of ancient values is occupied by “new morality” and “faith” based only on personal interest, luxury and pleasure. It is noted that moral values are being replaced by legal norms, demographic, national-ethnic and spiritual foundations are being blurred. It also describes the impact of moral threats on our national and moral security and its negative consequences.

This article provides a number of proposals to combat the threats of “mass culture” and moral education of the younger generation.

Key words: spirituality, globalization, “mass culture”, youth, spiritual security, family, marriage, spiritual crisis, personal freedom, values, national education.

ВЛИЯНИЕ “МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ” НА ДУХОВНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье показано, что становление “массовой культуры” переживает крайне противоречивый и сложный этап исторического развития, а место древних ценностей занимают “новая мораль” и “вера”, основанные только на личном интересе, роскоши и удовольствиях. Отмечается, что моральные ценности подменяются правовыми нормами, размываются демографические, национально-этнические и духовные основы. Также описывается влияние моральных угроз на нашу национально-нравственную безопасность и его негативные последствия.

В данной статье дан ряд предложений по борьбе с угрозами “массовой культуры” и нравственно-нравственного воспитания молодого поколения.

Ключевые слова: духовность, глобализация, “массовая культура”, молодежь, духовная безопасность, семья, брак, духовный кризис, свобода личности, ценности, национальное воспитание.

“OMMAVIY MADANIYAT”NING JAMIYAT MA’NAVIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya

Maqolada “ommaviy madaniyat”ning paydo bo’lishi, tarixiy rivojlanishning g’oyat ziddiyatli va murakkab bosqichini boshidan kechirayotgani, azaliy qadriyatlar o’rnini faqat shaxsiy manfaat, aysh-ishrat, huzur-halovat mayllariga yo’g’rilgan “yangi axloq” va “e’tiqod” egallayotgani ko’rsatilgan. Axloqiy qadriyatlar huquqiy me’yorlar bilan almashtirilayotgani, demografik, milliy-etnik va ma’naviy asoslarining yemirilayotgani yaqqol ko’zga tashlanayotganligi qayd etilgan. Shuningdek, ma’naviy tahdidlarning milliy-ma’naviy xavfsizligimizga ta’siri, uning salbiy oqibatlarini bayon qilingan.

Mazkur maqolada “ommaviy madaniyat” tahdidlariga qarshi kurashish, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo’yicha bir qator taklif-tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: ma’naviyat, globallashuv, “ommaviy madaniyat”, yoshlar, ma’naviy xavfsizlik, oila, nikoh, ma’naviy inqiroz, shaxsiy erkinlik, qadriyatlar, milliy ta’lim.

Kirish. Bugungi davrda g’arb mamlakatlarida vujudga kelgan g’oyaviy mafkuraviy va ma’naviy muhit masalasini xolisona tahlil etib, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, siyosiy, ilmiy va texnologik taraqqiyotning yuksak cho’qqisiga ko’tarilgan g’arb tamadduni yangi mingyillikning boshiga kelib, tarixiy rivojlanishning g’oyat ziddiyatli va murakkab bosqichini boshidan kechirayotgani, azaliy qadriyatlar o’rnini faqat shaxsiy manfaat, aysh-ishrat, huzur-halovat mayllariga yo’g’rilgan “yangi axloq” va “e’tiqod” egallayotgani, axloqiy qadriyatlar huquqiy me’yorlar bilan almashtirilayotgani, bir so’z bilan aytganda, g’arb tamaddunining demografik, milliy-etnik va ma’naviy asoslarining yemirilayotgani yaqqol ko’zga tashlanmoqda.

Mazkur muammoning tub ildiziga nazar soladigan bo’lsak, u “ommaviy madaniyat”ning paydo bo’lishi bilan bog’liq. “Ommaviy madaniyat”ning dastlabki shakli g’arbda

XIX asrning 30 yillarida adabiyot sohasida paydo bo’ldi va ommaviy axborot vositalarida sarguzasht janri orqali turli asarlar tinimsiz chop etila boshladi hamda vaqt o’tishi bilan ushbu jarayonga “yurak matbuoti” yoki “qalb industriyasi” degan nom berildi. Aniqrog’i, “ommaviy madaniyat”ning keskin rivoji XX asrning o’rtalariga to’g’ri keladi. O’tgan asrning 50-60 yillarida AQSHning janubiy shtatlarida istiqomat qiluvchi bir guruh yoshlar o’z hayot tarzini butun dunyo madaniyatiga aylantirishni xohlab qoldilar. Bu hayot tarzi o’zining yengil-yelpiligi, jinsiy hayotda erkinligi va kosmopolitizm g’oyalari bilan butun dunyo yoshlarini o’ziga ohanrabodek jalb qila boshladi. Asr oxirida AQSH va G’arbiy Yevropadagi go’zal afishalar, tungi klub va diskotekalar butun dunyo yoshlarini o’ziga torta boshladi va bu butun dunyoga “ommaviy madaniyat” nomi bilan tarqaldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu haqda Zbignev Bjezinskiy shunday degan edi: “Agar Rim dunyoga – huquqni, Angliya – parlamentni, Fransiya – madaniyat va milliy respublikachilikni bergan bo'lsa, AQSH – dunyoga ilmiy-texnika revolyutsiyasini va “ommaviy madaniyat”ni tortiq qildi” [1]. Shubhasiz, globallashtayotgan zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalari tomonidan keng targ'ib qilinayotgan “ommaviy madaniyat” hukmronlik qilmoqda va bu AQSHning dunyoda gegemonlik qilish geosiyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy sharoitda ochiq harbiy qarama-qarshilikka kirish barcha yoki aksariyat jamiyatlarning deyarli yuz foiz halokatiga olib kelganligi sababli, o'z madaniyatini, to'g'rirog'i, “ommaviy madaniyat”ni jamoatchilik ongiga singdirishni muhim deb hisoblashadi.

Inchunin, davlatning qudrati millatining ma'naviy holati bilan belgilanadi. Mamlakat hududining maqomi nafaqat iqtisodiyot va harbiy sohaning qanchalik rivojlanganligi va mustaqilligiga, balki milliy-ma'naviy makonning mustahkamligiga bog'liqdir. Fransiyalik taniqli siyosatshunos Jak Baraning fikricha, ba'zi mamlakatlarda iqtisodiy foyda ketidan quvish g'oyasi ma'naviy qadriyatlarni yo'q qilib yuborilishiga olib kelmoqda. Ularda oila, jamoa, millat tushunchalari nihoyatda qadrsizlanib ketgan, odamlarning aksariyati faqat bugungi kun va foyda olish uchun yashaydi, egoizm va egotsentrizm mayllari kuchayib ketgan. “Biz yashaydigan mintaqada, – deydi u, – ma'naviy-axloqiy tanazzul nafaqat oddiy odamlar, balki xalqlar va davlatlar boshiga ko'pdan-ko'p falokatlarini soldi, siyosiy inqiroz esa millionlab kishilarning yostig'ini quritgan ikkita jahon urushini keltirib chiqardi” [2].

Shuni ta'kidlash zarurki, aslini olganda, “ommaviy madaniyat” umuminsoniy madaniyat emas, u “avom” yoki “olomon” ma'naviyati emas, balki bir tomondan yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning dunyoda o'z hukmronligini o'rnatishga harakat qilayotgan, yer kurrasida mavjud barcha resurslarga egalik qilishga intilayotgan, moddiy farovonligi yuksak, ammo ma'naviy qashshoq korchalonlar ma'naviyatidir. U nafaqat kam taraqqiy qilgan, shuningdek, ana shu yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar aholisini ham ma'naviy qashshoqlikka muhtalo qilayotgan zo'raonlik ruhiyatini va axloqiy buzuqlikni ifoda etayotgan g'oyaviy qashshoq ma'naviyatdir. Iste'molchilik ruhiyatini avj oldirish, “rohatlanish sanoati”ni rivojlantirish, “olomon madaniyati”ni keng yoyish oqibatida g'arbda ma'naviy-axloqiy tanazzul jarayonlari kuzatilmoqda. Qadriyatlar tizimi oyog'i osmondan kelib, ilgari fazilat sanalgan narsalar aybga, avvallari gunoh sifatida qoralangan harakatlar fazilatga aylantirilmoqda. G'arb mamlakatlarida jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishabozlik, besoqolbozlik kabi illatlarning avj olishi, oilalarning buzulishi, tug'ilishning kamayishi buning yaqqol dalilidir. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, “AQSH va ayrim G'arbiy Yevropa davlatlarida 1989-yilga kelib bir jinsli odamlarning nikohini ro'yxatga olishga erishildi” [3, 14]. Shu sababli bugun aksar Yevropa davlatlaridagi asosiy muammo – bu demografik inqirozdir.

Yevropa ittifoqida 2016-yil uchun olib borilgan hisob-kitoblarga qaraganda, mazkur sanada tug'ilgan chaqaloqlarning 43 foizi nikohsiz dunyoga kelgani ma'lum bo'lgan. YEI statistika qo'mitasi (Eurostat) tomonidan tarqatilgan so'nggi ma'lumotlarga qaraganda, g'arb davlatlarida nikohsiz tug'ilishlar 2000-yildagiga nisbatan 15 foizga ortgan. Bu jarayon ayniqsa, Fransiya (60 foiz), Bolgariya (59 foiz), Sloveniya (59 foiz), Estoniya (56 foiz), Shvetsiya (55 foiz), Daniya (54 foiz), Portugaliya (53 foiz) va Gollandiya (50 foiz) kabi davlatlarda qayd etilgan. Ta'kidlab o'tish joizki, so'nggi yillarda mazkur davlatlarda nikoh bilan

tug'ilgan bolalarga nisbatan nikohsiz tug'ilgan go'daklar ko'pchilikni tashkil qiladi [4]. Ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda qamalanganlarning yarmidan ko'pi buzilgan oilalar farzandlari ekani, ota-onasining ajrashgani tufayli yetkazilgan kuchli ruhiy zarba erkak va ayollarga o'rta yosh, hatto keksalik chog'ida ham salbiy ta'sir ko'rsatib turishi aniqlangan.

G'arbona individualizm, inson huquqlari va shaxs erkinligi shiori ostidagi “erkinlik” kabi falsafiy ta'limotlar ta'sirida yuzaga kelgan adabiyot va san'atdagi oqimlar butun boshli avlodlarning voyaga yetishishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi hamda ularda axloqiy normalardan chekinish, nikoh va oilaga eskilik sarqiti, erkinlikni bug'ish degan qarashni shakllantirdi. Ushbu qarashlar ta'sirida ayollarning oiladagi an'anaviy vazifalaridan ozod etilishi esa ularning oila va nikohga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda dunyoda ko'plab mamlakatlarda xotin-qizlar feminist ayollarning qarashini qabul qilib, turmush qurish va bola tug'ishdan voz kechmoqda. Shu sababli, amerikalik siyosatchi va publitsist P.Byukenen Amerika xalqiga qarata “1950 – yillarda boshlangan “ommaviy madaniyat” harakati 1990 – yillarga kelib millatimizni naslsizlik balosiga duchor qildi” deb, murojaat qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, globallasuv jarayonida g'arbcha turmush tarzini tiqishtirish orqali dunyo xalqlarini o'ziga xos tarzda g'arblashtirishga intilish kuzatilmoqda. Tabiiyki, g'arblashtirish (amerikalashtirish) xalqlarning o'ziga xosligi, milliy xususiyatlari, madaniy an'analariga putur yetkazmoqda. Barchamizga ma'lumki, tabiat bo'shliqni yoqtirmaydi. Gap shundaki, SSSR tanazzulga yuz tutganidan so'ng AQSH hukumatining tashqi siyosatidagi “norasmiy” mafkuraviy quroli bo'lmish “amerikacha madaniyat” turli jabhalarda namoyon bo'lgan holda jadal tarqalib bordi. Shu o'rinda globallasuvni “yaxlit dunyoning shakllanishi, yagona yirik davlatning qaror topishi, yagona madaniyatiga ega xalqaro hamjamiyatning tarkib topishi jarayoni” sifatida talqin qilayotgan odamlar yodga tushadi. Bu jihatdan aksilglobalistlar globallasuv jarayonini madaniy imperializmning yangi ko'rinishi deb talqin qilayotgani ham bejiz emas.

Ba'zi bir yirik g'arb mamlakatlari tomonidan endigina mustaqillikka erishgan davlatlarni yo'q qilish maqsadida ularga qarata olib borayotgan yovuz harakatlari, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbini buzib ularga yot g'oyalarni singdirish borasida ommaviy madaniyat ko'rinishidagi mafkuraviy tazyiqlarni amalga oshirishga qaratilgan. Bunday ishlar, ayniqsa, kino va teatr olamida yengil-yelpi ma'nan buzuq filmlar va tomoshalar, qo'shtirnoq ichidagi kiyinish madaniyati borasidagi modalar va musiqa san'atida ham yoshlar ma'naviyatiga tez va salbiy ta'sir etadigan shou ko'rsatuvlar va h.k.lar ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev masalaning shu jihatiga alohida to'xtalib, “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o'zimizdan, o'z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo'q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo'shiq va raqslarni kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy” deb ta'kidlaydi [6].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlar tahlili asosida aytishimiz mumkinki, bunday ko'rinishdagi yot g'oyalarni aholi, yoshlar ongiga singdirishga qilinayotgan harakatlar hozirgi davrning eng katta muammolaridan biridir, chunki ular quyidagi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- aholi, jumladan, yoshlarni shakllantiruvchi jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, ulardagi muayyan o'zgarishlarga olib keladi, ya'ni milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar tizimini izdan chiqaradi;

- insonlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi va hozirgi zamon jamiyatining qiyofasini o'zgartiradi;

- insonlarning ijtimoiy va individual ongida destruktiv o'zgarishlar ro'y beradi;

- yoshlarning Vatanga, ota-onaga bo'lgan muhabbat, oila muqaddasligi hamda kattaga bo'lgan hurmat his-tuyg'ularning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Albatta, hozirgi vaqtda ma'naviy-mafkuraviy inqiroz va tanazzulni xarakterlovchi xususiyatlar aholining ma'naviy qiyofasi, odamlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga munosabatida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Odamlar orasida mehr-muhabbat, oqibat, barg'ikenlik, ijtimoiy faollik kabi xislatlar kamayib bormoqda, aksincha, loqaydlik, beburdlik, bezorilik, berahmlik, beparvolik kabi illatlar ko'paymoqda.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda 2023-yil yanvar-sentyabr oylarida nikohdan ajralishlar soni 37,7 mingtani tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 17,7 mingtaga ko'paydi. Ajralishlar shahar joylarida 22,7 mingtani (60,3 foiz), qishloq joylarida 15 mingtani (39,7 foiz) tashkil etdi. 2023-yilning 9 oy davomida bir nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 10 ming 229 tani (27,2 foiz), ikki va undan ortiq farzand bilan nikohdan

ajralishlar 8 ming 331 tani (22,1 foiz) tashkil etgan. Farzandsiz nikohdan ajralishlar soni 19 ming 94 ta (50,7 foiz) bo'lgan [7]. Fikrimizcha, bu raqamlar mohiyatida g'arbons madaniyatning ta'sir yaqqol ko'rinib turibdi va bundan har birimiz jiddiy xulosalar chiqarishimiz zarur. Bugun ogohlik davri bo'lib, xalq-qimizni, ayniqsa, yoshlar qalbini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi xatarlardan muhofaza qilish zarur.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida ta'kidlash zarurki, bugungi globallashuv davrida "ommaviy madaniyat" tahdidlari xonadonimizga ham kirib keldi va o'zining salbiy natijalarini ko'rsata boshladi. Shu boisdan, oldimizdagi asosiy masala milliy tarbiya tizimi asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligi va samardorligini oshirish, ma'naviy tahdidlariga nisbatan sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash, mamlakatimiz milliy manfaatlari, an'ana va qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlarning maqsad-muddaolarini teran anglash, ayniqsa, yoshlarimizni bu kabi xavf-xatarlardan himoya qilishimiz, ularni "ma'naviyat" vaksinasi bilan emlashimiz kerak.

Bu borada g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyili davr talabi va hayot haqiqati bo'lib qolishi darkor. Shu bois bugungi globallashuv davrida jamiyatimiz ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda Vatan va xalq manfaatlari ustuvor g'oya bo'lmog'i, aholi, ayniqsa, yoshlarimizni yuksak bilimga ega bo'lgan, o'z so'zida sobit turadigan mard, jasur va qat'iyatli insonlar qilib tarbiyalash har qachongidan muhim vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Brzezinski Z. Between Two Ages. America's Role in the Technotronic Era. – N.Y., 1970.
2. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. – T.: "Akademiya", 2011.
3. G'aniyev A. G'arb olamidagi ahloqiy muammolar. – Toshkent: Voris, 2007.
4. <https://aniq.uz/yangiliklar/evropa-ittifoqida-43-foiz-bola-nikohsiz-tugilgan>
5. Allanbayev R. "Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni". O'zDSMI xabarleri — 2018, №1(5).
6. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 04.08.2017
7. <https://daryo.uz/k/2023/11/05/ozbekistonda-nikohdan-ajralishlar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi>



UDK:373.5:(53)

Mazifa ESHNAZAROVA,
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM o'qituvchisi
E-mail:eshnazarovamazifa@gmail.com

QDU professori I.Kamolov taqrizi asosida

AKVARELDA NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI ISHLASH METODIKASI

Аннотация

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar natyurmortni akvarel bo'yog'ida ishlash ko'nikmalari bilan birgalikda rangshunoslik nazariyasini ham o'zlashtirib borishlari zarur. Ushbu maqolada natyurmortni akvarelda ishlash yo'llari va darslarda zamonaviy metodlardan foydalanish usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, rangtasvir, natyurmort, tarshon qog'oz, akvarel, perspektiva, kompozitsiya, etyud.

МЕТОДИКА РАБОЧЕЙ КОМПОЗИЦИИ НАТЮРМОРТА АКВАРЕЛЮ

Аннотация

На уроках изобразительного искусства учащимся необходимо изучить теорию цвета наряду с навыками работы с натюрмортом акварелью. В этой статье представлена подробная информация о способах работы с натюрмортом акварелью и о том, как использовать современные методы на занятиях.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, живопись, натюрморт, бумага, акварель, перспектива, композиция, этюд.

METHODOLOGY FOR WORKING STILL LIFE COMPOSITION IN WATERCOLOR

Annotation

In fine art classes, students need to learn the theory of color along with the skills of working with still life in watercolor. This article provides detailed information about ways to work with still life in watercolor and how to use modern methods in classes.

Keywords: Fine art, painting, still life, paper, watercolor, perspective, composition, etude.

Kirish. O'zbekistonda san'at, ma'naviyat, estetik va badiiy an'analarni avlodlarning avlodlarga yetkazish, san'at asarlarini idrok etishga o'rgatish orqali badiiy madaniyatni rivojlanishi, jismoniy, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, jismoniy salomatligini mustahkamlash, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tasviriy san'at fanning o'quvchilarda xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish bilan birga badiiy va estetik did hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy sanatning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohada bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tasviriy san'at fanining o'qitish konsepsiyasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'qitilishining nazariy tizimlarini, asosiy tamoyillarini, dolzarb masalalar yechimining maqsad va vazifalarini hamda ta'lim muassasalarida mazkur fanlarni o'qitishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Tasviriy san'at o'quv fani o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, boshqa fanlarni (aniq va tabiiy fanlarni) o'zlashtirish jarayonida kreativ fikrlashga, dars jarayonida badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashga xizmat qiladi.

O'quvchilar Tasviriy san'at darslarida borliqdagi va san'at asarlaridagi go'zalliklarni ko'ra olish, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar.

Tasviriy san'at fani orqali o'quvchilarni rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik, shuningdek, amaliy, me'morchilik, miniatyura va dizayn san'atining o'ziga xos tasviriy usullaridan, ifodaviy vositalardan amaliy-ijodiy faoliyatda to'g'ri foydalana olishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv dasturi fanning xususiyati, mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, san'atshunoslik asoslari, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik va kompozitsiya kabi boblarga ajratildi [1].

Tasviriy san'at fanining o'quv dasturida rangshunoslik nazariyasini o'rganish, kompozitsiya tuzish qonun qoidalarini o'rganish uchun natyurmortni rangtasvirida ishlash mavzulari berilgan. Dasturda quyidagilar belgilab berilgan. Rangtasvir asoslari, Rangtasvir xususiyatlari, Spektr ranglari, Turli hil rang koloritida ishlangan rangtasvir asarlarini tahlil qilish. Mavzu asosida spektr ranglarni tasvirlash. Rangtasvirida natyurmort ishlash bosqichlari. Rangtasvirida ishlash. Rangtasvirida ishlangan natyurmort asarlarini tahlil qilish. Komponovka qoidalari, chiziqli va havo perespektiva qonuniyatlari asosida, natyurmort ishlash bosqichlari asosida tasvir bajarish.

Milliy idishlardan natyurmort ishlash mavzusida, Milliy idishlarning turlari, shakllari, naqsh bezaklari (paxta gulli va atlas gulli naqsh bezaklari) haqida tahlil qilish. Lagan, kosa, piyoladan tuzilgan natyurmortni qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglar orqali yorug'-soya qonuniyatlarini to'g'ri bajarish kabi ko'nikmalarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun 5-7-sinfda rangtasvirida naturadan rasm ishlash uchun qo'yiladigan natura buyumlari ixcham shaklli, bir tusdagi rangli bejirim buyumlar,


matolar, meva va sabzavot mulyajlari bo'lishi lozim. Natyurmort sinfxonada ikkita joyga qo'yilsa o'quvchilar uchun naturadan rasm ishlash qulay bo'lib, dars samaradorligi oshadi [5].

Milliy idishlardan tuzilgan mavzuli natyurmortni tuzish uchun sovuq tusdagi 2 xil mato, o'zbek xalq amaliy


san'atiga oid kulolchilik buyumlaridan sopol ko'za va meva mulyaji (olma, anor, nok, bexi) bo'lishi mumkin.

Milliy idishlar ishtirokida tuzilgan natyurmortni rangtasvirda ishlashda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi qanday bo'lishi kerak. Ya'ni oldingi sinflarda va o'tilgan darslarda;

1. Naturadan qalamtasvir ishlash ko'nikmasi;



2. Perspektiva haqida tushunchaga ega bo'lishi;



3. Grizaylda natyurmort kompozitsiyasini ishlagan bo'lishligi;



4. Akvarelda ishlay olish ko'nikmalai shakllangan bo'lishi;



Milliy idishlarishtirokidatuzilgan mavzuli natyurmortni o'quvchilar bilan sinchiklab o'rganib chiqiladi. Bu jarayonni savol-javob tarzida o'tkazish mumkin.

Natyurmort nechta buyumdan iborat?

Buyumlar qanday materialga ega?

Buyumlar shakli qanday geometrik shakllarga o'xshaydi?

Natyurmortdagi buyumlar bir-biriga nisbatan qanday joylashgan?

Buyumlar bir-biriga nisbatan katta kichikligi taqqoslanadi.


Natyurmortni chizish uchun qog'zimizni qalamda yengil to'rtga bo'lib olamiz, qog'oz o'rtasidan vertikal va gorizantal chiziq chizib olamiz.

Natyurmortni qalamda chizishda ham bir qancha chizish qoidalariga e'tibor qilish lozim.

1-bosqich. Buyumlar nisbatlarini bir-biriga taqqoslagan holda yengil chiziqlarda qog'oz sathida o'rmini belgilash;

2-bosqich. Buyumlar konstruktiv tuzilishii va perspektiv qisqarishini ufq chizig'iga binoan aniqlash;

3-bosqich. Buyumlar shakllarin



Naturadan rangtasvir ishlash uchun akvarel, mo'yqalam, palitra, suv idish bo'lishi kerak. Buning uchun tarshon qog'oz planshetga (matoviy skochda) maxkamlanadi.

Qalamda natyurmortni chizib bo'lgach qog'oz mo'yqalamda yengil namlab olinadi. Agar buyumlarda yaltiroqlik bo'lsa o'sha joy qalamda belgilab qo'yiladi va rangda ishlash jarayonida oq holda qoldiriladi. Ranglashni orqa fondan boshlanadi, kerakli rang palitrada tayyorlanadi va qog'oz sathida ohista kerakli joylarga mo'yqalamda suriladi. Shu tariqa orqa fon va buyumlar ranglab chqiladi. Ish davomida buyumlar hajmini ko'satish uchun soya-yorug' joylarga e'tibor qaratiladi. Birinchi planda turgan buyumlar yorqin va issiq ranglarda aniqroq ishlanishi, orqa fon esa sovuq ranglarda xira ishlanishi lozim. Yakuniy bosqich ishni yakunlash.

Akvarel bo'yog'ida naturadan rangtasvir ishlash jarayonida o'quvchilarga savollar;

1. Buyumlar qanday rangga ega?

2. Natyurmort foni rangi qanday?

3. Natyurmortdagi buyumlarning qaysilari issiq, qaysilari sovuq ranglardan iborat?

4. Rang perspektivasi deganda nimani tushunamiz?

Akvarelda qisqa muddatli etyudlarni bajarish.

Uzoq muddatli akvarel rangtasvirini ishlashdan oldin bir nechta qisqa muddatli etyudlarni amalga oshirgan ma'qul.

Bu orqali yosh ijodkor o'z oldiga bir qancha vazifalarni maqsad qilib qo'yadi. Birinchi navbatda ular, ranglar munosabati, ranglar uyg'unligi, buyumlar hajmi va qismlarga ajratish (detalizatsiya) jarayonlari qonun-qoidalariga ega bo'lib boradilar. Bunday holatlarda ayrim yaxlit narsalargina ishlana-di, masalan; biror narsa meva yoki sabzavotni alohida ishlanishi, tabiatning bir qismi, bir nechta buyumlarning bir bo'lagini ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi etyud mashqlarini ishlash vaqtida ranglar aralashmasini bosqichma-bosqich amalga oshirgan ma'qul. Bunda etyudlar och ranglar bilan boshlanib asta-sekinlik bilan to'q ranglarga o'tiladi.

Akvarel bilan ishlash jarayonida tasvirlanayotgan buyumning hajmiga, yorug' -soya tomonlariga va eng yorug'(blik) qismiga hamda ranglarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi. Rangtasvir ishlashni natyurmortdan, u orqali esa natyurmortdagi issiq- sovuq

i aniqlashtirish;

4-bosqich. Soya -yorug' joylarni aniqlash;

Rangda ishlashni boshlash. Buning uchun soya -yorug' qonuniyatlari asosida ish olib boriladi. Soya -yorug' qonuniyatlari quyidagilar.

ranglar, buyumlardagi eng och va to'q tuslar, eng yorug' joy (blik), soya, yarim soya, tushuvchi soya kabi qonuniyatlarini o'zlashtiriladi. Bunday natyurmortni ishlash uchun bizga har doimgidek natyurmortning kichik ko'rinishidagi qisqa muddatli etyudlarini ishlashdan boshlaymiz. Avvalo natyurmortda qo'yilgan buyumlar soni 2 tadan 5 tagacha bo'lishi kerak. Natyurmortni iloji boricha xonaning yorug' qismiga ya'ni derazaga yaqinroq qilib joylashtirishimiz lozim. Bunda eng asosiy vazifa buyumlarni qog'oz yuziga joylashtirishdan boshlanadi. So'ngra natyurmortdagi eng och va to'q tuslarni aniqlab qog'oz yuzasini ho'llagan holda etyudni davom ettiramiz[3].

Undan keyin qog'oz yuzasiga ranglarni qo'yayotganimizda, natyurmortdagi buyumlar sirtidagi eng yorug' joyini (blik) bo'yamasdan qoldirib ketamiz. Oq rang uchun qog'ozning oqligidan foydalanamiz. Natyurmortdagi buyum va matolarning umumiy tuslarining, rangini qo'yganimizdan keyin, natyurmortdagi issiq - sovuq ranglarni yorqin, tiniq bo'yoqlar orqali qo'yilmadagi (postonovka) yorug', soya, yarim soya va tushuvchi soyalarning rangini qo'yishda davom etamiz. Ranglarimiz bir oz qurishi bilan birinchi va planlar ustida ishlashni boshlaymiz.

Bu paytda birinchi plandagi buyumlarni qismlarga ajratish (detalizatsiya) bilan birga, ikkinchi va uchinchi planlardagi buyumlarni sayqallash (lessirovka) orqali ularni birinchi plandagi buyumlardan uzoqlashtiramiz. Shu bilan qisqa muddatli etyudimizni yakunlaymiz. Qisqa muddatli etyudlar kichik o'lchamli qog'ozga akvarelda tez ishlanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o'rnida shun ta'kidlash mumkinki, akvarelda natyurmortni ishlash jarayonida o'quvchilar amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'ladi. Zamonaviy metodlarni qo'llash esa nazariy bilimlarni aniqlik bilan qabul qilishga yordam beradi.

Buyumlarni taqqoslash uchun "Conffronto" metodidan foydalanish yaxshi natija beradi. "Conffronto" italyancha so'z bo'lib, "taqqoslash" degan ma'noni bildiradi. Bu metodda o'quvchi borliqdagi narsa-buyumlarni kuzatadi va ularni nimaga taqqoslash mumkinligini aytib beradi. Ko'pincha geometrik shakllarga taqqoslash mumkin. Odatda geometrik shakllar va turli chiziqlar tasvirning xomaki nusxasini chizib olish uchun qulaylik yaratadi. Misol uchun ko'zacha shakli bir nechta kesik konuslardan iborat, olma sharsimon shaklga ega.



“Darcha” usulidan foydalanish. Natyurmotr kompozitsiyasini aniqlashda “vid iskatel”dan (kuzatuv darchasi) foydalanish lozim, “vid iskatel” – 15x10 sm. karton o’rtasidan 5x8 sm.li to’rt burchak o’yib darcha hosil qilinadi. Ana shu kuzatuv darchasi orqali natyurmot kuzatiladi, kompozitsion joylashuvi aniqlanadi [2].

So’ngi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Vidiotopishmoq metodida o’quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks etirilganini izohlaydilar va

jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar, o’qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar. Tasviriy san’at darslarida videotopishmoq metodini qo’llash samarali natija beradi. “Vidiotopishmoq” metodidan foydalanishda 1-3 daqiqalik akvarelda ishlash jarayoni ko’rsatilgan vidiorolikda namoyish etiladi[4]. Masalan o’qituvchi natyurmort, manzara va boshqa janrlarni ishlash jarayoni vidiosini ko’rsatadi va o’quvchilardan bu jarayonlar tasviriy san’atning qaysi janriga mansub ekanligi va ish jarayoni bosqichlari bahs munozara qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Tasviriy san’at va chizmachilik Milliy o’quv dasturi.T. 2017.
2. Abdirasilov S.F. “Tasviriy san’at o’qitish metodikasi”. Toshkent-2012.
1. Artiqov. G. A. Rang tasvir texnikasi vaashyolar texnologiyasi. Toshkent -2007.
3. Respublika ta’lim markazi.Tasviriy san’at. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Toshkent -2022
4. Tasviriy san’at. 6- sinf uchun darslik. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan.Toshkent-2022.



УДК: 159.99:314.6

Санжар Юлдашев,
*PhD, и.о.доцента кафедры «Практическая психология»
Ташкентского государственного педагогического университета
E-mail:Psixolog_84@mail.ru*

Рецензент: д.пс.н., профессор Каримова В.М.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF REPATRIATES AFTER THEIR RETURN TO THE HOMELAND

Annotation

This article reflects the problems of socio-psychological adaptation of women repatriated from zones of terrorist activity as part of the Mehr humanitarian operations, based on an analysis of the results of a field study in pilot regions of the country.

Key words: adaptation, emotional comfort, integral characteristics, intervalism, escapism, maladaptation, repatriate, self-acceptance.

REPATRIANTLARINING VATANGA QAYTARILGANDAN SO‘NGGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatning pilot hududlarida o‘tkazilgan dala tadqiqotlari natijalarining tahlili asosida, «Mehr» gumanitar operatsiyalari doirasida terroristik faol zonalardan repatriatsiya qilingan ayollarning ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: moslashuv, emotsional komfort, integral tavsiflar, internallik, eskapizm, repatriant, o‘z-o‘zini qabul qilish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ РЕПАТРИАНТОВ, ПОСЛЕ ИХ ВОЗВРАЩЕНИЯ НА РОДИНУ

Аннотация

В данной статье отражены проблемы социально-психологической адаптации женщин, репатрированных из зон террористической активности в рамках гуманитарных операций «Мехр», на основе анализа результатов проведенного полевого исследования в пилотных регионах страны.

Ключевые слова: адаптация, эмоциональный комфорт, интегральные характеристики, интервальность, эскапизм, дезадаптивность, репатриант, самопринятие.

Введение. С 2019 по 2021 год в Республике Узбекистан по инициативе Президента страны были реализованы пять специальных операций по возвращению женщин и детей из зон вооруженных конфликтов, тем самым поддержав призыв Генерального Секретаря ООН Антонио Гуттериша о важности оказания помощи правительствам в разрешении гуманитарного кризиса в Сирии и Ираке.

В отличие от других стран, также вернувших своих граждан из зон вооруженных конфликтов, Узбекистан реализовал подход, ориентированный на реинтеграцию репатрированных лиц через восстановление и укрепление семейных связей (в основном, биологических), которые должны оказать не только реабилитационную, но и помощь в повторной социализации женщинам и детям в сообществе.

Литературный анализ. Изучению социально-психологической адаптации женщин и детей, после их возвращения на родину в отечественной психологической литературе в последние годы внимание уделяется не на достаточном уровне. Потому что, организация групповой репатриации – это новый опыт или шаг для нашей страны на пути защиты прав и свобод своих граждан. Тем не менее, нами были изучены передовые подходы и методологии зарубежных стран, которые демонстрируют внушительный потенциал научной информации по изучению проблемы адаптации репатриантов. Вместе с тем, как показал литературный обзор, недостаточно исследованы проблемы адаптации выходцев из других

культур к родственной культуре принимающей стороны, не выделены этапы процесса адаптации.

Методология исследования. С целью сбора и анализа успешных практик и трудностей/барьеров в процессе ре-интеграции женщин и детей, возвращенных из зон террористической активности в Сирии и Ираке было проведено полевое исследование. Целью исследования было изучение особенностей социально-психологической адаптации (СПА) и эмоционального статуса женщин репатриантов. Обследовано 57 женщин. Показатели СПА, в том числе, ее интегральные характеристики, оценивались по опроснику К. Роджерса - Р. Даймонда.

Анализ и результаты. Установлено, что структура нарушений СПА у женщин включает низкую степень адаптивности, притяжения себя, притяжения других, эмоционального комфорта и внутреннего контроля; низкие оценки интегральных характеристик: адаптации, самопринятия, принятия других, эмоциональной комфортности и интернальности. Отражением социально-психологической дезадаптации у женщин является умеренно выраженная дезадаптивность, неприятие себя, неприятие других, ведомость, эскапизм; из интегральных показателей – более высокие показатели шкал адаптация, самопринятие и стремление к доминированию.

Социально-психологическая адаптация - это взаимодействие личности и социальной среды, которое приводит к оптимальному соотношению целей и ценностей личности и группы. В ходе социально-

психологической адаптации реализуются потребности, интересы и стремления личности, раскрывается и развивается ее индивидуальность, личность входит в новое социальное окружение. Результатом социально-психологической адаптации личности является сформированность социальных и профессиональных качеств общения, поведения и деятельности, принятых в обществе.

Уровни проявления интегральных показателей оценивались по следующим критериям: высокий уровень—значения показателя выше 60%, средний уровень—от 40% до 60%, низкий уровень—ниже 40%.

Одной из основных интегральных характеристик СПА является адаптация, означающая приспособление психической деятельности человека к условиям

окружающей среды. При изучении показателей адаптивности, как приспособления живого организма к постоянно изменяющимся условиям существования во внешней среде, была выявлена преимущественно высокая степень адаптивности у 62% женщин репатриантов. Низкая адаптивность вообще не встречалась. Средняя адаптивность регистрировалась у 38% числа обследованных.

Под термином дезадаптивность подразумевают непригодность психической деятельности к условиям окружающей среды.

Таблица №1. Результаты исследования репатриантов по методике социально-психологической адаптации Роджерса и Даймонда.

Социально-психологическая адаптация женщин репатриантов			
Показатель	Низкий	Средний	Высокий
Адаптация	0%	38%	62%
Самопринятие	48%	42%	10%
Принятие других	8%	8%	84%
Эмоциональный комфорт	2%	56%	42%
Интернальность	16%	54%	30%
Стремление к доминированию	8%	0%	92%
Эскапизм (уход от проблем)	98%	0%	2%

Другой интегральный показатель СПА - «Самопринятие», характеризует степень дружелюбности-враждебности по отношению к собственному «Я». Высокие баллы по этой шкале означают одобрение себя в целом и в существенных частностях, доверие к себе и позитивную самооценку, низкие баллы—видение в себе в основном недостатков, низкую самооценку, готовность к самообвинению. Низкое самопринятие может достигать уровня патологических состояний, когда человек ненавидит всего себя и хочет коренным образом измениться. Такая степень выраженности самопринятия наблюдалась у 48% обследованных нами и средняя (42%) и лишь небольшой процент 10% с высокими показателями.

Интегральный показатель СПА по шкале «Принятие других» отражает уровень дружелюбности-враждебности к окружающим людям, к миру. Высокие баллы по этой шкале означают принятие людей, одобрение их жизни и отношения к себе в целом, ожидание позитивного отношения к себе окружающих, низкие баллы—критическое отношение к людям, раздражение, презрение по отношению к ним, ожидания негативного отношения к себе.

Показатель принятие других (эмпатия), характеризующий понимание эмоционального состояния другого человека посредством сопереживания, проникновения в его субъективный мир, имел высокие оценки у большинства женщин (84%). Наряду с этим, недостаточно выраженные проявления эмпатии наблюдались у 8% респондентов низкий уровень и столько же процентов средний уровень.

Показатель «Эмоциональный комфорт» отражает характер преобладающих эмоций в жизни индивидуума. Высокие баллы показателя по шкале свидетельствуют о преобладании положительных эмоций, ощущении благополучия своей жизни, низкие баллы - о наличии выраженных отрицательных эмоциональных состояний.

Состояние эмоционального комфорта свидетельствует о наличии преимущественно позитивных эмоциональных состояний и ожиданий, спокойствия, уравновешенности, ощущении внутреннего благополучия. От уровня психологической комфортности зависит не только развитие ребенка и усвоение им знаний, но и физическое состояние детей. Создание атмосферы доброжелательности, адаптация к конкретным условиям, в т.ч. к условиям конкретной образовательной и социальной среды, позволяет снять напряженность и невротические состояния, негативно воздействующие на здоровье учащихся. Эмоциональная комфортность также является одной из интегральных характеристик СПА. Показатель отражает состояние уверенности, спокойствия, удобства, когда человек всем доволен, оптимистичен, открыто выражает свои чувства, свободен от страха и тревоги. Сравнительный анализ такой характеристики СПА, как эмоциональный комфорт, означающий ощущение признания личностной, человеческой ценности и значимости независимо от того, какими качествами обладает человек, показал, что большая часть женщин 56% имели средние оценки этого показателя и 42% высокие. У 2% отмечался низкий уровень эмоционального комфорта.

Показатель шкалы «Интернальность» отражает, в какой степени человек ощущает себя активным объектом собственной деятельности, и в какой—пассивным объектом действия других людей и внешних обстоятельств. Высокие значения баллов шкалы свидетельствуют о высокой степени ответственности, человек считает, что происходящие с ним события являются результатом его деятельности, низкие баллы-человек полагает, что происходящие с ним события являются результатом действия внешних сил (случая, других людей и т.д.). Интернальность - это преобладание внутреннего контроля, возложение ответственности за жизненно важные для индивида события на самого себя,

объяснение их особенностями своего поведения, это уровень субъективного контроля. Человек осознает, что его жизнь зависит от него самого, он имеет возможность изменять среду и управлять ею. Лица данного типа менее тревожны, менее подвержены депрессиям, меньше проявляют агрессию, более доброжелательны, обладают терпением и тактичностью, они умеют добиваться желаемого. Высокая интернальность свидетельствует о достаточном уровне приспособления. По нашим данным, интернальность имела среднюю оценку согласно критериям данной шкалы у большинства женщин репатриантов 54%. Низкая оценка показателя была у 16%, а высокая отмечалась у 30%.

Интегральный показатель шкалы «Доминирование» отражает степень стремления человека доминировать в межличностных отношениях. Высокие показатели свидетельствуют о склонности подавлять другого человека, чувствовать превосходство над другими, низкие показатели – склонность к подчинению, мягкость, покорность. Нами у 2/3 обследованных диагностирована высокая степень доминирования (92%), значительно реже встречалась низкая 8%.

Эскапизм (уход от проблем) – это индивидуалистическо-примиренческое стремление личности уйти от действительности в мир иллюзий и фантазий. Умеренный уровень эскапизма вообще не установлен, а низкая степень выраженности эскапизма был у подавляющего числа респондентов 98%, также высокий уровень показателя встречается в небольшом количестве 2%.

Выводы и предложения. Резюмируя итоги исследования, мы видим, что женщины репатрианты имеют высокие показатели адаптации, что свидетельствует об отсутствии проблем в реинтеграцию в общество, тогда как показатель самопринятия у большинства на низком уровне, нужна дальнейшая работа психолога по стабилизации самооощущения и балансирования внутренних механизмов женщин. Показатель принятия других в основном вышел высоким, следовательно, дает информацию нам, о высокой степени социализации и интеграционных возможностей женщин,

легко устанавливать новые связи и приобщаться к обществу.

Эмоциональный комфорт в целом разделен между средним и высоким уровнем, что указывает на систематическую работу специалистов в отношении стабилизации и поддержания на достаточном уровне умеренных показателей комфортности эмоционального фона. Интернальность в среднем стабильный показатель у женщин, что подтверждает факт о наличии ответственности за свою судьбу и за жизнь детей. Стремлению к доминированию почти в абсолютном показателе среди всех женщин вышел на достаточно высоком уровне, предполагаем, что это связано с стремлением держать все в своих руках, так как у большинства рядом нет опоры, на кого могут положиться и все бразды правления переходят под личную ответственность. Эскапизм в доминирующем положении вышел на довольно низком уровне, подтверждая адекватное отношение женщин к жизни и готовность к разрешению проблем.

Исходя из вышеизложенного, для содействия в адаптации репатриантов предлагаются:

– удовлетворение самых неотложных потребностей репатриантов, с которыми они не могут справиться самостоятельно (например, жилье). В остальных случаях – рассматривать потребности репатриантов наравне с потребностями других социально-уязвимых групп женщин и детей в целях пресечения иждивенческого настроения некоторых из них;

– активное вовлечение репатриантов в культурно-просветительские мероприятия, проводимые в школах, махаллях;

– формирование у женщин-репатриантов модели поведения на принципах равной с другими гражданами социальной, правовой ответственности перед государством, обществом;

– содействие в трудоустройстве, в профессиональном обучении;

– формирование правосознания, гражданской ответственности, обучение уважению национальных традиций, обычаев.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ндунг И и М. Шадунг (2018) “Может ли гендерный подход улучшить реагирование на воинствующий экстремизм?” Институт исследования безопасности. <https://community-democracies.org/app/uploads/2018/06/aitwr-5-1.pdf>
2. Отчет организации "ООН-женщины", (2023 г) Укрепление потенциала служб, учитывающих гендерные аспекты, и предоставляющих защиту женщинам и детям, вернувшимся из зон конфликтов в Узбекистан: результаты исследования. Региональное отделение "ООН-женщины" для Европы и Центральной Азии. Неопубликован.
3. UNESCO (2016) Руководство для учителей по профилактике воинствующего экстремизма. www.unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000244676/pdf/244676eng.pdf.multi
4. Браун, К. Э. и Ф.Н. Мохаммед (2021), Гендерно-чувствительные подходы к управлению возвращающимися детьми FTF. ICCT. Гаага. https://ec.europa.eu/home-affairs/whats-new/publications/gender-sensitive-responses-returnees-foreign-terrorist-organisations-december-2021_en



Jaloliddin YUSUBOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
Boburjon HASANOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: sherzodxamrayev1990@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori, A.Muxtarov taqrizi asosida

XORIJIY DAVLATLARDA OMMAVIY NOROZILIKLARNI OLDINI OLISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda aholining ommaviy norozilik kayfiyatini uyg‘otuvchi omillarni aniqlash va oldini olish choralari haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, bu borada jamoatchilik roli, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan g‘oyaviy-mafkuraviy targ‘ibot tadbirlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: norozilik, xorij, mafkura, milliy yuksalish, renesans, siyosat, falsafa.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ МАССОВЫХ ПРОТЕСТОВ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Аннотация

В данной статье приводятся сведения о выявлении и предупреждении факторов, провоцирующих общественное недовольство среди населения в зарубежных странах, а также анализ роли общественности в связи с этим и идейно-пропагандистских мероприятиях.

Ключевые слова: протест, зарубежье, идеология, национальный подъем, ренессанс, политика, философия.

SPECIFIC ASPECTS OF PREVENTING MASS PROTESTS IN FOREIGN COUNTRIES

Annotation

This article provides information on the identification and prevention of factors that provoke public discontent among the population in foreign countries, as well as an analysis of the role of the public in this regard and ideological and propaganda activities.

Key words: protest, abroad, ideology, national rise, renaissance, politics, philosophy.

Kirish. Jamiyatning xavfsizligi muammosi har qanday davlatning e‘tiborida turadigan eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ommaviy noroziliklar mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti barqarorligiga tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Shu bois ommaviy noroziliklarning oldini olish va bartaraf etishda jahon tajribasini o‘rganish yaxshi samara beradi.

Rossiya, AQSh, Fransiya, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlarda ommaviy noroziliklarni oldini olish faoliyati 2 yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi, ular:

- uzoq muddatli;
- joriy yoki qisqa muddatli [6].

Uzoq muddatli chora-tadbirlarda bevosita ommaviy noroziliklar vujudga kelgunga qadar bo‘lgan faoliyat qamrab olinadi.

Bunda nafaqat HMQ organlar balki, davlat va jamoat organlari ham belgilangan vazifalarni bajaradi hamda ular o‘rtasida hamkorlik tashkil qilinadi.

Joriy yoki qisqa muddatli chora-tadbirlarda esa ommaviy noroziliklar real holatda yuz bergandan so‘ng uni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat nazarda tutiladi. Bundan asosan HMQ organlar va zarurat tug‘ilsa harbiy qo‘shinlar tegishli vazifalarni bajaradi. Ushbu bosqich bevosita kuchishlatish bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakat miqyosida yoki ayrim hududlarda favqulodda holat rejimini joriy qilish bilan xarakterlanadi.

Har ikki yo‘nalishda ham tegishli dasturlar va konsepsiyalar qabul qilinib, ijrosi bo‘yicha doimiy nazorat o‘rnatiladi.

1. Uzoq muddatli chora tadbirlar belgilangan dastur va konsepsiyalar ko‘lami jihatdan ancha katta bo‘lib, ularda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa sohalariga tegishli masalalar kiritilishi mumkin. Chunki aynan ushbu sohalaridagi chuqur muammolar kelgusida ommaviy noroziliklarni keltirib chiqarishga sabab bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan ushbu yo‘nalishda aholining turli muammolarini o‘rganish, monitoring qilib borish, ularning qulay yechimlarini topish kabi vazifalarning belgilanganligi bilan ikkinchisidan ajralib turadi.

Rossiya Federatsiyasida ommaviy noroziliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli chora-tadbirlar yo‘nalishida asosiy e‘tibor jamiyatda hukmsuradigan **“omma kayfiyati”** tushun-chasiga qaratiladi [3].

U asosan ko‘pchilikodamlar massasining jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan umumiy psixologik kayfiyati bilan tavsiflanadi.

Agar jamiyatdagi omma kayfiyati salbiy xarakter kasb etsa, u holda ommaviy noroziliklar kelib chiqish ehtimoli oshib boradi. Shuning uchun, birinchi yo‘nalishdagi asosiy e‘tibor omma kayfiyatini normal holatda ushlab turishga qaratiladi.

Rossiya davlatida jamiyatdagi omma kayfiyatining **ijobiy** yoki **salbiy** ekanligini aniqlash uchun bir qancha baholash mezonlari ishlab chiqilgan va kshbk orqali har bitta

hududagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga mamlakatning istalgan bir hududida omma kayfiyati darajalari aniqlab olish imkoniyati vujudga keladi.

Omna kayfiyatini baholash mezonlari.

1. Ishsizlik darajasi;
2. Kambag'allik darajasi;
3. Inflyatsiya miqdori;
4. Kommunal xizmatlar darajasi;
5. Norozilik namoyishlari soni;
6. Aholi qatlami o'rtasidagi farq (boy, o'rta, kambag'al);
7. Infrastruktura holati (ta'lim, sog'liqni saqlash, yo'l qurilish vaboshqa xizmatlar);
8. Turli millat vakillari o'rtasidagi nizoli holatlar mavjudligi;
9. Aholi huquqiy savodxonlik darajasi;
10. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga bo'lgan ishonch;
11. Jinoyatchilik ahvoli;
12. Yoshlar orasidagi ishsizlar soni;
13. Aholining o'rtacha oylik daromadi;
14. Aholi muammolari bilan ishlash tizimining yo'lga qo'yilganligi [5].

Ushbu baholash mezonlari har bir davlatda rivojlanish va taraqqiyotga erishish uchun doimiy ravishda davlat organlari tomonidan nazorat qilib boriladi, lekin aynan "Omna kayfiyatini" aniqlash uchun kompleks ravishda tahlil olib borish, kelgusida turli inqilobiy harakatlarni keltirib chiqarish ehtimoli nuqtai nazaridan tizimli ravishda ishlarni tashkil qilish jarayoni hamma davlatlarda ham yo'lga qo'yilmagan.

Rivojlangan davlatlarda har bir mezon asosida tegishli dasturlar qabul qilinib, davlat organlari bajaradigan vazifalari aniq belgilab berilgan.

Germaniya tajribasida ommaviy noroziliklarning oldini olish tizimining asosiy bo'g'ini vazifasini siyosatchilar va OAV vakillari amalga oshiradi.

Mamlakatdagi *siyosiy elita* va *jurnalistlar* jamiyat hayotining turli sohalaridagi muammolarni topib uni ochiq oydin jamoatchilik muhokamasi mavzusiga aylantiradi. Ular fuqarolar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yib, ularning ehtiyojlari va xavotirlari to'g'risida barcha ma'lumotlarni davlat organlariga yetkazish uchun ko'priklarni bo'lib xizmat qilishadi.

Bundan tashqari, ular fuqarolarning muhim qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ta'minlash uchun siyosiy huquqlarni kengaytirish tashabbusi bilan chiqishadi [7].

2. Joriy va qisqa muddatli yo'nalishdagi chora-tadbirlar, yuqorida ta'kidlanganidek ommaviy noroziliklar harakatlari real holatda vujudga kelgandan so'ng kuch ishlatish bilan uni bartaraf etish jarayoni nazarda tutiladi.

Xorijiy davlatlarda ommaviy noroziliklarni bartaraf etishga qaratilgan operatsiyalarda asosan jamoat tartibini saqlashga mas'ul bo'lgan politsiya va boshqa HMQ organlari o'zaro hamkorlikda ishtirok etishadi.

Jamoat tartibini saqlashda politsiyaning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi bo'linmalar bilan o'zaro hamkorlik davlat politsiya tizimlarining tuzilishiga bog'liq bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin. Bular fragmental, markazlashgan va integratsiyalashgan [1].

Fragmental model AQSh, Kanada va Shveysariya davlatlarida mavjud bo'lib, uning xarakterli xususiyati harbiy kuchlarning (quruqlik, dengiz va milliy gvardiya) jamoat tartibini himoya qilishda an'anaviy ishtirokidir. Masalan, AQSh milliy gvardiyasi armiya zaxirasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jangovar operatsiyalar vaqtida yo'qotishlarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Tinchlik davrida

gubernatorlar ixtiyorida bo'lib, ularning qarori bilan tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ommaviy noroziliklar va terrorizmga qarshi kurashish kabi boshqa bir qator vazifalarni bajarishi mumkin.

Politsiya tizimining **markazlashtirilgan (kontinental)** modeli Fransiya, Italiya, Tayvan, Singapur va boshqa davlatlarda qo'llaniladi.

Markazlashtirilgan model 2 turga bo'linadi.

Birinci guruhga ichki xavfsizlikni ta'minlashga qurolli kuchlarning maxsus politsiyasi bo'lmagan, faqat fuqarolik politsiyasi ega davlatlar kiradi: Shveysiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya va Irlandiya. Ikkinchi guruhga Qurolli Kuchlarning maxsus politsiya bo'linmalari – jandarmeriyalar bo'lgan Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Isroil, Turkiya va Xitoy davlatlari kiradi.

Bu mamlakatlar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ham milliy politsiya, ham jandarmeriya vositalardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Jandarmeriya bu-qurollanmagan tashkilot bo'lib, uning maqsadi xavfsizlik va qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

Politsiya tuzilmasining uchinchi **integratsiyalashgan (yaxlit)** modeliga kelsak, g'arb nazariyotchilari ko'pincha uni "o'rta markazlashtirilmagan tizim" deb bilishadi. Ushbu modelga ega bo'lgan davlatlar ro'yxatiga Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya va boshqalar kiradi.

Ushbu politsiya tizimining o'ziga xosligi shundaki, davlatdagi bir nechta bir-biridan mustaqil bo'lgan HMQ organlari bo'ladi va ular qachonki ommaviy noroziliklar real holatda yuz bergandan markazlashtirilgan tizimga o'tadi. Ichki ishlar vazirligi ushbu holatda muvofiqlashtiruvchi organ vazifasini bajaradi.

Yevropa davlatlarida ommaviy noroziliklarga qarshi kurashish yana bir o'ziga xos tizimi mintaqadagi 25 davlatni birlashtirib turuvchi Shimoliy Atlantika Shartnomasi tashkilotini doirasida yagona mexanizmning mavjudligi.

Hozirda ushbu tashkilotni a'zo davlatlardagi jamoat tartibini saqlovchi organlarining qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash, ularni maxsus vositalar bilan qurollantirish va yagona boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi organ sifatida ko'rish mumkin.

Jumladan, tashkilot tomonidan **CRC - Crowd and Riot Control** (*olomon va isyonni nazorat qilish*) konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu konsepsiya shartnoma ishtirokchilari uchun ommaviy noroziliklarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda maxsus qo'llanma vazifasini bajarmoqda. **Crowd and Riot Control** konsepsiyasi – ommaviy noroziliklarga qarshi kurashuvchi kuch va vositalar, maxsus reja topshiriqlar va boshqa chora-tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi hujjat [2].

Konsepsiyani asosan ma'lum bir hududda olomon tomonidan agressiv harakatlari boshlangandan keyin, maxsus kuchlarning uni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatiga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

"Crowd and Riot Control" konsepsiyasi bo'yicha tashkilot a'zolari quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim. Xususan,

birinchidan, Konsepsiyadan kelib chiqib ommaviy noroziliklar paytida maxsus kuchlarning harakat qilish dasturini ishlab chiqadi;

ikkinchidan, Ommaviy noroziliklarni bostiruvchi maxsus bo'limlarni tashkil qiladi;

uchinchidan, ularni ushbu konsepsiya qoidalari bo'yicha taktik vavoddiy-texnik jihatdan ta'minlaydi;

to'rtinchidan, NATO qoshida tashkil qilingan o'quv kurslarida maxsus bo'lim vakillarining ta'lim olishini ta'minlaydi hamda tegishli sertifikatlar olinadi.

Konsepsiyaning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, ommaviy noroziliklarni bartaraf etishda uni **nazorat qilishga** alohida e'tibor qaratilmoqda, shu orqali olomon harakatini **boshqarib** uning jiddiy tus olishidan avval to'xtatish imkoni yaratiladi

Fransiya tajribasida konsepsiyaga muvofiq maxsus dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unda milliy politiya kuchlarining quyidagi 7 bosqichdan iborat vazifalar belgilangan [7].

Razvedka va oldindan bilish – bunda olomon harakati haqidagi barcha ma'lumotlarni olomon taxminiy soni, uchinchi tomon aralashuvi, ushbu hududdagi infratuzilma ob'ektlari, olomonda mavjud qurol- aslahalar, olomon taxminiy harakat marshrutlari aniqlashni o'z ichiga oladi.

Modellashtirish va real vaziyatga baho berish – qarshi harakatlarni boshlash oldindan virtual vaziyatni yaratish, olomon va atrof muhitni modellashtirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon xavfsizlik kuchlarining tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Kuzatuv va aloqa vositalaridan foydalanish – dronlar va ko'cha kameralari orqali olomon harakatini kuzatish, aloqa vositalari orqali xavfsizlik kuchlari harakatlarni muvofiqlashtirib turish, shuningdek qo'mondonlikka vaziyat to'g'risida real vaqt rejimida axborot berib turish uchun qo'llaniladi.

Nazorat va boshqaruv markazi – maxsus axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan jihozlangan, ma'lum bir ob'ektda joylashgan boshqaruv punkti bo'lib, bu markazda olomon va xavfsizlik kuchlarining harakatlari to'liq nazorat qilinadi hamda monitoring qilib boriladi.

Xavfsizlik kuchlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlash – bunda xavfsizlik kuchlarining zarur vaziyatlarda olomonga nisbatan kuch ishlatish, zo'ravonliklar vaqtida o'zini himoya qilish, agressiya vaqtida mustaqil qarorlar qabul qilish kabi vakolatlarni qonun bilan tasdiqlashni nazarda tutadi.

Ta'lim, maslahat va yordam – bunda xavfsizlik kuchlarini muntazam ravishda olomoni nazorat qilish va boshqarish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish, tahdid va sharoitga qarab moslashishga o'rgatish, noroziliklarga qarshi qo'llaniladigan zamonaviy vositalardan foydalanish bo'yicha ta'lim berish faoliyati tushuniladi.

Xavfsizlik kuchlarini moddiy-texnik jihatdan qo'llab quvvatlash – jarayon xavfsizlik kuchlarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, moddiy ta'minlash, tibbiy xizmat

ko'rsatish, zamonaviy transport vositalari va maxsus qurol yarog'lar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xorijiy davlatlarda **jinoyat qonunchiligini takomillashtirish** yo'li bilan ham ommaviy noroziliklarga qarshi kurash bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va MDH davlatlar jinoyat kodekslarini qiyosiy tahlil qilinganda, Jinoyat kodeksining 217-moddasini (Miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish tartibini buzish) yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha o'zgartirishlar kiritish lozimligi ma'lum bo'ldi.

Hozirda xorij davlatlardagi ommaviy noroziliklar aksariyat hollarda tashqi kuchlarning ta'siri va moddiy ko'magi bilan tashkil qilinayotganligi, kelgusida bunday holatning bizda ham takrorlanish ehtimolini inobatga olsak, qonunchiligimizda javobgarlik chorasi nazarda tutilmagan.

Rossiya Federatsiyasi JKning 212-moddasini tahlil qilganda boshqa davlatlar jinoyat kodeksidan farqli ravishda shaxslarga ommaviy noroziliklarni tashkil yetish usullarini, qurol-yarog', portlovchi quurilmalardan foydalanishni, ob'ektlarni yashirin kuzatishni o'rgatish, yoki noroziliklarda ishtirok etish uchun jismoniy va psixologik tayyorgarlik bilan shug'ullantirish uchun ham tegishli choralar belgilangan.

Bundan tashqari, xorij davlatlari jinoyat qonunchiligidagi ommaviy noroziliklar bilan bog'liq moddalarning *sanksiya* qismida sub'ektlarning jinoyatda ishtirok qilish darajasidan kelib chiqib alohida tartib belgilangan, ya'ni tashkilotchilik, faol ishtirok etish, noroziliklarga chaqiruv va tayyorgarlikdan o'tish bo'yicha og'irdan yengilga qarab jazolar tayinlanadi, bu esa kelgusida aybdorga nisbatan sud tomonidan jazo tayinlashda sub'ektiv yondashuvni kamaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 217-moddasida esa jinoyatda ishtirok etish darajasidan kelib chiqib, alohida jazo tayinlash nazarda tutilmagan.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarda ommaviy norozilik namoyishlarini barvaqt oldini olishda avvalambor, mahalliy hokimiyat aholining ommaviy noroziligini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, aholining kayfiyatini doimiy o'rganish va aniqlangan kamchiliklarni tizimli bartaraf etish, shuningdek kutilmaganda kelib chiqadigan ommaviy noroziliklarni bartaraf etishda qonunchilikda noqonuniy ommaviy noroziliklar uchun javobgarlik choralarini qo'llash orqali, hududda siyosiy-ijtimoiy vaziyat barqarorligini ta'minlashga erishayotganliklarini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Жбанчик А.В. зарубежный опыт взаимодействия полиции Форум права. 2014.
2. Военное обозрение. 2018.
3. Зыков В.В. Профилактика массовых протестов. Москва. 2018.
4. Ольшанский Д.В. Психология масс электронная библиотека психологии и социологии. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Psihol/olshansk/09.php.
5. Старостин С.А. Управление органами внутренних дел при чрезвычайных ситуациях (правовые и организационные аспекты). М., БЕК. 2014.
6. Шнайдер Г. Массовые беспорядки глазами криминолога. – Москва.: 2014.
7. www.gicat.com CICAT French association of land and air-land Defence and Security industries «Crowd management».



Zikirillo YAZDONOV,
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilov taqrizi asosida

MARKAZIY OSIYODA SHAKLLANGAN DINIY-FALSAFIY TA'LIMOTLAR VA ULARNING TARIQAT G'OYALARIGA TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada o'rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida shakllangan diniy-falsafiy qarashlar o'zaro aloqadorlikda rivojlanib, insoniyat jamiyati ma'naviy muhitini barqarorlashtirishga, inson kamolotini ta'minlovchi ta'limotlarning takomillashuviga olib keldi. Turli tariqatlar, ta'limotlar o'z nufuzi hamda mavqeni saqlab qoldi. Maqolada hanafiya muhitida malomatiylik va qalandariylik tariqati bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Urf-odat, malomat, nafs, riyoz, kibr, ujb, so'fiy, tasavvuf, mutasavvif, irfon, ixlos, sidq, sabr, qanoat, nafs, tanbeh.

РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКИЕ ДОКТРИНЫ, ФОРМИРОВАННЫЕ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СЕКТОННЫЕ ИДЕИ

Аннотация

В данной статье религиозно-философские взгляды, сформировавшиеся в средние века в регионах Movarounnahr и Хорасан, развивались во взаимной связи и привели к стабилизации духовной среды человеческого общества и совершенствованию учений, обеспечивающих человеческое совершенство. Различные секты и учения сохранили свое влияние и позиции. В статье анализируются вопросы, связанные с маломатизмом и каландарианством в ханафитской среде.

Ключевые слова: Традиция, упрек, похоть, лицемерие, высокомерие, угб, суфий, мистика, мистика, гнозис, искренность, искренность, терпение, довольство, похоть, упрек.

RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL DOCTRINE FORMED IN CENTRAL ASIA AND THEIR INFLUENCE ON SECT IDEAS

Annotation

In this article, the religious-philosophical views formed in the Middle Ages in Movarounnahr and Khorasan regions developed in mutual connection and led to the stabilization of the spiritual environment of human society and the improvement of the doctrines that ensure human perfection. Various sects and teachings have maintained their influence and position. The article analyzes the issues related to Malomatism and Qalandarianism in the Hanafia environment.

Key words: Tradition, reproach, lust, hypocrisy, arrogance, ugb, Sufi, mysticism, mysticism, gnosis, sincerity, sincerity, patience, contentment, lust, rebuke.

Kirish. Markaziy Osiyoda o'z davrida ko'plab ta'limotlar, tariqatlar, oqimlarning shakllanishi va bu o'lkada xilma-xil qarashlar, turli an'ana, urf odatlarning muayyan xalqlarning madaniyati tarixi bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Eron va Turon zaminida paydo bo'lgan bunday harakatlar o'zaro aloqada bo'lib bir-birini to'ldirib ba'zan birini ikkinchisiga singib ketishiga sabab bo'lgan. Buning sababi ularning g'oyalari urf odatlari bir-biriga yaqinligi bo'lsa, ikkinchisi diniy e'tiqodning mushtarakligidan kelib chiqishini kuzatish mumkin. Shu ma'noda, malomatiylik va qalandariylik ham Markaziy Osiyoda o'ziga xos o'riga ega bo'lgan. O'lkada mavjud yoki keyingi shakllangan tariqatlarga ham ta'sirini o'tkazgan. Bu davrda shia va xavriylar Xurosonning o'rta mintaqalarida ham tarqalgan edi. Mo'tazilalar ushbu o'lkada islomdan ilgari mavjud bo'lgan qadimiy falsafiy ta'limotlarni o'ziga singdirgan holda hududga kirib keladilar va mintaqaning chekka o'lkalariga qadar yetib boradilar.

Shuningdek, yuqorida zikr qilingan islomiy mazhab va oqimlardan tashqari mintaqada yahudiylik, nasroniylik, moniy-lik, majusiylik, buddaviylik dini vakillari yonma-yon hayot kechirganlar. Umuman olganda bunday ko'p sonli turli firqa v oqimlar, harakatlarning har birining o'ziga xos ma'naviy-axloqiy tarbiya usullari va vositalari bo'lgan. Biroq,

ba'zilar taassub va jaholatga ergashib o'z mavqeni yo'qotgan. Malomatiylik va qalandariylik "nafs" chirkinliklar, xohishlari bilan ovora bo'lmasdan qalbni poklash, ixlos va sidq tufayli haqiqatga erishish g'oyalari bilan o'z mavqeyini saqlab turgan. Shu bilan tasavvufning markaziy muammolariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Tasavvufda o'ziga xos riyozat yo'lining xilma-xilligi uchun, ushbu yo'nalishda malomatiylar va qalandariylarning Alloh bilan yakka qolishga intilishlarining amaliyotdagi o'ziga xos in'ikosi sifatida ta'sirini ham saqlab qolgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarda ko'rsatilgan Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida ijtimoiy-ma'naviy, ma'rifiy hayotiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan hodisalarni keltirib o'tish mumkin. Shulardan biri, mintaq va umuman islom olamida katta ahamiyatga ega bo'lgan ahl al-hadis harakatidir. Ilk hijriy asrlarda paydo bo'lgan bu harakatning mohiyati hadislarni to'plab, ulardan sahihlarini tanlab olish jarayoni bilan bog'liq. Ushbu ulkan ilmiy jarayonning samarasi o'laroq, keyinchalik "sihoh sitta" nomi bilan mashhur bo'lgan olti ishonchli hadis to'plamlarining sohiblari Movarounnahr va Xuroson mintaqasidan chiqqan muhaddis olimlar hisoblanadi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, bu buyuk muhaddislar Imom al-Buxoriy (vaf.256/870 y.), Imom Muslim (vaf.261/874 y.), Imom Abu

Dovud (vaf.275/888 y.), Imom an-Naso'iy (vaf.303/915 y.), Imom Abu Iso at-Termiziy (vaf.279/892 y.), Imom Ibn Moja (vaf.273/886 y.) bo'lib hadis maktablarining asoschilaridirlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mintaqada ijtimoiy fikr shakllanishida muhim rol o'ynagan harakat kalom ilmi bilan bog'liq. Bu harakatni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisi – siyosat bilan bog'liq bo'lgan aqidaviy oqimlar va ikkinchisi – ahl ar-ray bilan bog'liq aqidaviy mazhablar. Birinchisiga misol sifatida ummaviylardan qochib, Xurosonda panoj topgan xorijiyarlarni ko'rsatish mumkin. Ular Hirot, Sijiston, Eron cho'llarida joylashib, faoliyatlari deyarli IX-X asrlargacha yetib kelgan. Bu bo'yicha Rasululloh dan rivoyat qilingan: “Xavorijlar ahl an-nor iltidir” [1]. Hadis sharhida ulamolalar fikriga ko'ra, xavorijlar bu dunyoda sa'yi harakatlari zalolatga yetaklagan qavmdir. Ular o'zlarini yaxshilik qilyapmiz deb hisoblaganlari bilan, ularning amallari halokatga olib boruvchidir hamda ular qiyomatda ibodatdagi jiddu-jahdlari vaznida ham ajrlarini olmaydigan qavmdir.

Tarixchilar Xurosonda mavjud bo'lgan to'rt toifa murjiylarni zikr etadilar [2] xavorij murjiylari, shia murjiylari, mu'tazil murjiylari, jabariy murjiylari [3]. Shia va xavorijlar Xurosonning o'rta mintaqalarida ham tarqalgan edi. Mu'tazilalar ushbu o'lkada islomdan ilgari mavjud bo'lgan qadimiy falsafiy ta'limotlarni o'ziga singdirgan holda hududga kirib keladilar va mintaqaning chekka o'lkalariga qadar yetib boradilar. Shuningdek, yuqorida zikr qilingan islomiy mazhab va oqimlardan tashqari mintaqada yahudiylik, nasroniylik, moniylik, majusiylik, buddaviylik dini vakillari yonma-yon hayot kechirganlar. Umuman olganda bunday ko'p sonli turli firqa v oqimlar, harakatlarning har birining o'ziga xos ma'naviy-axloqiy tarbiya usullari va vositalari bo'lgan. Biroq, ba'zilar taassub va jaholatga ergashib o'z mavqeyi yo'qotgan. Malomatiylikning g'oyalaridan biri “nafs” chirkinliklar, xohishlari bilan ovora bo'lmasdan qalbni poklash, ixlos va sidq tufayli haqiqatga erishish hisoblangan. Shunday bo'lsada, tasavvufning markaziy muammolariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Nafs insonning o'zligi “Men” ligidir. Bizning botinimizda bir idora etuvchi, jismimizni, moddiy borlig'imizni, hayot uchun zaruriy manfaatlarimizni qo'riqlash va qo'llash maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi ma'naviy bir borliq nafsdur” [4]. Junayd Bag'dodiy nafs haqida fikr bildirganda “Kufning asosi nafsning murudiga yurishidir. Negaki, Haqqa taslim bo'lishda nafsqa yaqin bo'lish yo'qdir. Agar undan yuz burmasa, u munkir bo'ladi, munkir esa begonadir [5] -deydi. Bu iqtibos nafs insonni Haqdan, ya'ni o'z asliyatidan begona qilib qo'yishiga ishoradir. Tariqat namoyandalari nafsqa qarshi kurashish yo'llarini ishlab chiqqanlar. Ular amaliyot va ba'zan nazariy masalalarni ham o'rganganlar o'z shogirdlariga og'zaki tarzda bo'lsada qoldirganlar.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, barcha so'fiylar va mutasavviflar nafs yomon illat ekanligiga muttafaq bo'lganlar va unga qarshi kurashishni maqsad qilganlar. Bu muammo Markaziy Osiyolik mutasavviflar va tariqatlar nazaridan chetda qolmagan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutasavvif Abu Bakr Kalobodiy ilmlar borasidagi qarashlarida inson nafs ofatlari ilmi, uning mohiyati, ma'rifatini, tamrinini, (ya'ni, mashaqqatini) uning xulqlari madaniyatini tushunadigan, dushmanning hiylalarini biladigan, dunyo fitnasidan boxabar bo'lmog'ini va fisqu-fasoddan ozod bo'lish yo'lini biladigan bo'lishi kerakligini aytadi [6]. Bu ilm ilmi hikmat, ya'ni nafs vojib (qilinishi lozim bo'lgan) amallarga (bajarishda barqaror) qoim bo'lsa, uning tabiati solih bo'ladi. Abdulxoliq G'ijduvoniyan “Ma'rifatning kamoli nimada?” deb so'rganlarida, u kishi quyidagicha javob bergan: “Ma'rifatning chegarasi nafsni boshqarish va buning tadbiri

halol narsalardangina bahramand bo'lmoqni odat qilmoqdur” [7], -deb javob bergan ekan.

Bahouddin Naqshband asos solgan sufiylik ta'limotining nazariy asoslaridan birini Xudo, dunyo va insonning o'zaro nisbati muammosi tashkil etadi. Bu bosh muammo talqinida sufiylarni ikki yo'nalish – teistik va panteistik yo'nalishlarga ajratish mumkin. Alloh hamma narsaning yaratuvchisi deb e'tirof etilgan, insondan tashqarida turgan, dunyo uzra yuksalgan va bilish mumkin emas deb e'lon qilingan bo'lsa, sufiylar ta'limoti monoteizm shakl-shamoyilini kasb etgan, dunyo va Xudo tushunchalari tenglashtirilgan taqdirda bunday ta'limot panteistik deb hisoblangan.

Xoja Bahouddin Naqshband – islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi. U milodiy 1318 yilning mart oyida Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Xalq orasida Bahouddin, Bahouddinjon, Xoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Balogardon, Xo'jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan ham mashhur. Xoja Bahouddin Naqshbandning asl ismi Muhammaddir. Manbalarda u kishining otasi ham bobosi ham Muhammad ismida bo'lgani qayd etiladi. Bahouddin Naqshbandning nasabi ota tarafdan Hazrat Aliga, ona tarafdan hazrat Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Xojalar avlodidan bo'lgani uchun uning nomi oldiga xoja so'zini ishlatish rasm bo'lgan. Yoshligida otasi bilan birga kimbogga naqsh solish hunari bilan mashg'ul bo'lgani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo'lgan. O'sha davrda matolarga naqsh ishlagan, naqsh solingan ko'ylaklar yoki naqshli gilamlar to'qigan kasb egalari naqshband deyilgan. Bahouddin so'zi “Dinning nuri” degan ma'noni anglatadi. Bu Xoja Naqshbandga keyinchalik berilgan faxrli unvon. Bahouddin Naqshband umri davomida bir necha pirning tarbiyasini olgan. Birinchi piri – Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keka shayx bu yosh muridini tarbiyalashni o'rinbosarlaridan bo'lmish Amir Sayyid Kulolga topshiradi. U tariqat bobida bilganlarini o'rgatib bo'lganidan keyin shogirdiga ijizat beradi. Bahouddin ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo'lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab, ya'ni hozirgi Qarshiga boradi. Uch oy undan ta'lim oladi. Bahouddinning bu pirga ixlosi baland bo'lgan, ayni chog'da Qusam shayx ham uni o'z o'g'lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi. Manbalarning dalolat berishicha, u Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyan (1103–1179)dan ruhiy tarbiya olgan. Bahouddin Naqshbandning umri asosan Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda o'tgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlamagan. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniyan va Abdulxoliq G'ijduvoniyan nazariyalariga asoslangan. Ta'limoti asosida: “Dil – ba yor-u, dast – ba kor” (“Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin”), – degan shior yotadi. Tasavvufdagi har qanday tariqat kabi, xojagon-naqshbandiya tariqati ham o'z g'oyalari, tartib-qoidalari, odoblari va qat'iyatlarini shakllantirishda juda qadim rishtalardan suv ichgan. Ammo tariqatning butun mohiyatini uning bosh shiori bo'lmish: “Dil – ba yor-u, dast – ba kor” hikmati hamda yana o'n bir qoida belgilab beradi. Bu qoidalar “rashhalar”, ya'ni “tomchilar” deb yuritilgan. Rashhalar Yusuf Hamadoniyan, Abdulxoliq G'ijduvoniyan va Bahouddin Naqshband tarafidan asoslangan

Bahouddin Naqshband hayotning mazmunini Haqqa (Allohga) erishishga intilishda ko'rgan va Haqqa (Allohga) erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim – tariqat jarayonida yuz beradi, deb hisoblagan. U shariat Qur'oni karim va hadislarni

bilishdan kelib chiquvchi diniy qonun-qoidalar to'plami ekanligidan kelib chiqqan. Tariqat odam haqiqatga erishish uchun qaysi bosqichlardan o'tishi, Allohni anglash va u bilan birikish uchun qanday to'siqlarni yengishi lozimligini belgilaydi. Bunda bilish jarayonida shariatdan tariqatga o'tish darhol yuz bermaydi. Faqat shariatni o'zlashtirish va uning talablarini bajarish orqali Haqiqat yo'lidan jadalroq va samaraliroq borish mumkin. Malomatiylikning "Riyo" dan saqlanish yo'lidagi harakatlari naqshbandiyada o'ziga xoslikning namoyon bo'lishida ko'rinadi. Naqshbandiyaning har qanday o'ta parhyezkorlik, go'shanishinlik, uzlat, tarkidunyochilikka qarshi ta'limoti malomatiylikdan o'zlashtirilgan g'oyalarning in'ikosi sifatida ko'zga tashlanadi. Chunki, naqshbandiya tariqatida ham ko'proq qalb pokligi, qalbning inson ma'naviy markazi ekanligiga urg'u berilib, uni poklash orqali nafsoniy istaklarni mahv etishga erishish mumkinligiga erishganlar.

Xulosa. Ta'kidlab o'tish zarurki shu yo'nalishda inson bilishning har bir bosqichi (mistik yo'l manzillari)dan oldinma-ketin o'tib o'z maqsadiga yaqinlashadi. Sufiylik nazariyasi va amaliyoti ongning tashqidan ichkiga, ochiqdan yashiringa sayohatini nazarda tutadi. Bahouddin Naqshband tariqat ezoterik (yashirin, mistik) fan, u hammaga ochiq emas, uni faqat o'zini Haqqa baxshida etgan odamlar anglab yetishi mumkin, deb hisoblagan.

Sufiylikning zamirida "Man arafa nafsahu va qad arafa Robbahu" tamoyili yotadi. O'zini o'zi bilish orqali Allohni bilish maqsadga erishishning eng qisqa yo'lidir.

Malomatiylikning ham aslida mohiyatida ushbu hadisning mazmuni mujassam. Xojagon-naqshbandiya tamoyillari qotib qolgan qarashlardan iborat emas. Uning ushbu rashhalari, tartib tamoyillari yuqorida keltirganimizdek, turli davr va turli ta'limotlarning ta'siri natijasida yanada takomillashib borgan.

ADABIYOTLAR

1. Ushbu hadisni Hokim "Mustadrak" asarida keltirgan, az-Zahabiy uni "sahih" degan, Ibn Moja ham bu hadisni rivoyat qilgan.
2. IX asr o'rtalari X asr boshlarida yashagan mashhur shia teologi an-Navbaxtiy "Firaq ash-shi'a" asarida murji'iyalarni to'rt guruhga bo'lib, ulardan birini kelib chiqishi termizlik Jahm b. Safvonga nisbat berilgan "jahmiyya murji'iyalari" deb ataydi. Al-Hasan an-Navbaxti. Firaq ash-shi'a. – B. 116.
3. Komil Avayza. Al-Hakim at-Termiziy al-faqih an-noqid. – B. 33-50.
4. Jo'shon. M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – T.: Cho'lpon, 1998. – B.13.
5. Ali ibn Usman al-Xudjviri. "Raskritye skrytogo za zavesy".Stareyshiy traktat po sufizmu //Perevod s angliyskogo A.Orlova. - Moskva: "Yedinstvo", 2004. – S. 199.
6. B.Namozov. Abu Bakr Kalobodiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari. –Toshkent: "Fan", 2011. - B.42.
7. Sharipova O. Abduxoliq G'ijduvoni. –Buxoro: Buxoro, 2020.- B. 13.